TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

OTAJON TOG‘ON

97



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

OTAJON TOG‘ON





“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.164-3
KBK 84(5Tur)
O-86

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Bahodir Karim, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Muhiddin Rahim

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8721-4-1
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

QISMAT SHAMOLI

Tarixiy voqealarga asoslangan "Begona" romanida bundan 150 yil avval turkmanlar qo'liga asir tushgan fransuz kaprali Gulibef de Blokvilning g'aroyib dramatik qismati haqida hikoya qilinadi.

Otajon Tog'onning ushbu romani aniq tarixiy hujjatlar asosida yaratilgan. Blokvil qismat shamoli tufayli turkman tuprog'iga qadam qo'ygan ilk fransuz hisoblanadi. Bu haqda u "Turkman diyoridagi o'n to'rt oy asirlik" nomli dahshatli voqealarga boy kundaligini bitadi. Turkman qishlog'ining pastqam joyidagi qorong'i kulbada o'tkazilgan 420 kun qo'rqinchli tush kabi uning xotirasidan mangu o'rin oladi.

Ijodiy izlanishlarda omad Otajon Tog'onga kulib boqdi. U 1989-yil Parijda bo'lganida, tasodifan Blokvilning hayot bo'lgan yakka-yolg'iz qarindoshi bilan uchrashib qoldi. Ko'p millionli Parijning 16-kvartalida yashayotgan 80 yashar Jak Blokvilning uyida kapral qarindoshining o'tgan asrda birinchi marta fransuz tilida chop qilingan kundaligining bir nusxasi saqlangan ekan. Diplomatiya sohasida ishlab nafaqaga chiqqan Jak Blokvil qarindoshi Gulibef Blokvilning hayotiga tegishli, hatto, shu vaqtgacha tarixchilarga ham noma'lum bo'lgan qator voqealarni, ashyoviy dalillarni turkman yozuvchisiga aytib beradi. Natijada fransuz kapralining qismati borasida turkman tilidagi tarixiy romanning ilk nusxasi yuzaga keladi.

... 1860-yilda Eron davlati turkmanlarning sevimli shahri Marvni bosib olishga tayyorgarlik ishlarini olib boradi. Eron qo'shini navkarlari bilan turkmanlar diyoriga borishga hukumat tomonidan maxsus chaqirilgan oliy bilimli fransuz Blokvil Marv atrofidagi sug'oriladigan yerlarning xaritasini tuzishi lozim edi. Marv tuprog'iga qadam bosishdan oldin barcha yevropaliklar singari u ham o'z xavfsizligini oldindan ta'minlashga harakat qiladi, ya'ni, mabodo turkmanlar qo'liga asir tushgudek bo'lsa, ular-

ning qo'lidan sotib olinishi to'g'risida Eron shohi Nasriddinning rasmiy muhri bilan tasdiqlangan shartnomani tuzadi. Eronliklar bu urushda yengiladi. Blokvil asir tushib, zindonga tashlanadi. Biroq shoh Nasriddin bergan so'zidan tonib, uni sotib olishdan bosh tortadi. Asirlikdan qutulish yo'lida joni halak Blokvilning ham, qimmatbaho asir evaziga ulkan to'lov olish umidida xomtama bo'lgan turkmanlarning ham Eron podsholigiga yuborgan xabarlari hech qanday samara bermaydi. Ilmli fransuzni Eron tarafidan pul to'lab ozod qilishni hech kim istamaydi. Yuz bergan vijdonsizlik natijasida ayanchli tutqunlikning muddati cho'zilaveradi. Shunday qilib, Blokvil o'zlariniki uchun ham, yotlar uchun ham begona bo'lib qoladi. Turkmanlar uchun esa u, tabiiyki, bosqinchi dushman edi.

Yigirma sakkiz yashar kapral umrining 14 oyini Marvning Qo'ng'ir qishlog'ida asirlikda o'tkazishga majbur bo'ladi. Bu yerda u qismatning nihoyatda og'ir sinovlariga, haqorat-u kamsitishlariga duch keladi.

Blokvilning qiyinchiliklar bilan o'tkazayotgan umrguzaronligiga yana bir kutilmagan xavf tahdid solayotgandi. Uning xo'jayini Egamurodning fors tilini bilgani uchun fransuz bilan turkmanlar o'rtasida tilmochlik qilib yurgan jiyani Oqmorol og'iroyoq bo'lib qoladi. Blokvil bilan Oqmorol o'rtasida boshqacharoq munosabat bor bo'lsa kerak, deb yurgan xo'jayin turkman qizining nomusiga tekkani, islom shariati qonunlarini buzgani uchun bandini o'ldirmoqchi bo'ladi. Biroq yomonlik bilan yaxshilik yonma-yon yashaydi deganlaridek, asirdan o'ch olinishiga sanoqli daqiqalar qolganida dunyoga kelajak go'dakning homiylari paydo bo'lishi va ularning mardligi Blokvilni o'limdan olib qoladi.

Shu tariqa, Parijning asilzoda yigiti Marvdagi turkmanlar orasida eng bilimdon va ilmli kishiga aylanadi. Ayniqsa, chorvador turkmanlar unga barcha narsani biladigan qudratli odam sifatida munosabatda bo'lishadi. Asir fransuz o'zi istamagan holda bemorlarga najot eltuvchi duogo'y mullaga, og'ir kasallarga shifo beruvchi tabibga aylanib qoladi. Uzoq-uzoq turkman qishloqlaridan duotalab xastalar uning yoniga najot istab kela boshlaydi. Ayniqsa, norasida go'daklar, yosh bolalarga u nihoyatda yoqib qoladi. Blokvil o'z harakatlari bilan katta va kichikning tilini

baravar topishga muvaffaq bo'ladi. U erinmasdan turkmanlarning tilini, urf-odatlarini sinchkovlik bilan o'rganadi. Blokvil turkmanlarga qanchalik sidqidildan xizmat qilmasin, biron kimsa uni bandilikdan ozod etishni xayoliga ham keltirmaydi. Qaytanga, ayrimlar uni asir bo'lgan uydan o'g'irlab, boshqa bir boyga qimmatroq pulga sotish harakatiga tushib qoladilar. Asir fransuzning ot o'g'irlab, Afg'onistonga qochish orzusi ham amalga oshmaydi. Uning xo'jayini nihoyatda hushyor, fransuz uning o'tkir nigohidan hech qayerda va hech qachon qochib qutulolmaydi.

Shunday qilib, turkmanlarning farang mullasi o'zinikilar uchun ham, yotlar uchun ham begonaligicha qoladi. Ammo u ezgu umidlardan voz kechmadi. Hatto, u insoniylik darajasini saqlashning eng qiyin holatlarida ham inson degan nomni baland tutdi. Odamgarchilikni hech vaqt esdan chiqarmaydi. U o'z umrining, chorvador turkmanlar hayotining ma'nosini chuqurroq anglashga intiladi. Ojizlarga hamisha yordamga shay turadi. Tevarak-atrofidagi sharoitni o'rganadi. O'zga xalqning hayot tarzi va asriy ma'naviy qadriyatlariga ko'rsatgan ehtiromi tufayli Blokvil begonalar qalbida ham, dushmanlarda ham odamiylik munosabatlari va insof-diyonat tuyg'ularining uyg'onmog'iga turtki topa oldi...

Muzaffar Ahmad,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

BEGONA

(Roman)

Qojorlar sulolasi hukm surgan davrda bo'lib o'tgan barcha voqealarning ichida eng fojialisi — Marv jangidir.

Said Muhammad Ali al-Husayniy

1

Nimqorong'i zindonning eshigi g'ijirlab chala ochildi-da, qora jundor qo'l kichkina yog'och tovoqni ichkariga surdi. Eshik yana g'ijirlab yopilib-ochilganda, yog'och tovoq yonida endi kaftdakkina zog'ora non bilan bir bosh piyoz paydo bo'ldi. Bular asirning tushlik ovqati edi.

Har safar tovoq keltirilib qo'yilishi bilan burchak-burchakda yotgan qovoqlar orqasida uya qurgan sichqonlarning chiy-chiyi boshlanadi. Zindonda yotgan asir bu chiyillashlarning ovqat hidi bilan bog'liqligini yaxshi biladi. Xuddi shu lahzalarda zindon sohibining ahvoli tuzukroq bo'lsa, u oyog'ini sal qimirlatadi. Oyog'idagi kunda esa bu paytda yoqimsiz bo'g'iq qisirlaydi va shu ondayoq sichqonlarning chiy-chiyi ham tappa o'chadi.

Jonivorlarning chiyillashlari bu gal ham kuchaya boshladi. Biroq zindonning bir burchagida ot ustiga yopiladigan juldur yopqichni ikki qavatlab, oyoqlarini bir-biriga yoqar-yoqmas chalishtirib o'tirgan asir ancha vaqt sichqonlarga e'tibor bermadi. So'ng u tizzasi ustidagi katta daftarni yon tomonga tashladi-da, eshik tirqishidan tushgan yorug'roq joyda turgan tovoqqa nazar soldi va xo'rligi kelib ingrab yubordi: Janob kapral! Janob kapral! — dedi o'ziga o'zi, — munaqa yuvindini sen itinggayam bermasding-a....

Rostdan ham u bunaqa ovqatni o'zining ov tozisigayam ravo ko'rmasdi. Axir o'zi emasmidi, oppoqligi ko'zni qamashtiradigan ko'ylaklar kiyib, Parijning eng qimmatbaho restoranlarida ovqatlanib yurgan odam! Bugun esa shu odam oqsuyaklikdan bandiga

aylanib, it ham yemaydigan yuvindini sabrsizlik bilan kutib o'tirsa-ya?! Mana, zindonga keltirib tashlaganlarigayam bir oy bo'lib qolsa-da, nuqul yeydigan-ichadigani o'sha yovg'on-u, bir parcha zog'ora non. Asir bu ovqatning nomini ham bilib oldi. Uni unoshi deyisharkan. Ajabo, hamma og'abek deb parvona bo'ladigan asosiy xo'jayin Egamurod qo'ng'irning oilasi shundan boshqa ovqat yeydimi-yo'qmi?! Manavi daftariga surat chizishdan yoki xotira yozuvlarini qoralashdan zerikkan paytlarida asirning eshik tirqishidan tashqariga nazar tashlashdan boshqa yumushi ham yo'q. Tashqarida esa bir-biriga yaqin qilib tiklangan o'tov, loydan qurilgan bitta ulkan o'choq ko'zga tashlanadi. Shu o'choqni bosib yotgan qora qozonda nima pishsa, uch o'tovga ham, asir yotgan somon kulba — zindonga ham o'sha ovqatdan kiritadilar.

Marvning shimolidagi Qo'ng'ir qishlog'ida joylashgan zindondagi bu asirning nomi Jorj Blokvil. Ism-sharifini to'liq bilishni istaysizmi, unda eslab qoling: Jorj Anri Gulibef de Blokvil, Fransiya fuqarosi. U Marvga bostirib kelgan Eron qo'shinlari safida edi, mana, asir tushib bir oydan beri shu qasrda oyog'ini cho'zib yotibdi.

O'zining-ku qojorga, turkmanga o'xshagan yeri yo'q, kumushrang sochlari yelkasigacha o'sib tushgan, shuning uchun bo'lsa kerak, turkmanlar qo'liga tushgan bu asir haqidagi gaplar ovuldagi katta-yu kichik orasida tarqalgandi. Qo'ng'irning uyida farang bandi bor, degan gap og'izdan og'izga o'tib, mana, endilikda Blokvil degan nom unutildi-da, farang asir degan laqabga ega bo'ldi-qoldi.

Nafaqat laqabi, balki qarindoshlarining boy odamlar ekanligi ham aytildi. Bu xabar og'izdan og'izga o'tib, turkmanlar orasida keng tarqaldi. Uni asirlikdan qutqarish uchun qarindoshlari mingta qulning bahosini to'lashga ham rozi emishlar! — deyishardi ko'p odamlar og'izlaridan suvi oqib. Shuning uchun bo'lsa kerak, Egamurod qo'ng'ir o'zining chekiga tushgan bu asirga noyob xazina kabi qaraydi, asirni qarindoshlariga sotib, boyib olishni orzu qiladi. Blokvilning oyog'iga urilgan kundaning kalitini ham mudom yonida olib yuradi. Kunda, hatto, Blokvil yozilish uchun hojatxonaga borganida ham yechilmaydi.

Blokvil 1860-yilning 3-oktabrida Saidnosir qabristoni yonidagi bog‘da qo‘lga tushgan edi. Qachon, qayerda, kim qo‘lga tushirganini u sira unutmaydi. Qo‘lga tushib, u turkmanlar tomonidan urkaltak-surkaltak qilinmagan bo‘lsa-da, shundan buyog‘iga kun hisobini yo‘qotib qo‘ydi. Kuni nimasi, sal bo‘lmasa oy hisobini yo‘qotar holga kelib qoldi. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, Blokvil 12-noyabrda 28 yoshni to‘ldirishi kerak edi. Xo‘-o‘-p, bugun nechanchi sana? Noyabrning to‘qqizimi, o‘nimi? Balki aynan shu bugun o‘n ikkinchi noyabrdir? Shu bugun u yigirma sakkiz yoshga chiqqandir-u, o‘zi tug‘ilgan kunidan o‘zi bexabar o‘tirgandir? Tug‘ilgan kun emish-a, tug‘ilgan kun?! Tug‘ilgan bo‘lsa nima, shu kunni manavi unoshi va piyozni yeb nishonlaydimi? Undan ko‘ra, o‘tgan yilgi tug‘ilgan kun ziyofatini yodlab o‘tirgani ming bora afzal emasmi? O, Sena daryosining sohili... Qirg‘oqqa taqab qurilgan go‘zal restoran...

Blokvilning do‘st-yoronlari, ketvorgan jononlar to‘planishgan edi, o‘sha damda. Yo‘q, yaxshisi esga olmagani tuzuk. Yigirma yetti yoshini jononlarning sho‘x kulgilari, gulgun qadahlardagi sharob yog‘dulari ila nishonlagan bo‘lsa, yigirma sakkiz yoshini... Manavi beso‘naqay kundaning yoqimsiz shiqirlashi-yu, sichqonlarning chiyillashlari ostida nishonlamoqda. Ustiga ustak, janob kapralning hali yigirma to‘qqizinchi yoshiga yetib borish-bormasligi gumon bo‘lib turibdi. Boshiga har xil ko‘rgiliklar tushishi mumkin. Blokvilni Egamurod qo‘ng‘irdan o‘g‘irlab ketib, mo‘maygina pulga sotib yuborishni o‘ylab yurganlar qancha! Bu ahvolda shu kuninggayam shukur qilib o‘tiraverganing ma’qul, shekilli.

...Kapral tovoqdagi unoshini xo‘rillatib ichdi-yu, yuzini burishtirib, xuddi qurib qolganday qapishib yotgan yelkalarini qoqib qo‘ydi. So‘ng yonidagi g‘adir-budur yog‘och ustunga suyanib, uch-to‘rt marotaba yelkasini surkab qashingan bo‘ldi. O‘ziyam qat-qat kirlab ketgan shekilli, kiyimlari orasida uyqudan uyg‘ongan bitlarmi, sirkalarmi g‘imir-g‘imir harakatga tushdi. So‘nggi marta qachon to‘shini yalang‘ochlab yuvindi ekan? Bug‘ ko‘tarilib turgan hovurli Yevropa hammomlari qayerlarda qoldi? Bu bechora kapral o‘sha qaynoq suvlarga yana qayta yetisha oladimi-yo‘qmi?! Yo mana shu bitlar, sirkalarga yem bo‘lib, yot o‘lkalardagi qaynab yotgan qumlar orasida jon beradimi?!

2

Shoh Iroq, Ozarbayjon, Eron va Xuroson viloyatlaridagi qojorlar urug'idan va boshqa elatlardan 25 ming sarboz, 10 ming ot-eshak, 2 ming hunarmand va savdogarlarni yig'ing deb farmon berdi.

Muhammadrizo Ogahiy

1860-yilning 14-iyun kuni yuziga haybatli sher shakli zarrin iplar bilan to'qilgan bayroqlarini hilpiratgan Eron qo'shini Saraxs vohasidagi Tajan daryosini kechib o'tdi.

Yaltiroq bezaklar, oltin-kumushlar ila bezatilgan oq ot ustidagi shahzoda Hamza Mirza Xishmat Davlaning yuzi vajohatli edi. Shunday bo'lsa-da, xiyol jilmayib, yonidagi otliqqa yuzlanib gap otdi:

— Janob Blokvil, siz bugungi sanani yodda tuting...

— Men ham xuddi shu haqda o'ylab turgandim, janob... — Blokvil shunday dedi-yu, shahzodaning gapini ma'qullab bosh silkib qo'ydi. — Bugungi sana ming sakkiz yuz oltmishinchi yil iyun oyining o'n to'rtinchi kuni!

— Bu sizning hisobingizcha shunday. Bizning hijriy hisobimizda esa ming ikki yuz yetmish yettinchi yil bo'ladi. Farqi nima? Baribir, siz bu tuproqqa qadam qo'ygan birinchi yevropaliksiz. Shunday emasmi?

— Birinchi yevropalikmanmi-yo'qmi, buni bilmadim-u, ammo birinchi fransuz ekanligim aniq!

Hamza Mirza boshqa so'z demadi. O'zini bu tuproqqa oyoq bosayotgan birinchi fransuz deb bilgan Blokvil esa ot ustida gavdasini sal tiklab oldi. U turkman tuprog'ida tez orada ro'y beradigan janglar tarixining asl sabablari bilan unchalik qiziqmasa-da, ancha-muncha gaplardan xabardor edi. Mashhad etagidagi Yoqutqal'adan ko'p sonli lashkar bo'lib chiqqanlaridan buyon o'tgan bir oy vaqt mobaynida ikki odamning boshi bir joyda qovushsa, Marv yurishi haqida gap ketardi, ya'ni Xuroson va butun Eronning turkman zaminiga munosabati haqida bahs ochilardi. To'g'ri, Blokvil bu siyosatdagi turli voqealar haqida hech qachon

xurosonlik katxudolar bilan ochiq munozaraga kirishgan emas, zero, bu borada uning o‘z qarashlari bor. Yana ham to‘g‘rirog‘i, u begona bir yurtning farzandi bo‘lganligi sababli ham bahslashayotganlar to‘dasiga to‘g‘ri bo‘lsa, to‘g‘ri deb, noto‘g‘ri bo‘lsa, noto‘g‘ri deb aytishni xohlardi. Masalan, Marvga yurish boshlash arafasida Eronning qilgan hiylalari siyosiy nomardlik ekanini u yaxshi anglab yetdi. Xuroson sartib-gubernatori bilan Sulton Murod Mirza Eron hukumati nomidan sakson nafar obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan turkman oqsoqollarini maslahat bahonasi bilan Mashhadga chaqirib, barchasini zindonga tashlashi, albatta, siyosiy hiylagina emas, balki turkmanlar oldidagi ularning ojizligi edi. Marvga hujum qilish oldidan mo‘tabar oqsoqollarni asir olish bilan eroniylar, turkmanlarni boshsiz-yetakchisiz qoldirdik, deb o‘ylashmoqda. Eroniylarning o‘ylashlaricha, aqlli-farosatli oqsoqollardan mahrum qilingan elatni yengish va tiz cho‘ktirish oson amalga oshadigan ish-da...

Eron qo‘shinlarining turkmanlar diyoriga bostirib kirishidagi asosiy bahona olomonchilik (boy o‘lja olish uchun o‘zga yurtlarga qilinadigan bosqin) bilan bog‘liq edi. Blokvil ushbu bahonani ham ikki nafar teng kuchli da’vogarning o‘zaro kelishmovchiligi deb hisoblaydi. Eron tomonining da’vosicha, turkmanlarning, xususan, taka turkmanlarning Xuroson shimolidagi viloyatlarga tez-tez bosqin uyushtirib turganliklari ushbu yurishga sabab bo‘ldi. Bu aslida asossiz emasdi. Turkmanlar bosqinga chiqib, Xurosonning qishlog‘-u tumanlarini talardilar. Xuddi shuningdek, eronliklar, xususan, xurosonliklar ham turkmanlar singari Saraxs, Marv, Axalga bosqin uyushtirib, qishloqlarni talab ketishardi. Biroq Eron siyosatining orqa tomonida boshqa bir asosiy maqsad yashiringan edi. U ham bo‘lsa— eronliklar bosqin bahonasida Murg‘ob daryosi bo‘yidagi turkmanlarni uzil-kesil tobe qilish yoki ularni Balx, Xiva, Buxoro tomonlarga ketishga majbur etishdan iborat.

Bu bilan ular o‘zlarining qadim yerlari hisoblangan Marv zaminini Eron hisobiga osongina qo‘shib olmoqchi edilar.

Ammo yuzaga kelgan sharoitga diqqat qilinsa, bosqinchilik bahonasi yirik davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ishni amalga oshirish uchun boshlashga bir sabab bo‘ldi, xolos. 1860-yillarga qadar

Eronning Kavkazdagi mulki bo‘lgan o‘n yettita shaharning, Hirot, Afg‘oniston, Belujistondagi hadsiz-chegarasiz zaminning qo‘ldan ketishi Nasriddinshohga tinchlik bermasdi. U har qanday arzimas sababni bahona qilib, qo‘ldan chiqib ketgan boyliklarning o‘rnini to‘ldirishni o‘ylardi. Kavkaz yoki Sharqqa yurish qilsa, oyog‘i urib sindirilishini bilgan shoh maqsadini oson yo‘l bilan — pushti-panohi-yu homiysi yo‘q ojiz o‘lka bo‘lgan Marvni bosib olish bilan amalga oshirmoqchi edi. Ilk hamlada Marv olinsa, Ko‘ktepa, keyin butun Axal vohasini qo‘lga olish yengil ko‘chardi. Bugungi bosqinchilik hiylasining ertangi foydasi ana shunday orzular bilan bog‘liq...

Jorj Blokvil bu siyosatni yaxshi bilardi. Eron qo‘lga kiritishni niyat qilgan joylarga jahonning eng kuchli davlatlari hisoblangan Rossiya ham, Angliya ham ko‘z tikkan edi.

Mashhaddan chiqqanlaridan buyon eronliklar har qancha ta’kidlamasinlar, Blokvil turkman tuprog‘ida qon to‘kilmasligiga ishonmaydi. O‘zi ham harbiy kishi bo‘lganligi uchun eronliklar o‘ttiz uch to‘p bilan muncha qurol-aslahani olib sahro sayliga chiqmagandir deb o‘ylardi. Shu sababli Blokvil bu bosqin o‘zi uchun noxush yakunlanishi ham mumkin deb xavfsirardi. U bu xavfning nima bilan bog‘liq bo‘lishini ko‘z oldiga keltira olma-sa-da, dilni xira qiladigan fursatning yaqinlashayotganini ichki bir tuyg‘u bilan sezayotgan edi. Nachora, u bu zamin uchun butunlay yot odam edi. Forslar bilan qiyoslaganda ham kapral bu tuproq-dan juda uzoq-uzoqlarda unib-o‘sgan. Shuning uchun bu zaminni quruq buta-yu yantoq qoplab yotgan bo‘lsa-da, keng za’faron sahroning istagan pastqam joyida nogahon xavf ilk bor eronlik-ning emas, faranglikning oyog‘idan olishi mumkin degan fikr uning miyasidan ketmasdi.

Xullas, noma’lum xavfning ro‘y berishi tasodif bo‘lishi ham mumkin. Biroq Blokvilning turkman zaminiga oyoq bosishining o‘zi tasodif edi. U Parijdan Tehronga kelgach, xizmat qilishga niyat qilgandi. Ammo harbiy yo‘nalishdagi o‘rinlarning barchasi band bo‘lgach, u yana Parijga qaytishni ma’qul bildi. Tehrondan jo‘nashga hozirlik ko‘rib yurganida, 1860-yilning mart oyi oxir-larida, Eron shohi Nasriddin o‘z vakili orqali unga kutilmagan

xabarni yetkazdi. Blokvilga turkmanlar diyoriga otlangan qo'shin bilan Marvga borish taklif qilindi.

Blokvil qadimiy Marv haqida, Buxoro, Xiva, Samarqand to'g'risida ko'p ma'lumotlarni o'qib, ko'p narsalarni bilib olgandi. U Sharqni o'z ko'zi bilan ko'rishni oldindan havas qilib yurardi. Shu sababli shoh Nasriddin taklifini darhol qabul qildi.

Eron rahbarlariga ham ayni Blokvil singari harbiy savodli mutaxassis zarur edi. U Eron qo'shini bilan Marvga borib, shoh Nasriddinning alohida topshirig'ini, eronliklarning qo'lidan kelmaydigan zarur yumushlarni bajarishi, Marv zaminining alohida muhim joylarini, ariq-kanallarning, sug'orish inshootlarining joylashuvini xaritada aks ettirishi, zarur o'rinlarda surat qilib chizishi lozim edi.

Topografiya bo'yicha bilimdon hisoblangan Blokvilning yonida Parijdan keltirilgan va xarita chizishda ishlatiladigan zarur asbob-uskunalari, suratga oladigan apparatlar bor edi. Shuning o'ziyoq uning Marv yurishiga taklif etilishiga sabab bo'ldi.

Jorj Blokvil bu asosiy topshiriqdan tashqari, harbiy ekspeditsiyada muxbirlik vazifasini ham bajarishi lozim topildi. Harbiy yurish yangiliklarini Yevropaga yetkazib turish unga yuklatildi. Bu narsalar savodli ofitserning osongina qilishi mumkin bo'lgan oddiy ishi edi. Qolaversa, qojor qo'shinlarining harakati eronliklarning emas, balki yevropalik begona shaxsning so'zi bilan dunyoga tarqatilsa, yolg'on ham chin so'zga aylanishi turgan gap.

Shohning taklifini qabul qilgan Blokvil o'z jonining ham xavfsizligini o'ylaydigan hushyor yevropalik ekanligini eslatib, shunday dedi:

— Agar meni turkmanlar asirga olishsa, ozod bo'lishimning kafolatini bera olasizmi?

Marvga ketish shartlarini kelishish uchun yuborilgan shoh vakili burnini jiyirdi.

— Sizni nihoyatda farosatli, bilimli odam deyishgandi, janob...

— Men sizga aql-farosat to'g'risida savol berayotganim yo'q. Savolimni tushunmagan bo'lsangiz, uni takrorlashim mumkin.

— Savolni takrorlashga hojat yo'q. Hech kimning asir tushmasligiga, bironta navkarning burni qonamasligiga mening o'zim

kafil bo‘lishim mumkin. Marvga yigirma ikki ming sarboz bilan o‘ttiz uch to‘p jo‘natilyapti-ku, axir, janob...

— Men to‘p ovozini kafolatnoma deb qabul qila olmayman. U quruq bir tovush...

Tajan daryosidan o‘tilgandan so‘ng ham shoh vakili bilan oralarida bo‘lib o‘tgan suhbatni Blokvil eslab, nima bo‘lganda ham Fransiya davlatining Tehrondagi elchixonasi rasmiy daftariga qayd qildirib, Eron davlati muhri bosilgan hukumat kafolatnomasini olganini yana bir bor o‘zicha ma’qullab qo‘ydi.

Blokvil folga ham, tushda ko‘rgan hodisalarga ham mutlaqo ishonmasdi. Biroq Nasriddin shohning vakili bilan uchrashgandan so‘ng, huv birda ko‘rgan tushini hech esidan chiqara olmadi. Qizig‘i shuki, bu tushni yaxshilikka ham, yomonlikka ham yo‘yib bo‘lmasdi... Blokvil tushida biror tup nihol ko‘karmaydigan notanish yurtga borganmish. U tevarak-atrofiga hayron qolib qarab turganida, oldidan bir to‘da qora ayol yer ostidan chiqqanday paydo bo‘libdi. Ularning ayrimlari qip-yalang‘och, ba’zilari esa ko‘ylagini kekirdagigacha shimarishgan. Qora ayollarning ko‘rinishi g‘alati, harakatlari qat’iy. Ular Blokvilga hujum qilisharmish. Ammo Blokvil qochib yashirinadigan pana joy topolmaydi. Novcha kapral bu jangari ayollardan qochib qutulolmaydi. Yalang‘och jangarilar Blokvilni ushlab, uning qulog‘ini, barmoqlarini g‘ajiy boshlashadi. Blokvil shunday holatda ham o‘zining harbiyligini esga olib, kurash maydonida dushman merganining o‘qidan o‘lmay, yalang‘och ayollarning o‘tkir tishlaridan halok bo‘lishiga achinib turgan emish...

Tushga nimalar kirmaydi, yomonlar nima demaydi? Blokvil bu holatni ruhi cho‘kkan holda esga olardi. Go‘yo uni oldinda qo‘rqinchli bir taqdir kutib turganday edi. Shu sababli Marvga jo‘nashlaridan oldin shoh bilan o‘zi o‘rtasida tuzilgan kafolatnomaning rasmiylashtirilganini yana bir bor to‘g‘ri ish deb hisobladi. Chunki tushga har xil hodisalar kirgani kabi, turmushda ham kutilmagan nogahoniy voqealar ro‘y berishi ehtimoldan xoli emas-da.

Ko‘p sonli qo‘shinga yetakchilik qilib borayotgan Hamza Mirza old tomonda ko‘ringan tepalikka qarab ot soldi. Otning ort

tuyoqlari ostidan ko‘tarilgan chang-to‘zon kaftday keng maydonda iz qoldirib borardi.

Qarshi tomondagi balandlikka chiqib, qurol-aslahalari bilan ilgarilab kelayotgan qo‘shinning harakatini tepadan turib kuzatishni xohlagan Hamza Mirza bir maromda chopib borayotgan arg‘umog‘ining jilovini tortmadi. Jazirama yoz faslining qaynoq qozonida qovurilib, sarg‘ayib somon bo‘layozgan ko‘katlar ot tuyoqlari ostida hazin ovoz chiqarib ezilardi. Bedov otining bir maromda chopib borishiga quvonib, bag‘baqalari ham silkinib o‘ynayotgan sarkardaning qulog‘iga qurigan maysaning qisirlagan ovozlari ham yoqimli eshitilardi.

Bir kuchanishda shahzodani tepalik ustiga olib chiqqan ot egasining qalbidagi tuyg‘ularni bilganday orqasiga qayrilib, dumlarini silkitgancha pishqirib turdi-qoldi.

Janubdan qo‘y podasi singari ilgarilab kelayotgan qo‘shinning izi ko‘rinmasdi. Namsiz tuproqdan ko‘kka o‘rlagan oqish to‘zon ko‘tarilgan joyidan uzoqlashishni istamagan kabi qo‘shinning tepasida pastak bulutlarday osilib turardi. Son-sanoqsiz qo‘shin va qurol-aslahaga tikilgan Hamza Mirza hayratidanmi yoki quvonganidanmi boshini chayqab qo‘ydi.

Jorj Blokvil alohida hurmatga sazovor kishi sifatida ko‘p vaqt qo‘shin yo‘lboshchilari yonida bo‘lardi. Bu safar ham u sarkardaga yaqin odamlar bilan birgalikda Hamza Mirzaning orqasidan qolmay tepalikka yetib keldi. Shahzodaning harakatlarini ko‘rgach, nima uchun shunday qilganining sababini so‘radi:

— Janobi oliylari! Nega boshingizni chayqayapsiz? Biror narsadan ko‘nglingiz to‘lmadimi?

Hamza Mirza kulumsirab qo‘ydi-da, dilidagini yashirib ham o‘tirmay dedi:

— Topganini yeb o‘tiravermay, o‘z boshiga baloni sotib olgan chorvador turkmanlar haqida o‘ylayapman-da, janob kapral!

Blokvil shahzodaga yana bir savol bermoqchi bo‘ldi. Ammo otlarini yelday uchirib kelgan to‘rt nafar suvoriyning balandlikda paydo bo‘lishi navbatdagi savolga to‘siq qo‘ydi.

Kelganlar ichida Mahmud Mirza Ashtianiy bilan Hasan Alixonlar ham bo‘lib, ular ikki bo‘lakdan iborat Xuroson qo‘shinla-

rining asosiy sarkardalari hisoblanishardi. Uchinchisi o'rta bo'yli, baquvvat, qorni katta, burama mo'ylovli Mirza Muhammad Qo'vam ad-Davla edi. Turkmanlar uni Qora sartib (general) deyishar emish. U qo'shindagi barcha qurol-aslahaga mas'ul. Bu sartibni Hamza Mirza o'ziga eng sodiq sarboz sifatida hamisha yaqin olib yurardi. To'rtinchi otliq esa oddiy navkar edi.

Hamza Mirza qo'lidagi qamchinning sopi bilan kumush qoplangan egarning bo'rtib chiqqan joyiga sekin urib qo'ydi. Bu harakati bilan, hozir men sizlarga bir narsa aytaman, demoqchi bo'lganligini qo'shin rahbarlarining barchasi tushundi. Mashhaddan chiqqanlaridan buyon yurilgan yo'l va birga o'tkazilgan vaqt Blokvilni ham qojorlarning ko'p qiliqlaridan boxabar qilib qo'ygan edi. U ham aytiladigan gapni kuta boshladi. Shu vaqt Blokvilning oti bir joyda turmay, tipirchilay boshladi.

Hamza Mirza unga e'tibor bermadi. Ammo shahzoda oldida o'zini uning xos kishisi sifatida ko'z-ko'z qilishni yaxshi ko'radigan Qora sartib:

— Otingni boqqanmisan, janob Blokvil? — deb qo'ydi.

Hech kimda gapi qolib ketishini istamaydigan va Qora sartibning nima maqsadda gap otganini yaxshi anglagan Blokvil:

— Ha, janob, — dedi. — Ammo bu hayvon-da, jim turgisi kelmayapti.

Birdan xayoliga, bu javobning shahzodaga xush kelmasligi mumkin, degan fikr keldi.

Qora sartib yana o'zini ko'rsatmoqchi bo'ldi.

— Aytganingni qilmaydigan bo'lsa, jilovini mahkam tut, shunda yutasan!

Blokvil bu gal ham sartibning kosa tagida nim kosa mazmunidagi so'ziga mos javob qaytardi:

— O'zi tushunmasa, jilovidan mahkam tutganingdan nima foyda?

Hamza Mirza aytmoqchi bo'lgani boshqalarga emas, faqat Qora sartibga taalluqliday, uning yuziga qarab gapirdi:

— Kechani shu yerda o'tkazsak kerak, sartib. Endi to Marvga borguncha oldimizdan suv chiqishi noma'lum. Daryodan uzoqlashmay turib...

Qora sartib shahzodaning ham so‘zini bo‘lib tashladi:

— Bo‘sh idishlarning barchasi allaqachon limmo-lim to‘ldirildi, muhtaram shahzodam!

Sartibning o‘qi nishonga tegdi. Hamza Mirza esa so‘zi bo‘lingani uchun g‘azablanmadiyam. Qaytanga, u sartibning aytganlarini boshini qimirlatib ma’qulladi.

Sarkardaning odamlarni yig‘ib aytmoqchi bo‘lgan fikri — dam olish uchun to‘xtash maslahati ekan. Buyruqni eshitib, har kim o‘zi bajarishi lozim bo‘lgan yumushga ketayotganlarida, uzoqdagi ikki qora uyga va unga tomon borayotgan qo‘y suruviga tikilgan Hamza Mirza:

— Bugun kechqurungi ovqatga turkmanlarning barra qo‘zichog‘i nasib etadiganga o‘xshaydi! — dedi.— Ana u suruvni ko‘ryapsizlarmi?

Bu safar Qora sartib boshqalardan oldin tilga kirdi:

— Lochinning rizqi hamisha o‘zi kelar emish, muhtaram shahzodam!

Shahzoda xiyol kulumsiradi-da:

— Lochin deganing kim ekan u o‘zi, sartib? — dedi.

— Bu yerda sizdan boshqa lochin yo‘q.

Blokvilga sartibning yaltoqlanishi yoqmadi. U yuzini qarama-qarshi tomonga o‘girdi. Tavba, sharqliklarning tilyog‘lamaligini qarang-a! Erkak odam o‘zi singari erkakka xushomad qiladi-ya? O‘ziyam, ko‘zbo‘yamachilik bilan qilig‘ini namoyon qildi-ya!

Sartiblar, sarhang (polkovnik)lar, jonpanalar (tanmahramlar, xos soqchilar) shahzodaning izidan ot choptirishganlarida, Blokvil ham ularga qo‘shilishga majbur bo‘ldi.

3

Ozg‘in, uzun bo‘yli qariya bilan o‘n-o‘n ikki yashar o‘spirin yonboshlariga belgi qo‘yilgan juft qora o‘tov tomon mollarini haydab bormoqda. Oyog‘ida eski choriq, yuzi quyosh taftida toblangan o‘spirin bulbul singari xush ohangda hushtak chalardi. Uzun

bo‘yli, ozg‘in qariya esa bolaning sayrog‘idan huzurlanib, boshini quyi solgancha suruv izidan sekin qadam tashlaydi.

Yetib kelgan bir to‘da otliqqa ko‘zi tushgan qariya to‘xtadi-da, tayog‘iga suyandi. U Qo‘vshutxon tomonidan cho‘pon otarlariga maxsus yuborilgan choparlardan yurt boshiga og‘ir xavf-xatarlar tushayotganligini eshitgan, lekin ko‘ringan bu otliqlar xuddi o‘sha eroniylardir deb aslo xayoliga keltirmas edi. Chunki sodda cho‘pon yurt ustiga qo‘shin tortib kelayotgan yov odamlarining sen-men yo‘q, kunduz kuni yomg‘irdan keyin chiqqan qo‘ziqorin singari birdaniga oyog‘i ostidan chiqishini yetti uxlab tushida ko‘ribdimi? Bundan tashqari, turkmanlar: Qo‘vshutxon Xuroson tomonlarga xufiyalar yuborib, qojorlarning Marvga qachon yurish qilishlari xabarini oldindan bilib olgan ekan, degan mish-mishlar ham tarqalgan edi. Sakson nafar oqsoqolning Mashhadga — maslahatga chaqirilganidan ham cho‘pon-cho‘liqlar xabardor. Bularning bari el-yurt qalbida xotirjamlik uyg‘otgan edi.

Keksa cho‘pon dastlab kelayotgan otliqlarni Qo‘vshutxonning choparlari bo‘lsa kerak, deb o‘yladi. So‘ng o‘ylandi: ikki qora uyli chorvadorga shuncha choparni kim ham yuborsin?

Otliqlar ancha yaqinlashganlaridan so‘ng, ularning bu tevarak-atrof odamlari emasligi kiyim-boshlaridan ma’lum bo‘ldi. Qariya ushbu kun katta bir yovuzlik guvohi bo‘larman deb o‘ylamagan edi. Yoshulli o‘zini yo‘qotmadi, kelayotganlarga bildirmasdan, qo‘lini teskari qilib, bolaga bir narsa uzatdi.

— Ma, buni olib qo‘y, qo‘zichog‘im!

Yoshullining uzatgani chaqmoqtosh edi. Olov yoqishda ishlatiladigan chaqmoqtoshni mahkam tutgan bola o‘ziga ma’lum tepalik tomon toychoqday yelib ketdi. O‘spirin o‘t-o‘lanlar orasida g‘oyib bo‘lgach, ko‘p o‘tmay jazirama yoz faslining dim havosida paydo bo‘lgan quyuq qora tutun osmonga tikka ko‘tarildi.

Tevarak-atrofdagi sukunatni buzib kelgan otliqlar cho‘ponning oldida jilovni tortdilar. Ulardan hech kim qariyaga tangri salomini ham bermadi. Salom — Xudoning haqi deb ovozini chiqarmay ichida gapirgan qariyaning o‘zi:

— Assalomu alaykum, Xudoning yaxshi bandalari! — deb gap boshladi.

Yoshulli tangri salomining javobini kutsa-da, ot ustidagilarning birortasidan sado chiqmadi.

Qamchisining kumush yugurtirilgan sopi bilan qora etigi qo'njiga asta urib turgan Hamza Mirza osmonga qaradi. Yoshulli uning osmonga ko'tarilgan tutunni ko'rganini fahmladi.

Shahzoda nima uchundir past ovozda gapirdi:

— Soqolingdan uyalmasdan yana salom berasanmi?

Kelganlarning og'zidan eshitilgan dastlabki so'z ularning dimog'dor shaxslar ekanligini oshkor etdi.

— Salom Xudoning haqi-da...

Cho'ponga ayyorona nazar tashlab turgan Qora sartib birdaniga mazaxomuz tirjaydi:

— Olov yoqish ham Xudoning xohishimi, chol?

— E, nima edi, ha, ha... — deb ming'irlab turgan qariya endi darrov o'zini qo'lga oldi. — Shu, bola o'yinqaroq, o'ynayotib olov yoqqanga o'xshaydi. Nabiram tushmagur chaqmoqtosh bilan olov yoqishni yaxshi ko'radi-da, janobi oliylari.

— Olov yaxshi narsa-da, to'g'rimi, chol? Turkmanlar O't-olov — jon huzuri deyishadimi? — Hamza Mirzaning tovushidagi kesatiq ohangi qahr-g'azab bilan qorishib chiqdi.

Qariya ot ustida so'z otgan ikki nafar otliqning rahm-shafqatdan juda uzoq odamlar ekanligini fahmladi. Taqdiri allaqachon hal qilinganini sezgan bo'lsa-da, qariya suhbatni cho'za boshladi.

— U tentak nabiram kecha ham o't yoqdi...

— Kecha ham o't yoqdi, degin! — Qora sartib burnini jiyirib qo'ydi-da, yana davom etdi. — Cho'lda nima ko'p — o't-o'lan ko'p, yoqaveringlar! Biroq Qo'vshutxoningga aytib qo'y: turkmanning bugun tutadigan tovug'ining patini Hamza Mirza kecha yulib qo'ygan ekan, de! Tushundingmi? Qo'vshutxonning odamlari butun Qoraqum sahrosini o'tga bersalar ham endi bu tutundan foyda yo'q! O'z tutuning ko'zingni ko'r etadi, — Qora sartib Blokvilga yuzlandi. — Bu tutunning ma'nosiga tushundingmi, janob Blokvil?

Blokvil qadimdan qo‘llanilib kelayotgan bu sirning ma’nosini tushungan bo‘lsa-da:

— Uncha tushunmadim, — deb ming‘irladi.

— Turkmanlar olov yoqib, uning tutuni orqali xavfning yaqinlashib kelayotgani to‘g‘risida o‘z odamlariga xabar beradilar. Anavi tepalikka chiqib, biroz qarab tursang, Marv tomondan ham shunga o‘xshash tutun osmonga ko‘tariladi. Olov tutuni — chorvadorlarning chopari! Endi tushundingmi?

— Tushundim, janobi oliylari!

— Biroq sarbozlarimiz Qo‘vshutxonning ko‘shkiga cho‘pon tutunidan oldin yetib borajak! Bu haqda men senga keyinroq batafsil gapirib beraman.

Tutun tomonga yana bir marta nazar tashlagan Blokvil, endi qilgan qilmishi uchun o‘smirning boshini olishga buyruq berishsa kerak, deb o‘yladi.

So‘zga qo‘shilmay turgan shahzoda fransuzning o‘ylaganlarini oldindan bilganday cho‘ponga qarab:

— Sen bilan teng bo‘lsa edi, chaqmoqtosh bilan olov yoqqanning chotini ayirib, o‘zi yoqqan oloviga tashlagan bo‘lardim. Biroq... — dedi-da, so‘ng yana so‘zida davom etdi. — Senda ham katta gunoh yo‘q. Chunki sen xoningning buyrug‘ini bajarding. Biz buni tushunamiz. Ammo Qo‘vshutxon Saraxsda yoqtirgan o‘tining otashiga Marvda o‘zi kuyadi, albatta. Mana shu olov uni do‘zax o‘ti bo‘lib yondiradi. Tushunarlimi?

Savolga javob berishi kerak bo‘lgan odamdan o‘z vaqtida sado chiqmagach, Qora sartib:

— Tushunarli, janobi oliylari, tushunarli! — deganini o‘zi bilmay qoldi.

Hamza Mirza xiyol kulumsirab qo‘ydi.

Buning oqibati bexayr bo‘lishini anglab yetgan cho‘pon ham to‘satdan o‘ziga kelganday:

— Tushundim, xon hazratlari, tushundim! — dedi jon holatda. Shundan keyin cho‘pon otliqlarni bir-bir nazardan o‘tkazdi. Yuvosh otning ustida o‘tirgan sap-sariq odamning qojorlardan emasligini fahmladi. Bu odam boshqa bir xalqdan bo‘lsa kerak degan fikrni ko‘nglidan o‘tkazdi.

Cho‘ponning Blokvilga hayron tikilib qolganini ko‘rgan Qora sartib:

— Xo‘sh, cho‘pon, bu sariqvoyning kimligini bilmoqchimisan? — dedi.

Cho‘pon soddagina javob qaytardi.

— Bilish u yoqda tursin, men bu mehmonning qaysi xalq vakili ekanligini, hatto aniqlab ham ololmadim.

— Farangiston degan joyni eshitganmisan?

— Faranglardanmi? Farangiston. Ha, qulog‘imga chalinganday bo‘luvdi.

— Eshitgan bo‘lsang, bu odam o‘sha yurtdan kelgan.

Qariya cho‘pon Blokvilning uzun qo‘njli chiroyli etigiga, chekkalari tugmalangan to‘pponcha g‘ilofiga, ko‘kraklari tugmalangan kiyimiga diqqat bilan qarab chiqqach, nigohi yana uning etigida to‘xtadi. Etigining qo‘njiga, poshnasiga qayta-qayta qarar ekan: Astag‘firullo, u bu etikni qanday qilib kiyar ekan-a?! — deb hayron qoldi. — Yoki oyog‘ida shu turgan holda tikisharmikin?

— Hoy, ana u ko‘ringan qo‘sha uy senikimi? — deb, gapga qo‘shilmay turgan shahzoda savol berdi.

— Ha, meniki.

— Bu mol-qo‘ylar ham senikimi?

— Mollar xo‘jayinniki. Men cho‘ponman.

Bu gaplarni eshitgan Qora sartib tirjaydi:

— Turkman mehmondo‘st bo‘ladi, deb eshitganmiz.

Gapga tushungan qari cho‘ponning lablari pir-pir ucha boshladi.

— Juda to‘g‘ri, turkman mehmondo‘st xalqdir, xon og‘a. Biroq turkman o‘z o‘chog‘iga mehmonni salom-alikdan keyin chaqiradi...

Qora sartib qariyaning bergan salomiga o‘zlarining alik olmaganini esladi. Ammo endi vaalaykum deb aytishni ep ko‘rmay:

— Qachon uchrashganda ham, salom-alikning qolib ketadigan o‘rni yo‘q, — dedi. — Uyingga borayotganimizda hol-ahvol so‘rasharmiz...

Cho‘pon uyi tomon mehmonlarni istar-istamas boshlab ketdi.

Bir to‘da otliq novcha cho‘ponning orqasidan yo‘lga tushdi.

Ular yon-atrofi baland qilib ko‘tarilgan, og‘iz tomoniga yulg‘un shoxalari ko‘ndalang tashlab qo‘yilgan quduq yoniga borganlarida, quduqdan tuyqus sakrab chiqqan yigit hammani cho‘chitib yubordi. Kelayotganlar es-hushini yig‘ib ulgurmasdanoq, u:

— Ota, nabirang zo‘r ekanmi? — deb qichqirdi.

Kutilmagan otliqlarni endi ko‘rgan yigit biroz o‘zini yo‘qotib turdi-da, yoqasiz ko‘ylagining etagini pastga tortib ust-boshini to‘g‘riladi va ularga salom berdi. Yigit ustarada sochini qirtishlab, boshiga toza do‘ppi kiygan, oriq, biroq sog‘lom, baquvvat, kelishgan edi.

— O‘g‘lingmi? — so‘radi Qora sartib choldan.

— Ha, o‘g‘lim. Kattasi, — deb qariya mag‘rur javob berdi-da, soddadillik bilan gapda davom etdi. — Mammatjon. Kelinim ham yaqindagina uyidan qaytib keldi. Agar xudo umr bersa, bu o‘g‘limdan ham yana bir nabira ko‘rsam, dunyodan armonsiz o‘tar edim.— Birdan cho‘pon g‘amgin ohangda so‘zlay boshladi. — Bu o‘g‘limdan ham katta farzandim bor edi... Boyagi o‘t o‘ynab yurgan nabiramning dadasi... Umri qisqa ekan. Xudoyim qaytib oldi. Ammo Xudodan norozi emasman. Ro‘zg‘orim tinch, kunimiz o‘tib turibdi...

Cho‘ponning shukrona so‘zlarini tinglagan Hamza Mirza: Bu yorug‘ dunyoda bir umr qora mehnat qilib, shu bilan o‘zining o‘tgan umridan rozi bo‘lib ketadiganlar ham bor-ov! Tavba! — dedi o‘zicha. — Xo‘sh, bu odam shuncha yil yashab, uzoq umr ko‘rib, hayotdan qanday lazzat oldi ekan?! Erta turib birovlarning molini yaylovga haydagan, kechqurun iziga qaytgan. Butun umri qorin tashvishi bilan o‘tadi. Dunyoda naqadar go‘zal imoratlar borligini ham, bu imoratlarda jodu ko‘zli, oqbilak jononlar yashashini ham bilmaydi. Bu dunyodagi boy-badavlatlar nima tashvishda-yu, bu notavon chol nima tashvishda? Har kim ekkanini o‘rib, o‘z kunidan rozi bo‘lib o‘taverar ekan-da...

Xuddi shu payt cho‘ponning: Kelinim ham yaqindagina uyidan qaytib keldi degan xabarini tasdiqlaganday, chap tomondagi o‘tovdan chiqib kelgan qo‘li suvqovoqli, yenglari shimarilgan go‘zal bir kelinchak barchaning diqqatini o‘ziga tortdi.

Kelinining noqulay vaqtda tashqariga chiqqanini fahmlagan bo‘lsa-da, oqko‘ngil qariya bu payt hech qanday yomon fikrni xayoliga keltirmayotgan edi...

4

Kunchiqar tomon endi-endi bo‘zara boshladi. Dunyoda o‘zlaridan boshqa jonivor yo‘qday, oqshom chog‘idan chor atrofga tinmay vaq-vaqa qo‘shig‘ini taratayotgan qurbaqalarning ovozi o‘chdi. Dunyo osudalik qo‘yniga cho‘kdi. Cho‘kdi-yu, ammo endi Guljamolning uyqusi qochdi. Hali yigirma yoshga to‘lmasdanoq turmushning achchig‘iga to‘ygan, muhabbatning sohir lazzatidan endi-endi tota boshlagan navjuvon go‘zal o‘z taqdiri borasida o‘ylanib, xayolga botib yotardi. Guljamol — taka turkmanlari orasida nom chiqargan mashhur To‘ra so‘qi[1]ning qizi, undan ham mashhurroq Xonkeldi so‘qining singlisi. Bechora juvon juda erta tul qoldi — eri Annaavaz Saraxs shahrida Madaminxon bosqini paytida halok bo‘lgandi. To‘ra so‘qining barcha qarindosh-urug‘lari, shular ichida Chebshek botir Qurbonmengli o‘g‘li ham bir ko‘chim (ko‘chib yurgan ovul) bo‘lib, Qo‘vshutxonlar xonadoniga qo‘shni holda Marvning kunbotar tomonida, Murg‘ob daryosi yoqasida o‘tov tikkan edilar.

Uyqusi qochgan Guljamol bundan bir hafta avval tug‘ilgan qo‘zichoqni eslab irg‘ib o‘rnidan turdi. Bechora qo‘zichoqning onasi o‘sha kuni — qo‘zisi dunyoga kelgan kuniyoq olamdan o‘tgan edi. Guljamol turtinib-surtinib tashqariga chiqdi. Qurbaqalarning qurillashlari qushlarning xushovoz sayrog‘i bilan almasha boshlagan payt. Osmon bo‘zara boshlagan olaqorong‘i lahzalarda sirli ko‘rinayotgan chor atrof qushlar sayrog‘i ostida yanada go‘zallashib bormoqda.

Oq o‘tovning chetiga suyab qo‘yilgan suvqovoqni yelkalagan Guljamol qo‘ra tomonga yurib ketdi. Bir haftaning ichida odam qo‘liga o‘rganib qolgan qo‘zichoq o‘z mehribonining hidini olib, darrov og‘il og‘ziga keldi.

---

[1] **So‘qi** — o‘g‘ur, keli.

Yulg‘undan devor aylantirib qurilgan og‘il ichida Guljamolning burniga urilgan cho‘p-xashak hidini sahar shamoli allayoqlarga haydab ketdi-da, o‘rnini sof, toza havo bilan almashtirdi. Guljamol yetim qo‘ziga sut ichirib o‘tirgan paytda, qo‘zi hurkaklanib bir silkingan edi, qo‘lidagi ko‘zani tashlab yuborishiga salgina qoldi. Uzoq-uzoqlardan, kunchiqar tomondan tuyoq tovushi eshitildi.

Uchta ot Qo‘vshutxonning uyini ko‘zlab chopib kelmoqda edi. Endigina yorishayotgan tong saharda chopib kelayotgan suvoriylarning qanaqa otliq ekanligini bilib bo‘lmasdi. Marv tomonlarda hali azon tovushi eshitilmayoq uyqudagi odamlar ustiga kelayotgan bu otliqlarning chopishi yaxshilikka emasdi. Yo shum xabar bilan, yoki esa yomon bir niyat ila kelayotganliklari aniq.

Shunday xayolga tolgan Guljamol qo‘zichoqqa ichiraman degan sutning barmoqlari orasidan siriqib xashag-u qumaloqlar ustiga to‘kilayotganini sezmay qotib qoldi. Ona sutiga qonmagan qo‘zichoq endi Guljamolning sut ta’mi gurkirayotgan barmoqlarini yalab tamshandi. Guljamol buniyam sezmadi. Yulg‘un shoxlaridan tiklangan devor oralaridan jon holatda tashqariga tikildi, uchib kelayotgan suvoriylarning kim ekanligini anglashga urindi.

Otliqlar Xonboboning uyi tomon oqib borayotganligi aniq, zero o‘ba[1] ga keltirilayotgan har qanday shoshilinch xabar, eng avvalo, Xonboboga yetkazilishini Guljamol biladi.

Ammo bu gal Guljamolning taxmini to‘g‘ri chiqmadi. Suvoriylar Qo‘vshutxonning o‘tovi oldida ham to‘xtamadilar. Ular Xonboboning tug‘gan-tug‘ishganlari tikkan o‘tovlar yonidan ham yelib o‘tdi. Og‘il yonidan ham chopib o‘tdilar-u, Guljamolning akasi Xongeldi so‘qining bo‘sag‘asiga borib yetdilar. Guljamol shundagina o‘rtada kelayotgan suvoriyning palakkami yo to‘nga allanimani o‘rab, ot ustiga ko‘ndalang yotqizib olganini anglaganday bo‘ldi.

Otliqlarning yaxshigina qurollanib olgan askar ekanligi aniq edi. Ular Xongeldi so‘qining eshigi oldida past ovozda g‘o‘ng‘ir-

[1] **O‘ba** — ovul, qavmdoshlar makon tutgan joy.

g‘o‘ng‘ir qilishdi-da, nari ketdilar. Guljamol ularning ovozlarini eshitdi-yu, ammo nima deb gaplashganlariga tushunmadi.

Xongeldi so‘qining uyidan narida faqat Chebshek botirninggina o‘tovi bor, oxirgi uy, shu bilan Xonboboning ko‘chasi tugaydi.

Otliqlar Chebshek botirning oq o‘tovi oldiga borib, keltirilgan yukni eshikdan ichkariga qarata gursillatib otib yubordilar-da, o‘baning orqa tomonidan aylanib, otlarini lo‘killatib ketishdi. Demak, suvoriylar shoshilinch ravishda kelib-ketmoqdalar. Suvoriylar bosh kiyimlarini ko‘rgan Guljamol bular turkmanlar emasligini angladi. Ajabo, kimlar ekan-a?

Guljamolni hayron qoldirgan yana bir narsa — ko‘chadagi itlarning hurmayotgani edi. Itlar, xuddi sehrlanganday, ovoz chiqarmasdilar. Boshqa payt bo‘lsa-ku, uyasiga qarab borayotgan kirpining ovoziga ham vovullab o‘bani boshga ko‘taradigan itlar bu gal imi-jimida qafaslariga urib ketgan, sas chiqarmay pusib yotardi. Yo‘q, suvoriylar ancha nariga ketib bo‘lganlaridan so‘nggina, Chebshek botirning ko‘ppagi bosh ko‘tarib bir-ikki marta vovullagan bo‘ldi, xolos.

Ajabo, bemahalda kelib, o‘badagi itlarning jur’atini parchalagan kuch nima ekan? Otliqlar nima uchun shoshib keldilar-u, shoshib ketib qoldilar? Ular kimlar o‘zi? Guljamol bu savollariga javob topa olmasdi.

Otliqlar keltirilgan yukni Chebshek botirning eshigidan ichkari otib yuborganlarida bir qop o‘tin tashlanganday gursillagan ovoz eshitildi — u nima bo‘ldi ekan? Guljamolning boshi qotdi. Albatta, Chebshek og‘a o‘tinga zor odam emas. Uning oq o‘tovining bir tomonida saksovul poyalari tog‘day bo‘lib uyulib yotibdi. Qolaversa, Chebshek og‘a o‘tinga zor ekan, o‘tinni nima uchun kunduz kuni keltirmaydi? Keyin, bir qop o‘tin deb, uchta davangirday yigitning ovora bo‘lib yurishini qanday tushunmoq kerak? Aytganday, eshigining oldiga gursillatib o‘tin tashlasalar, Chebshek og‘a nima uchun uyg‘onib tashqariga chiqmadi? Nega otliqlarga: Kimsizlar? — demadi?

Shu xil javobsiz savollar sal bo‘lmasa Guljamolni esankiratib qo‘yayozdi. Bu ko‘rgan narsalarini u, albatta, yomonlikka yo‘ygisi kelmayotgandi. Biroq, biroq... Nima bo‘lganda ham...

U hushyorlikni qo‘ldan bermay, otliqlar ketgan yo‘lga sinchiklab nazar soldi. Bo‘zarayotgan tong ola-xiraligida suvoriylar allaqachon Qo‘vshutxonning o‘basidan chiqib, qorasini o‘chirgan edilar.

Guljamol sutqovoqni og‘il og‘zida qoldirdi-da, ildam yurib ketdi. Qorni sutga to‘ymay qolgan yetim qo‘zichoq o‘zining ochligini bildirmoqchiday zorlanib ma’radi. Guljamol bu zorlanishni eshitmadi. To‘g‘rirog‘i, u hozir qo‘zining ma’rashiga quloq solguday ahvolda emas edi. U to‘ppa-to‘g‘ri Chebshek og‘aning uyi tomon ketdi.

Oq uyning eshigi tomon borishga hayiqib turdi-da, o‘tovni aylanib o‘tib, ko‘zanak[1]ka yaqinlashdi:

— Kelin eje![2]

Ichkaridan ayol kishining ovozi keldi. Guljamol qo‘rqib-uyalib yana sas berdi:

— Chebshek og‘am uydamidi, kelin eje?

— Senmisan, Guljamol? — endi xotinining o‘rniga ovoz berdi Cheshbek botir. — Nima gap, tinchlikmi?

— Tinchlik, tinchlik, og‘a, — chaynaldi Guljamol yotgan odamlarni uyg‘otib yuborganidan izzalanib. — Hali uchta otliq kelib, eshigingizga nimadir tashlab ketganday bo‘ldi, chamamda...

Bu gapni eshitgan Chebshek botir shu zahoti ko‘zanak yonida paydo bo‘ldi.

— Nima deding-a, Guljamol?

Tavba, shu orada to‘nini kiyib olishga ulgurganini! — hayrati oshdi Guljamolning.

— Hozirgina eshigingizga bir nima tashlab ketishdi, Chebshek og‘a...

— Ovozing ko‘zanakdan kelib turgach, men eshik tomonga o‘tmagan edim, singlim, — dedi-da, Chebshek botir g‘irra orqaga burildi. Lekin eshikka yetib borgach, qilgan harakatlarini botir degan laqabiga munosib bo‘lmas, deb o‘yladi. U eshik oldiga bordi-da, xuddi ajdarhoning quyrug‘ini bosib olganday sapchib orqa-

---

[1] **Ko‘zanak** — o‘tovning darchasi.

[2] **Eje** — o‘zidan katta yoshli ayollarga ishlatiladigan so‘z (ona, yanga, kennoyi ma’nolarida keladi).

ga chekindi. Qirq besh yoshga chiqib, qancha urush-savashlarda qatnashgan, necha-necha yog'iylarning kallasini sapchaday uzib tashlagan botirning ichiga hozir, shu lahzalarda qaltiroq kirgan edi. U o'zining ojizligini his etdi, zero, eshigi oldida qo'li qilichli dushman emas, balki odam suyaklari tiqilgan qop yotardi. O'tov orqasidan Guljamolning:

— Nimaga to'xtab qoldingiz, Chebshek og'a? — degan ovozini eshitgach esa, qaltirab tovush chiqardi:

— Aylanib o'tib... uyga kir, singlim!

Oqarib yotgan suyaklarni, to'ntarilib yotgan bosh chanog'ini ko'rgan zahoti gap nimaligini tushungan botir o'zini tutib oldi. U Guljamol yetib kelaman deguncha tezlik bilan egnidagi to'nini shartta yechdi-yu, bir qop suyakning ustini yopdi. Bunday qabih ish kimning qo'lidan kelishi mumkin? Bu suyaklar o'zining qaysidir baxtiqaro bo'lgan qarindoshiniki ekanligi aniq, ammo qay biriniki ekan? Botir yashin tezligida fikr yurita boshladi. Birinchi savolning javobi: bu razil ish — dushmanlarning ishi. Zero, dushmansiz odam yo'q, ayniqsa, Chebshekka o'xshagan ot ustida qilich o'ynatadigan botir odamning dushmani ko'p bo'ladi. Biroq hozir o'ylanib turadigan vaqt emasdi. Guljamol ichkari kirar-kirmas Chebshek botir undan:

— Kimlar ekanini bildingmi, singlim? — deb so'radi.

— G'ira-shirada tanimadim, og'a.

Uchta otliq tong qorong'isida uyingga kelib, eshigingdan qay bir qarindoshingning jasadini tashlab ketishi — botir uchun eng og'ir, masxara bir ish. Bu — odamni sharmanda qilishning oxirgi, eng vahshiy chorasi hisoblanadi. Kimdir ikkinchi bir odamni yomon masxara qilmoqchi bo'lsa, uning qay bir qarindoshining mozorini kovlab, suyaklarini eshigiga keltirib tashlaydi. Agar bir urug'ni, qabilani yoki butun bir elni masxara qilmoqchi bo'lsalar, suyaklarni elxonning — xalqqa ota bo'lib o'tirgan oqsoqolning eshigiga eltib otishadi.

Bunday qabih yuzqoralikdan keyin gavdasida joni, tomirida nomus-ori bo'lgan odam qo'liga egri qilich tutib, qasos olish chorasiga shartta kirishib ketishi kerak. Shunday qilmagan odam el ichida rasvo bo'lib qoladi, benomus deb, latta deb nom oladi.

Bunday qabohatchiliklar ko'pincha qo'shni yurtlar orasidagi o'ch olishlarda qilinar, turkman urug'-qabilalari, tiyra-toifalari orasida san-manga borilganda ham bu kabi xunuk ishga qo'l urilmasdi.

Bundan besh yil muqaddam Saraxsda Madaminxon bosqinining mashaqqatlarini boshdan kechirgan, 1858-yil Marvga ko'chirib kelinganidan buyon ham qojor bosqinchilari bilan tez-tez to'qnashib turgan takalarning ko'rmagan azobi qolmadi. Ular qilich tovushi, zambarak ovozi-yu yaralanganlarning nola-faryodiga o'rganib qolgan edilar. Ularning bugungi avlodlari orasida gavdadan uzilgan kallani ko'rmaganlari ham deyarli yo'q. Ammo Chebshek botirning eshigiga tashlab ketilgan suyak xon ko'chasidagi odamlarni xavotirga solishi aniq, zero, dushman hech mahal qarindosh raqibining eshigiga o'ziga yaqin ko'rgan odamning suyagini keltirib to'kmaydi-ku. Buning uchun xor qilinmoqchi bo'lgan raqib tomonning qarindosh-urug'lari yotgan mozor izlab topiladi.

Bularning bari yetib kelayotgan ulkan bir xavfdan darak bermoqda edi. Shuning uchun ham Chebshek botirning uyi atrofiga to'plangan xaloyiq og'ir o'yga botib qoldi. Ularning har biri Chebshek botirning to'nining ostidagi suyaklarni o'zining dunyodan o'tgan qaysidir bir qarindoshiniki deb o'ylardi. Bu to'n ostidan har kimga ham o'z qarindoshining bezovta ruhi sarg'ayib-munglanib qarab turganday edi. Balki, suyaklar gapirayotganday edi. Meni nega bunchalar xor qildinglar? Meni qabrimdayam tinch yotqizmayapsizlar-ku! Mozorim oyoq osti qilindi, sizlarda or-nomus degani bormi o'zi?— deyayotganday edi. Chebshek botirning uyi atrofini qurshab olganlar xuddi xorlanib, oyoq osti qilingan qarindoshlarining janozasiga yig'ilganday ma'yus-mahzun edilar.

To'planganlarning oldida turgan bir mo'ysafid ikki tirsagini quchoqlab o'ylanayotgan Qo'vshutxon tomonga nazar tashladi-da:

— Tong otishi oldidan uch nafar suvoriy janub tomonga qarata ot surib ketayotgan ekan. Ora uzoq bo'lgani uchun ko'zim unchalik ko'rolmadi, ammo-lekin ular bu tevarakning odamlariga o'xshamasdi. O'shanda ko'nglim bir titroqdan jimirlab ketgan edi, — dedi.

Xonbobo buni aytmasang ham bilaman deganday, og‘ir xayolga toldi.

Chebshek botir hozir suvoriylarni o‘ylamas, dunyodan o‘tgan qarindoshlarini birma-bir ko‘z o‘ngidan o‘tkazar, bu suyaklar qaysi biriniki ekanini bilmoqchi bo‘lib, bosh qotirmoqda edi.

Qo‘vshutxon Chebshek botirning fikrini uqqanday:

— Kelganlar o‘baga notanish bo‘lgani uchun ham eshiklarni almashtirgan shekilli, Chebshek botir, — dedi. — Hech kim bu bilan faqat mening mozorim oyoq osti qilindi, deb o‘ylamasin. Bu gal barcha turkmanlarning mozori oyoq osti qilindi...

Ko‘pchilik odam ilkis titrab-qimirlab ketdi. Hech kim churq etib og‘iz ochmadi. Yana Qo‘vshutxonning o‘zi gap boshladi:

— Eshik almashtirgan bo‘lsa, kelganlar bu tuproqning odamlari emasligi aniq. Bu baloning hidi balanddan kelayapti...

— Men ham shu haqda o‘ylayapman, — dedi Chebshek botir bosh silkib.

Bosh xon bilan botirning bu xil so‘zlarini eshitgan odamlar, endi nima der ekanlar deganday, ularning og‘ziga ko‘z tutdi.

Qo‘vshutxon muhim bir gapni aytmoqchi bo‘lganday tevarakka og‘ir ko‘z tashladi, jim kuzatib turdi, so‘ng yo‘talib oldi-da, gap boshladi:

— Bu qarindoshimizni Xo‘jaabdulla qabristoniga dafn etamiz, qavmdoshlar!

Yerda yotgan to‘nga ko‘z tikarkan, qat’iy qilib buyurdi:

— Oqsoqollarni yig‘inga chorlang!

Hamma Xonboboning gapiga bo‘ysundi.

5

... O‘tovdan chiqib, otliqlarga ko‘zi tushgan kelin shu zahoti allanechuk hovliqib, darrov iziga qaytdi. Ammo qisqa fursatda kelinni boshdan oyoq kuzatish uchun mehmonlarga shuning o‘zi yetarli edi, ular kelinning bo‘liq bilaklari-yu shahlo ko‘zlariga maftun bo‘lgancha qarab qoldilar...

Hamza Mirza otidan sakrab tushdi-da, nima uchundir yosh yigitga qo‘l uzatdi. Salom-alikdan ancha vaqt o‘tib ketganidan

keyin qilingan bu xatti-harakat atrofdagilarga erish tuyuldi. Bunchalik qimmatbaho kiyimdagi odam bilan ko'rishib ko'rmagan Mammat esa hafsala bilan qo'shqo'llab ko'rishdi. U o'zini har qancha dadil tutishga urinmasin, ko'rishayotib qo'llari qaltirab ketdi.

Shahzoda o'zini unutganday ahvolda edi. Uning sirtdan bilinib turgan yasama harakatlari qariyaning ko'ngliga xavotir soldi. Kechagina keliniga ota uyida bir-ikki kun mehmon bo'lib kelishga ruxsat bergan edi. Kelini xursand bo'lib erta yo indinga jo'nab ketishini bildirgan edi. Attang, ertaga, indinga deb yurmasdan shu bugun yo'lga chiqaversa bo'lmasmidi,— deb o'zini o'zi koyidi qari cho'pon.—Yo'q, taqdirdan qutulib bo'lmas ekan, afsus... Aytganday, hali hech narsa bo'lgani yo'q, ko'rganingni yomonlikka yo'yaverasanmi, axir...

Tansoqchilarning biri otdan tushdi-da, sarkardaning otining jilovini qo'lga oldi. Shahzoda suv olinadigan quduqni birinchi bor ko'rayotganday, bo'rjoq (buta, daraxt) shoxini ushlab quduq tubiga tikildi. Quduqning chuqurligiga hayron qoldimi-boshqami, labini tishlab bosh chayqadi. Mehmonlar kelganida har safar otasining yonida qo'l qovushtirib turadigan yigit bu safar ham qariyaning yuziga boqib:

— Nima xizmat, ota? — dedi.

Uyiga yaqin-yiroqdan mehmonlar kelguday bo'lsa, qariyaning o'zi oldga tushib, o'g'liga uni qil, buni qil deb ko'rsatma berardi, o'zi esa mehmonlarni uyga boshlab ketardi. Bu safar esa ko'ngli bir narsani sezganday, negadir mehmonlarni uyga taklif qilmadi. Aksincha, u uy oldida turganlarni nima bilandir chalg'itib, o'tovga kiritmasdan iziga qaytarib yuborish uchun taysallana boshladi. Hozir shu lahzalarda qariya to'satdan kelib qolgan otliqlarni ham, tashqariga chiqib qolib kelganlarga yuzini ko'rsatgan kelinini ham, qo'l qovushtirib: xizmat, ota? — deb turgan o'g'lini ham, hattoki, o'zini ham yomon ko'rib ketdi. Ko'ziga hamma narsa yomon ko'rinmoqda - to'z-to'zonlardan nari yuksak-yuksaklarda charaqlab turgan quyosh ham, tevarak-atrofda o'tlab yurgan mollar, qo'ylar ham — hamma-hammasi.

Oqshom uyquga ketayotib dunyodan o'tgan ayolini o'ylab yotgan edi. Kampiri unga: Oqsoqol, nega buncha xafa ko'rina-

siz? — deganday bo'ldi. Qariya esa unga: Ey kampir, men nega xafa bo'layin? — der emish o'zicha. — O'g'il desam deyishga arzigulik o'g'lim bor, kelin desam arzigulik kelinim bor. Qo'lim yetmay turgan bir armonim — sen. Sendan judo bo'lib qolganim alam qilayapti. Buyam nima, falakning ishidir-da. Men shu holimdan shikoyat qiladigan bo'lsam — kufr ketgan bo'larman, — deb xayolan javob berdi cho'pon...

Bugun bomdod namozini o'qigan qariya eshik og'zida o'z ishi bilan kuymalanib yurgan keliniga ko'z ostidan nazar soldi. Ko'nglida kelini anchagina to'lishib qolganday, kiygan ko'ylaklari o'ziga juda yarashib turganday ko'rinib ketdi. Chehrasiga tabassum yugurgan qari cho'pon o'zicha ko'ngli xushlanib, murtini silab qo'ydi, bo'yi bir gaz o'sganday bo'ldi.

Hozir esa u qiyin bir ahvolda, xavotirga tushib, gavdasi cho'kib turardi. Xayolidan o'tayotgan noxush fikrlarni nari haydab, ulardan qutulmoqchi bo'ldi, ammo buning ilojini topmadi. U ahvolini tevarakdagilardan yashirish uchun nimadir gap qotmoqchi bo'ldi. Ammo biron-bir so'z tiliga kelmadi. Nima bo'lganda ham, cho'pon og'a bevaqt kelgan mehmonlarni uyga taklif qilishdan o'zini tiydi. Ayb bo'lsa bo'lsin. Shu gunoh bo'ladigan bo'lsa, bo'laqolsin. Bitta yoziq ayb uchun er o'lmas, deydilar. Bularni o'z og'zim bilan uyga chaqirmayin, qolgan yog'ini Yaratganning o'zi o'nglasin!..

Kutilmaganda quduq tomon yurgan shahzoda otining yoniga qaytib keldi-da, birdan Qora sartibga yuzlandi:

—Olovning tutuni o't yoqqan odamning ham ko'zini achishtiradi. Shuni cho'ponning yodidan chiqmaydigan qilib qo'ying, sartib! Yo'qsa bular bizni rosa tushirdik deb o'ylaydilar!

Qora sartib xuddi shunday buyruq berilishini oldindan bilganday tez-tez javob berdi:

— Buyrug'ingizni aytganingizdan ham a'lo qilib bajaraman, marhamatli shahzodam! Siz xotiringizni jam qilib, bemalol o'z ishingiz bilan bo'lavering!

Hamza Mirza otlandi. U yonidagi navkar va tansoqchilari bilan ancha nariga ketguncha Qora sartib qaddini bukib, hurmat ila ta'zim bajo qilib turdi.

Ketganlarning changi bosilgandan so‘ng ham qari cho‘pon eshik og‘zida turganlarni uyga taklif qilmadi. Ammo hukmdor shahzodadan erkin harakat qilmoqqa maxsus buyruq olgan Qora sartib endi bu yerda o‘zi xon, ko‘lankasi maydon bo‘lib qolganini ko‘rsatmoqchi bo‘lganday, cho‘ponning uyi tomon betakalluf bosib bora boshladi. Uning yonidagi navkarlar ham Qora sartibga ergashdilar.

Qora sartib boya kelin kirib ketgan eshikka yetib keldi-da, to‘xtadi. To‘xtagani ham yaxshi bo‘ldi, yo‘qsa qariya uning oldini to‘sib olgan bo‘lardi.

Rangi bo‘zarib ketgan cho‘ponni ko‘rgan sartib o‘zining kimligini tanitib qo‘ymoqchi bo‘ldi.

—Meni Mirza Muhammad Qo‘vam ad-Davla deydilar, qariya, eshitgandirsan nomimni?

Qari cho‘pon sartibning yuziga tikilib-tikilib qaradi.

— Yo‘q, eshitmagan ekanman, tangri bandasi.

Mirza Muhammad qariyaning bu gapidan so‘ng o‘zini haqoratlanganday his qildi, ko‘zi ola-kula bo‘lib norozi ohangda:

— Qora sartibni ham eshitmagan bor ekan-da?! — dedi.

— Buni bilaman, — deb javob berdi qariya yuragi tirnalib.

Qora sartib degan Eron sarkardasining nomi turkmanlar orasida rostdan ham taniqli edi. U bag‘ritoshligi, shafqat bilmas zolimligi bilan dong chiqargan edi.

— Bugun suruvingning yarmi bilan vidolashasan, qariya!

Boshqa bir payt bo‘lgandami, qariya bu dong‘i dunyoga ketgan, turkmanlarni vayron etish uchun ana kelarmish-mana kelarmish deb ovozasi quloqni teshgan sarkardaning nomini eshitgan zahoti dovdirab qolgan bo‘lardi, ammo bu gal bunday bo‘lmadi.

— Suruvning yarmi deysanmi? Yarmi emish, Olloh nasib etsa, yarmi emas, hammasini ham yeysan.

— Olloh nasib etmagan bo‘lsa, yo‘limizni sening uyingga qarata burarmidi?!

— Buniyam Yaratganning o‘zi biladi.

Qora sartib shap-shap deb turmay, shaftoli deyishni ma’qul ko‘rdimi, qariyaga yuzlanib:

— Qani, unda uyga boshla! — dedi.

Endi cho'pon kutilmaganda dadillik bilan tilga kirdi:

— Kirmoqchimisan, yur buyoqqa! Borimizni baham ko'ramiz. — Cho'pon o'ng tomondagi boshqa eshikka ishora qildi. — To'rga sig'ganingiz to'rda o'tirarsiz, sig'maganingiz boshqa joyda.

Cho'ponning gapini bilib turgan sartib:

— Turkmanning sog'inch — o'ngdan, quvonch — chapdan degan gapiyam bor-a, og'a? — dedi.

— Bu gapni turkmanlar ko'z uchganda aytadi, xon og'a.

Qora sartib bu xatosini tan olmasdan tuzatib qo'ymoqchi bo'ldi.

— Ko'z bo'lmasa oyoq ham nodurust harakat qiladi-da. Bu ikkisini alohida qo'ysa bo'lmas.

— Buyam to'g'ri-ku-ya! — deb qo'ydi qariya ko'nglidagi gapga teskari bo'lsayam, zo'ravonga yon bosganday.

Qora sartib o'z o'qini nishonga tekkan, deb hisobladi.

— Turkman tuprog'ida ilk bora duch kelgan ikki uyning chapdagi eshigiga kirmay, o'ngdagisiga kirsak— ko'nglimizga shubha oralaydi-da...

Anchadan beri o'zlarining obro'yi uchun vaziyatdan foydalanishni ko'zlayotgan qojorlardan biri gapga qo'shildi.

— Biz ham chapdagi uyga kirmay, o'ngdagiga kirsak, turkman maqolini hurmat qilmagan bo'lamiz.

— Ko'ngilda esa shubha-gumon paydo bo'ladi, — dedi sartib avval aytganlariga urg'u berib.

— Gumon imondan ayirarmish, — deb cho'pon yana maqol keltirdi, so'ng aytgan so'zi mehmonning qahrini keltirib qo'ymasligi uchun gapni yakunlagan bo'ldi. — Oq yurak bilan qabul qilingan uyda gumon nima qilsin.

Baribir, bo'lib o'tayotgan gaplar qariyaga og'ir botdi. Yomon bir voqea bo'lishini sezganday, tevarak-atrofga bir qur nazar soldi.

Uchi-poyoni yo'q sahroda himoya bo'lguday biron narsaga ko'zi tushmadi. Cho'ponning butun oilasi, xonadoni dushman qamali ichida edi. Oilaning bu halqa ichida qolib ketishi ham yoki omon chiqishi ham tangrining ixtiyorida.

— Biz mehmonlarni sog'inch — o'ngdan bo'lgani uchungina boshqa uyga taklif qilayotganimiz yo'q, bu eshik — ayol, bola-chaqalar kirib-chiqadigan eshik.

Qora sartib gapni cho'zib turmadi. U hali shunaqami? — degan ma'noda bosh silkidi-da, o'tov engsisiga[1] qo'l yubordi.

— Ichida ayol kishi bo'lgan uyning engsisiga qo'l cho'zmoq ayb bo'ladi, xon og'a! — Qariyaning ovozi tahdidli yangradi. — Musulmonchilikni yoddan chiqarmang!

Xon og'a deb qilingan murojaatda yalinish ohangi ham aniq yangragan bo'lsa-da, sartib shafqat qilib turmadi. U bir qo'li bilan hamon engsini tutib turar ekan, atrofiga ko'z tashladi-da:

— Xuroson qizlarini otga bosib olib kelish turkman uchun ayb sanalmas edi, — dedi. — Endi Eronning mingboshi sarkardalarining biri kir-chir gilamingga qo'l uzatsa, ayb sanaladigan bo'lib qoldimi?

Bu gapdan keyin qari cho'pon endi hamma xatti-harakatlar befoyda ekanligini tushundi. Endi tiz cho'kib yolvorish — bosqinchilar oldida ojizligini bildiradi, xolos. Sahroyi maydonda erkin o'sgan mag'rur inson boshqa birovning oldida tiz cho'kmoqni o'zi uchun or deb bildi.

— Mening mana shu kir-chir gilamim ham boshqa uylarning tilla darvozasidan pokizadir, — dedi titrab cho'pon.

Qora sartib endi bu gal nima uchundir muloyim ohangda gapirdi:

— Biz sening mol-u dunyongga zor emasmiz. Mening bitta cho'ntagimdagi tanga sening butun uyingni, mol-qo'rang bilan birga sotib olishimga yetadi. Uyingga salom berayotib, ehtiyot yuzasidan ichkariga bir nazar tashlab qo'ymoqchiman.

Qariya yengil tortdi. Ko'nglida yomon fikr uyg'otgani uchun shaytonni la'natladi.

Engsi ko'tarilib, cho'pon bilan sartib ichkariga kirdilar. Har ehtimolga qarshi ikki tansoqchi ham boshliqlari izidan o'tovga kirib, eshik yonida turdilar. Mammat ham otasini yolg'iz qoldirmay deb ularga ergashdi.

---

[1] **Engsi** — o'tov eshigi oldidagi yopinchiq gilamcha.

Ko‘ngli allanenidir sezib, ichkariga kirgan zahoti eski kiyimlarini kiygan kelin o‘tovning to‘rida latta-puttaga o‘ranib o‘tirgan ekan, o‘rangan choponi ko‘zigacha tortilgani sababmi, etak tomoni ko‘tarilib qolgan, kelinning oppoq oyoqlari men buyoqdaman! deganday, kirganlarning e’tiborini tortdi. Buni ko‘rgan Qora sartibning og‘zi suvlanib ketdi.

Ichkariga kirmay, tashqaridagi sarbozlar yonida turgan Jorj Blokvil o‘tov ichida qanaqa harosat[1] yuz berishini ko‘z oldiga keltirolmasdi.

U yonidagi sarbozlarning biriga yuzlandi:

— Sartib o‘tovga nima uchun kirib ketdi?

Buta uchiga tuyaqumaloq yopishganday uzun bo‘yli, ozg‘in, kallasi xumday sarboz orsiz iljaydi.

— Nega kirib ketganini bilmaysizmi? U yerda zo‘r tomosha bo‘ladi hozir! — Sarboz suv oqa boshlagan og‘zini shapillatdi. — Xuddi men tomosha qiladigan o‘yin bo‘ladi-da! Attang, sartib bo‘lmagandami...

6

— Kelinning yuzini ko‘rsak bo‘ladimi, xo‘ja? — deb so‘radi sartib ichkarida.

Cho‘pon vaziyatga mos kelguday javob axtarib turarkan, uning o‘ylayotganlari topilmay turib, o‘g‘li hayqirib yubordi:

— Kelinning yuzini ko‘rish mumkin emas, xon og‘a!

Avvaldan ko‘ngliga kelgan ishni bajarish uchun bir bahona topolmay turgan sartib uchun Mammatning bu gapi bir tutatqi bo‘ldi.

— Buni sendan so‘rab o‘tirmasdan bajo etsak, nima deysan, yigit?

Boshga kelib yiqilaman deb turgan balodan qanday qutulishni o‘ylab turgan cho‘pon o‘g‘liga g‘azabkorona qarab qo‘ydi.

— Yosh bola qizishayapti-da, xon og‘a. Albatta, kelinning yuzini ko‘rish mumkin...

---

[1] **Harosat** — yomon, xunuk ish, mudhishlik.

— Ota!!! — deb hayqirdi yana Mammat cholning so‘zlari xato ekanini gap ohangi ila bildirib qo‘ymoqchi bo‘lib.

Vaziyatga qarab ish tutmasa, kelinning yuzini ko‘rish tugul, bu hayvon undan ming battar ishni qilishdan ham toymasligini tushunib turgan qariyaning hozir o‘g‘lidan jahli chiqdi. Yo‘qol, gum bo‘l! — demoqchi bo‘ldi u. — Mening atayin shunday qilayotganimni tushunmayapsanmi, bolam?

Qariyaning so‘zlarida, harakatlarida ham qahr, ham yolvorish sezilardi. Qaynotasining bir aytganini ikkinchi marta ayttirmay darhol bajarishga o‘rgangan kelin o‘rnidan qo‘zg‘almadiyam.

— Kelinning qulog‘i karmi? — so‘radi Qora sartib bolalarcha gumrohlik bilan.

Badaniga o‘t tekkan kabi azobga tushgan Mammat sartibga qarab yurdi. Tansoqchilar yigitni o‘rab ola boshladilar. Qariya ham shiddat bilan qo‘lini ko‘targanicha xuddi urmoqchiday sartibga qarab yurdi. Ammo uning shapalog‘i sartibga emas, Mammatning yuziga tushdi.

— Bu yilgi chumchuq o‘tgan yilgi chumchuqqa chirq-chirqni o‘rgatadigan bo‘lib qoptimi? — dedi u titrab. So‘ng keliniga yuzlanib, past ovozda dedi:— O‘g‘iljayron, qizim, qaynotang sening nomusga qolishingni istab turgani yo‘q. Aytilganni bajo qil.

O‘g‘iljayron bu gal vaziyatga bo‘yin sunib, beri aylandi-da, asta yuzidan yopinchig‘ini oldi...

Kelinini uyaltirmaslik uchun yuzini teskari burib turgan qariya birdan pichog‘ini sug‘urib olib hujum qilmoqchi edi. Qariya nima voqea ro‘y berayotganini anglamay qoldi. Kelinining “voy!” degan ovozi, Mammatning so‘kingani qulog‘iga eshitildi. Orqaga qayrilib, yerda chalqanchasiga ag‘darilib yotgan o‘g‘lini va chap qo‘lini avaylabgina tutib turgan sartibni ko‘rdi. Sartib kelinga yaqinlashib qo‘l cho‘zgan zahoti O‘g‘iljayron uning bilagini tishlagan, Mammat sartibning ustiga tashlanganda esa, shu yerdagi tansoqchilarning biri Mammatni urib yiqitgan edi.

Shu lahzalarda bo‘lmag‘ur voqealarning bo‘lib o‘tganiga, qilingan ehtiyot harakatlarning bekor ketganiga o‘kingan qari cho‘ponning javohir sopli pichog‘i ham nishonga tegmadi. Cholning qo‘liga tepki tegdi-yu, javohir sopli pichoq uchib borib tuy-

nukdan osilib turgan sanochning qirrasiga tegib qaytdi-da, o'choqqa kelib sanchildi. Cholning boshi gangib, yuragi tomog'iga tiqilganday bo'ldi. Og'zi issiq qonga to'lganini tuydi. Birozdan keyin o'ziga kelganida, o'g'li bilan yonma-yon yerda yotganini angladi. Chiqib qochishning o'ng'ayini topolmay turgan kelini esa butun vujudi ila qalt-qalt titrardi.

Ichkarida allavaqtgacha sukunat hukm surdi. Tashqarida turgan sarbozlar uyni o'rab olgan edi.

Ham o'ziga, ham o'g'liga o'qtalgan xanjarlarga ko'zi tushgan qariya endi g'isht qolipdan ko'chganini bildi. Qo'lidan biror ish, tilidan biror gap kelmaydi. Shu paytgacha barakat to'lib-toshib kelgan, endilikda baxtiqarolikdan tuynugigacha qorayib ketgan uyda Xudo deb yotmoqdan boshqa chora qolmagan edi.

Oraga tushgan sovuq sukunatdan xunuk bir qabohat ishning hidi kelib turardi. Chap qo'li g'ajib tashlangan Qora sartib bir qadam ortga chekindi-da, dovdiraganidan ro'molini yopinishni ham unutgan O'g'iljayronni ko'zdan kechirdi. Kelinning pastki labida qon yuqini ko'rgach, boyagi og'riqlar qayta yodiga tushganday:

— Men sening pistâ kabi dudoqlaringni qon yalagan qanjiqning og'ziday qilib qo'yaman hali... urg'ochi qashqir bo'lasan hozir... — deb vishilladi. So'ng tansoqchilarga yuzlandi. — Manavilarning qo'llarini bog'lang, haqiqiy bekzodalar nima ish qilishlarini bir ko'rib qo'ysinlar!.. O'zlaring ham lazzatlaninglar!..

Qora sartib berilgan buyrug'i so'zsiz bajarilishiga ishongan holda eshik tomon yurdi. Ko'zanak tomon borib-kelib turgan Blokvil Qora sartibga ko'zi tushgan hamono unga qarab yurdi.

— Endi bu yerda nima bo'ladi, janob?

Bolalarcha berilgan savoldan sartibning battar tumshug'i osilib ketdi.

— Bekzodalar tomoshasi nimaligini bilmaysanmi? — deb to'ng'illadi sartib.

Blokvil ko'zlarini pirpiratib, hayron bo'lib turdi, bekzodalar tomoshasi nima ekanligini anglab olishga, tag-tagiga yetishga urinib ko'rdi, bo'lmadi. Qayta so'rashga esa uyaldi.

— Eshitganman-u, ma'nosiga tushunmas ekanman, janob. Normandiyada ham, Parijda ham bu kabi tomosha yo'q.

— Hozir bariga tushunib olasan! — deb sartib g'alati ishshaydi-da, tomoshaning boshlanishini betoqatlanib kutayotganini yashirmasdanoq, Blokvilga tushuntira boshladi. — Haligi kelin mening qo'limni tishlab oldi. Ishonmasang, mana, qara. Bu bilan u ulug' martabali sartibning sha'nini yerga urdi. Bu qilmishi uchun endi har kim kelinni o'zi xohlagan ko'yga soladi.

Bo'layotgan voqealarga yevropacha odob-axloq nuqtayi nazaridan e'tibor berayotgan Blokvil o'zini yana tushunmayotganga oldi.

— Bunaqa emas-ku, janob. Aksincha, chaqirilmagan holingizga, uyga bostirib kirish bilan o'zingiz ayol kishining sha'nini oyoq osti qildingiz-ku, axir!

— Ehehey! — Qora sartib bosh silkitib hayqirgan bo'ldi. — Sen, janob, ko'p narsani bilasan-u, ammo oz narsani tushunar ekansan. Haliyam men odamgarchilik qilayapman. Sen Hamza Mirzaning kimligini bilasanmi?

— Bilaman. Nasriddinshohning jiyani, son jihatdan eng katta qo'shinning sarkardasi.

— Bo'pti-da, men uning buyrug'ini bajaryapman-ku.

— U sizga ayol kishining nomusini bulg'a dedimi?

Qora sartib baland osmonda hanuzgacha tarqalib ulgurmagan tutun izlariga ishora qildi.

— Anovini ko'ryapsanmi?

— U boshqa narsa, janob.

— Boshqa narsa emas! Mana shu tutun uchun bularning barchasini to'plab, boshini kessam ham kam...

Javobdan qanoat hosil qilmagan Blokvil jim qolishga majbur bo'ldi.

Kapral bilan sartib bekzodalar tomoshasi tugaguncha ikkovi ikki tomonda aylana boshladilar. Og'zi shaltoqi Qora sartib ham jimgina kezardi. Ular tashqarida kezib yurar ekanlar, o'tov ichidan kelinning dahshatli faryodi eshitilganda Blokvil beixtiyor o'tov tomonga ko'z yubordi va ko'zlariga ishonmay qotib qoldi: qari cho'pon bilan o'g'lining qo'llari tang'ib bog'langan, sarbozlar esa qip-yalang'och kelinning atrofida... Mana senga musulmonchilik!

Bular o‘zlaricha Yevropani buzuqi deb hisoblaydilar. Mana senga axloqi pok bo‘lgan musulmon dunyosining halolligi!

Fransiyaning, Yevropaning katta-katta shaharlarida ko‘p narsalarni o‘z ko‘zi ila ko‘rgan, ko‘p narsalarni eshitgan Blokvil hozirgi bo‘layotgan sharmandali voqeani aqliga sig‘dira olmadi. Sha’ni bulg‘anayotgan insonlarni o‘ylab joni achishdi. Ammo hozir uning qo‘lidan achinishdan boshqa hech narsa kelmasdi. Afsuski, sarkardalarga buyruq berishga Blokvilning haqqi yo‘q. Shuning uchun ham u chidayolmasdan yana Qora sartibning oldida paydo bo‘ldi.

— Bu yoqqa yuring-chi, sartib! — deb Blokvil ko‘zanakdan nari ketgisi kelmay turgan sartibni qo‘lidan tutgan holda sudrab ketdi. Bo‘lgan voqeani ko‘rib, haliyam o‘ziga kelolmayotgan farang ayni shu lahzalarda shunday savolning o‘rni emasligiga qaramasdan, Qora sartibga g‘azabkorona boqib:

— Siz turkmanlarni juda kuchli dushman deb bilasizmi? — dedi.

Qora sartib besh-olti qadam joygacha javob bermay bordi.

— To‘p bilan qarshisiga chiqadigan darajadagi dushman emas ular. Men shuni bilaman.

— Unday bo‘lsa buncha mashaqqatlar chekib, o‘ttiz uch to‘pni sudrab kelishdan ma’ni nima edi?

— Bu bir siyosat, janob. Sen o‘zing harbiy odamsan-ku, tushunarsan. Nasriddinshohning misdan yasalgan mushti qanaqaligini bular ham bir bilib qo‘ysin-da!

— Siyosat, deng-a?

— Xuddi o‘zi.

— Bundan boshqacharoq siyosat qilinsa bo‘lmasmidi, axir? Aytaylik, takalarning xonini Nasriddinshohning yoniga chaqirib gaplashilsa...

O‘ng qo‘lining shahodat barmog‘ini ko‘tarib olgan Qora sartib Blokvilning gapini eshitgisi ham kelmay, cho‘rt uzdi-da:

— Sakro ba masjid che kor? (Masjidda itga nima bor?) — dedi.

Blokvil sartib fikriga qo‘shilmasligini anglatish uchun ham gap tashladi:

— Agar boshqa turkman qabilalari takalarga yordamga kelsa, nima qilar edinglar?

Sartib kapralning gapiga kulgisi kelganday ma'noda yoqimsiz iljaydi.

— Turkmanning qabilalari itning axlati kabi ko'p! Ko'p narsani esa bitta joyga jamlamoq qiyin bo'ladi. Eng yaxshi tomoni shuki — turkmanlarning og'zi hech qachon birikmaydi. Bizga xuddi shu narsa kerak. Agar Xudo senga ming yil umr bersa-yu, ming yildan keyin kelib qarasang, o'shandayam turkmanlarning og'zi birikmaganini ko'rasan.

— Nimaga asoslanib bunday deyapsiz?

— Sababi, turkmanlar mag'rur xalq. Juda mag'rur. Mag'rurlik esa nodonlikdan kelib chiqadi. Aqlli odam hech qachon mag'rurlik qilmaydi.

— Aqlli odamlarning sodda-bayov bo'lishlarini o'zim ham ko'p marta uchratganman, janob. Bu gapingizda jon bor.

Gaplarim bilan farang odamni qoyil qoldirdim deb o'ylagan sartib yana tovushiga zo'r berdi:

— Marhamatli Hamza Mirza ijozat bersa, men turkmanlarning solir degan qabilasi ustiga chopar yuborgan bo'lardim...

— Nima maqsadda?

— Maqsad shundayki... Morro bo dasti dushman boyad kashd! (Ilonni dushman qo'li bilan o'ldirmoq lozim)

— Solir deganingiz ham dushmaningiz bo'lsa, ular sizga xavf solayotgan ilonga qarshi chiqarmikanlar?

Qora sartib Blokvilga qahr bilan qaradi.

— Hamma gap ikkala ilonning ham quyrug'ini bildirmasdan bosishda! Mana shuni uddalay olsang, ikkala ilon bir-birini chaqishi aniq. Qaysi biri boshqasidan chaqqonroq chaqadi — buning bizga ahamiyati yo'q. Odam degani shunday vahshiy, uddaburoki, hatto, ikki ajdarhoni ham bir-biriga qayrab soladi.

Qora sartib aytganlari rostligiga Blokvil ishondi — uning qo'lidan hamma narsa keladi. Misol — sartibning o'zi.

Cho'ponning uyidan chiqib kelayotgan sarbozlarga ko'zi tushgan sartib:

— Bekzodalar tomoshasi tugadi, shekilli, — dedi. — Endi ketaversak ham bo'lar.

Chiqib kelayotgan sarbozlarni kuzatar ekan, Blokvil anqayib qoldi — ular go'yo hech qanaqa jirkanch ish qilmaganday bemalol iljayib kelishardi. Qari cho'pon bilan Mammatning hamon bog'liq yotganini ko'rgan Blokvil sartibga yuzlandi:

— Ruxsat bersangiz, bandilarning qo'lini bo'shatsam, janob?

Sartib farang odamga qarab ishshaydi:

— Sening ham kirish niyating bor ekan-da? Shariatda sharm yo'q deydilar. Afsus, endi u yerda sening ko'nglingga yoqquday taom qoldimikan?

Blokvilning ovozi qaltirab chiqdi:

— Kechirasiz, men bunaqa iflos o'yinlarda ishtirok etishga or qilaman.

— Mayli, bandilarni bo'shatging kelayotgan bo'lsa, bo'shataqol, kapral, bo'shat! — sartibning ovozi yangrab chiqdi. — Bir odam bog'laydi, ikkinchisi esa yechadi — hayotning qonuni shu...

Blokvil o'tov ichiga kirdi-yu, qo'li bog'liq bandilarning yuziga qaramaslikka intilib, to'rga o'tdi. O'g'iljayron ustini yopishga ham holi kelmay behush yotardi. Blokvil kelinning yirtilib ketgan ko'ylagini yerdan olib, uning ustini yopib qo'ydi. So'ng cho'ponning yonida cho'kkalab, qo'lini ipdan bo'shatishga urindi. Mahkam tang'ib tashlangan ipni yechish oson emas edi, shuning uchun Blokvil yonidan pichog'ini oldi-da, kesib tashladi. Qo'li ipdan bo'shagan qariya Blokvilga ayanchli nazar bilan boqdi. Cholning nigohida cheksiz alam va xo'rlik izlarini ko'rgan Blokvil:

— Man ba in daxl nadoram (Mening bunga aloqam yo'q), — dedi titrab-qaqshab.

Blokvil Mammatni ham ozod qilish uchun burilganida o'nglab bo'lmas yomon bir ko'rgulik yuz berganini anglab, dahshatdan qotib qoldi. U yigitning qo'llaridan ipni kesib tashlaganda bechora yigit shilq etib nari tushdi. Blokvil uni qo'ltig'idan tutib turg'izmoqchi bo'lgan edi, ammo endi bu harakatlari befoyda ekanini bildi. Farang odam Mammatning tomog'ini tutib tomirini tekshirib ko'rdi. Yigit o'lib qolgan edi. Boya O'g'iljayronni sarbozlar yechintirayotgandayoq mudhish sharmandalik tog'i ostida erkaklik

sha'ni, or-nomusi poymol bo'lgan baxtiqaro yigitning nomusdan joni chiqib ketgan edi...

7

Qo'vshutxonning taxmini to'g'ri ekanligi taklif qilingan oqsoqollar yig'ilib ulgurmayoq ayon bo'ldi. Eroniylar qo'shini qachon, qayerda Tajan daryosidan kechib o'tganligi haqida xabar kelib yetdi. Ustiga ustak, chopar keltirgan xabarga ko'ra, qojor askarlarining soni ikki barobar ko'proq edi.

Hayhot, Qo'vshutxonning taxmini to'g'ri chiqqanligi ham bejiz emas. Pishqirib haybat otib turgan Eron oxiri yorilibdi-da... Bosh xonning huzuriga to'plangan oqsoqollar, katxudolar maslahatni shundoq pishitdilar — o'ba odamlarini guruh-guruhga bo'lish, kimlarda qurol-aslaha kamligini, cho'lga jo'natishga to'g'ri kelguday bo'lsa, kimlar suv, kimlar oziq-ovqat g'amlashi kerakligini aniqlash zarur edi. Mol-ko'chini dushman qo'li yetmas joylarga yashirish ishlari bilan kimlar shug'ullanishi kerakligi, bari-bari gaplashib olindi.

Saraxs va Marv shaharlari oralig'idagi quduqlarning zaxirasini aniqlash ham o'ta muhim ishlardan biri edi. Qo'vshutxon hali dushman savash maydoniga kirmay turiboq, dushmanning oyog'iga bolta urishni o'ylayotgan edi. Shunga ko'ra, Tojko'k sardor boshchiligida bosqinchilarga dastlabki zarbalarni uyushtiruvchi guruh tuzildi.

Saraxs bilan Marv oralig'ida dushmanga kuch-mador bag'ishlovchi quduqlar ko'p. Shulardan ikkita sersuv quduqni ishdan chiqarish vazifasi Bozirgan ustaga topshirildi. Bozirgan usta bu yerlarga Marv takalarining eski o'tirimli otamakoni Beshqal'adan uch yil muqaddam ko'chib kelgan edi. Avvaldan nomi mashhur bo'lgan usta bu yerga ko'chib kelganidan keyin xaridori ko'paygandan ko'paydi, nomi yanada keng taraldi. Bozirgan usta Eronda asir bo'lib yurganida o'rgangani — zantaloq deb atalmish qilich yasardi. Ustaning o'ziga qolsa-ku, asirlikdagi hayoti, hunar o'rganishi borasida hech kimga tish yorib, og'iz ochgisi kelmaydi. Usta bedananing uyi yo'q... qabilida umr kechirib kelar, bor-

yo‘q boyligi bir tuyaga yuk bo‘lar-bo‘lmas ko‘ch-ko‘roni edi. Bu ko‘ch-ko‘ronning ham yarmi— temirchilik anjomlari.

Usta Bozirganning yana bir hunari bor. U dala-tuzning, tog‘-toshning giyohlaridan, ba’zi qurt-qumursqalarni yig‘ib yurib, shulardan zahar tayyorlardi. Qilich yasaydigan ustaga zaharning nima keragi bor, dersiz? Hamma gap shunda-da, usta yasagan qilichlariga ana shu zahardan surib, dam beradi— ana endi bu zulfiqorning bahosi osmonda deyavering.

Ustaga Marvdan tashqaridagi ikki quduqning ko‘zini berkitib, safdan chiqarish vazifasi topshirildi. Usta o‘ziga yordamchilarni to‘plab oldi, biri cho‘lning baland-pastini besh barmoqday biladigan Eson cho‘pon, ikkinchisi Qoramurt botir va uning o‘n uch yashar o‘g‘li Shomurodjon edi.

Saraxs yo‘liga chiqayotganlarga boshchi qilib belgilangan usta Bozirganning o‘zi asli ichimdagini top deydigan odam bo‘lganligidanmi, yoki katta-yu kichikning xayoli kelayotgan yog‘iyda bo‘lganligidanmi, to manzilga yetib borgunlaricha to‘rt hamrohning birontasi lom-mim deb og‘iz ochmadi. Shuning uchun yo‘l ham uzundan uzoq bo‘lib tuyuldi. Vaziyatning o‘zi ko‘ngilga xavotir solayotgan bir paytda hech kimning gapirgisi kelmayotgan edi.

Ana, kelyapti degan ulkan qo‘shin haqiqatan ham turkman tuprog‘iga qadam qo‘ygan bo‘lsa, yo‘lni kuzatish uchun oldinga yuborilgan ayg‘oqchilar guruhi mana hozir oldingdan chiqib qolishi hech gap emasdi. Bozirgan usta boshchilik qilayotgan bu turkmanlarning nimasi bor dersiz, yonpichoq, bitta belkurak, bitta boltadan boshqa hech vaqolari yo‘q. Shunisi yaxshi, mabodo yo‘lda dushman ayg‘oqchilari uchrab qolsa, turkmanlarni hali hech narsadan xabari yo‘q, deb o‘ylaydi. Qurollanib chiqqanida nima, qirg‘inbarot deb kelayotgan og‘ir qo‘shinga qarshi shu to‘rttagina turkman nima ham qilardi? Yo‘q, yaxshisi bularni o‘tincho‘p terishga chiqqan bechoralar deb o‘ylaganlari ma’qul.

Xudo yorlaqadi, shekilli, qo‘shquduqqa yetib kelgunlaricha yo‘lda hech kim uchramadi.

Tinchlik mahallari ham bu yo‘llarda ot tezagi qurib qolmas, ya’ni u yoq-bu yoqqa qatnaydigan qo‘ylar tez-tez o‘tib turar, endi

esa, qojor qo‘shini bu tomonga qarab sarhad oshganlaridan keyin, yov qadam bosishi mumkin bo‘lgan yerlardagi barcha chorva mollari yiroq-yiroqlarga olib ketilgan edi. Qiziq, odamsiz keng sahro yutaman deganday, yanada xavf-xatarli tus olgan edi.

Qo‘shquduqning atrofida, hatto, chivin ham yo‘q, jimjitlik. Eson cho‘ponning aytishicha, sahro bilan cho‘lning qo‘shilgan yerida qaynab chiqqan quduqning boshida odam bo‘lmasligi mumkin emas. Qachon kelsang biron cho‘liq meshini suvga to‘ldirib turgan yoki cho‘pon mollarini sug‘orayotgan bo‘ladi.

Bu suv manbalari qo‘shquduq deb atalsa-da, asli ularning orasi bir chaqirimcha bor. Kelganlar yo‘lga yaqin quduq tepasida dam olgan bo‘ldilar-u, darrov ishga kirishdilar.

Quduqni ko‘mish shart bo‘lib qolganda, turkmanlar uni bir ato‘la suv chiqmaydigan qilib ko‘mib tashlamasdilar. Hammasining yo‘li bor, quduq ko‘zi ehtiyotlab bekitiladi, yer bilan tep-tekis qilinadi, begona odamlar kelsa shu yerda quduq bordir deb o‘ylamaydiganday qilib ko‘zdan yashiriladi. Maqsad— dushmanning quduqdan foydalanishiga yo‘l qo‘ymaslik. Bu juda qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgan qoida. Dushman yakson qilingandan keyin quduq yana izlab topiladi, ehtiyotlab quduq ko‘zi ochiladi, yana o‘sha tomchisi oltinga teng bo‘lgan obi hayot yer yuziga olib chiqiladi.

Shomurodjon horib kelgan otlarni sug‘orguncha, kattalar bir quchoq-bir quchoq saksovul terib keldilar. Shundan so‘ng uch odam bitta kurakda almashlab tinmasdan ishlashdi. Quduq ichiga qum, tuproq, cho‘p-chalang tushmasligi uchun barcha ehtiyot choralari ko‘rilib, quduqning og‘ziga boya keltirilgan saksovuldan ko‘prik qilib bosildi. So‘ng quduq ko‘mib tashlandi. Usta Bozirgan bilan Qoramurt botir quduqni ko‘mib bo‘lguncha, Eson cho‘pon bilan Shomurod yana bir quchoqdan saksovul to‘plab keltirdilar. Usta peshonasidagi terni artarkan, o‘tinga qarab chamaladi:

— Yigitlar, bu oz bo‘ladimi deyman-ov... Men novlarni yiqitgunimcha sizlar yana o‘tin yig‘ib kelinglar.

Oradan ancha vaqt o‘tib, og‘zi bostirilib ko‘milgan quduq ham, yiqitilib bir chetga tashlangan novlar ustiga ham saksovul

bosildi, ko‘zdan yashirildi. Shundan so‘ng ikkinchi quduqqa qarab ketishdi.

Ikkinchi quduq ko‘milmasligi kerak — uni zaharlashga buyruq berilgan edi. Usta Bozirganning bu guruhga bosh qilib yuborilishining asosiy sababi ham mana shu.

Umuman, turkmanlar quduq zaharlamoqchi bo‘lsalar, bu ishni bir to‘rva arpa bilan ham bajaraverishlari mumkin, bitta otto‘rva arpani quduqqa tashlasalar bas — quduq suvini og‘izga olib bo‘lmay qoladi.

Biroq usta Bozirgan bu yo‘lni biroz yengilroq hisoblagani uchun, u quduqqa to‘kilgan arpa ustiga sichqon ham tashlamoqchi bo‘ldi. Sichqon topish kerak degan gapni eshitgan Eson cho‘pon ustaning yuziga ajablanib boqdi.

— Sen o‘zi rostdan ham ustamisan yoki hazillashayapsanmi?

Usta ham, o‘z navbatida, cho‘ponga chimirilib qaradi:

— Hozir hazillashadigan vaqt emas-ku, Eson!

— Men ham shunga hayron bo‘layapman-da.

— Hayron bo‘l, bo‘lma, hozir sichqon topmasak bo‘lmaydi.

— Cho‘lda hozir sichqon nima qiladi, usta? — dedi Eson cho‘pon usta Bozirganning o‘ylab topgan gapidan hayron bo‘lib. — Hozir cho‘lda ilon topsa bo‘lar, yumronqoziq topsa bo‘lar, ammo sichqon topolmaysan...

— Yumron topsa bo‘ladimi, axir?

— Topsa bo‘ladi, — ishonch bilan gapirdi cho‘pon. — Cho‘lning qayerida o‘t-cho‘p mo‘l bo‘lsa, yumron o‘sha yerda-da, usta.

Usta Bozirgan o‘zi ko‘tarib kelgan qopchaning og‘zini ochib, ichidagi bor-yo‘q arpani quduqqa to‘kdi-da, so‘ng yumronqoziq izlashga kirishdilar.

Quduq tevaragida yumron yoki boshqa jonivorlar kezib yurishi aniq. Mana shunday maxluqlar tushib, suvni ifloslantirmasligi uchun, quduqning og‘ziga cho‘ponlar baland seki (g‘ov, to‘siq) ham yasab qo‘yishadi. Sababi, quduq ichiga yumron yoki sichqon tushib o‘lsa, bu suvni ichib bo‘lmaydi. O‘lik yumron yoki sichqon quduq ichida qolsa, bu quduq endi vabo tarqatuvchi makonga aylanadi. Shuning uchun ham quduqqa sichqon yoki yumron tushib

ketganini bilgan odamlar suvni so‘nggi tomchisigacha quduqdan tashqariga to‘kib tashlaydilar. Jonivorning o‘ligi quduqdan chiqarib tashlanmaguncha, molga bu yerdan suv berilmaydi.

Ko‘p o‘tmay quduqqa tashlanadigan yumronqoziq ham topildi. Eson cho‘pon saksovul ostida yotgan yumronqoziqning boshini darrov majaqladi.

Xuddi shu fursat saksovullar orasida yumron izlab yurgan Shomurodjonning chinqirig‘i yangradi. Uning faryodi shunday achchiq ediki, butun sahro titrab ketganday bo‘ldi. Uch kishi uch tomondan unga qarab chopdi.

Shomurodjonning yoniga eng birinchi bo‘lib Qoramurt botir yetib keldi. O‘g‘lining ahvolini ko‘rgan otaning o‘zi ham sal bo‘lmasa jigarporasining yoniga yiqilib qolayozdi. U saksovulzor ichida yonboshlab yotgan o‘g‘lini ko‘tarib olishga kuchi yetmay, orqasiga qayrilib Xudoga iltijo qilayotgan kabi ikki qo‘lini falakka dast ko‘tardi-da, izma-iz yetib kelgan ustaga qarab faryod tortib yubordi:

— Baxtim qaro bo‘ldi, usta, baxtim qaro bo‘ldi! Xudoyim meni ikki qo‘llab urdi!

— Nima bo‘ldi, nima balo keldi?

Qoramurt botir javob bermadi, nima bo‘lganini usta bilan cho‘pon o‘z ko‘zlari bilan ko‘rdilar. Qo‘rqqanidan rangi cho‘lning sap-sariq qumiga mengzab qolgan o‘g‘londan bir qadam narida dahshatli malla ilon qochishni xayoliga ham keltirmay, o‘zi qilgan ishidan xursand bo‘lganday bemalol yotardi.

— Qayeringni chaqdi? Qani, ko‘rsat-chi! — har doim tuyaday shoshilmay yuradigan, shoshilmay gapiradigan ustaning shoshib qolgani bu gal ovozidan ham bilinardi. — Bo‘tam, ko‘rsat, oyog‘ingni chaqdimi?

Eson cho‘pon qo‘lidagi belkurak bilan ilonning boshini mo‘ljallab urdi. Yer yumshoq edi, ammo o‘tkir belkurak ilonning boshini chirt uzib tushdi. Ilonning gavda qismi boshi bilan o‘zining aloqasi yo‘qday, quyrug‘i tinmay chirpinib, vahshat ila harakatlanardi. Ilonning chirpinib haybat otishiga hech kim, hatto, uning kallasini uzib tashlagan Eson cho‘pon ham e’tibor qilmadi.

— Xonavayron bo‘ldim, Bozirgan! Baxtim qora bo‘ldi, Bozirgan! Shu cho‘l unga mozor bo‘ladimi? Endi nima qilaman, gapirsang-chi, Bozirgan!

Shomurodjonning yonida cho‘kkalab o‘tirgan usta Qoramurtning og‘zini havo bilan yopmoqchiday, qo‘lini yoyib silkidi.

— Sharmanda ayollarga o‘xshab namuncha dod-voy solasan? Jim bo‘l! Uyalsang-chi! Yig‘i-sig‘idan nima foyda?! Qayeringni chaqdi, bo‘tam, o‘zing qo‘ling bilan ko‘rsat-chi!

Shomurodjonning qo‘li chap oyog‘ining boldirida to‘xtadi. Bozirgan usta bolakayning pochasini tizzasigacha shimarmoqchi bo‘ldi. Ammo tor qilib tikilgan pocha bolaning shishib ketgan boldiridan nari o‘tay demasdi. Usta ikki qo‘lini tizzasiga tirab, Shomurodjonning tepasida turgan Eson cho‘ponning belidagi oq sop pichoqni qinidan sug‘urib oldi-da, ishton pochasini uzunasiga kesib yubordi.

— Qattiq chaqdimi, Shomurodjon? — qaltiray-qaltiray so‘radi Qoramurt botir yuragi achishib.

Usta Bozirgan Shomurodjonning boldiriga ko‘z yuborib, qo‘li bilan silab, kuzatib chiqquniga qadar Qoramurt botir bu savolini bir necha marta takrorladi. Ammo Shomurod ham, Bozirgan usta ham jim edi.

— Shunaqayam savol bo‘ladimi? — jahli chiqdi Eson cho‘pon. — Ilon chaqqanidan keyin qattiq-yumshog‘i bo‘lar ekanmi? Savoling qursin sening. Birovga falonchi o‘libdi deb xabar berishsa, rostdan o‘libdimi? — degan ekan...

Sodda cho‘ponning o‘lim so‘zini tilga olgani Qoramurtni esankiratib tashladi. Go‘yo bu so‘z hozir o‘g‘lining ahvoliga doir aytilganday sezildi. Usta hanuz quyrug‘i chirpinib yotgan bahaybat ilonni kuzatar ekan, sekin bosh chayqab shivirladi:

— Dayus, o‘ziyam ilonmisan-ilon ekan-ov! Norasta bolakayni topib chaqqanini qara-ya...

Norasta so‘zini eshitib, Qoramurt botirning ichini it talaganday jimirlab ketdi. Negaki bu so‘z erta nobud bo‘lgan go‘dakka yoki bevaqt xazon bo‘lgan bolakayga aytilishini bilardi. Botir xuddi oyog‘i kuygan tovuq singari tipirchilab sakray boshladi.

— Bas qil-da, bu yoqqa kel!

Bozirgan ustaning amri botirga o‘q tekkanday ta’sir etdi, u boshini egib ustaning yoniga keldi.

— Ilon chaqqan joyga qara-chi, yarasi kattami? — deb so‘radi usta hamon joni achishayotgan Qoramurt botirning yuziga tikilib. Botir yo‘q deganday boshini chayqadi.

Usta o‘ng qo‘lining bosh barmog‘i ila oq sopli pichoqning damini sinab ko‘rdi, so‘ng pichoqni uch-to‘rt marta qumga tiqib-tiqib oldi.

— Biring bolakayning oyog‘iga min, ikkinching uning qo‘llarini qattiq ushla, qimirlamasin!

Eson cho‘pon bolakayning oyog‘iga, Qoramurt botir esa qo‘llariga yopishdi.

— Bismillahir rohmanir rohiym!

Cho‘pon pichog‘ining o‘tkir tig‘i bolakayning oyog‘ini tilib o‘tdi. Avvalgisidan ham qattiqroq chinqirib yuborgan Shomurodjon toychaday entikib o‘rnidan to‘rt oyoqlab turishga intildi, ammo ustidan bosib yotgan og‘ir yuk uning oyoqqa turib ketishiga yo‘l bermadi. O‘g‘lon vujud-vujudini titratib yuborgan og‘riqni chinqiriq ila chiqarib yubormoqchi bo‘ldi. Butun cho‘lni bola faryodi to‘ldirib yubordi, ammo yaraning og‘rig‘i pasaymadi.

O‘tkir pichoq ilon og‘iz solgan yerda yana bir iz qoldirdi. Ishini bitirgan usta pichoqni cho‘ponga uzatdi. Usta endi cho‘k tushib o‘tirganicha oldinga egildi-da, tekis kuzalgan soqolini selkillatib Shomurodjonning oyog‘idagi yaraga og‘zini bosib so‘ra boshladi. So‘rdi, boshini ko‘tarib yon tomonga tupurdi, so‘rdi, boshini ko‘tarib tupurdi, so‘ng yana...

Nihoyat usta Bozirgan so‘nggi marotaba tupurib olgach, ko‘ylagining yengi bilan og‘zini artdi. Qoramurt botir bilan Eson cho‘pon endi usta nima qilarkan deganday, unga qarab qolishdi.

Usta tizzalab turib, ishtonbog‘ini yechdi, kuchandi, xixladi, peshob qilmoqchi bo‘ldi, buni bajarolmagach, bo‘g‘riqib so‘kindi:

— Evoh, la’nati, kerak paytida oqmaydi!

So‘ng he yo‘q, be yo‘q, Shomurodjonning ishtonini yechdi.

— Sal tikla o‘zingni!

Og‘riq pasaygandan so‘ng sal-pal o‘ziga kelib olgan o‘g‘lon ishtoni yechilganini ko‘rib, uyalganidan jon holatda ikki qo‘llab

uyat joyini bekitdi. Usta Bozirgan Shomurodjonning qo'lini urib yubordi.

— Uyalyapsanmi? Topding uyaladigan paytni! Bulbulim uchib ketadi deb qo'rqayapsanmi? Obbo, sening shu shamshiringni ko'rish uchun ishtoningni yechdimmi? Bolajonim-ov, qani oyog'ingga qaratib choptirib yubor, siy dedim!

Usta bolakayning oldiga qo'sh hovuchini tutdi. Atrofdagilarning tikilib turganini, o'zga bir kishi shundoqqina oldiga kaftini tutib turganini ko'rgach, bola battar uyaldi.

— Siy dedim senga! Bo'lmasa hozir bulbulingni kesib olaman! Ana... ha, barakalla, bolam!

Usta hovuchidagi peshob bilan bolakayning boldiridagi yarani yuvib tashladi. So'ng esa... Yana bir hovuchidagi peshobni og'ziga olib, tanglayini chayib tashladi.

— Endi o'baga qaytaversak ham bo'lar, yigitlar. Eson botir, sen boyagi topgan yumronni quduqqa tashlab kel. Hoy, xon yigit, tur, qani, opich menga...

8

Yumronqoziq va ilon inidan cho'lning yuzi ilma-teshik bo'lib ketgan edi. Otlar, tuyalar shu chuqurchalarga oyoq tiqib tizzalarini sindirib olardi. Tun juda besaranjom o'tdi, suvsiz qolgan va quvvatsizlangan mollarning ikki mingga yaqini shu kecha jon berdi. Bu ahvol ertasi kuni ham davom etdi.

Said Muhammad Ali al-Husayniy

Turkmanning nayzaga sanchilgan kallasidan qon tomchilar, uzun soqoli shamolda hilpirardi. Yuzi qilich izidan mo'mataloq bo'lib kesilib ketgan, yara bosgan, ammo shunga qaramasdan uning nuroniy, donishmand odam bo'lganligini anglab olish mumkin edi. Uning chehrasida zaharxanda kulgi qotib qolgan edi.

Jorj Blokvil xotiralaridan

Ming sakkiz yuz oltmishinchi yil iyulida turkman cho'li o'z qudratini namoyon qila boshladi.

Shahzoda Hamza Mirzaning Marvga qaysi yo'ldan yurish qulay bo'larkin, degan savoliga Qora sartib mahalliy tabiatning sharoitiga qarab emas, balki o'zim ko'rsatgan yo'ldan bosib boramiz, deb javob qaytardi. Sartibning fikricha, qadimdan karvon qatnaydigan yo'l xavfli emish, cho'lning ichi bilan yurilganda esa tez yetib borish mumkin. Bu yo'lni shahzodaning o'zi ham o'ylab qo'ygan edi: beshta-o'nta turkman hujum qilib qolsa, o'zlariga o'zlari qiladi— bu bir. Ikkinchidan, cho'lning ichi bilan yurilsa — vaqtdan yutish mumkin, uchinchidan, oziq-ovqat ham kam sarf bo'ladi. Ammo cho'listonning ham o'ziga yarasha sinovlari bor — shulardan biri, mana endi boshlanayotgan javzo olovi.

Boshidan oyog'igacha yetti-sakkiz chaqirimgacha cho'zilib yurib ketayotgan qo'shinning suv zaxirasi sahroga kirganlaridan so'ng — uchinchi kunning o'rtasida tugadi. Mana endi, uch kundan beri Blokvilni xavotirga solib kelayotgan cho'l javzosi o'z hukmini yurita boshladi.

Har kuni kamida besh-olti farsaxdan yo'l bosamiz, deb maqtanishgan sartiblar bu masofani uch kundayam o'tolmagach, damlari ichiga tushib ketdi. Karvon yo'li uzoqlarda qolib ketgan, harorati falakka ko'tarilib turgan qumda yurish esa kun-kundan qiyinlashmoqda. Yassi pashmoq (boshmoq, tovon)li tuyalar-ku, hech narsa ko'rmagan-bilmagan bo'lib yurib ketaverarkan-u, biroq ot, eshak, xachirlar qumda qadam bosay demasdi. Ustiga og'ir yuk yuklangan hayvonning to'ynog'i qumga xuddi bolg'a bilan urilgan mixday botib ketadi, bechora hayvon bezovtalanib tipirchilaydi. Jumla-jahon o't olganday issiq. Odamlar o'zlarini gurillab yonayotgan o'choqning boshida, yo'q, o'sha o'choqning ichida turganday sezadi. Qo'shinning u yer-bu yerida uch-to'rttadan sarboz, mol-qora quvvatdan ketib yiqila boshlagach, Hamza Mirza endi cho'l ichida har kim o'zi bilganicha jon asrasin deb buyruq berdi.

Hammadan burun taqir yer topib chodirini tikib olgan Jorj Blokvil engsisini ko'tarib qo'yib tashqarini kuzatib o'tirardi. Uni ilk bor hayratga solgan narsa, cho'l-biyobonda yaproq yozib, daraxtga o'xshab o'sib turgan o'simliklar bo'ldi. Mana, Blokvilning qoq manglayida panjasini qumga tiqib turgan o'jar (saksovul)

butasining yuzi taram-taram yorilib ketibdi. Blokvil bu yog'ochni issiqqa tob berolmay qo'tir ochgan bir daraxt deb o'yladi. Bu dunyo do'zaxning o'zginasi. Do'zax bo'lgandayam, olovi hech o'chmaydigan do'zax bu! Shu cho'lning ichida yashayotgan odamlarning cho'l-u biyobonda ko'p mehnat qilib kun ko'rayotganiga quvonish kerak emasmi? Bularning chidami, mardligi, mehnatini butun dunyoga namuna qilib ko'rsatish kerak emasmi? Axir ular shunday sharoitda yashab kelayotganlari uchun ham hurmatga arziydilar-ku...

Umrida ilk marotaba cho'lning kumush qumlari orasiga tushgan, yashil Yevropaning toza havosidan simirib yurgan odam, mana, Qoraqumning o'rtasida o'tirib, tap-taqir dunyoga hayron tikilmoqda. Taqirlikning eni-bo'yi uch yuz qadamdan oshmaydi, undan narida yana bepoyon qumliklar boshlanadi. Ajab, shamol qay tomondan esmasin, taqirning yuzi shu zahoti qum bilan qoplanardi. Baribir, cho'lda shuncha maydonning supurilganday tap-taqir bo'lib yotishi farang yigit uchun g'alati tuyuldi. Blokvil buning sababini Hamza Mirzadan yoki Qora sartibdan so'rab olsa ham bo'lardi, ammo bu sharqliklarning beradigan javobi oldindan ma'lum: Bu — Tangrining ishi, janob. Bunaqa javob esa farangni aslo qanoatlantirmasdi. Hammasi Yaratganning xohish-irodasi ekanini Blokvil juda yaxshi biladi, biroq mana shu taqir yer qanday qilib taqirligicha qolaverar ekan — farang mana shuni bilgisi keladi.

Blokvilni hayron qoldirgan yana bir narsa— taqirliklarning salgina fursat ichida jang maydoniga aylanishi edi. Ya'ni, qo'shin tarkibidagi sarbozlar qilich yalang'ochlab emas, balki kurak ko'targanlaricha taqirlikda to'planib olib, o'lim bilan yuzma-yuz turib jang qiladilar— quduq qaziydilar. Bu shunday jangki, qayerdan kelayotganing, qayerga borayotganing so'rab o'tirilmaydi, yaroqsiz yovuz dushman — cho'lga qarshi jang qilasan hozir, qazigan taqirlikdan suv chiqsa — tirik qolasan, suv chiqmasa— jon topshirasan. Seni ayab turadigan katta xolang yo'q bu yerda. Shuning uchun ham sarbozlar sal taqir joy topilsa bo'ldi, hech kimdan hech narsa so'rab o'tirmay, har kim o'z-o'zicha quduq qazishga kirishib ketaveradilar.

Albatta, chetda turib kuzatgan odamgagina bu jang kulgili tuyulishi mumkin. Ammo chodirdan chiqib, jangga qo'shilgan Blokvil ko'nglida kulgiga o'rin qolmadi. Cho'l degan tilsiz yov o'zining naqadar makkor, naqadar shafqatsiz ekanini farangga darrov tushuntirdi-qo'ydi. Farang endi quduq degan so'zga ham darrov tushunadi, zero, mana shu qazilayotgan chuqurdan hozir suv chiqmasa — tamom, sarbozlar qiriladi-ketadi...

Blokvil bundan ham dahshatli yana bir voqea bo'lishi mumkinligi haqida o'ylanardi. Sarkardalar va katxudolar uchun ehtiyot qilib olinadigan zaxira suv bor. Buni sarbozlar ham biladi. Agarda shu taqirda hozir suv chiqmasa, o'lim bilan yuzma-yuz turgan sarbozlar zaxira suv uchun bir-biriga qarshi isyon ko'tarib, turkmanlarga o'qtaladigan qilichlarini shu yerdayoq qindan chiqarishlari ham mumkin.

Mabodo shunday bo'lsa, qurolining qudratini dunyoga namoyish qilish uchun Nasriddinshoh Marvga maxsus yo'llagan parijlik kapral Jorj Anri Gulibef de Blokvil bechoraning holi ne kechar ekan? Yevropa gazetalari sahifalarida Eron sarbozlarining dushman bilan bo'lgan savashda ko'rsatgan qahramonliklarini vasf etish o'rniga, bir tulum (mesh) yoki bir mitara (flaga) suvni talashib sardorlariga qilich solganlarini yozishadimi?

Shu savollarning javobi borasida o'ylanarkan, Blokvil quduq qaziyotgan sarbozlarni kuzatayotib yana o'ylandi: "Yo'q, men aslo bunaqa qilolmayman. Bu bechora sarbozlarda nima gunoh? Bular rizq-ro'zini shu yo'lda terish uchun yollangan qullar-ku, axir. Nima, anovi ko'ringan oltmish yashar qariya bilan o'n besh yashar o'g'lon qon to'kishni havas qilib bu yoqlarga keldimi? Bechoralarning birgina gunohi bor — bu ularning qashshoqligi. Qashshoqlik tufayli bular sarbozlikka yollangan, mana endi o'limga borayotirlar... Ana, fosh qilish qo'lingdan kelsa, shularni yoz. Ammo bu haqda yozib bo'ladimi? Mening o'zim ham mana shularning biriman-ku, axir. Bularning ahvoli menikidan og'irroq. Bular shaxmat piyodasi kabi erksiz odamlar. Shaxmat piyodalari ham shohni, vazirni qo'riqlayman deb hamisha halokatga duch bo'ladilar. Eng so'nggi piyoda halok bo'lmaguncha, shoh asir tushmaydi...".

Rostdan ham tubkonning tubida — Saraxs bilan Marv oralig'idagi do'zaxday cho'liston ichida hozir shaxmat o'yiniga o'xshash o'yin bo'layotir. Sho'rlik piyodalar — sarbozlar shohning, vazirning boshi uchun jonlarini fido qilishga tayyor. Ular quduqni ham shunday majburiyat yuki ostida qazimoqdalar. Bechoralar bu gal Qoraqumning beshafqat panjasidan omon qolishsa, ertaga Marvga yetib borganlarida yana shu og'alari uchun aziz boshlarini garovga qo'yajaklarini bilmaydilarmi? Eh, shaxmat o'yini ana shunaqa o'yin, shohning sharafini asrash uchun ertami-kech boshni tikishga piyodalar shay turmog'i kerak. Shu ma'noda ularning mol-qoradan farqi kam, axir.

Naridan esgan olovli shamol ichida Qora sartib paydo bo'lganda, Blokvil: "Ana, shaxmat piyodalarining vaziri!" — deb kuldi zaharxandalik bilan. Mirza Muhammad Qo'vam ad-Davlaning bu o't-olov ichida bekor paydo bo'lmagani, sarkardalar chodirini tashlab, bekor bu yoqqa kelmaganini farang kaprali tushundi. Blokvil Qora sartibning tanadan judo qilingan, tap-taqir qilib qirilgan kallani soqolidan tutib kelishiga ko'zi tushgandayoq shunday fikrga kelgan edi. Bu safar u naq Hamza Mirzadan buyruq olib kelayotgani aniq. Blokvil Hamza Mirzani jasur odam deb bilar, lekin uning harbiy mahoratiga unchalik yuqori baho bermasdi. Sarbozlarning ruhini ko'tarmoq uchun to'g'ri kelgan bahonayi sababdan mana shunday foydalanib qolishni istardi bu odam.

Gap shundaki, Qora sartib ko'tarib yurgan kalla Blokvilga kechagi voqeani eslatdi. O'tgan oqshom turkmanlar bilan yengil bir to'qnashuv bo'lib o'tdi. To'g'ri, sarkardalar chodiri o'rta-orada tikilgani sababli, qo'shinning bu tomonida joylashgan Blokvil narigi tomondagi jangga o'zi guvoh bo'lgani yo'q. Atrofdagilardan eshitganiga ko'ra, qo'shinning bir chekkasidan chopib o'tgan otliq turkmanlar bir necha sarbozni yaralab, besh-oltitasini asir olib ketgan edilar. Sartibning qo'lidagi kalla — o'sha to'qnashuvda qo'lga tushgan turkmanniki bo'lsa kerak.

Qoraqumning hovri Eron qo'shinlarini Marvga yetmasdan qirib tugatmoqchi bo'lganday qizdirar, issiqqa chidamli eronliklarning o'zlari bunaqa issiq ilgari hech mahal, hech qayerda bo'lmagandir, deb o'ylardilar. Do'zax taftini ilk bora his qilgan Blokvil-

ning o‘zi esa, quyosh yo‘lidan adashib, yerga tomon siljib kelib qolgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylay boshladi.

Eron sarbozlari suvsizlikdan azoblanib qirila boshladi. O‘lim xavfi boshqalarni ham xavotirga solib qo‘ygan edi, qizilbosh[1]lar lahza tanaffus qilmasdan, tinmay quduq qazimoqda edi. U yer-bu yerda uch-to‘rt quloch chuqurlikda namli qum chiqib qolar, lekin bu hali suv degani emas-da.

Blokvil o‘z chodiriga yaqin joyda qazilayotgan quduq yonida namli qumga ma’yus boqib turgan sarbozlar yoniga borganida, bir qari sarboz zobitning belidagi mitara (flaga)ga imo qildi:

— Janob, bir yutum suv bermasang, tomog‘im qaqrab ketyapti...

Qari sarbozning umid nazari ila boqib turgan nigohini payqagan Blokvil hozir yo‘q deyishi bilan voqea boshqacha tus olishini bildi-da, beliga bog‘langan mitarani yechib, sarbozga uzatdi. Ichi bo‘shab qolgan mitara xuddi menda suv yo‘q deganday taraqlab ketdi. Ularning atrofini o‘ray boshlagan hamma sarbozning hafsalasi pir bo‘ldi.

Qari sarboz endi Blokvilning to‘pponchasiga tikildi. Blokvil endi u to‘pponchamga havas qilayapti deb hayron bo‘ldi-da, sarbozga:

— O‘zing shunday bir ahvoldasan-u, tag‘in to‘pponcha senga nimaga kerak bo‘lib qoldi? — dedi.

— Meni tushunmading, janob... — lablari yorilib-yorilib ketgan sarboz zo‘rg‘a gapirdi. — Menga rahming kelsin, bir yaxshilik qil, janob, meni... otib tashla! Zora shu qartaygan chog‘imda tashnalik azobidan qutula qolsam!..

— O‘lmoqchi bo‘lsang, o‘zingda ham qurol bor-ku, axir...

Sarboz bosh chayqadi.

— O‘zini o‘zi o‘ldirmoq og‘ir gunoh sanaladi, nomardlik bo‘ladi. Bunday qilsam, Xudo meni kechirmaydi.

— Agar seni otib o‘ldirsam, Xudo meni kechiradimi?

— Shafqat yuzasidan... rahming kelganidan o‘ldirsang, Xudo xush ko‘rar balkim... Hatto, gapirishgayam holim kelmayapti,

---

[1] **Qizilbosh** — kiygan bosh kiyimining rangiga ko‘ra, Eron qo‘shinlariga turkmanlar tomonidan berilgan umumiy nom *(tarjimonlar izohi)*.

janob... Otaqol, mana go'rim ham tayyor — qari sarboz oyoqlarini sudrab qazilayotgan chuqur oldiga keldi.

Blokvil qari sarbozning harakatlarini kuzatdi: bechora, hozir yiqilsa-yu, namli tuproqqa uchib borib bag'rini bosib jon topshirsa... Ammo bunaqasi mumkin emas-da. Qari sarboz cho'ntagidan kirchir ro'molini olib yozdi-da, issiq qum aralash yer tagidan chiqqan namchil tuproqni panjasiga to'ldirib, ro'mol orasiga sola boshladi. So'ng ro'molning to'rt uchini birlashtirib, suzmaxalta qilib, ichidagi tuproqni siqa boshladi. Tuproq ezilib, ro'mol tagida bir-ikki tomchi suv paydo bo'ldi, shekilli, sarboz ro'molga labini tegizib tamshandi. Ko'zlarini g'alati suzib, pichirladi:

— Shifo kardam (maza qildim).

Shifo kardam... emish, — bosh chayqadi Blokvil.— Dudog'ingga tekkan nam ichingga yetib borguncha shifo kardaming uchib ketdi-ku, bechora!..

Qoraqumning tepasida javzo quyoshi hamon ayamasdan olov yoqar, pastdan qum olov qaytarar, go'yo butun olam mana shu issiqda qovrilayotganday edi. Olov hovriga chidamay qovrilayotgan qizg'imtil qumdan allaqanday bir yoqimsiz kuyuk hidi keladi. Qazilayotgan namchil tuproq sarbozlar o'rtasida talash bo'lmoqda, u yer-bu yerda sarbozlar nam tuproqqa bag'ir bosib, og'iz urib, yuzini burkab dumalab yotardi.

Ro'molidagi nam tuproqni qumga to'kib tashlagan qari sarboz yana Blokvilning qarshisida paydo bo'ldi. U farangistonlikning mitarasiga qayta ko'z tashlarkan, yalinib-yolvordi:

— Janob, shu idishingni menga bersang-chi!

Bu gal Blokvilning achchig'i keldi. Nima, ishonmayapsanmi suvi yo'qligiga deb jerkib tashlamoqchi bo'ldi. Ammo tashnalikdan yig'lay deb turgan sarbozning hozirgi ahvolini tushunib, fikridan qaytdi.

— Ochib ichini ko'rmoqchimisan, sarboz?

— Bu gal men sendan suv emas, mitaraning o'zini so'rayapman.

Blokvil sarbozning nima maqsadda idishini so'rayotganini tushunmadi. Shunga qaramay, u sarbozga so'raganini berdi.

— Hozir shunday ahvolda hech narsani ayb qilib bo'lmaydi, janob, — dedi qari sarboz jon holatda hovliqib, mitaraning og'zini

ocharkan. Farang kapral endi sarbozni xijolat qilmaslik uchun ko‘zini chetga olib qochdi. Ammo sarboz rostdan ham uyalib turguday ahvolda emas edi, u mitaraning tagida qolgan suv tomchisining bor-yo‘g‘ini boshiga ko‘tardi-da, idishni egasiga qaytardi:

— Olloh yorlaqasin, birodar!

Blokvil achinganidan yig‘lab yuboray dedi.

— Kerak bo‘lib qolar, yoningda turaversin!

Sarboz bosh silkib, fransuzga minnatdorlik bildirdi.

Blokvil yondirayotgan quyosh ostida endi ortiq turolmasligini sezdi. Uning ham lablari qurib qolgan, yutinganida tomog‘i yorilib ketay derdi. U chodiriga yurib ketdi.

9

Yurdi-yu, to‘xtashga majbur bo‘ldi.

To‘rtta oyog‘ini har tomonga qaratganicha yotgan tuyaning atrofida uymalashib turgan sarbozlarning lablari, iyak va yanoqlari qirmizi qonga bo‘yalgandi. Orqasini o‘girib olgan yana bir sarboz esa tuyaning boshini quchoqlab olganicha g‘alati harakatlar qilardi. Ularning yoniga yaqinlashgan Blokvil tuyaning chanog‘idan bo‘rtib chiqqan ko‘zlariga nazari tushgach, hayvonning o‘lganini bildi. O‘lgan tuyani bo‘g‘izlagan sarbozlar uning qonini ichib, o‘z tashnaligini qondirmoqchi bo‘lishgan ekan.

Shart-sharoitni fahmlagan farang yigit bu yerdan tezda chodiriga tomon ketdi.

Blokvil chodiriga qarab yurar ekan, ulkan saksovul soyasida cho‘l o‘simliklari tomirini chaynab o‘tirgan yana bir guruh sarbozlarni ko‘rib to‘xtadi. Uning taxminicha, tashqariga uloqtirilgan zahotiyoq nami bug‘ga aylanadigan tuproqni yuzga surtgandan ko‘ra, mayda butalar tomirini chaynash ancha foydali edi.

Chodirida suv yo‘qligini bilgan Blokvil ham ikki dona o‘simlik tomirini qo‘liga oldi. Biroq u ishtahasiga qarshi tomirni har qancha chaynamasin, og‘zida yoqimsiz ta’mdan boshqa narsa sezmadi. Shunday bo‘lsa-da, tashnalik xavfli edi. Bu xavf esa ishtahang bilan hisoblashmay, tomir chaynashga insonni majbur qilardi.

Tomir chaynab o‘tirgan Blokvil naq yonboshidan o‘tgan bo‘lsa-da, chodiridan besh-olti qadam uzoqlikda yerga tiqilgan xodani ko‘rmay qolganiga hayron bo‘ldi. Yog‘ochga nayza bog‘langan bo‘lib, nayza uchiga esa Qora sartib ko‘z-ko‘z qilib soqolidan tutgancha ko‘rsatgan turkmanning kesilgan qora kallasi sanchiqlik edi.

Blokvil kallani sinchiklab ko‘zdan kechirdi. O‘q turkmanning orqa tomonidan kirib, manglayidan chiqqan edi. Nayzaning o‘tkir uchi ham manglaydan teshib chiqqan o‘q o‘rnidan ko‘rinib turardi. Eronlik navkarlarga qojorlarning qahramonligi namunasi sifatida namoyish qilib qo‘yilgan nayza uchidagi turkmanning soqoli shamol esgan paytlarda hilpirab qolardi. Gavdadan kesib olingan boshning jilmayganga o‘xshagan yuzini ko‘zdan kechirar ekan, Blokvil: “Bosh egasi g‘ayrat-shijoatli odam bo‘lganga o‘xshaydi. Yuzidan ham aqlli, farosatli odam ekanligi ko‘rinib turibdi”, deya fikr yuritdi.

Nayzaga sanchilgan boshga inson shaklini bergan yuz, darhaqiqat tirjayganicha qotib qolgandi. Jazirama cho‘ldagi keng maydonni egallagan taqir ustida uymalashib yer qazib, suv izlab yurgan sarbozlarning holatini yuqoridan biroz kuzatgan har bir kimsaga ham bechora sarbozlarning holi kulgili tuyulishi mumkin. Chunki jonini o‘limdan saqlab qolish uchun insonning o‘zi istamagan holda qilayotgan har bir xatti-harakati chetdan kuzatgan, hattoki, mana shu jonsiz kalla uchun ham nihoyatda qiziq-da...

Qo‘vshutxonning hovlisidagi bahaybat juft Balx tutning ulkan maydonni egallab turgan soyasida boshlangan harbiy kengash hozirgina tamom bo‘ldi. Har urug‘ning katxudosi, navkar-u ko‘ngilli yigitlarning qurol-yarog‘ bilan ta’minlanishiga mas’ul botirlar, umumiy qo‘shinga javobgar bo‘lgan oqsoqollar ulug‘ xon oldida hisobot berdilar, o‘z navbatida, xon tomonidan ma’qul deb topilgan maslahatni ham eshitishdi.

Ushbu maslahatga Bozirgan usta ham taklif qilingan edi. Biroq kengash tamom bo‘lguncha uning nomini tutgan ham, undan hisobot so‘ragan ham bo‘lmadi. Har qanday tasodifiy odamning avvaldan maxsus xabar yuborilib, ulug‘ xon hovlisida bo‘ladigan maslahatga chaqirilavermasligi aniq.

Odamlar o‘rinlaridan turishgach, usta Bozirgan ham oyoq kiyimini kiya boshlagan edi, xonning mulozimlaridan biri — yoshgina yigit ustaning qulog‘iga xon kelyapti deb shivirladi.

Maxsus shivirlashning ma’nosiga birdaniga tushunmagan usta:

— Kelayotgan bo‘lsa, xonning yo‘lini bekitmaylik, yigit, — deb ikki-uch qadam ortga chekindi.

Shu payt uch-to‘rt nafar hamrohlari bilan yaqinlashgan Qo‘vshutxon salom berdi-da:

— Usta Bozirgan, biz siz bilan ko‘rishmoqchi edik, — deb qo‘lini ustaga uzatdi.

Bozirgan usta ulug‘ xonni hanuzgacha yaqindan ko‘rmagandi. Oldingi safar uchrashganlarida xon ot ustida o‘tirib so‘zlashgandi. Bu gal tikka yuzma-yuz bo‘lganlari uchunmi, hech qachon hech narsadan cho‘chish nima ekanligini bilmagan Bozirgan usta shoshib qoldi. Bo‘yi, gavdasi ustanikidan ancha pakana bo‘lsada, ulug‘ xonning nazari qandaydir vajohatli edi. Shu sababli usta, ulug‘ xondan besh-olti yosh katta bo‘lsa ham, oqsoqol sifatida sog‘lik-omonlik so‘rashmoqqa uyaldi. Xon — xon bo‘lganligi uchun ham, hozir uning vajohati ustani yaxshigina dovdiratib qo‘ydi.

— Usta Bozirgan, hol-ahvollaringiz yaxshimi?

— Xudoga shukur, xon og‘a! — dedi hovliqib usta.

— G‘ayrat qiling, usta! Bu gal dushmanning kuchi nihoyatda xavfli, usta! Agar yordamchi kerak bo‘lsa, o‘zingiz xohlaganingizcha oling! Faqat talab qilsangiz bo‘ldi, odamlarimiz tayyor!

Bozirgan usta ulug‘ xonning ko‘pchilik ichidan o‘zini tanlab ajratib, hol-ahvol so‘ramog‘ining sababini mana endi fahmladi, usta bajarayotgan ishning ahamiyatini xon yana bir marta ta’kidlamoqchi edi.

— Kecha-kunduz tinim bilmay ishlayapmiz, xon og‘a! Bolg‘amizning ovozasi hali naq Xurosongacha yetib boradi, Xudo xohlasa!

Ustaning oxirgi gapi ko‘pchilik san’atkorlarniki singari mubolag‘ali jarangladi. Bozirgan usta bilan bosh qimirlatib xayrlashgan Qo‘vshutxon chekka-chekkaga o‘tib suhbatlashayotgan oqsoqollar tomonga qarab yurdi.

Ulug‘ xonning ko‘pchilik ichidan tanlab salomlashmog‘i, hol-ahvol so‘rashishi usta Bozirganga qaratilgan shunchaki hurmat-muruvvat emasdi. Ulug‘ xonning bu harakati ustaning yelkasiga juda katta mas’uliyat yukladi. Usta ham buni yaxshigina fahmlab oldi. Shu sababli u xon huzurida ko‘p turmay ham uy, ham ish do‘koni bo‘lgan manziliga tezroq borish niyatida yo‘lga tushdi.

10

Aytdi Qo‘vshut — ul bu elga xon erdi[1]*,*
Nafaqat xon, elga jonajon erdi.

Abdusattor Qozi,
“Jangnoma” asaridan

El-yurt tinch-farog‘at paytlarida ham Qo‘vshutxonning yonida hamisha odam ko‘p bo‘lar, xavf ortgan mahallarda esa uning atrofida jilovdorlar, tansoqchilar soni ortardi. Yaqin-yiroqdan kelib qolgan ko‘pchilikning orasida har ehtimolga qarshi xonning jonini asrash lozim ko‘rinardi. Shunga qaramasdan, Qo‘vshutxon ot parvarishiga navbat kelganda xon emas, sayis bo‘lib ketar, otini sug‘orishni ham, egarlashni ham, oxurga yem tashlashni ham hech kimga ishonmasdi. Bir gal uni telpagi bilan otining bo‘ynini silab turganini ko‘rganlar bor. Xullas, xonning bu dunyoda eng yaxshi ko‘rgan zavqli oromijon o‘yini — shaxmat va ot parvarishi edi. To‘g‘ri, so‘nggi vaqtlarda sharoit og‘irlashib, tinch hayot xavf ostida qolganligi bois, xon shaxmat o‘yinidan biroz chetlashdi, lekin otlar hamon uning jon-u tani.

Bu safar ham kun og‘gan bir mahalda otining yoliga qo‘l tegizishga vaqt topgan xon daryo tomonga jo‘nadi.

Mol-qora suv ichadigan keng guzar xonning uyidan ikki yuz qadam narida edi. Guzardan o‘ttiz-qirq qadam berida esa, ulkan to‘rang‘i daraxti sohilga soya tashlab turardi. Ko‘m-ko‘k barglarga belangan daraxt Murg‘ob daryosiga engashib suv ichib turar, shu

[1] Abdusattor qozining ushbu satrlari 1972-yilda Otako‘pak Mergan bilan muloqot vaqtida undan yozib olindi *(muallif izohi)*.

holatida to‘rang‘ining o‘ziyam kattakon bir jonivorga mengzab ketar, daraxtning soyasi esa issiq kunlari odamsiz bo‘lmasdi. Xuddi shu daraxt ko‘lankasida katta-katta odamlar muk tushib shaxmat donalarini tikadilar, tosh otib o‘ynaydilar.

Bugun ham bosh xon ot choptirib borarkan, to‘rang‘i soyasida o‘yin o‘ynayotgan besh-olti nafar tinib-tinchimas bolalar-u kattalarni ko‘rdi. Ular o‘yinga shunchalar qiziqib ketgan edilarki, ona Vatanga ulkan yog‘iy qo‘shini bosib kelayotgani ham ularning xayoliga kelmasdi. Shaxmatchilar uchun dunyoda shovqin ham yo‘q, janjal ham. Barcha yig‘ilganlarning e’tibori taqir yerga yoyilgan shaxmat matosi ustida bo‘lib o‘tayotgan ikki taraflama donalar jangiga qaratilgan. Shuning uchun ham soyaga yig‘ilganlar Qo‘vshutxonning kelib turganini bilmay qoldilar. Agar xonning oti pishqirmagandami, unga hech kim qaramagan bo‘lardi. Salom-alik ham qisqagina bo‘ldi. Kela-sola shaxmat o‘yiniga tikila ketgan xon esa yig‘ilganlar o‘ziga e’tibor bermayotganini sezmadiyam.

Shaxmat matosining bir tomonidagi to‘rt nafar odam dona surayotgan asosiy o‘yinchi yoshullini qo‘llab-quvvatlamoqda edi. Ularga qarshi bir o‘zi o‘ynayotgan odamning nomi el ichida Omon sayoq deb nomlansa ham, uni yonidagilar hurmatlab Omon og‘a deb chaqirishardi. Yana bir nomi Omon bangi, uni nashavandligi uchun shunday deb chaqirishar, ammo shaxmat o‘yinidagi tug‘ma iste’dodi uchun bu bangining hurmati ulug‘ edi. Shaxmat dasturxoni yoyilib, donalar tikilganda unga teng keladigan o‘yinchi bu yaqin atrofda topilmas, takalar ichida eng katta shaxmatchilarning biri hisoblangan Qo‘vshutxon ham Omon sayoqning oldida ko‘pincha izza chekib qolar, qo‘li past kelardi.

Chekkadan qarab, shaxmatchilar o‘yinini kuzatib turgan xon o‘yin xumori boshlanmasdan turib bu yerdan nari ketmoq uchun yo‘lida davom etdi. Xonning jo‘naganini ko‘rganlarning biri:

— Xon og‘a ketvordi-ya, — dedi yonidagilarni ogohlantirganday.

Hech kim indamasa ham, Omon sayoq g‘udrandi:

— Xon ketvordi, dedingmi?.. Qani, yur, yur. Ketsa nima bo‘pti? Qo‘vshutxon sizlar kabi ahmoq bo‘lmagani uchun ham jo‘navor-

di. Omon sayoq o‘ynayotgan joyda boshqalar obro‘ borida jo‘nab qolishadi-da. Mana sizlar, beshalang bitta bo‘lib, bas kelishning uddasidan chiqolmay o‘tiribsizlar-ku. Ko‘chinglar-hov, qani!

— Ko‘chinglar emish. Ko‘chganda qo‘lingdan nimayam kelardi?!

— Qo‘limdan nima kelishini vaziring qo‘l ko‘tarib asir tushganda bilasan, qarab tur!

... Xon otguzarga yetib borgan chog‘ida tutgan hassasi o‘zidan ham uzun bo‘lgan bir bukri kampir Qo‘vshutxonning yo‘lini to‘sdi.

Xon salom berdi. Kampir alik oldi.

Xon o‘tib ketmoqchi bo‘ldi, ammo kampir bunga yo‘l bermadi.

— Sen Qo‘vshutxon emasmisan, yigit?

— Xuddi o‘ziman, xo‘sh, xizmat?

— Xizmatdan oldin bir duo qilib qo‘yay seni. Oldimdan xuddi quyoshday chiqding-ku, bolam! — Tapur-tupur o‘tirgan kampir topgan gapini bir-biriga ulab duo o‘qiy boshladi. Uning duo deb o‘qiyotganlari ichida Qur’oni karim oyatlari ham bor, olqishlar ham bor, niyatlar ham bor. U takalar ustiga xavf kelayotgan bir pallada bosh xonni o‘zi bilganicha duo qilmoqda edi.

— Endi, sen xon bolam, mening arzimga quloq tut. — Kampir inqillab o‘rnidan turdi-da, xondan oladigan qarzi bor odamday javramoqqa boshladi. — Sen ulug‘ elning xoni bo‘ladigan bo‘lsang, mening sigirimni topib ber! Xon bo‘lgan odam g‘arib-g‘uraboga mehribonlik qiladi. Bu qanday davr o‘zi, qanday zamona bu? Hayri raqibing bo‘lmasa, bobodoshing yo‘qmidi? — deganlar. Turkman turkmanning molini o‘g‘irlasa-ya?! Yana, atrofda yog‘iy otliqlari xavf solib turgan bir paytda-ya? Shu musulmonlikka sig‘adimi? Xon bo‘lsang sen shu savolimga javob ber, qani!

Qo‘vshutxon kulishni ham, qahrlanishni ham bilmay dedi:

— Sigirimni o‘g‘irlagan sen, demoqchimisiz?

— Sendan ko‘rayotganim yo‘q, ammo... o‘g‘irlik yomon narsa-da, bolam.

— Nimayam qilardik. Yo‘l egrisiz bo‘lmas, el o‘g‘risiz bo‘lmas.

— To‘g‘ri, bolam, to‘g‘ri. Lekin, joni yongan Tangriniyam qarg‘aydi degan gap ham bor-da, xon. Kuni kecha buzoqlayman deb turgan sigirimni olib ketishdi, bolam. Nevaralarimning og‘ziga sut-qatiq tutaman deb, ko‘z tikib o‘tirgan edim-a, hay attang. Tevarak-atrofdan so‘rab-surishtirdik, ammo daragi chiqmadi. Sendan najot istab keldim, xon bolam!

— O‘zingiz kimsiz, ona? Qaysi o‘badansiz?

— Qora Ahmadning o‘basidanman, bolam. Bukri Omonsulton desa, meni tanimagan odam yo‘q! El ichida bandayi bechoralar gilam to‘qib, tara (urchuq) yigirib nom chiqaradi, men esa bukriligimdan nom chiqardim. Bukriligimni yodlamasang, otamning ismini aytsang ham tanimaydilar, bolam!

— Kimdandir gumon qilayapsizmi? Gumoningiz kimdan?

— El ichidan o‘g‘ri izlasang, oting isnodga qoladi, xon bolam, shuni bilib qo‘y... — hamon javrardi kampir.

Xon kampirning qulog‘i og‘ir bo‘lsa kerak, deb taxmin qildi.

— Aytganingiz to‘g‘ri-ku-ya, lekin fe’li ozgan bir qarg‘aning qag‘illagani bilan qish tushavermaydi-da.

— Qish tushmasa tushmas, ammo qarg‘a qag‘illadimi— endi buyog‘iga ezgulikka umid qilib bo‘lmaydi... Bugun-erta buzoqlayman deb turuvdi-ya!

— Buyog‘ini boya aytdingiz, ona. Gumoningiz kimdan deb so‘rayapman.

— Gumon, gumon deysan, xon bolam. Gumon imondan ayiradi, degan gap bor. Ammo aytsam aytaqolay. Shommi sayis, Omon jalay deganlari bor, shularning bittasidan shubham bor. Omon nashavand deydilar-ku. Sigirim bog‘langan yerda shu odamlar bo‘lgan emish. Shommi sayis esa: “Sigiring rostdan ham o‘g‘irlangan bo‘lsa, Omondan ko‘raver”, dedi. Hovva-da, past odam o‘zini karlikka soldimi, undan hamma narsani kutsa bo‘ladi. Nima deyin, xon bolam, tikilmadimi — to‘n emas, tutilmadimi — o‘g‘ri emas...

Qo‘vshutxon engagini silab turdi-da, kampirga so‘nggi so‘zini aytdi:

— Ona, siz bu o‘t-issiqning ichida ovora bo‘lib yurmang-da, o‘baga qayting. Men surishtirib ko‘ray...

— Surishtirib yurma, xon bolam, sigirimni topib ber.

— Sigiringiz topilsin-topilmasin, ertaga bir xabarini yetkazamiz, ona.

Javobdan qoniqmagan bo'lsa-da, kampir xon bilan xayrlashdi. U uzoqlashar ekan, hamon javragandan javramoqda edi.

Otini sug'orib, iziga qaytgan Qo'vshutxon yana to'rang'i soyasini mo'ljalga olib kelarkan, bu gal u shaxmat zavqidan emas, Omonsulton kampirning shikoyatidan ichi yonib kelmoqda edi. Xon to'rang'i soyasiga yetib kelganida so'nggi dov tugagan edi. O'yinda kim yutib chiqqanini so'rab o'tirish shart emas, Omon sayoqning og'zi qulog'ida.

— Xon og'a, manavi pishmay qolgan xomaklarning holidan xabar olmoqqa kelyapsizmi? — dedi u xursand holda.

— Xomaklar pishadigan paytiyam kelib qolar, sayoq, — dedi Qo'vshutxon haybat bilan. — Piyodang farzinga chiqqanday quvonasan, tinchlikmi?

— Bunisini so'rab turmay bilib olarsiz, xon og'a. Shaxmat o'yinida Omon sayoqni yengadigan mard takalar ichida topilarmidi?!

— Tan olish kerak, shaxmatda senga teng keladigani yo'q, bu borada Tangri senga juda saxiylik qilib yuboribdi... Bu yerdagilarni ko'zga ilmaysan, shundaymi? Uzoq-uzoqlarga borib ham shaxmat o'ynab kelyapsanmi?

Maqtov so'zlardan Omon sayoq ko'kka uchib ketay dedi.

— Yaqinda Axalga borib keldim, xon og'a. Qarindoshlarimnikiga. Kelganimga bir hafta bo'ldi.

— Axallik qarindoshlaringning ro'zi-ro'zg'ori qalay o'tayapti ekan, tuzukmi?

— Tuzuk, xon og'a, kunlari o'tib turibdi. Ammo mening borishimdan ular xursand bo'ldi deyolmayman.

— Nima uchun ekan?

— Kamida Bomigacha yashayotgan qirmiz to'nli takalar orasida shaxmat o'yinida Omon sayoqqa teng keladigani topilmadi-da!

— Bunchalik bo'lmagandir. Bitta-yarimtasiga yutqizgandirsan-ov...

— Rost aytyapman, xon og‘a. Ustiga ustak, men ularni gapda ham yengib chiqdim!

— Ol-a! Shunisini sal oshirib yubordingmi deyman-da, sayoq! — Qo‘vshutxon sal ishonmayotganday gapirdi. — Ular shaxmatda yutqizishlari mumkindir-u, ammo gapda hech kimdan yengilmaydilar. Butun Ko‘ktepa tomonlarda hech kimga gap bermaydigan Yomg‘ir chakakka o‘xshaganlar hamon bor, axir!

— Yomg‘ir bo‘ladimi, qor bo‘ladimi, hech biri menga bas kelolmaydi! — maqtandi Omon sayoq.

Uning hozir hech kimni gapirtirmay laqillab o‘tirishi xon og‘aning shubhasini oshirdi. Bangi odam ko‘knorisidan tortib-tortib kelgan shekilli-da. Shuning uchun ham Qo‘vshutxon o‘z maqsadini sir tutib, ko‘proq sayoqni gapirtirgisi keldi.

— Axallik og‘aynilarni gapda yengib keldim, de! Obbo, azamat-e, omad degani bir kelsa, kelaverar ekan-da!

— Nimasini aytasiz, xon og‘a, mening omadim chopganidan chopdi! — Og‘zidan suv oqib maqtana ketdi Omon sayoq. U xuddi oldida xon emas, giyohvand ulfati turganday avjiga mindi. — Nimalar bo‘ldi, deb so‘rang-chi, xon og‘a!

— Nimalar bo‘ldi?

— Shaxmatda yutqizgan og‘aynilardan biri alamini olmoqchi bo‘ldimi, menga qarab: “Omon og‘a, Axaldan Marvga ko‘chgan qarindoshlarimizning hammasi namoz-toatni tashlab, savdo-sotiqqa bosh urib ketibdi-ku!” — deb qoldi. Men unga, yo‘q, undoq emas, bundoq deb shuncha gapirdim, ammo u sira yon bergisi kelmadi. Rost, shunday deb eshitdik, dedi u, sizlar bozor kunlari savdo-sotiqdan bo‘shamay, qo‘l tegmay, hatto, o‘likni ham ko‘mmay qo‘yayotgan emishsizlar. Yo‘g‘-e, dedim men, nimalar deyapsan, undoqmas axir, bundoq dedim. Qani endi yon bersa, gapdan qolay demaydi. Bozor kuni bir marvlik odam bandalikni bajo qilgan ekan, shu kuni mayitni qabristonga eltadigan odam topilmay, uni dushanba kuni joylabdilar. Guvohim bor, deb rosa valaqladi. Qarasam, sira bosh beradigan emas. Ay, qarindosh, dedim men unga, aniq bozor kuni o‘lmoqqa vaqt topgan ekan, bilginki, bu odam asli marvlik emas, dedim. Shunday degan edim, axallik qarindoshlar qah-qah urib kula boshladilar.

Omon sayoqning gapidan so‘ng to‘rang‘i soyasida yig‘ilganlar ham qah-qah urib qoldilar, bularning kulgisi axalliklarnikidan kam emasdi.

— Axal nari tursin, sening doving Marvda ham kuchli, omading bu yoqlarda ham yurishganidan yurishyapti, — deya kulgiga qo‘shildi Qo‘vshutxon.

— To‘g‘ri aytasiz, xon og‘a! Omadim hamma joyda chopaveradi. Meni xon ham yenga olmaydi, bek ham. Ishonmasangiz, keling, shaxmat dasturxoni atrofida sinab ko‘ra qoling o‘zingiz.

— Biz maqtasak, o‘zingdan ketib qolma, sayoq, — deb Qo‘vshutxon ot jilovini yonidagi yigitning qo‘liga tutqazdi. — Bor maqtansa — topilar deydilar. Axal uzoqda bo‘lgani bilan, mana, shaxmat donalari dasturxonda turibdi. Qani, omadimizni bir sinab ko‘raylik-chi!

— Sinab ko‘ring, xon og‘a, sinab ko‘ring! — dedi Omon sayoq chaqqonlik bilan donalarni shaxmat dasturxoni ustiga tera boshladi.

— Qushday uchaman deb turibsan-a, qani, uchganingni bir ko‘rayin! — deb Qo‘vshutxon ham dasturxonning ikkinchi tomonidan chordana qurib o‘tirib oldi. — Ucholmay qolsang, xafa bo‘lish yo‘q, sayoq!

— Xafa bo‘lmayman, xon og‘a.

— Shu gaping gapmi, axir?

— Omon sayoq ikki so‘zlaydigan yigitlardan emas, xon og‘a!

... Shaxmat o‘yini qanchalik tez boshlangan bo‘lsa, donalar ham shunchalik kamaya boshladi. Omon sayoqning bir piyodasini ortiq demasak, o‘yin tengma-teng borayotgan edi. Sayoqning asl niyati raqibini yengish emas, balki uning hamma donalarini birma-bir yeb, so‘ng osongina mot qilish edi. Shu maqsadda Omon sayoq endi Qo‘vshutxonga shoh berib, turta boshladi.

Omon sayoq (Omon bangi) deb dong taratgan bu odam faqat dona surishdangina lazzatlanmay, o‘yin mahali tilining huzurini ko‘radigan ezmalardan. Shaxmatda kallasi qizib — bir rohatlansa, o‘yin mobaynida gapira-gapira raqibining miyasini qoqib qo‘liga beradi — shu bilan ikki rohatlanardi. Sayoq bu gal

ham tinmay gapirar, qo'li donalarda, tili— gapda edi. Gap bilan bo'lib, Omon sayoq bir payt shohiga hujum boshlanganini sezmay ham qoldi.

— Shohingni olib qoch, sayoq! — ovozi yangradi xonning.

— Shohimni olib qochaymi? Siz o'zi kim bo'lib Omon sayoqning shohiga kisht deyapsiz, xon bo'libmi? Menga shuni ayting, Qo'vshutxon bo'lib mening shohimga kisht beryapsizmi?

— Ha, Qo'vshutxon bo'lib.

— Qo'vshutxon bo'lganda kim bo'libsiz o'zi? Siz agar Qo'vshutxon bo'lsangiz, mana men Omon sayoqman! Qochdim, qoyilmisiz?

— Yana kisht! Qoch!

— Qoch deyapsizmi? Xon og'a qoch, desa, qochmoq kerak, yigitlar. Qochganda nima, qochganda qayg'urguday yuki bormi Omon sayoqning? Qochaman-da, ketaman. Maydon keng.

Atrofdagilar shaxmatchilarning har galgi valaqlashlariga o'rganib qolganliklaridan hozirgi gaplarga hech e'tibor bermay, o'yinning borishini tomosha qilmoqdalar.

Qo'vshutxon yana sayoqning shohini ta'qib qila boshladi.

— Og'ir yukim yo'q, dedingmi, sayoq, to'g'risini ayt! Shoh! Qani, endi qayerga qocharkansan...

— Yana qochdim. Omon sayoq hech qachon yolg'on gapirgan emas. So'qqaboshligimni bilib shoh berayapsiz-da. Nima bo'lsa g'aribga bo'lsin ekan-da... Kisht degan so'zingiz tugadimi?

— Mening kishtim tugaydigan kishtlardan emas, sayoq. Kisht! Bo'g'oz sigiri bor odam ham o'zini g'aribman deydimi? Yana qoch, kisht!..

— Qochdim! Bo'g'oz sigir deganingiz tongda buzoqladi-ku, xon og'a...

— Bo'g'oz sigiri shu bugun buzoqlasa-yu, bu odam g'aribman, bechoraman deb o'tirsa-ya! — Shohni olib qochish uchun changallagan Omon sayoqning barmoqlari titray boshladi.

— Bo'g'oz sigiri buzoqladi, dedimmi men?

— So'zingning kamini qo'ymading... Kisht!..

— Sigirimning buzoqlashini siz qayoqdan bila qoldingiz-a?

— Hammasini bilaman!.. Kisht!.. Omon sayoq ikki gapirmasligini ham bilaman. Yana qochishingga to‘g‘ri keladi, sayoq. Qoch!

O‘yinning xumori bilan bo‘lib, ortiqcha gapirib yuborganini Omon sayoq shundagina tushundi. Tushundi. Ammo endi kech bo‘lgandi. U shohini panjasi orasida qattiq siqib turar ekan:

— Siz yutdingiz, xon og‘a! — deb boshini changalladi. — Bu gal siz zo‘r chiqdingiz.

Qo‘vshutxon shaxmat dasturxonidan ko‘z uzmay o‘tirarkan:

— Men emas, haqiqat zo‘r chiqdi, sayoq! — dedi.

Tomoshabinlar gap nimadaligini hamon tushunmay, o‘yinchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun dalda bermoqda edilar:

— Omon, bo‘sh kelma!

— Xon bo‘lganda nima, bir ezib tashla!

— Otang tirilib kelsa ham, o‘yin paytida siylab o‘tirma!

— Sen ham kisht beradigan yo‘lini top, sayoq, ayama!

— Kuchingni ko‘rsat-da, axir!

Omon sayoq gap-so‘zlarga e’tibor ham qilmay, xonga mungli boqdi-da, so‘ng g‘alati•iljaydi.

— Bunday emas, sayoq. Bu gal ikkovimiz ham ziyoratni bajo qildik, ham tijoratni. Sen yaxshisi haligi aytgan sigirni buzog‘i bilan qoraahmadlik Omonsulton bukrining uyiga eltib tashla, suyunchisiga og‘iz (uvuz) sutini ichib kel.

Shaxmat o‘yinining xumori, bugungi shuncha maqtovlarning lazzati oxirgi bir gap bilan burnidan buloq bo‘lib chiqqan Omon sayoq endi har bir so‘zini o‘ylab gapirishga majbur edi.

— Og‘ir yukni ortib tashladingiz-ku, menga, xon og‘a!

— Eh-he, sen bunaqa yuklarning ko‘pini tortgansan, sayoq.

— Yo‘q, xon og‘a, bu galgisi juda og‘ir kelyapti.

— Og‘ir botsa ham borasan, sayoq. Zalolatning yarmidan qaytmoq ham baxt. Borib, Qo‘vshutxon yubordi, deysan. Shunday qilsang, yuking yengillashadi, sayoq. Yoningga yana bir-ikki yigitni ham qo‘shib yuboraman. Yakka yurgandan ikki-uch kishi bo‘lib yurgan yaxshi.

Shaxmat dasturxonini to‘rt buklab qo‘ltig‘iga urgan Omon sayoq:

— Bu gal yutqizgandayam chuv tushib yutqizdim! — dedi titrab-qaqshab. — O'yinchi o'z haddini bilsa yaxshi ekan. Umrbod esdan chiqmaydigan qilib saboq berdingiz, xon og'a! Gunohimni o'ting bir gal... Har duch kelgan odamdan ham xon saylanavermasligiga shu gal juda qattiq ishondim lekin.

— Yutqizganini tan olish ham hamma odamning qo'lidan kelavermaydi, — deb bosh silkidi Qo'vshutxon. — Shuning o'zi ham senda insof borligini ko'rsatib turibdi. Endi bundan buyog'i shugina vijdoningni sotib qo'yma, sayoq...

O'yin-o'yin, deb boshlangan imtihonning asl ma'nosini tushunib olgan Omon sayoq endi xonning yuziga qaray olmadi. Endi sayoqning qarshisida o'tirgan odam — oddiy shaxmatchi emas, xon edi, Qo'vshutxon edi...

11

Yigirma kun deganda Saraxs bilan Marv orasidagi yo'lni mashaqqat bilan bosib o'tgan Eron qo'shinlari 1860-yilning oltinchi iyul kunida Ko'shk o'basi yonidagi Po'rsiqal'a degan qo'rg'oncha yonida to'xtab, istehkom qurdilar. Marv vohasining zamini to'la egallab olingunicha Po'rsiqal'a asosiy istehkom o'rni bo'lib turishi kerak edi.

Borgan joyida ko'rgan narsasining bari bilan qiziqib yurgan Jorj Blokvil bu o'ba (qishloq)ning nomi nima uchun Ko'shk o'ba, deb atalishiga hech tushuna olmadi. Ajabo, tevarak-atrofda soyalaguday na bir-ikki daraxt bo'lmasa, na yaqin-yiroqda baland-baland imoratlar ko'rinmasa, bu yerlarning nomini nima uchun ko'shk deb atashgan ekan? Yoki yonidagi uylardan yuksakligi ila farqlanib turgan, paxsadan tiklangan masjid shunday atalganmikan? Eldagi-yurtdagi inshootlarga nom berishda odamlar yanglishmas, axir. Balki tabiat yovuzliklaridan zada bo'lib ketgan odamlar bu joylarni kinoya bilan ko'shk (oromgoh) deb atashgandir?

Tog' yo'lining baland-pastliklari tugab, Navro'zoboddan chiqqanlaridan buyon bularni ta'qib qilib kelayotgan cho'liston manzaralari Blokvilning rosa tinkasini quritdi. Po'rsiqal'aning

atroflaridagi birmuncha ko'k-yashil maydonlar ham Blokvilning xira ko'nglini yorita olmagach, fransuz darrov chodiriga kirib ketdi. U yondaftari-yu yo'l xaritasini ochib qo'yib, Po'rsiqal'a, Ko'shk o'ba, Samandiq degan yozuvlarni yozgach, qorong'i tushar-tushmasdanoq to'shagiga cho'zilib uxladi-qoldi.

Ertalab tong saharda u allaqanday haybatli so'kinish, baqiriq-chaqiriqlardan uyg'onib ketdi. Blokvil yotgan chodir yoniga kelib olgan Qora sartib yonidagi sarbozlarni bor ovozi bilan so'kmoqda edi.

Blokvil qulog'iga eshitilgan baqiriqlardan anglagani shu bo'ldiki, tunda qojorlar qo'shiniga aralashgan turkmanlar yana sarbozlarni o'qqa tutibdi. To'g'ri, siyosat-haybat yuzasidan qilingan bu kichkinagina hujumni hujum deb bo'lmas, katta qo'shin deyarli zarar ko'rmagan, ammo... ko'rmaysizmi, mana, uch nafar sarboz o'qqa uchib, to'nkarilib yotibdi. Qora sartibning so'kinishlari rost bo'lsa, turkmanlar ikki nafar qojor sarbozini ham asir qilib olib ketgan emish.

Qora sartib shusiz ham qo'li ostidagi sarbozlarni rosa so'kib-koyib yuradi. Bunisi endi ustiga ustak bo'libdi-da. Qora sartib yoniga kelib turgan fransuzni ko'rgandan keyin ham baqirishni bas qilmadi: — Nima bo'libdi deysanmi, lashkarlarimiz og'ziga cho'p solib o'lchamoqchi bo'lgan turkmanlar yana tegib-qochib, kalaka boshlayaptilar-da...

Qora sartib ich-ichidan yog'ilib kelayotgan zaharli so'zlarini yonidagi polkovniklarning biri Feraxon deb nomlanmish polkning boshlig'i Husayn Alixonning yuziga purkamoqchi edi. Ammo Husayn Alixon Nasriddinshohning naq o'ziga yaqin harbiylardan ekanligi yodiga tushdi-yu, nigohini uning qoshida yer chizib turgan polkovnikka qadadi. Shunday qilib, Husayn Alixon eshitishi kerak bo'lgan so'zlar shu yerda hozir-nozir bo'lib qolgan sarkarda Shohsuvon Bag'dodiyga nasib qildi.

— Turkmanlar bizning uyqimizni buzishga qo'rqadi, derding. Hatto, o'n farsax narida turib aksa urolmaydi, derding. Ana, kerak bo'lsa! Sen chodiringda muloyimgina bo'lib tush ko'rib yotganingda, ular kelib sarbozlaringni otib ketibdi-ku! Bu Eron lashkarini beobro' qilish emasmi? Bu marhamatli shohimizning

bizga bo'lgan ishonchini puchga chiqarish emasmi? — Nogahon, shohni yodga olib qo'ygan Qora sartib Blokvilga qaradi-da, ovozini pasaytirdi.— Bu sharmandali xabar mana shu chodirdan nariga o'tmasligi kerak, tushundinglarmi?!

Tanbeh eshitayotganlar Qora sartibning nima demoqchi bo'lganligini darrov anglab yetdilar — Blokvilning chodiridan uch chodir narida Hamza Mirza Xishmat Davlaning qarorgohi joylashgan edi.

Shu bilan tungi noxush voqeaga bog'liq chora belgilash majlisi tugadi.

Qora sartib Blokvilga imo qilib:

— Uni qara, janob! — dedi-da, qo'li bilan kunbotar tomonni ko'rsatdi.

Kunbotar tomonda behad-bepoyon qamishzor maydon Blokvilning ko'z o'ngida yastanib yotardi. Ba'zi bir joylarida hozirgina ot tuyog'i tekkanday iz ko'rinib tursa-da, qamishzorga inson qadami tegmaganligi aniq, deb o'yladi fransuz.

— Turkmanlar shu qamishzor ichi bilan kelganlar, yana shu yerdan izga qaytganlar, — dedi Qora sartib. Bu tushuntirish bilan u go'yo hech kimning aqli yetmaydigan sirni ochayotgan sarkardaga o'xshab ketdi.— Bizning sartib-u sarhanglarimiz esa bu borada o'ylab ham ko'rmaganlar. — Endigi aytmoqchi bo'lgan xabari o'zining qo'l ostidagi lashkarboshilariga tegishli bo'lsa ham, Blokvilga yuzlanib, buyruq ohangida gapirdi: — Nonushtadan so'ng qamishzorga o't qo'yamiz, janob, kechqurungi ovqatga ov go'shti yeymiz, Xudo xohlasa...

Kun nayza bo'yi ko'tarilganda yuzlarcha sarboz qamishzorga kirib, uch tomondan o't qo'ydilar. Ko'p o'tmay olov halqa ichida qolgan qamishzorni qora tutun qopladi. Yonayotgan quruq qamishlarning chars-churs ovozi ba'zida xuddi miltiq otilganday sas berar, bu taraqa-turuq chakalakzor ichida qolgan jonivorlar-u qush-qumursqalarning zor-zor chirqillashiga qorishib, Ko'shk o'basi bilan Samandiq o'basi oralig'idagi bepoyon osmon jahannam quyuni ichida qoldi. Pastdan burqirab ko'tarilayotgan qop-qora tutun shamolsiz havoda tarqala olmay, jizg'anak osmon ostida tobora siqilib bormoqda edi.

Qora sartib boshchiligidagi besh-olti sarkarda, o‘ttiz-qirq nafar sarbozlar qamishzorning o‘t qo‘yilmagan tomonida jamlandilar. Ular inson qo‘li ila yaratilgan do‘zaxga tomoshabin edilar.

Burqiragan qop-qora o‘t-tutun ichidan, eng avvalo, semizgina bir quyon sakrab chiqdi. Ammo bir ajaldan qochib chiqqan jonivor ikkinchi ajalga chap berolmay, besh-olti miltiqdan otilgan o‘qlarga birin-ketin uchib, boshdan oyoq qirmizi qonga bo‘yalganicha dumalab tushdi.

— O, bu quyonning og‘iz tekkuday go‘shti qolmadi, shekilli, — deya yangragan ovozi eshitildi Qora sartibning.

Blokvil Qora sartibning boya: “Kechqurungi ovqatga, Xudo xohlasa, ov go‘shti yeymiz”, degan so‘ziga mana endi tushundi. U yana bir narsani anglab yetganday bo‘ldi: qamishzorga faqat quyon ushlash uchungina o‘t berilmagani aniq, bu yerda hali raqib turkmanlar bekinib yotgan bo‘lishi ham mumkin. Ha, qamishzorga o‘t qo‘yishdan Qora sartibning asosiy maqsadi mana shu edi! Axir o‘tgan tunda lashkargohda uxlab yotgan sarbozlarni tig‘dan o‘tkazib ketgan turkmanlardan hali qasos olinmadi, alam ham!

Tomoshabinlarning biri qop-qora tutunning osmonga tik o‘rlashiga angrayib qarasa, boshqa biri olovning tobora kengayib, tevarak-atrofdagi o‘t-o‘lan bormi, ho‘l-quruq shox-shabba bormi, barini ajdarho singari yamlab yutishiga quloq tutardi. Blokvil esa, o‘z boshini muqarrar ajaldan qutqarish uchun pir-pirlab uchib-ucholmayotgan, bu dunyoga o‘t qo‘ygan nokaslarni chirqillab qarg‘ayotgan chumchuqni kuzatmoqda edi. Achinib yerga boqqan Blokvilning ko‘zi to‘satdan o‘ng oyoq etagiga holsizgina tarmashayotgan polapon qushga tushdi. Qip-qizil go‘sht holatidagi bu jonivor hali uchishni ham eplab o‘rganmagan, shuning uchun ham na qochishni, na jon asrashni bilmay tipirchilayotgan bir jish — polapon edi. Agar farang odam hozir o‘ng oyog‘ini salgina oldinga qo‘zg‘atsa bormi, jonsiz tipirchilayotgan jish o‘zidan yuz marotaba, ming marotaba og‘ir bo‘lgan etik ostida qolib, majaq-majaq bo‘lib, tuproqqa qorishib ketishi hech gap emas edi.

Blokvil odamlarning boshi ustida uchib-ucholmay, qo‘nib-qo‘nolmay pir-pirlayotgan chumchuqning nega chirqillab yurishiga endi tushundi. Bechora qush o‘z tilida hali qanot chiqarmagan

polapon — bolasini qutqarishlarini so‘rab odamlarga yolvormoqda, faryod urib rahm-shafqat qilishlarini so‘ramoqda edi. Ammo qamishzorda vahshiylik ila qiyomat-qoyim yaratgan odamlar hozir bu qushning, bu ojiz maxluqning zor-iltijosiga tushunmas, tushunsalar ham bechora jonivorga himoya qo‘lini cho‘zishni istamas edilar.

Blokvil engashib, tipirchilayotgan jish-polaponni qo‘lga oldi-da, besh-olti qadam narida turgan ikki sarbozning birini o‘z yoniga chaqirdi.

— Huv anavi tepalikni ko‘ryapsanmi? — so‘radi u sarbozdan qop-qora tutun orasida ko‘zga chala-xira ko‘rinayotgan sho‘roqish do‘nglikka ishora qilib.

— Ko‘rayapman, og‘abek! — bosh egib javob qaytardi sarboz.

— Bo‘lmasa, mana shu jonivorni o‘sha do‘nglikka qo‘yib kel!

Qo‘shinda unvoni o‘zidan kattalarning aytganini bajarishga o‘rganib qolgan sarboz polaponni kaftiga oldi-da, do‘nglik tomonga lo‘killab chopib ketdi. Blokvilga ham, tutun ichiga kirib ketgan sarbozga ham hech kim ahamiyat bermadi. Shundan so‘ng odamlar boshi uzra chirqillab uchib yurgan qush ham ko‘zdan yo‘qoldi.

Qamishzor ichida olov halqasi siqib kelgani sayin, halqa ichidagi shovqin-g‘alayon ham kuchaygandan kuchayib borardi. Shovqin kuchaygani sayin miltiqlar ham zo‘r berib sayray boshladi. Sarboz-u sartiblarning ovozi, shod-xurramligi cheksiz edi. Ajabo, bu odamlar namuncha berahm, yovuz bo‘lmasa-ya, — hayron bo‘lib alanglardi farang kaprali. — Ular bir-birini otib o‘ldiradilar, jonivorlarni qurbon qiladilar, tinch yashayotgan qavmlarni o‘qqa tutib to‘zg‘itib yuboradilar-u, yana ustiga ustak, bu qilgan yovuzliklarini bir-biriga gapirib, maqtanadilar ham...

Darhaqiqat, huv anavi yoqda qorindor bir sarboz oldidan chiqib qolgan quyonni tepib qulatib, quyrug‘idan yuqoriga ko‘tardi-da, boshqa merganlar ustidan xaxolab kula boshladi.

Shu payt kutilmaganda qamishzor ichidan otilib chiqqan yovvoyi to‘ng‘iz Blokvil tomonga qarab chopib qoldi. Oraliq uncha uzoq bo‘lmagani uchun u o‘ziga qarab chopib kelayotgan dahshatli hayvonni, avvalo, ko‘rmadi, ko‘rganidan keyin ham biroz vaqt to‘ng‘izning tutab turgan yelkasini tomosha qilib, paytni o‘tkazib

yubordi. Yelkasi tutab, olov achchig'iga chidamayotgan yovvoyi hayvon esa Blokvilni mo'ljalga olganicha o'qday otilib kelardi. Fransuz qo'rqqanini bildirmaslik maqsadida shoshilmay to'pponchasini g'ilofdan chiqarish uchun qo'l yubordi. Ammo to'pponcha g'ilofidan chiqmadi, to'ng'iz esa bu orada ancha yaqin kelib qolgan edi. Blokvil endi o'zini yo'qotib qo'ydi. Qochib qutuladigan chora o'ylab, atrofga alangladi. Qayoqqa ham qochsin? Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar, deganlari shumi — to'ng'izning og'zidan chiqib turgan ikki oziq tishi xuddi qo'sha xanjar kabi yaltillab, hozir farangning qornini yorib tashlaydiganday edi. Ishongan to'pponchasi kerak mahalda g'ilofidan chiqmay pand bergach, endi Blokvil o'zini batamom yo'qotib, talmovsirab, yordam kutib atrofiga olazarak boqar ekan, allaqayoqdan to'pponchaning varanglagan ovozini eshitdi. Biroq bu o'q ham nishonga tegmadi, shekilli, to'ng'iz hamon uchib kelmoqda edi. Atrof-tevarakdagi sarbozlar hayhaylaganicha voqeaning qanday tugashini kutmoqda edilar. Endi Blokvil bilan to'ng'izning orasi to'rt-besh qadamgina qolgan edi, farangni yovvoyi to'ng'izning tig'idan qutqarib qoladigan hech umid-chora yo'q edi. Kimdir oshkora faryod tortib yubordi.

Qo'rqqanidan oyog'igacha terlab ketgan farang jonidan umidini uzib o'tirib qoldi. Ko'z oldini bir zumda qorong'ilik bosdi: u endi na ko'kka o'rlayotgan qop-qora tutunni, na lov-lov yonayotgan olovni, na uzoqda tikkayib turgan masjid minorasini ko'rar, chopib kelayotgan to'ng'izning qilichday o'tkir tishlari badanimning qayeriga yorib kirarkan degan fikrga qattiq berilib, cho'kkalab qolgan edi.

Blokvil eng so'nggi daqiqalarda kimningdir qilich yalang'ochlab oraga kirganini payqaganday bo'ldi-yu, ko'zlarini yumganicha hushidan ketdi. Shu lahzada o'ziga keldi: tepasida Qora sartib xaxolab kular, uning yalang'och qilichidan to'ng'iz qoni aralash yog' tomchilar, ikki qadam narida esa sep-semiz buzoqday yovvoyi to'ng'iz cho'zilib yotardi.

— Endi senga o'lim xavfi yo'q, janob, joning omon qoldi!

Blokvilning tili javob qaytarishga yaramadi, g'o'ldiradi, nima deganiga o'ziyam tushunmadi.

— Qattiq qo'rqib ketdingmi deyman-da?!

Bu gal Blokvil odam tushunadigan tilda gapirdi:

— Qo'rqmadim desam, Xudoning oldida yolg'on so'zlagan bo'laman, sartib. Qo'rqdim! Ham qo'rqdim, ham o'lib-tirildim. Minnatdorman...

12

Nafas mulla takalarning yozi urug'iga mansub anhorining ko'prigiga qadam qo'yganida, ikki qurbaqa bir-birining sayrog'ini tinglayotgan kabi navbatma-navbat qurillay boshladi. Shoir mulla bu ajib sayroqdan ruhlanib, jilmayib qo'ydi: qurbaqalar ham odamzodni xijolatga solar ekanmi?..

Kecha eshitgan gapi yana esiga tushib, ko'ngli yorishdi. Nima bo'lgan emish, Hamza Mirza Qora sartibning maslahatiga kirib, Qo'vshutxonga yo xat yo'llagan, yo elchi yuborib, qurbaqalarning jim bo'lishini buyuribdi emish. Sababi, Murg'ob daryosi bo'yiga chodir tikkan shahzoda sohilda vaqir-vuqur sayrashayotgan qurbaqalarning ovozidan bezor bo'libdi emish. Albatta, bu gap endi urushmoqqa qandaydir bahona topolmay turgan odamning gapi, kuchi yerga-ko'kka sig'may borayotgan qo'shinning boshlig'i gapirsa, shunday gapiradi-da. Bir kami, qurbaqalarni tutib o'ldirib yurishimiz qoluvdi... Shoir ishtonlarini daryoda tizzalarigacha qayirib olgan yigitlar, soqollari ko'ksini qoplagan mo'ysafidlarning daryoga to'r tashlab, qurbaqa ovlab yurishlarini ko'z oldiga keltirib yana iljayib qo'ydi. Bunaqa shartni kim ko'ribdi-yu, kim eshitibdi? Bilagi zo'r odamda insof bo'lsa, yaxshi ekan. Ochlik nima yedirmas, to'qlik nima dedirmas? Xayoliga nima kelsa, aytsa aytgandir-da. Har qanday mish-mish gap ham o'z-o'zidan paydo bo'lavermaydi-ku, axir...

Eron qo'shinlari orasida Marv jangini dunyoga yoyib borayotgan, o'zi ham bir necha tilni biladigan bir farang odam borligini Nafas mulla oldin ham eshitgandi. Demak, shahzodaning qurbaqalar ovozini o'chirish haqida buyruq berib, bosh xonga xat yuborgani yoki elchi yo'llagani ham rost bo'lsa kerak. Balki shahzoda shunday buyruq berish bilan turkmanlarni jumla-jahonga masxara qilmoqchi bo'lgandir? Voy hazilkashlar-ey, valloh-billoh, shah-

zoda turkmanlar oldiga shunaqa shart qo'ydi ham deylik. Unda, Qo'vshutxon unga javoban nimalar der ekan? Xalqining or-nomusi uchun kuyib-pishib yurgan Qo'vshutxon ham bir nimalar der, axir. Ovchi qancha yo'l bilsa, tulki shuncha yo'l bilar, degan gap bor-ku...

Ko'prikdan o'tgan yerda o'ngga burilmoqchi edi. U hali burilmasdan turib, anhor yoqasidan yo'lda ot surib kelayotgan uch suvoriyga ko'zi tushdi. Oldinda yo'rtib kelayotgan otliqning qo'lida oq matoga o'ralgan nimadir bor. Shoir otliqlarni ko'rgan zahoti, ularni Hamza Mirzaning Qo'vshutxonning ustiga yo'llagan elchilarimi, deb o'yladi. Kelayotganlardan tezroq o'tib ketib, yo'lda ushlanib qolmaslik maqsadida shoir otining jilovini silkidi.

... Qo'vshutxonning oq uyi yonida Nafas mullaning oldidan chiqqani ham, otini tutgani ham odam bo'lmadi. To'g'ri, hozir jilovingni tutib, kelganingga yarasha obro'-izzat ila qabul oladigan zamon emas. Dushman Samandiq qishlog'ining kunchiqar tomonida joylashib olganini kattadan kichik hamma biladi. Bola-chaqa, qari-qartang, ayol-qizlarning bari allaqachonlar Murg'ob daryosining oyoq tomoniga — Qorayop tomonga ko'chirilgan edi. Marv tevaraklarida hali bu kabi xalq ko'p to'plangan jamoat yo'q hisobi.

Nafas mulla tablalarda bog'lovda turgan otlarni ko'rib, xonning huzurida kimlardir bor ekanligini taxmin qildi. U otini qoziqqa tang'ib, uyga kirganida esa qilgan taxminining rost chiqqanini bildi. Darhaqiqat, ichkarida Tojko'k bahodir, Karim xo'ja, Panjiboy, Ortiq arsari va Chebshek botirlar hozir-u nozir edilar.

Ortiq arsari deganlari sariqdan kelgan, dudoqlari qalin, xushbichim yigit. U shu yerlik Karimxo'janing do'sti. O'zi ham bundan ko'p yillar burun Marvga ko'chib kelgan qorabeklardan.

Mehmonlar bilan birma-bir qo'l olishib ko'rishar ekan, shoir ko'ngli huzur topganday bo'ldi. Zero, bo'sag'ada uch oylik yeb-icharini g'amlab kelgan dushman yotgan bir vaqtda, bu yerda yig'ilganlarning, asosan, Qo'vshutxonning chehrasi osoyishta ko'rinardi. Rostdan ham, ustimizga yog'iy keldi, deb qora kiyinib, motam tutib o'tirmoqdan foyda yo'q. Xon omon— el omon...

Shoir o‘zining kelishi bilan bu yerda to‘planganlarning suhbati bo‘linganini sezdi. Sog‘lik-omonlik so‘rashildi. Shundan so‘ng Chebshek botir bilan Ortiq arsari el-elatning kayfiyati borasida hisobot berdilar. Ularning aytishlaricha, Qorayop tomonga — qum etagiga ko‘chirilgan xalqning uchdan ikki bo‘lagi allaqachon ko‘zlangan manzilga yetib borganlar. Shundan so‘ng ularga tegishli oziq-ovqat, ichimlik suvning hisoboti so‘raldi.

Asosiy gaplar tugadi deb chamalangach, Qo‘vshutxon Panjiboyga yuzlandi:

— Boy og‘a, mol-qoralar omonmi? Afg‘on yurti mol-hol saqlash uchun juda qulay deyishadi. O‘tga-cho‘pga ham, yem-xashakka ham boy emish...

Xonning bu so‘zlari boydan boshqa mehmonlar uchun tushunarsiz edi. Boya, mehmonlar kirib kelganida, hamma odam bir-biri bilan so‘rashdi, hol-ahvollar aytib o‘tildi. Endi nima, gap-gurung tugab, qo‘zg‘aladigan payt bo‘lib qolgan bir vaqtda qaytadan hol-ahvol so‘rashilmog‘i, yana buning ustiga deng, mol-holga bog‘liq savollar berilmog‘i, bu gaplarni Afg‘on yurti bilan bog‘lab so‘ralgani mehmonxonada o‘tirganlar uchun haqiqatan ham tushuniksiz bir holat edi.

Ammo Panjiboyning o‘zi xonning bu kabi savollarini o‘rinsiz hisoblamadi. Xonning savoli ham, nimalar bilan qiziqayotgani, nima maqsadda bu gaplarni so‘rayotgani ham bejiz emas shekilli.

Darhaqiqat, xon bekorga savol berayotgani yo‘q. El ichida, hattoki, mana shunday jadalli-tashvishli kunlarda ham eski gina-kuduratlarni yodga olib, ko‘pchilik ichida yolg‘on so‘zlarni yayratib, qalbaki ma’lumotlar tarqatib yuradigan g‘alamislar hamisha topiladi. Shunday ayg‘oqchi odamlardan bittasi Panjiboy barcha mol-qorasi, qo‘y-qo‘zilarini Afg‘oniston tomonga haydaganini, o‘zi ham yaqin kunlar ichida shu tomonlarga ketmoqchi ekanini xonga yetkazgan edi. Albatta, Qo‘vshutxon aqli qulog‘ida bo‘lgan xonlardan emas. Ammo shunga qaramasdan Panjiboy haqidagi bu xabarga ishondi. Sababi, Panjiboyning cho‘pon-cho‘liqlari poda-yu suruvlarni Omonshohdan kunchiqar tomonlarga qarata haydaganlarini ko‘rgan odamlarga ishonmaslik mumkin emasdi. Xullas, boyning ko‘chayotgani aniq — hamma ovul-o‘balardagi

odamlar kunbotar tomonga qochayotgan bo‘lsa, Panjiboyning mollari kunchiqar tomonga ketgan edi.

Panjiboy yoshi bir joyga borib, kuch-quvvati qocha boshlagan bo‘lsa ham, Xudoga shukur, hali aql-farosati o‘zida bo‘lgan mo‘ysafid edi. U ancha vaqtgacha jim o‘tirdi-da, so‘ng xonga yuzlandi:

— Fuqaro uchun hubbulvatan (vatan tanlaydigan, hayot-mamoti hal bo‘ladigan) davri keldi, xon.

— Men ham shuni aytyapman-da, boy. Fuqaro odam tuprog‘i va o‘zini himoya qilsa, boy odam uch narsaning — ham yashayotgan tuprog‘ining, ham salomatligining, ham boyligining tashvishini qiladi.

— Sizga yolg‘on xabar yetkazibdilar, xon.

O‘tirganlar ichida faqat Tojko‘k sardorgina bunaqa astarli gaplarning ma’nosiga oz-moz tushunardi, sababi, xonning qulog‘iga yetib kelgan gaplardan sardor ham xabardor edi, qolaversa, Panjiboy o‘zining qalin suruvi ichidan yuz ellikta qo‘yni ajratib, Qorayop tomonga haydatganini bilardi. O‘sha yuz ellikta qo‘y Panjiboyning ko‘chishga majbur bo‘lgan g‘arib-u g‘uraboga atab qo‘ygan sadaqa mollari edi. Albatta, yuz ellikta qo‘y minglarcha och-aftoda odamlar uchun urvoq bo‘lmasdi. Ammo el boshiga og‘ir kun tushganda shu mol-qora ham harna edi-da. Tojko‘k sardor jim o‘tirgan ko‘yi gapning davomini kutdi.

— Odamdan odamning farqi bor, xon, — gapida davom etdi boy. — Agar tuproqqa bo‘lgan muhabbat taroziga qo‘yilsa edi, Panjiboy hech qachon yutqizmasdi.

Bu gap ochiqdan ochiq aytilmaganda Qo‘vshutxonga, uning egallab turgan martabasiga tegib ketishi aniq edi. Shuning uchun xon darrov javob qaytardi:

— Hamma narsani o‘lchab ko‘radigan payt allaqachon yetdi. Birovimiz men boyman deb o‘zimizni eldan ajratsak, birovimiz men bekman deb o‘zimizni qirga olib qochsak, u holda biz yaxshi mushtlanmagan xamirday tandirga kirmasdanoq oqib tushamizku, boy.

— Haq gapni aytdingiz, xon hazratim. Kim yashayman desa yashayversin-u, ammo Panjiboy vatansiz yashayolmaydi. Panji-

boyning kuch-quvvati Saraxsda qolgan bo'lsayam, ammo qalbi shu yerda, o'z joyida, xon. Er qartayar, ammo or qartaymaydi.

Panjiboy bir paytlar Madaminxonga qarshi ot o'ynatib chiqqanlardan edi, shuni yodga solmoqchi, shu bilan yoshi yetmishga yaqinlashib qolganini, endi qilichga yopishishga kuchi yetmasligini ham bildirib qo'ygisi kelardi.

Buni tushungan Qo'vshutxon sal pasaydi:

— Bu gaplarni hamma biladi, boy. Men bu haqda gap ochmoqchi emasman.

— Bu haqda siz gap ochmagan bo'lsangiz, mana, men gap ochdim, xon, — deya Panjiboy og'ir tayanib zo'rg'a ko'tarayotganday ikki qo'liga tiranib o'rnidan turdi.— Ko'p chirangan uyalib qolar, deyman. Men keta qolay.

Qo'vshutxon u bilan kelisholmasligini bilsa ham, boyning aytganlarini takrorladi:

— Ko'p chirangan uyalishi turgan gap, lekin hozir chiranishadigan emas, jipslashadigan payt yetdi, boy!— dedi.

Panjiboy eshik tomon yo'nalar ekan:

— Avvalo, Olloh ajalga sabr bersin, — deb g'udrandi. — Kim haq, kim nohaq ekanligini esa boshga kelgan balodan qutulib olgach aniqlaymiz. Nasib etsa, hali yana ko'rishamiz.

Xayr-xo'shni omonat qilib chiqib ketgan boyning izidan qarab qolgan Tojko'k sardor bosh chayqadi-da, xonga yuzlandi:

— Sal qizishib ketdingizmi deyman, xon?

—Alviragan xotin eriga ota deydi, degan gapni eshitganmisan, sardor?

— Hamma alvirasa ham, siz alviramang, xon, — gapga qo'shildi mulla Nafas. — Ulug' elning boshida turgan odam o'zini yo'qotsa, elning quvvati qochar emish.

Hech kimdan sado chiqmadi. Hamma go'yo sardorning gapini tasdiqlayotganday edi.

Eshik oldida paydo bo'lgan yigit qojorlardan elchi kelganini xabar qildi.

—Eshikdan mo'ralagan jayronning ikki ko'zidan boshqa aybi yo'q, — deb Qo'vshutxon yana maqol ishlatdi. — Kelsin, ko'raylik-chi, nima gap ekan? Ehtimol, fe'llaridan qaytgandirlar?

— Assalomu alaykum! — deb kirib keldi ochiq yuzli, qora mo'ylovli xushsurat odam. U ichkariga kirgach, orqasidan kelayotgan pakana, tiqmachoqday yigit eshik oldida to'xtadi. Ularni darrov tanigan mulla Nafas kelayotib yo'lda uchratgan uch qojorning bittasi tashqarida ot jilovini tutib qolgandir deb o'yladi. Qo'vshutxon kelganlarni o'tirishga taklif etdi.

Elchilar ko'rsatilgan joyga o'tib o'tirdilar.

Ikkala tomonning ham o'zini bemalol ko'rsatishga harakat qilayotgani shundoqqina bilinib turardi. Zero, ikki taraf ham ichdan hadiksirab turar edi. Ikki dunyo — ikki xil kayfiyatda, bir-biriga qarama-qarshi holatda vaziyatning davomini kutmoqda — elchi nima xabar keltirdi-yu, elchi keltirgan shartlarning mazmuni amalga oshadigan ishmikan o'zi?

Takalar xonini xuddi shular qiziqtirayotganini bilgan elchi o'ziga topshirilgan yumushni bajo qilishga kirishdi.

Qojorlar eski, avvaldan ma'lum gaplarni qayta oraga solmoqda edi, ularning shartiga ko'ra, shu uchta gapning birini tanlash kerak: takalar yo bus-butun Eron tobeligiga o'tsinlar, yoki Marv tuprog'ini tark etsinlar, yoki savash maydoniga chiqsinlar! Takalar Eron shohining qo'li ostiga o'tmasliklari ayon; ular yurtni tark etib ham ketolmaydilar, chunki ko'chib boradigan boshqa yerlari yo'q; jang maydoniga ham kira olmaydilar, zero, bunga kuchlari ojizlik qiladi — bularning barini Nasriddinshoh yaxshi biladi. Bu shartlarga beriladigan javob ham avvaldan ma'lum. Hozir elchilar boshqa bir gapni olib kelganligini Qo'vshutxon ham, boshqa o'tirganlar ham yaxshi tushunardi.

Qojor elchisi turkman xonining beradigan javobiga ajablanib turmadi, qaytanga bizlar ham xuddi shu javobni kutgan edik, deganday, vazmin bosh silkidi.

— Kechirim chog'i rozilashsangiz o'zingizga ham yaxshi bo'lardi, elchi. Tinch o'tirgan Xudo bandalarining ustiga bosib kelib, o'tirgan kulbangdan chiqib ket, deyish — kechirimlilik emas. Biz o'z tuprog'imizni tashlab, hech qayerga ketolmaymiz.

Elchining javobi keskin yangradi:

— Bu tuproq hech qachon turkmanlarniki bo'lgan emas, xon!

— Bizda ilon qumni qizg‘anibdi degan gap bor. Eronda qum qahat narsa emasligini ham bilamiz.

— Buni biz ham bilamiz. Lekin Marv tuprog‘i asli Eronga tegishli ekanini siz ham bilsangiz kerak?!

— Tangri tuprog‘ini da’vo qilguday, sizning qo‘lingizda ham Xudo muhri bosilgan kafolatnoma yo‘q, elchi. Lekin shunga qaramay, sizning shartingizni biz boshqa bir shart bilan almashtirsak degan niyatdamiz.

— U qanaqa shart ekan?

Qo‘vshutxon hozir aytadigan gapi hammaning ko‘nglidagi niyat ekanini tasdiqlamoqchi bo‘lganday, tevaragiga bir-bir ko‘z tashlab chiqdi-da, so‘ng gap boshladi:

— Biz Eron qo‘shiniga yigitlarimizdan berib turishga rozimiz. Mayli, yigitlarimiz Eronda navkar bo‘lib xizmat qilsinlar. Biz tomondan Xuroson yo‘lida ham hech qachon talonchilik yuz bermasligiga kafil bo‘lamiz.

Elchi Qo‘vshutxonning aytganlarini mensimagan ohangda:

— Biz o‘z shartlarimizni aytmoqqa kelgan edik,— dedi.

— Shartlarni siz emas, biz qo‘yamiz!

Shu bilan eronliklarning asosiy talabi yana bir marotaba tushunarli bo‘ldi. Elchi esa, avvalgi aytganlari ozlik qilganday, xonga qarab:

— Marhamatli Hamza Mirza Xishmat Davlaning begunoh turkman bolalariga rahmi kelayotir, — dedi.

Elchining bu so‘zlarida rahm-shafqatdan uchqun ham yo‘qligini allaqachon sezgan Qo‘vshutxon:

— Marhamatli Hamza Mirzaning turkman bolalarida gunoh yo‘qligini tushungani yaxshi, albatta, — dedi. — Lekin begunoh bola-chaqa ustiga to‘p sudrab kelish, mehribonlikka kirmasligini o‘zingiz ham bilasiz.

Elchi nima uchundir xonning so‘zini bu gal javobsiz qoldirdi. Hal qilinmay kelayotgan masalani endi qilich yordamidagina hal qilish mumkin.

Elchi turli mavzularda gurung qilib o‘tirdi, ammo qurbaqali shartni tilga olmasdi. Demak, bu el ichida tarqalgan hazil gap.

Shuning uchun ham bu borada gap ochib qo'yib, xonning yuragiga behuda hadik solmaganiga mulla Nafas suyunib qo'ydi.

— Elchini kuzatib qo'yinglar! — dedi Qo'vshutxon buyruq ohangida. — Bosh imomimiz (xon bu yerda hazrat Alini nazarda tutib gapirdi) boshqa bo'lgani bilan, Xudoyimiz bittadir. Xudo yoring bo'lsin, elchi, yaxshi bor!

Chebshek botir elchini kuzatib qo'yish uchun tashqari chiqdi-yu, ichkarida qolganlar chuqur sukutga toldilar. Bu sukut — takalar boshi ustiga kelib qolgan balodan qutulish yo'li yo'qligini anglatardi.

Qo'vshutxon xo'rsindi.

— Mana, sariq[1]lar bilan ham shunday ahvolda qoldik. Bir-birimizdan suv qizg'andik, qum qizg'andik. Axalliklarning yuki ham yengil emas, o'zlariga yetarli. Arsarilar daryo bo'yini omon saqlasalar katta gap. Yovmutlarga xabar yetib borguncha, g'isht qolipidan ko'chgan bo'ladi. Yovmutlar tezda yetib kelgandayam, janozangning yettinchi kuni oyat o'qimoqqa kelar...

Xonning so'nggi so'zlari o'tirganlarni bir gaz cho'kdirib yubordi, og'ir ta'sir etdi.

— Nasriddinshohda rahm-shafqat degan narsa yo'q ekanku! — deb yubordi Karimxo'ja ichida qaynab kelayotgan norozilikni tashqariga chiqarar ekan.— Oz ekanimiz gunohimizmi, axir! Qo'shni bo'lib o'tiribmiz-ku!

Karimxo'janing aytganlari javobsiz qoldi. Qo'vshutxon avvaliga so'nik iljaydi, ammo yuzi, baribir, temirday qoraydi.

— Sen ichingdagi gaplarni aytyapsan, Karimxon. Nasriddinshohning niyati tuzuk bo'lsa edi, taka bilan sariqni urushtirib qo'ymasdi. Nasriddinda rahm-u shafqat bo'lsaydi, sariq bilan salir[2]ni urushtirib, yov qilib qo'ymasdi. Nasriddinning qalbi qora! Shuning uchun uni Nasriddin deb emas, Hasratdin deb aytaversayam bo'ladi. Agar uning niyati tuzuk bo'lsa edi, hamma turkmanlar o'zaro til topishib ketardik. Turkmanlarning badbaxtligiga asl sabab, o'zini begonalarga bog'lab berib qo'yganida. Duch kelgan

[1] **Sariq** — qabila nomi.

[2] **Salir** — qabila nomi.

odam bizni bir-birimizga qarshi qayraydi. Og‘zi birikmagan elga yo‘lboshchi bo‘lish oson emas. Har birimiz har tarafga tortgimiz keladi.— Qo‘vshutxon Ortiq arsarining yuziga alamli qaradi.— Men noto‘g‘ri aytyapmanmi, Ortiqbek?

Avvalboshdan gapga qo‘shilmay o‘tirgan Ortiq arsari xonning gapini javobsiz qoldirmaslik uchun nimadir demoqchi bo‘ldi.

— Ay, bizlar bir xon yoniga kelgan banda bo‘lsak...

Ortiq arsarining gapi Qo‘vshutxonning jahlini chiqarib yubordi.

13

— Sen begonasirayverma! Begona emassan, arsari.— Xonning ko‘zlari suzildi. — Sen turkmanning eng yaxshisisan... Ana, ko‘ryapsanmi nimalar bo‘lganini? Turkmanning uyini buzadigan narsa — begonasirash! Turkman yaxlit gavda bo‘lishi kerak! Har bir urug‘ ana shu yaxlit gavdaning bir a’zosi. Taka turkman o‘zini chetga olsa — o‘sha gavdaning bir a’zosi mayishgani. Arsari o‘zini chetga olsa - gavdaning yana bir a’zosi kamayadi. Yovmut, sariq, salirlar ham ayrilsa, bu gavda qo‘lsiz, oyoqsiz, ko‘zsiz bo‘lib qoladi-ku...

Qo‘vshutxonning aytganlarini xayolida mulohaza qilib o‘tirgan Ortiq arsarining ko‘z oldida mudhish bir voqea jonlandi. Ayniqsa, xonning so‘nggi aytganlari ana o‘sha dahshatli voqea ustiga yana vahima qo‘shdi.

— Qo‘lsiz, oyoqsiz, ko‘zsiz gavda kimga ham kerak? O‘tirgan bir yumaloq pajmurda gavda u! Ko‘chadan o‘tgan har bir badfe’l kimsa bu ojiz bechorani oyog‘ining uchi bilan tepib o‘taveradi... O‘z suyagimizni begona hisoblasak — halok bo‘lganimiz. Dushmanga bo‘yin egamiz, qozondagi nasibamizni begonalar yeb ketadi. Xo‘sh, endiyam o‘z ko‘zimizni o‘zimiz o‘yaveramizmi, arsari? O‘z qo‘limizni o‘zimiz kesaveramizmi, axir?

Ortiq arsari va boshqalar ham bosh xonning kuyunib aytganlarini yurakdan ma’qulladilar...

Mehmonlarni kuzatish uchun Qo‘vshutxon ham uydagilarga qo‘shilib tashqariga chiqdi. Eng so‘nggida xayrlashgan Nafas mulla bo‘ldi.

Xon shoirning ma'yus yuzlariga qaradi-da, zo'rma-zo'raki jilmaydi.

— G'am chekma, mulla! Qojor to'pining ovozi o'chsa, turkman dutorining ovozi baland yangraydi. Chunki bizning niyatimiz o'zimizga haq.

Shoir ham xonning zo'rma-zo'raki harakatini ma'qullab, uning ko'nglini ko'targan bo'ldi:

— Inshoolloh, shunday bo'ladi, xon! To'p ovozini o'chirish — sizdan, soz ovozini ko'tarish — bizdan. Xalq shuni kutayapti.

Ular kulumsirab xayrlashdilar, xonning ham, shoirning ham quloqlari ostida musiqa ovozlari emas, dushman to'plarining gumburlashi eshitilayotganday, hozircha bu tovush dutorning nozik ovozini bosib ketayotganday edi.

Uyiga tomon burilgan xon Guljamolning yaqinlashib qolganini sezmay ham qoldi. Guljamolning ko'ziga xonning kayfi chog' ko'rindi.

— Omonmisan, Guljamol, sog'liqlaring yaxshimi?— salomlashgan bo'ldi xon muloyim ohangda. — Haliyam yangi qishloqqa ko'chmadinglarmi?

Xonning yangi qishloq degani Qorayop edi. Guljamol buni tushundi. Shuning uchun g'amgin ovozda:

— Biz ertaga peshindan so'ng jo'namoqchimiz, — dedi.

— Nima qilardik, asalim. Sharoit shunga majbur qilmoqda. Nasib bo'lsa, hademay eski joylarimizga qaytib kelamiz! — Sir bildirmaslikka harakat qilsa-da, xonning ham ovozi quvnoq odamning tovushiga o'xshamadi. — Uyga boraver, yangang o'sha yerda.

— Men, Qo'vshut ota, sizning yoningizga kelgandim. Bir o'tinchim bor. Hozir shu xohishimni sizdan boshqa odam bajara olmaydi...

O'tinch so'zi xonni o'ylantirib qo'ydi. Shunday xavfli fursatda ayol kishi xondan nima so'rashi mumkin? Ko'chish uchun ot-ulovmi? Yoki ko'ch-ko'ronni ko'tarishga ko'makchi kerak bo'ldimikan? Xonning bu xil taxminlari ham noto'g'ri chiqdi. Bunday yumushlarni bajaraman desa qarindosh ham, og'a-ini ham Guljamolda bor. Unda yana nima o'tinch?

— Gapiraver, qo‘limizdan keladigan ish bo‘lsa...

— Menga ikkita qilich kerak!

Guljamolning bu iltimosi xonni battar o‘ylantirib qo‘ydi.

— Birdaniga ikki qilichni nima qilasan, qo‘zichog‘im? Har qo‘lingga birini olmoqchimisan?

— Biri menga bo‘lsa, yana biri Uzukjamol qo‘ng‘irga! U ham jiyanlaridan xabar yuboribdi. Hozir bunday iltimos ila birov oldiga borgan bilan, kim ham ishingni bitirib beradi? Bunday odamni topolmaysan! Chunki qurol o‘zlariga ham yetmay turibdi...

Uzukjamol yoki Uzan qo‘ng‘ir deb nom olgan bu kelinchak haqida Qo‘vshutxon ko‘p eshitgan edi. O‘zi Uzan qo‘ng‘irni ko‘rmagan bo‘lsa ham, uni eslasa, alp ko‘rinishli bir ayol ko‘z oldiga keladi. Manaman degan erkakdan ham kuchli, pahlavon kelbatli bu kelin haqida yigitlar-u yosh o‘spirinlar orasida asov buqalarni ham istalgan joyda jilovlab tashlaydi, degan ovozalar yurardi.

Qo‘vshutxon kulumsirab boshini qimirlatdi.

— Iltimosing shu bo‘lsa, yaxshi ekan. Qilich qahat bo‘lsa-da, buning ilojini qilamiz. Men Bozirgan ustaning oldiga odam yuborib ko‘ray-chi...

14

Qo‘vshutxonning huzuridan chiqqanidan keyin ham hayajonini bosolmagan Panjiboy otiga minsa-da, ot boshini qayerga burishni bilmay, egarning ustida karaxtlanib o‘tirdi. Egasidan buyruq bo‘lmagach, ot o‘rgangan odati bo‘yicha o‘ziga tanish yo‘ldan yura boshladi.

Dunyodan bexabar odam singari egar ustida o‘yga cho‘mgan Panjiboy bo‘lib o‘tgan voqea haqida fikr yurita boshladi: “Bu dunyoning chalkashliklariga hayron qoladi odam! Yurt tinch paytlarda hamma yoqni yolg‘on-yashiqqa to‘ldirgan tuhmatchilar boshga balo yog‘ilayotgan vaqtda ham tillarini tiymas ekanlar. Axir, yurt xavfsizligi — har bir vatandoshning xavfsizligi-ku! Kechqurun yotib, ertalab turish-turmasligi gumon bo‘lgan vaqtda arzimagan narsalar uchun ham bosh qotirish shartmidi, axir? Yana

deng, alg‘ov-dalg‘ov davrda tuhmat so‘zlarga balo bormi? Undan ham yomoni — el-yurtni olg‘a yetaklaydigan xonlar ham bu tuhmatni haqiqat deb topganiga, nima deysan? To‘g‘ri, xonlar ham, sarkardalar ham el-yurt ichidan chiqadi. Biroq ra’iyati orqa-oldiga qaramay qo‘zg‘alaveradigan yurtning xoni ham, sardori ham asliga tortar ekan. Go‘yo hammalari bir go‘r...”.

Panjiboy o‘z o‘basiga qaytib kelganda uyining oldida bog‘langan oq otni ko‘rib, Qorayopga mol haydab ketgan cho‘ponini qaytib keldimikan, deb o‘yladi. Uyiga yaqinlashganda bu otning cho‘pon minib ketgan ot emasligini aniq bildi.

Panjiboyning eshigi oldida bog‘langan ot Qoramurtniki bo‘lib chiqdi. Uning o‘zi esa uy soyasida boyning kelishini kutib o‘tirgan ekan.

Uyiga yaqinlashgan boy otining jilovini tortishga ulgurmasdanoq, Qoramurt:

— Assalomu alaykum, boy og‘a! — deb uning oldiga yelka uchirib peshvoz chiqdi.

Qoramurtning baland yangragan ovozini eshitib uydan yugurib chiqqan uzun oq ko‘ylakli o‘spirin bolakay boy otining jilovidan tutdi.

Boy alik olib, qo‘l berishib ko‘rishgach, ro‘parasidagi shop mo‘ylovli odamga boshdan oyoq nazar soldi.

— Men seni tanimayroq turibman, yaxshi yigit?

— Tanimasangiz, Xudo xohlasa tanishamiz-da, boy og‘a! — Mehmon qora shop mo‘ylovi tagidan oppoq tishlarini yaltillatib tabassum qildi. — To‘g‘risini aytsam, boy og‘a, men o‘zim taniqli odam emasman. Ismim Otaqari. Cho‘lda odamlarning molini boqib yurgandim. O‘zingiz yaxshi bilasiz, boy og‘a, egalari mollarini olib ketishdi. Ishsiz qoldim. Shunda bir tanishim Panjiboyning huzuriga borib ko‘r deb maslahat berdi. Biror yumush berarmikansiz, deb kelaverdim, boy og‘a.

Panjiboy uni yaxshilab ko‘rib olmoqchi bo‘lganday, Qoramurtga yana boshdan oyoq nazar solib chiqdi. Bundan o‘zgacha ma’no chiqargan Qoramurt o‘ng‘aysizlandi.

— Ot minib, qilich solisha olmagandan keyin, hozir elning biror koriga yararmikanman deb, sizni qora tutib kelaverdim-da...

Panjiboy to‘g‘ri so‘zli, ishonuvchan odam edi. Cho‘ponlikni eplab yurgan odam bo‘lsa, undan endi, nima sababdan otga chiqib, qilich chopa olmasligini so‘rab tursinmi? Qaytanga, shunday deb turgan ekan, biror gap bordir-da deb qo‘ya qoldi. Bo‘lmasa, Qo‘vshutxonning bundan ikki hafta oldin yurtga yoygan farmoni bo‘yicha, yosh cho‘pon-cho‘liqlargina emas, balki yoshi o‘tgan cho‘ponlar ham yaylovdan o‘baga qaytib, el-yurt bilan birga dushmanga qarshi tayyorlanishi lozim edi. Qoramurt-ku, ot minolmaydigan, qilich o‘ynatolmaydigan qari chol emas. Lekin aytganini qiladigan yigitlardan ko‘rinadi. Panjiboy:

— Boshqa bir payt bo‘lgandami, Panjiboyning eshigidan quruq ketmasding, yaxshi yigit, biroq...— deb so‘z boshlagan edi, bu gaplar Qoramurtning hafsalasini pir qildi. Ammo boyning gapi hali tamomlanmagan edi, yaqinlashib kelib qolgan yana boshqa bir otliqni ko‘rib, uning gapi bo‘lindi. — Ana, O‘rozmengli ham qaytib kelyapti!

— O‘rozmengli deganingiz kim o‘zi? — qiziqsindi Qoramurt.

O‘rozmengli — Panjiboyning bosh cho‘poni. U boyning yurtga tuhfa qilgan mol-qo‘ylarini Qorayopga tashlab kelmoqda edi.

Eshigiga kelgan odamni mehmon qilmay qaytarishga o‘rganmagan boy bosh cho‘ponining qaytib kelganiga xursand bo‘lib, qora mo‘ylovli mehmonni ham ichkariga taklif qildi. Bu taklif ota-bobolardan qolgan yaxshi urf-odatlardan chetga chiqmaslik uchun qilinayotgan harakat edi. To‘g‘risini aytganda, hozir boyning uyida oyoq uzatib yastanib o‘tirishga yaraydigan ko‘rpacha-gilamning o‘zi yo‘q. Yov qo‘liga o‘lja bo‘lib tushmasin uchun gilam bormi, qimmatbaho ko‘rpa-to‘shak bormi — bari xotin-qizlarga qo‘shib Qorayopga jo‘natildi. Mana endi, mehmonning oldiga chiqarib qo‘yadigan narsaning o‘zi yo‘q darajada. Boy uyga chorlangan mehmonlardan kechirim so‘raganday xijolatli iljaydi.

— Uyga kirib bir-ikki og‘iz gaplasha qolaylik devdim... Ko‘-cha-ko‘ch bilan bo‘lib, o‘zlaringga ma’lum, shu...

— E-e, boy og‘a, hozir buning hech uyaladigan yeri yo‘q, xotirjam o‘tiradigan paytmi axir... — Panjiboyning ishonchini qozonish niyatida Qoramurt bosh cho‘pondan ham oldin gap tashladi. Uning so‘zlari boyga xush yoqib ketdi. O‘zing bilarkansan-a,

hammasini, deganday g'o'ldiradi. O'rozmengli cho'pon ham o'z ko'nglidagilarni aytish bilan Qoramurtning gaplarini tasdiqlagan bo'ldi:

— Mehmonlar bilan chaqchaqlashib o'tiradigan vaqt emas, boy og'a. Ruxsat bersangiz, men ham kiyim-kechagimni olsam-da, yo'lga tushaversam... Mol-qoraga birgina Toyli og'aning o'zi qarab qoldi.

—O'g'lonlar-chi, qaytishmadimi? — Boy savol berdi.— Ikkovingizgayam endi rosa yengil tushmasa kerak.

—Xabar qilingan kuniyoq ularni orqaga qaytardik... Aytganingizday, ikki odamga oson emas ekan, biroq nachora, ko'rpaga qarab oyoq uzataveramiz-da.

—Bu mehmonning ismi Otaqari ekan, — Panjiboy Qoramurt tomon qo'l siltadi. — O'zi oldin qo'y boqib yurgan ekan... Balki buniyam o'zing bilan olib ketarsan? Shuncha molga qarash qiyin. Ikkovingizdanam yosh ko'rinadi bu.

O'rozmengli cho'pon Qoramurtga diqqat bilan tikildi. Tanimadi.

— O'zingiz bilasiz, boy og'a, — dedi. — Albatta, ikkovimizdan ko'ra uchovlon bo'lganga ne yetsin? Ma'qul desangiz, biz bilan yuraveradi.

Suhbat qisqa bo'ldi-yu, Qoramurt Panjiboy suruvining izida yuradigan uch cho'ponning biriga aylandi.

— Mollar qayerda hozir? — so'radi Panjiboy bosh cho'pondan.

— Chilburchga tomon jo'natganman, boy og'a. Bizlar yetib borguncha, ular ham yetib qolar...

Biz degan so'z ichida men ham borman deb hisoblagan Qoramurt tilini tiyib turolmadi:

— Chilburch bo'lsa, kechgacha yetib borarmiz, axir?

O'rozmengli cho'pon Qoramurtga hayron bo'lib qarab qoldi. Biroq indamadi. Bosh cho'ponning nimaga indamay qolganini boyning o'zi shunday bildirdi:

— Chilburchga, inim, kechgacha yetib borolmaysan. Yo'l uzoq. Ertaga yetib borsang ham katta gap.

Gapi o'tmay qolgan Qoramurt yana tilini tiyib turolmadi:

— Otlarni qichab haydaymiz-da...

Uning taxminiy so‘zi yana tasdiq topmadi. Chunki otlarni qattiq choptirib haydaganda ham, baribir, kechga yaqin Omonshoh manziliga, yarim kechagina Chilburchga yetib borish mumkin edi.

Shu bilan suhbat yakunlanib, bu mavzuga boshqa qaytilmadi. Panjiboy buyruq berdi:

— U yoqlarga dushman oyog‘i yetib bormasa kerak. Mabodo dushman hidini sezguday bo‘lsangiz, mollarni darhol yuqoriga haydanglar!

O‘rozmengli cho‘pon nimadir deyish uchun og‘iz juftladi-yu, biroq o‘ylanib qoldi, so‘ng xotirjamlik bilan:

— Chilburchdan yuqorida tap-taqir cho‘ldan boshqa hech narsa yo‘q, boy og‘a, — dedi. — Bu ishimiz sal g‘alati bo‘ladimi deyman-da...

— Nimasi g‘alati bo‘ladi?

— Mollarni qirg‘inga berib qo‘yamizmi, deb qo‘rqaman.

— Men ham shuni o‘ylayapman, O‘rozmengli. O‘zlaring omon qolsangiz yaxshi edi.

O‘rozmengli: Boy og‘a nima deyapti, a? — deganday Qoramurtga qaradi.

Bu gal ham Qoramurt bosh cho‘ponning ko‘nglidagiday gap topolmadi. O‘rozmengli cho‘pon endi mollar yuqoriga qarab haydalsa, qiriladi, degan fikrini yana takrorladi. Shunda Panjiboyning ovozi g‘azabkorona yangradi:

— Menga desa, qirilsin, qirilib ketsin! Qojorlarning tomog‘idan o‘tib, bellariga kuch-quvvat bo‘lgandan ko‘ra, o‘zimizning cho‘lda chirib ketganlari ma’qul, tushundinglarmi?!

15

Bozirgan usta shu choqqacha kechirgan hayotida deyarli barcha balolarni ko‘rgandi. Bugun esa yashagan umrini yana bir marta chamalab chiqdi-da, balo-kulfatlar ichida eng iflosi — tuhmat balosi bo‘lsa kerak, degan to‘xtamga keldi. Ammo endi gap-so‘zlarni kovlashtirib o‘tirmadi. Shunday qilsa, gap-so‘zlar o‘z-o‘zidan kamayib, esdan chiqib ketadi, deb o‘yladi. Lekin voqealar

u o'ylagancha bo'lmay, usta haqidagi mish-mishlar-u g'iybatlar borgan sari ko'paya boshladi.

Kasb-koriga, hunariga til tekkizishmasa, og'izlariga nima kelsa gapirishsa, Bozirgan usta o'zini hozirgiday kamsitilgan, xo'rlangan deb his qilmasdi. Hunariga til tekkizgan tuhmat o'roq o'tkirlash yoki bel dastalash bilan bog'liq bo'lsa-da, u hozirgacha shu galdagiday izza tortmagan edi. O'roq nobop o'tkirlansa yoki bel qiyshiq dastalansa— hech kimning boshiga oxirzamon ag'darilmasdi-ya. O'tmas o'roq bilan o't yig'ish — mashaqqat, yoki qiyshiq dastaga o'rnatilgan belkurak ham tutishga o'ng'aysizligini hamma biladi. Shundan kelib chiqib ustadan norozi bo'lganlar ozgina g'idi-bidi qiladi-yu, yo'liga ketadi.

Bu safar esa usta Bozirganning hunariga til tekkizishdi! Go'yoki uning kasbiga no'noqligi — Vatanga xiyonat qilish bilan barobar bo'ldi-qoldi. Qoramurt tomonidan tarqatilgan xabarga ko'ra, usta Bozirganning yasagan qilichlari haqiqiy qurol emas emish, odamlarni chalg'itadigan o'yinchoq qilichlar emish! Temiri qiyomigacha toblanmay, me'yorida suv berilmay yasalgan ushbu qilichlar bilan urushga borsang — qo'ling yarog'siz jangga kirganday bo'lasan emish!

Bunday gap-so'zlar kuchaygandan kuchaydi. Aslida usta Bozirganning bunday g'alati bevafoligiga, el-yurtiga sadoqat ko'rsatolmasligiga ham sabablar bor: Eronda ustaning o'n sakkiz yoshlardagi o'g'li asirlikda yashar edi. U eronlik sarbozlar bilan birgalikda Marvga ham kelgan. Bu degani— Bozirgan usta qojorlar bilan yaqin aloqada. Qojorlar yengsa, usta o'g'lining takalarga yo'lboshchi qilib yuborilishidan umid qiladi. Endi ham usta tutqin bo'lib turgan va Olloh bergan yolg'izgina farzandiga qarshi ko'tariladigan qilich yasasinmi? Buni tasavvur qilib bo'ladimi?

Ana endi, shunaqa mish-mishlar qulog'iga yetgan odamlarning og'zi ellik bo'lib, tuhmat qozonini qaynatishlari — kurakda turmaydigan gap bo'layapti-da.

Hayotda hayron qoladigan voqealar ko'p bo'ladi. Yaxshi bir odam to'g'risidagi haqiqatni el-yurtga yoymoqchi bo'lib qancha harakat qilma, bundan hech qanday natija chiqmaydi. Aytgan maqtoving aytilgan joyida qolib ketadi. Biroq qandaydir bir odam

haqida yolg'on-yashiq so'z tarqataman desang, marhamat, bundan oson ish yo'q. Xaloyiq bu so'zning tuhmat ekanligini bilsa ham, darrov laqqa tushib el-yurt ichiga o'zi tarqatadi. Ajabo, ko'pchilik yaxshi gapdan emas, balki yomon gaplardan lazzat olar ekan-da?! Odamlarga sira tushunib bo'lmaydi...

Xuddi shuningdek, Qoramurtning Bozirgan usta to'g'risida aytgan bir og'iz yomon so'zi ham og'izdan og'izga o'tib, birpasda chippa-chinga aylandi. Natijada nima bo'ldi, deng? Nima bo'lardi, mana endi ayg'oqchi ham Bozirgan usta, xoin ham Bozirgan usta! Hammaning og'zida shu gap: qojor qo'shinlarining qachon Marvga hujum qilishini mana shu Bozirgan usta biladi!

Shu zaylda hamma narsani yuragiga yaqin olgan bu sodda odam o'zini o'zi qiynab qo'ydi. Ma'nosiz so'zdan ma'no izlayverib, tuhmat bilan haqiqatni ajrata olmay, yelkasidagi zil yuk og'irlashgandan og'irlashdi.

... Ustaning diqqat-e'tibori ustaxonaning chap tomonidagi qo'y-qo'ziga mo'ljallangan sirtmoqqa og'di. Uni bundan ikki hafta oldin Emrali cho'pon tez yasab berishni buyurib ketgandi. O'zi esa uni erta yoki indin olib ketaman deb va'da bergan. Biroq u buyurtmasini so'rab haligacha kelmadi.

Usta buniyam o'zi haqida tarqalgan mish-mishlar bilan bog'liq deb o'yladi. O'zi sodda, ustiga ustak, musichaga ham ozor bermaydigan usta hech kimni xafa qilgisi kelmaydi. Biroq tuyaga hayt demoqdan, qo'yga quray deyishdan boshqa narsani bilmaydigan allaqanday bir cho'pon ham o'zi buyurgan narsasini so'rab kelmagach... Kunda bir necha bor ustaning yoniga kelib ketadigan, goh-gohida go'yo qulog'iga ilingan gap-so'zlarni qayta-qayta takrorlayverib odamning joniga tegib ketadigan qo'shni Annajamol kampir ham ikki kundan buyon eshikni qoqmayapti. Yoki u ham...

Tashqaridan xonaga kimdir kirib keldi. Bu Annajamol kampirning o'n yashar nabirasi Haqnazar edi. Uch kunda bir marta non yopadigan kampir har gal Bozirgan ustaga ilinganini o'z qo'li bilan olib kelardi. Kampir har gal ko'rikning yonboshiga yaxshilab o'rnashib, bir qancha gap-so'zlarni qalashtirib tashlardi. G'aribotadan boshlab Sho'rtepagacha barcha qishloqlardagi yangiliklarni birpasda ustaning oldiga yoyib tashlardi.

Bugun esa, mana, Annajamol kampir ham o‘zi kelmay, nonni nabirasidan yuboribdi... Ana, senga kerak bo‘lsa! Sadag‘ang ketay, Qoramurt!..

Bolaning salomiga alik olgan usta uning yuziga qaramay, ming‘irlab so‘radi:

— Momong nima uchun qorasini ko‘rsatmayapti, polvon?

— Momomning ishi juda ko‘p, Bozirgan bobo!

— Bu bahonani o‘zing o‘ylab topdingmi yoki momong shunday deb aytgin dedimi?

— Momomning o‘zi aytdi, men ham aytyapman. Dushman bostirib kelayotgan emish, bobo...

— Uni momong aytmasa-da, bilamiz. Yana nima gap-so‘zlar bor?

— Boshqa gap yo‘q.

— Gap-so‘z bo‘lishi kerak, polvon, ayniqsa... momong men haqimda nima deyapti?

— Kimni ko‘rsa, qojorlar to‘g‘risida gapiradi. Boshqa gap-so‘zni eshitmadim.

Bozirgan usta o‘zi haqida qanaqa gaplar borligini bilmoqchi bo‘lib, bolaga turli-tuman so‘roqlar berib, boshini aylantirib yubordi. Ammo o‘zi kutgan natija chiqmadi. Buning ustiga bola:

— Qo‘vshutxon, cho‘lga singishimiz lozim deganmish, — deb so‘z yo‘nalishini yana dushman bosqini bilan bog‘ladi. — Momom qoplarni tayyorlamoqda, go‘sht qovurishni boshladi.

— Qovurdoqni ko‘proq olsin... Momong bechora cho‘lda och qolib ketmasin tag‘in!

Ustaning ilmoqli so‘zi bolaga yoqmadi. U qizarib, bo‘liq yuzini teskari qaratdi.

— Ochdan o‘lmaganingda ham, cho‘lga ketiladigan bo‘lsa, kerak bo‘lib qoladi-da, Bozirgan bobo. Ulug‘ xon ham ko‘proq oziq-ovqat olinglar deganmish.

— Sening momongga shunday debdimi?

— Momomga ham, boshqa kishilarga ham.

— Tushunarli. Yana nima gap bor?

— Boshqa gap yo‘q. Momom sizga non berib yubordi.

— Uni aytmaganingda ham, bilib turibman.

— Teskari qarab turibsiz-ku, qanday qilib bildingiz?

— Issiq nonning hidi burnimga urilsa, qanday bilmay, bolam-a?

Bola qo'lidagi dasturxonni o'ng chekkaga qo'ygach, Bozirgan usta unga qayrildi:

— Momongga, Bozirgan bobom Olloh barakasini bersin, dedi, — deb aytgin, xo'pmi.

— Xo'p.

— Boshqa nima gap bor?

— Qojorlar Po'rsiqal'a degan joyga o'rnashibdi. Endi bizlar tomonga hujum qilishar emish.

—Bu xabaring yangilik emas. Qojorlar yurtimizni olish uchun bostirib keladilar, Po'rsi qal'ada sasib yotmas.

O'g'lon bilan ustaning o'rtasiga eshikka o'rnatilgan matoh tushdi. Bola ketgach:

— Tilning tuggan tugunini til ham kesmaydi, qilich ham chopmaydi. Sen menga qiladiganingni qilding-da, Qoramurt! — deb usta o'z-o'zi bilan so'zlasha boshladi.

Shu vaqt tashqaridan ot tuyog'ining tovushi eshitildi. Usta yana jonlandi: qanday xabar keltirishdi ekan-a?

Nomini bilmasa ham, eshikdan kirgan yigitni usta darhol tanidi. U Qo'vshutxonning huzuriga borganda ustaning qulog'iga xon kelyapti, deb shivirlagan yigit edi. Kelgan yigitning yuzi xotirjam, ko'rinishi osuda. Demak, hech qanday shum xabar yo'q. Shunday bo'lsa-da, usta notinchlandi.

— Qanday xabar keltirding, polvon?

—Xabar, usta og'a... — deb yigit biroz talmovsiradi. — Meni Qo'vshutxon yubordi.

— Qanaqa xizmat bilan?

— Ikki dona qilich bersin dedi.

— Ikki dona?

— Ha, shunday.

Bu xabar ham ustaning ustidan og'ir yuk bo'lib bosdi. Shu paytda xonga ikki dona qilich nima uchun kerak bo'ldi ekan? Nega endi ikkita? Ikki qilichni bir-biriga urib, ularning haqiqiyligini tekshirmoqchi bo'layotgan Qo'vshutxon ustaning ko'z oldida

jonlandi. Qoramurt iflos, qiladiganingni qilding-ov! Gaping xonning ham qulog'iga yetgan bo'lsa...

— Bir emas, uch emas, faqat ikki qilich keltir deb xon nimani nazarda tutdi ekan, polvon?

— Buni men bilmayman, usta og'a. O'zi ham yengilrog'ini saylasin dedi. Buning sababini ham bilmayman.

— Ha-a... — degan usta, so'nggi javobdan ham o'zi uchun yoqimsiz ma'no chiqarmoqchi bo'ldi.

Bozirgan usta xonning buyrug'ini bajarish uchun suv berilgan qilichlar ichidan ikkita yengilrog'ini tanlashga kirishdi.

16

Shu kun — bir ming sakkiz yuz oltmishinchi yilning o'n yettinchi iyulida, asrdan so'ng bo'lib o'tgan maslahatni Qo'vshutxon katta jang oldidan bo'ladigan oxirgi kengash deb hisobladi. Umuman, bu kengash takalar uchun eng oxirgi kengash bo'lishi ham ehtimoldan xoli emasdi. Hamza Mirza Xishmat Davlaning turkmanlar oldiga qo'ygan shartlarini barcha bilgan bo'lsa-da, Qo'vshutxon yana bir marta bayon qildi.

Ulug' xon o'z so'zini shunday tamomladi:

— Biz uchun ketishga yo'l, kirishga teshik yo'q. Bundan tashqari, har ko'ch, deganga bosh egib, qora uyni tuyaga yuklayveradigan bo'lsak, tuyadan tushmay yashashimizga to'g'ri keladi...

Kimdir shu payt:

— Egilgan boshni qilich kesmas degan naql ham bordir, xon! — dedi.

Bu luqma Qo'vshutxonga yoqmadi. U, kimdir birov bunga javob bersa kerak, deb atrofiga nazar tashladi. O'tirganlardan sado chiqmadi. Shu sababli xonning o'zi so'zlashga majbur bo'ldi.

— Manglayimiz yerga tekkungacha egilib ko'rdik. Biroq boshimizni omon saqlaymiz, deb undan ham pastroqqa egilaversak, orqamiz ochiladiganga o'xshaydi. Agar shunday qiladigan bo'lsak, sharm-hayosiz qizilbosh orqamizga o'tmoqchi. Yoki nomard bo'lay, sog' bo'lay deb shunga ham rozi bo'laylikmi?

Luqma tashlagan odamning yuzi qizarib ketdi. Biroq nafasini chiqarmadi. Uning ichida kechgan gaplarni Qo'vshutxonning o'zi bayon etdi.

— Oxirgi shartga sen ham rozi emasligingni qip-qizil bo'lgan chehrang aytib turibdi, polvonim!.. Endi egilishga yo'l qolmadi. Asosiy maqsad — yovga qarshi turish! Yo ona zaminni tark qilib, yo'lda-izda qirilib ketishimiz, yoki tik turib kurashga otlanishimiz shart...

Ulug' xonning oxirgi taklifini kengashchilar qo'llab-quvvatlashdi. Biroq uning xalqni qal'adan tashqariga chiqarib qo'yib savash qilish fikri munozaraga sabab bo'ldi. Qo'vshutxonning fikricha, odamlarni qal'aga qamab qo'yib urush qilish ma'qul emas. Uning bu gapiga jang ko'rgan oqsoqollar qarshi chiqishdi.

Eng avvalo, Sholxa botir o'z fikrini bayon etdi. Qo'ng'ir bahodirlaridan biri bo'lgan Sholxa botir yosh bo'lishiga qaramay, ot ustida qilich solishib, jang qilishning hadisini olgan, o'z aytganini amalga oshiradigan, shuning uchun ham botir laqabini olgan qo'rqmas yigit edi. U hali o'ttizga ham kirmagan, ammo yosh bo'lishiga qaramay qo'ng'ir oqsoqollariga ma'qul bo'lgan, aytgani aytgan, degani degan yigit edi. Botir bu gal ham faqat o'z nomidan emas, balki barcha qo'ng'irlar tomonidan turib gapirdi.

Sholxa botir o'z so'zini:

— Baribir, Yaratgan egam ajalga ro'baro' qilmaydigan bo'lsa, suvsiz cho'lda shahid bo'lgandan ko'ra, Qorayop qal'asining ichida o'lgan yaxshi emasmi, xon og'a? — degan so'zlar bilan tamomladi.

Qo'vshutxon Sholxa botirga tik qarab o'tirganga o'xshasa-da, pinhoniy nazari tevarak-atrofda edi. U yoshulli, yoshi kichiklarning bir guruhi Sholxa botirning aytganlarini bosh qimirlatib tasdiq qilayotganini ko'rdi. Bu holat ham ulug' xonni hayron qoldirmadi. Chunki u o'zining cho'l-sahroga chekinish fikrini ko'pchilikning ma'qullamasligini oldindan bilar edi. Ammo hozirgacha bu haqda Sholxa botir singari o'z fikrini shart-shurt aytgan odam bo'lmagandi.

— Qal'ada qolsak ham bu safar bizga oyog'imizni uzatib o'lish nasib etmaydi, botirim. Dushmanning bu galgi niyati o'ta

xavfli. O'lsang qabring keng bo'lsin degan naqlga amal qilsak yaxshi bo'larmikin degan fikrdaman...

Qo'vshutxonning so'nggi so'ziga urg'u berib jim qolmog'i o'zlarini zo'rg'a tutib o'tirganlarning sabr kosasini to'ldirib yubordi...

Bunday maslahatlarda o'z nomidan bo'lsin, urug'-qabilasi nomidan bo'lsin, har kim o'z fikrini o'rtaga tashlashga haqli edi. Bu borada birov-birovga hech nima demas, qalbida nima bo'lsa shu fikr aytilar va shu eshitilardi. Bu safar ham shunday bo'ldi. Cho'qqi soqolli oriq qariya yo'talib oldi-da:

— Xon og'a, boya so'zingiz ichida siz yana qumni qizg'anamiz, dedingiz. Biz yana ilon singari qumning ichiga singib ketamizmi?

— Bu borada yana qanday maslahatingiz bor edi? — deb Qo'vshutxon uning fikr-mulohazalarini tinglashga o'zining tayyorligini bildirdi.

— Qojorlarga yer kerak bo'lsa, o'zimizdan ortig'ini beraylik bo'lmasa. Boshimizni g'avg'o-janjaldan ozod qilsak bo'ldi emasmi? Xudoga shukur, turkmanning qumi ko'p, axir. Shunga qanday qaraysiz?

— Uni men ma'qul bilmayman, og'am. Oqsoqollar ham uni qo'llashmaydi degan fikrdaman.

— Nega, nima uchun?.. Yomondan bo'yingni sotib ol-u, qoch degan naql bor, axir!

— Bunday naql bor, ammo yomonga yaqinlashma, yarasi yuqar deganlarini ham eshitganmiz. To'rt darvesh bir gilamga sig'adi, ikki sulton bir yurtga sig'mas degani ham bor. Nasriddinshoh keng yurtini o'ziga tor hisoblamoqda. Aslida bu — bir bahona. Gap ana shunda...

Cho'qqi soqol oqsoqol avvaldan bo'lib o'tayotgan suhbatga diqqat bermayotgan edimi, yoki diqqat bersa-da, gapning mag'ziga tushunmayotganmidi, har holda, u endi aytganlaridan qaytganday:

— Unday bo'lsa, u bizni qo'rqitmoqchi bo'layotgan ekanda? — deb qo'ydi.

— Qo'rqitmoqchi bo'layotgani yo'q, og'am. Hujum qilib kelayapti. Ana shunisi o'ylantiradi odamni...

Qariyaning so‘nggi savoli yosh bolaning so‘ziga o‘xshadi.

— Demak, siz shundan qo‘rqyapsiz?

Qo‘vshutxon og‘ir sukutga cho‘mdi. Tevarak-atrofdagilar xon bu savolga qanday javob qaytarar ekan deb quloqlarini ding qilishdi.

O‘rinsiz bo‘lsa-da, to‘satdan xon kulib yubordi.

— Men sizga nima deb javob bersam ekan-a, og‘am? Xon xondan qo‘rqadi. Katta xon xotinidan qo‘rqadi deydilar. Tavakkalchilik — yaxshi odat. Biroq qo‘rqmayman deb chekinmay turish — ko‘zli ko‘rning ishiga o‘xshaydi.

Cho‘qqi soqolning boshqa tarafga og‘ib ketgan gap mavzusi yana Sholxa botir boshlagan o‘sha maqsadga qaytdi. Juni ich tomonga qaratib tikilgan cho‘girmali odam so‘zlay boshladi.

— Sholxa botir aytganini biz ham ma’qullaymiz, xon og‘a. Shu qirq yoshimning teng yarmini qumda o‘tkazdim. Hozir ham mollarga dadamni qo‘yib huzuringizga kelganman.

Qo‘vshutxon qoshlarini o‘ynatib oldi.

— Gapingning po‘stkallasini ayt! Bo‘lmasa takalarning bu gurungi qojor bostirib kelgandayam tugamaydi.

— Gapning po‘stkallasi, xon og‘a, cho‘l-sahroni mana men bilaman. Ajalning ustiga borib omonatni topshirgandan ko‘ra, jon oladiganning o‘zi ustimizga kelaversin. Sahroda hozir eng qattiq issiq davr boshlandi. Bu issiq bola-chaqani omon qo‘ymaydi. Sahro behad shafqatsiz. Shuncha xalqqa ichimlik suvni qayerdan olamiz? Oldimiz qish fasli emas-ku, axir. Qumga kirganimiz — odamlarni ko‘ra-bila o‘limga yuborish bilan barobardir, xon og‘am.

Qo‘vshutxon yana yig‘ilganlarni ko‘zdan kechirdi. Cho‘pon so‘zini ma’qullaganlar Sholxa botir tarafdorlaridan ham ko‘p edi. Shu sababli u temirni qizig‘ida bosish uchun tez-tez gapira boshladi.

— Homiyning g‘azabli shapalog‘i begonaning shirin tilidan yoqimlidir, ey takalar! Qoraqum — turkmanning g‘azabli qarindoshi, qahrli homiysidir. O‘zidan kuchi ustun bo‘lgan dushman bilan ro‘baro‘ bo‘lgan turkmanning homiysi ham, qarindoshi ham shu qora cho‘l-sahro. Bizda shundan o‘zga ishonadigan tirgovichning

o‘zi yo‘q. Turkman o‘z aymog‘idan ham, inglizdan ham dalda kuta olmaydi. Ularning har birining o‘z tavshishi, o‘z g‘ami bor. Ularga turkman kerak emas. Ularga turkmanning oltini, yeri bilan keng yaylovi kerak. Nasriddinshoh ham qo‘l ostidan ketgan yerlarini turkmanning hisobidan qaytarib olmoq niyati bilan yurtimizga bostirib kelmoqda. Bilagi ham bizning bilagimizdan yo‘g‘on! Shuning uchun ham biz Tangri bergan yolg‘iz panohimiz — cho‘lga yuz burishimiz shart. Men juda qattiq o‘ylandim, eldoshlar. Yetti o‘lchab, yetmish o‘ylab ushbu qarorga keldim. Agar biz Marvda qolib yoki Qorayopga borib boshimizni bitta qal’ada jamlasak, dushman qora qozonni boshimizga ag‘daradi-qo‘yadi. Ana unda tovushimiz ham tashqariga chiqmay qoladi. Sahroga kirsak, it urushi qilishimiz, ya’ni dushmanning yonida yurib urush qilmoq uchun imkoniyat tug‘iladi. Yovuz cho‘l ham biz bilan birga dushmanga qarshi kurashadi. Mabodo yengilsak, eng bo‘lmaganda, tirik qolgan bola-chaqalarimiz taka turkmanlarning avlodini saqlab qoladilar...

— Axaldagi qarindoshlardan qanday xabar bor?— deb biri xonning so‘zini oxiriga yetkazmay savol berdi.

— Chopar yuborganmiz, — dedi xon past ovozda.— Gadoning haybati — tilagida, dehqonning haybati— bilagida, deydilar, kutayapmiz...

— To‘g‘ri qilibsiz, xon og‘a!

Xon bu tasdiqomuz so‘zlarga e’tibor bermay, so‘zida davom etdi.

— Dushman uchun barcha kuchni bir nuqtaga yig‘ish imkoniyatini yaratsak, u bizni butunlay tor-mor qiladi. Qoraqum bo‘lsa, bizga dushman bilan it-mushuk o‘yinini olib borishimizga ko‘mak beradi. Shu gal menga ha deb rozilik beringlar, yurtdoshlarim. Cho‘l qudrati bilan, Yaratgan egam yo‘l berib tirik qolsak, so‘ng sizlar meni parcha-parcha qilsangiz ham voh demasman. Olloh bilan cho‘l orqamizda tirgak bo‘lib tursa, inshoolloh, biz g‘alaba qilajakmiz. Yana bir voqeani aytay. Qadim zamonda Mozandaron o‘rmonzorida ikkita dahshatli ajdarho yashagan ekan. Bittasining qirqta boshi, bitta quyrug‘i, ikkinchisining bir boshi va qirqta quyrug‘i bor ekan. Bir kuni o‘rmonga o‘t tushibdi. Boyagi ikki

dahshatli ajdarho qocha boshlabdi. Qirq dumli ajdarho boshini baland tutib, o't-olovdan osonlik bilan o'tibdi-da, dumlarining yordami bilan xavfdan qutulibdi. Ikkinchisi — qirq kallali jonivorning o'zicha mustaqil har boshi turli tomonga torta boshlagach, o't-olovdan chiqolmay, olaog'izlik tufayli kuyib jon bergan ekan...

Boshini quyi solib so'zlagan xon rivoyatini aytib bo'lgach, boshini ko'tardi.

— Siz ham menga qirq dum taqsangiz, taqing. Biroq yovni daf etgunimizgacha, o'zlaringiz saylagan yakka boshning aytganini bajaring. Ma'qulmi?

Yana shivir-shivir, g'ala-g'ovur ko'paydi. Bu galgi jadal va qizg'in muhokamaning ma'nosi tushunarli edi.

— Ma'qul!

— Sizning aytganingizday bo'lsin!

— Rozimiz!

Shunday qilib, ulug' xonning Marvdagi maslahatxonasida bo'lib o'tgan kengash norozilikiarsiz, ulkan da'vo-janjallarsiz nihoyasiga yetdi. Bu yig'ilish hali-hanuz Marvdan ketmayotgan ayrim yoshulli oqsoqollar bilan o'tkazilgan edi. Oqsoqollarning ko'pchiligi esa allaqachon Qorayopga borib yetgandilar.

Qo'vshutxonning huzuridan yaxshi niyat bilan tarqalishgan odamlarning barchasi zudlik bilan yo'lga otlanishlari lozim edi. Bola-chaqalarini jo'natib yuborgan takalar esa yig'ilishdan chiqiboq Qorayopga qarab yo'lga tushdilar.

Marv dushmanga qoldiriladigan bo'ldi. Qo'vshutxonning xulosasiga ko'ra, bosib kelgan kuchli dushman bilan it urushi deb nom olgan qochish-quvish usuli orqali jang qilishdan boshqa yo'l yo'q edi. Dushmanga it urushi usulini qo'llaydigan bo'lsang, uch tomoning, avvalo, ochiq keng maydon bo'lishi lozim edi.

17

Xon huzuriga yig'ilgan odamlar tarqalgach, uyga kirib egri qilichini qo'liga olgan Qo'vshutxon ichkariga yana birrov nazar tashladi. Uydan tashqarida yashaganda kerak bo'ladigan narsalarning barchasi olib ketilgan. Egri qilichini beliga taqqan xon eshik-

ka tomon yurdi. Yana to'xtadi. Qancha zamonlardan beri oilasining qora qozonini qaynatib bergan o'choqqa qaradi. Qayerlardan quvilib, qayerlarga uloqtirilmadi bu turkman? Sen qachon tinch yotib, bemalol turasan? Qachon sen egardan tushib, el-yurt soniga qo'shilar ekansan, turkmanim? Qachon sen sargardonlikni qo'yib, qarindosh bilan qarindosh yoki dushman bilan chin dushman tarzida yashar ekansan?.. Bu manzilga, ushbu o'choq boshiga yana qaytmoq bizga nasib qilarmikan?..

Tashqariga chiqqan xon chekkaroqda uni kutib turgan tansoqchilar tomon yurar ekan, Chebshek botir uyining yonboshida cho'kkan holda kavsh qaytarib turgan tuyaga, uning yonida nima qilishini bilmay turgan ikki nafar ayolga ko'zi tushdi. Bu nimaning alomati bo'ldi ekan-a?

O'ziga tomon kela boshlagan ayolni ko'rib xonning taajjubi oshdi. Xon uni, o'zidan biror narsani so'rasa kerak, deb taxmin qildi.

Yaqinlashib kelgan ayol qayg'uli ko'rinsa ham, Tangri salomini, omon-esonlik so'rashishni unutmadi.

— Tinchlikmi, qizim? — deb salomga alik olgan Qo'vshutxon ayolga savol berdi. — El-yurtning boshi allaqachon Qorayopga yetdi. Sizlar nega Chebshek botirning hovlisida tuya cho'ktirib o'tiribsizlar?!

Yosh juvon aytmoqchi bo'lgan xabaridan o'zi uyaldi, shekilli, yuzini chetga o'girib, og'zini qo'li bilan bekitdi.

— Bizlar ham Qorayopga ketayotgandik. Mana shu qishloqqa yetganimizda to'xtashga majbur bo'ldik. Kelinimiz ikkiqat edi. Shu joyga kelganimizda uni... Endi nima qilishimizni bilmay qoldik. Erkak hamrohimiz anovi turgan yigitcha, — deb ayol Chebshek botir uyining orqa tomonida nimalardir qilib yurganday ko'ringan o'smir tarafga imladi.

Yigitcha ozg'in gavdali edi. Boshi ham kichkina shekilli, kiygan telpagi tikka tayoqqa ildirilganga mengzab turardi. Unga tomon qaragan Qo'vshutxon:

— Nomi yigit bo'lsa bo'ldi! — deb ayolni tinchlantirdi. — Biroq, qizim, bu yerda uzoq qolib ketmanglar. Yumushingizni bitirgach, darhol yo'lga tushinglar. Mana sizlarga uy! — Xon o'z

uyini ko'rsatdi. — Ichkaridan sizlar nima zarur deb topsangizlar, bemalol olib ishlataveringlar!

— Men sizga sharoitimizni aytdim-ku, og'am! — deb ayol xo'rligi kelib yig'lamsiradi. — Biz dam olish uchun to'xtamadik. Tashakkur sizga, og'am, uyingiz uchun.

Xon ayolning ko'nglini ko'tarmoqchiday xiyol iljaydi.

— Sen shoshilmay ishingni bitir, qizim. Yo'l ustida yoki chorpoyada dunyoga kelgan chaqaloqning joni qattiq bo'ladi, deyishadi. Turkman ayoli yo'lda yoki chorpoyada bola tug'ilishini bugun ko'rayotgani yo'q, axir!

Juvon to'lg'oq tutib turgan dugonasi yoniga tezroq yetib borishni istab shoshilinch jo'nadi.

18

... Bir ming sakkiz yuz oltmishinchi yilning 19-iyulida karnay-surnay sadolari ostida biz Marvga kirdik.

Jorj Blokvil xotiralaridan

Karnay-surnay sadolari sarbozlarga biroz ko'tarinki ruh bag'ishlaganini hisobga olmaganda, ulkan qo'shinning Marvga kirib kelishi shu kunga qadar bo'lgan shivir-shivir gap-so'zli harakatlardan hech qanday tafovut qilmadi. Ichida biror-bir tirik jon bo'lmagan shaharni qarshiliksiz egallash, soz asboblarni har qancha qattiq chalgan bilan ham, g'alaba nashidasini bag'ishlay olmas ekan. Qal'a yoki bosh shaharning olinishi bu hali mamlakat egallandi degani emas. Poytaxt bosib olingandan keyin ham davlatning mag'lub bo'lmaganligi tarixda ko'p marta kuzatilgan. G'oliblik nuqtasini qo'ymoq uchun mag'lub tomon yengilganligini tan olishi, xalqi esa tiz cho'kishi lozim.

Bunga e'tibor qilmagan shahzoda Qora sartibning maslahati bilan Tehronga chopar jo'natdi. Chopar Marvning olinishi bilan faqat bitta taka turkmanlarning emas, balki barcha turkmanlarning Eron davlati qo'li ostiga o'tganligini shoh Nasriddinga suyunchilash uchun janubga qarab ot soldi.

Jorj Blokvil Marvi shohi jahon, Morgush, Marg'iani, Merv, Marv kabi nomlar bilan dunyoga mashhur bo'lgan bu shahar to'g'risida ko'p eshitgan edi. Bu shaharda dunyoda tengsiz kutubxonalar bo'lganligini, nomlari jahonga mashhur olim-u fuzalo va shoirlarning ijod qilganligini kitoblardan o'qigan. Ammo u Eron qo'shinlari bilan birga bu chegaraga qadam bosar ekan, Marvning hozirgi ahvoli-yu, qojor qo'shinlari haqida o'ylaganlari bir pulga qimmat xayol bo'lib chiqdi. Qani o'sha baland-baland ko'shk-ayvonli, bog' ko'chali, tengsiz kutubxonali shahar? Qojorlar qanchadan qancha zahmat, qiyinchiliklar chekib, cho'l-biyobonlarni bosib kelib egallagan bu shahar, shahar ham emas, harbiy nuqtayi nazardan qaraganda, hatto, qurilishlari ham nihoyasiga yetmagan bir qal'acha edi.

Qojor sarbozlari singari mashaqqat tortib, Mashhaddan Marvgacha yetib kelgan Jorj Blokvil tarix va asrlar silsilasini boshidan o'tkazgan, tosh devorlar bilan o'ralgan baland hamda hashamatli qal'aning o'rnida tevarak-atrofi xom g'ishtdan qurilgan, somon suvoq qilingan, devorlari yarim xaroba ko'rinishdagi qal'aga duch keldi. Eronliklar baloning uyasi deb hisoblagan shahar shumi? Iskandar Maqduniyning qudratli qo'shinini to'xtatgan, Antioxus Nikatorni go'zalligi bilan lol qoldirgan, chiroyiga chiroy qo'shib, so'ng o'ziga nisbat berib, mana men qurgan shahar, deya maqtanish uchun Antioxiya nomini olgan shahar — shu bo'ldimi-a? Vaqt va vahshiylik baland imoratlarni ham kulga aylantirar ekan! Odamlar vaqtga baho berolmaganliklari kabi, o'z vahshiyliklarining ham mash'um kuch ekanligini bilolmay o'tib ketadilar. Insonning eng kechirilmaydigan gunohi ham shu ekan... Bu yerlardan Chingizxonning otliqlari necha bora o'tganlar. Ular ham ot choptirib yurganlarida, bir vaqt kelib qora yerga ko'milishlarini xayollariga keltirishdimikan?..

Blokvil hozir o'zini qadimiy tarixning chang-to'zonli sahifalari uzra sayohat qilib yurganday sezdi. Ko'zini yumganda esa oyog'i tuproqda emas, kalla chanoqlari-yu uzun-kalta odam suyaklarini oralab-bosqilab yurganday bo'ldi. Ayollar nolasi, bola-chaqaning chirillab yig'lagani, qilichlarning sharaqlab, uchqun sochib, o't sachratib jaranglashi, to'plarning vahshiyona gumburlashlari

qulog‘ida sado berganday bo‘ldi. Tarix deyilgan kitobda faqat ur-yiqitlargina yozilishi kerakmi-a? Uni nozanin qizlar-u bahodir yigitlarning shirin esdaliklariday go‘zal voqealardan iborat qilib yozilsa bo‘lmasmikan?..

Qora sartibning yonidagi besh-olti nafar sarbozi bilan yoniga kelib turishi Blokvilni yana o‘tmishdan hozirgi zamonga qaytardi. U ko‘zini yumganida tarixning talato‘pli voqealari ko‘z oldiga kelgan bo‘lsa, ko‘zini ochganida shu kunning tahlikali manzaralari namoyon bo‘ldi. Mana shu Qora sartib ham tarix sahifalarini qon bilan yozgan yovuz sarkardalarning biri.

Marvni egallaganiga xursand bo‘lgan Qora sartib g‘alabaning shirin ta’midan mast bo‘lib:

— Xo‘sh, janob, nega buncha o‘y-xayolga cho‘mib qolding? — dedi.

— E, o‘yga cho‘mdiradigan hech narsa yo‘q-ku, sartib! Qadimiy deb maqtalgan shaharni bir kezib chiqsammikan, deb turgan edim. Ruxsat berasizmi?

Fransuzning bu so‘zlari Qora sartibning ko‘tarinki ruhini oshirib yubordi. U iljayganicha Blokvilning yelkasiga turtib qo‘ydi:

— Ruxsat berganda qandoq!..

Blokvil boshini silkidi.

Uzoqdan hamon karnay-surnayning sadolari kelmoqda. Bu ovoz sadolari peshin vaqtidan buyon quloqlarni qomatga keltirayotganligi bois, Blokvil shovqin-surondan qochib chekkaroq joyga chiqdi.

— Men o‘zim ham tevarak-atrofni aylanib ko‘ray, deb bu taraflarga chiqqan edim...

— Unday bo‘lsa juda ham yaxshi, sartib!

Murg‘ob daryosi ustiga tashlangan oyoqko‘prikdan o‘tib, qal’aning ichkarisiga kirganlarida g‘isht quyish uchun loy tayyorlayotgan bir guruh sarbozlarga ko‘zi tushgan Blokvil ularning mashg‘uloti bilan qiziqdi.

— Bu mening buyrug‘im! — dedi Qora sartib maqtanchoqlik bilan. — G‘isht uchun loy tayyorlashmoqda. Qal’aning ikkita tashqariga chiqadigan darvozasidan boshqa hamma kirish-chiqish teshiklarini g‘isht urib bekitib tashlamoqchiman!

— Turkmanlar qochib ketgan bo'lsalar, tashqariga chiqadigan joylarni bekitishning endilikda ne hojati bor?

— Turkmanlarga ishonib bo'lmaydi. Tulki nima-yu, turkman nima — bu so'zlarning ma'nosini bir xil deb tushunaver. Sog' tomoningdan ketsa, so'l tarafingdan yetib kelganini bilmay qolasan.

Blokvil jilmaydi. Bu jilmayishda Qora sartibning aytganlarini tasdiqlovchi ma'no ham bor edi. Sababi, turkmanlar tulkiday ayyorlik ishlatib, ustiga to'p yuklangan bir necha aravani o'q-dorisi-yu to'pchilari bilan o'g'irlab ketganliklaridan u allaqachon xabar topgan edi...

19

Chekkasiga ko'z yetmaydigan ulkan qal'aning ichida minglarcha qora uy bor edi[1]. Ko'chgan paytda olib ketilgan keraga, uvuq, chang'aroqlarsiz qora uylarning o'rni dumaloq-dumaloq bo'lib ko'rinib turardi. Shu payt Blokvilning xayoliga qora uylarning biriga kirib ko'rsammikan, degan fikr keldi. Qora sartib ham uning bu xohishini anglaydiganday, qo'llab-quvvatlaydiganday tuyuldi. Shunday bo'lib chiqdi ham.

Ular bir qora uyning eshigidan kirdilar. Aslida ham g'aribgina fuqaroning uyi ekanligini bildirib turgan uy ichida fransuzning ko'zini yashnatib yuborguday asbob-uskuna yo'q edi. Darhaqiqat, zarur kiyim-kechak va asbob-uskunalar, uy jihozlari sidirilib olib ketilgan, uy bo'm-bo'sh edi.

Blokvil uyning markazida turgan yog'och ustundan boshlab, uning tuynugi, tuynugiga tomon qo'yilgan nozik xoda-uvuqlar, tuynukdan osilib turgan bosqir (arqon)largacha birma-bir sinchiklab qarab chiqdi. Uni hayron qoldirgan narsa — tuynukdan bog'lab tushirilgan ip uchiga osig'liq teridan tikilgan qop (meshkob) bo'ldi.

U uydan chiqib kelar ekan, orqasiga yana qayrilib qopga tikilganda, chekkada yotgan tegirmon toshiga qoqilib yiqilayozdi.

[1] Jorj Blokvil Marv qal'asida tashlab ketilgan uylarning sonini kundaligida 30 mingtacha bo'lsa kerak, deb taxmin qilgan *(muallif izohi)*.

Blokvil o‘zini zo‘rg‘a ushlab, yiqilishdan saqlanib qoldi. U o‘zini tutib olgan joyda esa cho‘mich, allaqanday to‘rva osig‘liq turardi. To‘rva ichidan yog‘ singib ketgan, o‘rgimchak islarini yodga soluvchi cho‘mich sopi chiqib, ko‘rinib turardi.

Ulkan maydonni egallab yotgan qal’aning barcha burchaklarini aylanib chiqishga imkon yo‘q edi. Shu sababli sartib va kapral qal’a o‘rtasidagi tepalikka chiqib, tevarak-atrofni yana bir-bir ko‘zdan kechirishni ma’qul topishdi.

Tepalik ustidan qal’a ichi juda yaxshi ko‘rinardi. Blokvil sardorlar, jarchilar mana shu tepalik ustidan qal’a ahliga murojaat qilgan bo‘lsalar kerak, deb taxmin qildi.

Vaqt peshindan o‘tgan edi. Shu sababli qora uylarning soyalari ham uzayib, boshqa uylar bilan to‘qnashib, keng maydonda o‘ziga xos vahimali manzarani paydo qilgan. Tuynuklari kigiz bilan yopilgan turkman qora uylarining son-sanoqsiz gumbazlarday ko‘rinishi bu yurt bilan notanish bo‘lgan ajnabiyni ham hayron qoldirar, ham vahimaga solardi. Qora sartib esa hamon o‘zini g‘olib sarkardaga xos tutmoqda. U qo‘lini boshqa tarafga silkib dedi:

— Janob kapral, shu mahalda ana u odam nima qilyapti?

Oftob shu’lasidan ko‘zini pana qilgan fransuzning nazari yer kovlayotgan odamga tushdi.

— Chuqur qaziyapti shekilli...

—O‘zi ham turkman bo‘lsa kerak! Bizning odamlarimiz bu yerlarga kelib chuqur qazimaydilar. Hech bir sarbozga chuqur qaz deb buyruq berilmagan!

Tepalikdan tushib, o‘sha joyga borganlarida qiziq bir voqeaga guvoh bo‘ldilar: o‘ttiz yoshlar atrofidagi uzun bo‘yli, oriq turkman yigiti qora terga tushib chuqur qazimoqda, chuqurning yonida esa ko‘rinishi ko‘rkam, ajoyib bedov otning o‘ligi yotardi.

Yigit uch-to‘rt qadam yaqiniga kelib to‘xtagan odamlarni ko‘rmadi yoki ko‘rsa-da, e’tibor bermadi. U o‘z ishi bilan mashg‘ul, kelganlar qancha vaqt tikilib turmasin, yigit chuqur qazishda davom etaverdi. Ushbu voqeani hayron qolib kuzatayotgan Blokvil, chuqur qaziyotgan turkmanning esi joyida bo‘lmasa kerak, deb taxmin qildi. U o‘lgan otini ko‘mish uchun go‘r qaziyotgani tushu-

narli. Biroq kimsasiz qal'ada, jonli-jonsiz hamma narsalari-yu it-mushugigacha olib ketilgan ulkan qal'ada, dushman ixtiyoriga topshirilgan xavfli bir qal'ada uning yakka o'zi qolib go'r qaziyotgani qiziq. Bunday xatti-harakatni faqat jonidan kechgan yoki esidan ayrilgan tentakkina qilishi mumkin, xolos!

Yoniga kelganliklarini bildirish niyatida Qora sartib yasama yo'talib qo'ydi. Faqat shundan so'nggina boshini chala ko'targan turkman ularga salom berganday bo'ldi. Biroq bellariga to'pponcha osib olgan besh-olti nafar odamning ustida do'q-po'pisa qilib turishlariga qaramay, chuqur ichidagi turkman yigiti chiqib qochishga harakat qilmadi, qilayotgan ishini to'xtatmadi ham.

Yonidagi hamrohlari o'rniga ham Qora sartibning o'zi yana nimalar deb ovoz chiqardi.

Chuqur qaziyotgan turkman yigitining o'zini tutishi Blokvilni qal'ada ko'rgan barcha qiziq narsalardan ham battar hayron qoldirdi. U Qora sartib yonidagi tarjimon askarning turkmanga tezroq savol berishini kuta boshladi. Biroq Qora sartib miq etmagach, tarjimon ham ovozini chiqarmadi.

Ishini tugatgach, turkman belkurak sopiga tayanib chuqurdan chiqdi, ish qurolini yerga sanchib qo'ydi-da, peshonasidagi terlarini artdi. Chuqurdan ikki-uch qadam narida yotgan choponini qo'liga oldi, chang-qumlarni silkitib tozaladi. Keyin u o'lik otning yoniga keldi. Ot boshi yonida cho'kka tushib, pichirlab nimalarnidir o'qidi. Otining manglayini siladi. Choponini otining boshiga o'radi. Chopon sidirilib ketmasligi uchun yenglarini ot bo'ynidan o'tqazib o'rab chiqdi. Turkman yigiti bu harakatlarini bemalol bajarar ekan, atrof-tevarakda turganlarning yuziga qaramadi. Biroq eng oxirida ularga qarashga majbur bo'ldi, otning jasadini chuqurga tortib tushirmoqchi bo'lganida kuchi yetmadi. U atrofdagilardan ko'mak o'tinganday qaradi. Biroq shunda ham ovozini chiqarmadi.

Yigitning ko'mak so'ragan nazariga tushungan Qora sartib navkarlariga imo qildi. Uch nafar sarboz turkmanga yordam berib, otni chuqurga tushirishdi...

Chuqurdan chiqarilgan tuproq aralash qumni ot jasadi ustiga tashlab, uning qabrini yaxshilab ko'mgach, yigit yana peshona terini artdi-da, turganlar tomon ma'yus nazar tashladi.

— Endigi gap sizlardan!

Uning nima deganiga Jorj Blokvil tushunolmay qoldi.

Qora sartib savol bera boshladi.

— Sen nima sababdan qal'ani tark etgan takalar bilan birga qochib ketmading, turkman? Yoki joningdan to'ydingmi? Bizning kimligimizni sen bilasanmi? Bola-chaqang yo'qmi?

Boyadan beri lom-mim demay turgan turkman tez-tez javob qaytardi:

— Sizning kimligingizni yaxshi bilaman, jonimdan ham to'ygan emasman, bola-chaqam ham bor!— Turkman otini ko'mgan chuqurga tomon qo'lini silkitdi. — Shu sababli keta olmadim. Jonivor kasal edi. Men axir hayvon emasman otiga nomardlik qiladigan... O'z holingcha o'lib qolarsan deb tashlab ketmoqchi edim, tashlab ham ketdim, ammo otim jonivor izimdan bir mungli nazar tashladiki... — yigitning bo'g'zi xo'rsiniqqa to'lib, yig'lab yubordi. U uzoq vaqtgacha so'zlay olmay, yutindi.

— Orqangga qaytdingmi? — deb tarjimon Qora sartibning savolini turkman tilida takrorladi.

— Shunday, xon og'a, nomardlikning yarmidan qaytmoq ham mardlik deb izimga qaytdim. To'g'risini aytganda, oldinga yurishga oyog'im tortmadi. Men o'zimning nomardligimga ana shunda ishonch hosil qildim. Men yigirma olti yashar paytimdan buyon mana shu Qorayol sababli yashab yurgan edim. Agar Qorayolim bo'lmaganda, men bundan besh yil oldin o'lib ketgan bo'lardim. U meni o'limdan olib chiqdi. Izimdan quvgan ajalga yettirmay olib qochdi... Shunday bo'lsa ham, men endi... unga nisbatan xoinlik qildim. O'layotgan otimga e'tibor bermay ketmoqchi bo'ldim. Afsus, afsus, ba'zan inson hayvonchalik ham sadoqatli bo'la olmaydi...

— Manglayidan otib ketaversang bo'lmasmidi?

Qorayolning egasi bu gapni eshitib oldin tarjimonga, so'ng Qora sartibga ajablangansimon ko'z tashladi.

— Turkman zaruriyat tufayli o'zini otib mardlik ko'rsatishi mumkin. Biroq otini otib nomardlik qilmaydi!

Turkmanning aytgan javobi borasida o'ylandi, shekilli, uzoq vaqt gapirmay turgan Qora sartib g'alati savol berdi:

— Endi biz seni otib o'ldirsak, nima bo'ladi?

— Qismatdan qochib bo'lmaydi, xon og'a.

— Yaxshi, sen hayvon tufayli shu yoshingda o'lishga rozi ekansan-da, unda?

— Qorayol hayvon emasdi. U haqiqiy bedov ot edi. Chin bedov otlar insondan ham mard bo'ladi.

— Bola-chaqalaringga achinmaysanmi?

— Achinganim bilan na foyda? O'z el-yurtining ichida ularning ham oy-kuni aylanar-da.

— Biz seni o'ldirmay, takalarning orasiga qo'yib yuborsak, nima deysan?

— Qismatimdan rozi bo'lardim. Sizdan ham.

— Biz takalar bilan to'qnashadigan bo'lsak, sen ham qo'lingga qilich olasanmi yoki biz qilgan yaxshilikni unutmay esda saqlaysanmi?

— Qilingan yaxshilikni unutib bo'lmaydi. Lekin qo'limga qilich olmayman deb aytolmayman.

— Nima uchun?

— Yaxshilikni unutmoq — nomardlik bo'ladi, ustingga dushman bostirib kelganda esa qilichga yopishmaslik ham — mardlik emas...

Oftob botishi bilan Qora sartibning ko'ziga dunyo tor ko'rinib, qal'a sas-sadosiz mozoristonga aylanganday bo'ldi. U turkman yigitni ham asir sifatida o'zi bilan olib, qurilayotgan chodiri tomonga qaytishga buyruq berdi.

Taqdirga tan berib, sarbozlarning oldiga tushib ketayotgan yigit iziga qayrilib, oqshom qorong'iligida ko'zdan g'oyib bo'layotgan qum tepalikka eng oxirgi marta qaradi. Uni kuzatib turgan Jorj Blokvil boshini chayqadi va hayvonni shu qadar yaxshi ko'rgan odamning yuragi norasida bola yuragi singari pok bo'lsa kerak, deb fikr qildi.

20

... Ulug‘ Qo‘vshutxon!

General Komarov

Odamlar soni bir yuz ellik ming[1] atrofida deb hisoblangan Marv takalari azaliy o‘choqlarini tark qilib, Murg‘ob daryosining oyoq tarafiga — Qorayop tomonga chekindilar.

Qochoqlarning eng ko‘p qismi Jayrontepaning tevaragida to‘xtab, yuklarini ot va tuyalardan tushirishdi. Birdaniga kimning qayerga tushgani aniq bo‘lmay, taka oilalari orasida anglashilmovchilik kuchaya boshladi. Jarchilar odamlarni oralab yurib kimningdir moli yo‘qolganini, yana kimdir bolasini qidirayotganini aytib qichqira boshladilar. Ushbu holat qochoqlikda qadimdan kelayotgan turmushga xos o‘xshash harakatlarning hamon davom qilib kelayotganini ko‘rsatardi.

Jayrontepaning yonboshida kichik qabriston ham paydo bo‘ldi. Nasibasiga Jayrontepani ko‘rib jon topshirish buyurilgan og‘ir kasallar bu yerga kelgach, omonatlarini topshirdilar.

Elchilik — ko‘pchilik bilan deyilganiday, tuyaning ustida dunyoga kelib, tuyaning ustida yorug‘ olam bilan xayrlashadiganlar ham bo‘ladi. Har qanday sharoitda ham turmush, hayot o‘z o‘zanida davom etaveradi. Farzand ko‘rganlar sevinadilar, qarindosh-tug‘ishganidan judo bo‘lganlar motam tutishadi. Shunday qilib, ketganlarning umrini kelganlarga tilab, yashashda davom etaveradilar. Shu tariqa, Olloh tomonidan yaratilgan hayot zanjiri uzilmay saqlanaveradi. Hayot deganlari — shu, bir maromda davom etadigan mungli qo‘shiq.

Avvallari cheksiz-chegarasiz maydonlarda, dasht-u dalalarda yoyilib-yozilib o‘tirgan minglarcha oquylining ma’lum bir joyga yig‘ilmog‘i g‘aroyib bir manzarani ko‘z oldiga keltiradi. Ko‘z nazari yetgan kenglik oq uylar bilan to‘lgach, butun olam go‘yo

---

[1] 1859-yilda Marvda Qo‘vshutxon boshchiligida bo‘lgan birlashgan kengashda takalarning 12 ta urug‘i borligi, har urug‘da 1000 oquyli mavjudligi haqida xabar aytilgan. O‘sha paytda butun Murg‘obda o‘ttiz ikki ming oquyli, ya’ni ikki yuz ming odam yashagan deb taxmin qilish mumkin *(muallif izohi)*.

shunday ko'rinishdangina iboratday taassurot qoldiradi. Xuddi yer bilan osmon o'rtasida faqat shu turkman uylari borday. Yer bilan ko'k osmon orasida faqat shu uylarning borligiga ishonmasang ham, dunyodagi bor mashaqqat, barcha azob-u uqubat hozir faqat mana shu takalar ustiga tushganligi aniq edi.

Allaqachon qurilishga tushgan tandirlardan, qazilgan o'choqlardan ko'tarilib, tiniq yoz osmonida sollanib turgan tutun ham shunchaki tutun bo'lmay, yomonlikning bir xabari, kulfat nishoni kabi ko'rinadi.

Qaysidir bir daydib yurgan it beixtiyor vovullasa ham odamlar uni yomonlikka yo'yadilar, bemahal xo'roz qichqiradigan bo'lsa, undan ham yomon xulosa chiqaradilar. Sababi, hozirgi sharoitda hammaning diqqat-e'tibori o'shanga qaratiladi. Urush barcha narsaga shunday qarashga majbur qiladi. Chunki shu kungacha hali turkman urug'-toifalarining hech qaysisining ustiga askar soni yigirma mingdan ortiq bo'lgan dushman hujum qilib kelmagan edi. Qo'vshutxon bu galgi dushman bosqinini Xiva xoni Muhammad Amin Inoqning Saraxsga qilgan hujumi bilan qiyos etdi. Qiyosladi-yu, vahimaga tushdi.•

Muhammad Amin Saraxsga hujum qilganda, uning bor-yo'g'i ikki dona to'pi bor edi. Bu safar esa dushman qo'lida o'ttiz uch dona sariq to'p ularga qarshi ajal urug'ini sochishga tayyor turibdi. Qo'vshutxonning mazasini qochirgan, kuch-g'ayratini bo'shashtirgan — ana shu to'plar edi. Sariq to'plar gumburlaganda odamlarning, ayniqsa, to'p tovushini eshitmaganlarning tuyog'i zirqiraydi-da. Shu sababli ham ulug' xon o'z qavmining dahshatli xavf oldidan qanday dam olayotganini, qanaqa sharoitda kun kechirayotganini bilmoq uchun bu kunini el-yurt orasida o'tkazishga jazm qildi.

Oftob tikka osmonga yaqinlashar ekan, o'zining haddan tashqari qattiq qizdirishini oldindan bildirmoqchiday kuydira boshladi. Uzoqdan qizg'ish-qo'ng'ir qumliklarning tepasi qizarib ko'rinayotgan Qoraqumning ichida lovullab yonayotgan ajdarhoga o'xshardi. U har safar nafas olib, havoni tashqariga chiqarganida jahonning qizg'in harorati yana bir pog'ona ko'tarilganday bo'ladi.

Ona ariq chekkasi bo‘ylab, otini bir maromda minib borayotgan Qo‘vshutxonning yonidagi otliq Kalxon kapala[1] edi. Ulardan besh-o‘n qadam orqaroqda kelayotganlar bo‘lsa, ulug‘ xonning tansoqchilari. Keyingi paytlarda tansoqchilar soni ko‘paygan. Ulug‘ xon biror joyga boradigan bo‘lsa, ular o‘ng-u so‘lda doimo hozir-u nozir edi.

Qo‘vshutxon qochoqlarning o‘rtasidan o‘tib, bola-chaqalardan olisroqda, cho‘lning eng o‘rtasida guruh-guruh bo‘lib chiniqish mashqlarini o‘tkazayotgan yigitlar ahvolini ko‘rib qaytmoqchi edi.

Har kim o‘z o‘y-xayollari bilan band bo‘lgach, hech kimning boshqa birov bilan so‘zlashishga mayli ham, xohishi ham yo‘q. Faqat otlarning pishqirishi, o‘tkir tuyoqlar ostiga tushgan xas-xashaklarning qisirlab shitirlashi eshitiladi, xolos.

To‘satdan tip-tiniq osmon yuzida bir bo‘lak oq bulut paydo bo‘ldi. Biroq hech kim bu bulutning yog‘ishiga ishonmasdi. Yilning bu vaqtida osmondan yomg‘ir yog‘ishini esa hech kim kutmayotgandi.

Old tomondan yetib kelgan oq bulut, atayin izlab topganday, otliqlar ustiga kelganda yomg‘ir yog‘dira boshladi. Yana qanday yomg‘ir, deng? Bamisoli munchoqday-munchoqday tomchilar sahroning o‘tsiz-cho‘psiz yerida, hatto, yengilgina chang-to‘zonni ham paydo qilmoqda edi.

Otlarning oyog‘i ostidagi tuproq rangi qorayib, dukurlagan tuyoq ovozlari pasaydi. Qisqagina fursat ichida odamlar bir olamdan boshqa olamga o‘tganday bo‘ldilar. Tashvishdan to‘lib-toshgan xon qalbi bu ko‘rinishdan orom topdi, shekilli, u endi telpagini ham yechib, qo‘liga oldi. Jazirama yoz faslida tashna qumga malham sepayotgan bu joduli bulutni shaxsan o‘zi ko‘rmoqchi bo‘lganday, xon yuzini yuqoriga burdi. Qop-qora tutunga o‘xshash bulut o‘zining son-sanoqsiz tomchilari bilan xonning sochi to‘kila boshlagan boshini, peshonasini silay boshladi. Biroq bu holat uzoqqa cho‘zilmadi. Kutilmagan joydan paydo bo‘lgani singari, yomg‘ir tomchilari ham tushdagi lazzatga o‘xshab darhol tindi.

---

[1] **Kapala** — urug‘ nomi, laqab sifatida ham ishlatiladi *(tarjimon izohi)*.

— Boshingizni yomg'irga tutib, maza qildingizmi, xon og'a? — deb Qo'vshutxonning ichki xavotirlaridan bexabar Kalxon kapala hazilomuz ohangda gap otdi.

— Inson doimo qo'li bilan tutolmaydigan narsani ko'ngli bilan xohlaydi, polvon. — Ulug' xon kulumsirab gapirdi. — Yoz faslida muzni istaysan. Yozda yog'gan yomg'ir ham tepamizda biroz o'ynasin dedik-da...

Chiroyli gullagan yantoqzor odam ko'ziga nihoyatda chiroyli ko'rinardi. Ana shu yantoqzor orqasidagi tepalikdan tushganlarida ancha olis masofada odamlar to'dasini ko'rishdi.

— Bu nima bo'ldi ekan-a? — deb Kalxon kapala yana hammadan avval so'z boshladi. — Ot yugurtirishyaptimi deyman. To'y bo'layotganga o'xshaydi.

— Og'zingdagini ilohim Xudo eshitsin, Kalxon! — deb odamlar bilan tezroq uchrashish niyatida otining jilovini silkitdi xon.

Kalxon kapalaning taxmini to'g'ri chiqdi. Biroq u xalq ustiga dushman bostirib kelayotgan bir paytda, ot choptirib to'y o'tkazilishini ulug' xonning qo'llab-quvvatlayotganini tushuna olmadi. Avvaliga, xon to'y o'tkazayotganlarga xalaqit bermay, to'yxonani uzoqdan aylanib o'tsa kerak, deb taxmin qilgan edi. Bu puch xayol bo'lib chiqdi. Qo'vshutxon otning boshini to'yxona tomonga burdi.

To'y qochoqlarning to'yiga mutlaqo o'xshamasdi. Kelin-qizlar ham sandiqlaridan to'y liboslarini olishibdi. Qirmizi to'n, oq telpakli yigitlarning qadam tashlashlari ham chaqqon-chaqqon edi. To'y qozonlaridan ko'tarilayotgan xushta'm hid nihoyatda yoqimli!

To'y tantanasining ko'tarinki havosida shodiyona harakat qilayotgan odamlarga ot ustida nazar tashlagan Qo'vshutxon:

— To'y bilan aza birga yuradi deyilgani chin ekan-ov! — deb pichirladi.

Otliqlar to'y joyiga yaqinlashganlarida soqoli kalta qirtishlangan, baland bo'yli bir odam yig'ilganlar ichidan ajralib, ularga qarab yura boshladi.

Qo'vshutxon uni to'y egasi bo'lsa kerak, deb taxmin qildi. Kelayotgan odamning tashqi ko'rinishi, qadam olishi, o'zini tutib

kelishini kuzatgan xon uning harakatlaridan quvondi. Turkmanlar ichida Olloh nazar qilgan farishtasifat odamlar ham bor-da, degan fikr uning xayolidan o‘tdi.

Darhaqiqat, xon tomonga kelayotgan kishining istarasi juda issiq edi. Ayniqsa, bug‘doyrang yuzi, chiroyli yirik ko‘zlari, novcha hisoblangan odamlardan ham bir qarich baland bo‘yi, o‘ziga ishonch bilan shaxdam qadam tashlashlari, atrofdagi odamlarga nisbatan kiygan kiyimi-yu, yelkasiga tashlagan yengil choponi ham, uning tashqi qiyofasi ham nihoyatda tabiiy, yoqimli edi.

Qo‘vshutxon bu odamni umrida birinchi bor ko‘rib turishi. Biroq u ulug‘ xonni avvaldan yaxshi bilishini birinchi so‘zidanoq ma’lum qildi.

— Assalomu alaykum, muhtaram Qo‘vshutxon! — barcha yig‘ilganlar to‘yga kimning kelganligini bilsin degan ma’noda hayqirib salom berdi. Uning yo‘g‘on ovozi ham o‘ziga yarashiqli edi.

Qo‘vshutxon uning salomiga alik olar ekan, Go‘ro‘g‘lisifat bu odam kim bo‘ldi ekan-a? — deya o‘ziga o‘zi savol berdi.

Go‘ro‘g‘lisifat odam ulug‘ xonga otdan tushishga ham yo‘l bermay, ikki qo‘lini yuqoriga uzatdi.

Qo‘vshutxon ham pahlavon kelbatli, chayir, kuchli bo‘lsa-da, xushqomat insonning nihoyatda baquvvat ekanini otdan tushayotganda yaqqol sezdi.

Go‘ro‘g‘lisifat odam Kalxon kapalaga va uning yonidagilarga uncha e’tibor bermadi. Uning butun fikri-e’tibori ulug‘ xonni otdan tushirishda. Bu xil harakatlar Qo‘vshutxonga yoqinqiramadi. Olloh har qancha saxiylik qilsa-da, hamma narsani to‘la-to‘kis qilib yaratmas ekan-da, degan fikr xonning xayoliga keldi.

Kalxon kapala o‘zi bilan qo‘l olib salomlashmaganlari uchun to‘y egalaridan xafa bo‘lmadi. Qiyin bir pallada o‘tkazilayotgan to‘yga ulug‘ xonning kelishi atrofdagilarga qanchalar ruh bag‘ishlaganini ana shu lahzalarda aniq sezdi.

Nima bo‘lsa-da, to‘y egasi deb taxmin qilingan kishining o‘zini tutishi odatdagiday emas edi. U ulug‘ xonning otining jilovidan tutganida, yonidagilar hurmatli mehmonni otdan tushirish uchun shunday qilyapti, deb o‘ylagan edi. Biroq ular o‘ylagan hodisa

yuz bermay, Qo'vshutxonning shu paytgacha — qirq bir yoshgacha uchratmagan holat yuz berdi. Soqoli kalta qirtishlangan bu xushro'y kishi xon otining jilovini mahkam tutgach, chiroyli ko'zlarini yumdi-da, birdaniga yoqimli ovozini balandlatib she'r o'qiy boshladi:

Seni Tangrim sevar, sevar Vatanim,
Seni sevar Xizir ismli go'zalim!
Sen bo'lmasang boqiy yerdadir tanim,
Sensan mening or-nomusim, imonim!
Yig'lasang men yig'lab, kulsang kularman,
Yo'lingda jonimdan kechib o'larman.
Ishon, vatan, yurakda sen, boshda sen,
Ko'zimning ustida — xuddi qoshda sen!
Biling, el-yurt, tuproqni biz suyaylik,
Shu tuproqqa qora boshni qo'yaylik.
Bugun shoir o'g'ling O'ra Haqnazar,
Sen haqingda yayrab g'azallar tuzar.

Qo'vshutxon O'ra Haqnazarning eni-bo'yini ko'zi chamasi bilan o'lchamoqchi bo'lganday, uni boshdan oyoq kuzatib chiqdi.

— Qanday, xon og'am?! — deya aytilmagan bahoni tezroq olishni istagan shoir hovliqdi.

— Juda shovqin qilib yubordingku, shoir og'am! Biroq Vatan deyilgan makon shovqin-to'polon bilan, so'z bilangina izohlanadigan narsa emas degan fikrdaman. U — men sening oshig'ingman, deb baqirganingda, darhol ishonadigan yengiltak ayol ham emas...

Sardor sifatida o'zi maqtalmay, faqat vatanning vasf qilinishi Qo'vshutxonning ko'ngliga ma'qul bo'lmabdi deb o'ylagan shoir darhol qilgan xatosini tuzatmoqchi bo'ldi. Uning ovozi oldingidan ham baland ohangda jaranglay boshladi:

Assalomu alaykum, xonlarning xoni!
Doim umr surgil, turganda foniy.
Sen turkmanning yangi chiqqan oyisan,
Sen turkmanning Olloh bergan poyisan[1].

[1] **Poy** — ulush, hissa, nasiba.

Barakatim, himmatim sen, nonim sen,
Boshimizni qo'shgan Qo'vshutxonim sen.
Turkmanning baxtisan, orim, madorim,
Go'ro'g'li yoshini yasha, sardorim!..

Qo'vshutxonning sariqmag'iz yuzi shapaloq tekkanday qizardi. U mahobatli, tantanavor so'zlarga chidayolmay, nima qilishini bilmay qoldi. Tevarak-atrofda turganlardan madad ko'zlaganday ularga qaradi. Yonida turganlarning ko'ziga ko'zi tushganda, qaytanga oldingidan ham badtar uyaldi. Kalxon kapalaning dudoqlarini pirpiratib, chala yelkasini qisishidan biror ma'no chiqara olmadi. Xonning fikricha, Kalxonning harakati bir qaraganda g'azal o'qiganning, yana bir qaraganda g'azalda maqtalganning ustidan kulganday edi.

Xushro'y odam g'azal o'qishda davom etaverdi. Biroq endi qahr-g'azabi qo'zg'algan xon shoirning nima deganining ma'nosini anglay olmas, faqat ovozinigina eshitardi.

Qo'vshutxon otining jilovini tortib qo'yib yubordi. Egasining ko'nglini sezgan jonivor boshini birdaniga ko'targanda, soqoli kalta qirqilgan shoir turgan joyida muvozanatini yo'qotib, yonboshiga yiqilayozdi. Biroq otning jilovini qo'lidan chiqarmadi.

Qo'vshutxon unga qarab turdi-da:

— Sen kimsan o'zi? — dedi g'azab bilan.

O'qigan so'nggi g'azalining xonga ma'qul kelganligiga ishonib turgan shoir darhol javob qaytardi:

— Mening nomim O'ra shoir, ey xonlar xoni! O'ra Haqnazar ham deyishadi. Biroq el meni O'ra shoir deb taniydi. Sizning nomingizni eshitganimda, o'zingizni ko'rganimda ilhomim jo'sh uradi, xonlar xoni!

Qo'vshutxon hamon darg'azab edi:

— Isming O'ra Haqnazar bo'lsa-da, g'azal o'qishing Haqdan ilhom olgan shoirnikiga o'xshamas ekan!

— Nega bunday deysiz, xonlar xoni? — kutilmagan gapdan O'ra shoir shoshib qoldi.

Ulug' xon shoirning savolini eshitmaganday sokin ovozda, ammo darg'azab ohangda dedi:

— Madhiyago‘yliging, yalinchoqliging uchun yelkangga qirq qamchi urdirib, she’ringning haqini berishim kerak sening. Biroq bugun to‘y ekan, bu ishni qila olmayman. Ammo sen bir narsani yaxshi bilib qo‘y! O‘zingni shoir deb hisoblab yurgan bo‘lsang-da, sen Olloh nazari tushgan shoir emassan. Haqiqiy shoir hech qachon yo‘lboshchini uning ko‘ziga qarab maqtamaydi...

— Xon og‘a, to‘g‘riso‘z hurmat-ehtirom alomati-ku!

— Maqtov bilan to‘g‘riso‘z bir yo‘ldan yurmaydi!

— Haqiqatni aytishimiz maqtov emas-ku, xon og‘a! — madhiyago‘y yana yon berishni istamadi.

— Bilib qo‘y, tamagirlik madhiyago‘ylikni yuzaga keltiradi. Haqiqiy shoir hech qachon tamagir ham bo‘lmaydi, madhiyago‘y ham. Sen uyalmay meni o‘zimga maqtayotgan bo‘lsang, bu sening qoningda haqiqiy shoirlikdan nom-u nishona yo‘qligining isbotidir!

O‘ra shoir sabr-toqatli bo‘lishga qanchalik harakat qilmasin, o‘zini shu holda uzoq vaqt tuta olmadi. Chunki xondan olingan bugungi bahosi uning umr bo‘yi qilib kelgan hunarining obro‘yini puchga chiqargan edi.

— Siz menga shoir emassan demay, yelkamga qirq emas, sakson qamchi urdirsangiz ham voh demasdim, xonlar xoni. Ishonmasangiz, navkarlaringizga buyuring. Voh desam otamning farzandi emasman!..

— Boyagi g‘azalingdan so‘ng urug‘-ajdodlaringning ruhini bezovta qilmasang yaxshi bo‘lardi, shoir...

Xizr deb turgani xirs chiqib, ko‘pchilikning oldida sharmanda bo‘lgan shoir qanday qilsa-da, o‘z obro‘sini himoya qilmoqchi edi. U endi el oldidagi martabasini pastga urmaslik uchun yurt nazarida ulug‘ xon bilan yuzma-yuz bahslashmog‘i lozim. Yo‘qsa, yomon kulgiga qolishini biladi. Buning uchun shoir endi xon bilan san-manga borib, nomiga bo‘lsayam gap talashishi lozim. Faqat, ana shunday shartakilikgina xon tomonidan O‘ra shoirning ustiga chaplangan changdan shoirni poklay olishi mumkin. Masalani shunday tushungan O‘ra shoir butun imkoniyatini ishga solib, xon bilan munozara qilishga jazm etdi.

— Xon og'a, siz yolg'iz kishisiz. Xalq degan qudrat esa minglarcha odamlardan tashkil topadi. Ana, ular meni qo'llab-quvvatlashmoqda. Shunday ekan, xon qanchalik ulug' bo'lsa-da, men uning o'zim haqidagi noto'g'ri fikriga ishonmayman. Ming-ming kishilardan iborat xalqning men haqimdagi yaxshi degan fikriga ishonaman...

— Kufr so'zlayotgan bo'lsam Olloh gunohimni o'tsin, biroq sen yolg'on gapirayapsan, axir, shoir!

— Eng avvalo, xon og'a, men yolg'on so'z aytmayman. Undan tashqari, qancha yolg'on aytgan bo'lsam, xalq meni qo'llab-quvvatlab kelgan.

— Achchiq haqiqatni yashirib, shirin yolg'onga ergashtirmoq ham xalqni hurmat qilish emas, shoir.

— Men so'zimning to'g'riligini takrorlamoq uchun xalq ishonchidan dalil ham keltira olaman!

— Mayli, bunga ishondim deylik, — Qo'vshutxon shoirni mazax qilganday kulumsiradi. — O'ziga nafi tegadigan bo'lsa, shayton ham Qur'oni karimdan dalil keltira oladi...

O'ra shoirning so'zlari ulug' xon kalomidan salmoqli bo'lmasa-da, xon bilan teppa-teng turib munozaraga kirishgani, o'z fikridagi qat'iyligi ko'pchilikning unga bo'lgan hurmat-e'tiborini orttirdi. Kim nima desa desin-u, ammo o'zaro bahs-u munozaralarda ulug' xon bilan xuddi mana shunday tap tortmay dadil bahslashadiganlar judayam ko'p emas-da.

Qo'vshutxon shoirga so'nggi so'zini aytdi:

— Men senga bilganimni aytdim, shoir. Ko'nglingga olma, biroq bir narsani yaxshi bil — hamma odamga ham shoirlik g'ururi berilavermaydi. Shoirlik qismati Olloh tomondan ba'zi insonlargagina tuhfa qilinadigan beqiyos san'at hisoblanadi. Ashrafiy[1] tanga singari ko'zga ko'rinmas noyob iste'dodni chapga-o'ngga, bo'lar-bo'lmasga bekor sarflayvermaslik lozim. Uning qadr-qimmatini bilib ishlatish kerak. Sen esa sarupoyingni faqir insonlarga bag'ishlamay, xonning ustiga yopmoqchi bo'lyapsan!.. Xon xon bo'lgani uchun maqtov-u madhiyaga muhtoj deb o'ylay-

[1] **Ashrafiy** — pul birligi, oltin tanga.

san shekilli. Men senga aytsam, maqtov-madhiyani unga munosib bo'lmagan odamlar xohlashadi. Agar sen meni xonlikka munosib deb hisoblasang, iltimos, meni ko'z oldimda maqtama! Maqtovga munosib deb, odamning o'ziga maqtash — aslida uni kamsitishdir...

— Haqiqiy sardorni uning o'ziga maqtash ham aybmi, xon og'a?!

— To'xta shu yerda! — deb Qo'vshutxon unga qo'lini silkidi. — Yuziga qarab maqtalgan sardor— baxtsizdir! Shuni esingda mahkam tut!..

Ulug' xonning so'zlari shoirni birdan o'yga toldirdi. Fikr qilar ekan, u xonning haq ekanligiga ishonch hosil qildi. Uning qizil yuzidagi qat'iylik yo'qoldi. Ha, bu munozara uning kutganiday chiqmadi. Vaholanki, O'ra shoir bu fursatni ko'pdan beri kutgan edi. U ulug' xon bilan bir marta bo'lsa-da, yuzma-yuz turish, g'azalini uning o'ziga o'qib berish orzusida edi.

Ko'pdan buyon kutilayotgan omadli fursatlar mana endi kelgan bo'lsa-da, natijasi boshqacharoq bo'ldi. Xo'sh, unda ko'pchilik oldida ulug' xon uni bugungiday kamsitishi kerakmidi? Darhaqiqat, bugun bo'lgan voqea endi og'izdan og'izga o'tib, butun taka urug'iga tarqalishi ham ochiq-oydin ayon bo'ldi. O'ra shoir endi qanday qilib el-yurt ko'ziga ko'rinadi? Ulug' xonning: "Yuziga qarab maqtalgan sardor — baxtsizdir", degan so'zlari shoirning qulog'ida takror-takror jarangladi. Qattiq uyaldi. Axir O'ra shoir qochoqlardan biri bo'lsa-da, so'z ma'nosiga tushunmaydigan omilardan emasdi.

Oldin bergan tanbehlarini oz hisoblaganga o'xshaydi, Qo'vshutxon O'ra shoirga yana bir bor o'qrayib qaradi-da:

— Chegaradan o'tgan bo'lsam, gunohimni o'tarsan, biroq sen, shoir, hozir turkmanning sha'niga kelishmagan ishni qilding, — dedi. — Xuddi o'zingga mengzagan erkakni maqtash ham er kishiga yarashmaydi. Sen hozir menga yaxshilik qilaman deb, dushman ishini qilganingni esingda tut!

— Haq so'zimni noo'rin ko'rib, meni dushmanlarga qo'shmang, xon og'a!

— Ehtimol, bu dushmanlik emasdir, ammo tirikning yuziga aytilgan mahobatli madhiyaomuz so'zlar o'lganingdan keyin qabringga otiladigan toshga aylanar ekan, senga shuni uqtirmoqchiman. Yana bir gap. Yetakchi bo'l, shoir bo'l — maqtovboz, madhiyago'yni hech qachon xalq qo'llab-quvvatlamaydi. Qo'llab-quvvatlaydi deyilgan so'z yolg'ondir. El-yurt nomidan asossiz so'zlab, uning ustiga gunoh yuklama! Shundoq ham bechora xalqning ustiga tashlangan yuk oz emas, axir!

O'ra shoirning bahaybat gavdasi kichrayib, ot kallasining orqasiga yashiringanday g'oyib bo'ldi. Qo'vshutxon uning to'yga yig'ilgan odamlar orasiga kirib borayotganini ko'rdi-da: Bechora, yana xalqqa suyanish uchun ketdimi-ya?! — deya o'ziga o'zi so'zladi.— Tavba, xalq deb atalmish saxovatpesha ahlning bag'rikengligini, kechirimligini qarang-a! Ulug' xon xalq nomidan asossiz so'zlagan shaxsga yana o'sha xalqning tirgovuch bo'lib turganiga hayron bo'lib bosh chayqadi.

Shunday qilib, izza qilingan shoir o'ziga boshpana ko'zlab keng sahroga emas, yana xalq ichiga tiqildi. Darhaqiqat, xalq yomonni ham yashiradi, achchiqni ham ichiga yutadi. Xalq kechirimli va bag'rikeng. U o'ziga foydali yukni ham ko'taradi, foydasizini ham.

O'ra shoir yig'ilgan odamlar ichiga o'zini urishi bilan beli belbog'li oqsoqol kichkina gavdasiga mos kelmagan yo'g'on, vajohatli ovozi bilan xonga murojaat qildi:

— Ey ulug' xon, boyagi so'zlaringiz bilan siz bizning ko'nglimizdagi gapni ham aytdingiz. Endi bizning gunohimizni kechiring!

— Kechiradigan qanaqa gunoh qildingiz? — deb bu safar xonning javobidan oldin Kalxon kapala savol berdi.

Oqsoqol bir qadam oldin yurdi-da, pahlavonning yuziga tikka qaradi.

— El boshiga tashvishli bir ish tushib turgan sharoitda men yakka o'g'limning to'yini o'tkazayapman. Shuning uchun kechirim so'radim. Chunki to'yning muddatini avvalroq belgilab qo'ygan edik. Shu sababli, ezgu orzu-tilakni orqaga surmaslikni ma'qul bildik. Bo'lmasa, hozirgi sharoitda to'y ko'ngilga sig'ar-

midi? Yig‘layotganning yonida kuluvchi bo‘lma degan naql bor, axir! Saxetgeldijon ham mening yolg‘iz farzandim. Nomi Saxetgeldi bo‘lgach, to‘yning ham saxet muddatini o‘zgartirmaymiz deb irim qildik, xon og‘a... Odam qartaysa irimchi bo‘lib qolar ekan, shekilli...

— To‘g‘ri qilibsiz, og‘am! — deya to‘y egasi O‘ra shoir emas, boshqa bir kishi ekaniga chin yurakdan quvongan Qo‘vshutxon xursand ohangda yana gapira boshladi. — To‘y bilan aza birga yuradi deb xalq behudaga aytgan emas. To‘yingiz muborak bo‘lsin!

— Aytganingiz kelsin! Tangri yorlaqasin, xon og‘a!

— Sayr ham sayr, sargardonlik ham bir sayr deganlariday, mana, biz ham bahona-sabab bilan to‘y ustiga keldik, og‘am. Ilohim to‘yingiz yaxshi o‘tsin, kelinning qadami qutlug‘ bo‘lsin!

Ulug‘ xonning xush so‘zlariga ko‘ngli ko‘tarilgan to‘y egasining yuzida xursandchilik alomatlari paydo bo‘ldi.

— Ko‘nglim joyiga tushdi, xon og‘a... Endi otdan tushinglar! Aziz mehmonimiz bo‘linglar!

Qo‘vshutxon yasama yo‘talib qo‘ydi.

— Biz ham to‘yni Xatab qal’asida to‘ylab o‘rgangan turkmanmiz-da, og‘am. Otdan tushib o‘tirishga hozir sharoit ham yo‘q...

— Uni-ku, yaxshi bilamiz, biroq o‘tirib to‘ylashsak, yaxshi bo‘lardi, xon og‘a!

— Biz sizning nevara to‘yingizni birga to‘ylashamiz, og‘am. Hozirgi sharoitni o‘zingiz bilasiz. Aybga yo‘ymang!

— Unday bo‘lsa, xon og‘a, mana bu to‘y ulushingizni olib qo‘ying! — dedi oqsoqol qadam tashlayotgan otning yonboshida ildamlar ekan va to‘ni ichidan boyadan beri do‘ppayib turgan tugunchani olib xonga uzatdi.

Qo‘vshutxon:

— Yanagi to‘ylarga Olloh yetirsin! — deb tugunchani manglayiga hurmat bilan tegizib, Kalxon kapalaga uzatdi. — Ma, ol. Yuzingga surt, pahlavon!

— Bundan boshqa tugunchamiz ham yo‘q edi, — deb to‘y egasi rostini ayta qoldi. — Qochoqchilik-da, nima qilishni bilolmay qolar ekan odam shoshganidan.

Ko‘ngli ochiq oqsoqolning o‘zini tutishiga quvongan ulug‘ xon jilmaydi.

— To‘ydan to‘piqcha deydilar, og‘am. Mana shu tuguncha hammamizga yetadi. To‘yning barakasi shuning ichida.

Kalxon kapala ham xonning harakatini qaytalagach, tugunchani orqadagi otliqlarning birisiga uzatdi.

21

To‘yxonaning narigi tomoni uzun ketgan tepalik edi. Ikkinchi tepalikdan oshib, chapga burilgan yerda yigitlar jangovar jismoniy mashq o‘tkazishayotgan edi. Birinchi baland tepaning nishab joyiga yetishganda, o‘ng tomondan shovqin eshitildi. Quloqqa uzoqdan chalinayotgan ushbu ovozlar xotin-qizlar tovushi edi.

Qo‘vshutxon Kalxon kapalaning yuziga qaradi-da, kulumsiradi.

— Uzukjamol qo‘ng‘ir to‘polon qilayaptimi, deyman?

— Xuddi shunday.

— Qani, botirim, bir qarab kel-chi! — deb Qo‘vshutxon otliqlarning boshida turgan yigitga imo qildi.

Topshiriq berilgan yigit ot boshini tepalikka tomon burdi. U tepalik orqasida ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi-yu, ko‘p o‘tmay orqaga qaytdi.

— U joyga xotin-qizlar yig‘ilishibdi, xon og‘a. Orqa o‘girib turgan erkakni tanimadim.

Qo‘vshutxon sarbozi olib kelgan xabardan qanoat qilmadimi yoki boshqa biror narsa haqida o‘ylandimi, otining jilovini qo‘yib yubordi. Tansoqchilar ham, Kalxon kapala ham xonning izidan ot surishdi.

Oldinda borayotgan Qo‘vshutxon tepalikning chekkasidagi saksovulzorga yetib, ot jilovini tortdi. Tekislikda qiz-kelinlar yig‘ilishgandi. Ular ulug‘ xonning saksovulzorda biqinib, o‘zlarini kuzatayotganidan butunlay bexabar edilar.

Saksovulzordagi ayollar ichidan Qo‘vshutxon faqat Guljamolnigina tanidi, xolos.

Kelin-qizlar ko‘pchiligining beli belbog‘li, uzun ko‘ylaklarining etagi ham yuqoriga shimarilgan. Ba’zilarning qo‘lida qo‘y

junini qirqadigan uzun qaychi, ba'zilarining qo'lida esa pichoq, o'tkir temir bog'langan uzun tayoq bor edi. To'rt-beshtasining qo'lida qilich ham ko'rinadi. Ularning barchasi oldinda, ayol-qizlardan ajralib turgan Ortiq arsarining ko'rsatgan jangovar harakatlarini qaytarishardi.

— Ortiqxon ish boshidami deyman?! — deya Qo'vshutxon yoqimli jilmaydi.

— Erkak bor — o'z xotiniga aytganini qildira olmaydi, erkak bor — bir guruh kishilarning xotinlariga hukmini o'tkaza oladi! — deb Kalxon kapala shu yerda ham hazillashmoqchi bo'ldi.

— Yakka boshchilikka ergashishsa yaxshi-da! — deb hazilni chin ma'noda tushungan Qo'vshutxon otining boshini orqaga burdi. — Biz Ortiqxonga xalaqit bermaylik! U bor bo'lsa, barcha ish yaxshi bajariladi!

Xonning barcha ish yaxshi bajariladi deyishining sababi bor edi. Bundan bir hafta oldin Ortiq arsari ulug' xonning yoniga borib, kelin-qizlarni ham mudofaa kurashiga tayyorlab borish lozimligi to'g'risida mulohaza bildirgandi. Ulug' xon o'shanda uning fikrini qo'llab-quvvatlagandi. Bu to'g'rida boshqa gap-so'z bo'lmagan edi.

Yana ancha yurishgach, yigitlar jangovar mashq qilib turishgan joyga yetib borishdi. Bu yerda yig'ilganlarning soni nihoyatda ko'p edi. Ular do'st-birodar, guruh-guruhga bo'linishib, har joy-har joyda to'da-to'da bo'lib jismoniy mashq o'tkazayotganliklari uchun otliq va piyoda navkarlar butun Qoraqumni egallaganga o'xshardi. Yigitlarning: "Yo Olloh!", "Barakalla!" degan qiyqiriqlari bilan otlarning kishnashi, qilichlar urilishidan paydo bo'lgan qisqa, dahshatli tovushlar bir-biri bilan qorishib, odatdan tashqari shovqin tikka osmonga ko'tarilardi. Ushbu ko'rinish shunchaki oddiy jismoniy tayyorgarlikni emas, balki jon olib, jon berayotgan jangovar to'qnashuvni eslatardi. Ba'zan "Yo Olloh!" degan jo'shqin tovushlar izidan burunga qaynoq inson qonining hidi ham urilganday bo'lardi.

Jangovar jismoniy tayyorgarlik o'tayotgan joyga Qo'vshutxon hamda xos navkarlarning kelganligi ayon bo'lgach, mashq o'tkazayotgan yigitlarning o'yini chinakam tus oldi: chang-to'zon

osmonga ko'tarildi, qiy-chuv, shovqin-suron ovozlari kuchaygandan kuchaydi, ikki tomonga ot bilan mashqqa kirishgan qiziqqon yigitlarning soni orta boshladi.

Ulug' xonning kelishi bilan mashq maydonidan chiqqan Chebshek botir, Sholxa botir kabi besh-olti bahodirlarning qir-tepaga ko'tarilishi bilan jangovar tayyorgarlik yangidan avj oldi.

Ko'pchilik yig'ilgan joyda har xil kutilmagan voqealar ham yuz beradi. Boshini quyi solib kelayotgan qizg'ish-sariq ot yoshullilarning to'g'risiga yetganda qasddan qilganday yiqilib, dumalanib ketdi. Ustidagi chavandoz esa chang-to'zon tagida qolib, hech kimning ko'ziga tashlanmay qoldi. Qarab turganlar ot tuyog'i yigitni halok qilganmikan yoki u ot tagida qolib mayib-majruh bo'lib qolgandir degan xayolda edilar. Biroq chang-to'zon yoyilgach, otning dumalanib ketgan joyidan turib, ancha narida to'xtagan bedoviga tomon yugurib borayotgan yigitga ko'zi tushgan Qo'vshutxon:

— Olloh botirni saqladi! — deya boshini chayqab qo'ydi.

— Noni butun ekan! — deb Tojko'k sardor ham bo'lgan voqeadan afsus bildirdi.

Ulug' xon mashq maydoniga kechroq kelgan edi. Orqa tomondagi yigitlariga uy-uyiga borib kelmoqqa ijozat bergan sardorlar ham shu yerga kelishdi. Shunga qaramasdan Qo'vshutxonning turgan joyiga yaqin yerdagi navkarlar jismoniy jangovar mashqlarini yana davom ettirishdi.

Nishonga o'q otish navbati o'tkazilgach, yelkalari uzun nil (stvol)li qora miltiq osgan merganlar bir chekkaga o'tib turishdi. Ular navbatdagi jangovar mashqqa tomoshabin bo'lishdi. Yangi borganlar esa nishonni miltiq uchidagi maxsus asbob ustidan ko'zlab, shoshilmay mashq o'tkazishardi.

Jismoniy mashqlarning eng oxirgisi ot ustida turib dushmanga nayza sanchish edi. Qatnashayotgan yigitlarning ko'pchiligida og'iz to'ldirib nayza deb aytiladigan bu yarog' ham yo'q edi. Ayol-qizlar qo'lidagi singari uchiga qo'y junini qirqadigan uzun qaychi, o'tkir temir mahkamlab bog'langan xoda, tayoq ularning quroli edi. Biroq uzun qaychi, o'tkir temir bog'langan xodadan tashqari uchi o'tkir qilib yo'nilgan tayoq tutib turganlarning

ko‘rinishi oddiy bir mushtdan ko‘ra durustroq demasang, tashqi tomondan kulgili holat edi. Shu sababli, ularning oldida maxsus temir tishli nayza ko‘targan navkarlarni yaxshi qurollangan sarboz, desa bo‘lardi.

Piyodalar va otliqlar bo‘linmay, bir guruhda mashq olib borishardi. Chunki jangda otliq bilan otliq, piyoda bilan piyoda alohida-alohida kurash olib bormay, aralash ko‘rinishda jang qilish holatlari ham uchrardi. Shu sababli, piyoda sarbozlar ot tuyoqlari orasidan omon-eson bosh olib chiqishni eplashlari lozim edi.

Chebshek botir Qo‘vshutxonga murojaat qildi.

— Xon og‘a, taka urug‘ida somon qopga o‘xshash qop qoldirmadik, — dedi. — Ularning barchasini mashq maydonida ilma-teshik qilib tashladik.

— Buning aybi yo‘q, botirim! Teshishga boshqa nishonlar ham topiladi. Lungidan boshqa barcha kiyim-kechakni o‘rtaga qo‘yishga ham biz rozi. Faqat yaxshi tayyorgarlikni bo‘shashtirmanglar, bahodirlarim!

Tili o‘tkir bittasi dedi:

— Qojorlarning lungi taqadigan joylarigacha ayirib, ularni shunday qarshi olamiz, Xudo xohlasa!

Bu joyda kulishga sabab bo‘lmasa-da, kulishga bahona ko‘zlagan odamlar xaxolab yuborishdi.

Kulgidan so‘ng, Qo‘vshutxon luqma tashlangan tarafga qarab jilmaydi:

— Sen singari botirlar dushman ko‘ringach, lungi taqadigan joyi ho‘l bo‘lib, qaytaga o‘zini ozorga qo‘ymasin tag‘in!

Bu javobga ham ko‘pchilikning kulgisi qistamadi. Faqat xonga yaxshi ko‘rinishni istaganlarning sun’iy kulgisi eshitildi.

Ulug‘ xonning oti oldinga, nayzachilarga tomon yura boshladi.

Nayza bilan jismoniy mashq o‘tkaziladigan joyda yigitlar o‘n-o‘n besh nafardan bo‘linishib turgan ekan. Har bir guruhning qarshisida, taxminan o‘ttiz-qirq qadam oraliqda ustiga yuk ortilgan eshak yoki tuya bor edi. Ustidagi qop, yukning ko‘pligidan tagidagi molni bilib olish juda qiyin. Faqat uni qulog‘idangina bilib olsa bo‘ladi. Qop yuklangan yuk ko‘p bo‘lsa-da, uning og‘irligi kam. Har eshak ustida bug‘doy, arpa somonidan yoki mayda

ajriq aralash o'tlardan to'ldirilgan qop mavjud. Ayrim eshaklar ustida atrofi ip bilan qattiq bog'langan yalang'och tuluplar bor.

Qarshi tomondan otda chopib kelayotgan yigit qo'lidagi nayzasini hayvon ustidagi yukka sanchishi yoki egri qilichini haqiqiy jangda ishlatganiday qilib urishi lozim.

Qo'vshutxon va uning yonidagi lavozimli kishilar endigina mo'ylovi sabza urgan yigitlarning, yigitlikdan ancha yoshi o'tib, o'rta yashar bo'lsa-da, hali chaqqon-chaqqon harakatdan qolmagan taka turkmanlarning xuddi haqiqiy dushmanga otilganday bo'lib, ustiga qop yuklangan mollarga hujum qilishlarini diqqat bilan kuzatishdi. Ularning xatti-harakati, jo'shqinligi ulug' xonga ma'qul bo'ldi. Biroq kutilmagan joyda yuzaga kelgan noxush holat xonning kayfiyatini tushirdi.

Nishonga nayza sanchgan yigitlar guruhi jismoniy mashqlarni tamom qilayotganlarida, otini to'g'ri yeldirib, yukli hayvon tomonga borayotgan bir yigitning xohish-istagi joyiga tushmadi. U "Yo Olloh!" deb nayzasini qopning o'rtasiga sanchganida, nayza uchi qattiq bir narsaga tegdi, yarog'ning ikkinchi uchi esa yigitning ko'kragiga botdi. Yigit shu zahotiyoq otdan ag'darilib tushdi. Usti egasiz qolgan ot jilovini osiltirib, chekkaga chopib ketdi.

Bir guruh sarbozlar yigitning otdan yiqilgan joyiga tomon yugurishdi.

Qo'vshutxon bilan Kalxon kapala ham u yerga yetib kelishganida, allaqachon yigit jon berib bo'lgan edi. Yugurib kelganlardan birining tizzasi ustiga bosh qo'ygan yigitning ko'zlari umrbod yumildi.

Yuz bergan holatni ot ustida o'tirib fahmlagan Qo'vshutxon faqat o'zi uchun aytganday shivirladi:

— Yovning kelishi ham, ketishi ham qonsiz bo'lmaydi...

22

Aziz insonlar dunyodan o'tganda osmonni bulut qoplasa yoki shu kuni bo'ron bo'lsa, ushbu holatni odatda odamlar tabiatning ham ayriliqqa nisbatan bezovta bo'layotganligiga yo'yishadi. Bu, faqat g'amgin ko'ngilga tasalli bermoq uchun o'ylab topilgan bir

taskindir, balki? Haqiqatda esa tabiat o‘z bag‘rida voyaga yetgan farzandlarining boshiga qanday va qancha jabr-jafo tushmasin, bariga befarq qaraydi. Binobarin, achchiq bilan ham, chuchuk bilan ham uning ishi yo‘q...

Bu safar ham shunday bo‘ldi. Qudrati qanchalik kuchli bo‘lmasin, ona tabiat taka turkmanlarning og‘ir sharoitiga, hatto, pinaginiyam buzmadi. Bugun esa erta tongdan boshiga ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan balolar tushishi mumkin bo‘lgan xalq holiga tabiatning hech qayeri og‘rimadi, qoshi ham qimirlamadi. Qaytanga, u yuz berishi mumkin bo‘lgan fojiali holatni oldindan sezib xursand bo‘lganday, o‘z kechasini kunduzga aylantirdi — yana oy botdi, quyosh chiqdi, quyosh botdi, oy chiqdi. Go‘yo turkmanlar chekayotgan oh-u zorlar tabiat uchun baribirday.

Bu safar ham tabiat odamlarning sharoitiga ko‘ra emas, odamlar tabiatning azmiga ko‘ra qo‘zg‘alishdi. Marvdan Qorayopga qarab ko‘chgan taka turkmanlar hozir allaqachon ostonadan kirib, to‘rga o‘tishga hozirlik ko‘rayotgan yov bilan kurashadigan odamlarga sira o‘xshamasdilar. Ko‘chib kelgan joylari vaqtinchalik bir maskanligini aytmasak, hamma-hamma narsa tinchlik vaqtidagi kabi edi. Tevarak-atrofda nimalar ro‘y berayotgan bo‘lmasin, turmush o‘z oqimida bir tekisda davom etmoqda.

Qorayopga bezak bo‘lib turgan asosiy qo‘rg‘on sariq turkmanlarning alasha urug‘i katxudosi Tangriberdibek tomonidan 1852-yilda bunyod etilgan edi. Taka turkmanlarning ko‘chib kelgan, qo‘nim topgan asosiy makoni mana shu qal’a. Biroq elat bu yerga hali ko‘chib kelishga ulgurmay turib, Qo‘vshutxonning buyrug‘iga binoan qal’aning sharq va g‘arb tomonlaridan ikkita chiqadigan joy chiqalg‘i[1] uchun hozirlangandi. Bu usul sharq tomondan bosib keladigan dushman kuchi ustun kelguday bo‘lsa, qo‘rg‘ondan chiqib, sahroga chekinish uchun qilingan usul edi. Qal’ada yangi quduqlar qazilib, oziq-ovqat keltirildi, ikki oylik zaxira yig‘ib qo‘yildi.

Qorayop qal’asidan taxminan ikki ming odim narida — sharq tarafdagi baland tepalik Jayrontepa deb ataladi. Takalarning yana

[1] **Chiqalg‘i** — chiqish joyi.

bir ulkan bo'lagi Jayrontepa atrofiga ham qo'ngan edi. Dushman yaqinlashdi deguncha, u yerdan Tangriberdibek qal'asiga kirib olish qiyin emas.

Oftob botgach, yoniga uch nafar tansoqchisini olib qal'adan otliq chiqqan Qo'vshutxon to'g'ri Jayrontepa tomonga yo'l oldi. Uning bu galgi kechki sayrining o'ziga xos ma'nosi bor — u tun qorong'isida o'zining kimligini hech kimga bildirmay, el-yurtning hol-ahvolini sirtdan o'zi ko'rmoqchi edi. Ammo uning bu maqsadini taka oqsoqollari ma'qullamadilar, yurtda tinchlik-xotirjamlik mahali ko'p vaqt ko'zga tashlanavermaydigan xonning atrofida shu kunlarda odam nihoyatda ko'p edi. Bundan tashqari, Marvga bostirib kirgan Eron qo'shini sarkardalari xufiya qotillar yollab, maxfiy yo'l bilan Qo'vshutxonning joniga qasd qilib, katta urushni qonsiz-talafotsiz tamomlash niyatida ekanligi ham taka katxudolariga ma'lum. Takalar orasiga bitta-ikkita emas, o'nlarcha josuslar yuborilibdi, degan mish-mishlar ham kelib turibdi. Shu sababli, hushyorlikni qo'ldan bermaydigan takalar hozir o'zlarini shaytondan ham ustun qo'yib, sal notanishroq basharali kimsani ko'rishsa bas, uni qojorlarning jonsizi (josusi) bo'lmasin deb rosa sinchiklab-surishtiradigan bo'lib qolishgan.

Haddan tashqari hushyor bo'laman deb, kulgili holatlarga duchor bo'lmaslikka ham e'tibor berilardi. Ulug' xon ham tun qorong'isida tanish-notanish kimsalar orasiga yolg'iz bormasa yaxshi edi. Biroq nachora, xon oqsoqollarning pand-nasihatini qabul qilmadi. Yo'lga otlandi.

Bu safar u qirq-ellik nafar qo'riqchisi bilan emas, bor-yo'g'i uch nafar tansoqchi bilan yo'lga tushdi. Tansoqchilarning ikki nafari yuz-ko'zidan darhol taniladigan yigitlardan emas. Yaxshiyam uchinchi tansoqchi — hamma biladigan mashhur baqiroq Kalxon kapala.

Bugungiday oppoq-oydin kechada mol-hol bilan shug'ullanadigan turkmanlar qishloq joylarida uyda dimiqib o'tirmay, biror ish bilan mashg'ul bo'lishadi— turli o'yinlar o'ynaladi, ertaklar aytiladi, quloqqa yoqadigan xush suhbatlar qilinadi. Qorayopga kelganlaridan buyon tevarak-atrofning shart-sharoiti xavfli bo'lib

qolgach, qiyinchiliklar haqida o'ylashni istamagan kishilarning ko'pchiligi hozir Jayrontepa ustida yig'iladigan bo'lishgan.

Jayrontepa deb atalgan joy — ustiga ot terlatib chiqadigan tepalik joy emas. U yerning odamlar yoki tabiat tomonidan bunyod etilganligi ham noma'lum. Maydoni anchagina keng, kuchli odam tayoq uloqtirsa ham, maydon oxiriga yetmaydi.

...Jayrontepa yo'li yarimlab qolsa-da, Qo'vshutxon ot ustida hamon indamay o'tiribdi, uning sukutini buzishga hech kim jur'at eta olmasdi. Qolaversa, hamrohlari ham o'zlarining ichki g'alayonlari bilan band. Ammo Kalxon kapala bu jimjitlikka chidamadi.

— Xon og'a, bu deyman, avsharlar ham dushman tomonni qo'llab turgan bo'lsa, bir xili g'alatiroq tuyulmayaptimi, nima dedingiz?

Qo'vshutxon odatdagiday ot harakatiga monand arg'imchoq singari oldinga-orqaga borib-kelib o'tirgan edi, birdan harakatini to'xtatib, sergaklandi.

— Boyning bojasi ko'p, qulning xo'jasi degan naql bor, Kalxon botir! Hammayam kuchli odamning yonida bo'lgisi keladi. Avsharlarning yetakchisi Yusufxon ham o'shalarning biri-da... Do'sti ko'pning — do'sti bo'lmas degan naqlni ham unutma. Balki...

Ulug' xon o'z fikrini oxiriga yetkazmadi. Bu holat uning sheriklarini yana oldingi o'y-xayol dunyosiga yetaklab ketdi. Endi ular ulug' xonning balki degan so'zining davomini o'sha olamdan izlay boshladilar: "Balki... u yoqdan-bu yoqdan yig'ilgan do'st-yorlardan qojorlarga naf bo'lmas? Balki... sarbozlarning undan-bundan yig'ilganligi og'ziolalikka olib kelar? Balki...".

Yonidagi ikki yigit xon so'zini ma'qullashga tortindi, shekilli, miq etmay yo'lda davom etaverdilar. Yana Kalxon kapala so'z boshladi:

— Madad istab boraylik desak, bizda ham qo'ni-qo'shnilar yo'q emas, bor! Nima dedingiz, xon og'a?

— Ayoling qozi bo'lsa, dodingni kimga aytasan?! Qo'shnim deganingning o'zi ustingga to'p sudrab kelayapti-ku! Hozir faqat o'zingga ishonadigan vaqt, botirim!

— Axaldan qanday xabar bor?

— Axaldan ham xabar yo‘q. Shu kunga qadar faqat Yalqop sardordangina chopar keldi. U ham Bomining yigitlarini yig‘ibdi.

— Shuncha maqtaydiganimiz Axaldan faqat Yalqop sardor kelayotgan bo‘lsa, unda bilmadim, holimiz endi nima kechadi?

— Shunga ham shukur qilaylik, botirim... Hayt demak tuyaga madad.

... Qo‘vshutxon balandlikning oldidagi yantoqzor tekislikda ikki navkar bilan to‘rt otni tashlab, Kalxon kapala ikkalasi Jayrontepaga ko‘tarildi.

Bu yerda uch yuz-to‘rt yuz nafarga yaqin odam yig‘ilgandi. Ulug‘ xon tepalikka chiqqan joyda ikki nafar kurash tushayotgan pahlavonga ovoz berib, baqir-chaqir qilayotgan odamlarning yonida to‘xtaganda, hech kim unga e’tibor ham bermadi. Kechki payt, Jayrontepa ustida eski to‘nini jun belbog‘ bilan bog‘lagan, telpagini bostirib kiygan ulug‘ xon paydo bo‘lishini xayoliga keltirmagan kishilar o‘zaro shovqin-suron bilan ovora edilar. Shunda Qo‘vshutxon o‘zining oddiy tomoshabin sifatida qabul qilinganidan, hech kimning diqqatini tortmaganidan, hatto, mamnun ham bo‘ldi.

Kurash davom etayotgan joyda “Qayir!, Ko‘tarib ur!” degan ayyuhannosdan boshqa gap-so‘z bo‘lmasligini bilgan ulug‘ xon bu joyda uzoq turmadi.

Qo‘vshutxon bilan Kalxon kapalaning keyingi to‘xtagan joyida ham juda ko‘p odam yig‘ilgandi. Bu yerda kurash ham, boshqa bir o‘yin ham o‘ynalayotgani yo‘q. Oppoq oydinda atrofga halqa bo‘lib yig‘ilganlarni gur-gur kuldirayotgan odam — qora qumg‘onday kichkinagina gavdali bir yoshulli ekan.

Qo‘vshutxon yoshullining nomini eshitgach, shu paytgacha yuzma-yuz bo‘lmasa-da, uni sirtdan yaxshi bilishini esladi. Haqiqiy nomini-ku, bilmaydi, ammo uning Hazil og‘a degan laqabini eshitmagan odamning o‘zi yo‘q.

Darhaqiqat, cho‘qqi soqol, jussasi kichik yoshulli gap-so‘zga juda chechan edi. Buning ustiga, u odamlarning o‘zlari charchaguncha gapiraveradigan, kuldiraveradigan, o‘zi charchamaydigan bir inson ekan. Kishilarga hazil-huzullari bilan orombaxsh kayfi-

yat bag'ishlagani uchun ham, unga bejiz Hazil og'a degan laqab berilmagan ekan-da.

Kulgi ovozlari bosilgach, Hazil og'a yana so'zida davom etdi.

— Shu desangiz, el-yurt podshohi aqlsiz bo'lsa, vazir-u vuzarolari aqlli-farosatli bo'lishi lozim. Shu ikkidan biri. — Hazil og'a chekkaroqda o'tirganlar ham eshitsin deganday ovoziga kuch berdi.— Olloh bir narsani kam bersa, boshqasini ortiq qilishi lozim. Chunki uning karami keng. Shunday qilib, boyagi ahmoq podshohning Esondavlat ismli dono, esli-hushli vaziri bor ekan.

— O'zing ahmoq bo'lsang, vaziringning donoligidan nima foyda! — deb gapni qizdirish uchunmi yoki hikoyaning oxiriga tezroq yetishni xohladimi, bir odam yoshullining so'zini bo'ldi. — Arzga borganlar huzurida o'tirganida podshoning og'ziga gap tashlash mumkin emas-ku, axir!

— Endi shu yerda to'xta, chirog'im! — Hazil og'a ko'rsatkich barmog'ini harakatlantirdi. — Axir, men o'zim shu gapni aytmoqchi edim-da.

— Shunday deng-a?

— Hov-vo, sen shoshilma-da, jiyan! Bir payt boyagi ahmoq podshohning yurtiga chet ellik mehmonlar kelishibdi. Mehmonlar uning huzuriga kirguncha, vaziri shohni taxtga o'tqazib, chotiga hech kim ko'rmaydigan qilib ip bog'labdi-da, uning ikkinchi uchini o'z barmog'i orasiga olibdi.

— Haligi joyidan ip bog'latadigan podsho qanaqa podsho o'zi?! Vah-ha-ha! — deb biri chin dildan qah-qah urib yubordi.

— Shuni aytsang-chi!

— Uni nima uchun bog'latgan ekan-a?

Xaxolab kulayotgan odamlarga qarshi, Hazil og'a kulmay, jiddiylik bilan qarab chiqdi.

— Buning ma'nosiga tushunmadingizmi?

— Uning ma'nosini Olloh bilsin!

— Men ham tushunmadim...

— Men ham...

— Unday bo'lsa, sizning holatingiz ham ahmoq podshonikidan farq etmas ekan! — deb bu gal endi Hazil og'aning bir o'zi g'olibona xaxoladi.

Yig‘ilganlar so‘nggi gapga qo‘shilishib rosa yayrab kuldilar. Berilgan javob ma’nosiga tushunmaganlar ham barcha qatori kulgiga qo‘shilishdi.

Hazil og‘a kulgini to‘xtatdi.

— Bu harakat podsho birdaniga ortiqcha so‘z boshlaganda, jilovidan tortib qo‘yish uchun qilingan edi!

— Ip bog‘lanadigan bo‘lsa, quloq bor, barmoq bor, soqol bor... Kelib-kelib, albatta, chotning orasidagi narsaga ip bog‘laydilarmi? Vah-ha-ha, vah-ha-ha...

— Yo tavba!

— Astag‘firullo!

— Xo‘sh, xo‘sh. Keyin-chi?

— Keyin nima bo‘libdi, eshitaylik!

— Chotning orasi ham yashirin, ham qulay-da. Elchilar oldida quloq yoki soqolda ip osilib tursa, nima degan odam bo‘lasan, ey so‘z uqmagan!

Davra tutib turganlar bu gapni eshitgach, ichakuzdi kulgini boshlab yuborishdi.

Qo‘vshutxonning yoniga yaqin turgan yigit bu xil hazil-huzullardan egilib-bukilib kular ekan, ichki jo‘shqinini kulgi bilan chiqarganini oz ko‘rdi, shekilli, bir qo‘li bilan ulug‘ xonning yelkasiga qoqib ham yubordi.

Qo‘vshutxon ichida pichirladi: “Ey Olloh! Inson degan jonli mavjudotning tabiatiga tushunish qiyin ekan-a?! Ozgina fursat bo‘lsa, kulgini ham esdan chiqarishmaydi-ya! Qanday yaxshi bu holat! Bo‘lmasa, ming‘ir-ming‘ir mayda gap-so‘z bilan ovora bo‘lib, ostona hatlab tashqariga chiqmay, ikkov-uchovlashib bo‘linib olsalar, nima qilardik?”.

Shodiyona g‘ovur-g‘uvur kulgidan so‘ng, yana Hazil og‘a so‘z boshladi:

— Shunday qilib, xaloyiq, chet ellik mehmonlar bilan muzokara boshlanibdi...

— Xo‘sh, xo‘sh. Keyin-chi?..

—Hazil og‘a, sen ham anoyi emassan! Hech bo‘lmaganda vazirning yonboshida turgandirsan-a? Shunday emasmidi?

Hazil og‘a bu savolga e’tibor bermadi.

— Chet ellik odamlar bilan oldi-berdi muzokara boshlanibdi. Ahmoq podsho dono vazir imosi bilan elchiga bosh qimirlatibdi. Shu tarzda aytilgan gap-so'zlarni ma'qullarmish. Ma'qul bo'lmagan gap-so'z chiqsa, boshini orqaga tashlab, teskari qimirlatar emish. Qolgan paytda esa u Esondavlat vazirning navbatdagi imo-ishorasini kutib, damini chiqarmay o'tirar ekan.

— Boshdan oyoq damini chiqarmay o'tirsa, g'alati bo'lmaydimi, Hazil og'a?! U bachchag'ar podachi emas, podsho-ku, axir!

— Podachidan farqi yo'qligi uchun ham damini chiqarmaydi-da! Eng asosiy gap ham mana shunda! — Bu gal Hazil og'aning o'zi kishnagan toychoqday nozik ovoz chiqarib qiyqillab kulib yubordi. — Aqlli-esli inson, o'z fikri bor odam podsho etib saylansa-da, u vazifada uzoq o'tirolmaydi. Faqat atrofidagilarning fikriga ha deb, o'z xohish-istagini ko'zlagan, vazir-vuzaroning aytganini bajaradigan podshoning ham oxiri voy bo'ladi. Tevarak-atrofidagilarga shoh emas, boylik kerak. Xazinadagi boylikka esa, podsho faqat ahmoq bo'lgandagina xotirjam qo'l uzatsa bo'ladi.

— Xo'sh, xo'sh. Keyin-chi?

— Keyin, boyagi ahmoq podsho gap-so'z orasida har safar imkoniyat bo'lganda, elchilarning boshlig'iga tikilib qarar emish-da: Sizning yurtingizda ham... der emish. Shundoq der ekan-da, davomini aytmas emish...

— Nima uchun? Bu bilan bir narsa demoqchi bo'lganmi?

— Ha-da! — deb hikoyasining ma'nosini oldindan bilmoqchi bo'lgan odamga yuzini o'girgan Hazil og'a bir necha marta boshini qimirlatdi. — Podsho nojoiz biror so'z aytib qo'ymasin deb, u og'zini ochdi deguncha, bosh vazir bu yoqda turib hech kimga sezdirmay ipning uchini tortar ekan. Oldindan kelishilgan shartga ko'ra chot orasidagi ip tortilsa, podsho aytadigan so'zini to'xtatib, lom-mim demay qolar ekan.

— Ana ko'rdingmi?!

— Ol-a!

— Shunday qilib, mehmonlar to muzokarani tugatguncha, podshoh vaqti-vaqti bilan: "Sizning yurtingizda ham..." degan so'zni takrorlab o'tiraveribdi. Uning nima uchun bunday deganiga mehmonlar hech ham tushunolmabdilar. Faqat elchilar emas, ahmoq

podshoning aqlli vaziri Esondavlatdan boshqa hech kim uning nima uchun so‘zini oxirigacha ayta olmasligining sababini bilmagan.

— Oxiri nima bo‘libdi, shunda? — deb yig‘ilganlar orasida hali ham biron narsaga tushuna olmaganlarning biri shoshildi. — Nima bo‘lganini ayt-da, buncha cho‘zding!

Hazil og‘a hikoyatiga xulosa yasadi:

— Chet ellik mehmonlarni kuzatib, iziga qaytgan dono Esondavlat vazir yana podshohning huzuriga kelibdi. Mehmonlar mendan xafa bo‘lmadilarmi, ey vazir? — debdi podsho. — Shunday, podshohi olam. Siz kabi aqlli inson bilan suhbatlashgan elchilar hech qachon norozi bo‘lib ketmas! Ular o‘zlarini jahonda eng baxtiyor inson hisoblab yurtlariga ravona bo‘ldilar! Ular shunday deb o‘z og‘izlari bilan aytdilarmi? Xuddi shunday, podshohi olam. Ular bu gapni karvonlari yo‘lga tushguncha bir necha marta takrorladilar. Siz bir narsaga e’tibor bering, podshohi olam, baxtsizlik degan voqea yashirilar, biroq baxtiyorlikni bekitib bo‘lmas. Bu narsa darrov atrofga tarqaladi. Chunki bu holat odamzodga xos xususiyat. Bu galgi sizning so‘z aytishingizdan vazir-u vuzarolar ham, mening o‘zim ham nihoyatda mamnunman. Siz orqali biz ham o‘zimizni baxtiyor hisoblaymiz.

Dono bosh vazir shunday deya ta’rif-u maqtovlarni tugatgach, hukmronning o‘ziga savol berishga ruxsat so‘rab, shunday debdi:

— Podshohi olam! Men sizning bosh vaziringizman! Eng yaqin sirdoshingizman. Shunga ko‘ra, shu savolimga javob berishingizni so‘rayman.

— So‘rayver! — debdi podsho takabburlik bilan.

— Siz boya elchilarga qarab qayta-qayta: “Sizning yurtingizda ham...” degan so‘zni takrorladingiz. Bu bilan nima demoqchi edingiz? — debdi bosh vazir. Shunda podsho jiddiy ko‘rinishga kirib:

— Men ulardan: “Sizning yurtingizda ham podshohning choti orasidagi narsasidan ip bog‘laydilarmi?” — deb so‘ramoqchi edim deb javob bergan ekan...

Hazil og‘a yana bir necha so‘zlarni aytdi. Biroq uning eng oxirgi so‘zlari ahmoq podshoning aytgan javobidan so‘ng paydo

bo‘lgan kuchli qahqaha ostida quduqqa tomgan tomchi singari eshitilmay qoldi.

Bu safar o‘zining qayerga, nima maqsad bilan kelganini unutgan Qo‘vshutxon ham shunaqangi astoydil kuldiki, u keyingi vaqtda qachon bugungiday chin yurakdan kulganligini eslay olmasdi.

Ancha muddatgacha ulkan gavdasini kulgidan to‘xtatolmagan Kalxon kapala nihoyat o‘zini tutib olgach, bu joydagi gurung ham tugadi. Ketaylik, degan mazmunda ulug‘ xonga ishora qildi. Biroq kulgi to‘lqini tinar-tinmas, odamlar orasida yangragan so‘zlar Qo‘vshutxon bilan Kalxon kapalani yana qimirlatmay qo‘ydi.

— Hozirgi vaqtda ham Qo‘vshutxonning choti orasidagi narsaga ip taqadigan taka topilsa, yaxshi bo‘lardi!

Kulgi va shovqin yana Jayrontepani larzaga soldi. Kalxon kapala ulug‘ xonga boshini pasaytirib shivirladi:

— Gap poylagan o‘z so‘zini eshitar, degan gap bo‘ldi-ku, xon og‘a, — dedi.

Qo‘vshutxon chala kulumsiradi.

— Unday bo‘lsa, yana biroz turaylik, polvon!

Qo‘vshutxon nomiga gap tashlaganning luqmasi yig‘ilganlar orasiga singib ketmadi. Uni kulgi bilan ma’qullaganlar ham topildi, unga so‘z bilan qarshi bo‘lganlar ham.

— E, Qo‘vshutxonning narsasiga allaqachonoq ip taqilgan bo‘lsa kerak...

— Vah-ha-ha, vah-ha-ha!..

— O‘sha ipning ikkinchi uchi kimning qo‘lida ekan?

— Shuniyam bilmaysanmi, ahmoq? Ipning bir uchi yo Qora sartibning, yoki Hamza Mirzaning qo‘lida bo‘ladi-da!

— Vah-ha-ha, vah-ha-ha!..

— Bu gaping “Tuya qayerda, dumi qayerda?” degan gapga o‘xshar ekan. Xono‘tarda o‘tirgan Qora sartib bilan Hamza Mirza Qorayopga qochib ketgan Qo‘vshutxonni ip bilan bog‘lay olarmikan? Orasi juda uzoq-ku.

— Hamza Mirza ipini bo‘sh-salqi qilsa, Qorayopga kelgan Qo‘vshutxon ipni orqasiga tortsalar, yana Xono‘targa qaytadi-da!

Oq oydinda bahaybat ko‘ringan ulkan gavdali kishi qo‘llarini silkitib-silkitib qichqirdi.

— Qo'vshutxon Hamza Mirza ipini salqi qilgani uchun Qorayopga kelgan emas, qarindosh! U ikkalamiz singarilarni, bola-chaqalarimizni omon saqlash uchun, butun taka turkmanlarni o'limdan saqlash uchun shunday qildi, bildingmi?!

— Takaning homiyligini bo'yniga olgan odam, el-yurtni qochoq galasiga aylantirmay, Xono'tarda o'tiraverganda bo'lmasmidi?

— Noshukur bo'lmaylik, ey odamlar! — deb bahaybat odam vajohatli ovozini balandlatdi.

— Mard — Ollohdan ko'radi, nomard — yo'ldoshidan deganday ish qilmaylik. Boshimizga og'ir kun tushganda yetakchimizga noloyiq so'z aytgan odam — inson emas...

— Senga erkakligimni ko'rsatsam, tavba qilasanmi? — deya avval so'z boshlagan odam qizisha boshladi.

Gavdali odam ham undan past kelmadi.

— Sen yovning yoyday yelidan qochib, Jayrontepada yotib olib, endi erkakligingni bizga ko'rsatasanmi? Mard bo'lsang, erligingni ustingga bostirib kelgan dushmanga ko'rsat! Suvarakday Xono'tardan ketishga majbur qilgan qizilboshlarga ko'rsat! Erkaklik bugungi kunda kurash maydonida ko'rsatiladi!

Gavdali odamning fikri ma'qul bo'ldi, shekilli, ikki nafar yigit uning bilan fikrdosh ekanligini bildirishib, yoniga o'tdilar. Ulardan biri dedi:

— Xonimizga tirgak bo'lish o'rniga, qiyshiq gap-so'z aytishimiz, noshukurlikdan nishona, og'aynilar! Boshimizga tushganini birga hal qilmasak, xondan xon bo'lmas, biz ham erkak bo'la olmaymiz!

— To'g'ri gapirding, yigit, barakalla senga!

O'ziga navbat yetdi deb hisoblagan Hazil og'a chordana qurib o'tirgan joyidan jahd bilan turdi-da:

— Biz ham seni qo'llaymiz, yigit! — deb qichqirdi. — Qo'vshutxon taka turkmanning bola-chaqasini ajalga bermaslik uchun Qorayopga chekindi. Sizlar shuni yaxshi tushuninglar! Qo'vshutxon bizlarning kelin-qizlarimizning nomusini poymol bo'lmasin deb Qorayopga chekindi. O'zlarini erkak hisoblagan yigitlar ornomus ostida qolmasin deb bizlarni bu yerga boshlab keldi. Sizlar

shuni anglang! Bugun barcha taka, bir bo'lib, Qo'vshutxonning orqasida tog'day bo'lib tursak...

Qattiq baqirib so'zlagan Hazil og'a tupugiga tiqilib qoldimi, gapira olmay qoldi.

— Qo'vshutxon orqasida turmasak nima bo'lar emish? — dedi kimdir.

— Qo'vshutxon orqasida turmasak, — deb o'zini o'nglab olgan Hazil og'a oldingidan ham qattiq baqirib gapirdi. — Aytaveraymi nima bo'lishini?

— Ayt!

— Ayting!

— Tortinmang!

— Biz uni qo'llamasak, Hamza Mirzaning qo'lidagi ip faqat Qo'vshutxonning emas, barchamizning ketimizga bog'lanishi turgan gap! Erkaklarning ketiga ip taqilsa, ayol-qizlarimiz qanday kunga qolishini o'zingiz tasavvur qilavering! Mard bo'linglar! El-yurt bilan kelgan to'ydir, bayramdir!

— El-yurt bilan kelsa to'ydir, bayramdir! — gavdali odam Hazil og'aning aytganini ko'pchilik eshitmagan bo'lsa kerak, deb o'zining yo'g'on ovozi bilan takrorladi.

Ushbu so'zlar ketma-ket nozik-yo'g'on ovozlarda takrorlanib, atrofga, Jayrontepadan ham tushib, tevarakka tarqalib ketganday bo'ldi.

Bu gal Qo'vshutxonning o'zi Kalxon kapalaning qulog'iga shipshidi:

— Ketaylik!

— Voy-bo'y, nimalar bo'ldi o'zi, xon og'a! — dedi Kalxon kapala qalbida paydo bo'lgan yengillikni so'z bilan ifoda etar ekan. Qo'vshutxon tansoqchisining gapiga kinoya bilan javob berdi:

— Gap tamom bo'lmasdan turuvchi bo'lma, polvon! Jayrontepaning ustida keng maydon bor ekan. Shu sababli ham, takada hali gap-so'z ko'p bo'ladi. Chunki taka turkmanning gapi tugamaydi. Ikkalamiz bu joydan boshimizni otib tushamizmi, yoki chayqab tushamizmi? Buni yolg'iz Olloh biladi...

Kalxon kapala bu so'zdan keyin boshini silkib-silkib ulug' xonning izidan qadam tashlay boshladi.

Tehronda tuzilgan shartnomaga ko‘ra, Jorj Blokvil Eron qo‘shinlarining turkman zaminida olib boradigan harbiy harakatlarining hech birida qatnashmaslikka haqqi bor edi. To urush tamom bo‘lguncha, u o‘zini o‘q yetadigan masofadan uzoqroqda tutmog‘i kerak edi. Biroq kunlardan bir kuni Blokvilda qojorlar qo‘liga tushgan to‘rt nafar turkman asirini borib ko‘rish istagi paydo bo‘ldi.

Yevropacha qat’iy harbiy tartib-qoidalarga hamisha amal qilib o‘rgangan va har bir tashlagan qadamidan ehtiyotkor bo‘lgan fransuz turkman asirlarini ko‘rish uchun Qora sartibdan ruxsat olish kerak degan qarorga keldi.

Blokvil sartib chodiri tomon borar ekan, Mirza Muhammad Qo‘vam ad-Davlaga turkmanlar nima sababdan Qora sartib degan laqab berganliklari to‘g‘risida o‘ylandi. Turkmanlarning o‘ziga shunday laqab taqqanliklarini ham ilk bor sartibning o‘zi unga aytgan edi. Biroq azal-abad katta og‘iz, o‘zini doimo maqtashlarini xohlovchi sartib, bir guruh sartiblar orasidan turkmanlarning faqat unga shunday baho berishlaridan boshqacha ma’no chiqargisi kelardi. Nega, turkmanlar uni Qora qanjiq, Qora ilon deb yoki boshqa nojoiz o‘xshatma bilan atamasdan, Qora sartib deb qo‘ya qolishgan ekan? Mirza Muhammad Qo‘vam ad-Davlaning sartibligi ham chin, qoramag‘iz ko‘rinishdaligi ham haqiqat edi. Ajabo, shuning o‘zi Mirza Muhammadning boshqa sartiblardan afzallik tomonlarini ko‘rsatadimi? Yo‘q, albatta. Axir hech bo‘lmaganda, dushmaning-ku, sen uchun munosib raqib bo‘lolmas ekan, shundayam kishining g‘ashiga tegadigan boshqacha bir laqab, odamni uyaltirib tashlaydigan qandaydir bir nom o‘ylab topishlari kerak emasmidi, axir?!

Biroq Blokvilning taxminiga ko‘ra, bu yerda haqiqat Mirza Muhammadning aytganidan boshqacharoq bo‘lmog‘i ham mumkin. Gap shundaki, xalq laqab taqqanida hech mahal adashmaydi. Buni Blokvil yaxshi biladi. Xalq tomonidan berilgan laqab, kishining ichki yoki tashqi dunyosiga qat’iy suratda mutanosib bo‘lmog‘i lozim. Unday bo‘lsa, turkmanlar o‘z bola-chaqasini

qirish uchun kelayotgan bosh dushmanga uning o'ziga yoqadigan qilib laqab taqqanlarining boisi nima ekan?!

Eh-he, keyingi uch-to'rt oy davomida Mirza Muhammad Qo'vam ad-Davlaning ichki dunyosini, tarixi-yu yashash tarzini bir qadar o'rgana olgan Blokvil sartibning o'z yurtida hamda o'z hamkasblari o'rtasida qilgan munofiqliklariga ko'p marta guvoh bo'ldi. Shu sababli ham, turkmanlarning laqab taqishda yanglishmaganliklariga fransuzning imoni komil edi. Qora degan so'z ko'p holatlarda ezgulikni anglatavermaydi, axir.

Shunday o'ylar iskanjasida Qora sartibning chodiriga yaqinlashib qolgan Blokvil to'xtashga majbur bo'ldi, ichkaridan eshitilgan kulgi aralash shovqin sartibning sariq chodirini go'yo osmonga ko'tarmoqchiday tuyuldi. Ichkaridagilarning qizg'in suhbatini bo'lishni xohlamagan fransuz tashqarida turib ularning so'zlarini eshitishni o'ziga ma'qul bilmadi. U o'zini o'zi zo'rlab chodirga kirdi, chaqirilmay kirgani uchun sartibdan uzr so'radi.

Fransuzning istagini eshitgan chodir egasi ham, uning yonidagi uch nafar qojor harbiysi ham kirgan odamni mensimay, yana baland ovozda behayolarcha xaxolab kula boshladilar.

Ko'zlaridan yosh oqizib kulayotganlarga kulumsirab qaragan Blokvil endi ularning holatiga hayron qoldi.

— Janob kapral, ko'nglingizga og'ir olmang! — dedi Qora sartib kulgisini bosishga urinar ekan, u bu bilan mehmonlarning ham ko'nglini ovlashga harakat qilayotgan edi. — Siz kirdingiz-u, kulgimiz uzilib qoldi, shu sababli, biz yana boshqatdan kula boshladik...

— Tushunmadim!

— Biz ham o'sha siz aytgan to'rt nafar asir haqida suhbatlashayotgandik.

— Katta jangga kirmay turib bunday kulish... qanaqa bo'lar ekan, janoblar? — deya Blokvil ham chala iljaygan bo'ldi. — Qattiq kulgan kishining kuch-quvvati qochar emish...

— Ey Olloh! Xuddi ichaklarim uzilganday bo'ldi o'ziyam!

Qora sartib shunday dedi-yu, darhol o'zini tutib oldi. — Keling, o'tiring!.. Bu deyman, janob kapral, juda irimchi odam ekansiz-ku, a?

— Irim-sirimga ham ba'zan-ba'zan ishonish kerak. Folga ishonma, folsiz ham yurma degan gap bor. Hayotda har xil kutilmagan voqealar yuz berib turadi.

— Biz ham turmushda bo'lishi kutilgan voqealarni ko'z oldimizga keltirib kulyapmiz.

Blokvil yelkasini qisib qo'ya qoldi.

Bu gal Qora sartibning mehmonlaridan biri gapirdi:

— Yolg'onchi dunyoda har nima bo'lishi mumkin. Mana, masalan, ertalab uyidan chiqib ketgan erkak kishining kechqurun xotini yoniga ayolga aylanib kirib borganini hech eshitganmisiz?

Blokvil so'z ma'nosini anglamagach, yana yelkasini qisdi.

— Tushunmadingizmi?

— Tushuna olganim yo'q, — Blokvil to'g'risini aytdi. — Bunday hodisaga duch kelmaganman. Bu xil narsani ham eshitmaganman. Ey, ha, janob, bu aytganlaringiz, balki ertaklarda uchrashi mumkindir?..

— Yo'q, janob kapral. Faqat ertaklardagina emas, mana, nasib etsa, uni shu bugunning o'zida ochiq-oydin ko'rasiz!

Qora sartib fransuz uchun jumboq bo'lib qolayotgan bu holatni yana chigallashtirib, mujmal qilib yubordi.

— Aytganday, asirlarni ko'rgingiz kelsa, marhamat, yo'lingiz ochiq, janob kapral!..

Blokvil chodirdagilar bilan xayrlashib chiqib ketdi. U orqasiga qaytar ekan, boyagi behayo jumboq kulgi, o'zi tushunib yetolmagan bema'ni suhbat tufayli Qora sartibning g'alati basharasini yorqinroq ko'rganday bo'ldi. Kishining hayotda egallagan darajasi bilan farosati teppa-teng bo'lmasa, shunaqa bo'lar ekan. Katta to'qnashuvga kirishi kerak bo'lgan qo'shinning sardorlari ertangi kun haqida bosh qotirmay, bo'lar-bo'lmas narsalar ustida valaqlashib, hiqichoq tutgancha maza-bemaza xaxolashlari — borib turgan ahmoqgarchilik! Ha, mayli, har yurtda kulgi bilan og'uga sabab boshqa-boshqa narsalar bo'lar ekan-da!..

Blokvil shularni o'ylar ekan, bu kulgibozlarning raqiblari qanaqa odamlar ekanligini bilishga havasi yanada ortdi.

Qo'lga tushgan turkmanlarni urmay-so'kmay qiynashga kirishdilar. Qiynagandan ko'ra, ularni o'ldirib yuborsalar yaxshi edi, ammo ularni o'ldirishga ruxsat berilmagan. Hozir esa o'limdan boshqa, qiynoqning har qanday usuli bor bo'lsa, mana shu asirlarning chekiga tushdi. Asirlarning hozircha o'ldirilmay, saqlab turilganligining sababi bor — Marvga bosib kirilgandan beri o'g'irlab ketilgan qorovullar, bundan ikki kun oldin ro'y bergan kichik to'qnashuvda yo'qolgan askarlarni qo'shib hisoblansa, turkmanlarning qo'lida yuzga yaqin qojor asirlari bo'lishi kerak. Oxir-oqibatda esa ikki tomon asirlarni almashtirishlari ham mumkin edi.

Qo'lga tushgan to'rt nafar turkmanning tirik-o'likligini bilish ham qiyin. To'rtalasining boshini ho'llamay sochini olishdi. Keyin Murg'ob daryosi qirg'og'idagi baland sho'rxok tepasiga o'tirg'izishib, bir-birlariga qattiq bog'lashdi. Soch ho'llanmay qirilganda, shafqatsiz sartaroshning o'tmas pokisi boshda qoldirgan orasi tor qonli jarohatlarga oftobning qaynoq nurlari tushishi natijasida paydo bo'lgan azob go'shtdan o'tib, suyakkacha yetadi. Bu — Bekzodalar tomoshasi deb atalmish azob usulining bir ko'rinishi edi.

Blokvil shu paytga qadar turkmanlarni shoshilmay, tinchgina, yaqindan ko'rmagandi. Nomusi poymol qilingan keksa cho'pon oilasidagi baxti kulmagan Mammat ham, qo'li kesilgan Elomonjon ham fransuzning boshqa-boshqa joylarda ko'rgan kishilaridan farq qilmagandi. Go'zal ayol deganda faqat Yevropaning nazokatli xonimlarini tushunadigan Blokvil, unga birinchi daf'a duch kelgan turkman kelini O'g'iljayronday bekam-u ko'st, nozanin ayolni Parijda ham, Tehronda ham ko'rmagandi. Hamza Mirzaning qo'shiniga qo'shilgan kunidan buyon bekvachcha-yu sipohilardan tinglagan suhbatlariga quloq soladigan bo'lsa, turkmanlarning odamga o'xshashligini shunchaki gapdir deb bilmay, turkmanlarni juda qo'rqinchli tusda tasavvur qilar edi. Eron ayollari ham uxlamayotgan bolalarini uxlatmoqchi bo'lganlarida: "Ko'zingni yum tezroq, bo'lmasa, ana, turkman kelib olib ketadi", deb qo'rqitishlaridan Blokvilning o'zi ham xabardor edi.

Soqol-sochi ho‘llanmay chala-chulpa qirtishlab olingan taqir kalla turkmanlarni bir-biridan farqlab bo‘lmasdi. Agar sinchiklab qaralsagina, ulardan birining keksaligini, ikki nafari— o‘ttiz yosh atrofida ekanligini, to‘rtinchisi esa o‘n olti-o‘n yetti yashar yigitcha ekanligini bilish mumkin, xolos.

Issiq quyosh nuri rahm-shafqatsiz kuydirmoqda. Yalang‘och asirlarning terisi oftobda kuyib, tirishib-tirishib ketgan a’zoyi badanlari qo‘tir ochganga o‘xshab qolgandi. O‘tkir quyosh nuri ostida o‘tirishsa-da, ularning hozir terlamaganining sababi — badanlaridagi namning quyoshda allaqachon me’yordan ozayganligi, endi esa dahshatli chanqoq boshlanganligidan edi. Shunga qaramasdan, asirlar oh-voh qilmas, g‘ururlarini mahkam saqlagan holda o‘zlarini tetik tutishga urinishar, o‘limni xayollariga ham keltirmaslikka harakat qilishardi.

Keksa asir boyagina tugatgan so‘zlarining qanchalik yodda qolganligini bilish uchunmi, biroz sukut saqladi. Durustroq o‘rnashib olish uchun qimirlab ko‘rdi. Unga orqama-orqa qapishtirib bog‘langan yigit norozi ohangda to‘ng‘illadi:

— Kertik og‘a, tinchgina o‘tirsangiz-chi, namuncha tipirchilaysiz?

— Tipirchilasam senga nima? Yoki Marvning tuprog‘ini qizg‘anyapsanmi?

— Tuproqniyam qizg‘anib, nima, men ilonmanmi sizga? Siz har qo‘zg‘alganda orqam xuddi yag‘ir eshakning orqasiga temir qoziq tiqilganday og‘rib ketyapti, axir!

— Obbo, enag‘arning bolasi-ey, eshak bo‘lib ham ulgurdingmi hali?! Yana orqasi yag‘ir eshak, degin!

— Eshak bo‘lmasak, shunday holda ipga bog‘lab qo‘ymasdilar.

Issiq shunchaki kulgidan, hazil-huzuldan ham ustun edi. Boshlangan suhbat bu gal ham darhol nihoyasiga yetdi. Kulgi yig‘ishtirildi, lablar o‘rni-o‘rniga qaytdi.

Yoshullilardan uyalib, shu paytgacha o‘zini yo‘qotmay o‘tirgan yosh yigit, nihoyat, bu holatdan nolib yubordi:

— Bu azoblar qachon tugar ekan-a?

— Chidagin, inim, chida. Tamom bo‘lmaydigan sura ham Qur’onda yo‘q, — deya Kertik og‘a unga dalda bergan bo‘ldi.

Ahvolga chidab bo'lmasdi. Quyoshning o'tkir nuri yalang'och boshga, ochiq badanga ignaday sanchilardi, go'yo. Uning bergan og'rig'i kulgi kuchidan ortiq edi. Vaqt peshinga yaqinlashishi bilan faqat osmondagi oftob emas, qizib yotgan sho'r yer ham o'z kuchini ko'rsata boshladi. Yerdan ko'tarilgan achqimtil quruq sho'r epkin dard ustiga chiqqan chipqonday bo'ldi. Asirlarning nafas olishi battar qiyinlasha boshladi. Bo'g'izdan o'tib-qaytib turgan havo piyozning achchig'i singari tomoqni kesib qichitmoqda edi.

— Bularning ishi har joyning tulkisini o'z tozisi bilan tut, deganlariday bo'ldi-yov.

— Bu bilan nima demoqchisiz?

— Ey inim. O'z yerimiz issig'i bilan o'zimizni kuydirmoqchi bo'lyaptilar...

Yigitlarning nihoyatda ruhi tushganligini sezgan Kertik og'a nima bilandir ularning diqqatini boshqa narsaga chalg'itmoqchi bo'lib, Dovon shoirdan boshlagan oldingi galga tegishli yana bir voqeani ayta boshladi.

— Shunday qilib, Yo'lo'tandan qaytgan Dovon shoir Ko'shkli qishlog'i ichidan o'tib borayotganida yelkasiga suvqovoqni to'ldirib kelayotgan yosh bir kelinga ko'zi tushibdi. Shoir ham, shu desanglar, uzoq yo'lni piyoda bosib kelayotgani uchun qattiq chanqagan ekan. Suv berishni iltimos qilibdi. Kelin bola o'zi yo'liqqan yo'lovchining Dovon shoir ekanligini bilib: "Meni ta'riflab she'r o'qisangiz suv beraman. Bo'lmasa bir yutum suv ham yo'q sizga", deb kulibdi. Dovon shoir rozi bo'libdi...

— Shunaqa deng!

— Ha. Shunda shoir kelin bolaga tikilibdi. Kelin bola qoramag'iz ekan. Yo'q, qorachaginadan kelgan emish...

— Hindilarday ekan-da!

— Suxanberdi pirning kayvonisi O'g'ilsafar elti singari qopqora, — deb qo'ya qoldi Kertik og'a.

— Xuddi ustidan tushding. Naq o'sha O'g'ilsafar eltiday qopqora narsa ekan...

— Nahotki?

— Shunday, keyin she'r aytadigan bo'libdi. So'rasa, kelin bolaning nomi ham Morol emish. Shunda shoir debdi:

Hali yaxshi endidan,
Qaychi yaxshi sindidan[1].
Habash, qora hindidan,
Oqdir Morolim, Morolim!

O'zi yaxshidir zanjidan,
Kar yaxshimish manqadan.
O'choqdagi qora tangqa[2]*dan,*
Oqdir Morolim, Morolim!

Kelin bolaning yuzida norozilik paydo bo'libdi-da: "Bunaqa ta'rif qilishingizda, tomog'ingizni ho'llamasdan ketaverasiz, shoir og'a", debdi.

— Yo'g'-ey?

— Ha-da!

Keyin Dovon og'a yana she'r ayta boshlabdi:

Qovun yaxshi mozidan[3],
Mulla yaxshi qozidan,
Kuchukli qora tozidan,
Oqdir Morolim, Morolim!

Telpak yaxshi soyadan,
Sharm yaxshi hayodan.
Qalam hamda siyohdan,
Oqdir Morolim, Morolim!

Kertik og'a og'iz ochib gapirishga qanchalik qiynalmasin, iloji boricha shu tariqa yoshlarning ko'nglini ko'tarish uchun harakat qilmoqda edi.

Sirg'a yaxshi qo'njiqdan[4],
Hinji[5] *yaxshi munjiqdan*[6].

---

[1] **Sindi** — gilamdo'zlikda ishlatiladigan pichoqcha.

[2] **Tangqa** — o'choqda choy qaynatadigan idish.

[3] **Mozi** — handalakning bir turi.

[4] **Qo'njiq** — ayollar zeb-ziynatining bir turi.

[5] **Hinji** — marvarid, inju.

[6] **Munjiq** — munchoq.

Juda qora qanjiqdan,
Oqdir Morolim, Morolim!..

Sho‘r bosgan tepacha yoniga kelib to‘xtagan g‘alati odam Kertik og‘aning e’tiborini tortdi.

Kelgan odam Blokvil edi.

Bu atroflarda shu kungacha hech kimga o‘xshamagan o‘ziga xos ko‘rinishli, oq rangli odamning paydo bo‘lishi, bandilarda ozgina bo‘lsa-da, asirlik hissini esidan chiqardi. Ular Blokvilning boshidan oyog‘igacha diqqat bilan qaradilar.

Asirlarning biri sekin gap boshladi:

— Qojorlarning ichida ilmni suvday ichgan bir farang bor deyishgan edi, bu shu bo‘lsa kerak?!

— Bo‘lmag‘ur gapni qo‘ysang-chi!·

— Nega bo‘lmag‘ur gap deysan?

— Ilmni suv qilib ichgan odam ham shu holda, yolg‘izdan yolg‘iz, qo‘riqchisiz bir o‘zi keng maydonda yuradimi?

— Ilmni suv qilib ichgan bo‘lsa, u yetmish ikkita tilni bilishi kerak, — deb Kertik og‘a tusmolladi.

— E, uning turishini qarang, ko‘p tilni biladigan odamga o‘xshamayapti-ku, — dedi yigitlarning biri unga o‘z bahosini berar ekan.

Kertik og‘a o‘zining gapini ma’qullamoqchi bo‘ldi.

— E, buni bilmoqchi bo‘lsangiz, undan bir narsani so‘rash kerak. Yetmish ikki til bilgan bo‘lsa, unga, albatta, tushunadi.

— Kertik og‘a, siz ham oldingiz-da, gapni. Hay, yetmish ikkita ham til bo‘larmi? Qojor deng, qozoq deng, o‘zbek deng. Sanab ko‘rsangiz o‘n-o‘n ikki tildan nariga o‘tolmaysiz. Yetmish ikki tilni qayerdan oldingiz?

— Aytyapman-ku, sizlar unga bir nima deb ko‘ring. Ilmni suv qilib ichgan bo‘lsa, hamma tilni biladi. U oxun bo‘lishi kerak.

— Nimani so‘rasak ekan-a, undan?

— Nimani so‘raganingda nima? Bir narsa deb so‘ra-da, qo‘y!

Shunda tutqunlarning biri Blokvilga qarab:

— Ey, sariq, sening oting nima? — dedi.

O‘ziga bir narsa deyilganini sezgan Blokvil jilmaydi. Biroq damini chiqarmadi.

— Men sening ismingni so‘rayapman.

Blokvil bunga ham javob bermadi.

— Yetmish ikki tugul, bir yuz yetmish ikki til bilgan bo‘lsayam, buningiz turkmanchaga tushunmayapti-ku, Kertik og‘a.

— Nimayam derdim, bitta-yarimta so‘zni esidan chiqargan bo‘lishi mumkin, — dedi taxminining to‘g‘ri chiqmaganini hazm qilolmagan Kertik og‘a.

— Qani, forscha bir narsa deb so‘raylik-chi, nima qilar ekan? Forscha biladiganing bormi ichingizda?

— Fors tilida suvga ob deyilishini bilaman.

— Ana, ana, shu so‘zni so‘ra! — deya Kertik og‘a yoshullilik qildi.

— Ey, sariq odam! Ob! Ob!

Blokvil yana jilmaydi-da, tanish so‘z eshitgach, qo‘lini daryo tomonga cho‘zib ko‘rsatdi:

— Ob! Ob!

Kertik og‘a boshini qimirlatdi.

— Ana ko‘rdingizmi? Fors ekan. Ob deyilgan edi, darrov harakatga tushdi.

—Harakatga tushsa-da, bu odam qojorga o‘xshamaydi, Kertik og‘a.

Kertik og‘a yana o‘zining fikrini ma’qullamoqchi bo‘ldi.

— E, bularning ham bizniki kabi sariq, arsari, chovdur deganday o‘z urug‘lari bo‘lsa kerak. Turkman urug‘larining barchasiyam bir-biriga o‘xshab turgani yo‘q-ku, axir?!

So‘nggi so‘zga tutqunlar kulumsirashdi.

— Hay, anovini qara, bizga buncha diqqat bilan tikilyapti?

— Tanib qo‘ymoqchi bo‘lsa kerak-da!

Darhaqiqat, Blokvilning asirlarga yaqinlashib tikka qarab turishi g‘alati edi. Turkmanlar bu sariq odam o‘zlarining tashqi ko‘rinishini sinchiklab o‘rganmoqchi ekanligidan bexabar edilar. Uzoq vaqt tutqunlarga sinchiklab nazar tashlagan Blokvil: “Antropologlar turkmanlarni mongoloid irqiga mansubdirlar deb yozishgan. Biroq bular bunaqaga o‘xshamaydi-ku, — deb pichirladi. —

Bu to‘rt turkmanning kalla chanog‘i tuzilishi, yuzlarining dumaloq emasligi bilan ular yevropoid irqiga o‘xshashyapti-ya?!”.

Janub tomondan ikki nafar qojor og‘ir bir narsani sudrab tutqunlar tomonga kela boshladi. Sudrab kelayotganlari ikki-uch kun oldin o‘ldirilgan bir odamning jasadi ekan. Sarbozlar jasadni tutqunlarning yuziga epkin kelib turgan tomonga keltirib tashladi.

Jasaddan nihoyatda yoqimsiz, og‘ir, sassiq hid atrofga taraldi. Bu hidga tirik zot toqat qilolmasdi. Bu hol oldingi qiyinchilik oldida o‘lganning ustiga tepganday bo‘ldi. Dahshatli tashnalik ham esdan chiqdi. Qattiq issiq tufayli shishib ketgan jasaddan taralgan hid tutqunlarga toza nafas olguday sharoit qoldirmadi.

Shu paytgacha o‘lik ko‘rmagan yosh yigitchaning nochor ovozi eshitildi:

— Kertik og‘a, ko‘nglim ozib·ketyapti. O‘zimni juda yomon his qilyapman.

Jasadni ko‘rib kayfiyati shundoq ham tushib ketgan Kertik og‘ada ham ko‘ngli ozib ketgan yigitchaga dalda berguday toqat qolmagan edi. Shunda ham u:

— Inim, sen erkak odamsan, chidagin! — deb yigitchani tinchlantirmoqchi bo‘ldi.

Dim havoda o‘t-cho‘pning boshi qimirlamasa-da, sarbozlar shamol kelgan tomonni chamalab jasadni yana bir qadar g‘arbga taraf sudrashdi. Bu safar jasad yigitchaning to‘g‘risiga kelib qolgan edi. Boshqa tutqunlar ham miyada sanchiq paydo qiladigan og‘ir, yoqimsiz hidni sezishdi. Yosh yigitcha esa uni ham sezmay qolgan edi. Uning butun tan-u badanini junbishga keltirgan qo‘rquv hissi hiddan ham kuchli edi.

Jasadga tiriklikda juda qattiq azob berilgani shundoqqina bilinib turardi. Uning yuzida chap qosh terisi deyarli yo‘q, sidirib olingan edi. Qon qotib qolgan yuziga qarab bo‘lmas, juda qo‘rqinchli. Ichi allaqachon qurib qolgan, og‘izda taloqqa o‘xshab ko‘karib chiqib turgan vahimali til osilib qolgan. Ichi-tashi qon bilan bo‘yalgan, shishib ko‘rinishi o‘zgargan burun jasad yuzini dahshatli narsaga aylantirib yuborgan edi.

Yigitcha ko‘zlarini yumdi. Badaniga go‘yo nam yugurganday tuyulib, peshonasida terga o‘xshash suyuqlik paydo bo‘ldi, yuragi

birdaniga tez-tez ura boshladi. U ko'zlarini holsiz ochganda, yana o'sha oldingi qo'rqinchli manzarani ko'rib, baqirib yuboray dedi. Kertik og'aning: "Inim, sen erkak odamsan, chidagin", degan tovushi qulog'ida jarangladi. Ikki nafar sarbozning haligacha yonlaridan ketmaganligini his qilib, vujudida qandaydir bir kuch paydo bo'la boshladi.

Qayerdandir badbo'y hidga kelgan ikkita katta yashil chivin jasadning manglayiga qo'ndi. Ular jasadning manglayida joy talashib, bir-birlarini itarishganday uchib-qo'nib, maza qilib qon so'rar, navbatma-navbat uchib-ko'tarilib, yana jasadning ustiga qo'nardi.

Jasadni olib kelganlar endi orqaga qaytib ketmoqchi bo'lganlarida, Blokvil o'z qo'l ostidagi dangasa askarga do'q urgan zobit singari ovozini balandlatdi:

— To'xtanglar!

Navkarlar nima deysan deganday unga qarashdi.

— Jasadni bu yerdan olib ketinglar!

Sarbozlarning biri buyruq bergan odamga emas, balki jasad tomonga qaradi.

— Olib ketishga haqqimiz yo'q.

— Nima uchun haqqingiz yo'q ekan? Siz bu jasadni keltirishga haqqingiz bor-u, chetroqqa chiqarib tashlashga haqqingiz yo'qmi? Bu o'tirganlar ham sizlarday odam, axir!

— Biz buyruqni bajardik, janob kapral.

— Bunday buyruqni sizlarga kim berdi?

— Baland martabali mingboshimiz Xurshidxon. Xuddi shunday qo'yishimizni uning o'zi buyurdi.

Blokvil nafas ololmay qoldi.

Ikkinchi navkar ham sherigining aytganini tasdiqladi.

— Baland martabali Xurshidxonga Qora sartib jasadni shunday holda qo'yishni buyurgan. Tushundingizmi endi, janob kapral?

Mana, endi barchasi Blokvilga tushunarli bo'ldi.

Baland martabali Xurshidxonning boshlagan bu o'yini uzoq davom etmadi. Asirlarga bundan ham battar boshqa bir o'yin tayyorlanayotgan edi.

Orqa tomondan to‘rt-besh nafar sarboz paydo bo‘ldi. Bu jazirama oftob tig‘i ostida ularning huda-behuda bu yerga kelmaganliklarini ichki bir tuyg‘u bilan sezgan Kertik og‘a: “Yigitlar, bu holimizdan ham battar bo‘lmasak yaxshi edi”, — deya shivirladi. — Harna Ollohning o‘zi panohida asrasin!

Sarbozlar jasadning og‘ir, yoqimsiz hididan nafas olishni istashmay, uzoqroqqa to‘xtadilar. Ularning boshlig‘i — novcha, qorni semiz sarboz burnini bir qo‘li bilan tutib turgan holda manqalanib do‘q urdi:

— Jasadni yo‘q qiling bu yerdan!

Xurshidxonning ko‘rsatmasini bajarganlardan biri:

— Bizga jasadni shunday qo‘yishga buyruq berdilar, bek og‘a, — dedi.

Bek og‘aning ovozi shiddat bilan dahshatli ohangda jarangladi:

— O‘zing ham jasadga aylanishni istamasang, darrov bu yerdan uni gum et!

Dahshatli ohangda qichqirganning buyrug‘i jiddiy ekanligini tushungan sarboz darhol yon berdi:

— Xo‘p bo‘ladi, bek og‘a!

Sarbozlar jasadni sudrab chekkaroqqa olib chiqdilar. Shundan keyingina sarbozlar bek og‘asi Blokvilga diqqat-e’tibor qaratdi. Biroq uning kimligini bilmagach, nimadir deyish uchun:

— Janob, siz ham tomosha ko‘rishga keldingizmi?— dedi.

Blokvil sarbozning savoliga javob bermadi, aksincha, uning o‘zi sarbozga savol berib, ularning bu yerga nima maqsadda kelganliklarini bilgisi keldi.

— Hozir shunaqangi bir tomosha ko‘rsatamiz!

Bek og‘a shunday desa-da, sarbozlar nima tomosha ko‘rsatishlari Blokvilga yana tushunarsiz bo‘lib qoldi.

Oldinlari ham qojorlarning ko‘p tomoshalariga shohid bo‘lgan Blokvil voqeaning davomini kuta boshladi.

Qorni katta, novcha sarboz vahimali qadam tashlab, tutqunlarga yaqinlashib, eng yosh asirning ishtoniga yopishdi. U qo‘li bilan qattiq tortganda, yigitchaning keng ishtoni tizzasigacha tushdi. Buni ham oz ko‘rgan sarboz ishtonni tortib chiqardi-da, qo‘li bilan orqasiga uloqtirdi. Yigitcha uyat joyini bekitmoqchi bo‘lib harakat

qildi. Biroq ikki qo'li ham orqasiga mahkam bog'log'liq bo'lganligi uchun buni uddalayolmadi.

Bosh sarbozning sheriklari yordam berish uchun yaqinroq keldilar. Sarboz belidagi pichog'ini qinidan chiqardi-da, bosh barmog'i bilan o'tkirligini tekshirdi.

— Bular nima qilmoqchi bo'lishyapti, Kertik og'a?— deb tutqun yosh yigit xavotirli baqirdi.

Ko'pni ko'rgan Kertik og'a hozir bu yerda qanaqa tomoshaning o'tkazilishiga allaqachon tushungan edi. Shuning uchun ham yigitchaning savolini javobsiz qoldirib, sarbozni insofga chaqirishga harakat qildi.

— Sen musulmon bandasan-ku, axir, ey xon o'g'il! Bu fe'lingdan qayt, yosh yigitga rahm qil! Uni omon qoldir, meni nima qilsang, qil, mayli! Men bu foniyda ko'radiganimni ko'rdim, unga tegma!

Pichoqli sarboz qariya tomon istehzoli tirjayib qaradi-da:

— Senda kesib tashlaguday narsa qolganmikan o'zi?! — dedi. — Sening narsang qarmoqqa chuvalchang ham bo'lmaydi-yu...

— Narsasi yo'qning qora kallasini ham kessa bo'ladi! — deya Kertik og'a yigitchani omon qoldirmoq uchun o'z jonidan ham voz kechmoqchi ekanligini bildirdi.

Voqeaga endi tushunib yetgan Blokvil jon holatda:

— Bunday buyruqni sizga kim berdi? — deb chinqirdi.

Bosh sarboz bu safar fransuzni ham ayab o'tirmadi:

— Tomosha qilishni istamasangiz, janob, bizga xalaqit bermang! Bizga aql o'rgatishning keragi yo'q. Biz aql o'rgatuvchilardan juda charchadik!

— Unda, siz bu ishni o'z istagingiz bilan qilayotgan ekansiz-da? Shundaymi?

— Men o'z xohishim bilan bunday jirkanch ishlarni bajarmagan bo'lar edim, janob!

Istagining amalga oshmasligiga ko'zi yetgan bo'lsa-da, Kertik og'a hamon ularga yalinmoqda edi.

— Kallamni oling, biroq bu ishni qilmanglar, jon og'alar! — deb navkarlarning maqsadiga tushungan yigitcha qo'li pichoqli sarbozga umid bilan dodlab tikildi.

— Kallangni olsak, sen darrov o‘lasan. Biz esa sening uzoq umr ko‘rishingni istaymiz. Olloh ajal berguncha maza qilib yashab yur. Biz umringni senga sovg‘a qildik!

Qariyaning yolvorishidan ham, yigitchaning harakatlaridan ham hech qanday natija bo‘lmadi.

Ikki nafar sarboz yigitchaning chotini qimirlatmay tutib turdi.

Qorindor sarboz o‘tkir pichog‘ini ishga soldi. Dahshatli faryod tevarak-atrofni larzaga keltirdi. Yigitchaning tagidan kesib olingan avratini qorindor sarboz uch-to‘rt qadam uzoqlikka otib yubordi.

Kertik og‘a oh tortib yubordi, o‘zini yo‘qotgan qariya tuya singari yelkalari tinimsiz titrab-qaqshadi, o‘kinchlari behisob edi.

Qariyaning oh-faryodi yana ikki marta qaytalandi.

Navbat Kertik og‘aning o‘ziga keldi. Qariyaning taqdirga tan berganligi endi uning his-tuyg‘usiz o‘tirishidan ham ko‘rinib turardi.

Qo‘li qonga bo‘yalgan bosh sarboz yana istehzoli tirjaydi.

— Seni esa, qariya, turkmanlarga urug‘lik tarqatsin degan maqsadda omon qoldiramiz...

25

Turkmanlar qancha qo‘rqmas, botir bo‘lsalar-da, tulki ayyorligini qilib, kunduz kuni ko‘zga ko‘rinmasdilar. Qorong‘i tushishi bilanoq, uyqusiragan qorovullarning kallasini olib, qurol-yarog‘ini o‘g‘irlab ketardilar...

Jorj Blokvil xotiralaridan

Jorj Blokvil o‘tgan kunlari-yu, kelgusidagi toleyining qanday bo‘lishi haqida xayol surib, qancha kech uyquga yotgan bo‘lsa-da, bugun odatdagidan ham erta uyg‘ondi.

Chodir ichi u darajada issiq bo‘lmasa-da, dim havo tepasidan bosganday tuyulgani uchun tashqariga chiqishni ma’qul ko‘rdi. Chodir eshigi o‘rniga qo‘yilgan gulsiz gilamchani ko‘tarib qo‘ygach, ikki qadam tashlab to‘xtadi. O‘z yurtingda erta tongda tashqariga qarasang — nazaring baland imoratlarga tushardi. Bu

yerda esa, butunlay aksi. Atrofga nazar tashlab, sahroni ta'riflash ham unga hozir qiyin tuyuldi. Uning fikricha, egalari osuda, tinch yashab yurgan vaqtlarda ham yevropaliklar nazarida Yaqin Sharqning ushbu zaminida hozirgi ko'rinishda odamning e'tiborini, ko'nglini ko'taradigan hech narsa yo'q edi.

Ko'hna dunyoni navqiron yigit qilib ko'rsata oladigan yoz tongi ham bu yerda tabiatga ta'sir etmas ekan. Blokvil bu yoqdagi har bir ko'rgan narsasini Fransiyadagi shunga mengzash nusxa bilan qiyoslashga moyil edi. Aytaylik, hozirgi turgan joyi qiyoslab ko'rilsa, Fransiya bilan bu yer osmon bilan yerday tafovut qilgan bo'lardi. Beshafqat tabiatning otashnafas havosi ushbu diyor daraxtlarining yam-yashil bo'lishi lozim bo'lgan yaproqlari rangini ham o'zgartirgan edi. Tabiat bu yaproqlarga oftobda kuygan tuproqning kulrang muhrini bosibdi.

Lekin, baribir, bu yerlarda ham insonlar istiqomat qiladilar. Bu yerda ham oftob chiqadi, oftob botadi. Blokvil bugungi boshlanayotgan saharning sana hisobi 1860-yil 28-iyul kuni ekanligi to'g'risida o'yladi. Kindik qoni to'kilgan ona yurtini tark etganiga ham ming yillar bo'lganday tuyuldi.

Forslarning turkman bosh kenti Marvni bitta miltiq otmay bosib oldik deb hisoblaganlariga ham bugun to'qqiz kun bo'ldi. O'tayotgan kunlarning ham sira qizig'i yo'q. Ertangi kunning esa bugundan ham maza-matrasiz bo'lishi oldindan ma'lum edi. Ushbu to'qqiz kunning uch kuni g'alaba tantanalarining epkini ostida bilinmay o'tib ketgan bo'lsa-da, qolgan kunlar nihoyatda zerikarli boshlanib, mana, endilikda kun ham hech botmayotganday, soatlar ham odatdagidan uzoq imillab yurayotganday. G'alaba tantanalari oddiy kunlar bilan birikib, o'tmishga aylandi.

Turkmanlarning burchak-burchaklardan kechasi qiladigan hujumlaridan saqlanish maqsadida mingdan ziyod ot, tuya, xachir, eshaklarning shahar chegarasidan tashqariga chiqarilmasligi, boshqa bir ishi bo'lmagach, topganini kecha-kunduz yeb-ichib yotgan yigirma ikki ming navkarlik qo'shin ham duch kelgan yerda hid chiqarib yotishi natijasidami, iyul oyining dim, jazirama issig'ida yerdan ko'tarilgan yoqimsiz badbo'y is odamlarning nafas olishini juda qiyinlashtirib yuborgan edi.

Qora sartibning shaxsan buyrug'i bilan, shamol yo'nalishidan keladigan sassiq hidlardan biroz bo'lsa-da uzoqlashish maqsadida sarkarda va sardorlarning chodirlari Marvning g'arbiga — Qora Ahmad qishlog'iga boradigan yo'l chekkasiga ko'chirildi. Blokvilning chodiri ham ularning chodiridan tayoq otim uzoqlikda tiklandi.

Ancha-muncha uzoqlashgan bo'lishlariga qaramasdan, shiptir hidi anqib yotgan shahar havosining ta'siri bu yerlargacha yetib kelgan edi. Bunday holat Yevropaning ozodaligiga o'rgangan Blokvilga juda yomon ta'sir qildi, uni zeriktirib, qilgan ishidan pushaymon etdi. U ko'zini yumsa tosh ko'chali, bog'-bo'stonli jonajon Parij ko'z oldida jonlanar, qovog'ini ochganda ko'zining oldida chang-to'zonli keng sahro namoyon bo'lar, qojor qo'shinlarining bo'g'izni achituvchi yoqimsiz hidlari darhol burniga urilardi.

Tong bilan tashqariga chiqib, yorug' olamni ko'zdan kechirib turgan Blokvilni hozir boshqa bir narsa bezovta qila boshladi. Mahshaddan bu yerga kelganlaridan beri har kun takrorlanayotgan tushunarsiz holat bugun ham davom etmoqda. Eron sarkardalarining o'zlarini qanday tutishlariga Blokvilning hech aqli yetmasdi. Eronliklarning Marv vodiysi tuprog'iga qadam bosganlariga ham bir oycha bo'lib qolgandi. Biroq ulkan qo'shin sarkardalari hanuzgacha bo'm-bo'sh shaharni egallaganlari bilan maqtanib, shunga qanoatlanib yurishibdi. Ular shaharni tashlab orqaga ham chekinmas, shaharni tashlab ketganlarning ustiga hujum qilib ham bormasdilar. Qaytanga kun sayin botirlashib borayotgan turkmanlarning o'zlari qojorlar ustiga ketma-ket hujum qilayotgandilar. Oldingi kun peshinda bo'lib o'tgan to'qnashuvni ham shaharga yashirin holda yaqinlashgan turkmanlar boshladilar. O'sha jangda qojorlar yo'qotgan navkarlarning soni o'ttizdan ortiq edi. Blokvilning baho berishiga ko'ra, vaqt turkmanlar foydasiga ishlamoqda. Issiq jazirama havo ham, oyoq ostidagi qaynoq tuproq ham turkmanlarga yordam bermoqda. Bu holat shunday davom etaveradigan bo'lsa, uning natijasi eronliklar uchun yaxshilik bilan tugamasligi aniq.

Iyul oyi ham oxirlab borardi. Qojorlar raqiblarini tez kunlarda bo‘ysundirmasalar, qishda bu ishlarni amalga oshirish yanada qiyinlashadi. Chunki qish faslining boshlanishi bilan oziq-ovqat masalasi ham, mol-hollarni saqlash masalasi ham hozirgisidan beshbattar yomonlashadi. Fransuz kapralining fikriga ko‘ra, takalarning Marvni tashlab, Qorayopga chekinishlari eronliklar uchun omad keltirmadi. Bunday chekinishlardan so‘ng, ko‘pincha kurashda chekinganning g‘olib kelganligiga tarixda misollar ko‘p. Bundan Blokvil yetarli darajada xabardor edi. Ayni choqda u o‘z yurtdoshi Napoleon Bonopartni esladi — o‘shanda o‘rus askarlari Moskvani urushsiz tashlab ketgandan so‘ng fransuzlarning holiga maymunlar yig‘lagan edi. Bu voqea bundan bor-yo‘g‘i ellik yil oldin bo‘lgan edi-ya!

Kim biladi deysiz? Balki Qora sartib pisand qilmagan Qo‘vshutxon ham o‘ruslarning Kutuzovday sarkardasi singari biron-bir makr-hiyla o‘ylab qo‘ygandir?! Balki u ham o‘zining vatani uchun ana o‘sha Kutuzovday ulug‘ sarkardadir?! Tarixda voqealar ham, shaxslar ham tarix uchun takrorlanib turadi-ku, axir.

Tonggi o‘y-xayollar bilan aylanib yurgan Blokvil tevarak-atrofga nazar tashlar ekan, Eron qo‘shinlarining ham uyg‘ona boshlaganini ko‘rdi. U yoq-bu yoqdan paydo bo‘lib ko‘tarilayotgan tutun egri-bugri so‘qmoqlar kabi tongning osuda havosida ko‘kka o‘rlardi. Shunday bo‘lsa-da, qo‘shinning asosiy bo‘lagi haliyam uyquda. Blokvilning nazari yetgan masofadagi chodirlar atrofida xatti-harakat ko‘rinmadi.

Eron qo‘shinining asosiy qismi Marvning ko‘m-ko‘k osmoni ostida. Havo issiq, dim bo‘lganligi sababli, sarbozlarning ko‘pchiligi ko‘ch-ko‘ronini ko‘rpa-to‘shakka o‘rab, duch kelgan joyda, ochiq maydonda uxlashga odatlanganlar. Bu betashvish navkarlarning, bomdod namozini ham o‘qimaydigan sarbozlarning yelkasini oftob qizdirgachgina, ular uyqudan uyg‘onadilar. Takalarning bosh shahrini egallagan sarboz-u navkarlar mana hozir ham mast uyquda.

Asosiy vazifasi — Marv viloyati hududining xaritasini chizish bo‘lgan Jorj Blokvil allaqachon tevarak-atrofni yaxshilab o‘rganib olgandi. U ham shaxsan borib, o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan

qishloqlarning qay biri qayerda joylashganligidan ham xabardor bo‘lib ulgurdi. Janubdagi qishloqni Sultoniz deb atasharkan. Samandiqdan ikki farsax chamasi yurilgach, daryo qirg‘og‘i bo‘ylab yoyilib yotgan bog‘-bo‘stonga boy yakka bir qishloq bor, unga Qo‘jiqning bog‘i deyishadi. Uni ba’zan Cho‘g‘di degan nom bilan ham ataydilar. Biroq Cho‘g‘di sharq tomonga ham cho‘zilib ketadi. Qo‘jiq bog‘idan janubroq tarafda Xo‘jayop, undan shimolda Marjon qishloqlari joylashgan. Shu atrofda Yozi, Mulkbukri, Mulkbaxshi qishloqlari... Marvdan g‘arbda Ko‘kcha degan bir qishloqning borligi ham fransuzga ma’lum. Burkaz qishlog‘i bilan Ko‘kcha orasini Murg‘ob daryosi kesib o‘tadi. Blokvil u tomonlarga hozircha o‘tolgani yo‘q. Biroq u qishloqlarni tarjimonlardan, bu hududni yaxshi bilganlardan, tutqunga tushgan turkmanlardan surishtirib yuribdi. Buni o‘zi uchun uyat hisoblamasdi. Hatto, u sarkarda va sardorlar bilmaydigan qishloq nomlarini surishtirib bilib oldi. Uning topgan ma’lumotiga ko‘ra, Burkaz mulki bilan Ko‘kcha mulkining o‘rtasidan oqib o‘tgan Murg‘ob daryosining o‘ng qirg‘og‘ida takalarning mashhur sarkardasi Qo‘vshutxon yashaydigan hovli ham bo‘lishi kerak...

Birdan tong havosining tinchligi buzilib, Sultoniz qishlog‘ining g‘arbida chang-to‘zon paydo bo‘ldi. Chang-to‘zonga sabab to‘rt nafar otliq ekanligini Blokvil darrov angladi. Uyqudan uyg‘onmagan sarbozlar bu vaqtda ot choptirmasligi, ov-shikorga chiqmasligi ma’lum. Ov-shikorga chiqqan paytlarda ham, otlarni bu darajada qattiq choptirishning hojati yo‘q edi. Xullas, bu juda sirli, g‘alati chang-to‘zon edi.

Ko‘p o‘tmay, to‘g‘ri uzun yo‘nalishni egallab turgan sarbozlar chodirlarining janub tomonida shovqin-suron ko‘tarildi. Chala-yarim uyquli qojorlar ustiga turkmanlar hujum qilgan edi. Ana shu shovqin-suronga sababchi bo‘lgan to‘rt otliqning bir qadar yaqin kelganidan ma’no chiqargan Blokvil sahargi mehmonlarning qora telpaklarini boshiga bostirib kiygan turkmanlar ekanligini anglab yetdi.

Otliqlar yaqinlashgan sayin oh-voh ovozlari, shovqin-suronlar Blokvilning qulog‘iga aniq eshitila boshladi. Shirin uyquga kirgan sarboz-u sarkardalar bu aqlga sig‘mas botirlikning qarshi-

sida sehrlanganday uxlab yotishi haqiqatan ham tang qolarlik hodisa edi.

Blokvil ham jodulanganday turgan joyida qotib, endilikda yanada yaqinlashib qolgan to'rt otliqning jasur harakatlariga tomoshabin bo'lib qarab qolgandi. U ko'zi oldidagi manzaraga ishonmadi— bu ishonib ham bo'lmaydigan holat edi: qo'llari yetganicha goh o'ngga, goh so'lga egri qilichlarini mo'ljallab sermab kelayotgan to'rt otliq sarosimaga tushib qolgan qo'shin orasidan qarshilik ko'rmay, istagan ishini qilib otda chopib kelishardi. Sarbozlarning ayrimlari qotib turganlaricha bu xil o'yinni tomosha qilishardi. Ularning boshlarini qimirlatib turishlari umri davomida birinchi bor Marv tuprog'ida duch kelgan jo'xori deb atalgan oq boshli o'simlikni Blokvilning esiga soldi. Haqiqatan ham o'ziga xos bosh kiyimlari jo'xori boshiga o'xshash sarbozlar — bu paytda qo'liga yarog' tutgan jonli odamga emas, balki shamol qaysi tomonga essa o'sha tarafga qiyshayadigan o'simlikka o'xshardi. Navkarlar kimni o'ldirib, kimni yaralab kelayotgan dushmanlarga qarshilik ko'rsatish o'rniga, jodu-sehr ta'siridan endi chiqqanday orqa-oldiga qaramay qocha boshladilar. Sarbozlar ro'y berayotgan voqeani tushunib, endi o'zlariga kelganlarida, otliqlar ularning yonboshidan o'qday o'tib ketdilar. Shu zaylda qinidan chiqqan qojor qilichlari bo'sh havoda tebranib, to'g'risidan o'tib ketganlarga shunchaki bir do'q-po'pisaday bo'ldi-qoldi. Tevarak-atrofni faqat qojorlar o'rab olganligi sababli, bunday vaziyatda dushman orqasidan o'q ham otib bo'lmasdi.

Shunday qilib, to'rt nafar otliq deyarli qarshilikka uchramay, o'zlarining maqsadlariga tomon egri qilichlarini ustalik bilan sermab yo'lni tozalab borardi. Sarbozlar esa ularning orqasidan shovqin-suron qilganlaricha qarab qolishardi. Bu hol to'rt otliqni ruhlantirgandan ruhlantirdi. Otliqlarning changida qolib, endi qilich yoki to'pponchaga yopishgan sarbozlar olomon-to'polon bo'lishib, bir-birlarining erkin harakat qilishlariga xalaqit berishardi. Ko'krak kerib, oldinga chiqqanlar esa yeldek chopib kelayotgan otlarning tagiga tushib qolishdan qo'rqib, o'z jonlarini omon saqlab qolish uchun ikki tomonga tiraqaylab qochishar, bu bilan otliqlarning to'siqsiz o'tib ketishlariga imkon yaratardi. To'rt nafar

otliqning to‘rtta qilich bilan bunday ko‘p sonli dushman qo‘shini ichiga kirib, bostirib kelishining oddiy hol emasligini fikr qilgan qojorlar, ularning izidan minglarcha turkman sarbozlari bostirib kelishyapti, degan vahimali o‘yda edilar. Xullas, o‘tib ketgan haqiqiy xavf-xatar yangi-yangi xavotirlarni yuzaga keltirmoqda edi.

Chodir yonida turib, aql bovar qilmaydigan voqeani kuzatayotgan Blokvil afsuslanib boshini chayqadi. Yoniga Qora sartib qachon kelganini ham sezmadi.

— Iye, muhtaram sartib, siz ham shu yerda ekansiz?! Kuningiz xayrli bo‘lsin!

Qulog‘i kar odamday hang-mang bo‘lib turgan Qora sartibdan o‘z vaqtida javob bo‘lmagach, Blokvil so‘nggi uch so‘zni yana takrorladi. Bu safar sarkarda nimalarnidir ming‘irladi. So‘ng shunday dedi:

— Janob, siz piching qilyapsizmi? Yoki...

— Kuningiz xayrli bo‘lsin deyish, piching bo‘ladimi, janob sartib?! — Blokvil sharoitni hisobga olgan bo‘lsa-da, Qora sartibning javobidan chini bilan hayron qoldi. — Ulug‘ Parvardigor kuningizni xayrli qilsin! — deb takrorladi.

Qora sartib oldinga — g‘alati voqealar bo‘lib o‘tayotgan tomonga qarab turar ekan, o‘zi bilan o‘zi so‘zlashganday pichirladi:

— Ulug‘ Parvardigor kunimizni xayrli qiladigan bo‘lsa, boshimiz ustida bunday qilib to‘s-to‘polon ko‘tararmidi?! Tomoshani siz ham ko‘rib turibsiz-ku, janob kapral.

Blokvil bu gal Qora sartibga qaramay dedi:

— Siz shuni tomosha deb hisoblayapsizmi?

Qora sartib tong havosini kuch bilan ichiga tortdi.

— Tomoshadan kami yo‘q! Men, to‘g‘risi, buni Ollohning ikki qo‘li bilan urishi deb hisoblayman.

— Ollohning bu voqeaga nima daxli bor?

Qora sartib bu gal kapralga olayib qaradi.

— Siz musulmon emassiz-da, janob kapral. Bo‘lmasa, Ollohning daxli yo‘q bo‘lsa, shuncha ulkan qo‘shin ichiga to‘rt nafar otliq qanday qilib kirib keladi, o‘ylanardingiz, axir? Quturgan kasalga chalinib kirganda ham, ming qilich to‘rtta qilichni chilparchin qilib maydalamaydimi?

— Bu Qo‘vshutxonning uyushtirgan hiyla-nayrangi, janob sartib.

— Buning nimasi hiyla emish? Ajalning ustiga o‘z oyog‘i bilan chiqqan to‘rt nafar tentakning ulkan qo‘shin ichiga yuborilishi ham nayrang bo‘ladimi? Itni ham bos-bos deb hovliqtiraversang, arslon ustiga sakraydi-da...

— Sakrasa, yaxshi-ku!

Qora sartib ko‘zi soqqasidan chiqquday bo‘lib, fransuzning yuziga nazar soldi.

— Tushunmadim?

— Nimasiga tushunmaysiz? Iti o‘zidan yuz barobar kuchli yirtqichning ustiga sakrashni eplaydigan xonli yurtdan ehtiyot bo‘lish kerak demoqchiman. Yoki men xato gapiryapmanmi?

Qora sartib eshitganlari to‘g‘risida o‘yga cho‘mganday jim bo‘ldi. Shu payt to‘rt otliqning orqaroqda borayotgani bo‘yniga ip tashlanganday, otning sag‘risi ustiga qiyshaydi-yu, yerga ag‘darilib tushdi.

— Ana, ko‘rdingizmi, itning ahvolini! — Qora sartib qiziq o‘yinni tomosha qilayotgan boladay quvonib. — Hozir uning tit-pitini chiqarib tashlashadi!

Aytmoqchi bo‘lgan javobi sartibga ma’qul bo‘lmasligini bilsa-da, Blokvil jim turishni istamadi.

— Biroq u tit-pit bo‘lmasdan oldin ko‘p qojorlarning badaniga og‘iz urib tishlagan bo‘lsa kerak?..

Qora sartib bu haqiqatni tan oldi.

— Gapingiz to‘g‘ri, janob kapral. To‘g‘ri gapni to‘g‘ri deymiz-da.

Blokvil endi uning ko‘nglini ko‘tarmoqchi bo‘ldi:

— Haqiqiy sartib mana shunday bo‘lishi kerak. Agar haqiqat yoqimsiz bo‘lsa ham, yashirmaslik kerak, g‘alaba shunda keladi, janob sartib!

Bo‘layotgan voqea to‘g‘risida Qora sartibning bunaqa fikr yuritishi, to‘rt turkman otlig‘i ulkan qo‘shin ichida katta bir ishni bajarib yurganday jumboqli edi. Blokvil yana hayron qoldi.

— Yovning qahramonligiga munosib baho berish ham mardlikdan bir nishona! — dedi u.

Bu so‘zlar past ovozda aytilgan bo‘lsa-da, Qora sartibning qulog‘iga yetib bordi. Biroq sartib o‘zini yana bu so‘zlarning ma’nosiga diqqat qilmagandek tutdi.

Blokvil uchun tushunarsiz savol jarangladi.

— Qanaqa yovning qahramonligini aytyapsiz?

Blokvil gapirmoqchi emasdi. Biroq qonidagi o‘jarlik xususiyati uning xohishidan ustun keldi.

— Bu to‘rt otliq sizning do‘stlaringiz emas-ku, axir?!

Qora sartib o‘zini o‘nglaganday harakatlandi, oyoqlarini u yoq-bu yoqqa tashlab yurdi. To‘satdan bo‘g‘iq ovozda baqir-chaqir qilib shovqin ko‘tardi, chekkaroqda turganlarga bir nimalar dedi. Ammo uning tovushi qanchalik haybatli chiqqan bo‘lsa-da, to‘rt nafar otliqning bostirib kelishi bilan ko‘tarilgan qiy-chuv ovozlari ichida yo‘qolib ketdi.

Shahzodaga tansoqchilikka saylangan sarbozlardan besh-o‘n nafarini hamon omon qolib, qo‘shin orasiga vahima solib yurgan uch otliqning qarshisiga qo‘yishdi. Biroq ular ham hech narsa qila olmadilar. Chunki uch otliq bilan chodirlar orasida bir necha ming qizilbosh bor edi. Buning ustiga, chodirlar yonidagi ko‘ch-ko‘ronlar, katta-katta suv idishlari, tuya, ot, xachir, eshak va boshqa mayda-yu qora mollar uchun g‘amlangan o‘t-xashak, o‘tin-cho‘plar orasidan o‘tib, dushman oldiga yetib borish o‘ng‘ay ish emasdi. Tanlangan sarbozlarning-da qo‘lidan hech narsa kelmay, ular ham sharoitga qarab ish tutishdan boshqa ilojlari qolmadi. Uch otliq ham shuni bilganday, bosh chodirga tomon yurmay, chap tarafga ot solishdi. Ana shu fursatda Blokvil ularni o‘z ko‘zi bilan bemalol kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldi, u og‘izlaridan oq ko‘pik sachratib olg‘a intilayotgan chiroyli otlarga, boshlari oq ro‘mol bilan ixcham o‘ralgan uch qahramonning ko‘rsatayotgan jangovar harakatlariga qoyil qoldi. Shu vaqtning o‘zida esa dovdirab, nima qilishini bilmay kuchli zarba oldida ojiz qolgan qojor qo‘shini sarbozlarining dod-voy solib ko‘tarayotgan baqir-chaqir ovozini, shovqin-suronini eshitib ulardan nafratlandi. Sarbozlarning urush maydonida emas, kir-chir mayxonalar ichida mast bo‘lib, duch kelgan joyda tartibsiz dumalab yotishlariga ruxsat berib qo‘ygan sarkardalarni ichida bo‘ralatib so‘kdi. Sardor-u sarkardalarning

bunday shaxsiy gunohlari evaziga navkarlarning huda-behuda halok bo'lishi ularning urush san'ati sirlaridan mutlaqo xabarsiz ekanligidan dalolat edi.

Hanuz unchalik uzoqlashmagan uch otliq turkman yovga qilich solar ekan, endi "Yo, Olloh!" degan jangovar ovozlari Blokvilning xuddi yonginasida eshitilganday bo'ldi. Ulardan qochib, biri-birining ustiga yiqilayotgan navkarlarning ham "Yo, Olloh!" deb faryod chekishlari esa mutlaqo ma'nosiz tuyuldi.

Turkmanlarning dadil harakatlarini kuzatib turgan Qora sartib tushkun iljayib, fransuzga qaradi.

—Turkmanlarda qochgan ham Olloh deydi, quvgan ham, degan maqol borligini bilasizmi, janob kapral?

Blokvilning kulgisi qistadi. Biroq bu voqeadan joni halqumiga kelgan sartibning huzurida kulib yoki jilmayib turishning hozir o'rinsiz ekanligini esga olib, darhol o'zini tutdi.

— Birinchi marta eshityapman. Yaxshi maqol ekan!

— Ikki tomon ham Olloh deydi!

— Ikki tomonning ham Ollohi bir, biroq men uning kim tomoniga yon bosayotganiga tushunmadim.

Qora sartib:

— Men esa bilaman, — dedi-da, fransuzning yana jahlini chiqaradigan gapini eshitmaslik uchun ikki qadam olg'a yurdi.

Shu payt Qora sartibning ko'zi tong havosida chala hilpirab turgan oftob va yo'lbars suratli Eron qo'shini bayrog'iga tushdi. Bu bayroqning Marv qal'asi tepasida hilpirab turishiga ishonchi komil bo'lgan Nasriddinshohning shaxsan o'zi bayroqni Hamza Mirzaga topshirgan edi. Bu mahal ushbu jangovar bayroq obro'sini qo'riqlashi lozim bo'lgan ulkan qo'shin navkarlari to'rt nafar turkmanga qarshi chiqa olmay, vahimaga tushib qolganiga sartibning ori keldi. U bir zum hozirgi manzarani unutib, g'alaba onlarini — Tehronda bo'ladigan dabdaba-yu as'asani ko'z oldiga keltirib ko'rdi. Hozirgi voqea-hodisalar xabarini eshitgan shoh Nasriddinning kinoyali yuzini ko'rganday bo'ldi.

To'satdan o'ziga kelgan Qora sartib:

— Bayroqni yig'ishtiringlar! — deb qichqirdi.

Bu paytga kelib uch otliq turkmanning yana biri otdan ag'darildi. Shunday bo'lmaganda-da, bosh chodir yonidagi bayroq bilan ularning ishi yo'q edi. Oldiga qo'yilgan maqsadlariga yetgan botirlar omon-eson chiqib ketishni mo'ljal olishar, buning uchun esa ular endi omon qolib, Eron qo'shinlari qarorgohidan sog'-salomat chiqib olishlari kerak edi. Qojorlarning bayrog'ini yulib olish hozir ularning yetti uxlab tushiga ham kirmagan edi.

— Qo'shin bayrog'i yov ko'ringanda yig'ishtirilmaydi! — deb Blokvil yana tagdor so'z qildi.

Uning gapini faqat o'zining qahr-g'azabini keltirish uchun aytilayotgan vaysaqi deb hisoblovchi Qora sartib fransuzni gap bilan chaqib olish maqsadida o'tkirroq javob o'yladi. Topgan javobini aytishga endi og'iz juftlagan paytda, o'z chodiridan chiqqan Hamza Mirzaga ko'zi tushib, shu zahoti barcha narsani esidan chiqardi.

— Kuningiz xayrli bo'lsin, marhamatli shahzodam! Assalomu alaykum!

Qo'shin ichida qandaydir ko'ngilsizlikning paydo bo'lganligini sezgan shahzoda alik oldi-da:

— Nima voqealar bo'lyapti, sartib? — deya to'ng'illadi.

Shahzoda tomonidan savol berilgan zahoti to'g'ri va qoniqarli javobni qaytarishi lozim bo'lgan sartib bir muddat gapirolmay g'udranib qoldi.

Shohning huzuridan boshqa joyda biron marta bergan savolini ikki marta takrorlamaydigan Hamza Mirza ovozini balandlatdi:

— Bu qanaqa gap deyapman? Bu qanday hol?

Qora sartib hozir aytadigan javobidan qo'rquvga tushib, qo'llarini bir-biriga uqaladi.

— Qorovullar g'aflat uyqusida qolishibdi... Uch-to'rt nafar turkman...

Ko'p urush-janjalli voqealarni ko'rgan Hamza Mirzani hozir tashvishga solgan narsa o'n-o'n besh nafar navkarning halok bo'lishi-yu, o'n-o'n besh nafar sarbozning yarador bo'lib qolishi emas. Gap — chaqirilmagan mehmonlarning to'rga chiqib, qon to'kib ketishlarida! Bu holat ulkan qo'shin uchun qanchalar shar-

mandalik ish hisoblansa, bosh sarkarda Hamza Mirza uchun ham obro‘-e’tiboriga raxna soladigan qabohat edi!

Qora sartib shahzodaning savoliga jo‘yali javob qaytara olmay turganida, yuzaga kelgan sharoit unga yordam berdi. Yo‘l yo‘nalishi bo‘ylab ketishsa, yana qisqa fursatdan keyin Eron qo‘shini ichidan erkinlikka chiqib oladigan ikki nafar turkmanning yana birini sarbozlar otdan ag‘darishdi. Uning oti qoqilib, o‘zi ikki marta ag‘darilib tushdi. Omon qolgan to‘rtinchi turkman qo‘shin ichidan chiqib, kunbotarga qarab ot qo‘ydi.

— Ana, turkman qochdi! — deb bola singari chapak chalgan Qora sartib Hamza Mirzaning ko‘zi bilan ko‘rib turgan voqeani bayon qilib, uni javob tarzida ishlatmoqchi bo‘ldi. — Quving izidan!

Hamza Mirzaning shoshilmay yuqori ko‘targan o‘ng qo‘li Qora sartib buyrug‘ining kuchi bekor qilinganidan darak berdi.

— Ustingizga kelganda bosolmaganingiz baloni endi qochgandan so‘ng tutamiz deb o‘ylayapsizmi? Bekorlarni aytibsiz!

Hamza Mirza juda zarur deb hisoblamasa, butun ko‘ch-ko‘roni bilan qal’a ichida va tashqarida bosh-boshdoq bo‘lib yotgan qo‘shin bo‘linmalari orasida hech vaqt paydo bo‘lmasdi. Bu gal esa u yovning aqlga sig‘mas ish ko‘rsatib ketganligi sababli, ertalabki nonushtani keyinga surib, tepalikdan pastga tushdi. Taklif qilinmasa-da, Qora sartib ham shahzoda izidan qadam tashladi.

Shu paytgacha qojorlarning barcha harakatini ko‘z uzmay kuzatib turgan Blokvil odatdan tashqari voqea ro‘y berganligi uchun bosh sarkarda bunday paytda o‘zini qanday tutishini ko‘rgisi kelib qoldi.

Otdan ag‘darilgan uch nafar turkmanning ikkitasi allaqachon o‘ldirilganligini Hamza Mirzaga yetkazishdi. Tirik qolgan turkman ham o‘ttiz-qirq yoshlar o‘rtasidagi sariqdan kelgan baquvvat yigit ekan.

U old oyoqlaridan biri sinib yiqilgan qora otining yoniga hech kimni yaqinlashtirmaslik maqsadida qo‘lidagi egri qilichini u yoqbu yoqqa sermab o‘ynatib turardi.

Ajal ustiga o‘z oyog‘i bilan kelib, ko‘rsatgan jasoratining oxiri bexayr tugamasligini oldindan bilgan yigitning hanuz dushman ol-

dida qilich o'ynatib turishi Blokvilni qoyil qoldirdi. Shu turishida hozir turkman yigiti ertaklardagi pahlavonni eslatardi.

Sarbozlar qo'lga tushgan turkmanni birpasda qushning qanotini yulganday tinchitib tashlashlari mumkin edi. Biroq sarkardalarning biri uni tiriklay qo'lga olishni buyurdi.

Bosh sarkardaning shaxsan o'zi va uning eng yaqin sartibi shu yerda paydo bo'lishi turkmanning atrofini o'rab olgan sarbozlarga yangi ruh, quvvat bag'ishladi. Ular yana hujumga o't-moqchi edi, ammo turkman bilan shaxsan o'zi savol-javob qilishni xohlagan Hamza Mirza sarbozlarga: "To'xtanglar!" — deya ishora qildi.

Qattiq charchagan va hansirab qisqa-qisqa nafas olayotgan turkman egri qilichining uchini yerga tirab, bir qo'li bilan manglayining terini artdi.

— Terlashga arzigulik ish qilding! — deb pichirlab qo'ydi Blokvil o'zicha.

Turkmanning o'ng qulog'i orqasidan qip-qizil qon sizib, bo'yni aralash ko'kragiga oqib tushmoqda edi.

Yaralangan, quloqsiz, burunsiz qolgan, yoki qilich zarbi qaltisroq tushib ozor chekayotgan sarbozlarning dod-voylarini hisobga olmaganda, atrof jimjit bo'ldi. Sarbozlar, sardorlar, hatto, shahzodaning o'zi ham o'pkasi og'zidan chiqqudek nafas olib turgan turkmanni zo'r qiziqish bilan kuzatishardi.

Hamza Mirza bilan qisqagina maslahatlashib olgach, Qora sartib tutqun turkmandan so'radi.

— Oting nima?

— Men — Ortiq arsariman!

— Sheriklaring kimlar edi?

— Sheriklarimning ikkalasi sizning yigitlaringiz erligini kesib tashlagan do'stlarim edi. Ular o'zlarining tug'ilmay qolgan farzandlarini deb yov boshini kesmoq uchun otga chiqib kurashishdi. Ular maqsadlariga yetdilar. Armonlari qolmadi...

Turkman aytgan gaplarning ma'nosiga tushunmagan Hamza Mirza yonboshida turganlarga savolomuz qaradi.

Savol javobini yaxshi anglagan Qora sartib shoshildi.

— Yorug' jahonda yashaging keladimi?

— Yorug‘ jahonda yashagim kelgani uchun yovga qarshi ot mindim.

Shu payt chap qulog‘ining yarmi kesilgan, ust-boshida qon tomchilari qotib qolgan bir sarboz ko‘pchilik orasidan ajralib chiqdi-da, qilichini sug‘urib Ortiq arsariga hamla qildi.

Bu yerdan endi tirik chiqa olmasligini bilgan turkman qilich yo‘nalishidan o‘zini olib qochmadi. Qilich sermashda adashgan sarbozning zarbi Ortiq arsariga tegmay, qilich navkar qo‘lidan otilib chiqib yon tomonga tushdi. Asirni tiriklay qo‘lga olinglar, degan farmonni bajarmoqchi bo‘lgan sarbozlardan biri tushgan qilichni qo‘liga olgan yurtdoshining qo‘lidagi qurolini o‘z qilichi bilan urib tag‘in yerga tushirdi.

Blokvil boshini chayqadi: “Men shu payt Hamza Mirzaning o‘rnida bo‘lganimda, bu mard turkmanga qolgan umrini sovg‘a qilgan bo‘lardim. Inson ko‘zi oldidan pashsha uchib o‘tsa-da, hech bo‘lmaganda kipriklari bilan ko‘zini yumib oladi, biroq ochiq qo‘ymaydi. Turkman esa qilich zarb bilan unga urilayotganda ham o‘zini olib qochmadi...”.

Hamza Mirza xohlaganingizni qilinglar deganday, hech qanday buyruq bermasdan chodiri tomon yura boshladi. To‘satdan uning nazari yarador sarbozlarga tushgach, orqasiga qayrildi. Qora sartib, shahzoda turkmanga qanday jazo berish lozimligini aytish uchun qayrildi, deb o‘yladi. Biroq Hamza Mirza ko‘pchilikning ichida obro‘sini to‘kmoqni istamaganday, Qora sartibga qaradi-da, past tovush bilan shunday dedi:

— To‘rt nafar turkmanning shuncha to‘s-to‘polon ko‘tarib, sarbozlarni qiyratishiga imkon berib qo‘yganing uchun seni otga sudratish ham kamlik qiladi!

Bosh sarkardaning bu so‘zlarini o‘zidan boshqa hech kim eshitmagan bo‘lsa-da, Qora sartibning tusi o‘zgarib ketdi. Shu vaqtning o‘zida uning miyasiga, — turkmanni otga sudratib o‘ldirish lozim, degan fikr keldi.

Sarkardalarning biriga shu haqda buyruq berdi.

Eron qo‘shini ichidagi sardorlar, mingboshilar ichida Hamza Mirzadan boshqa hech kim Qora sartibning buyrug‘ini ikki qilolmasdi. Shu sababli ham shahzodadan eshitgan noxush so‘zlar-

ning alamini Ortiq arsaridan tezroq olish maqsadida, Qora sartib bosh sarkardani chodirigacha kuzatib bordi-da, so'ng darhol iziga qaytdi.

Ikki o'ram ip bilan bir juft ot keltirilgach, yangidan o'tkazilajak Bekzodalar tomoshasini oldindan anglagan Blokvil Eron sarkardalarining ishlariga qarshilik ko'rsatishga haqqi bo'lmasa-da, qalbining to'rida paydo bo'lgan umidli fikrni amalga oshirishga intildi.

— Janob! — debdi u Qora sartibga shosha-pisha murojaat qilarkan. — Urush sharoitida dushmaningni afv qilish yo'li bilan o'zingnikilarni ham o'limdan saqlab qolishga yo'l ochilishini siz yaxshi bilasiz!

Qora sartib yonidagi navkarboshiga topshiriq berayotgan kishi bo'lib vaqtni o'tkaza boshladi.

Bir tomondan, fransuzning shunchaki sodda ko'ringan, biroq sartib shoshib turgani uchun bosh og'ritishni istamayotgan bu fikri ma'qul ko'rinsa-da, bunga sartib befarq qaradi. Uning bu harakatida xohlasam omon qoldiraman, xohlamasam jazo beraman deganday ma'no bor edi. Chunki sartib o'zini Blokvil bilan avval ham suhbatlashgan vaqtlarida fransuzning haqqoniy fikrlarini ko'pincha e'tiborga olmayotganday tutardi. Sartib bu gal ham o'zining razilona qalbini yana bir marta ochishni ma'qul bildi.

— Janob kapral, qani yo'qoling bu yerdan! Gapni aylantirib turishning nima hojati bor?! — vishilladi u.

— Men, mana shu asirni kechadan oldingi kundagi to'qnashuvda turkmanlar qo'shinimizdan asirga olgan eronliklarning biri, balki ikki nafari bilan almashtira olasiz, demoqchiman.

Qora sartib tirjaydimi, qovoq uydimi fransuz tushunmadi.

— Navkarlarimiz yovga arzimagan yara solishgayam ulgurmay asir tushdilar. Bu turkmanning nimalar qilganini siz o'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz-ku, janob kapral!

Tevarak-atrofga yana bir bor qarab qo'ygan Blokvil uning fikrini tasdiqlab bosh qimirlatdi:

— Bu so'zingiz, janob sartib, juda to'g'ri. To'rtta turkman butun bir qo'shinga balo keltirdi, sarosima soldi. Lekin o'z odamlarimizni ham esdan chiqarmasligimiz lozim.

Qora sartib Ortiq arsariga nafratomuz tikildi.

— Uni bir asirimiz bilan almashtirib, jonini saqlab qolsak, do‘zaxga kiradigan odamni jannatga yuborganday bo‘lmaymizmi?

— Biroq siz o‘z sarbozlaringizning birini o‘limdan qutqarib qolsangiz, bu — qo‘shinni bir navkar bilan ko‘paytirgan bo‘lasiz, shuni ham yoddan chiqarmang! Harbiy harakat vaqtida bor bo‘lgan barcha imkoniyatlardan unumli foydalanmoq darkor, sartibim.

Qora sartibga so‘nggi so‘z, ayniqsa, yoqib tushdi. Ammo u fransuzning bergan oqilona maslahatini bir tiyinga olmasligini ko‘rsatib qo‘yish uchun boshlanglar, deganday ishora qildi.

Qo‘li bog‘liq Ortiq arsarining har ikkala oyog‘iga ham ip qattiq tugib bog‘landi. Iplarning ikkinchi uchi esa ikkita otning bo‘yniga ildirildi. So‘ngra otlar bir vaqtning o‘zida qattiq qamchilandi.

Hali Qorayopdan qojorlar tomon kafanini beliga o‘rab kelar ekan, Ortiq arsari o‘zining o‘limi oldidan Qur’oni karimdan sura va oyatlar o‘qib chiqqani sababli, har qanday og‘ir jazoni ham hech ikkilanmay kutib olishga tayyor edi. Biroq u hozir o‘ziga o‘zi bergan bardosh va mardlik va’dasi ustidan chiqa olmadi. Nachora. Bu yerda dunyoning eng mard kishisi ham, agar aql-ongi o‘zida bo‘lsa, Ortiq arsarini ojizlikda ayblashga haqqi yo‘q edi.

Nihoyatda og‘ir jazolanish tuyg‘usi hozir turkmanning erk-ixtiyorini o‘z izmiga oldi. Ortiq arsarining insonga xos bo‘lmagan dahshatli qichqirig‘i Blokvilning vujud-vujudini qattiq titratib yubordi. Bu tovush, hatto, Ortiq arsarining chotini ayirib, oyoqlarini gavdasidan yulib tashlash uchun sag‘risiga qattiq qamchi urilgan otlarni ham dahshatga solgandi. Otlarning kishnab chiqargan mudhish ovozlari shundan dalolat berardi.

G‘arb tomonga chopgan to‘riq ot Ortiq arsarining gavdasidan uzilgan bir oyog‘ini ipga sudragancha ko‘zdan uzoqlashib ketdi. Jazoga tortilgan turkmanning faryodi endi boshqa eshitilmadi.

To‘riq otning izidan har tomonga qon sachratib, chang-to‘zonda sudralib borayotgan yakka oyoqqa ko‘zi tushgan Blokvil bunday dahshatli ko‘rinishga chiday olmay, ikki qo‘li bilan boshini tutganicha o‘tirib qoldi.

26

Har kuni o'tin, mollarga o't olib kelish uchun sahroga borilardi. Har safar ham xachir, ot yoki odamlar o'g'irlanardi. Endilikda o'q-dorini ham ehtiyotkorlik bilan saqlashning iloji bo'lmay qolayotgan edi.

Jorj Blokvil xotiralaridan

Hamza Mirza Xishmat Davlaning o'zini tutishi Murg'ob daryosi qirg'og'ida ko'ch-ko'ronli ulkan qo'shin bilan Marv viloyatini bo'ysundirish uchun yuborilgan bosh sarkardaga hecham o'xshamas, shahzoda daryo bo'yiga uzoq vaqt dam olishga chiqqan odamga mengzardi.

Blokvilning eshitishiga ko'ra, Hamza Mirza Nasriddinshohning jiyani edi. Shu sababli fransuz uning ma'no-maqsadsiz harakatlaridan ikki xil xulosaga keldi: birinchidan, yigirma minglik qo'shinga ming-minglab ot, tuya, xachirga qanchadan qancha sarmoya sarf qilib, kunini bemaqsad o'tkazsa-da, shahzoda o'z tog'asidan qattiq gap eshitmasligini biladi. Ikkinchidan esa, Hamza Mirza turkmanlarning kuchini ojiz deb o'ylab, ularga nopisandlik bilan qaraydi. Ana shu ikkinchi masalada Blokvil shahzodaning fikrini, ayniqsa, noto'g'ri deb hisoblardi. Blokvil ulkan qo'shinga qo'mondonlik qilib, g'alaba va mag'lubiyat, alam va quvonchlarining barchasini boshidan o'tkazgan keksa askar emasdi. Nari borsa, yigirma sakkiz yoshli kapral dushmanning arzimas kuchini nopisandlik bilan shu ham kuchmi deb qarab, buni urushga qurolsiz kirish bilan barobar, deb hisoblardi. To'g'risi, Blokvil taka turkmanlarning qanchalik kuch-qudratga egaligidan ham bexabar. Biroq harbiy harakatlarda g'alabani kuch-qudrat emas, balki hiyla, jasorat, harbiy farosat ta'minlaydi.

Turkmanlarda hiyla ham, jasorat ham bor ekan— Blokvil mana shuni yaxshi bilib oldi.

Buni bugungi tonggi hujum ham isbotladi. Bu hujum Eron qo'shini gavdasiga bitmas yara sololmagan bo'lsa-da, har holda, turkmanlarning ruhiga ruh qo'shib, qojorlarning kayfiyatini tushirgani aniq.

Blokvilning bugungi tong oldingilaridan ham noqulay kechajagini, jiddiy voqea-hodisalarga boy bo'lajagini taxmin qildi. Endilikda navkarlar Qorayop tomonga emas, balki qo'shinning asosiy qismi joylashgan Po'rsiqal'a tarafga o'tin-cho'p yig'ish uchun borishga ham qo'rqib qolgandilar. Marvdan yarim farsax nariga chiqadiganlar ham yoki yem-xashak, o'tin yig'adiganlar ham yoniga faqat yarog'li otliqlar qo'shib qolmay, balki bir-ikkita to'p ham qo'shib sudraydigan bo'ldilar. Bu ham fransuz kapralining, Eron qo'shini ruhiyatiga raxna yetdi degan taxminining to'g'riligini tasdiqlardi.

Eron qo'shini qo'mondoni, Qo'vshutxon biz bilan urush qilishga jur'at etolmaydi, u, albatta, bizga taslim bo'ladi deb o'ylardi. Blokvil esa buni hayotda tasdiq bo'lmaydigan gumon, havoyi xayol deb hisoblardi. Axir, qo'l qovushtirib Eronga tobe bo'lishga ko'nadigan odam, ya'ni Qo'vshutxon, yigirma oltinchi iyulda Marv atrofida eronliklar bilan dastlabki to'qnashuvini o'tkazarmidi? Yigirma sakkizinchi iyul kuni tong saharda to'rt nafar fidoyi turkman otlig'ini uyquda yotgan eronliklar qo'shini ustiga yuborarmidi? Ulug' xonning bu xil sa'y-harakatlari dushman kuchini tekshirish, ruhiy jangovarligini sinab ko'rish uchun qilingan harbiy hiylalardan edi. Qo'vshutxon oxirgi harbiy harakat natijalarining o'zi uchun og'ir gunoh bo'lib qolmasligini hech qachon esdan chiqarmaslikka harakat qilayotgan edi.

Jorj Blokvil taka xoni Qo'vshutxonning hiylasidan eronliklarning to'g'ri xulosa chiqarmayotganligiga hayron edi. Hamza Mirza ham, Qora sartib ham Marv bosib olingandan beri turkmanlarning tun qorong'isida amalga oshirayotgan qisqa hujumlaridan xulosa chiqarmayapti! Kunduz kuni shahardan ozgina chiqilsa bas, takalar ovoz chiqarmay kelib tappa bosadilar, qarabsizki, shu tariqa yo'qotilgan navkarlar soni ham yuzdan oshib ketdi! Takalar ikki dona sariq to'pni o'q-dorilari bilan olib qochsalar-da, eronliklar yana to'g'ri xulosa chiqarishmadi. Aksincha, beklar, sardorlar, sipohilar o'zlarining yot tuproqda ekanligini butkul esdan chiqarib, ot choptirib musobaqa uyushtirib yurishibdi, ov qilishadi, shikorga chiqishadi, kayf-u safo qilib yurishadi. Kunlar, haftalar, oylar esa o'tib borardi.

1860-yilning sakkizinchi sentabr kuni erta bilan Hamza Mirza chodirining tevaragida g'imir-g'imir, g'ala-g'ovur ko'payib, odamlar to'plana boshladi. Nima gapligidan xabari yo'q bosh sarkarda yengil kiyim-liboslarda baland chodirdan tashqariga chiqdi.

Qo'shin boshliqlari, beklar, mulla-muftiylar, oshpazlar — barchalari oldinma-ketin egilishib, shahzodaga ta'zim qildilar. Ulardan sal uzoqroqda bir guruh xizmatkorlar to'dasi ham bor. Ularning yonida uzun quyruqlari yerga tegib turgan, qorinlari ichiga botgan, shalpangquloq tozi itlar bir-birlariga suykalishib turardi.

Tozilarga ko'zi tushgan Blokvil shahzodaning yana Saidnosir qamishzoriga yoki Po'pushqumning baland qum barxanlariga quyon ovlash uchun otlanayotganini tushundi.

Xizmatkorlardan biri bedov otning jilovidan tutib, biri ot yoliga yopishib, yana biri shahzoda oyog'i ostidagi uzangiga aylanib, Hamza Mirzani qo'llarida ko'targanday otga mindirishdi. Biroq haybatli oq bedov hali yurib ulgurmasdanoq, turkmanlardan elchi kelganligi to'g'risida xabar bo'ldi.

Ov safari boshlanmay turib to'xtagani uchun Hamza Mirza bu xabardan jahli chiqib otini haydasa kerak, yoki turkman elchisining boshqa biror kuni kelishini aytib ketsa kerak, deb o'ylaganlar adashdilar. Taxmin butunlay boshqacha chiqdi. Qaytanga ushbu xabarni eshitib, Hamza Mirzaning kayfiyati ko'tarilganday bo'ldi. U darhol otdan tushdi. Oyog'i yerga tegar-tegmas:

— Oxiri taqdirga tan berishibdi-da! — deb qo'ydi. Uning ovozida ham kayfichog'lik sezildi. Atrofdagilar yengil nafas oldilar.

Shahzodaning yonida turgan Qora sartib ham kek bilan tirjayib:

— Kuchlarining teng kelolmasligiga nihoyat aqllari yetib, tavbasiga tayanishibdi-da, ular,— deya bosh qo'mondonga yaltoqilandi. U Hamza Mirzaning qo'lidagi qamchini ta'zim bilan oldi-da, xizmatkorlarga tutqazdi.

Blokvil Qora sartibning jadal harakatlarini kuzatar ekan, xayoliga darhol, — bitta gavdada ikki odam joylashsa juda g'alati bo'lar ekan, degan fikr keldi.

Haqiqatan ham Ortiq arsariga jazo berilgan vaqtdagi hukmfarmo Qora sartib bilan hozirgi Qora sartib — butunlay boshqa-boshqa kishilar edi. O'sha vaqtda chanog'idan chiqay-chiqay deb turgan vahshiy ko'zlar hozir mo'min-musulmonning ko'zlariga, yerning yuragini yoraman deb tashlangan o'sha arslon g'azabli qadamlar bugun mushuk odimiga, o'shandagi tik qomatlar endi bukri gavdaga aylangandi. Hatto, sartibning o'tkir tikanakday tikkaygan qora mo'ylovlari ham endi shalpayib qolganday ko'rinardi.

Hamza Mirzaning orqasidan chodir tomon qadam tashlagan Qora sartib Blokvilning yonidan o'tayotib o'zi bilan o'zi so'zlashganday shivirladi:

— Hamza Mirzaning siyosati ana shunday natijaga olib keldi, janob kapral. Men bu to'g'rida sizga ko'p marta aytgandim.

Ko'p vaqt o'tmay, ovga borish niyatlari amalga oshmagach, to'dalashib turgan sipohi-yu beklar orqasidan o'rta bo'ydan baland, uzun to'n-u belbog'li, boshiga qora silkma telpak kiygan turkman paydo bo'ldi. Uning yonida yoshi elliklarga yaqinlashgan yana bir odam bor edi.

Ov-shikor kiyimlarini almashtirib, chodiridan tashqariga chiqqan Hamza Mirza, elchini ichkarida qabul qilishga mayli bo'lsada, mehmonlarning yetib kelganini ko'rgach, yaltillab turgan to'nining zar belbog'idan ikki qo'li bilan tutganicha gerdayib turaverdi.

Turkman elchisi oldindan tanishday to'g'ri Hamza Mirza tomonga yurdi. U bosh sarkardaga ikki qadamcha qolganda to'xtadi-da, boshini egib uning hurmatini joyiga qo'ydi.

— Assalomu alaykum, ulug' hurmatli shahzoda!

Hamza Mirza salomga alik oldi.

— Men turkman xoni Qo'vshutxonning huzuridan maxsus kelgan elchiman, muhtaram shahzoda!

— Bilaman, — deb Hamza Mirza muloyim jilmaydi. — Bundan bir oy oldin kelarmikansiz deb o'ylagan edik. Albatta, zarur tashvishlaringiz chiqqan bo'lsa kerak-da.

Bosh sarkardaning kinoya ohangiga o'zini tushunmagan odamday tutgan elchi bir-ikki marta bosh silkitib qo'ydi.

— To‘g‘ri aytdingiz, marhamatli shahzoda! Rostini gapirdingiz. Yangi manzilga ko‘chdik. Uy-joy tikladik, o‘rnashdik, mol-hol, qo‘y-echki, ot-tuyalarga qo‘ralar qurildi, xullas, tashvishimiz o‘zimizga yetarli bo‘ldi.

Bu javob bosh sarkardaga ma’qul kelmadi, yomon ta’sir qildi, shu sababli u ovoziga kuch berib:

— Ism-sharifingni ayt! — dedi.

— Mening ismim Tojko‘k sardor. Yo‘ldoshimning ismi mulla Egamberdi. Tarjimonimiz bo‘ladi. Ikkalamiz ham Qo‘vshutxonning xos kishilaridanmiz[1].

— Qanday xabar keltirding? — Hamza Mirza bu savolni jim bo‘lib turmaslik uchun shunchaki aytdi. Chunki uning fahmlashicha, turkman elchisi olib kelgan xabar aytilmasa-da, tushunarli edi.

Tojko‘k sardor javobga shaylandi. U chap qo‘ltig‘idan olgan qog‘ozni ta’zim bilan Hamza Mirzaga uzatdi.

Hamza Mirza qog‘ozni oldi-da, yonboshida turgan Qora sartibga uzatdi:

— O‘qi!

Dumaloqlangan sariq qog‘ozni darhol tekislagan Qora sartib, bosh qo‘mondon tomon boshini qiyshaytirib xatni o‘qiy boshladi. Unda shunday yozilgan edi:

“Taka xoni Qo‘vshutxon ibn Avazdurdi nomidan ma’lum bo‘lsinkim, ey Hamza Mirza! Ey Qora sartib! Ey shahzoda va sipohilar! Sizlar Nasriddinshoh qo‘shiniga bosh bo‘lib, qanchadan qancha mablag‘ sarflab, bizning yurtimizga kelibsiz. Sizlar bizga xabar yubormay, necha oylab ko‘hna xarobalar ichida nima ishlar qilib yuribsizlar?

Agarda sizlarda urushmoqqa moyillik bo‘lsa, kelinglar, kurashaylik. Yoki sizlar ko‘hna xarobazordagi xachirlarga moyillik ko‘rsatish uchun kelgan bo‘lsangizlar, u vaqtda bizning Marv yurtimizning barakatini qochirmanglar-da, kelgan tomoningizga

---

[1] Atoqli adib Berdi Kerboboyevdan eshitishimcha, Hamza Mirzaga Qo‘vshutxonning xatini eltgan elchi — Turkmaniston xalq komissarlari sovetining boshlig‘i Qayg‘isiz Otaboyev (1877–1937)ning otasi bo‘lgan ekan *(muallif izohi)*.

jo‘nanglar. Maqsadingiz xachirga moyillik ko‘rsatish bo‘lsa, nima, sizning o‘z yurtingizda ko‘hna xarobalar yo‘qmi?!”[1].

Hamza Mirzaning dami ichiga tushib ketdi. Bunday haqoratomuz xatni baland ko‘tarinki tovush bilan o‘qigan Qora sartibning esa butun vujudi titradi. U oldin shahzodaga, keyin esa Tojko‘k sardorga tikildi. Uning ikki odamga qarashi ham ikki xil ko‘rinishda edi: shahzodaning yuziga kechirim so‘raganday holatda, bechorahol ko‘rinishda qaragan bo‘lsa, elchining yuziga g‘azab va nafrat bilan qaradi. Ichida esa bunday mazmunda xat olib keltirgani uchun shahzoda hozir elchining boshini sapchaday yulib tashlashga buyruq beradi. Haqoratomuz xatni bunchalik baland ovozda o‘qiganim uchun meni ham tinch qo‘ymasa kerak... deb o‘yladi. Biroq u o‘ziga qanday jazo berilishini oldindan taxmin qilolmadi.

Qora sartib kutgan g‘azabdor harakatlar ro‘y bermadi. Hatto, Hamza Mirza bu maktubning qahr-g‘azab qo‘zg‘atganini ham oshkor qilmadi. Qaytanga oldingidan ham muloyim ohangda elchiga savol berdi:

— Qo‘vshutxon o‘z o‘limini bo‘yniga olibdimi, elchi?

Tojko‘k sardor jo‘ngina javob qaytardi.

— Ahli odamzodning joni omonatdir, muhtaram shahzoda.

— Bu bilan nima demoqchisiz?

— Bu bilan demoqchimanki, faqat turkman xoni Qo‘vshutxongina emas, dunyoga kelgan ahli banda jonining omonatligini bo‘yniga olmog‘i kerakdur, muhtaram shahzoda! Ajal deb atalgan narsa — Olloh yaratgan barcha jonli jonivor-u odamzodning boshiga tushadigan qismatdir.

Elchining so‘zlariga jiddiy diqqat qilmagan Hamza Mirza:

— Qo‘vshutxonning xatiga maktub bilan hurmat bildiraylikmi yoki og‘zaki javob beraylikmi? — dedi.

— Bizlar uchun buning farqi yo‘q, muhtaram shahzoda. Maktub bersangiz — maktubni olib ketamiz, o‘zaki javob aytsangiz — so‘zingizni topshiramiz.

Hamza Mirza g‘azabnok ichki fikrini tabassumga o‘rab sirtiga

---

[1] Qo‘shtirnoq ichida keltirilgan xat Berdi Kerboboyevning “Qayg‘isiz Otaboy” romanidan olindi. Bu matn bizning xalq orasida yurib to‘plagan materiallarimiz bilan so‘zma-so‘z to‘g‘ri keladi *(muallif izohi)*.

chiqardi. Bunday bemaza xat olib kelgan elchining qayta-qayta muhtaramlab turishiga, mana shunday o'ziga xos tabassum bilan baho berishni lozim topdi.

Shunday bo'lsa-da, shahzoda o'zini bir muddat ham osoyish tuta olmadi. Uning lablari titrab, yanoqlari ucha boshladi.

— Sen xatning mazmunini bu yerga kelmasingdan oldin bilarmiding, ey elchi?

— Bilar edim, — Tojko'k sardor to'g'risini aytdi,— bu xat yozilayotganda men ham tepasida turganman. Hurmali Qo'vshutxon xatning har so'zini kengashib, maslahatlashib yozdirdi.

Javob bosh sarkardaga bolg'a bilan urganday ta'sir qildi. Demak, xatdagi bema'ni so'zlar birgina Qo'vshutxonning o'z fikri bo'lmay, balki butun taka turkmanlarining Hamza Mirzaga bo'lgan munosabatini anglatar ekan-da?!

— Bu xatni qo'ltig'ingga solganingda xat o'rniga ilon solayotirman deb o'ylamadingmi? Sen molboqar yo podachi emas, elchi bo'lib kelding-ku, axir?!

— Bizning elda elchiga o'lim yo'q, degan hikmatli so'z bor, muhtaram shahzoda. Shuning uchun ham...

— Ma'qul! — deb Hamza Mirza Tojko'k sardorning so'zini bo'ldi. — Qo'vshutxonning maktubiga javob shunday bo'ladi: "Xoningizga ayting, el-yurtiga, bola-chaqasiga rahmi kelmayotgan bo'lsa, maktubdagi so'zlardan so'ng kurashga tayyorlanib, otiga minaversin!"

— Turkman doimo ot ustida, muhtaram shahzoda!

— Ot ustida bo'lsa, kimning qayerda xachirga moyillik ko'rsatishini men o'zim aytaman, inshoolloh.

— Biz ham Olloh deymiz...

— Olloh degan bo'lsangiz, Qo'vshutxon o'zining tepasida otlarimizning chang-to'zonini, albatta, ko'radi, elchi!

Hamza Mirzaning so'nggi gapiga ham munosib javob berishga tayyor turgan Tojko'k sardor bu gal xotirjam dedi.

— Ot tepkisini ot ko'taradi, shahzoda!

Qora sartibning qo'lida titrab-shitirlab turgan qog'ozni olgan Hamza Mirza Tojko'k sardorning elchiga o'lim yo'q degan so'zini esga oldi, shekilli:

— Elchini omon-eson kuzatib qo‘ying! — dedi-da, shartta orqasiga o‘girildi. Uning gavdasi baland chodir eshigi orqasida ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Qora sartib bo‘shashganicha:

— Xudoga ming bor shukur! — deb yubordi.

27

Safar oyining 25-sida polklar eshag-u xachirlarga oziq-ovqat yuklab, usti to‘pli 24 ta aravani ham sudrab, Marvning chekkasida harbiy holatga keltirildi. Ertasiga Eron qo‘shini takalar qo‘rg‘oni tomon harbiy yurish boshladi.

Said Muhammad Ali al-Husayniy

Turkmanlar bir u yog‘imizdan, bir bu yog‘imizdan ketma-ket hujum qilib tinchlik bermay qo‘yishdi. Ular bizning bir qancha navkarlarimizni o‘ldirishib, 15 ta tuyaga yuklangan o‘q-dorimizni o‘lja qilib ketishdi.

Jorj Blokvil xotiralaridan

Qo‘vshutxonning Tojko‘k sardor orqali yuborgan xati Hamza Mirza Xishmat Davlaning qalbini ari uyasiga aylantirdi, alg‘ov-dalg‘ov qilib yubordi. Harakatga kelgan zahri kuchli arilarning endilikda tashqariga otilib chiqishiga shubhasiz sababchi edi. Ularning qachon, qayerga qarab uchishlari ham ma’lum edi.

Turkman elchisi orqasiga qaytishi bilanoq, Hamza Mirza oldingi fikrini o‘zgartirdi. Shikor safarini Qorayop yurishi bilan almashtirdi. To‘p-u miltiqlar nazoratdan o‘tkazildi, karnay-surnaylarning changi artildi, otlar-u xachirlarga yem-xashak berildi, sug‘orildi.

Hamza Mirzaning xulosasiga ko‘ra, Marvdan Qorayop oralig‘idagi uch farsaxcha yo‘lni omon-eson bosib o‘tgan qo‘shin, takalarning qo‘rg‘onini uzog‘i bilan ikki soat davomida yo‘q qilishgach, shomda yoki ertasiga orqalariga qaytishlari kerak edi.

O‘zini saranjom-sarishta biladigan Qora sartibning ko‘rsatmasiga muvofiq, qo‘shin uchun zarur bo‘lgan ko‘p kunlik qurol-yarog‘, oziq-ovqat ham qo‘shin bilan birga olib ketiladigan bo‘ldi.

1860-yil o‘ninchi sentabrda qojorlarning ulkan qo‘shini Qorayopga yurish boshladi. Marvda qoldirilgan ko‘ch-ko‘ron, oziq-ovqat, harbiy anjomlarni qo‘riqlash uchun sartib Rizoxon Ajdanboshi rahbar qilib qoldirildi. Uning qaramog‘ida ikkita maxsus polk ham bor edi. Qazvinliklardan iborat yollanma sarbozlar ham ana shu ikkita polkka yordamchi kuch sifatida qoldirildi.

Og‘a Rizoxon Ajdanboshining burchi faqat qal’ani qo‘riqlash bo‘lmay, shomda yoki erta-indin orqaga qaytishlari kutilayotgan sarbozlarga issiq oziq-ovqat tayyorlash, mol-holga yem-xashak yig‘ishning tashvishi ham topshirilgan edi.

Qo‘shin harakatga tushib, Marvdan chiqdi. Uning boshi ham, keti ham ko‘rinmas edi. Ko‘p vaqtdan buyon osmondan tushgan namni ko‘rmagan navkarlarning, hayvonlarning yuz-ko‘zi tuproqdan ko‘tarilgan oqish chang-to‘zondan tanib bo‘lmaydigan darajaga yetdi. Daraxt-u butalarning rangi oqarib qoldi. Yo‘l chekkalarida, ariq bo‘ylarida o‘sib yotgan qovoq o‘simligi yaproqlari ustiga tushgan chang-to‘zonni ko‘tarolmay, shalpayib qoldi. Hatto, qush-u musichalar ham uyalariga biqinib olishga majbur bo‘ldilar.

Qojor qo‘shinlari aravada olib borayotgan yigirma to‘rt dona sariq to‘pning siljib borishi, ayniqsa, vahimali edi. Eroniylar uning qora kuchidangina emas, balki badanga qo‘rqinchli titroq soladigan, xavf tug‘diradigan chang-to‘zonidan ham foydalanib, turkmanlarning ko‘ngliga vahima solmoqchi edilar. Marv tuprog‘i ko‘p zamonlardan beri, balki Chingiz-u mo‘g‘ullar davridan so‘ng bunday haybatli voqeaga shohid bo‘lmagan edi.

Ikki yuztacha bekvachcha va sipohilar to‘dasi qo‘shinning asosiy bo‘lagidan tovush yetadigan masofada uzoqlashdi. Ularning ayrimlari oq bedov otli Hamza Mirzaning oldinda borayotganiga qaramay, bachkana harakatlar qilishardi. Eron qo‘shini vajohatidan qo‘rqib, bor narsalari ham to‘la yig‘ishtirilmagan, shosha-pisha, chala-chulpa qilib tashlab ketilgan qishloqlar ichidan o‘tayotganda ham sarbozlar shunchaki o‘tmas, hech bo‘lmaganda,

devorga ilinib turgan, teridan tikilgan qop yoki esdan chiqarilgan suzmaxaltalarni pichoq va xanjarlar bilan tilka-poralab o'tishar, paxsa devorlarni tepib-yiqib ketishardi. Gapning qisqasi, Marvni kurashsiz egallab, shuhrat vasvasasi ila gerdaygan sarbozlar juda zerikkanlaridan o'zlarini shu yo'l bilan sovitishardi.

Marvga bostirib kirgan kuni Tehronda ham, Hamza Mirzaning tug'ilgan joyi Xurosonda ham dabdabali tadbirlar o'tkazilganligini sarbozlar eshitgan edi. Endi ular turkman tuprog'ida rosa bazm-bayram qilishib, kayf-u safoga berildilar. G'alaba nashidasi, g'alaba kayfiyati hozir ham davom etayotgandi. Go'yo oldilarida o'q otish, qilich sermash bilan mashg'ul bo'ladigan raqib uchramagach, sarbozlar yonboshlaridan endi mushuk o'tsa ham unga tig' tekkizmasdan o'tmas edilar.

Biroq musulmon davlatlarining barchasida o'choq, qozon, dasturxonga alohida hurmat-e'tibor qaratilishini bilgan Blokvil Hamza Mirzaning izidan ilgarilayotgan bir navkarning o'choq yonida to'ntarilib yotgan qozonga miltiqdan o'q otganini ko'rib hayron qoldi.

— Qozonga o'q uzish gunoh emasmi, ey sarboz? — dedi. Navkar savolni eshitmaganga oldi. Kapral shunda: "Musulmon musulmonning qozoniga emas, naq o'ziga o'q uzmoq uchun to'p sudrab boryapti, axir", deb o'z savoliga o'zi javob berish bilan qanoatlandi.

Qo'shin harakatini boshqarib borayotgan Qora sartib Blokvilni ko'rgach, ot jilovini tortdi. Qora sartib kechadan beri ko'rishmagani uchun fransuz bilan yaxshi kayfiyatda salomlashdi, hol-ahvol so'radi. Uning ruhi ko'tarinki ekanligini harakatlaridan ham sezish mumkin edi. Qora sartibning ot ustida o'zini tutishi ham nihoyatda boshqacha edi.

Egriguzar qishlog'ida qimirlagan jon yo'q edi. O'ljadan mahrum qolganini sezgan sartib, molxona yonboshida bo'ynini oldingi oyoqlari ustiga qo'yib yotgan itni ko'rgach, eski qilig'i bo'yicha:

— Anovi yotgan itni ko'ryapsizmi, janob kapral?— deb so'radi.

— Ko'ryapman, janob sartib.

— Unda, sizga bir savolim bor.

— Ayting, janob sartib, bilsam javobini beraman.

Qora sartib Blokvil uchun mutlaqo kutilmagan savolni topdi.

— Vatan uchun odam vafodormi, itmi?

Bu qanaqa gap bo'ldi, deya Blokvil eshitgan savolini fikran qaytarib qo'ydi.

— Savolingiz jo'n ko'rinsa-da, nihoyatda murakkab savol, janob sartib. Itning ham bevafosi bo'ladi, biroq odamlar orasida itga nisbatan bevafolari ko'proq uchraydi.

Qora sartib bergan oddiy savoliga yevropalik olifta javob berolmaganligiga juda xursand bo'ldi. Shundan ruhlangan sartib yana so'zida davom etdi:

— Ko'ryapsizmi, takalar yurtiga bevafolik qilishib, kindik qoni to'kilgan joylarini tashlab qochishdi. Biroq it esa tug'ilgan makoniga vafodor qolib, ularning orqasidan, hatto, ergashmabdi ham. Qanday ta'sirli voqea, shunday emasmi?!

Blokvil bu holatdan asosli ma'no topmagan bo'lsa-da, ortiqcha gapirib sartibga ijikilashni istamadi, unga qarshi fikr bildirmadi.

— E, hayvon hayvon-da, janob sartib. Ketgisi kelsa ketadi, bo'lmasa o'rgangan joyida yotaveradi-da!

Javobdan ko'ngli to'lmagan bo'lsa ham, sartib fransuzga e'tiroz bildirmadi. Buning o'rniga yana bir kutilmagan gapni boshlab qoldi:

— O'sha itni bir o'q bilan ovozini chiqarmay tinchitsa bo'ladimi?

Endi Blokvil sartibning istagiga qarshi fikr bildirishni ma'qul topdi.

— Siz vataniga vafodor deb maqtagan itga miltiq o'qtalishni men ham noto'g'ri deb hisoblayman.

Qora sartib katta ko'zlarini o'ynatib ayyorona tirjaydi.

— Mana, ko'rdinglarmi, — dedi u atrofidagilarga,— yevropaliklarning tushunchasi biznikidan boshqacharoq bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda, yuzakiroq! — Sartib fransuzning o'ziga qarab so'zida davom etdi. — Dushmanning vatanparvarligi biz uchun eng katta xavfdir. Siz buni esingizdan chiqarmang, janob kapral!

— E, it hamma joyda it, baribir, janob sartib.

— Yo'q, janob kapral, men sizning fikringizga qo'shilmayman. Yog'iyning iti ham — dushman!

Blokvil hech nima demadi.

Qora sartib qo'shog'iz farangi to'pponchasini belidan yechib oldi.

Shunchaki jo'n boshlangan gap ma'nosining qonli fojiaga aylanayotganini fahmlagan fransuz begunoh itning o'ldirilishini istamay:

— Nima qilasiz uni otib?! — dedi. — Olloh o'ziga baxsh etgan umrini hayvon yashasin-da!

— Otgim kelyapti!

Blokvilning ko'zi oldida oppoq sochli sartib o'jar bolaga aylandi-qoldi.

Blokvil itni o'limdan ozod qilish uchun eng so'nggi ilinjini ishlatdi.

— U, hatto, o'zining itlik burchini bajarish uchun biz tomonga bir marta hurimadi, otlarimizni ham hurkitmadi-ku!

Bu so'zlar Qora sartibga zarracha ta'sir qilmadi.

— O'zining itlik burchini bajarmagani uchun ham u o'limga mahkumdir!

Bundan boshqa yolvorish — ortiqcha edi. Blokvil o'jar-u qaysar sartib bilan dahanaki bahsini to'xtatdi.

Yoniga kelib to'xtagan otliqning vajohati yaxshi emasligini sezganday it o'rnidan turdi, biroq undan uzoqlashgani bilan ham omon qololmasligini sezdi, shekilli, qochmay, joyida qotib qoldi.

Qora sartib to'pponchasini o'qtaldi.

Begunoh itning o'lishiga joni achigan Blokvil yana o'zini tutolmadi.

— Oldinda katta jang turibdi, it uchun o'q sarflamak...

— Yog'iyning itini yo'q qilmoq ham zafardir! — O'z javobidan ko'ngli to'lgan sartib vahshiyona qilig'ini amalga oshirdi. To'pponcha varanglab ovoz chiqardi.

Manglayni mo'ljalga olib uzilgan o'q itning dumiga borib tegdi. It og'zini yuqoriga qaratib, og'riqdan qattiq vangilladi. Keyin o'zini qiynaganni tanib olmoqchi bo'lganday otliqlarga tomon rahm-shafqat istab qaradi.

Hayvonning nazari bilan ko'zi to'qnashgan Blokvilning gavdasi titrab ketdi. Itning ko'zlari go'yo inson tilida so'zlay boshladi:

“Siz odamlar o‘zaro urushib-talashasiz. Men begunoh itda nima qasdingiz bor? Men sizlardan qo‘rqib joyimda, hatto, hurimasdan yotdim. Nima sababdan meni otdingiz? Yoki sizlar begunohni zor-zor qaqshatishni kasb qilib olganmisizlar? Sizlar qachon inson bo‘lar ekansizlar, ey odamlar?! Sizlarga qachon aql kiradi? Hozir sizlar mening badanimdagi azobli og‘riqdan ozgina totib ko‘rsangiz edi...”.

Shu bilan birgalikda, itning azob-uqubatlar aks etgan ko‘zlari o‘z dushmani bo‘lgan odamlardan yarasiga malham istardi... Evoh, sen ishonuvchan hayvon! Dardingga malham bo‘ladigan inson ichingga olovni tiqdimi? Itning ko‘zlariga ko‘zi tushib, uning nigohidagi zorni o‘qigan Blokvil: “Seni otgan men emas. Seni yaralagan Qora sartib”, deb baqirib yuborishiga sal qoldi. Biroq yarador itning yana bor ovoz bilan angillashi Blokvilning ovozidan oldin chiqdi.

It so‘nggi dami-nafasini olib, butun kuchini yig‘ib o‘z dushmanidan qasd olmoqchimi? Ha, shunga o‘xshaydi. U qonlarini oqizganicha, Qora sartibning otiga qarab sakradi. Qo‘rqib ketgan ot birdaniga orqaga tisarildi-yu, sartib egardan uchib ketdi. Biroq u yiqilgan joyida yotganicha, itga qarata yana bir marta o‘q uzdi.

Itning ovozi darhol o‘chdi. Jonivor bandidan uzilganday, otning bo‘ynidan sirg‘alib yerga ag‘nadi.

It so‘nggi nafasida o‘zining qasdini olishga ulgurgan ekan. Qora sartibning to‘riq oti aqldan ozgan kishiday turgan joyida to‘xtamay aylana boshladi. Bor kuchi bilan sakragan itning o‘tkir tirnoqlari otning ikki ko‘zini o‘yib olgan edi.

Odam ikkita begunoh jonivorni ham bir-biriga dushman qilishga ulgurdi. Ko‘zlari yorug‘ dunyoni ko‘rishdan mahrum bo‘lgan ot turgan joyida aylanar ekan, o‘z egasini bosib ketishiga ozgina qoldi. Bosh kiyimi bilan to‘pponchasini qo‘liga olgan Qora sartib otning kuchli tuyoqlari ostida mayib bo‘lishidan o‘zini zo‘rg‘a olib qochdi.

To‘pponcha tovushiga yugurib kelgan to‘rt-besh nafar sarboz o‘lib yotgan itni ko‘rib hayron qolishdi. Ulardan biri otdan sakrab tushdi-da, Qora sartibning bedovini ushlamoqchi bo‘ldi.

Yuz-ko‘zi qora qonga bo‘yalgan ot no‘xtasiga qo‘l tekkandan cho‘chib bir tomonga sapchidi. U yana egasini bosib olishiga sal qoldi.

Bo‘lib o‘tgan hodisalarga o‘zi gunohkor bo‘lganiga qaramay, sartib sarbozga g‘azab bilan tikilib uyat so‘zlar aytib so‘kindi. U cho‘zilib yotgan it o‘ligiga olayib ko‘z tashladi.

— Bularning itlari ham egalariga o‘xshagan ekan-a!

Blokvil bu gapga nima deb javob aytishni bilmadi.

Qora sartibga boshqa ot keltirishdi. U fransuz bilan yonma-yon ot haydab borar ekan, yana oldingidek qaysarlarcha fikrini davom ettirdi.

— Ko‘rdingizmi, janob kapral?! Boyagi itning nima uchun o‘ldirilganiga endi aqlingiz yetgandir?..

Blokvil yana sukut saqladi.

28

Turkmanlarning qo‘rg‘oni daryoning o‘ng tomonida edi. Undan beriroqda keyin qurilganligi aniq ko‘rinib turgan yana bir qo‘rg‘on bor edi. O‘sha balandlikning ustiga 1855-yilda Saraxs jangida Muhammad Aminxondan o‘lja olingan ikki dona sariq to‘p chiqazilib qo‘yilgan edi. Asir tushgan takalar va qo‘rg‘onga kirib olgan til[1]lar bergan ma’lumotlarga ko‘ra, qojorlardan o‘lja olingan boshqa to‘plar narigi asosiy qo‘rg‘onning old tomonida bo‘lishi kerak edi. Takalarning nima uchun bunday qilganliklarining sababini esa qojorlar tushunmadilar.

Blokvil shunday taxmin qildi: “Birinchi qo‘rg‘ondagi to‘plar qo‘lga tushganda-da, ikkinchi qo‘rg‘ondagi eronliklardan o‘lja olingan to‘plardan otib, himoyalanish mumkin. Turkmanlar shuni o‘ylabdilar-da...”.

Turkmanlarning qo‘rg‘oniga Murg‘ob daryosining chap qirg‘og‘i tomonidan qarab turgan Qora sartibni Hamza Mirzaning huzuriga shoshilinch chaqirishdi. Sartib bosh sarkardadan qilinajak ishlar borasida yangi buyruq olib, darhol iziga qaytib keldi.

---

[1] **Til** — ayg‘oqchi.

Hamza Mirzaning buyrug'i quyidagilardan iborat edi: avgust boshlarida turkmanlar Marv tevarak-atrofiga o'tin-cho'p yig'ishga borgan sarbozlar qo'lidan ikki dona to'pni o'lja olib qolgan, endi o'sha to'plarni takalardan tortib olib orqaga qaytarish kerak, vassalom! To'g'ri, urush tamom bo'lgach, bu to'plarni qurbonsizoq qaytarib olsa bo'lardi. Biroq Hamza Mirzaning fikricha, takalar qo'rg'oni o'qqa tutilganda, bu to'plarga ham zarar yetishi mumkin emish. Bundan tashqari, eronliklardan o'lja olingan to'plar turkmanlarning qo'rg'onida ularning ruhiga ruh qo'shib turmasligi shart! Uchinchidan esa, urush boshlanmay turib ikki dona to'p orqaga qaytarib olinsa, turkmanlar kayfiyati tushib urushga kirmasliklari ham mumkin.

Bosh sarkarda turkman tuprog'ida allaqachonlar mangu mozordan joy olgan uch yuzga yaqin navkarning, bo'lajak jangda hali qanchasining dunyodan o'tishi noma'lum sarbozlarning joni uchun hisobot so'ramasa-da, sariq to'plar uchun Nasriddinshoh oldida javob berishiga to'g'ri kelishini bilardi. Shu sababli, urushga kirmasdan oldin eng botir va qahramon navkarlardan maxsus guruh tuzib, to'plarni daryoning narigi tomonidan o'zlari tarafga olib o'tish g'amini yemoqda edi.

Daryoning chap qirg'og'ida eronliklarga qarshi qancha kuch oyoqqa turganidan, qo'rg'on va sariq to'plar kimlar tomonidan, qanday qo'riqlanayotganidan hech kim yetarli xabardor emasdi. Sarbozlar yig'ilguncha, Qora sartib oftob va yo'lbars qiyofasi aks etgan bayroqni ham o'z yonida ola kelishlarini buyurdi. Uning nima maqsadda bunday qilganini o'zidan bo'lak hech kim bilmasdi.

Biroz o'tib, Hamza Mirzaning buyrug'ini amalga oshirish maqsadida shirin jonidan kechishga tayyor turgan ko'ngillilar guruhi saf rostladi. Ular qirq nafarga yaqin sarbozlar edi. Qirq nafar odam bilan minglarcha turkmanning ustiga yopirilib borish oson ishmi? Agar turkmanlar qo'lida cho'pon tayog'idan bo'lak yaroq bo'lmaganda, u yoqqa borganlarning omon-eson orqaga qaytishlariga ishonch bormi? Demak, o'yladi Blokvil, bu ko'ngillilar butun qo'shinning ruhini ko'tarish uchungina o'limga yuborilgan bo'lishi mumkin! Bosh sarkardaning ko'ngli va so'zi uchungina

ko‘ngillilar quchoq ochib turgan ajal komiga kirishga ketayotgan ekan, daryoning o‘ng qirg‘og‘idagi ulkan qo‘shin ham miq etmay urushga kiradi. G‘alaba esa hamisha ruhi baland qo‘shin tomondadir!

Aslida Qora sartib oftob va yo‘lbars qiyofasi aks etgan bayroqni ko‘ngillilar ruhini ko‘tarish uchun olib keltirgan ekan. Oliy buyruqni amalga oshirish uchun ko‘ngilli sarbozlar mazkur bayroqqa sajda qilib, yo‘lbars singari yirtqich, oftob kabi kuydiruvchi bo‘lmoqni bo‘yinlariga olib o‘limga borishlari zarur edi.

Ko‘ngillilar haqiqatan ham tanlanib-saralangan jangchilardan iborat edi. Ularning bittasigina jismonan ushoq, boshqalarining gavdalari bahaybat, yelkalari keng-keng ko‘rinishdagi yigitlar edi. Haligi bittagina deganimiz, ularning ichiga kuldirish uchun yuborilganday, juda oriq, nochor, buning ustiga, kichkinagina, past bo‘yli, qorni esa katta, dumaloq ko‘rinishda edi. Uning yapaloq burni tagidagi qalin, qop-qora mo‘ylovi ozg‘in gavdasiga vajohat bag‘ishlash uchun atay qo‘yilganday edi. Ammo nihoyatda g‘alati bu ko‘rinishga mo‘ylov ham haybat bag‘ishlay olmagan edi. To‘g‘ri, qahramonlik faqat og‘ir gavdaga xos ish emas.

Lekin ko‘ngilli navkarlarning o‘rtacha yoshidan o‘n-o‘n ikki yosh kattaligi shundoq bilinib turgan bu sarbozning ular qatoriga qanday qilib qo‘shilib qolganligini faqat taxmin qilish mumkin edi, xolos. Maqsad-murodlar hosil bo‘lib, agar bu kichkina bo‘yli navkar ham omon-eson qaytib kelsa, g‘olib sarbozlarning shuhrat to‘nini ular bilan birga kiymog‘i so‘zsiz, albatta. Zero, bosh rahbarning oliymaqom buyrug‘ini yerda qoldirmay ijro etgan botirlar hamma joyda ham ulug‘ shon-shavkatga musharraf bo‘ladi. Eronda ham shunday edi, albatta.

Ustiga ustak, o‘sha qop-qora mo‘ylovli, pakana, ozg‘in qojor guruhga yetakchi qilib yuborilayotgan bahaybat gavdali sarbozning yonboshida, safda ikkinchi bo‘lib turdi. Undan keyin turgan navkar ham yetakchi kabi baquvvat bo‘lganligi sababli, ikki ulkan gavdali sarboz o‘rtasidagi haligi qojor nihoyatda nochor-notavon ko‘rinardi.

Qora sartib urushdagi harbiylarga xos dadil qadam tashlab, yetakchi sarbozning iyagi tagigacha bordi-da, qo'lidagi bayroqni uning yuziga tekkuday yaqin keltirdi.

— Muhtaram Hamza Mirza Xishmat Davlaning oliymaqom buyrug'ini ko'ngilli bo'lib bajarishga ketayotgan sarboz, sening isming nima?

— Ismim Hasan, janobi oliylari! — Birdaniga yetakchi bo'lib borayotgan odam uchun bu nomning qisqaroq eshitilishini anglagan sarboz oldingi javobini yana to'ldirdi. — Hasanxon Mahmud Mashhadiyman!

— Hasanxon Mahmud Mashhadiy, men bu bayroqni nima uchun sening oldingga olib keldim?

— Muhtaram sartib! Siz buyuk bayroqning obro'yini to'kish mumkin emasligini bizlarga ta'kidlash uchun olib keldingiz!

Bayroq oldiga keltirilmasidan burunoq, qorni dumaloq sarboz gapira boshladi:

— Muhtaram sardorimiz! Men Nusratul Ali Shahobilxon Xurosoniyman. Buyuk Eronning yuksak bayrog'i jahondagi hech bir kuchning, hech bir qudratning amri bilan o'z joyidan tushirilmaydi. Hech yerda, hech mahal yurtning yuz-ko'ziga isnod keltirilmaydi. Bu bayroq borgan joyida doimo g'olib bo'ladigan eng botir sarbozlarning ruhiga ruh, kuchiga kuch qo'shadigan beqiyos karomatli bayroqdir! Bunday ulug' bayroq ostida kurashga kirgan sarboz uning ruhiy kuchi bilan metinday qal'a, tog'day baland binolarni olishga...

— Ish qilishing ham so'zlashing kabi bo'lsa, sendan nihoyatda ko'p yaxshi narsalarni kutsa bo'ladi! — deb pichirladi Qora sartib. Bayroqni uning oldidan olib, allaqachon uchinchi navkarning qarshisiga borgandan keyin ham, qorni dumaloq pakana qojor hamon vaysashda davom etmoqda edi. Yetakchi sarboz bo'ldi, deya turtib qo'ymaganda, u sayrashini hamon davom ettiraverishi mumkin edi.

Voqeani chetda tomosha qilib turgan Blokvil o'zini kulgidan zo'rg'a tiydi.

Eron davlatining yuksak bayrog'iga o'zlarining vafodorliklarini bir necha marta takrorlagan ko'ngillilar bosh sarkardaning

amalga oshirilishi qiyin topshirig'ini bajarish uchun daryo tomonga yurish boshladilar. Ulkan va novcha sarbozlar ichida ularning bir qadamini ikki odimlab bosib borayotgan kichkina qojor izidan tikilib qolgan Blokvil endi kulishini ham, yig'lashini ham bilmay qoldi.

Navkarlarni jo'natgandan so'ng harbiycha harakatdan erkin holatga o'tgan Qora sartib birdan shalpayib qoldi.

Blokvil uning yoniga keldi.

— Turkmanlar Eron to'plarini yashirib, navkarlarimizga o'z to'plari bilan hujum qilishmoqchimi, janob sartib?

Daryo tomonga qarab turgan sartib kulumsiradi.

— Mana shu joyga olib kelgan yigirma to'rt dona to'pimizni tekin berganimizda ham ularga to'pdan foyda yo'q, ular to'p otishni bilmaydi!

— Nega bunday deyapsiz?

— Buning sababi shuki, turkmanlar bizning to'p qayerdan o'qlanishini bilmaydilar.

Blokvil ham daryo tomon tikilar ekan, dedi:

— Ular ikkala to'p og'zini biz tomonga o'girib qo'yishlariga qaraganda, bu masalada ham savodlari borga o'xshaydi. Agar bilishmasa edi, o'ylashimcha, to'plarning og'zini biz tarafga to'g'rilab qo'ymagan bo'lardi!

Qora sartib yayrab kuldi.

— To'pning qayeridan o'qlanishini bilmasalar ham, o'qning qayerdan chiqishini bilishadi-ku, axir. Ularni g'irt savodsiz deb o'ylash to'g'ri emas, janob kapral.

— To'plar otilmas ekan, tashvish chekishning nima hojati bor? Siz tanlangan sarbozlaringizni ajal komiga shunchaki yubormagan bo'lsangiz kerak, janob sartib?

Qora sartib fransuzga mug'ambirona tikildi.

— Janob kapral, men ba'zan sizga qarab turib, bilimlimi yoki bilimsizmi, bu odam, deb o'ylanib qolaman. Axir, to'p sudrab kelishda qurol kuchini ko'rsatish emas, balki bunda siyosat kuchini ko'rsatish ustunroq. Zero, bu maydonni kurash maydoni deb qo'yishibdi.

Bu suhbatdan ikki soatcha vaqt o‘tar-o‘tmas, turkmanlardan o‘lja olingan sariq to‘plarni qaytarishga ketgan navkarlardan biri orqasiga qaytib keldi. Bu o‘sha — qorni dumaloq pakana qojor edi. U o‘tgan ikki soat mobaynida butunlay o‘zgarib qolganga o‘xshardi. Qop-qora soqollari ham oqarganday, o‘zi esa oldingiga nisbatan shalpayib, ko‘zlarining o‘ti ham o‘chganday, keksayib qolganday edi.

Biroq u yakka o‘zi emas ekan. Ikki dona sariq to‘p o‘rniga, u qorachadan kelgan bir turkman yigitini asirga olib kelgandi. Qo‘li orqasiga bog‘langan, yigirma besh-yigirma olti yoshlar atrofidagi oriq turkman dumaloq qorinli qojor o‘ng tomonga buyursa o‘ngga, chap tomonga buyursa — chapga burilib kelardi. Qojorning uni qanday yo‘l bilan qo‘lga olganini Xudo bilsin, biroq qoracha turkman sarbozning barcha buyrug‘ini so‘zsiz bajarardi.

Ko‘ngilli sarbozlardan birining orqaga qaytib kelganini eshitgan Qora sartib barcha ishlarini bir chetga qo‘yib, kelayotganlarning oldiga o‘zi peshvoz chiqdi.

Qora sartib kelar-kelmasdan:

— To‘plar qayerda? — deb so‘radi.

Javob o‘rniga pakana sarboz ho‘ngrab yig‘lay boshladi. Uning bu xotinchalish yig‘isi ketgan navkarlarning orqaga qaytib kelolmasligidan, o‘zining ham o‘limdan zo‘rg‘a qochib qutulganidan xabar berardi. Pakana navkar sheriklarining orqasiga qayta olmasliklariga ichi achib, o‘zining esa ajal panjasidan zo‘rg‘a qutulganiga sevinib g‘alati-g‘alati yig‘lamoqda edi. Xullas, u to‘plar borasida biron-bir xabar bera olmadi. Ketganlarning bittasidan boshqa hech kim orqaga qaytmaganligi esa sariq to‘plar qismati qanday yechim topganligiga so‘zsiz javob bo‘ldi.

Qora sartib ham bunga yaxshi tushundi, shekilli, to‘p haqida boshqa savol bermadi-da, asir turkmanni so‘roq qilmoqchi bo‘ldi.

Qora sartib avval pakanadan shularni so‘rab oldi:

— To‘p o‘rniga olib kelganing shumi?

Sarboz bosh qimirlatdi.

— O‘zing tutdingmi?

— Daryodan o‘tishimiz bilanoq, hammamiz birgalikda tutdik.

— Mollarga xashak yig'ib yurgan edim, bular qo'lga olishdi, — deb gapirgisi kelganday atrofga nazar tashlagan turkman o'ziga berilmagan savolga javob qaytardi.

Turkmanni yonboshdan kuzatib turgan Blokvil o'ylandi: "To'p sudragan yog'iy bostirib kelganda mollari uchun xashak yig'ib yurgan odam — qanaqa odam ekan o'zi? Dushmanning bir tarafi jang oldidan ov-shikorga boradi, ikkinchi tarafi esa jang oldidan mollari uchun o't-yem yig'adi. Tavba, har yurtning, har bir kasbning o'ziga xos sir-sinoati bor ekan-da!"

— Isming nima? — deya Qora sartib asirga qaradi.

— Bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman.

Qora sartibning kulgisi qistadi. Ismingni aytganing uchun men sening qoningni kechaymi?

— Ayt!

— Ismim Jiyangeldi. Men tug'ilganimda Tajanda yashayotgan Otamurod jiyanning katta o'g'li Yusufberdi jiyan Tojjamol jiyan bilan biznikiga mehmonga kelishgan ekan. O'sha vaqtda ular qovun qoqi yeyishga kelishgan ekan. Shu sababli mening ismimni Jiyangeldi deb qo'yishgan.

Asirning hovliqib-hovliqib so'zlashiga Qora sartib hayron qoldi.

— O'sha vaqtda jiyaning kelmay, tog'ang kelgan bo'lsa, ismingni Tog'ageldi qo'yisharmidi?

— Bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman.

— Ayt!

Qora sartib boshini ha deya qimirlatgach, Jiyangeldi yana so'zlay boshladi.

— E, men qayerdan bilay, janobi oliylari? Shu yoshimgacha turkmanlar orasida Tog'ageldi degan nomni uchratmaganman. Ha, aytgancha, nima edi, ha... Minsang— ot bor, uylansang — xotin deyishgan ekan. Shu aytganday, qo'ysang — nom bo'ladi-da! Turkmanlar ichida: eshak degan ham, xo'tik degan ham nom bor. Mana, Qo'vshutxonning qizi bor, ismi Duzuv[1]. U tug'ilayotganda teskari kelgan ekan. Shu sababli, uni masxaralab Duzuv deb atashgan. Boyagi Tajan deb aytgan yerimizda Otamurod jiyanimiz

[1] Ismning o'zbekcha tarjimasi "To'g'ri" degan ma'noni bildiradi *(tarjimonlar izohi)*.

qishlog'ida Turshak degan men tengi bir yigit bor. Siz turshakning nimaligini bilasizmi, janob? Qovunning o'ziga xos bir ko'rinishi. Qovunning o'yinchog'i desangiz ham bo'ladi. Shu desangiz, Tajanda qovunni ko'p ekishadi. Turshak ham shularning orasida ko'karadi. Bashim, Olti degan nomlarning ma'nosiga tushunsam-da, O'tuz og'aga nima uchun o'ttiz deganlaridan hech ma'no topolmadim. Oldin bir oilaning o'ttizinchi bolasi bo'lib dunyoga kelmagan bo'lsa kerak, axir? Nima dedingiz?..

"Xalq orasidagi "Ahmoqni urma-so'kma, uni gapirtir" degan naql qanchalik to'g'ri-ya?" — deb ichidan kuldi Qora sartib asirga o'z bahosini berar ekan. — Agar buni eshitib o'tiraversang, ichida qancha tezak borligigacha aytmoqchi.

Ammo asir Qo'vshutxon nomini tilga olishi yangi savollarga yo'l ochdi.

— Qo'vshutxonning hol-ahvoli qalay?

— Bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman.

Oxirgi gapning tez-tez takrorlanib turishi Qora sartibning jahlini chiqardi. Biroq tentakning ming so'zidan biri kerak degan naqlga itoat qilib uni tingladi. Jiyangeldining maza-matrasiz gaplari ichidan bir muhim ma'lumot chiqishi mumkin edi.

— Qoningni kechdim, so'zlayver!

— Shu desangiz, janob, men Qo'vshutxon degan odamni yaqindan ko'rgan emasman. Lekin oldingi kun edimi, yoki undan ham oldinmi, uning yoniga axallik qarindoshlardan chopar keldi, deyishgandi...

Sartib hushyor tortdi.

— U qanaqa chopar ekan?

— Bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman.

— Hoy, kechdim dedim-ku!

— Kechgan bo'lsangiz, gap shu, janob. Axallik qarindoshlarimizdan chopar keldi. Yo'q, adashdim. Axallik qarindoshlarimizdan chopar kelgani yo'q. Qo'vshutxonning Axalga yuborgan o'z chopari qaytib keldi. Chopar — chopar bo'ladi-da, janob. Otliq boriladi. Yo'lning esa, o'zingiz bilasiz, boshi-oxiri ko'rinmaydi...

Jiyangeldi vaysaganicha suhbat yo‘nalishini boshqa tomonga burib yuborishi aniq bo‘lgach, Qora sartib uni darhol to‘g‘ri yo‘lga burdi.

— Chopar qanday xabar olib kelibdi?

— Choparmi? — bu gal Jiyangeldi bir qoshiq qonining kechirishini so‘ramasdan javob qaytardi.— Choparning ismi Muhammadomon. Muhammad degani Muhammad payg‘ambar bo‘ladi. Omon esa omon bo‘lsin deyilgani. Turkmanlarning ismi ana shunday, boshdan oyoq juft-juft, qo‘sha-qo‘sha bo‘ladi.

— Menga uning nomi kerak emas, qarindosh! — Fig‘oni chiqqan Qora sartib darrov Jiyangeldi bilan qarindoshlikka ham kirishib oldi. — Nurberdixondan qanaqa xabarlar bor?

— Nurberdixondan xabar yo‘q. Lekin Yalqob sardorning ikki yuz otliq navkari bilan Tajan daryosidan biz tomonga o‘tganini bilaman...

— Yalqob sardor deganing kim u?

— Yalqob sardori deyilgan Bomi takalarining bosh botiri...

— Tushunarli. Yana nima gaplar bor?

— Boshqa gap-so‘z yo‘q desa ham bo‘ladi. Ha, aytgancha, Nafas shoir odamlarga g‘azal o‘qib beryapti.

Kerakli ma’lumotlarni oldim deb o‘ylagan Qora sartib asirning orqasiga bog‘langan qo‘llarini bo‘shatishga buyruq berdi.

—Hozir endi sening qanday xohishing bor, Jiyangeldi?

—Hozirmi? — deb asir terisiga ip qattiq botgan qo‘llarini uqalar ekan. — Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, aytaman.

Qora sartibning qoshlari uyuldi.

— Kechdim.

— Yig‘ib qo‘ygan o‘tlarimni mollarimga eltishni istayman.

— Urush bo‘layotgan sharoitda mol, xashak to‘g‘risida o‘ylash shartmikin?

Jiyangeldi yuzlarini burishtirdi.

— Daryoning narigi tomonida bitta ahmoq xon, bu tomonida bitta ahmoq xon urushsa-yu, shularni deb mening mollarim och qolsinmi? Ular urushsalar urushaversinlar. Bir-birlarining ko‘zlarini cho‘qiyversinlar. Menga nima?

— Sen nima uchun narigi xon ham, bu xon ham ahmoq deb o'ylaysan, Jiyangeldi? Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, aytganingizni bajaraman, janob. Daryoning orqasidagi xonning aqli bor bo'lsa, daryoning bu yog'idagi xonning ham aqli bor bo'lsa, urush bo'lmasdi, axir. Aqlli, esli, hushli insonlar urushmaydilar. Mana men, hech qachon, hech kim bilan urushmayman. Chunki ahmoq emasman! Men siz bilan ham urushmayman!

Yuz-ko'zi g'alati bu turkmanning gap-so'zlari tuzsiz, ma'nosiz bo'lganligi uchunmi, Qora sartib tevarak-atrofdagilarning hech biri o'ylamagan qarorini e'lon qildi:

— Asirni ozod qilinglar, ketaversin!

Shunday deb Qora sartib turkmanni masxaralab tirjaydi.

— Jiyangeldining mollari och qolibdi. Uni qo'yvoringlar!

Qo'li yechilib, o'zi ozod bo'lsa-da, asir hayajonlanmadi. Aksincha, u chin ko'ngildan Qora sartibning yuziga tik qaradi-da, oxirgi iltimosini aytdi:

— Mening o'rog'imni endi qay biring to'lashni bo'yningizga olasizlar?

— Qanaqa o'roq ekan?! — Bu safar asirni ushlab kelgan qorni dumaloq pakana qojor gapga kirdi. — Biz seni tutganimizda qo'lingda o'roq yo'q edi-ku, axir. Tuhmat balosidan Ollohim o'zing saqlagaysan!

— Xashak, o't yig'ib yurganimda o'rog'imni qo'limdan olmadingmi? Nega yolg'on so'zlayapsan?

Qayerda turganini esidan chiqargan yoki sharoitga fahmi hamon yetmayotgan Jiyangeldi qorni dumaloq qojorga qarab do'q-po'pisa qildi.

— Nima, seningcha, o'roq degani har qadamda topiladigan narsami? Ollohning bandasi qo'lidagi o'rog'ini zo'rlab olib suvga tashlagan odam, uni to'lashi kerak! Bu dunyoda qaytarmasang, u dunyoda qaytarasan, ey pakana! Do'zax bor, pulsirot degani bor, axir.

Asirni kuzatib, uning so'zlarini tinglagan Blokvil, nima bo'lganda-da, Jiyangeldi o'zini ovsarlikka solib, barchaning ustidan kulayapti, degan xulosaga keldi.

Asirning gap-so'zi joniga tekkan Qora sartib bundan ortig'iga chiday olmasligini bildirib, qo'lini silkidi.

— Tulkining ovi ham kerak emas, hidi ham!.. Tezroq yo'qol!

Blokvil Qora sartib aytgan maqolning ma'nosiga yeta olmadi.

Bu orada Jiyangeldini daryo tomonga kuzatib qo'yishdi.

29

Aleksandr Nevskiy, Qo'vshutxon singari eng ulkan ikkita urushda g'olib chiqqan sarkardalar tarixda siyrakdir...

Qurbon Vahimiy

1860-yilda Qo'vshutxon ibn O'rozdurdi sardor[1] qirq bir yoshga qadam qo'ygan edi. Quvsho'txonning tug'ilgan va vafot etgan vaqti aniq emas. Oqsoqol turkman yozuvchilaridan B. , . , . , . , 1819 , 1878 . , 1819 , 1877 ( ).. Uning keksa padari buzrukvori doimo: ishonmagin molingga, maymun bordir yo'lingda, degan gapni qaytarar ekan. Shu sababli Qo'vshutxon maymun yilidan xavfsirab yashagan. O'sha yil kelganda yurtda yoki shaxsiy hayotida qandaydir bir noxushlik bo'lsa kerak, deb ikkilanar ekan. Biroq shu paytgacha maymun yili boshqa yillardan farq qilmagan, omon-eson o'rnini boshqa yilga bo'shatib bergan.

Qirq yosh inson uchun navqiron yosh bo'lib, bu vaqtda uning aqli to'lishgan, har qadamini o'ylab bosadigan davri hisoblanadi. Biroq son bo'yicha o'zinikidan bir necha barobar ortiq bo'lgan yog'iy kuchini yengmoq uchun faqat aql-farosatning o'zigina yetarli emas. Yog'iyning qora kuchi aql-farosatdan emas, o'ziga bas keladigan ko'p sonli kuchdangina orqaga chekinishi mumkin. Bundan tashqari, g'alabadan umidvor bo'lish uchun dushmanning o'z ichidan ham tarafdor topish kerak edi.

Qo'vshutxon bundan besh yil oldin bo'lib o'tgan Saraxs to'qnashuvida ham juda xavotir olgan edi. Biroq u vaqtda Muhammad Amin qo'shini safida sakkiz ming nafar yovmut turkmanlari-

[1] Qo'vshutxonning ushbu to'liq nomi uning muhriga ham yozilgan edi.

ga bosh bo'lgan sarkarda Omonniyoz sardor bor edi. Omonniyoz sardor Qo'vshutxon maslahati bilan o'z yigitlarini go'yo yengildi hisoblab, jang maydonidan qochgan, bu bilan Muhammad Amin qo'shinining jangovar ruhini tushirib, asosiy kuchning belini sindirgan edi. Biroq bugun qojor qo'shinlari ichida Omonniyoz yovmutning tadbirkorligini takrorlaydigan, bu ishga bosh qo'shadigan birorta harbiy rahbar yo'q.

Qo'vshutxonga yetib kelgan ma'lumotlarga ko'ra, Marvga hujum qilayotgan yog'iy qo'shini ichida, hatto, hozir xurosonlik turkman qabilalari — hazratlar, tumorlarning ham hech biri qatnashmayotgandi. Ular Marv yurishida ishtirok qilishdan mutlaqo voz kechishgan. Shuning uchun bu safar Qo'vshutxonning oldida faqat bir yo'l qolgan — bu ham bo'lsa, oz kuch bilan ulkan kuchni yengish! Bunday g'alabani orzu qilish oson-u, ammo amalga oshirish mushkul. G'alaba orzusining xayoliy lazzati-yu haqiqiy ahvolning jabr-sitamlari orasida qattiq siqilgan Qo'vshutxon endi bo'lajak harakatlarini hisob-kitob qilib ko'rdi. Uning ko'z o'ngida tug'ilgan yurti Axal, bolalik yillari o'tgan Etrek qal'asi, kindik qoni tomgan qishlog'i, navqiron yigitligi o'tgan Saraxs shahri birin-ketin jonlana boshladi. Yaxshi kunlari esga tushganda chiroyi ochildi, yomon kunlarni eslaganda esa qoshlari uyuldi.

Bir payt u: astag'firulloh! — dedi-yu, o'zi bilan o'zi gaplasha boshladi. Inson degan bandayi mo'min o'limidan oldin bolaligini esga olar emish, o'tmishini ko'z o'ngiga keltirar emish deyishar edi, balki bugun men ham...

Darhaqiqat, bu kunlar Qo'vshutxon umrining oxirgi muddati bo'lib qolishi ehtimoldan xoli emas. Zero, sharoit ham shunga tomon yetaklamoqda. ...Sen dunyodan o'tganing bilan turkman qavmi dunyodan izsiz yo'qolmaydi. Begunoh bola-chaqalar umri uzoq bo'ladi, inshoolloh...

Shu kunlarda qojorlarning turkman tuprog'iga eng dahshatli hujumi yuz berishini Qo'vshutxon ichki bir tuyg'u bilan sezmoqda. Bugun xonning ham, butun taka urug'ining ham orzu-istaklari ushalib g'alabaga umid uyg'onishi yoki qismati noma'qul ro'y berib, g'am-hasrat olamiga tushib qolishlari mumkin. Chunki turkmanlarni shu holatga tushiradigan yog'iyning yigirma to'rt dona

sariq to‘pi Murg‘ob daryosining chap qirg‘og‘idan o‘ng qirg‘oqqa olib o‘tilajak, hozir ular takalar ustiga ajal urug‘ini sochish uchun buyruq kutmoqda edi.

Qo‘vshutxonning asosiy maqsadi — yog‘iy bilan oraliqdagi bosh chegara bo‘lgan Murg‘ob daryosining o‘ng qirg‘og‘ini eronliklarga bermaslik. U to‘p o‘qlarining ushbu chegarani buzmasligiga chora topolmasa-da, Eron sarbozlarining daryodan o‘tishlariga qarshi kuch topa olaman deb o‘ylardi. Shu maqsad asosida uch katta guruhga bo‘lingan taka kuchlarining ulkan qismi daryo qirg‘og‘iga yaqin yerda joylashtirilgandi.

Ulug‘ xon kengashchilari va tansoqchilari bilan sarbozlarning jangovar holatini ko‘rib chiqdi. Xiva xonidan o‘lja olingan ikki dona sariq to‘p turgan joygacha borishdi. Qo‘vshutxon bu to‘plarni har kuni bir marta shaxsan o‘z ko‘zi bilan ko‘rib tekshirmasa, ko‘ngli joyiga tushmasdi.

Xiva xonidan qolgan bir juft to‘p Qo‘vshutxonning maxsus ko‘rsatmasi bilan bunyod etilgan uzun qum tepalikning ustiga o‘rnatilgan edi. Ushbu sun’iy tepalikning balandligi besh-olti qulochga teng edi.

Ikki to‘pning ham saqlanishiga boshi bilan javob beradigan mas’ul — bu Chebshek botir Qurbonmengli o‘g‘li. Uning yonida to‘p otish usulini maxsus o‘rgangan zehni o‘tkir yigitlardan o‘ttizga yaqini bor. Qojorlardan esa faqat ikki to‘p emas, xarvor-xarvor[1] dori, to‘p o‘qlari ham o‘lja tushdi. Bu to‘plar va o‘q-dorilar bebaho axaltaka otlari singari ko‘z qarochig‘iday qo‘riqlanmoqda edi.

Qo‘vshutxon sariq to‘plar turgan tepalikka hali yetib ulgurmayoq, shosha-pisha, tez-tez yurib kelayotgan yigit tansoqchilardan o‘ta olmasligiga ko‘zi yetgach, ularga yaqin joyda to‘xtadi-da, baland ovoz bilan:

—Xon og‘a, to‘qqiz nafar qojorni qo‘lga tushirdik! — deb qichqirdi.

Bu xabarni eshitgan ulug‘ xon tansoqchilarga qarab qo‘lini silkidi:

---

[1] **Xarvor** — bir eshak ko‘tara oladigan yuk, taxminan 300—350 kg *(muallif izohi)*.

— Yigitni o'tkazib yuboringlar!

Xon yoniga borishga ruxsat berilgan bo'lsa-da, xabar keltirgan yigit besh-olti qadam oraliqda to'xtadi. Qo'lga tushganlar Qojor to'plarini orqaga qaytarib kelinglar, degan buyruqni bajarish uchun kelgan sarbozlarning bir qismi ekanligi, ular o'zlarining qanday maqsad bilan kelganini bo'yniga olganligini yigit ulug' xonga bildirdi.

— Qo'lga tushgan eronliklarning yetakchisini o'zimiz bilan bu yoqqa keltirdik! — dedi yigit orqa tomonga ishora qilarkan.

Xon o'sha tomonga qarab:

— Asirdan so'ra-chi, oralarida to'pchi bor ekanmi?

Qo'vshutxonning savoli forschalab sarbozga, uning javobi turkmanchalab ulug' xonga yetkazildi.

Qo'lga olinganlarning orasida uch nafar to'pchi bor ekan.

Qanoatlangan Qo'vshutxon:

— Juda yaxshi! — dedi. — Xudoyim deganga Xudoning o'zi yetkazar ekan!.. Chebshek botirni bu yerga chaqiringlar!

Chebshek botir yetib keldi.

— Ahvoling qalay, botir?

— Hammasi kecha ko'rganingizday, xon og'a, tayin! Zarur deb topgan fursat kelsa gumburlataveramiz!

Xonning yuzi jiddiylashdi.

— Chebshek botir! Menga shirin yolg'ondan achchiq haqiqat kerak. Ko'ngilga shunchaki taskin beradigan gaplarni chekkaga uloqtir... Yigitlar senga yordamchi olib kelishibdi. Seni shuning uchun bu yerga chaqirdim.

— U qanaqa yordamchi ekan, xon og'a?

— Huv anavi baquvvat qojorni ko'ryapsanmi? O'sha sarboz to'pchi ekan. Yana uning ikkita sherigi ham to'pchi emish. Sen ularning sir-asrorlarini tekshirib ko'r-da, yana bir bor o'z tayyorgarligingni ham ko'zdan kechirib qo'y. Ish marra-marraga kelganda voh deb tizzangga urib turma.

— Fahmladim, xon og'a!

Chebshek botir asir olingan eronliklar tomon jo'nadi.

Qojor to'plarining Xiva xoni to'plaridan tafovuti yo'q edi. Shunga qaramay hushyorlikni qo'ldan berishni istamagan Qo'v-

shutxon ularni qojor to'pchilari qo'llari bilan ham tekshirib ko'rmoqchi edi...

Qorayopga qochqin bo'lib kelgan Marv xalqining barchasi qal'aning ichida emasdi. Chunki qal'ada ularning hammasiga joy ham yetmasdi. Joy bo'lgan taqdirda ham odamlarning asosiy qismini qal'ada yig'ish fikriga butunlay qarshi bo'lgan Qo'vshutxon bunga aslo yo'l bermasdi. Zotan, ulug' xon ko'rsatmasiga muvofiq qariyalar, bola-chaqa, jangda yordami tegmaydigan xotin-qizlar Qorayopdan uzoqqa, dushman oyog'i yetmaydigan Qoraqumning yetti barxanidan nariga jo'natilgan edi. Ularni qo'riqlash, ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun maxsus kishilar tayinlangan edi.

Shu tariqa ichkarida ham, tashqarida ham yog'iyga qarshi kurasha oladigan takalar qolgan Tangriberdibek qal'asi butunlay harbiy qo'rg'onga aylantirildi.

Barcha jangovar chiniqishlar, hamma tayyorgarlikni oz hisoblagan Qo'vshutxonning buyrug'i bilan hali qojorlar Qorayopga kelmasidanoq qal'aning atrofiga hovuz qazildi. Minglarcha odamning kecha-kunduz qo'lda belkurak bilan ishlashi natijasida qazilgan hovuzning chuqurligi odam bo'yicha, eni esa o'n qadamdan iborat edi. Qum va tuprog'i qal'a devori tomon chiqarilgan hovuz ikki kun oldin suv bilan to'ldirildi.

Dushman o'z hujumini shu kun ichida amalga oshirsa kerak, deb taxmin qilindi. Shu sababli erta tongdan oyoqqa qalqigan takalar bir necha yuz metr uzunlikdagi hovuz suviga somon sepishni boshlagan edilar.

... To'pchi yigitlar yonida Omonsaxat sardor ham bor ekan. Aylanib kelish sardorga maxsus topshiriq qilib topshirilmagan bo'lsada, uning bu yerda ekanligini ko'rgan Qo'vshutxon nihoyatda xursand bo'ldi.

Hol-ahvol so'rashilgandan keyin, shunday qilgani uchun kuchi yanada ortadiganday, ulug' xon sariq to'plarning zirhini kafti bilan siypalab chiqdi. Og'ir xayolga cho'mdi. Uning bir nuqtaga tikilgancha jim bo'lib qolganidan tashvishlangan Omonsaxat sardor:

— Xayol otiga minib qoldingizmi, xon og'a? — dedi.

Xon javobga shoshilmadi. Uzoq fikr qilgach:

— To‘g‘ri aytdingiz, sardor! — dedi boshini qimirlatib. — Och tovuq tushida ham don ko‘rib chiqar emish...

— Bu bilan nima demoqchisiz? — deb xonning ko‘nglida nima xayol borligini bilishni istagan sardor unga savol nazari bilan qaradi. — U dondan biz ham tatiylik!

— E, bu tushga kirsa-da, og‘zingizga kiradigan don emas, sardor. O‘tmishni bir esga oldim-da...

— Masalan? — Omonsaxat sardor qo‘llarini bir-biriga ishqaladi.

— Hali Nodirshoh taxtga chiqmasdan oldin Marvda ikkita to‘pxona bo‘lgan ekan, sardor. To‘p yasaydiganlar pista yog‘ochini, daraxtining shoxlarini yoqib, mis eritishgan. To‘pga o‘xshash va tuyaning xo‘vudiga[1] bog‘lab otiladigan o‘ziga xos yarog‘ni eskilar yasashgan. Nomini ham sopbo‘zan deb atashgan. Kichkina to‘p bo‘lgan-da...

— Hozir ham o‘sha sopbo‘zandan bo‘lsa edi, deb fikr qilyapsizmi?

Ulug‘ xonning yuzi qizarib ketdi.

— To‘g‘risini aytsam, hozir o‘sha quroldan ham o‘n dona bo‘lsa edi deb orzu qilgandim, sardor.

— Afsuslanmang, xon og‘a! Olloh bizni qo‘llasa, borimiz bilan bozor qilaveramiz!..

To‘plarning yonidan qaytgan Qo‘vshutxonning yo‘li qal’aning janubiy qanoti tomonida ishlab yurgan somonchilarning yonidan o‘tdi. Qop-qop keltirilib turgan somonni panshaxa bilan suv ustiga sepib yurgan yoshulli qariya qo‘lidagi qurolini yerga sanchdi-da, xon bilan salomlashdi.

— Takaning molini bu yil qish g‘amidan mahrum qilding-ku, xon o‘g‘lim, — deb qariya kulumsiradi.

Qo‘vshutxon ham unga jilmayib javob berdi.

— Takaning joni omon bo‘lsa, moli uchun qishki yem-xashagini, albatta, topadi, og‘am! Turkmanning cho‘li kengdir. Olloh o‘zimizni omon qo‘ysa, molimiz ham omon qoladi.

— G‘arq bo‘layotgan xashakka yopishar qilar ekansan-da, bizni unda? — deb qariya yoshulli siniq ovozda gapirdi.

---

[1] **Xo‘vud** — to‘p yuklash uchun yasalgan g‘ildirakli moslama.

Uning bu so‘zi xonga yoqmadi. Ulug‘ xonning yuzi darhol jiddiylashdi.

— Yo‘q, og‘am, turkman xashakka yopishmaydi. Ishni somon tagidan suv yuborganday qiladi.

— Bu gaping rost so‘z bo‘ldi, xon o‘g‘lim, — deb yoshulli boshini qimirlatdi. — Somon tagidan suv yuborilsa, kami qolmaydi...

Shu payt kutilmaganda yuz bergan bir voqea odamlarning diqqatini o‘ziga tortdi. Dunyo tashvishini, odamlarning gap-so‘zlarini sezishdan mahrum bir hangi eshak o‘zining harom nafsini qondirish maqsadida daryo tarafdan oldiga urg‘ochi eshakni solib qal’a tomonga quvlab kela boshladi.

Qochib kelayotgan eshak xuddi Qo‘vshutxonlar turgan joyga, hovuz chekkasiga yetdi-da, yo oldida yuzi somonli, tagi suvli hovuzning borligini sezmadi, yo sezsa-da, o‘zini yonboshga ololmay, xullas, somonli suvga ag‘darilib ketdi. Uni quvalab kelgan eshak esa o‘zining harakatini to‘xtata oldi. U yonboshga o‘tdi-da, tumshug‘ini osmonga qaratgancha, keng maydonga chopqilab ketdi.

— Hay, tushmagur! — deb Qo‘vshutxonning yonida turgan qariya boshini qimirlatdi. — Eplay olmading-ov!

— O‘zingiz o‘shaning o‘rnida bo‘lsangiz, nima qilardingiz? — deb Qo‘vshutxon qariyaga bu vaqt mutlaqo kutilmagan savolni berdi. — Izingizga qaytarmidingiz yoki: yo suv, yo somon, deb sakrarmidingiz?

— Ey, xon o‘g‘lim, o‘zim ham o‘sha hangi eshakdayman-da! — deb to‘g‘risini aytgan yoshulli astoydil xaxolab kulib yubordi.

Suvga yiqilgan eshak goh cho‘mib, goh chiqib, hovuzning bu qirg‘og‘iga yetdi. Biroq tikka qirg‘oqqa tirmasha olmadi. Qancha o‘jarona harakat qilmasin, natija chiqara olmay suvga qayta dumalayverdi.

Quloqlari, bo‘yni, boshi nam somonga bulg‘anib, qattiq ezilgan sichqonga o‘xshab qolgan eshak urush tashvishlari bilan qoshlari uyilgan, qovoqlari solingan odamlarning birvarakay qahqahasiga sababchi bo‘ldi. Jo‘shqinli yigitlar tekin hangomaga tomoshabin bo‘lib, shovqin-suron solib kula boshlashdi. Nihoyat eshak bo‘yniga halqasimon ip ildirdilar va uni birgalashib suvdan qirg‘oqqa

chiqarishdi. Butun tani-badani somon va suyuq loy ilashgan hamda suv sirqib turgan eshak birmuncha vaqt tomoshabop maymunday jim turdi.

Xalq qatorida kulgiga qo'shilgan Qo'vshutxon gapirmay tura olmadi.

— Somon tagidan yuborilgan suv qanaqa bo'lishini ko'rdingizlar-a?! Maza qildingizlarmi?

Xonning yonidagi yoshulli soqolini siypaladi.

— Balki, qojorlarga ham shunday maza berar?!

— Ilohim, farishtalar omin desin! — deb xon o'z yo'liga yurmoqchi bo'lgandi, yoshulli unga dedi:

— Boyagi hayvondan ko'rdikki, niyatimiz hosil bo'ladiganga o'xshaydi. Odamdan amal-tadbir qochib qutulmaydi, deyishardi, rost chiqdi-yov, xon o'g'lim.

Qo'vshutxon:

— Ollohning ishi ham shaytonsiz bitmagan, og'am, — dedi.

Uzoqlasha boshlagan xon ko'rmasa-da, yoshulli uning fikrini ma'qullab boshini qimirlatib qoldi.

— Ha, shunday. Shaytonni uning makr-hiylasidan foydalanish uchun yaratishgan. Boshqa nimaga ham yaratish mumkin...

Qal'a ichiga kirgan Qo'vshutxon bir narsalarni bolg'alaganday taraqa-turuq ovoz chiqqan tomonga yura boshladi. Yaqin borgan xon bir guruh qo'li bolg'ali odamlarning o'z ishlari bilan qattiq band ekanligiga guvoh bo'ldi. Erkaklarning yonida ayollar ham bor. Ahvol mushkulligi ma'lum edi. Ustalar, qo'li bolg'ali temirchilar qurolsizlarni yarog'lantirmoqda. Ular yasaydigan qurolning nimalardan iboratligi xonga oldindan ma'lum — qo'y junini oladigan maxsus qaychi, gilamdo'zlikda ishlatiladigan pichoq, uchi o'tkir temir panshaxa. Xullas, qattiq urganda qon chiqadigan qurollar.

Bir ustaning yonidan o'tayotganda Qo'vshutxon to'xtashga majbur bo'ldi. Usta turmushga chiqmagan yosh qizlarga atab yasalgan do'ppisimon ko'rinishli kumush bosh kiyimdan nayza tayyorlayotgan edi. Uning oldida yuz-ko'zi jiddiy, qovog'i soliq yosh kelin turardi. Qo'vshutxon kumushsimon bosh kiyimni shu kelinchak olib kelgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Yana bir necha

daqiqalardan keyin bosh kiyimning nimaga aylanishini ko‘z oldiga keltirgan xonning yuragi orziqib ketdi. Uchi o‘tkir kumush oddiy tayoqqa o‘rnatilgandan so‘ng nayzasimon yaroqqa aylanardi.

Buni ko‘rgan Qo‘vshutxonning: “To‘xtang, usta”, deb yuborishiga sal qoldi. Ammo yurak amrini aql to‘xtatdi. Ha, oldin qora soch ustida turgan qiz-juvonlar taqinchog‘i — bugun o‘sha chiroyli qora sochli boshlarni o‘limdan olib qolishda qurol bo‘lib dushman ko‘ksiga sanchilajak!

Shularni o‘ylagan Qo‘vshutxon taqinchoqni qurolga aylantirayotgan ustaning ham, taqinchog‘iga qarab yuragi og‘rinayotgan kelinning ham yonidan nafasini chiqarmay o‘tib ketdi. Qadam tashlar ekan, ulug‘ xon o‘zining yoshligini ko‘z oldiga keltirdi. Taqinchog‘ini urush quroliga aylantirgan yosh kelin hozir uni taqib yurgan baxtli kunlarini o‘ylayotgan bo‘lsa ham, ajab emas...

Oldinda yana bir guruh ayollar va o‘n uch-o‘n to‘rt yashar o‘smirlar to‘dasi ko‘rindi. Ularning barchalari qo‘lida yupqa doka ushlab olishgan edi. Ular, Kalxon kapala tili bilan aytganda, chang-to‘zonchilar deb atalardi. Chang-to‘zonchilar yupqa doka bilan yuz-ko‘zlarini o‘rab, dushman hujum qilganda ularning oldida chang-to‘zon turg‘izishlari kerak edi. Bu — Qo‘vshutxonning oldin bo‘lib o‘tgan janglarda sinalgan hiylasi: jadal chopib kelayotgan otlar chang-to‘zonga kirgach, oyoqlarini qayerga, qanday bosishlarini bilmay, karaxt bo‘lib, bir-birlarini urib-bosib ketishlari uchun...

O‘sha yerda Qo‘vshutxon Panjiboy bilan to‘qnash keldi. Boy ulug‘ xonning salomini javobsiz qoldirmadi. Biroq salomga oldingiday alik olmaganligi boyning tovushidan sezildi. U yoshining ancha ulug‘ligiga qaramay hol-ahvol so‘rashishni nasiya qilib, o‘z yo‘liga yurmoqchi bo‘lganida xonning o‘zi undan yana ahvol so‘radi.

— Boy og‘a, qattiq charchagan ko‘rinasiz? Tinchlikmi o‘zi?..

Panjiboy to‘xtashga to‘xtadi-yu, xonning yuziga qaramay so‘z boshladi:

— Shu mahalda tinch yotgan takani topib bo‘larkanmi?!

Qo‘vshutxon savolining o‘rinsiz bo‘lganini tushunsa-da, qulay fursatdan foydalanib qolmoqchi bo‘ldi:

— O‘ngdan-chapdan kelgan gap-so‘zning hiylasiga aldanib, o‘sha kuni sizni sal ranjitganday bo‘ldim, boy og‘a?

— Shuni tan olganingiz ham mardlik, ulug‘ xon. Hechdan ko‘ra kech yaxshi degan naql bor.

— Men-ku, gunohimni bo‘ynimga oldim, endi siz ham o‘sha gunohni kechsangiz bo‘lardi, boy og‘a?

Panjiboydan ko‘p vaqt sado chiqmadi. Nihoyat, suhbatdoshining yuziga qarashni yana xohlamaganday yonboshga qarab gapirdi.

— Yurt boshlig‘i bo‘lgan odam o‘ngdan-chapdan kelgan gap-so‘zni esib o‘tayotgan shamol deb qabul qilishi kerak emasmi, ulug‘ xon?

— U gal bir shunday bo‘ldi, — deb Qo‘vshutxon aytmoqchi bo‘lgan fikrini topolmayotganday chaynaldi. — Ha demasdan ham otga chiqish mumkin, boy og‘a. Bu ham bir qismat... Endi sizdan xafa bo‘lib ketsam, yoki siz mendan rozi bo‘lmasangiz, yaxshi bo‘lmaydi-da, boy og‘a.

Shu paytgacha bir qancha bahs-munozaralarda qatnashib kelgan Panjiboyni xonning so‘nggi so‘zlari o‘yga toldirdi. Otga minganda sog‘ minib, orqasiga qaytarib keltirilgan yigitlar uning ko‘z oldida jonlandi. Ana shu ham boyning yuragi bo‘shashmog‘iga sabab bo‘ldi.

— Bir gunohdan er kishi o‘lmas, ulug‘ xon! Ishlaringizda rivoj bo‘lsin! Harna Olloh barchamizni, xususan, takaga bosh xon bo‘lgan sizni panohida asrasin!

Qo‘vshutxonning ruhida yengillik paydo bo‘ldi.

Qal’aning o‘rtasidagi tepalikning ustida turgan o‘n-o‘n ikki nafar yoshulli takalar atrofiga minglarcha odam jamlangandi. Mullalar, botirlar, oqsoqollar navbatma-navbat tepalikka chiqib, dilida borini to‘kib solishar, Ollohga hamd-u sanolar aytishar, yigitlarni ota Vatan, ona yurt tuprog‘ini qo‘riqlashga chorlashardi.

Qo‘vshutxon tepalikka yaqinlashganda, kimdir she’r o‘qimoqda edi:

... Qojorbekdek, Durdi xondek polvonlar,
Sizlarga zo‘r doston yozgandir ko‘nglim!

Bu satrlarni o‘qiyotgan yoqimli ovoz shoir Mullanafasga tegishli edi.

Qo‘vshutxon tepalikka chiqmoqchi bo‘lganida, uning yonida Chebshek botir paydo bo‘ldi.

— Xon og‘a, buyurganingizni bajardik, — deb u xonga axborot bera boshladi. — Qojor to‘plarining maxfiy siri yo‘q ekan. O‘sha o‘zimiz bilganday oddiy to‘p ekan. Ammo to‘pchi asirlarning aytishiga ko‘ra, bugun peshindan so‘ng yoki erta tong bilan eronliklar hujumga o‘tishar emish...

Qo‘vshutxon:

— Mening taxminim ham shunday edi, — deganicha tepalikka chiqa boshladi.

Tepalikdagilar bosh xon kelishi bilan unga hurmat saqlab, bir tomonga surildilar. Qo‘vshutxon oldin Tojko‘k sardor, keyin Abdulla eshon bilan allanimalar to‘g‘risida pichirlashib oldi. Shundan keyin boshdan oyoq oppoq kiyingan Eson oxunning yoniga bordi.

Xonning keyingi harakati Abdulla eshonga yoqmadi, shekilli, uning yuzlarida o‘zgarish paydo bo‘ldi.

Saidmuhammad eshon dunyodan o‘tgach, mulla-muftiylar ichida Qo‘vshutxonga eng yaqini Abdulla eshon bo‘lib qolgandi. Katta yig‘ilishlarda, oqsoqollarning dolzarb masalalarni yechadigan maslahatlarida Abdulla eshon hamisha bosh xonning yonboshida o‘tirardi. Biroq Muhammad Amin bilan bo‘lib o‘tgan urushdan keyin Eson oxunning Xiva turkmanlari orasidan qaytib, takalar ichida o‘rnashib qolganligi Abdulla eshonga ma’qul kelmadi. Ikki nafar diniy va dunyoviy bilimlar bo‘yicha mohir ustoz bo‘lgan bu odamlar orasida ko‘zga ko‘rinib turguday ziddiyat bo‘lmasa-da, Eson oxun paydo bo‘lgan joyda Abdulla eshonning yuz-ko‘zi o‘zgarib ketaverardi.

Bunday holatning aniq sababi noma’lum bo‘lsa-da, oxunning tarafdorlari buning sirini Eson oxunning bilim darajasi Abdulla eshonnikidan biroz baland bo‘lganligida, deb bilardilar.

Abdulla eshon tarafdorlari esa, bu ziddiyatni Eson oxun Muhammad Aminxon qaramog‘ida yashaganida, unga yordam berganligi bilan bog‘lashardi. Ayrim tili botirlar: Eson oxun Xivaning

Marvga maxsus jo‘natilgan xabarchisi, degan ma’lumotni ham tarqatishgan.

Nima bo‘lganda ham, Qo‘vshutxon Eson oxun va Abdulla eshon ikkalasiga ham bab-baravar munosabatda edi. Har ikkalasining hurmatini el-yurt oldida baland tutardi. Shunday bo‘lsa-da, Abdulla eshonning nafasi — bilim darajasi yuqori bo‘lgan Eson oxundan pastroq ekanligini xon nazarga olganga o‘xshardi. Chunki xon Qur’on tilovatida ilk navbatni Eson oxunga berardi.

Eson oxun va Abdulla eshon Qo‘vshutxonga jamoa oldida so‘zlashga ijozat berganliklarini imo-ishora bilan bildirishdi. Qo‘vshutxon faqat shundan keyin turgan joyidan sal oldinga siljidi. Xon oldinga siljigani bilan so‘z boshlashga ulgurmadi. Pastda odamlarga belbog‘lik tarqatib yurgan usta Bozirganning tepalikka yaqinlashganini ko‘rgan Qo‘vshutxon:

— Usta Bozirgan, bizning ham sarupo ulushimizni bermaysizmi? — deb yuqoridan hayqirdi.

Oqimtir rangli ipak ro‘mol to‘la tugunni qo‘ltiqlagan usta Bozirgan tepalik ustida hozir bo‘ldi.

— Belbog‘dan yuz o‘girgan bormi? — deya Qo‘vshutxon unga yana savol berdi.

— Yuz-ko‘zi, qo‘l-oyog‘i sog‘ odamlar ichida hozirgacha ro‘moldan yuz o‘girganga duch kelmadik!

Birinchi navbatda, urushga kiradigan takalar bellariga o‘sha belbog‘ni bog‘lashlari kerak edi. Ulashilgan belbog‘larning barchasi bir xil rangda. Bu usul dushman bilan jangda aralash-quralash bo‘lib ketganda yoki yuzma-yuz qilichbozlikka kirishganda o‘zingnikilarni dushmandan farq qilish uchun ishlatilardi.

Usta Bozirgan ipak belbog‘larning birini xonning qo‘liga tutqazdi.

— Qilichingiz keskir bo‘lsin, ey ulug‘ xon!

Usta Bozirgan tepalik ustida turgan odamlarning bir nechasiga belbog‘ ulashdi. Qo‘vshutxondan so‘ng belbog‘ Mullanafasga ham yetdi. Eng oxirgi belbog‘ni usta Bozirgan o‘z beliga bog‘ladi.

Chap qo‘lida belbog‘ tutgan Qo‘vshutxon quyi egildi-da, o‘ng qo‘li bilan yerdan bir siqim tuproq oldi. U tuproq tutgan qo‘lini baland ko‘tarib jamoaga qaradi.

— Hurmatli jamoa! Aziz el-yurtim odamlari! Nasriddinshoh navkarlari mana shu ona tuprog'imizni qo'limizdan tortib olmoq uchun bizning ustimizga to'p sudrab keldi. Kimda-kim shu tuproqni qo'limizdan chiqishini istamasa, qilichga yopishsin! Kimda-kim ota yurtini yetim qo'yishni istamasa, qilichga yopishsin! Vatan deb atalgan tuyg'u— insonning o'zidir, oyog'i tagidagi tuproqdir, insonning or-u nomusidir! Kimda-kim o'zini, tuprog'ini, or-u nomusini, onasini, singlisini, xotin-qizini qo'riqlashni istasa, qilichga yopishsin! Siz meni dushmandan xalos qilmang, Vatanni yog'iydan xalos eting! Kimda-kim mendan gina-kuduratli bo'lsa, hisob-kitobini ertaga qo'ysin. Hech kim Vatandan gina qilishga haqqi yo'q. Vatanga gina saqlovchi — nomard kishidir!

Ey aziz odamlar! Biz birovning tuprog'ini bosqilash uchun otga chiqmayapmiz. Biz inson bolasining boshini olish uchun qilichga yopishmayapmiz. Biz ona tuprog'imizni dushmanga bermaslik uchun otga minyapmiz. Biz bola-chaqamizning boshini omon qoldirish uchun qilichga yopishyapmiz. Taka turkmanlariga xon qilib saylaganingiz men — Qo'vshutxon ibn O'rozdurdi sardor, shu tuproq uchun qora boshimni fido qilaman deb sizlarni ishontiraman. Shu aziz tuproq uchun boshini jon fido qilishga barcha taka bahodirlarining ham tayyor ekanligiga men ishonaman! Mardning joyi— jannat, nomardniki — do'zax bo'lsin! Nomard kishini el-yurt la'natlaydi, bola-chaqa la'natlaydi. Nomardni ona yurt tuprog'ining oh-u faryodi jazolaydi! Mard bo'ling, botirlarim, mardona bo'ling, sarbozlarim!

Xonning jo'shqinli so'zidan keyin ko'p ming kishilik jamoa ham harakatga keldi. Qo'ng'ir rangli belbog'lar odamlarning beliga o'raldi.

Eson oxun Abdulla eshonga qarab, boshi bilan imo qildi. Abdulla eshon ham, o'z navbatida, og'ir kurashda turkman botirlariga Yaratgandan kuch-quvvat tilab, duo qilib, qo'li bilan Omin ishorasini qildi.

Ezgu tilakka qo'shilgan minglarcha qo'llar Abdulla eshonning harakatini takrorladi.

30

Bugun forslar 1500 marta, turkmanlar esa 200 marta to'p otdilar. Men umrim davomida bunday hayot-mamot jangini ko'rmagan edim. Ikki tomondan, hatto, qo'li yarog'siz odamlarning ham mushtlashuvga kirgan fursatlari bo'ldi. Ayovsiz kurash quyosh botguncha davom etdi.

Said Muhammad Ali al-Husayniy
"Marv jangi" asaridan

Forslarning turkmanlar orasidagi josusining xabari to'g'ri bo'lib chiqdi. O'n beshinchi sentabr kuni takalardan elchi keldi. Elchilar guruhiga Safarakxon rahbarlik qilardi. Safarakxon yonida oldin qojorlarda asirlikda bo'lgan bir necha oqsoqol ham bor edi. Muhammad Hasanxon hamda Novvot Hasan al-Sultonlar bilan ilgaridan yaxshi munosabatlarda bo'lib kelgan oqsoqollar ulardan rahm-shafqat umid qilib kelishgan edi. Biroq boshlangan urushning shafqatsiz olovi rahm-shafqat daraxtini tomir-tomirigacha kuydirib tashlagan edi.

Eron tomonining Safarakxonga bergan javobi qisqa bo'ldi. Elchilarni qabul qilgan Hasanxon turkmanlarning va'dalariga aslo ishonmasligini bildirdi. U, agarda takalar Eronning asosiy shartiga to'la rozi bo'lmasalar, Murg'ob daryosini yuqori qismdan bo'g'ib, suvini sahroga oqizishga kirishishini uqtirdi.

Agar bu ish amalga oshsa, chuchuk suvdan mahrum bo'lgan takalar mol-hollari bilan halokatga giriftor bo'lardilar. Shu sababli ular yoki shartga rozi bo'lishlari, bo'lmasa Xiva xonligi tomonga ko'chishga mahkum bo'lardilar. So'nggi shart ham takalarni qanoatlantirmasdi. Oxir-oqibatda, shu narsa ma'lum bo'ldiki, da'voning cho'zilishini bir yo'l — urush yo'li bilangina hal qilish mumkin edi.

1860-yilning 16-sentabr kuni tonggi soat to'rtlarda Eronning ulkan qo'shini olg'a qarab qo'zg'aldi. Qojorlar daryo qirg'og'ini yoqalab takalar qo'rg'oniga yaqinlashib keldilar. Qo'shinning oldingi safi to'xtashi lozim bo'lgan chegaraga yetib keldi. Bu joy Jayrontepaning yonginasi edi.

Qojorlar Jayrontepaga o'rnashib, qo'rg'onni to'p o'qiga tutishlari kerak edi. Shu bilan urush ham nihoyasiga yetishi kutilayotgandi.

Eron qo'shinlarining sariq to'plarining qudrati turkmanlarni yer bilan yakson etisi kerak edi. Yoki bo'lmasa, osmondan yog'dirilgan, ko'z ko'rib-quloq eshitmagan dahshatli to'p o'qlarining portlashlaridan so'ng, agar tirik qolsa, Qo'vshutxonning shaxsan o'zi taka oqsoqollari bilan Eron davlati qo'ygan barcha shartlarga ko'nib, ta'zim bilan kelishi shart edi.

Uchinchi yo'l yo'q edi.

Sariq to'plar goh ketma-ket, goh hammasi birdaniga na'ra torta boshladi. Tevarak-atrof tog' darasiga aylanib, o'sha daradagi hamma yo'lbarslar o'kirayotganday ovoz olamni bosib ketdi. To'plarning og'zidan chiqib, osmonga ko'tarilgan qora tutun tog' qoyalarigacha qoplab oldi. Yo'lbarslar o'kirig'i qoyalarga urilib, qo'rqinchli aks sado bera boshladi. Yorug' olamdagi tirik jonzotlarning hammasi och yo'lbarslarning o'tkir tishlari ostida parchalanayotganga o'xshardi. To'p og'zidan chiqqan qora tutundan ko'zi achishgan to'pchilarning qorachig'i yoshga to'ldi, quloqlari tom bitib, hech narsa eshitmaydigan holga keldi. To'p dahshati ikki soatcha davom etdi. Daryoning narigi tomonidan to'xtovsiz chang-to'zon ko'tarilar, buyruq, da'vat va baqiriq-chaqiriq saslari chang-to'zondan ham, to'p ovozlaridan ham baland edi.

Ko'zini achchiq tutundan, qulog'ini, miyasini qaqshatqich qaldiroqdan, bu tovushlar ichida yangragan "Yo, Ali!" degan ingichka-yo'g'on ovozlardan o'zini saqlashga harakat qilgan Blokvil qovoqlarini bir amallab ochdi. Ochdi-yu, oldinda tog'day tutun bosgan qorong'ilikni, qorong'ilik ichida Mashhaddan Marvgacha o'tgan qirq besh kunlik yo'l davomida har kuni kutgan xavfli jangga shu bugun, xuddi hozirning o'zida duch kelganligini angladi. Hozir xayolida, tushlariga kirib chiqqan qip-yalang'och jinlar, ajinalar sariq to'plar gumburlashi to'xtagach, qora tutunlar ichidan chiqib keladiganday edi. U shu darajada gangib, holdan toygan ediki, Marv jangini qog'ozda jonlantirib tasvirlash uchun Fransiyadan ko'tarib kelgan asbob-anjomlari-yu qog'oz-daftarini boshi tagiga qo'yishi bilan, shu lahzada pinakka ketdi...

Artilleriya sarkardasi Navvob Jahonso‘zning bergan hisoboti bo‘yicha ikki soat davomida xarvor-xarvor o‘q-dori ishlatilgan, atrofni larzaga solib bir ming besh yuz marta sariq to‘plardan o‘q otilgan. Biroq bu o‘qlar, paxtavon o‘qlar singari nishonga borib yetmagan. Darhaqiqat, kuzatuvchilarning aytishicha, to‘p o‘qi tezligini sinagan mutaxassislarning oldingi taxminlari hayotga tatbiq qilinmagan, ya’ni to‘plar faqat vahimali ovoz chiqargan, xolos, shundan boshqa narsani amalga oshira olmagan. Bir ming besh yuz marta otilgan to‘p o‘qlarining bittasi ham takalar qo‘rg‘oniga borib yetmaganligi oftob chiqqanidan so‘ng ayon bo‘ldi.

Eron to‘plarining quruq haybatidan so‘ng, narigi qirg‘oqda takalarning jangovar ko‘tarinkiligi sezila boshladi. Qo‘rg‘on oldidagi balandlikka qo‘yilgan bir juft to‘p atrofida takalar g‘imir-g‘imiri kuchaygandan kuchaya boshladi.

31

Turkmanlar safga turishni bilmasalar-da, bir-birlarini tez va aniq tushunishardi. Ular tavakkalchilik qilishmas, yaqin masofada turib jang qilishdan qochishardi.

Taka turkmanlarining urush hiylalariga qarshi eronliklar hech qanday chora topolmasdilar.

Jorj Blokvil xotiralaridan

Eron sarkardalari turkman to‘plariga nopisandlik bilan qarasalar-da, dastlabki ulkan omadsizlikdan so‘ng ehtiyotkorlikni qo‘ldan bermaslikka harakat qilishardi. Asosiy umidlari bo‘lgan sariq to‘plarning samarasiz harakati qo‘shinga, albatta, salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Oftob chiqar-chiqmas qo‘shinga e’tibor qilgan Hamza Mirza faqat sarbozlarninggina emas, balki katta-kichik boshliqlarning ham jangovar ruhi past ekanligini payqadi. U sirdosh bo‘lgan sarkardalarga o‘zlari uchun, shuningdek, navkarlarga atab ham to‘p o‘qidan panagoh (transheya, yerto‘la, okop) qazish kerakligini buyurdi.

Bugun ham havo ertalabdan qiziy boshladi. Oftob shu'lasi ostida yer kovlagan qo'llari belkurakli minglarcha sarbozlarga yonboshdan nazar solgan Blokvilga dalada dehqonchilik qilib yurgan dehqonlarni eslatdi.

Qo'shindagi bo'lim komandirlari o'zlari uchun yer kovlashmasdi. Ular uchun ham chuqur qazigan sarbozlar yerto'lalarning g'arb tomonidan uycha qoldirishardi. Blokvil qum-tuproq aralash uylarning enini yigirma santimetrdan qalin bo'lmasa kerak deb taxmin qildi. Bolalar o'ynaydigan uylarga o'xshash uychalar uning kulgisini keltirdi.

U navkarlar qilgan ishlarni kuzatib yurganida avsharlar urug'ining katxudosi Yusufxonga ro'baro' kelib qoldi. Blokvil Yusufxonni oldindan yaxshi bilardi. Ba'zi suhbatlarda Yusufxon o'zining shajarasi qojorlardan ko'ra turkmanlarga yaqin ekanligini esga olgandi.

— Janob Yusufxon, bunday uychalar to'p o'qidan bizni saqlay oladimi, nima deysiz?

— Xudo yordam bersa saqlaydi, bo'lmasa yo'q, — deya Yusufxon Yaratganga ishonmaganday kulib yubordi.

Blokvil xonning kulgisidan, qazilgan chuqurlarni mazax qilyapti degan ma'no chiqardi. Ammo Yusufxon so'zini davom ettirganda bunday emasligi ma'lum bo'ldi.

— Bunday o'qpanohlarning bizga aslo keragi yo'q, janob kapral. Takalar ustimizga yopirilib kelishsa, qilichbozlik boshlanadi. Shu chuqurlarning ichida turib qilich o'ynatamiz deb o'ylayapsizmi? Albatta, bunday emas. Biroq buyruq muhokama qilinmaydi, chunki u — buyruq!

— Bu chuqurlar to'p o'qidan saqlanish uchun qazilmoqda-ku, axir?!

Yusufxon yana kulumsiradi. Bu safargi kulgining mazaxomuz ekanligi oshkora bilindi. Uning so'zlari ham shuni tasdiqladi.

— Ey janob kapral, yaxshisi siz meni gapirtirmang! Shahzodaning buyrug'i qanaqa ekanligini o'zingiz ham yaxshi bilasiz, axir...

Kutilmagan vaziyat Yusufxonning so'zini bo'lib qo'ydi. Turkmanlarning to'plari gumburlay boshladi.

Birin-ketin vaqt oralatib bir juft turkman to‘plarining o‘qlari Hamza Mirzaning baland chodiri tikilgan joyga yetib bormasa-da, eronliklar qo‘shini ichida gumburlab yorildi. Yaqin atrofdan oh-vohlar eshitila boshladi.

Blokvil Yusufxonning yuziga qaradi. Uning nazaridan hayron qolganlik alomatini uqqan Yusufxon ham boshqa so‘z topa olmay:

— Bu qanaqasi bo‘ldi? — deb qo‘ydi.

— Sizlar otilmaydi degan to‘plar ham gumburlay boshladi! — deya suhbatdoshi kinoyali gapni xohlamasa-da, Blokvil to‘g‘risini aytib qo‘ya qoldi.

— Uni bizdan turkmanlarga asir tushganlar otishmoqda, — deb Yusufxon takalarning to‘p otolmasligini isbotlamoqchi bo‘ldi. Biroq uning topgan javobi to‘p o‘qidan himoyalanmoq uchun bir qarich qalinlikda qurilgan devorli yerto‘lalar singari kulgili edi.

— Turkmanlar bizlarning asirlarimizni to‘pning yonboshiga ham yaqinlashtirmaydi, janob Yusufxon,— deb Blokvil o‘zini ham ularga yaqin tutib va Yusufxonning o‘ziga-da yoqadigan javob berdi.

Yusufxon bu safar mardlarcha javob qaytardi.

— Bu so‘zingiz ham to‘g‘ri.

— Bu yerda eng kulgili narsa — bizlar otgan to‘plar o‘qining turkmanlar qo‘rg‘oniga yetmasligi-yu, turkmanlar otgan to‘p o‘qining esa bizlarning ustimizga kelib tushayotganligi!

— Men esa hozir boshqa narsa to‘g‘risida o‘ylay boshladim.

— Qani, ayting-chi!

— Sizlarning o‘q-dorilaringiz bilan o‘zlaringizni otishmoqda. Ana shunisi kulgili. Mashhaddan Marvgacha o‘z yelkangizda o‘q-dori keltirdingiz. Uning ham o‘z to‘pingiz bilan o‘zingizga qarshi ishlatilishi, haqiqatan ham kulgili.

Yusufxon to‘g‘ri aytilgan so‘zlarning haqiqatligini bu gal ham tasdiqlashga majbur bo‘ldi.

— Ha, to‘g‘ri gapirdingiz, bu yerda bir karomat borga o‘xshaydi!

To‘p o‘qlari yanada yaqinroqqa kelib yorila boshladi.

Yusufxon o‘qpana axtarganday tevarak-atrofga alangladi. O‘qpana deb qurilgan uychalar kishini to‘p o‘qidan qo‘riqlay olmasligiga ko‘zi yetgach, begona bir kimsaning oldida o‘zini mard ko‘rsatishga harakat qilgancha turgan joyidan qo‘zg‘almadi.

Shu vaqt osmondan ofat bo‘lib yog‘ilayotgan to‘p o‘qlarining biri Yusufxon bilan Blokvilning yonidan yetti-sakkiz qadam narioqda turgan semiz xachirning ustiga tushdi va uni ag‘darib tashladi. Xachir oyoqlari dir-dir titragancha birpasda jon berdi.

Xachirga tomon xavotir ila nazar tashlagan fransuz suratga muhrlaydigan asbob-uskunalarini qo‘liga oldi.

— Bu yerdan tezda uzoqlashmasak, keyingi nishon ikkalamiz bo‘lamiz, janob Yusufxon!

Tili duduqlanib turgan fransuzning taxmini shu onda haqiqatga aylandi. Agar Blokvil keskin, chaqqon harakat qilmaganida, semiz xachirning kuni Yusufxonning ham boshiga tushishi aniq edi.

Dahshatli ovozda qichqirib yuborgan fransuz Yusufxonni yelkasi bilan urib yubordi-yu, zarb kuchidan Yusufxon uch-to‘rt qadam nariga yiqildi. Blokvilning o‘zi ham naq uning oyog‘i tagiga umbaloq oshib tushdi.

Bosh kiyimini yerdan olib, o‘rnidan turgan Yusufxon orqasiga qaradi. Qumloq yerni anchagina o‘yib, o‘pirib tashlagan to‘p o‘qi Yusufxonning oldin turgan joyida qorayib yotardi. Omon qolganiga endi fahmi yetgan Yusufxon quvonganidanmi, o‘limdan qutulganigami yuzi o‘zgarib ketdi.

Birozdan so‘ng o‘ziga kelib, o‘ng yelkasini chap qo‘li bilan silar ekan, boshini quyi eggancha:

— Janob kapral, sizning kuchingiz to‘pdan chiqqan qora o‘qnikidan kam emas ekan, — deb jilmaydi. U yana bir gal to‘p o‘qiga qaradi. — Siz meni to‘g‘ri kelgan ajaldan qutqardingiz. Men sizdan umrbod qarzdorman. Uni qanday uzaman? — dedi.

— Jang maydonida olish-berish hisob qilinmaydi, janob Yusufxon...

To‘p ovozlari bosilgach, turkmanlar qo‘rg‘onidan to‘rt yuz-besh yuz atrofidagi odam daryo tomonga yurishdi. Ular ikki guruhga bo‘lindilar-da, o‘z ishlarini bajarishga astoydil kirishdilar.

Blokvil turkmanlarning o‘zlarini tutishlarini hayron qolib kuzatdi. Ular daryo tomonga ulkan to‘nkalarni, uzun-kalta yog‘ochlarni keltirib tashlashardi. Orqasiga qora miltiq osib olgan, qo‘li o‘roqli takalar daryo qirg‘og‘idagi qamishzordan dasta-dasta qamish o‘rib bog‘lashardi. Blokvil avvaliga ularning nima maqsad bilan ushbu ishni qilayotganlariga tushunmadi.

Biroq hozirgi harakat— asir tushgan Jiyangeldiniki kabi molga o‘t yig‘ish tashvishi emasligi ma’lum. Voqeani kuzatib turganlardan biri: turkmanlar daryoga ko‘prik qurmoqchi bo‘lishyapti, deb tushuntirdi.

Shundan keyin Blokvilning hayrati yanada ortdi. Birinchidan, urush davom etayotgan ekan, hech narsadan hayiqmay turkmanlarning ko‘prik qurishni boshlashlari ham xayolga sig‘maydigan jasorat edi. Ikkinchidan, agar ko‘prik qurilishining qojorlar ustiga hujum qilish maqsadi bilan qurilayotganidan boshqa ma’nosi bo‘lmasa, eronliklarning turkmanlar harakatiga befarq qarab turishlari — aqlga sig‘mas ish edi.

Xuddi aksiga olgandek, qo‘shinning bir qismi vafot bo‘lganlar, yaradorlarning tashvishi bilan band bo‘lsa, qolgan asosiy qismi tushlik ovqatning tashvishi bilan o‘ralasha boshladi.

Blokvil Tehronga kelgan kunidan boshlab Sharq odamlarining behafsala, betashvish xususiyatlarga egaligi, bugungi ishni ertaga qo‘yishga bahona qidirishga moyilligi haqida ko‘p o‘ylanardi. Bugun ham ular ajal bilan yuzma-yuz kelishlariga qaramay, birinchi darajali ishni ikkinchi darajaga o‘tkazishlarini ko‘rib, hayratga tushdi. Uning sababi nimadaligini hech topolmasdi. Sarkardalar sariq to‘plarning ikki soat mobaynida beto‘xtov ishlab, faqat o‘zlarigagina hisobsiz zarar keltirganligi haqida o‘ylab ham ko‘rmasdilar. Ushbu xato va yanglishuvlarni qanday to‘g‘rilash borasida esa ular o‘ylab ham o‘tirishmadi. Aksincha, Blokvilga ma’lum bo‘lishicha, ayrim sarkardalar shahzodaga hozircha hujumni to‘xtatib, orqaga chekinish, yangi kuch to‘plab, undan keyingina Qorayopga yana boshqatdan hujum uyushtirish maslahatini bergan emish.

Agar qojorlar birinchi natijasiz hujum bilan cheklanib, o‘zlarini rostlab olish uchun Marvga chekinsalar, bu butun yurish ular

uchun samarasiz tugaganligini anglatardi. Bu urush taktikasidan, sirlaridan bexabar odamga ham tushunarli edi.

Biroq Eron qo'shini rahbarlari orasida o'zlari uchun begona bo'lgan Blokvildan o'zga hech kim bu haqda fikr yuritayotganga o'xshamasdi. Ulkan qo'shinning Hamza Mirza Xishmat Davla kabi bosh sarkardasidan tortib, oddiy sarbozigacha faqat o'z jonini saqlashning tashvishini qilardi.

Blokvil so'nggi taxminining haqiqatga unchalik ham to'g'ri kelavermasligini fahmladi. Chunki o'z jonini qutqarishni istagan odam o'z joniga xavf solgan dushmanni yengish fikri bilan yashashi, kurashishi kerak emasmi, axir?!

O'n oltinchi sentabr kuni tushdan keyin soat uchlarda yangi qurilgan ko'prikdan o'qday otilib o'tgan mingga yaqin turkman qojorlarning ustiga yopirilib keldi. Hujum bilan birgalikda, otliqlar kelayotgan tomondan shunaqangi chang-to'zon ko'tarildiki, Blokvil buning faqat ot tuyog'i ostidan ko'tarilgan chang-to'zon emasligini fahmladi. Chang-to'zon butun rejani, ko'rinishni o'zgartirib yubordi, chang bir otliqni yuz otliq, bir qilichni yuzta qilich qilib ko'rsatdi. Chang-to'zon ichidan otilib chiqayotgan otliqlarning izi tugamaydiganday edi. Bu hol ham yetib kelayotgan xavf-xatarning haybatini orttirib yubordi.

Ko'prik qurila boshlanganidanoq shunday holat yuz berishini oldindan sezgan Blokvil hujum so'ngining qanday tamom bo'lishi borasida hali ma'lum bir qarorga kela olmagan edi. Chunki uning bu to'g'rida uzoq fikr yuritishga imkoniyati ham bo'lmadi. U o'zining yangi yurtlarni ko'rish, o'zga xalqlarni bilish maqsadini amalga oshirish niyatida rozilik bergan ushbu safarining endilikda qonli sayohatga aylanayotganligi haqida o'ylashga majbur bo'lgandi.

Bugungi kun — Blokvil uchun yosh umrining eng so'nggi kuni bo'lishi ham mumkin edi. Uzoqdan ko'ringan va o'tkir quyosh nurlari bilan to'qnashganda olovday yaltiragan minglarcha egri qilichlarning biri uning umr tomirini cho'rt uzib tashlashi mumkin edi.

Hujum qilib kelayotgan otliqlar orani qisqartirgan sayin barcha narsa: ularning kiyimlari, yuz-ko'zlari, jangovar harakatlari

oshkora ko'rina boshladi. Yog'iyning kuchini qirqish uchun ketma-ket gumburlagan to'plar haybati kutilgan natijani bermadi. To'p o'qlari hujum qilib kelayotgan otliqlar ustidan oshib, daryo qirg'og'idagi qamishzorga borib tushardi. To'plar ovozi turkman otliqlarining urho-urlariga qo'shilib, yetib kelayotgan takalarning vahimasini yanada kuchaytirmoqda edi.

Sariq to'plardan yana natija bo'lmagach, sarkardalar navkarlarni qilichbozlik jangiga o'tish uchun tayyorlay boshladilar. Sirtiga oftob va yo'lbars shakli tushirilgan bayroq yuqoriga ko'tarildi, qilichlar qinidan chiqarildi. Ro'y beradigan xavfni sezgan otlarning burunlari pirillab, pishqira boshladilar. Ikki tomondan ko'tarilgan jangovar hayqiriq, shovqin-suron atrofni larzaga soldi.

To'pponchasini g'ilofidan sug'urgan Blokvil uni qachon otishni ham bilolmay qoldi. Chunki u dovdirab, o'zini yo'qotib qo'ygan edi. Bostirib kelganlar orasida eronliklar bilan yuzma-yuz kurashayotgan xotin-qizlar ham bor edi. Ana, o'shalar arvohlar, urg'ochi shaytonlar bo'lsa kerak! Ha, xuddi o'shalar!— deya Blokvil o'zi bilan o'zi gaplasha boshladi. — Ular axiri meni topib, oldimdan chiqdi!

Turkmanlar ichida har joy-har joyda qilich solishayotgan ayollar ko'zga tashlanardi. Ular otga minganlarida xalaqit bermasligi uchun uzun ko'ylaklarini bellarigacha shimarib, bir tomonini mahkam bog'lagan edilar. Ularning bellariga bog'lab olgan oqimtir belbog'lari fransuzning ko'ziga oq but bo'lib ko'rina boshladi.

Blokvilning xayoliga to'satdan shunday fikr keldi: men qismat qonuniga bo'ysunishim kerak. Men ularga qarshi o'q otmasligim lozim. Yaratgan Egamning o'zi bu qonli sayohatni mening toleyimga bitgan. Yo'q, shu paytgacha fransuz kapralining ayol qo'lidan o'lgani tarixda bo'lganmi? Tarixdagi dastlabki bunday sharmandalik mening manglayimga yozilgan ekan. Baribir, qismatdan qochib bo'lmaydi...

Yaralangan otlarning jon holatda kishnashlari, otdan ag'darilayotgan sarboz-u navkarlarning faryod-u nola-fig'onlari ham urg'ochi shaytonlarning ovoziga aylanganday, tevarak-atrofni bosib ketdi.

Biroq Blokvil qarshisidan kelayotgan urg'ochi arvohning o'z bo'yniga qilich solganini ko'rolmadi. Ha, u urg'ochi arvoh qilichidan emas, boshqa bir otning ustida ko'ringan turkmandan o'zini chekkaga olish uchun o'rnidan turganda, otlarning jon holatdagi kishnashi ham, yaradorlarning oh-u nolalari ham, arvohlarning yurakni larzaga soladigan chinqiriqlari ham birdaniga eshitilmay qoldi.

Blokvil uchun kurash ham, sayohat ham tamom bo'ldi. Uning qalbidagi qo'rquv hissi birdan yo'qoldi. Blokvil orom dunyosiga sho'ng'idi. Keyingi yarim yilda uning hozirgiday rohatlanib-lazzatlanib yotgan vaqti bo'lmagan edi...

Chuqurning ichida qum-tuproqqa belanib yotgan Blokvil ko'zini ochganda, atrof osuda, chang-to'zon yo'q, arvohlarning qichqiriqlari eshitilmasdi. U boshini zo'rg'a ko'tardi-da, to'g'ri daryo tomonga nazar tashladi. Daryoning o'ng qirg'og'idagi turkmanlar qo'rg'on atrofida xotirjam aylanib yurishardi.

Blokvil yuzini, manglayini, bosh-yuzlarini siypalab ko'rdi. Tanasida qon oqib turgan yoki yara-chaqa bo'lgan, hatto, og'riyotgan joy ham yo'q. Boyagi balo-ofatlardan qutulgan bo'lsam, endi mening peshonamda o'lim xavfi yo'q! — deya chin yurakdan quvondi Blokvil. Shu lahzada onasining Parijda ko'rgan tushini esga oldi-yu, yana kapalagi uchdi.

— Shoshma, Jorj! — dedi u o'ziga o'zi. — Sen hozirgina bir o'limdan qolding-ku! Turkman elchisining aytishiga qaraganda, inson har qadam tashlaganda bir o'limning yonboshidan o'tar ekan. Qaysi qadamingda uning ustidan bosishing senga ma'lum emas...

Blokvil o'zining dumalanib-ezilib yotishidan uyaldi. O'rnidan turib, kiyim-boshlarini tozaladi, ikki o'qidan bittasi ham otilmagan to'pponchasini topib, g'ilofiga soldi.

U chuqurdan chiqqanda turkmanlarning bugungi hujumida halok bo'lgan qojor navkarlarining jasadlari hali ham yig'ib olinmagan edi. Jasadlar turli holatda — yuztuban, chalqancha, bukchayganicha qotib qolgan bo'lib, ularning orasida turkmanlar ham bor edi. Blokvil ularni kiyimidan tanidi. Lekin halok bo'lgan turkmanlar orasida yarim-yalang'och urg'ochi arvohlar ko'rin-

madi. "Xudoga shukur! Men arvohlarning jasadidan ham jirkanaman... Yoki ularning ichida birortasining ham paymonasi to'lgani yo'qmikan? Ha, aytgancha, urg'ochi arvohlarga ajal ham tegmaydi-ku!"

Blokvil o'zi istamagan holda bosh sarkardaning baland chodiri tomon yurdi. Chodir eski joyida edi. Demak, turkmanlar hujumga o'tganlarida qo'shin o'rtasiga kirishga harakat qilishgan, biroq bosh chodir joylashgan yerga yeta olmay orqalariga chekingan ekan-da.

Blokvil yiqilib hushini yo'qotgan joyidan ellik qadam chamasi yurganida, g'alati voqeaning ustidan chiqdi: o'n besh-o'n olti yoshlardagi qoracha-oriq o'smir o'qpana uchun qazilgan chuqurning chekkasidagi qum ustida cho'kka tushib o'tirardi.

Eron qo'shini ichida navkarlarga berilgan pulni olish uchun oltmish yoshdan oshib xizmat qilayotgan mo'ysafidlar ham, o'z ixtiyori bilan kelgan yoki kimdir o'rniga xizmatga yuborilgan o'n to'rt-o'n besh yashar o'smirlar borligidan Blokvil xabardor edi. Ular bilan ko'p marta yuzma-yuz uchrashgan ham. Biroq cho'kka tushib o'tirgan nozik yigitcha ancha yosh ko'rinar, shu o'tirishida u bir narsalar bilan band edi.

Blokvil ot tuyoqlarining yangi izlari to'lib ketgan maydon yonida bu yigitcha nima bilan mashg'ul bo'layotgani bilan qiziqdi. Yigitcha kiygan shimning old tomoni jiqqa ho'l edi. U peshobini tuta olmaydigan bemormikin? Yigitcha peshobidan loy qilib, uzun chundukli to'pga o'xshatib nimadir yasabdi. Endi esa ortib qolgan loydan to'p o'qi yasashga kirishgan ekan.

Blokvil uning ishini tomosha qilarkan, yoniga kelgan odamga mutlaqo befarqligini payqadi... Bechora yigitcha to'plarning qattiq gumburlagan ovozidan, shovqin-surondan, turkman-u eronliklarning bir-birlariga ayovsiz qilich solayotganlaridan qo'rqib, esi og'ib qolgan edi.

— Isming nima, sarboz? — dedi u asta yigitchaga.

Sarboz yigitchadan sado chiqmadi. U fransuzning yuziga go'daklarcha bir qaradi-yu, Blokvil yigitchaning o'z nomini ham esidan chiqarganini angladi. Sarboz kutilmaganda Blokvilga qarab gapira boshladi:

— Men to‘p yasadim, janob! Endi unga o‘q yasamoqchiman, janob. Lekin yasagan to‘pimning rangi sariq bo‘lib chiqmadi, qora bo‘ldi. Qarang-a, bu — Isfahon to‘pi. Turkmanlar bilan urush bo‘lsa, men shu to‘pimni maydonga olib chiqaman. Eh, attang, ko‘p o‘q yasash uchun peshobim kamlik qildi. Men yana o‘q yasashim uchun siz peshobingiz bilan bu loyni ho‘llang, janob! — Yigitcha hali yaxshi loyga aylanib ulgurmagan bir hovuch nam tuproqni Blokvilga uzatdi.

Yigitchaning holiga ichi achigan Blokvil, uning yonidan nari ketdi. Ha, sizlarning misdan quyulgan to‘plaringiz nima karomat ko‘rsatdi-yu, endi loydan yasamoqchi bo‘lgan to‘ping holi ne kechadi?

Hamza Mirzaning baland chodiriga yaqinlashgan Blokvil turkmanlarning so‘nggi hujumi qojor qo‘shiniga beqiyos talafot yetkazganligini bildi. Chodirning atrofida bir necha jasad qator ag‘anab yotardi.

Fransuz baland chodir atrofiga faqat sarkardalar jasadi tizilganini fahmlagach, biror tanish bormikan deb ularning yuziga qarab chiqdi. Halok bo‘lganlar orasida u yaqindan taniganlardan hech kim yo‘q.

Shunday bo‘lsa-da, chekkaroqda yotqizilgan to‘rtinchi jasadga yana bir bor qaradi. Yuzi oqarib ketgan jasadning pora-pora qilingan ko‘ylagi etagidan qonga bo‘yalgan ichaklar ko‘rinib turardi. Ko‘zga ko‘rinib turgan vahshiylik oqibatining ustini bekitib, yopib qo‘yish hech kimning xayoliga kelmagandi.

Blokvil tevarak-atrofga qaradi. Baland chodirning atrofidagi bosh sarkardaga eng yaqin hisoblangan mulozimlarning yuzlari yerga qaragan.

Fransuz chodirning ichida chuqur xayolga botib o‘tirgan Hamza Mirzani ko‘z oldiga keltirdi. Shahzodaning hozir nima haqda fikr qilayotganligini bilsa bo‘ladimi? Biroq bundan nima foyda? Hozir bosh sarkarda emas, yonidagilar ham Blokvilning savoliga jo‘yali javob berolmaydi. Bunga aqli yetgan Blokvil yana orqasiga — o‘zining qum-tuproq bosib qolgan chodiri tomon shalpayib qaytib keldi.

32

Jayrontepada ikki tomon o'rtasida qonli to'qnashuv yuz berdi. Avshar polki bilan Faraxon polki navkarlari "Yo, Ali!" deb olg'a otilishdi.

Pistirmada turgan turkmanlar ularni o'q yomg'iri bilan kutib oldilar. Yetmish nafar navkar o'ldirildi... Ular loyga botgan Hasanxonning ham boshini kesishdi...

Said Muhammad Ali al-Husayniy

Bizning oyog'imizga mahkam yopishgan turkmanlar orqamizdan o'qlarni yomg'irday yog'dirishardi. Men bir keng chuqurlikdan o'tayotganimda otim bilan ag'darilib tushdim...

Jorj Blokvil xotiralaridan

Qojorlar qo'shinidagi eng obro'li sarkarda hisoblangan Hasanxonning o'ldirilishi va artilleriyaning taniqli sartib (general)laridan birining turkmanlar qo'liga asir tushishi sarbozlarning cho'kkan ruhini battar tushirib yubordi. Qojorlar tomonidan uyushtirilgan hujumlarning turkmanlar tomonidan osongina bartaraf qilinishi va buning ustiga, takalar tarafidan asirga olishlar, katta o'ljalarning qo'lga kiritilishi Hamza Mirzadan sharoitga boshqacha munosabatda bo'lishni talab qilardi. U maslahatchilarning fikr-mulohazalarini e'tiborga olib, ketma-ket yuz bergan mag'lubiyatlardan so'ng Marvga chekinib, jiddiy harbiy tayyorgarlik ko'rgandan keyingina Qorayopga boshqatdan hujum qilish kerak, degan xulosaga keldi.

Shunday qilib, 1860-yil ikkinchi oktabrdan uchinchi oktabrga o'tar kechasi qojorlarning Qorayopdagi barcha qo'shin turlari harbiy ko'ch-ko'roni bilan Marvga chekinsin degan buyruq paydo bo'ldi.

Blokvil sarkarda Hamza Mirza rahbarlik qilgan qo'shinning orqa tomoni xavfsizligini ta'minlovchi ikkinchi guruh ichida edi.

Bir necha ming navkar, son-sanoqsiz ot, tuya, xachir va eshaklar harakatini tun qorong'isida ham ko'zdan yashirib bo'lmasdi.

Betartiblik ila ko'cha boshlagan qo'shinning shovqin-suroni tik ko'kka ko'tarilardi. Qojorlar endigina bir farsax chamasi yo'l yurganlarida kutilmagan voqea ro'y berdi. Yog'iyning orqaga chekinganidan xabar topgan turkmanlar qo'shin borayotgan yo'lning ikki tomonidagi pistirmalardan chiqib "Yo, Olloh!" deb hujumni boshlab yuborishdi. Takalar chala uyquli va charchagan qo'shinning ikki chekkasidan yashin tezligida kuchli zarba berishardi-da, darhol orqaga chekinib, ko'zdan g'oyib bo'lishardi.

Bunday holat keti uzilmay takrorlanib, har safar bir necha navkarlar ot-xachirlardan ajralib o'q, qilich zarbidan ag'darilsa-da, ulkan qo'shin chekinishda davom etardi. Qo'shin ketma-ket tayoq zarbini sezmagan qari fil singari asta-sekin siljib borardi. Qo'shinning old qismida bo'layotgan voqealardan orqa qismi, orqa qismda bo'layotgan voqealardan old qismi bexabar edi. Xabardor bo'lganlar ham chekinish haqidagi buyruqqa itoat qilib, faqat bor kuchi bilan orqaga intilardi.

Ikki tomondan qovog'ari talaganday talansa ham, qo'shin asl makoni tomon qadam bosardi. Qo'shin turgan joydan Marvgacha baqirsa ovoz yetguday masofa qoldi. Biroq o'sha masofani o'tish qojor qo'shini navkarlariga yuz farsax yo'l o'tgandan ham qiyin bo'ldi. Ularga Marvda qolgan sartib Og'a Rizoxon Ajdanboshi qo'shiniga yetib qo'shilmoq nasib etmadi.

Turkmanlar Qorayopdan qaytgan asosiy qo'shinning Marvda qolgan qism bilan birlashmasligi uchun o'zlarida bor bo'lgan butun imkoniyatni qo'llashgan edi. Daryo tomondan xuddi uyasidan otilib chiqqanday qo'qqisdan paydo bo'lgan otliqlar bu gal qo'shinning oldingi qismiga zarba berdi. Blokvilning taxmin qilishiga ko'ra, oxirgi hujumda qatnashgan turkmanlarning soni 1500 dan oz emasdi.

Ikki orada qilichbozlik urushi boshlanib ketdi. Xuddi shu vaqt daryo tarafdan yetib kelgan boshqa otliq turkmanlar qojor qo'shinining ikkinchi bo'lagi ustiga yopirildi.

Blokvil turkman qilichi yetadigan joydan uzoqda edi. U Eron sarkardalari guruhiga yaqinroq bo'lganligi uchun o'zining qo'riqlanishini yaxshi bilardi. Sarkardalarga tansoqchilik vazifasini

bajarayotgan, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan saylanma sarbozlar takalarni yaqin masofaga keltirmaydigan jangovar holda edilar. Shu sababli, Blokvil uchun turkmanlarning urush sirlarini o‘z ko‘zi bilan kuzatish imkoniyati paydo bo‘ldi. Uning kuzatishicha, turkmanlarning qojorlardan asosiy farqi — ularning haddan tashqari tez harakat qilishlarida edi. Turkmanlarning otlari ham bardoshli, chopag‘on edi. Ular o‘qday otilib kelishar, orqaga qaytganlarida ham xuddi shunday tez yugurardi.

Blokvil turkman otliqlarining Eron qo‘shini ichiga aralashmay, faqat chap tomondan hujum qilishlarining ma’nosini o‘zicha tushundi. Turkmanlarning asosiy maqsadi ularni qirib tashlash emas, balki harakat yo‘nalishini o‘zgartirish edi.

Hujum qilgan turkmanlar orasidan ajralgan qora telpakli bir yigit qattiq chopayotgan otini boshqara olmay qoldi, shekilli, qojorlarning yonboshidan hujum qilib, shartta orqasiga qaytish o‘rniga, kuch bilan urilib qo‘shin ichiga kirib ketdi.

Turkmanning qo‘lidagi quroli — bir yarim quloch uzunlikdagi mahkam xodaning uchiga qattiq urib o‘rnatilgan uchi o‘tkir ayollar taqinchog‘i edi. Oftob shu’lasi ostida yaltiragan uchi o‘tkir kumush taqinchoq Sharqni uncha yaxshi bilmagan yevropalik ko‘ziga notanish g‘aroyib bir yarog‘ bo‘lib ko‘rindi.

G‘aroyib qurolli turkman yigitining oti qojor qo‘shini qatorlarini ko‘ndalangiga kesib o‘tolmadi. To‘rt tomondan harakatga tushgan qojor navkarlarining qilichi otning o‘ng oyog‘ini qattiq yaraladi. Ot munkib ketdi-yu, uning ustidan dumalab tushgan turkmanning telpagi boshidan yerga uchib tushdi. Shunda bu botirning ayol ekanligi ma’lum bo‘ldi. Qora telpak ichiga yaxshilab yig‘ilgan o‘rim qora soch qumga yoyildi.

Shu tomonga qarab, og‘zi ochilib qolgan Blokvil: “Ko‘p sonli ulkan qo‘shinning oz sonli qo‘shindan chekinishining sababi endi ma’lum bo‘ldi, zaifa ayollar shunday urushib bilsa-ya?” — deb pichirlab qo‘ydi... Fransuz kaprali urush deb atalmish qora toshyurak kuchning yana bir qilgan vahshiyligiga shunda guvoh bo‘ldi. Urush begunoh go‘dakning ipakday sochlarini silaydigan farishta qo‘llariga keskir yarog‘ berib, bu qo‘llarning egalarini toshyurak, berahm bir kuchga aylantirgan edi.

Beshafqat qojor sarbozining o'tkir qilichi hali o'rnidan turishga ulgurolmagan zaifaning boshiga zarb bilan urildi. Qop-qora zulflar bilan o'ralashgan go'zal bosh qumga dumalab tushdi. Yosh ayoldan hech bir ovoz eshitilmadi. Urush deb nom olgan vahshatning qora kuchi ayol go'zalligi, xotin-qizlar zaifaligi oldida ham yumshamagan edi.

... Turkmanlar Qo'vshutxon o'ylab topgan harbiy hiylani amalga oshira bildilar. Qo'shinning oldingi qismi qarshisidan taka otliqlarining paydo bo'lishi bilan Marv tomonga yo'li to'silgan qojor qo'shinlari turkman otliqlari yo'q tarafga — janubiy-sharq tomonga qarab yo'nalishini o'zgartirdi.

Turkmanlarning qon to'kib, jon berib nima sababdan o'z dushmanlarini borayotgan yo'lidan boshqa tomonga o'zgartira olganliklari tub sababini Blokvil keyinchalik bildi.

Marvga borilmasdan, shaharning janubidan sharqqa yurishga majbur qilingan qo'shin yana bir farsax chamasi yo'l yurgandan keyin Saidnosir deb atalmish manzilga borib yetdi. Blokvil bu atroflarni yaxshi bilardi. Sarkardalar ov ovlash uchun shikorga chiqqanlarida fransuz ularga qo'shilib bu joylarga kelgan, tevarak-atrofni ko'p marta aylanib chiqqan edi.

Saidnosirdan yuqorida Po'pushqum, keyin Samandiq degan manzillar bor edi. Undan yuqoriroqda qojor qo'shinlarining asosiy qismi qoldirilgan Po'rsiqal'a joylashgan. Marvdan qaytishga majbur bo'lgan sarkardalarning endigi maqsadi — o'zlarini o'sha joyga eltish va jonlarini saqlash edi.

Saidnosir yonidan biroz o'tilgach, suv bostirilgan yo'llarni, uzoqda keng maydonni egallagan pastlikdagi qalin qamishzorni ko'rgan Blokvil eronliklar uchun kutilmagan noxush voqea endi yuz berishini sezdi.

Chunki uch oy oldin o'tganlarida bu joydagi yerlar suvsizlikdan qovjirab yotardi. Kuz fasli boshlanishi bilan suv yanada kamayib, suvga muhtojlik nihoyatda kuchaygan edi. Osmondan butun yoz fasli davomida bir tomchi ham yomg'ir yog'maganiga Blokvilning o'zi guvoh. Suv qahat bo'lib turganda, bo'm-bo'sh pastlik maydonga nima sababdan ko'llatib suv yuborilgan? Blokvil bu hiylani keyin bilib oldi.

Uzoqdan yangi qazilgan ariqlardan chiqazilgan tuproq-qum uyumlari to‘da-to‘da holda ko‘zga tashlanardi. Bular shunchaki qazilganga o‘xshamasdi. Chapparastasiga tortilgan marzalarning son-sanog‘i yo‘q.

Boshga ish tushganda zudlik bilan chora-tadbirlar topishga usta bo‘lgan Qo‘vshutxonning makkorona tuzoq qurganligi Blokvilga oshkora ko‘rinib turardi. Chunki bunday ko‘z ilg‘amas keng maydonni botqoqzorga aylantirish, ot-arava o‘ta olmaydigan jahannam qilish uchun ulkan, katta kuch va vaqt lozim bo‘ladi-da. Bunday og‘ir mehnat talab qiladigan ish bemaqsad, ayniqsa, urush bo‘lib turgan vaqtda, shunchaki ko‘ngilxushlik uchungina amalga oshirilmaydi.

Yo‘lning ikki tomoni kuz faslining tilla rangiga bo‘yatgan qamishzor edi. Qo‘shin o‘tib borayotgan yo‘lning suvga bostirilgan bo‘lagi tezda tamom bo‘lar, degan umid bilan borayotgan eronliklar ancha yo‘l bosishdi. To‘satdan ikki tomondagi qamishzorning orqasidan badanni junjiktirib yuboradigan shovqin-suron ko‘tarildi. Blokvilning taxminiga ko‘ra, ikki tomondan otilib chiqqan turkman otliqlari soni uch mingdan oz emas edi. Ular qiy-chuvlashib, urho-ur deb shovqin-suron ko‘tarib, eronliklar ustiga yopirilishdi. Qojorlar nima bo‘lganini tushunar-tushunmas, takalarning egri qilichlari yog‘iyni qiyrata boshladi. Ularning bir bo‘lagi ustiga to‘p yuklangan og‘ir aravalarni itarib kelayotgan to‘pchilarning atrofini qurshab oldi. Bu yerda to‘qnashuv ham yuz bermadi. Blokvil to‘p yuklangan aravalarning allaqachon orqaga o‘girilganini, sarbozlar xachirlarni qamchilab, ortga yura boshlaganini ko‘rdi.

Mingboshilar o‘z navkarlarini tinchlantirish uchun qo‘llaridan kelganicha harakat qilishardi. Bir guruh sarbozlarning orqaga qocha boshlaganini ko‘rgan asosiy bo‘limning navkarlari ham shunda qochishga moyillik ko‘rsata boshladi.

Taniqli mingboshi otini oldinga choptirib qochayotgan bir navkarning izidan quvib yetdi. Kuch bilan unga qilich soldi. Egasi egardan ag‘darilgan ot uzoqqa bormay orqaga qaytib keldi.

— Qochoqning jazosi shunday bo‘ladi! — dedi hayqirib mingboshi.

Taniqli mingboshining bu siyosati haqiqatan ham sarbozlarga tuzday ta'sir qildi.

... Qilichbozlik yarim soatdan uzoq davom etmadi. O'z hiylalarini amalga oshirgan turkmanlar uchun qilich bilan urushmoq nihoyatda omadli bo'ldi. Chunki bir tomoni suv bosgan sho'rlikka tiralgan qojorlar uchun qochish-quvish imkoniyati yo'q edi. Turkmanlar esa faqat oldinga harakat qilib, yog'iyni o'sha suv bosgan sho'rlikka tomon siqib borishdi.

Hamza Mirzaning atrofini qo'riqlagan sarbozlar turkmanlarni unga yaqinlashtirmaslik uchun qahramonlarcha jang qildilar. Shahzodaning tevaragida otdan ag'darilgan turkman yigitlarining soni ko'paygandan ko'payib borardi. Botqoqzorda qolganiga qaramay, shahzodaning atrofini o'rab olgan sarbozlar turkmanlar qilichiga qilich bilan javob berishning uddasidan chiqishdi. Har bir qadami o'limga barobar bo'lgan mashaqqatli yo'lni qiyinchilik bilan o'tgan sarbozlar yo'nalishni avvalgi o'zanga solib, Marv tomon siljidilar...

Yog'iyga qarshi o'q otmoqdan voz kechgan Blokvil otiga ustma-ust qamchi urardi. Biroq to'piqdan pasti yopishqoq sho'r loyga botgan ot har qancha harakat qilmasin, bosayotgan yo'li barakasiz edi.

Birdaniga botqoqlik qamishzor tugab, qochib qutulishga ozgina umid paydo bo'lganda, sharoit yana yomonlashdi. Blokvilning oti baland marzaga chiqqanida, oldda ichi suvga to'lgan chuqurlik paydo bo'ldi. Suv to'la chuqurlik marzaning shundoqqina tagidan boshlanardi. Nima qilishini bilmay qolgan Blokvil atrofga alangladi.

Tevarak-atrofni to's-to'polon, qiy-chuv bosgan edi. Eronlik sarbozlar turgan tutiladi degan vahimada turli tomonlarga qochishardi. Ularning qarshilik ko'rsatmay qochishlaridan ruhlangan turkmanlar endi qochoqlarni quvlashga kirishdilar.

Blokvil g'arb tomonga qarab, Eron to'plarining hammasi qo'lga olinganini fahmladi. To'plarni ko'z qorachig'iday qo'riqlayotgan turkmanlar soni besh yuzdan kam emasdi. Qo'shin ruhiga madad bo'ladigan to'plar turkmanlarning qo'liga tushgan bo'lsa,

masala uzil-kesil hal bo'ldi, hisob, deb bilgan Blokvil o'sha qiyin fursatda ham sharoitga o'zicha baho bergan bo'ldi.

Orqadan qo'liga qilichini mahkam ushlab ikki turkman kela boshladi. Oldinda — ichi suvga to'la chuqurlik. Old tomonda ham ajal bor, orqadan kelgan ajal esa undan ham qo'rqinchli edi. Orqadan kelayotgan ajaldan qochishga hech qanday umid yo'q. Oldindagi ajaldan esa, har holda, omon qolish imkoniyati borday tuyuldi. Blokvil shu umidli yo'lni tanladi — otini marzadan suvga sakrashga majburladi. Ot ichi yopishqoq loyga to'la suvning o'rtasiga borib to'xtab qoldi. U qancha urinmasin, narigi ikkinchi qirg'oqqa chiqa olmadi.

Tepada qo'lida egri qilichli turkmanlar paydo bo'ldi. Endi ikki ajal birlashgan edi. Ulardan qochib qutulishga chora qolmadi. Blokvil to'pponchasiga yopishdi. Biroq bu — erkak kishining o'zini ojiz ko'rsatmaslik umidida qilgan havoyi harakati edi. Loyqa suvga botgan to'pponchaning bu mahal otilmasligini fransuz juda yaxshi bilardi.

Yuqoridan uzatilgan qora panja Blokvilning yoqasidan mahkam tutdi. Bir o'lim uni boshqa bir o'limdan xalos qildi. Blokvil boshqa qarshilik ko'rsatishga ojizlik qildi.

Ikkinchi turkman fransuzning qo'lga olinishini ish deb ham hisoblamadi, shekilli, boshqa tomonga qo'lini silkidi-da:

— To'plar qo'lga tushdi! — deb jilmaydi. Bunday deyish bilan u barcha to'plar[1] qo'lga olingani hamda takalarning o'z maqsadlariga yetganini sherigiga xabar bergandi. Chunki to'plarning qo'lga olingani — urush jilovining turkmanlar qo'liga o'tganini bildirardi...

---

[1] 1860-yildagi urushda qojorlardan o'lja tushirilgan 23 dona sariq to'p Qo'vshutxon buyrug'i bilan Marv shahrida Murg'ob daryosi qirg'og'idagi maxsus joyda qozonilgan g'alabaning natijasi, deb el-yurtga ko'rgazma sifatida qo'yilgan. Bu to'plar XX asrning 30-yillarigacha shu joyda saqlangan. Turkmanlarning qahramonona harakatiga namuna sifatida saqlangan ushbu to'plarning keyin qayerga g'oyib bo'lganligi ma'lum emas *(muallif izohi)*.

33

Turkmanlar bunday ulkan qonli ov tutamiz deb kutishmagan ekan. Chunki asirlarni bog'lash uchun zanjir, kunda va boshqa asboblar yetishmas edi. Tunlari esa bizlarni bir to'da tovuqlarning oyog'ini jamlab bog'lashganday ikkita, uchtalab qo'l-oyoqlarimizni tang'ib tashladilar.

Jorj Blokvil xotiralaridan

Blokvil oldida faqat taqdirga tan berish yo'li qolgan edi. Uni urishmadi ham, tepkilab ezishmadi ham. Faqat bir turkman otining orqasiga ko'tarib qo'yganday mingizishdi. Ot yurganida Blokvilning burni egar ustida mahkam o'tirgan boshi ro'mol bilan tang'ilgan turkmanning bo'yni orqasiga tegib-tegib ketardi. Turkmanning bo'ynidan anqib turgan achchiq ter hidi fransuzning ko'nglini aynita boshladi. U qo'li orqasiga mahkam bog'langanligi sababli, yuzini tez-tez o'ngdan chapga o'girar, to'qnashuvning quvdi-qochdilarida qatnashgan otning sag'risi, qorni, butun vujudidan taralayotgan og'ir hid ham ko'nglini battar aynitayotgan edi.

Blokvilning butun ust-boshi loyga belangandi. Etik qo'njidan kirib, tovonigacha borib yetib oyoqlarini ho'llagan loyqa suv sababli u o'zini hali ham sho'r botqoq ichida turganday sezardi. U o'z boshiga tushgan bu kulfatlarni go'yo tushida ko'rayotganday, atrofida bo'layotgan voqealar ham tushida ro'y berayotganday edi.

Ko'zi oldida hamon boyagi qochish-quvlash harakatlari davom etardi. Botqoqqa botgan otlarini tashlab chiqqan shalabbo sarbozlar qayoqqa qochayotganlarini ham fahmlashmasdi. Har kim o'z qora boshini ajaldan qutqarish tashvishi bilan band. Blokvil qojorlarning boshiga tushgan bu kunni Xudo bergan jazo deb hisobladi. Son va kuch jihatdan bir necha hissa ortiq hisoblangan qojorlar qo'shini turkmanlarga deyarli qarshilik ko'rsatishga ham hollari qolmagan edi.

Sariq to'plarni sudrab ketgan turkmanlar esa allaqachon ko'zdan g'oyib bo'lgandilar. Fransuz to'plarni qo'ldan oldirgan qo'shinni shu paytda negadir beli chopilgan ilon bilan qiyosladi.

Endi bu ilonning zahari qanchalik kuchli bo‘lmasin, cho‘pon tayog‘i bilan ham yanchsa bo‘laveradi. Ilon endi qochib ham qutulolmasdi, og‘ziga o‘zingni tutmasang chaqa olmasdi ham. Tulki makkorligini yaxshi egallagan turkmanlar esa o‘lik ilonning og‘iz tomoniga bormasligini Blokvil yaxshi bilardi. Bundan tashqari, asosiy tayanchlari bo‘lmish sariq to‘plarning barchasi dushmanga o‘lja bo‘lganini ko‘rib, uzil-kesil jangovar ruhdan ajralgan Eron sarkardalari ham urushish emas, balki qochish, jon asrash harakatiga tushgan edilar.

Blokvil botqoqlikdan omon chiqqan o‘n-o‘n besh nafar sarbozlar orasida Qora sartibning borligini ko‘rib qoldi. Ularning barchasi otlarining sag‘risiga qamchi tushirishardi. Dushman bilan olishishga mayli yo‘q bu guruh ham Marv tomon ot yugurtirib qocha boshladi. Sarkardalarning o‘zlari ham qochishni boshlashgan bo‘lsa, demak, urush tamom bo‘libdi-da! — deb o‘yladi Blokvil sharoitga uzil-kesil baho berarkan.

Suvga bostirilgan maydon, qamishzor botqoqlikdan chiqishgandan keyin vujudga kelgan ahvol fransuzning o‘ylaganidan ham besh battar ayanchli ekanligi tezda ma’lum bo‘ldi. Asir tushgan sarbozlarning oltmish-yetmish nafarini alohida bir guruh qilib haydab borishardi. Ular xuddi o‘sha qismatga oldindan tayyor bo‘lgan tutqunlarday, hech qanaqa qarshilik ko‘rsatishmas, o‘zlarini qamishzorga urib qochishga ham harakat qilishmasdi. Ularning holatini tushunsa bo‘lardi. Ulkan qo‘shinning asosiy tayanchi bo‘lgan sariq to‘plarning qo‘ldan ketishi, sarkardalar boshini o‘limdan xalos qilishga rozi bo‘lib, qo‘shinni o‘z holicha tashlab qochishlari haddan oshiq dabdaba bilan boshlangan ulug‘ Marv yurishining qojorlar uchun sharmandali tarzda tugaganidan dalolat bermoqda edi.

Mana o‘sha Saidnosir — shikorgoh maskan. Sal narida Marjon qishlog‘i, undan keyin Sultoniz mulki bor. Bular bari fransuzga tanish qishloqlar, tanish nomlar. Blokvilning ko‘z taxminlari bilan chamalab yer o‘lchagani-yu, oldin notanish so‘zlarni bilganlardan so‘rab-surishtirib, xaritaga o‘tkazgan azoblarining barchasi bir tiyin bo‘ldi. U doimo o‘zi bilan ko‘tarib yurgan ishiga oid asbob-uskunalarining qaysi marzada, qaysi chuqurlikda bo‘ynidan

tushirib qoldirganini eslay olmadi. Uning ko‘z oldida qolgani, xotirasidan o‘rin olgan manzaralar, bu — hozirgi borayotgan tanish yo‘llar edi, xolos. Biroq u avval bu yerlardan Marvga tomon o‘tib borayotganida ozod, erkin inson edi. Endi esa asir sifatida olib ketilyapti.

Blokvil asir degan so‘z to‘g‘risida o‘ylardi. Uning o‘ylashicha, asirlik — o‘limdan ham jirkanch bir holat. Asirlikning har bir kuni endi Yaratgan Egamning senga atab qo‘ygan ulushigagina bog‘liq. Taqdiringga yomon kunlar bitilgan bo‘lsa, asirlik insonni nomussizlikka, itdan battar ojizlikka yetaklab borishi mumkin. Yo‘-o‘q, qismatimda qanday qabohatlar bo‘lsa-da, nomardlikka yo‘l qo‘ymasligim kerak. O‘lim insonni faqat yorug‘ olamdangina judo qilmaydi. Balki, o‘lim insonni ertaga qilishi mumkin bo‘lgan harakatlaridan ham mahrum qiladi. Ertaga ro‘y berishi mumkin bo‘lgan nomardlikni bugun o‘lim bilan almashtirish ham taqdirning senga bera oladigan obro‘li nasibasidir.

Biroq hozirgi holatida Blokvil o‘lmoqchi bo‘lsa-da, o‘lolmasdi. Sababi — hozir u tutqun, qo‘li ham orqasiga bog‘langan. Bu ahvol uning o‘zini o‘zi o‘ldirish niyatini chippakka chiqaradi. Fransuzning faqat nafas olishigina o‘z ixtiyorida, xolos. Shundan boshqa qiladigan harakatlarining barchasi boshqa bir odamning qo‘lida. Qarang-a, Blokvilning o‘zigina emas, hatto, uning o‘limi ham hozir asir edi. Uning tirikligi, hayoti turkmanlarning qo‘lida.

Yonboshdan otini tasir-tusur haydab kelgan qora mo‘ylovli, ko‘rinishi yovuz turkman ot jilovini tortib-tortmay, Blokvilni orqasida ergashtirib borayotgan turkmanga nimalardir deb asirga tikilib-tikilib qaradi. Fransuz savol-javobning o‘zi haqida borayotganini fahmladi. To‘satdan ko‘rinishi yovuz turkman fors tilida:

— Sen eroniylarning ichida kelayotgan farangmisan? — deb so‘radi.

Haqiqatni ishontirib ayta olsang, ya’ni turkmanlarga dushmanchilik qilmagan holingga yog‘iy hisoblangan asirning gunohi yengillashtirilar, degan o‘y-fikrga qattiq ishongan Blokvil bu savolga bir necha marta boshini qimirlatib: ha, ha, deb javob qaytardi.

Shunda vajohati yoqimsiz turkman chala kulumsiradi-da, yana uni ergashtirgan takaga bir nimalar dedi. O‘zi esa otdan tushdi.

Turkmanning kulumsirashini shafqat belgisi deb fahmlagan fransuz, qattiq bog‘langani uchun uvishib qolgan qo‘llarimning ipini hozir yechishsa kerak deb umidlandi.

Ulovidan tushgan turkman otining bo‘yniga bog‘langan ingichka ipdan bir quloch chamasi uzunlikda kesib oldi-da, asirga yaqinlashdi. Ikki turkman yana bir narsalar to‘g‘risida so‘zlashishdi. Blokvil suhbatning ma’nosiga tushunmasa-da, qilinadigan harakatdan endi yomonlik kutmadi. Chunki yovuz turkmanning kulumsirashidan so‘ng uning yuzidagi darg‘azablik tarqalib ketgandi. Ammo Blokvilning istagi tez orada nasib etavermadi. Hali ham kulumsirab turgan turkman qo‘lidagi ipning bir uchini fransuzning chap oyog‘ida turgan balchiqli etigiga bog‘lagach, hammasi aniq bo‘ldi. Asirning qo‘llari bog‘liq ekanligini oz deb bilgan turkman uning oyoqlarini ham otning qorni tagidagi ipga qattiq bog‘ladi. Shundan keyin qavmdoshiga ko‘p narsalar aytib tushuntirgach, otiga minib jo‘nadi.

Blokvilning sho‘riga sho‘rva to‘kilganday bo‘ldi. Oldin erkin holda qimirlatib kelgan oyoqlari endi qattiq bog‘lab tashlangandi. O‘tirishi ham, qimirlashi ham qiyinlashdi. Bularning hushyorligini qara-ya! Qo‘l-oyog‘imni bog‘lashmaganida ham qayerga qochar edim? Yoki bular meni noyob bir mutaxassis yoki sarkarda deb o‘ylashayotganmikan? O‘zining ahvolini o‘ylagan sayin Blokvilning kulgisi qistadi. Agar Hamza Mirza, Qora sartib, boshqa harbiy boshliqlar turkmanlar qo‘liga tushmay, qochib qutulgan bo‘lsalar, unda o‘ta hushyorlik bilan qo‘riqlanayotgan bitta odam Blokvil ekanligi aniq.

Blokvilning nazari tushgan joylardagi asirlarning bittasi ham otga mindirilmagan, loyli oyoqlarini sudrab piyoda borishardi. Qarshilik ko‘rsatgan yoki qarshilik ko‘rsatmoqqa moyilligi sezilgan asir eroniylarning qo‘llari bog‘lab tashlangan edi.

Qojorlarni Marv tomonga haydab borayotgan turkmanlar boshlarini tik tutib, tevarak-atrofga mag‘rur qarab borishardi. Hatto, ularning ostlaridagi otlar ham g‘alaba epkinidan sarmast bo‘lganday yengil qadam tashlab borardi.

Blokvil bilan uni qo'lga olgan turkmanning oti ustida juft kishi o'tirganligi uchun boshqa otlarday yengil harakatlana olmasa-da, yo'rg'alashlari bilanoq kayfiyati chog'ligini bildirdi: uchiga supurgi bog'laganday uzun dumi dam-badam fransuzning etigi qo'njini yoki dumg'azasini supurib bormoqda.

Blokvil qo'lga tushgan tutqunlarning birinchisi emas ekan. Hali Marvgacha yetmay turiboq, bug'doyi o'rilmay qolgan, ot tuyoqlari tepkilab somonli loyga aylangan keng maydon birpasda asirlar bilan to'ldi. Dastlab Blokvilni ham o'sha yerga olib borib tashlashdi.

Biroq uni asirlar olomoniga qo'shmay, chekkaroqda qurilgan qarovsiz xaroba uyning yonida otdan tushirishdi. Xaroba oldidagi ulkan yakka daraxtga ip bilan bog'lashdi. Blokvil shundan so'nggina boshqa tutqunlarga e'tibor bilan qaray boshladi.

Turkmanlar nima uchundir, asirlarning barchasini bitta joyga to'plashmoqda edi. Ularning boshini jamlab, bir joyda uzoq saqlamaslik uchun oqsoqollar, otliq yigitlar tutqunlarni o'n besh-yigirma nafardan guruhlarga bo'lib, turli qishloqlarga qarab hayday boshlashdi. Shu tarzda turkman yoshullilari asirlarning endi xavf tug'dirishining oldini olishmoqda edi.

Blokvilning o'zi allaqachon tomosha markaziga aylanib ulgurdi. Hozirgi vaqtda tashvishlari qancha ko'p bo'lmasin, o'tib borayotgan turkman otliqmi, piyodami — barchasi farang yigitiga qaramasdan o'tmasdi.

Qayerdandir paydo bo'lgan qo'li hassali bukri yoshulli ham Blokvilning yonida to'xtab, unga chaqaloqqa qaraganday uzoq tikildi. Voy-bo'y, shu yigit ekan-da o'sha yetmish ikkita til biladigan faranglik, deb bukri o'zicha shivirladi. — Yetmish ikkita til bilsa ham tashqi ko'rinishidan oddiy odamlardan unchalik farq qilmas ekan-ku. Tavba, Yaratgan Egamning nazari tushsa, odamni nimalar bilan siylamaydi?!

Bukri yoshullining nazari birdan boshqa tomonga burildi. U diqqat qilgan holat yetmish ikki tilni biladigan asirdan ham g'aroyib bo'lib ko'rindi. Pakana hamda dumaloq bir turkman o'zidan uch-to'rt qarich baland, baquvvat bir sarbozni oldiga solib kelmoqda edi.

Kulgi-shodlik hozir ko‘ngliga sig‘mayotganiga qaramay, baquvvat gavdali asir bilan uni oldiga solib kelgan kichkina turkmanga ko‘zi tushgan Blokvil ham beixtiyor kulib yubordi. Asir sarbozning devday qadam tashlab, boshini mag‘rur tutib kelishini ko‘rgan Blokvil uni sipohi yoki bekzodalardan biri bo‘lsa kerak deb taxmin qildi. Qo‘li orqasiga bog‘langan deyilmasa, o‘zi asirga ham mutlaqo o‘xshamaydi. Xuddi sayrga chiqqan, orqasiga hurmat bilan qorovul qo‘yilgan, yuqori martabali bir rahbar deysiz.

O‘ziga yarashib turgan bag‘baqasi, qimmatbaho movutdan gavdasiga moslab tikilgan kiyim-kechagi uning zodagon oilaga mansubligidan darak berib turardi.

Siyrak soqoli yerga tekkuday titrab-titrab kulgan bukri yoshulli unga masxaraomuz gap otdi.

— Ey, xon o‘g‘il, sen bu sarbozni yakka o‘zing tutdingmi yoki ahli qavm-qarindoshlaring bilan birgalashib tutdinglarmi? Kichkinagina gavdang bilan bunday ulkan sarbozni ushlashga nechuk jazm etding, axir?

Qariyaning bu gapi pakana turkmanning jahlini chiqardi, shekilli, u dimog‘ini shishirib kekkaydi:

— Gap odamning gavdasida emas, yoshulli! Gap mening qahramonligimda. Men bu navkardan boshqa yana besh-olti qojorning kallasini sapchaday uzib tashlaganman!

Bukri qariya battar egilib-egilib kuldi.

— Ey, xon o‘g‘il, bu so‘zingga menga o‘xshagan beli bukchayib qolgan bandasi ishonar-u, Yaratgan Egamning o‘zi, baribir, ishonmaydi-da!

Tutqunni oldiga solib kelgan turkman o‘zining aytganlari to‘g‘ri ekaniga cholni ishontirish uchun tutqun qojorning orqasiga tepib yubordi.

— Tezroq yur deyapman, senga!

Tutqun sarboz buyruqni bajarib, qadamini tezlatdi.

Buyrug‘i ijro etilganidan mamnun bo‘lgan pakana turkman oldingi holatidan ham burnini balandga ko‘tardi-da, qilgan harakatini yana bir bor takrorladi.

— Tezroq yur!

Tutqun sarboz bu gal tez yurish o‘rniga to‘xtab qoldi.

— Nega to'xtading?! — deb pakana turkman vajohatli chiyilladi.

Tutqun to'satdan orqasiga aylandi-da, g'azab bilan katta ko'zlarini pakana turkmanga tikdi.

Pakana turkmanning ingichka tovushi sun'iy dag'dag'aga evrildi.

— Kaltak yemoqni istamasang tez qadam tashla, qojor! Topding, sening o'jarligingga ko'nadigan odamingni! Mening so'zimga quloq solmay, sen o'zing kim bo'libsan?! He, sening...

Qo'ziqorinday pakana odamning maza-bemaza dag'dag'alarini eshitish tutqunning ham joniga tekkan edi. Ayniqsa, uning oxirgi gapi qojorning g'azabini qaynatdi. Haqorat eshitgan qojor qip-qizil bo'lib, bir chirangan edi, qo'llariga bog'langan eshilma ip ikki bo'lak holda uzilib yerga tushdi.

Qojor yuz ko'rinishi keskin o'zgarganidan turkman hayiqdi, qochmoqqa hozirlandi. Ammo ro'y bergan voqeaga diqqat bilan e'tibor qaratib turgan beli bukchaygan qariyaning o'tkir nazari unda yana muzaffarlik tuyg'usini uyg'otdi.

— Nima qilyapsan, endi ajalingga tezroq yetish uchun shoshilyapsanmi? — dedi turkman yana dag'dag'a bilan.

Tutqun qojor, or-nomusim kuyguncha imonim kuysin dedimi, o'ng qo'lini kuch bilan bir silkitgan edi, pakana turkman yerga ag'anab tushdi. Asir qojor boshqa hech qanaqa harakat qilmadi.

— Ha, nasibangni oldingmi?! — deya bukchaygan yoshulli temirni qizig'ida bosganday so'zida davom etdi. — Bunday baquvvat qojorni yakka o'zing qo'lga ololmaganingni ko'nglim sezgandi!

Pakana turkman ikki olovning o'rtasida qoldi. Nomusga tekkan so'zga yana javob berayin desa, ikkinchi bor boshiga tushadigan ulkan mushtdan qo'rqadi. Hech qanday harakat qilmayin desa, yana izidan izzat-nafsiga tegadigan so'zlar aytilajak.

Pakana turkman shosha-pisha o'rnidan turdi, tutqun qojorga yaqinlasha olmadi-yu, biroq tiliga erk berdi.

— Baribir, bu eronlikni yakka o'zim asirga tushirdim!

Tutqun bu gal musht bilan emas, so'z bilan do'pposladi:

— Meni sen asirga olganing yo‘q, ey ahmoq! Seningday oltovlon turkman ham meni qo‘lga ololmaydi. Meni bu holatga tushirgan sizlarning bola-chaqalaringiz ko‘z yoshi bo‘ldi...

Shu gapni aytgach, tutqun qojor asirlar to‘planayotgan tomonga hech qanday buyruq kutmay, o‘z ixtiyori bilan yurib ketdi.

Siyrak soqollari silkinib turgan bukri qariya ancha vaqtgacha bu voqeani eslab kulib turdi. Biroq g‘ala-g‘ovur ichida pakana turkmanning qay tomonga g‘oyib bo‘lganini chol ko‘rmay qoldi.

34

Yonimdagi eroniylar bo‘lmaganida edi, men o‘zimning tutqunlikdan ozod bo‘lish yo‘limni topardim. Biroq ular takalarga yaxshi ko‘rinish maqsadida meni turkmanlarga sotdilar...

Jorj Blokvil xotiralaridan

G‘alabaning ham o‘ziga xos tashvishi bo‘ladi deb hali urush tugamasdan oldin aytilganda, turkmanlarning kattadan kichigigacha hech kim bunga ishonmasdi. Biroq orzu qilingan ulug‘ g‘alaba haqiqatga aylangandan so‘ng turkmanlar yana bir g‘am-tashvishga yo‘liqishdi.

Hali aniq hisob-kitob qilinmasa-da, mag‘lubiyatdan keyin ham qochishga ulgurgan qojorlardan tashqari qo‘lga olinganlarning soni o‘n sakkiz ming nafarga yaqin bo‘lsa kerak, deb taxmin qilinardi. Tutqunlikka tushgan yog‘iyning o‘zi asir bo‘lgani bilan, ammo uning qalbi asir bo‘lmas ekan. Qo‘llari yarog‘siz bo‘lsalar-da, ulardan ehtiyot bo‘lish lozim edi. Albatta, hech qayerda tutqunlarga ko‘rpa-to‘shak, par yostiqlar berilmadi. Yeydigan narsalari ham arzimas ushoq, yoki yuvindi bo‘lardi. Shuncha tutqunning qornini to‘ydirish uchun faqat nonning o‘zi ham yetarli emasdi. O‘zlari uchun ham oziq-ovqat, don-dun ilgaridan mo‘l-ko‘l bo‘lmagan takalar Hamza Mirzaning qo‘shin surib kelganligi tufayli bu yilgi g‘allani to‘la yig‘ishga ham ulgura olmagan edilar. Shu sababli ularning barcha oziqa zaxiralari hisob-kitobli edi. O‘n sakkiz ming nafar og‘izdan tezroq qutulish — ular uchun juda muhim edi.

Taka oqsoqollarining aksariyati asirlarni Xiva, Buxorodan kelgan savdogarlarga sotish bilan mashg'ul edilar. Qullarni sotish ishidan xabardor bo'lgan kishilarning taxminiga ko'ra, o'n sakkiz ming asirni sotish orqali ular sonini keskin kamaytirish uchun eng kamida ikki hafta vaqt kerak bo'ladi.

Asirlarning tutqunlik shart-sharoitiga ko'z-quloq bo'lish, ularni vaqtincha qishloqlarga taqsim qilish ishlariga Tojko'k sardor bilan Omonsaxat sardor boshchilik qilishardi. Qishloq yetakchilari, urug' oqsoqollari bir hafta-o'n kun ichida qancha asir saqlay olishlari haqida bu ikkala rahbarning xodimlariga ma'lumot berishib, ajratib berilgan tutqunlarni oldilariga solib, qishloqlariga haydab qaytishdi.

Qo'vshutxonning shaxsan ko'rsatmasiga binoan qayerga qancha tutqun yuborilganligi borasida qat'iy-aniq hisob yuritildi. Hayotda hisobsiz narsaning o'zi yo'q. G'alaba qozondik deb orqa-oldiga qaramay harakat qilish mumkin emas. Xuroson viloyatining hokimi Hamza Mirza Xishmat Davlaning bayrog'i singani bilan dunyoda orqasi qudratli bayroqlarning barchasini sindi deb bo'lmaydi, albatta. Eronda Xurosondan boshqa ham viloyatlar ko'p. Qolaversa, Hamza Mirzadan boshqa Nasriddinshoh ham bor hali.

Uning ham turkmanlarga munosabati avvaldan ma'lum, Qarriqal'aning Munchoqli tepasida qolgan, zabun bo'lgan oh-u armonini, qasdini Nasriddinshoh Marvda olmoqchi edi, ammo bu maqsadi amalga oshmadi. Endilikda Nasriddinshoh turkmanlarning yurtiga yangi bosqin uyushtirish fikridan butunlay voz kechishi yoki belini qattiq bog'lab mash'um niyatini amalga oshirishga yana boshdan qat'iy kirishmog'i ham mumkin.

O'zini ikki taraf uchun do'st ham, dushman ham deb hisoblamagan Blokvilni turkmanlar ham dushman deb bilishmadi. Hozir hamma gap mana shunda. Uning bugun-erta tutqunlikdan ozod bo'lishi mumkinligi haqida tutqun qojorlar orasida mish-mish gap yurardi. Ayrimlar bu gapning ilk bora kimdan chiqqanligigacha aniq aytishadi.

Biroq mish-mish gap — o'z nomi ila mish-mish. Shularni o'ylab, mulohaza qilib chiqqan Blokvil o'zining asirlikdan bo'-

shatilishini iltimos qilib, shaxsan Qo'vshutxonga murojaatnoma yozdi. Ammo uning maktubi Qo'vshutxon u yoqda tursin, asirlarni taqsimlovchi katxudolarga zo'rg'a ikki kundan so'ng borib yetdi.

... Qo'li orqasiga bog'liq fransuzni Omonsaxat sardorning huzuriga eltdilar. Nomini eshitsa ham, shu choqqacha birortayam farang odamni o'z ko'zi bilan ko'rmagan Tojko'k sardor fransuzni uchratish orzusida daryo yoqasida o'rnatilgan oq uyga kelgan edi.

Bu uy ma'lum bir odamning xonadoni bo'lmay, balki tutqunlardan xalos bo'lguncha yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan muammolarni yechish uchun vaqtincha qurilgan qarorgoh (shtab) edi. Shu sababli, ushbu uy ichi turkman oilasiga mo'ljallanganday gilam va boshqa uy jihozlari bilan bezatilmagan. Faqat poygakdan derazagacha bo'lgan yerlarga gilam, kigizlar to'shalgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, oddiy uy ancha keng-mo'l ko'rinardi.

Blokvil o'zini sharoitni puxta baholaydigan yevropalik singari tutishga harakat qildi. U o'zi bilan turkman tilini yaxshi biladigan eronlikni hamroh qilgan, undan tashqari, yana bir eronlikni guvoh sifatida yoniga olgan edi. Fransuzni katxudolar yoniga eltib qo'yadigan turkmanlar esa uning kimni hamroh qilib olgani bilan, hatto, qiziqishmadi.

Blokvil o'ziga tarjimon qilib olgan eronlikni takalar bilan bo'lgan juda ko'p muzokaralarda ishtirok qilganligi uchun hamma tanirdi. Yonidagi ikkinchi eronlikni fransuzning o'zi ham yaxshi bilmasdi.

Turkmanlar fransuzning tarjimon bilan kelganidan xabardor bo'lsa-da, o'zlarining maxsus tarjimonini ham oldirgan edi.

Keng-mo'l xona ichida ikki nafar sardor va tarjimondan o'zga odam yo'q. Tutqunlar salom berib ichkariga kirgan zahotiyoq, Omonsaxat sardor yonboshida tilmochlik qilish uchun o'tirgan yigitga:

— Odamchasiga so'zlashadigan bo'lsak, bularning qo'llarini yeching! — dedi.

Sardorning aytganini bajargan yigit yana o'z joyiga borib o'tirdi. Omonsaxat sardor bu uyda o'zining mavqeyi balandligini sezdirgisi kelib:

— Biz sening shikoyatingni eshitishga tayyormiz, Xudoning bandasi! — dedi. Bu bilan go'yo u o'zini Jorj Blokvilga oldindan tanish odamday ko'rsatib, asirning yuziga tikildi. — Asirlik dardisari natijasida arz-shikoyat qilish uchun hammadayam bahona topiladi, — deb so'zida davom etdi so'ng. — Arz-shikoyat qilmoq uchun bizlarda ham asos ko'p. Biroq sen eronliklardan boshqa bir millatning odami bo'lganing uchun arz-dodingni eshitishga rozi bo'ldik, bo'lmasa...

Omonsaxat sardor aytilishi kerak bo'lgan so'zining oxirini ichiga yutgan bo'lsa-da, fransuz u aytgan gaplarning ma'nosini angladi. Sardor to'g'ri gapirayotgandi. Boshqa millat odami ekanligiga alohida e'tibor berishibdi. Shungayam shukur. Aslida-ku, fransuzning dodini eshitishga ko'p vaqt ham talab qilinmaydi. Qolaversa, hozir turkman oqsoqollarining vaqtlari o'ta ziq edi. Ularning, hatto, bemalol uxlash uchun ham imkon yo'qligi yuzlaridan ko'rinib turardi.

Shunday bo'lsa-da, o'zining bandilikdan ozod etilishiga to'la ishonib kelgan fransuz turkman sardorining bunday so'z ohangiga biroz ajablandi.

— Men eronliklarning asiri emasman, muhtaram sardor. Men fransuz armiyasining kaprali Jorj Anri Gulibef de Blokvilman!

Omonsaxat sardor nima uchundir, tilmochning yuziga qarab gapirdi, so'zlayotganda labi kulumsiradi.

— Sen kimning vakili bo'lsang ham, bizning eshigimizdan Xudo mehmoni sifatida kirgan odam hisoblanmaysan. Eng avvalo, sen ana shuni tushunishing kerak.

— Men sizning yurtingizga dushman sifatida kelmaganman, janob sardor! — Blokvil ham o'z navbatida yuzini tarjimonga burib gapirdi.

— Dushman bo'lmasliging mumkin. Biroq dushman bilan birga kelgan odam yo dushman bo'ladi, yo bizning yog'iy ichidagi ma'lumotchimiz bo'ladi. Sen turkmanning do'sti ekanligingga ishonchimiz bo'lmasa-da, turkmanning dushman ichidagi o'z odami emasligingga ishonchimiz bor.

Blokvil yana nimalardir dedi. Biroq tilmoch turkman tiliga tarjima qilishga ulgurmasdan, Omonsaxat sardor so'zida davom etdi.

— Biz bu yerda tortishib o‘tirmaylik, Tangri bandasi. Biz sening arz-dodingni eshitaylik.

Blokvil ham shu taklifni kutib turganday, o‘z vazifasini ado etayotgan tarjimonga qarab shartta-shartta gapira boshladi:

— Men sizning tuprog‘ingizni bosib olish uchun kelmaganman! Sizlar uchun dushman ham emasman. Men bu voqea-hodisalar ichiga tasodifan tushib qoldim. Men sizlarning yurtingizga kelib qilgan ishim forslar topshirig‘i bo‘lsa-da, u yumush aslida sizlar uchun ham kerakli ish...

Blokvilning aytmoqchi bo‘lgan fikrlari naf bermadi.

Omonsaxat sardor chap qo‘lini yuqoriga ko‘tarib: “To‘xta!” degan ishorani qildi.

— Eng avvalo, sen qanaqa foydali ish bajargan bo‘lsang ham, u — bizning dushmanimiz buyurgan yumushdir. Demak, u bizning dushmanlarimizga foydali ish bo‘lgan. Dushmanimizga foydali ish qilgan odamning esa bizga do‘st bo‘lmasligini o‘zing ham yaxshi bilib turibsan, Tangri bandasi. Ikkinchidan, turkmanlarga ham foydali degan ishingni xalqimiz sendan iltimos qilgan emas.

Ishlatmoqchi bo‘lgan hiyla qilichi farosat toshiga tegib singan Blokvilning umid ipi hali uzilmagan bo‘lsa-da, uzilish darajasiga yetib keldi. Shu sababli ham uning aytgan keyingi dag‘dag‘ali so‘zlari asossiz va o‘rinsiz chiqdi.

— Meni tutqun sifatida tutib turishga sizning haqqingiz yo‘q!

Omonsaxat sardor kulumsirab o‘tirdi-da, mutlaqo kutilmagan savol berdi.

— Sening o‘zing asli necha yoshga kirgansan, Tangri bandasi?

— Men yigirma sakkiz yoshdaman.

Sardor bergan savolning ma’nosi to‘g‘risida fikr yurita boshlagan fransuzning ovozi endi ishonchsizroq chiqdi. Sardor nima sababdan mening yoshim bilan qiziqayapti? Yoki mening gapimga ishonishmayaptimi? Nega? Nima, men ozodlikka chiqish uchun tashvish chekmasligim kerakmi? U ovozini ko‘taribroq so‘zlay boshladi.

— Meni zudlik bilan bandilikdan bo‘shating! Mening xohishim ana shundan iborat, janob sardor!

Blokvilning talab ohangidagi ushbu so‘zlari Tojko‘k sardor bilan Omonsaxat sardorni endi hayron qoldirdi.

— Men buyuk Fransiya davlatining vakili ekanligimni unutmasligingiz kerak, janob sardorlar!

Bu so‘zlar ham turkmanlarga tez ta’sir etdi. Shoh bo‘lsang ham, gado bo‘lsang ham ulug‘ davlatning shohi, gadosi bo‘lgan yaxshi ekan-ov! — dedi Omonsaxat sardor ichida. — O‘zi bandilikda o‘tirgan odam-ku, dag‘dag‘a qilib gapirishini qarang buning! Suyanchi bor it bo‘ri tutar deganlari rost shekilli!

Blokvilning o‘zi ham gapirish ohangining yuqori pardalarga chiqib ketganini tushundi-da:

— Hozirgi og‘ir ahvolim meni shunday so‘zlashga majbur qildi, — deb so‘zini yakunladi.

Blokvilning keyingi aytgan so‘zlari bir jumladan ko‘p bo‘lmasa-da, tilmoch uni uzoq vaqt tushuntirdi. Bu gal suhbatga tilmoch bilan guvoh sifatida taklif qilingan qojor ham qo‘shildi. U ikki-uchta turkmancha so‘zga forscha so‘zlarni qo‘shib gapirdi. Blokvil bundan tarjimon sizlarga haqiqatni aytdi, degan ma’no uqdi. Tarjimon izohlaridan so‘ng Omonsaxat sardorning ham, Tojko‘k sardorning ham, ular yonidagi yigitning ham Blokvilga qarashlari boshqacharoq tus olganday bo‘ldi. Ularning endigi nazarida yangi bir qiziqish alomatlari paydo bo‘ldi. Buni Blokvil keyinroq tushundi.

Tarjimonning izohidan, fransuzlar juda boy odamlar, mamlakat — boy mamlakat, agar turkmanlar bu asirni qattiq ushlab, savdolashmoqni eplayolsalar, Fransiyadagi homiylari uning uchun bo‘yi baravar oltin bera oladigan boy-baquvvat kishilardir, degan ma’no kelib chiqdi. Blokvil bu gapni ertasi kuni fors tutqunlarining biridan bilib qoldi.

— Agarda siz, janob sardorlar, mening xohishimni o‘zlaringiz qanoatlantira olmasangizlar, hozirning o‘zida meni muhtaram Qo‘vshutxonning huzuriga olib boringlar.

Tutqunlikdan ozod qilinmog‘i uchun qancha pul so‘ralsa, shuncha oltin pul to‘lashga qurbi yetadigan, ust-boshi loyga bulg‘angan fransuzga hali ham hayron qolib qarab o‘tirgan Omonsaxat sardor:

— Xuddi bugun degan gaping amalga oshmasa kerak,— deb yumshoqlik bilan javob berdi. — Bizning bosh xonimiz bugun-er-

ta seni o‘z huzuriga chaqira olmaydi. U hozir juda katta tashvishlar bilan band, besh-o‘n kunda ozod bo‘lolmasa kerak.

Javob juda tushunarli edi. Lekin Blokvil ham bo‘sh kelmadi. Endi unga, baribir, yo‘qotadigan narsasi yo‘q.

— Men talab qilaman! Buyuk Fransiya davlatining vakili sifatida talab qilaman!

Keyingi so‘zlar uncha-buncha gapga e’tibor bermaydigan Omonsaxat sardorning ham jahlini chiqara boshladi. Uning ovozi ko‘tarilmagan bo‘lsa-da, ohangida qat’iyat sezildi.

— Sen biroz adashayotganga o‘xshaysan, Tangri bandasi. Biz sening davlatingning buyukligiga shubha qilmaymiz. Biroq biz o‘sha buyuk davlat vakilini chopar yuborib chaqirmaganmiz. Undan tashqari, sen ulug‘ davlatning vakili bo‘lsang ham, hozircha bizning asirimizsan. Shu sababli, sen biz bilan ulug‘ davlat tilida so‘zlashmay, hozirgi sharoitingdan kelib chiqib gaplashsang, yaxshi bo‘lardi. Turkman ham o‘z ustidan hech kim hukm yurgizmasin deb juda ko‘p qon to‘kdi. Sen bizning qo‘limizda tutqun ekansan, bizning ko‘rpamizga qarab oyoq uzatasan. Ko‘rpamiz senga kaltaroq kelsa, oyog‘ingni biroz yig‘ibroq yotasan.

Blokvil Omonsaxat sardorning tagdor so‘zlarini eshitib, unga ham shunga yarasha savol berdi.

— Unda qachon menga oyog‘im chiqib turmasday uzunroq ko‘rpa nasib qilar ekan?

— Uni, Xudo buyursa, buyuk yurtingga borganingdan so‘ng yopinarsan. Hozircha esa, bechorahol chorvador senga shafqat qilib nima yopgan bo‘lsa, shu bilan qanoat qilasan.

Omonsaxat sardorning barcha aytganlarini mushohada qilib ko‘rgan Blokvil o‘zicha turkmanlarni Bonito-Benito[1] kabi gapga tushunmaydigan xalq deyishardi, bu to‘g‘ri emas shekilli deya shivirladi.

---

[1] **Bonito-Benito** *(Aleksandr Graxam)* — yo‘lto‘sarligi bilan XIX asrda Yevropada mashhur bo‘lgan dengiz qaroqchisi.

35

Katxudolar farosatli va odil odamlar orasidan saylanadi. Ana shunday katxudolarning biri bo'lgan Qo'vshutxon ayyorligi, siyosiy usullarni qo'llashga ustaligi, boshga tashvish tushsa o'zgalardan tezroq to'g'ri yo'l topishga uquvliligi bilan ajralib turardi.

Jorj Blokvil xotiralaridan

Marvda tutqunlar soni va qo'lga tushgan qurol-yarog'lar juda ko'p bo'lganligi sababli, bir qulning bahosi besh yuz tilladan besh tillagacha tushdi.

M. Alixonov
"Marv vohasi va unga eltadigan yo'llar" kitobidan

O'n sakkiz ming eronlik qo'lga olingan edi, shundan keyin bir qulni uch-to'rt tillaga sotib olish mumkin bo'lib qoldi.

A. Vamberi
"O'rta Osiyoga sayohat" asaridan

Jorj Blokvil o'zini kelgindi hisoblaganligi sababli, Tehronga nasibasi qo'shilganidan beri hech kim bilan bahs-munozaraga kirishmagan, hech kimning ko'nglini og'ritmagandi. Begona itning dumi choti orasida deganlariday, da'vo-janjalga aralashishi mumkin bo'lgan damlarda ham u orqaga chekinardi. Fikr yurita-yurita, eronliklar o'zini nima sababdan turkmanlarga sotganining ma'no-maqsadini tushuna olmadi. Axir, u tutqunlikda qolib ketgani bilan eronliklar bundan hech nima yutmaydi-ku!

Blokvil o'zini turkmanlarga dushman deb hisoblamasdi. Demak, asir ham emas. U aslo o'zining tutqunligiga ishonmas, aksincha, turkmanlarning bosh xoni Qo'vshutxon huzuriga borishga, undan o'zini tutqunlikdan ozod etishlarini so'rashga qat'iy bel bog'ladi.

Lekin Omonsaxat sardor bilan uchrashgandan keyin Blokvilning sharoiti yengillashish o'rniga og'irlasha boshladi. Asirlarning qo'lini bog'lash uchun, hatto, ip topilmay turgan bir vaqtda, Blokvilning qo'liga zanjir ham tushdi. Shu zaylda, o'ziga yaxshi-

lik umid qilgan fransuz yomonlikka duch keldi. Shunday bo'lsada, u hozir taqdiridan afsus qilmasdi. Anglab yetgani shu bo'ldiki, agar o'zi uchun o'zi harakat qilmasa, boshqa odamdan madad bo'lmasligiga ko'zi yetdi. Bundan tashqari, zarur vaqtda qo'llashsa kerak deb umid bog'lagan eronliklardan naf chiqmasligiga amin bo'ldi. U yana bir narsani, o'ziga ikki qulning bahosi qo'yilganini — narxi 464 frankka kesilganini bilib oldi.

Blokvilning o'zida buncha miqdordagi pul yo'q. Uning boy-baquvvat deb taxmin qilgan tanishlaridan qarz so'rash xohishi ham amalga oshmadi. Turkmanlarga asir tushgan Abdul Alixondan fransuzning umidi katta edi. Biroq oddiy tutqun sarbozlardan alohida saqlanayotgan va ulardan yaxshiroq parvarish qilinayotgan sartib tilanchi fransuzning qornini bir marta to'yg'azganini hisobga olmaganda, asosiy masalada yordami tegmadi. Blokvil Hamza Mirza bilan Qora sartibning o'z yaqinlarini ham olib, turkmanlarning qo'liga tushmay, Mashhadga qochib ketganlarini asir sartibdan bilib oldi.

Tutqun sartib Abdul Alixon bilan uchrashgan kunining ertasi — Blokvilning ham qul sifatida sotilmog'i yoki qamoqda tutqun tarzida saqlanishga yuboriladigan kuni edi. O'sha tun u o'z qismati haqida uzoq o'yladi. Tuzukroq uxlayolmadi. U Xiva, Buxorodagi qul bozoriga yuboriladigan asirlar qatoriga qo'shilib qolmasligini Yaratgandan yolvorib so'radi. Uning uchun eng xavflisi — qul sotib olish uchun bu yerga Marvdan allaqachon yetib kelgan Xiva qulfurushlari qo'liga tushib qolish. Turkmanlardan arzon bahoga sotib olib, Xivaga jo'natishsa, unda fransuzning orqaga qaytishi so'zsiz qiyinlashadi. Ammo har yomonlikning ham bir yaxshi tarafi bo'lishi mumkin. Agar bu yomonlikning ham yaxshi tomoni jamol ko'rsatib qolsa, ya'ni eronliklarning Blokvilni boy-badavlat deb turkmanlarga gullaganligi — uning Xivaga ketmasligiga sabab bo'lishi hech gap emas. Chunki Blokvil tufayli mo'may pul undirishni istagan takalar uni Xiva, Buxoroga arzon baholarga sotib yubormasa kerak?!

Demak, umid qildi Blokvil, Xiva, Buxorodan qutulib qolsam, turkmanlar boshqa tutqunlardan ham xalos bo'lib olgach, tashvishlardan qo'li bo'shagan Qo'vshutxon bilan ham uchrashish

uchun imkon tug'ilib qolar? Agar bosh xon qabul qilmasa, Blokvil unga xat orqali murojaat qiladi. Qachon yozilishi noma'lum, yozilish-yozilmasligi ham noma'lum bo'lgan ushbu xatning mazmuni uning miyasida pishib-yetilib yuribdi: "Muhtaram Qo'vshutxon! Ko'p hurmatli janob Qo'vshutxon...".

... Oldindan xabar berilgan qishloqlardan Marvning Xono'tgan bozori degan maskanga juda ko'p odam yig'ila boshladi. O'zlarining xavfsizligi to'g'risidagi tashvishni esidan hech qachon chiqarmaydigan oqsoqollar kengashi qaroriga ko'ra, turkmanlarga tutqunlikka tushgan asirlarning barchasini bir kunga yig'ishmadi. Ularni soniga ko'ra bir necha guruhlarga bo'lib, Xono'tganga chaqira boshladilar.

Bandilarning boyroqlari, o'zlariga qo'yilgan bahoni to'lay oladiganlari, shuningdek, tutqun sarkardalardan xalos bo'lish masalasi biroz keyingi muddatga qoldirildi. Chunki bandilikdan qutulishga umidi borlar yaxshi kunlarni sabr-toqat bilan kutishga qaror beradilar. Biroq yaxshi kunlarning qachon kelishi noma'lum, qo'lidagi ip yo zanjirdan boshqa yo'qotadigan narsalari yo'q notavon va g'arib asirlarni uzoq tutib turish turkmanlar uchun ham xavfli edi. Kambag'al bandilar o'zlarini qutqarmoq uchun qora kuchlarini ishga solishlari ehtimoli bor. Ana shunday asirlardan zudlik bilan qutulmoq kerak edi.

Blokvil uchun bandilik qismatining qayerga tushishining belgilanish muddati taqsimotning ikkinchi kuni hal bo'ldi. Uni ham o'ttiz-qirq tutqunga qo'shib Xono'tganga olib borishdi. U oldindan tanish eroniylarning birortasini uchratarman deb yuzlarcha asirning barchasini ko'zdan kechirib chiqdi. Lekin tanish chehra uchramadi. Asirlarning holi nihoyatda tangligiga ko'zi yetdi. Urush tugagandan keyin o'tgan bir hafta davomida ularning nochor holda yashaganliklari bilinib turardi. Bundan tashqari, asirlarning ruhlari tushib ketgan, shu sababli ularning ko'rinishi nihoyatda abgor, yurganlarida ham oyoqlarini zo'rg'a sudrab bosishadi.

Qo'llari orqasiga bog'liq yuzlab asirlar-u ularni qo'riqlayotgan o'nlarcha turkman orasida birdaniga avsharlar katxudosi Yusufxonga Blokvilning nazari tushib qoldi. Shu payt, odamlar orasidan o'tib, kimdir birining yoniga yetmoq qiyin bo'lsa-da, Blokvil unga

yaqinlashib keldi, biroq so'zlashishning imkoni bo'lmadi. Bosh qimirlatib salomlashganidan keyin, Yusufxonning o'zi:

—Men sizning qilgan yaxshiligingizni unutmayman, janob kapral! — dedi.

Qo'li orqasiga bog'liq qulga janob deyishsa qiziq ko'rinarkan-a?! — deya ichida kulib qo'ygan fransuz zo'rg'a savol berdi:

— Qismat sizni qayerga tashladi, xon?

— Men topazlarga qarashli yerdaman. Olashayop qirg'og'iga yaqin. Men tez kunlarda ozod bo'lishim mumkin. Xurosondagi yor-do'stlar tashvishimni qilib yotishibdi... Ozod bo'lsam... Sizning yaxshiligingizni esimdan chiqarmayman...

Odamlar orasiga singib ketgan Yusufxon shunday deya ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Sal o'tmay Blokvilning ko'z qorachig'lari yana charaqlab ketdi. U xuddi yoshligida birga o'ynab-o'sgan teng-tushiga duch kelganday quvondi. Asirlar orasida urush vaqtida loydan to'p yasab o'tirgan o'smirga ko'zi tushdi. U ham fransuzga qarab qo'yganday tuyuldi. Blokvil o'smirning tanish nigohiga tabassum bilan javob qaytardi. Chekkadan nazar tashlansa, o'smirning tashqi ko'rinishi boshqa asirlarga qaraganda tuzukroqqa o'xshardi. Yurish-turishi, atrofga qarashlari dadil va qat'iy, qadam tashlashlari epchil, nigohi sog' odamniki kabi ma'noli edi. Kiyim-kechagi ham kecha yoki o'tgan kuni yuvilganga o'xshaydi.

Blokvil uning ruhiyati yaxshilanganiga sevindi. Balki u so'nggi kunlarini rahmdil insonning qo'lida o'tkazgan bo'lsa kerak. Bo'lmasa, esi og'gan, kasalmand, nimjon o'smirning birdaniga bunchalik o'zgarib ketishi mumkin emas-ku. Balki... O'smirni ko'rib o'z sharoitini unutayozgan fransuz yana o'zining eski tashvishlariga o'raldi. Negadir Xiva yo'lini, uzoqdagi xonlikni o'yladi. Balki bu o'smirning nasibasi ham o'sha tomonlarga sochilgandir? Buningday yosh yigitchani har qanday odam qora ishda foydalanish uchun xarid qilishi mumkin. Savdogarlarga ma'qul bo'lmaydigani — yoshi o'tgan keksalar-u, o'zini tutolmaydigan asirlar...

Asir o'smirni iziga ergashtirib kelgan odam— qalin sochlarini baland lachagi ostiga yashirib bostirgan ayol edi. Ayolning ikki dona old tishlari boshqalardan farqlanib, oldinga chiqib ketgan,

bu esa uni jilmayib turganday qilib ko‘rsatardi. Haqiqatda esa ko‘zlari g‘am-g‘ussali. U ko‘p kulfat va mashaqqatlarni boshidan o‘tkazgani sababli sochlari ham barvaqt oqargan edi.

Asirlar orasiga tarqalgan va Blokvilning ham qulog‘iga yetgan xabarga ko‘ra, turkman ayoli bu o‘smirni o‘ziga o‘g‘il qilib olish uchun Xono‘tganga kelgan emish. Aytishlaricha, agar bu o‘smir sarboz rozi bo‘lsa, onaxon uni uyiga olib ketmoqchi. Bunga sabab — asir yigitcha ayolning bundan besh-olti yil burun to‘satdan yo‘qolib qolgan o‘g‘liga o‘xshashligi.

Dastlab ko‘rganda o‘ylagan taxmini to‘g‘ri chiqqan Blokvil asir o‘smirning keyingi qismati bilan ham qiziqa boshladi.

Onaxon o‘smir sarbozning qo‘lidan tutganday tutqunlarni taqsim qilayotgan oqsoqollardan birining yoniga keldi. Tashvishlari boshidan oshib yotgan taqsimlovchilarning hech biri unga e’tibor bermadi, holini ham so‘ramadi.

— Omon-esonmisizlar? Sog‘-salomat yuribsizlarmi? — deb ayolning o‘zi berilmagan salomga alik oldi. Uning ancha masofadan jaranglab eshitilgan ovozi, kampirning qulog‘i ham og‘ir ekanligidan darak berardi.

— Sohid polvon kim bo‘ladi? — deya onaxon yana qattiq ovozda so‘radi.

— Men bo‘laman! — deb taqsimlovchilardan biri javob berdi. — Menga nima xizmatingiz bor, onaxon?

— Sening taging cheltaklarga borib taqaladi. Shuni bilasanmi, bolam?

— Kelib chiqishimni bilmasam ham takaligimni bilaman. Bizga nima xizmat bor?

— Men ham cheltaklardan.

— Cheltak bo‘lsangiz juda yaxshi. Bu yerga urug‘-qabila surishtirishga keldingizmi?

— Men ham cheltaklardanman deyapman senga. Shuning uchun ham menga seni qidirib top dedilar. Mana shu asirni menga beringlar. Sen cheltak bo‘lsang, o‘z cheltakliklaringga nafing tegsin.

Sohid polvon juni uzun silkma telpagini chiroyli selkillatib kuldi.

— Obbo onaxon-ey, siz endi cheltaklar sonini kam ko‘rib, uni asirlar hisobiga ko‘paytirmoqchi bo‘lyapsizmi?

Keksa ayol Sohid polvon aytgan so‘zlarni yaxshi eshitmadi.

— Shu o‘smirni menga beringlar.

— Qancha tangangiz bor?

Keksa onaxon o‘ziga ma’nosiz qarab turgani uchun taqsimlovchi qattiq baqirdi:

— Qancha tangangiz bor deyapman sizga!

— Nimalar deyapsan? Menda tanga nima qilsin? Men shu yoshimgacha tanga degan narsani ushlab ham ko‘rmadim. Biroq sirtdan ko‘rganman.

— O‘sha sirtidan ko‘rganingizdan qancha tanga bor? Tanga to‘lamasangiz asir berilmaydi, axir!

— Shunaqami? — dedi-da, kampir to‘satdan yig‘lab yubordi. Yosh to‘la ko‘zlarini asir qojorga tikdi.— Bu norasida Avazgeldijonga o‘xshab turibdi. Xuddi bir olmaning ikki yuziday...

— O‘g‘il qilib olmoqchimisiz? — deya kampirning ko‘z yoshlarini ko‘rib ko‘ngli yumshagan Sohid polvon past ovozda so‘radi.

Savolni eshitmagan onaxon so‘zida davom etdi.

— Avazgeldijonga o‘xshayapti. U ham bunga o‘xshab qoracha edi. Nozik-niholligini ayt. Men buning tiliga ham tushuna olmayman... Menga uning tili ham kerak emas. Necha kun nasibasi bor bo‘lsa, unga qarab bir to‘yay. Agar o‘g‘il bo‘lib uyda qolsa, Xudoning menga rahmi kelgani shu bo‘ladi. Qolmasa, baxti ochiq bo‘lsin. Boshqa nima ham deya olaman...

Sohid polvonning yonida turganlardan biri uning qulog‘iga nimalardir deb pichirladi.

— Yaxshi! — deb polvon unga bosh qimirlatdi, keyin ayolga qaradi. — O‘g‘lonni oling-u, keting. Sizning tangangiz ham kerak emas.

— Tangam yo‘q deyapman-ku, senga.

— Men ham shuni aytyapman-da! — deb Sohid polvon qo‘lini silkitdi. — O‘g‘lonni oling-u, uyingizga ketavering!

Bu yerda qanday gap-so‘zlar bo‘lganiga tushuna olmagan sodda qojor qanday kelgan bo‘lsa, shunday holda yana keksa ayolning iziga tushib ketdi.

Eroniy o‘smir asirlikdan chiqib, asirlikka ketgan bo‘lsa-da, Blokvil uning izidan xursand bo‘lib qarab qoldi.

Bugun mol-hol sotiladigan Xono‘tganda qul savdosi avjiga chiqdi. Bozor xuddi o‘tgan bozorlarday shovqin-suronli, qizg‘in savdo ovozlariga boy. Jarchilarning ovozi, savdolashayotganlarning nashidasi bugun ham baland. Oldinlari yo‘qotilgan yoki topilgan mol-hollar to‘g‘risida ovozlarini baralla qo‘yib gapiradigan jarchilar endi: “Falon oqsoqolda faloncha hunarli qul bor!” — deb xabar berishardi, — ularning baholari buncha tanga, — deyishardi. Oluvchilarning ko‘pchiligi xivalik yoki buxorolik qul savdogarlari edi.

Qul savdogarlarining ko‘pchiligi turkmanlarning asirlardan qancha tezroq qutula olsalar undan o‘shancha shod-xurram bo‘lishlaridan xabar topganlari sababli tutqunlarga Xiva, Buxoro bozorlaridagi yurib turgan narxdan yuz hissa past baho qo‘yishardi. Turkmanlar ham uzoq tortishib turmay, narxni aytilgan joyidan kesishardi. Odam jalloblari Xono‘tganning qo‘y-echkilar bog‘lanadigan uzun xodalariga sotib olingan bandilarni ikkita-uchtadan bir-birlariga mahkam bog‘lab, uchlarini xodaga o‘rashar, atrofiga qorovullar qo‘yishib, yangi qullar sotib olish uchun orqalariga zudlik bilan qaytishardi. Ular inson taqdirini arzimagan pulga sotib olib, uni qimmat bahoga sotish bilan mashg‘ul edilar. Hozir ular uchun insof ham, odamgarchilik ham yo‘q hisobi. Ular faqat qul haqida fikr yurtishar, qul ham bo‘lmaganlarning oxirati o‘lim bilan nihoya topishi to‘g‘risida o‘ylab ko‘rishmasdi. Qul jalloblarining ongi, yodi faqat pul, oltin, kumush so‘zlari bilan band, bu narsalar ularning insof-diyonati, odamgarchiligi edi, go‘yo. Ular azroyilni ham pul bilan sotib olish mumkin deb bilishardi. Shu sababli, bir qulni — ikki, ikki qulni — uch nafarga ko‘paytirish ular uchun bayram edi. Shu tariqa odam jalloblari mol bozorining inson qismati bozoriga aylanganiga nihoyatda xursand edilar.

Sotib olingan bandi-qullar ham xarid qilingan hayvon singari tilsiz-zabonsiz buyumga aylanishadi. Xarid qilingan hayvon uchun bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga o‘tganining farqi bo‘lmaydi. Suvsirasa — suv berilsa, ochiqsa — o‘t-yem berilsa, hayvonga boshqa narsa kerak bo‘lmaydi. Jonivor uchun qaysi yurt, qay-

si joy, qaysi elda yashashning tafovuti yo‘q. Chunki ularda yurt sog‘inchi degan tuyg‘ular yo‘q. Marvdagi mol bozoridagi bu galgi oldi-sotdi paytida, mol o‘rnida sotilgan qullarda barcha insoniy tuyg‘ular mavjud edi. Xudoning inson atalmish bandasi qorni to‘ygan boy-badavlat joyni Vatan deb hisoblayvermaydi. U och-yalang‘och bo‘lsa-da, kindik qoni to‘kilgan ona tuprog‘ini Vatan deb biladi.

To‘satdan Xono‘tgan bozori tarixida birinchi bor o‘tkazilayotgan ulkan qul savdosi shovqini keskin pasaydi. Blokvilning nazari yetgan masofadagi joyda turkmanlar va boshqa turli manzillardan kelgan qul jalloblari sotib olingan va sotilayotgan bandilarni bir tomonga sura boshladilar. Ulkan Xono‘tgan bozorida ikki chekkasi odamlar bilan liq to‘la yo‘lak hosil bo‘ldi.

Bozordagi barcha xatti-harakatlarni birinchi bor hayratda lol qolib kuzatib turgan fransuz buning qandaydir shon-shavkatli, yuqori martabali kishining bozorga kelishi bilan bog‘liq ekanligini fahmladi.

Ko‘p o‘tmay yo‘lakda ozoda kiyim-boshli besh-olti nafar otliq paydo bo‘ldi. Bu otliqlarga qarab, to‘shi keng, baquvvat — uchqur oq ot ustida egarga yelimlanganday mahkam o‘tirgan vajohatli kishiga ko‘zi tushganlardan biri:

— Qo‘vshutxon kelyapti! — deya baland ovozda baqirdi.

Qo‘vshutxon degan nomni urush boshlanmasdan oldin qojorlar sarkardasidan tortib, oddiy sarbozgacha hech kim eshitmagan edi. Urushdan salgina avval esa, bu nom o‘sha paytdagi oddiy bir sardorning ism-sharifi sifatida baralla aytila boshladi. Dastlab ushbu nom qo‘lidan mol boqishdan boshqa hech narsa kelmaydigan soddadil chorva xalqining oddiy yetakchisini anglatardi. Hozir esa Qo‘vshutxon degan nom qojor tutqunlariga ham, turkmanlarga ham o‘ta kuchli ta’sir ko‘rsatadigan nomga aylandi. Mana hozir ham Xono‘tgan bozoridagi qimirlagan jonning nigohi ko‘zga aylanib, Qo‘vshutxon tomonga tikilgandi. Qo‘vshutxonni ko‘rgan tutqunlar xayolida turkmanlarning barchasi tiz cho‘kib, sardor oldida bosh egib, ta’zim qilishsa kerak degan fikr paydo bo‘lgandi. Ular ham turkman xoni oldida tiz cho‘kishga hozirlandilar. Ammo bunday bo‘lmadi. Otliqlarga o‘tib ketish uchun yo‘l berildi. Ko‘p

ming kishilik odamlar orasida bosh xonning — shu paytgacha kutilmagan g'alaba qozonishda behad ulkan ulushi bor xonning oldida ta'zim qilgan, qo'l qovushtirgan birorta turkman topilmadi. Ko'p vaqtini Sharq xalqlari orasida o'tkazgan, kun davomida bir necha marta oliy maqomli mansabdorlarga ta'zim qilganlariga guvoh bo'lgan fransuzni endilikda bu hol lol qoldirdi.

Qo'vshutxon va uni qo'riqlab kelgan tansoqchilar Blokvil turgan yerdan o'n besh-yigirma qadam chamasi uzoqlikda otlarni to'xtatdilar. Hozir fransuzning Qo'vshutxonga havasi keldi, sababi — birinchidan, qojorlar bilan o'ziga xos urush usulini qo'llab, aql bovar qilmaydigan g'alabani qo'lga kiritgan sarkardani yaqindan ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ikkinchidan esa, Qo'vshutxonning paydo bo'lishi bilan qalbida uyg'ongan umid uchquni fransuzni xonga yaqinlashmoqqa, xonning diqqat-e'tiboriga tushishga undardi. Blokvilning fikriga ko'ra, boshqa tutqunlarga o'xshamaydigan yevropalikka bosh xonning nazari, albatta, tushishi mumkin. Xono'tgandagi minglarcha asirlar orasida yakka-yolg'iz fransuzning ham borligi hammaga ma'lum, axir. Balki bu to'g'rida bosh xon ham eshitgandir? Balki... Soqol qo'yishga ruxsat berilmagan o'lkaga soqol qo'yib borgan boshqa bir yurt vakilining soqolini qirganlari sababli ikki davlat o'rtasida paydo bo'lgan da'vo-janjaldan urush boshlanib, minglab odamlarning qirilib ketganligiga tarix guvoh. Balki Qo'vshutxonning bir e'tibori sabab bo'lib, men ham asirlikdan ozod bo'larman?! Tug'ilmoqning ham, o'lmoqning ham asl sabablari bo'ladi. Balki bosh xonning qul bozoriga kelishi — mening ozod bo'lishimga sababchi bo'lish uchundir?.. Istagini amalga oshirish uchun odamlar orasidan qadam-baqadam ilgarilab, Qo'vshutxon turgan joyga ming mashaqqatlar bilan yaqinlasha boshladi.

Qo'vshutxon Xono'tganning boshqa burchaklariga nima maqsad bilan borganligi, aylanib yurganligi noma'lumligicha qolgan bo'lsa-da, bu yerga — manaman degan taka oqsoqollarining eng ko'p to'plangan joyiga nima maqsadda kelganligi darrov ayon bo'ldi.

Yuz bergan holatga ko'ra orqaga chekingan odamlar xonning to'xtagan joyida aylana hosil qilib, uni o'rab oldilar. O'sha joyga

ikki nafar baquvvat turkman qo'li orqasiga bog'langan kishini olib kelishdi. Qo'li orqasiga bog'langan turkman Qoramurt edi.

— Bu kishi Saidnosir qabristonining yonida qo'lga olindi, — deb Qoramurtni olib kelganlarning orqasida paydo bo'lgan, istarasi issiq yoshulli Sohid polvonga axborot berdi.

— Qilmishi nima? — savol berdi Sohid polvon.

— Bir tuyaga yuklangan o'ljani olib qochib borayotgan ekan...

Bosh xon ham voqeaga diqqat bilan qarab turgach, haqiqatga shubha qoldirishini istamagan Sohid polvon yana savol berdi.

— Tuyadagi yuk nima ekan?

Bunday savolga oldindan tayyor bo'lgan yoshulli aytayotgan narsalarni osib qo'yilgan qog'ozdan o'qiyotganday boshini osmonga tik tutib, sharta-sharta ayta boshladi.

— Bir to'p movut mato, ikki dona ipak ko'rpa, ikki dona sopi kumushli xanjar, bir dona miltiq.:.

Marv jangida qojorlardan turkmanlarga qolgan o'lja son-sanoqsiz edi. Hozircha barcha o'ljani bir joyga yig'ishmasa-da, uning uchdan bir bo'lagi ham takalarning qora boshlarini xavfga qo'yib yillar davomida qilgan olomonchiliklaridan[1] to'plagan o'ljadan ko'p edi. Shu bugungacha yig'ilgan o'lja ichida yuzlarcha sopi fil suyagidan ishlangan o'tkir xanjarlar, minglab nayzalar, chaqmoqli, misli miltiqlar, yuzlab qo'shog'iz farang to'pponchalari, sovutlar, piltali uzun miltiqlar, o'ttiz uch dona sariq to'p, bir necha kichik to'pchalar bor edi. Harbiy narsalardan tashqari, oltin yugurtirilib, zarhaldan muqovalangan Qur'oni karim kitobi, zarhal bilan tikilgan va kashtalangan kiyim-kechaklar, atlas va ipak matolar, ipakdan tikilgan ko'rpa-to'shak, yostiqlar, movutdan tikilgan harbiy kiyim-kechaklarning son-sanog'i yo'q. Atlas-u ipakdan tikilgan chodirlar, ot, tuya, eshak, xachirlar son-sanoqsiz.

Qo'vshutxonning maxsus farmoniga ko'ra, bandilardan qutulib, Marvda osoyishtalik qaror topguncha qo'lga tushgan o'ljalarning birortasi ham yo'qolmasligi zarur edi. O'ljalarga bilib turib qasddan qo'l urganlar o'limga hukm qilinadi, deyilgandi. Urush vaqti qo'liga o'lja tushgan barcha navkarlar uni maxsus tayinlan-

[1] **Olomonchilik** — xonliklar zamonida o'ljaga ega bo'lish maqsadida boshqa xonliklarga, davlatlarga qilinadigan bosqinchilik *(tarjimonlar izohi)*.

gan yoshullilarga keltirib berishlari shart. O'ljalar barcha takalarga teppa-teng taqsim qilinishi lozim edi. Uning asosiy bo'lagi kurashda halok bo'lganlarning oilalariga, kambag'al-g'ariblarga, beva-bechoralarga, urushda taniga jarohat yetganlarga berilishi kerak edi. O'ljani halol taqsimlash uchun urug'-qabila katxudolaridan maslahatchilar, taqsimlovchilar guruhi tuzilayotgandi.

Lekin Qoramurt qistaloq Qo'vshutxonning farmonini eshitmagan kishi bo'ldi. Panjiboyning suruv-suruv mollarini ham urush tamom bo'lgan zahoti tashlab, bir tuya o'lja bilan el-yurt nazaridan g'oyib bo'lishni istadi. To'g'ri, el orasida o'lja yashirgan yoki boshqa joyga olib ketgan faqat birgina Qoramurt emasdi. Biroq u o'g'irlik vaqtida qo'lga tushgan edi. Endi esa, mana Xono'tganning o'rtasida, minglarcha odamlarning ko'z o'ngida unga chora ko'rilishi zarur. Unga qanday chora ko'rilsa-da, bu harakat qo'li egrilikka moyillar uchun saboq bo'lishi lozim edi...

— Hozir aytilganlar rostmi? — deb Sohid polvon Qoramurtga qaradi. — Muhammad ummati bo'lsang, Xudo haqi, rostingni ayt!

— Rost, — deb Qoramurt yerga qarab javob berdi.— Bir fe'li buzuqlik qildim, oqsoqol. Shu safar gunohimni kechiring. Atrofda sochilib yotgan narsa mo'l-ko'l bo'lgach... Shaytonning aldoviga bir tushdim-da...

Sohid polvonning so'zini og'zidan olgan Qo'vshutxon ot ustida qamchisini o'ynata turib, ohista dedi:

— Sochilib yotgan narsa deganing noto'g'ri, botirim. — U botirim degan so'zni masxaraomuz ohangda, alohida urg'u bilan aytdi. — Bebaho o'lja sochilib yotmaydi. U narsalarga turkmanning manaman degan er yigitlarining qoni bilan baho to'landi. U narsalarga turkmanning sen kabi erkagidan mardroq ayollarining qoni bilan, bola-chaqasining ko'z yoshi bilan haq to'landi! Sen bo'lsang...

Qo'vshutxonning aytmay yutib turgan so'zining davomini jamoa ichidan biri aytib yubordi:

— Sen bo'lsang, xotin-qizlarcha bo'lmading, yuzsiz!.. Sening Panjiboyga nima uchun besh kunga cho'pon bo'lib o'tganingni biz ham tushundik. Hayf, sening erkak bo'lganingga!

Sohid polvon yonidagi mo‘ysafid yoshulliga qaradi.

— Xo‘sh, oqsoqol, bunga qanaqa jazo berish kerak?

Bu oqsoqol ko‘ngli yumshoq odam ekan shekilli, qo‘llarini bir-biriga uqalab, uzuq-yuliq gapira boshladi.

— Buni... qilgan gunohi uchun... sahroga chiqarib, eldan quvib yuboraylik. Yurtdan haydalgan bu badnafsning jasadini qurt-qumursqalar yesin! Boshqa nimayam derdim?

Bu masalada juda qattiqqo‘llik ila siyosat yuritish kerakligini ta’kidlagan Qo‘vshutxonning ovozi bu gal keskin chiqdi:

— Boshqa nima qilish kerakligini bilmayapsizmi, oqsoqol?

— Ey, xon og‘a... — ikki o‘t orasida qolgan oqsoqol so‘z topolmay dovdiradi. — Men ham unga rahm-shafqat qilinglar deyayotganim yo‘q, axir... Jasadi qurt-qumursqalarga yem bo‘lsin dedim-ku...

— Turkman elim uchun, yurtim uchun qon to‘kib yurganida, qilich ko‘tarib dushmanga qarshi chiqish o‘rniga tayyor xalq o‘ljasini o‘g‘irlamoqchi bo‘lgan nokasning jasadi ham haromdir! Biz o‘z qo‘limiz bilan iflos jasad yuborib, Xizr ko‘rgan cho‘limizni ifloslantirşak, o‘zimiz ham o‘g‘riga sherik bo‘lib qolamiz-ku!

— Unda nima qilishimiz kerak, xon og‘a? — dadillashdi oqsoqol birdaniga.

Nihoyat qahr-g‘azabdan to‘yingan xon yorildi:

— O‘zi o‘g‘irlagan xanjar bilan el-yurt oldida chorasini ko‘ringlar, buning! Shu bilan bu o‘zini dushman yarog‘idan shahid o‘ldim deb hisoblab, u dunyoga ketsin! Bunga shundan boshqa jazo berish ham hayf! Shunday qilsak, to‘g‘ri bo‘ladimi, oqsoqol?!

Oqsoqol qo‘llarini silkitdi.

— To‘g‘ri bo‘ladi, xon og‘a, to‘g‘ri!

Yig‘ilgan minglarcha odam birdan nafas olmay qo‘ydi. O‘rtaga sovuq sukunat tushdi. Chekkaroqda turgan bir besabr kishi qichqirdi:

— Xon og‘a, balki uning yelkasiga qirq qamchi urib jazosini berarmiz?! Shunday qilishga ruxsat bersangiz, bu nomard qilmishidan uyalib, odam bo‘lib qolar?!

Qo‘vshutxonning javobi qat’iy bo‘ldi.

— Piyozni Makkaga oborib kelsangiz ham chuchuk bo‘lib qolmaydi... Jazoni shu yerda — ko‘pchilikning ko‘z oldida bajaringlar!

Ahvol atrofdan qarab turgan barcha tutqunlarga ham, shu jumladan, Jorj Blokvilga ham tushunarli edi. Blokvil endi xon turgan joyga tomon siljishdan to‘xtadi — uning nazariga tushish maqsadidan butunlay voz kechdi.

Shundan keyin bo‘lgan voqeani farang asir o‘z ko‘zi bilan ko‘rolmay qoldi. Shovqin-suron kuchayib, davra toraydi. Xono‘tgan osmonida qatl qilinayotgan odamning qo‘rquv aralash vahimali faryodi eshitildi. Blokvil Qo‘vshutxonning aytgani aytganday ijro etilganini fahmladi.

Yig‘ilgan jamoa ustidan uzoq-uzoqlarga borib yetgan jarchining shang‘i ovozini fransuz Sharqning o‘ziga xos tomoshalaridan biri deb bildi, garchi so‘zlariga tushunmasa-da, u jarchi aytayotgan gaplarining ma’nosini taxminan tushundi: “Xaloyiq! Xon farmoniga qarshi borib, qo‘lini egrilikka burgan odamning jazosi — o‘limdir! Shuni yaxshi bilib qo‘ying!..”

— To‘g‘ri qildi, — Blokvil turkman xonining qarorini ma’qulladi. — Ming marta: o‘g‘rilik qilmang! — deganingdan ko‘ra, bir gal shunday qilganning o‘zi yaxshi natija beradi. Insonni tarbiya qilganda qo‘rquv hissidan kuchliroq, qudratliroq vosita yo‘q!

... Navbat Blokvilga yetib keldi. U, tarjimon tarqatgan ma’lumotdan so‘ng, atrofim xaridorga to‘lib ketsa kerak, deb taxmin qilgan edi. Biroq uning bunday taxmini to‘g‘ri bo‘lib chiqmadi. Ust-boshi loydan kir-chir bo‘lib ketgan fransuzga mahalliy turkmanlar ham emas, hatto, maxsus qulfurush savdogarlardan ham hech kim xaridor bo‘lmadi.

Asirni taqsim qilayotganlardan biri tutqunning yuziga ham qaramay:

— Mammatavaz! — deb baqirdi baland ovozda. Jamoa ichidan biri qayta so‘radi:

— Qaysi Mammatavaz?

— Qo‘ng‘irli Mammatavaz kerak. Mammatavaz polvon!

O‘rta bo‘yli, to‘ladan kelgan qirq yoshlar atrofidagi bir odam yig‘ilganlar orasidan chiqib keldi.

— Mammatavaz polvon yo‘q. Men borman, yoshulli!

— Sening isming nima?

— Meni Egamurod qo‘ng‘ir deyishadi. Men Mammatavaz polvonning inisiman.

Qismati savdoga qo‘yilgan Blokvil gap o‘zi haqida borayotganini anglab, Egamurod qo‘ng‘irning boshidan oyog‘igacha kuzatib chiqdi, o‘zicha uning kimligini taxmin qildi. Uning taxminicha, Egamurod qo‘ng‘irning xamirturushi yumshoq joydan olinmagan. Bu odam Blokvilning ko‘ziga to‘ng, rahm-shafqatsiz, aytgani aytgan, degani degan, tutgan joyini kesmaguncha tinchimaydigan o‘jar turkmanga mengzadi.

— Mammatavaz polvonning inisi bo‘lsang, juda yaxshi! Anovi yuz-ko‘zi qojorlarga o‘xshamagan qul senga tegishli.

Egamurod qo‘ng‘ir ham, o‘z navbatida, Blokvilni diqqat bilan kuzatib chiqdi-da:

— Nima, endi bizga kelganda boshqalarnikiga o‘xshagan qul ham topilmay qoldimi, yoshulli? — dedi.

— Haqing kuymaydi, qo‘ng‘ir. Atalganini ol-da, ketaver. Keyin menga rahmat ham aytasan. Polvon og‘angga Sohid chaltak shunday dedi desang, o‘zi tushunadi.

— Hozir qul berganingiz uchun rahmat eshitadigan vaqt emas-ov, oqsoqol! Xono‘tganda hozir eshak tezagi ham quldan qimmat bo‘lib turibdi. Shu... bir qul berdim deb minnat qilmasangiz ham bo‘lardi.

— Aytilgan gapni bajaraver, inim... Shuni ham aytib qo‘yayki, bu qulni olganingga hali o‘zing ham quvonasan!

— Bu qulingiz tilla tuxum tug‘ib berarmidi, yoshulli? Juda maqtab, arshi a’loga chiqarib yubordingiz-ku!

— Farang asir deganlari mana shu, qo‘ng‘ir! Aytishicha, o‘zi ham ilmda allomayi zamon emish!

Egamurod qo‘ng‘irga o‘n nafar bilimdon quldan, bir nafargina dehqon qul zarur edi. Ilmli qulga ega bo‘lib, nima, u bolasini o‘qitmoqchimi? Unga yer ag‘daradigan, marza-chel tortadigan, jo‘yaklardagi ekin-tikinni chopiq qiladigan qul kerak, axir!

Egamurod o‘ziga tavsiya qilingan asirga yana bir bor mensimay qaradi-yu, bu qulning mutlaqo to‘g‘ri kelmasligiga ishonchi

yanada ortdi. To‘g‘ri, Blokvilning qaddi-qomati durust-ku-ya, biroq uning qo‘li belkurak dastasini ushlagan qo‘lga hech ham o‘xshamasdi. Nozik barmoqlari ham qiz bolalarniki singari uzun-uzun, dutorni tutishga moslashgandaymi-ey...

— Bilimli mulla janozaga yarashadi, yoshulli! — dedi u Sohid polvonga. — Buning o‘rniga bizga ikki nafar ko‘rsavod qojor bersangiz yaxshi bo‘lardi.

— Hozir mulla-muftiy deb ajratib-saylab turishga vaqt yo‘q, inim, — dedi Sohid polvon o‘z ishiga berilar ekan. — Nima bo‘lganda ham, inim, biz bulardan tinchib, ularni biriktirmasligimiz kerak. Shuning uchun uni tez olib ket! Boshqa tomonlarini keyin gaplashaveramiz...

Egamurod qo‘ng‘ir endi noiloj qoldi...

36

Bu chorvador takalar dushmanga rahm-shafqatni bilmaydi. Shu bilan birga, ularday oqko‘ngil, bir-birlarini tez tushunadigan xalq hech qayerda bo‘lmasa ham kerak. Ularda oddiy cho‘pon bilan urug‘ boshlig‘i o‘rtasida ham tafovut sezilmaydi...

Jorj Blokvil xotiralaridan

Qachonki Xono‘tgan bozoridan chiqsalar, oldlariga mol-hol, qo‘y-echki solib qaytadigan odamlar endi bu gal qullarni haydab qaytmoqda edi. Bugun asirlarni taqsimlagan oqsoqollar qancha yelib-yugurmasin, qul sotib olishni istamaganlar bilan do‘q-po‘pisa, dag‘dag‘a ohangida gaplashib, o‘z aytganlarini o‘tkazgan bo‘lsalar-da, ular asosiy maqsadga yeta olmadilar. Ya’ni, bandilar soni ular kutganchalik ozaymadi. Zero, o‘n sakkiz ming degan son ozmuncha miqdor emas ekan. O‘sha ulkan sondan uch ming nafarigina kamaygandi, xolos.

Qishloqlarga tarqatilmay qolgan, Xiva, Buxoro qul jalloblarining o‘tkir nazarlariga tushmagan tutqunlar yana Marv qal’asiga qamaldi. Qismati hal bo‘lishi keyingi shanba bozoriga qoldirilgan asirlar endilikda har bir kunning qanday o‘tishini ham aniq-

ravshan bilishardi. O'sha it yotish, mirza turish, yaxshigina sovuq aralashgan kuz kechasi, maza-matrasiz ovqat... Qul savdogarlari qo'liga tushgan asirlar oldida baland-past, oxiri ko'rinmaydigan qum ustidan, noma'lum og'ir yo'ldan o'tish mashaqqati turardi. Mana, nasibasi Marv tevarak-atrofiga tushgan bandilar boshlariga qanaqa taqdir tushishi ham shu kun oxirigacha aniq bo'lib qolishini kutmoqdalar.

Blokvil ham o'zining toleyiga nima yozilgan bo'lsa, bariga tan berdi. Ha, uni Marvdan bir farsax chamasi uzoqlikdagi Qo'ng'ir qishlog'iga olib ketishdi. Oyog'i bilan qismat tomon piyoda yurish faqatgina fransuzning nasibasi emas ekan. Bu yo'ldan ketayotgan asirlar soni ikki yuz nafardan kam emasdi. Ularning bari qo'li orqasiga bog'liq holda piyodalab yo'lga tushdilar.

Blokvilning ham qo'llari orqasiga mahkam bog'langan edi. Biroq u piyoda emasdi, Egamurod qo'ng'ir otining orqasiga mingashtirib olgandi.

Albatta, ikki qo'li orqaga bog'langan holda ot ustida o'tirish juda qiyin. Ayniqsa, o'zing bandi bo'lsang-u, xo'jayinning tiliga tushunmasang — bundan battari bo'lmasa kerak. U nima deb imo qilsa— shuni bajarishga majbursan. Tushunmay qolsang, tajang odamdan har nimani kutish mumkin. Ba'zan fransuz o'zini tushunmaganga solib, yuzi o'ta jiddiy Egamurodning jahlini chiqarishni ham o'ylab qolardi.

Keyin esa og'ir yo'ldan piyoda yurishni ko'z oldiga keltirib, yana nafasini ichiga yutdi.

Keyingi paytlarda vaqti xushlikdan tishini ko'rsatib kulgan odamni fransuz ko'rmagan edi. Asir tushgan qojorlarning kulishga holi ham yo'q, kayfiyati ham. Tangrining ularga ato qilgan kuni g'am-hasrat bilan boshlanib, g'am-hasrat bilan ado bo'lardi. To'yib ovqat yemagan odamning, ustiga ustak, ona yurtidan, qarindosh-urug'laridan kun sayin uzoqlashayotgan odamning yuziga tabassum ham yo'lamas ekan.

Urush turkmanlar uchun g'alaba bilan tamom bo'lgan esada, kulish-jilmayishdan ular ham xoli edilar. Buning ham sababi ma'lum. Azob-uqubatlar evaziga kelgan g'alaba ham ularga quvonch baxsh etmagandi.

Ha, Blokvilning atrofini faqat qayg‘u-g‘am, g‘oliblar va mag‘lub bo‘lgan odamlarning hasrat to‘la tashvishlari o‘rab olgan. O‘z navbatida, fransuz ham ushbu qayg‘u-g‘am havosidan nafas olishga majbur.

Shunday qilib, Qo‘ng‘ir qishlog‘iga ketish yo‘lida farang asirning ko‘rganlari, eshitganlari g‘am-hasrat bilan qorishib ketdi. Marvdan chiqqach, ancha yo‘l yurganlaridan so‘ng, yo‘l chekkasida uning nazari kiyimlari abgor bir keksa ayolga tushdi. Kampir yerga ag‘anagan, ust-boshi chang, tuproqqa qorishgan edi. U uzun va oriq qo‘llarini osmonga ko‘tarar, keyin qo‘llarini birlashtirib, qo‘sh mushtlab, qora yerni ketma-ket urardi. Kampir shu yo‘sinda ushoqqina gavdasidagi g‘am-hasrat tug‘yonini o‘z vujudida bo‘layotgan qayg‘ularga befarq qarab turgan qora tuproqqa singdirayotganday edi. Bir payt u yerni mushtlashdan ilkis to‘xtadi-da, go‘yo ko‘z, burunsiz bo‘lib ko‘ringan, ajin butunlay qoplagan kaftdekkina yuzini ko‘kka qaratib, boshini saraklatgancha nolakor ohangda qo‘shiq boshladi:

Shu yo‘ldan ketgan mening norlarim kelmasmikan-ey!
Ikkovidan birini Xudo menga bermasmikan-ey!

Qojorlar bilan urushda halok bo‘lgan ikki nafar o‘g‘lining hasrati kampirni ezib tashlagani shundoqqina ko‘rinib turardi. U bolalarining bu yo‘ldan endilikda qaytib kelmasligini bilsa-da, g‘amgin ovozda allanimalarni aytib, sannashda davom etar, yo‘ldan to‘da-to‘da bo‘lib o‘tayotgan asirlarga, ularni haydab borayotgan otliqlarga ham bee’tibor edi. Kampir yo‘lning ustida yerni mushtlab, o‘z kulbasida orom topolmagan ko‘nglini go‘yo shu holda bo‘shatar, o‘ziga o‘zi taskin bermoqda edi.

Ko‘z yoshlarini to‘ka-to‘ka qurigan novdaday bo‘lib qolgan kampir Blokvilga o‘z onasini eslatdi. Yelisey maydoni deb nom olgan keng ko‘chaning Parijdan chiqqan joyi uning ko‘z oldiga keldi. O‘sha yo‘l chekkasida qayg‘u-g‘amdan kuyib qoq suyak bo‘lib qolgan onasi ham mushtlari bilan yerni urib, o‘g‘lining qachon qaytib kelishini kutayotgan bo‘lsa kerak. Xuddi Marvdan Qo‘ng‘irga ketadigan yo‘lda o‘tirgan turkman kampiri singari keksa fransuz ayoli ham o‘g‘lini sog‘inib, Yaratganga nola qilayotgandir? Ikki

onaning intizor ko'zlaridagi sog'inch o'xshash bo'lsa-da, onalarni yo'lga qarashga majbur etgan sabablar bir-biriga mengzamaydi. Turkman kampirning o'g'lonlari ustlariga bostirib kelgan qora kuchdan o'zlarini, onalarini, yurt tuprog'ini qo'riqlayman deb jangda halok bo'ldilar. Fransuz kampirning o'g'li esa o'z ixtiyori ila yurtidan chiqib ketdi, o'z ixtiyori ila onaizor ko'zlarini farzandi keladigan yo'lga intizor qilib qo'ydi.

Blokvil farzandlari halok bo'lgan turkman onalari qolgan umrlarining har bir kunini faqat farzand dog'ida, g'am-hasrat bilan kechirishlariga sabab bo'lgan urush vahimalariga dastlabki kunlarda qiziqish bilan, xursandchilik bilan qaragan edi. Endi esa, yer bag'irlab o'tirgan bu bechora kampirning baxti qaro bo'lganligiga o'zini gunohkor deb his qilib ezila boshladi.

Xunigiryon bo'lib yig'layotgan kampirning inson yuragini tilka-pora qilib yuboruvchi nolasidan tezroq uzoqlashish maqsadida Egamurod qo'ng'ir otiga qamchi urdi. Lekin uning ot sag'risiga mo'ljallagan qamchisining zarbi Blokvilning o'ng dumg'azasiga tegib, jonini achitib yubordi. Mol terisidan maxsus eshilib ishlangan achchiq qamchining tanasiga yetkazgan og'rig'idan fransuz ko'zini qattiq yumib, tishini tishiga bosib chidadi. Ot sag'risiga mo'ljallangan qamchi zarbining asir dumg'azasiga tegishi qasddan qilingan harakat emasdi. Biroq Blokvil buni turkman onalarining oh-u zorlariga sababchi bo'lganlarning biriga — ya'ni, o'ziga urilgan jazo chorasi deb qabul qildi.

Yana birmuncha vaqt yo'l yurganlaridan keyin ulkan maydonni egallab yotgan qabriston yonidan o'tishdi. Yo'l chekkasida kecha, oldingi kunlarda paydo bo'lgan, haligacha tuprog'ining namligi saqlanib turgan qabrlar son-sanoqsiz edi. Bu yerda yangi qabrlarning paydo bo'lish sabablari ham fransuzga tushunarli. Bular ham Blokvil qismatiga yozilgan qonli sayohatning natijalari edi.

Xuddi shu payt qabristonga tobut ko'tarib kelayotganlarga ko'zi tushdi. Blokvil, musulmon odam dunyodan o'tganda janozaga qatnashuvchilar soni ko'p bo'lishini, savob orttirmoq niyatida tanish-u notanish odamlar bari kelib, marhumni so'nggi yo'lga kuzatishda o'z ixtiyorlari ila qatnashishlarini eshitgan, ko'rgan edi.

Biroq hozir, bu safar qabristonga olib kelingan tobut tevaragidagi odamlar soni o'n-o'n ikki nafardan ko'p emasdi. Blokvil uning ham sababini taxminlab, fahmladi. Urushda tanasiga tekkan o'tkir jarohat tufayli hali-haligacha birin-ketin dunyodan o'tayotganlar ancha edi. Ularning barini izzat-hurmat bilan oxirgi manzilga kuzatishga esa odamlarda imkoniyat yetmayotgan edi.

Bu safar o'zi uchun yangi bo'lgan yana bir manzaraga ko'zi tushdi: tobutni ko'tarib kelayotganlarni ko'rgan Egamurod qo'ng'ir otining jilovini tortdi-da, sakrab yerga tushdi va yugurib borib tobut ko'targanlarga qo'shilib ketdi, tobutning bir chekkasiga yelka tiradi. Shu tarzda, marhumni kuzatib borayotganlar bilan o'n-o'n besh qadam tashlab, yana orqasiga qaytib keldi.

Qo'ng'irli otiga minayotganda fransuzning ko'ziga tikildi. Shunda yana Blokvil uning nazaridan: ana, sizlar qilgan ishlarning natijasi! Ko'ryapsanmi?! — degan ma'noni o'qidi. Farang asir o'zining yangi xo'jayini ko'zlaridagi ma'noni angladi-yu, indamadi.

Qo'ng'ir qishlog'i. Ko'p vaqtdan buyon qarovsiz-suvsiz bog'-bo'stonlarga kuz kechalarining qirovli sovuq havosi aralashgan. Oldingi ko'm-ko'k, go'zal ko'rinishini qishloq hozir butunlay yo'qotgan edi.

Tevarak-atrof shipshiydam, ochiq bo'lganligi uchun qishloq kaftdek yerda sho'ppayib turardi. Bu changib yotgan qishloqda mening har soatim bir kunga, har kunim esa bir oyga tatib o'tsa kerak, — deya o'kindi Blokvil. — Buning ustiga, gaplashmoqqa ham, dardlashmoqqa ham hech kim yo'q. Bo'lgandayam, kim sening tilingga tushunadi, kim sening dardingga sherik bo'ladi? Bular fransuz tilini emas, fransuz degan millatning borligini ham bilishmaydi-ku...

Noshukur banda issiqqa ham chidamaydi, sovuqqa ham deyishadi. Taqdir uni Xiva, Buxoro tomonlarga otib yuborsa, nima bo'lardi? Shu gap esiga tushgan farang yigiti endi mana shu changib yotgan turkman qishlog'iga kelib qolganiga shukur qila boshladi. Yo bo'lmasa, besh yuz so'mlik asirni besh so'mga xarid

qilgan olibsotarlarning panjasiga tushsa, nima qilardi? Savdogar qo'liga tushgan vaqtdan boshlab, tutqunning peshonasiga qul degan muhr bosiladi. Asirning bahosiga bir tanga to'lansa-da, u shu daqiqadan boshlab asirlikdan uzoqlashadi va qo'l tashlashib qonunlashtirilgan qulga aylanadi. Shunday bo'lgandami, Blokvilning tashvishi yanada og'irlashgan bo'lardi. Shunday bo'lgan taqdirda Blokvil ham qullikdan, ham asirlikdan qutulish g'amini yeyishiga to'g'ri kelardi.

... Egamurod qo'ng'ir kulbasining orqa tomoni— keng jo'xorizor dala ekan. Doni pishib, yig'ishtiriladigan vaqti allaqachon yetgan bo'lsa-da, urush tashvishi bilan hosil yig'ilmay qolgan, boshini quyi egib mung'ayib qolgan odamlarga o'xshab turardi. Jo'xorining bunday turishini yaqindan ko'rgan Blokvil bu o'simlik haqida oldin ham eshitgan bir xabarni esladi. Bundan besh-olti yil muqaddam rus gazetalariga asoslanib, Parijdagi bir vaqtli matbuot nashri O'rta Osiyo viloyatlarining birida bir bosh mevasida mingdan oshiq doni bo'lgan jo'xori nomli g'aroyib o'simlik haqidagi xabarni bosgan edi.

Kulbaning yonboshiga kelib, otdan sakragan Egamurod qo'ng'ir asirga:

— Qani, otdan tush! — deb baqirdi.

Blokvil buyruq ma'nosiga tushundi. Qo'li orqasiga bog'liq bo'lgani uchun, otdan tushayotganda munkib ketib, yonboshiga yiqilishiga sal qoldi. Gandiraklaganini ko'rsa-da, Egamurod qo'ng'ir unga yordam berishni xayoliga ham keltirmadi.

Shu vaqt ikkinchi qora uydan chiroyli chakmonini yelkasiga tashlagan baland bo'yli, keng peshonali yoshulli chiqdi.

Unga ko'zi tushgan Egamurod yuz qiyofasidagi jiddiylik pardasini yo'qotib:

— Mammat og'a, assalomu alaykum! — deya muloyim ovozda salomlashdi.

Salomga alik olgan Muhammadavaz og'a[1] olg'a yurib keldi-da, Egamurod bilan ko'rishdi.

---

[1] Asirlik davrining ko'p qismini Marv viloyatining Qo'ng'ir qishlog'ida o'tkazgan Jorj Blokvil o'zining esdaliklarida Muhammadavaz polvonni oq ko'ngil, farosatli, odamoxun inson sifatida tasvirlagan *(muallif izohi)*.

— Shu ketganingcha vaqtida qaytavermading, ot tuyog'i ovozi eshitilsa, sen kelganmikansan deb tashqariga chiqaman, sendan darak yo'q. Tinchlikmi, inim?

To'satdan yoshullining ko'zi Blokvilga tushdi.

— Yoningda mehmoning bormi? Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan!

— Mehmon olib keldim, biroq uning rizqli-davlatli ekanligini bilmayman, — deb og'asi bilan omonlashgan Egamurod noroziligini ochiq bildirdi.— Belkuraknng dastasidan tutib ko'rgan odam emas bu. Bizning ulushimizga tushgani mana shu oddiy qul bo'ldi. O'zi ham Farangiston degan yurtdan emish. Biz buning tiliga tushunmaymiz, bu bizning tilimizga tushunmaydi. Sohid polvon degan yoshulli shuni olib ketasan deb turib oldi. O'zi ham sizga ko'p-ko'p salomlar aytdi... Bu qul bir nonxo'r sifatida bizga bosh og'rig'i bo'ladi, shekilli.

—Sohid polvon bizga yomonlikni ravo ko'rmaydi,— Muhammadavaz polvon ishonch bilan so'zladi. So'ng inisining olib kelgan qulini boshqatdan ko'zdan kechira boshladi. — E-ha, qojorlar ichida bir farang bor, deyishardi, bu — o'sha bo'lishi kerak. Agar bu forslar bilan kelgan bo'lsa, gung-lol bo'lib yurmagandir, gapirgandir. Har holda, zo'rg'a bo'lsa-da, nimalarnidir aytgandir.

— Men qayerdan bilay, Mammat og'a? Bu odam, menimcha, fors tilini ham bilmasa kerak-ov...

Asirga hali ham tikilib turgan Muhammadavaz polvon:

— Ahvoli sho'mo xub ast, bandayi Xudoyi? — deb so'radi[1].

— Nag'z! Nag'z![2] — deb bir so'zini ikki marta takrorladi asir, ma'yus jilmayar ekan.

— Fors tilini bilar ekan-ku-ya, ammo biz u tilni ham yaxshi bilmaymiz, — deya yoshulli inisiga qaradi. — Uzoq yo'ldan kelgan bandaga biror yegulik ber!

Yoniga kelgan o'smirning qo'liga otning jilovini tutqazgan Egamurod:

---

[1] Ahvoling yaxshimi, Xudoning bandasi?

[2] Yaxshi, yaxshi.

— Asirlarning soni ozayguncha bularning qo'l-oyoqlarini bo'shatmasligimiz kerak emish. Qo'vshutxon shunday deb aytganmish, — dedi.

— Qo'lini yechmasang, ovqatni qanday yeydi? Yoki og'ziga o'z qo'ling bilan solib turmoqchimisan?

— Bo'lmasa, ovqatlanib olguncha qo'lini bo'shatib qo'yaman-da.

Muhammadavaz polvon orqasiga qayrilib, qora o'tovga kirib ketdi. Izzat-hurmatli yoshullining bu yerdan nari ketishi daraxtlar tagidan, jo'xorizor ichidan ovozlari chiqib turgan bola-chaqalar uchun shovqin qilishga ruxsat berganday gap edi. Egamurod qo'ng'ir olib kelgan sariq sochli g'aroyib qulni yaqindan ko'rish orzusidagi odamlar, bola-chaqa darrov Blokvilning atrofini halqa shaklida o'rab olishdi.

Bola-chaqa orasida ikki nafar keksa ayol ham bor edi. Ular shu paytgacha bunday odamni birinchi bor ko'rib turganlari uchun hayron qolib turgandi. Ularning biri ikkinchisiga:

— Mana shu odam boshqa bir tilda so'zlasharmish, eshitdingizmi? — deb o'zi uchun juda g'alati bo'lgan yangilikni aytdi.

— Boshqa tilda ham so'zlashib bo'larmikan?! — deb so'radi ikkinchi ayol undan battar hayron qolib.

Blokvilning tevaragi tomoshatalab odamlarga to'ldi-qoldi. Bolalar asirning harbiy kiyimidagi tugmalariga hayron qolib qarashar, uning nima uchun kerakligini chug'ur-chug'urlab so'rashardi. Haligacha bog'ichdan boshqa yoqa bekitadigan narsa ko'rmagan bolalar uchun farangning chang-loyga bulg'angan harbiy kiyimidagi tugmalar juda g'aroyib narsa bo'lib ko'rindi.

Bolalar orasidan botirroq biri tugmalardan ikki donasini qattiq tortib-tortib uzib oldi-da, oldi-orqasiga qaramay shataloq otib qochdi. Boshqa bolalar ham o'sha botir o'smirning harakatini takrorlay boshladilar, sal o'tmay fransuzning kiyimida bir dona ham tugma qolmadi.

Uchinchi qora o'tovdan chiqib kelgan o'ttiz yoshlardagi juvon ham yig'ilganlar yoniga kelgach, Blokvilga diqqat bilan qaradi. Blokvil bu juvon yaqinlashayotganida, uning chiroyli yurib kelishini ko'rib, go'yo uning nazarida bu ayol qadam tashlamas,

balki yerning ustida suzib kelayotganmikan deb xayol qildi. Yuz tuzilishi o'ziga yarashgan, sariqmag'iz bu juvonning gavda tuzilishi ham diqqatni o'ziga jalb qiladigan darajada suluv bo'lib, uning navnihol qomati kiygan ko'ylagining ostidan ham bilinib turganday edi. Juvon yetib kelgan zahoti Blokvil uning yuz qiyofasiga razm soldi. Uning tiniq chehrasida qayg'u-g'am aks etib turardi. Blokvil ko'zlari g'amgin bu go'zal juvonning ham yostiqdoshi urushda halok bo'lgandir, deb taxmin qildi.

Blokvil bu yosh ayol to'g'risidagi taxminlari asosli emasligini keyin bildi. Bu juvon o'ttiz yoshlarga yetgan bo'lsa-da, shu paytgacha turmushga chiqmagan ekan. Oqmorol (haligi yosh ayol)ning chehrasiga qaragan Blokvil, uning g'amgin ko'zlarida tengdoshlari singari turmushdan lazzat olishga havas, intilish tuyg'usining yo'qligini sezdi. Tutqun e'tiborini endi bola-chaqalarga qaratdi. Asirning tevarak-atrofi dumalog'-u qisiq ko'zli katta-kichik odamlardan iborat devor bilan o'ralgan edi. Blokvilning ularga qarab turib kulgisi qistadi. Bu ko'zlar farang asirga hayron qolib tikilishsa, farang ham, o'z navbatida, turkmanlarning kiygan turli-tuman kiyim-kechaklariga, ularning o'zlarini tutishlariga anqayib qarab o'tirardi. U hozir o'zini temir katakka qo'yilgan maymunga, turkmanlarni esa shu paytgacha maymun ko'rmagan tomoshabinlarga qiyos qildi. Haqiqatan ham, necha kunlardan beri yuvinib-taranmagan, soqol-mo'ylovini qirtishlamagan, sochi o'sib patila-patila bo'lib ketgan, ust-boshi kir-chir tutqunning hozirgi ko'rinishi katak ichidagi sho'rlik maymundan farq qilmasdi.

Blokvilning nigohi yana Oqmorolda to'xtadi. Oqmorol hamma narsaga loqayd qarab turardi. U asirga tomon qaraganda ham, tutqunni ko'rmay, uning o'rniga boshqa bir narsani ko'rayotganday. Bir payt bu go'zal ojizaning chiroyli shahlo ko'zlaridan bir-ikki tomchi yosh dumalab, tiniq va maftunkor yonog'iga tushdi. Bu ko'z yoshlari shunchaki, o'z-o'zidan paydo bo'lib, oqib tushmagan bo'lsa kerak?! Blokvil buning sababini bilishga qiziqdi. Senga tikilib turib, sen haqingda o'ylagach, ko'zida yosh tomchisi paydo bo'lgan bo'lsa, demak, bu odam senga nisbatan befarq emas?! Biroq odam oyog'i yetmas sahrodagi bu go'zal ojiza qalbida parijlik tutqunga achinguday, nima voqea kechdi

ekan?! Blokvil bu savolga javob bera olmasdi. Baribir, bu qizning ko'zlarida paydo bo'lgan yoshlarni o'ziga nisbatan homiylik tuyg'ularining nishonasi deb bildi.

Yo'l tomondan xoda ot minib, yugurib-irg'ishlab kelayotgan oq soqolli, boshi yalang, oriq qariyaning paydo bo'lishi hammaning diqqatini bo'ldi. Bu qariya — qo'ng'irliklarga ma'lum Choqon tentak degan kishi edi. Oyoqyalang pochasining bir tomoni tizzasigacha ko'tarilgan, ot yuzli tentakning g'aroyib tashqi ko'rinishiga Blokvil anqayib qarab qoldi.

Choqon tentak bola-chaqani qo'rqitib yuradigan boshqa jinnilardan keskin farq qilib, doimo o'zi bilan o'zi ovora bo'lib yurardi. Biroq bu gal uni ko'rganlar tomosha markazidagi asirni ham eslaridan chiqarib, to'rt tomonga ura qochib qolishdi. Chunki Choqon tentakning bo'ynida bir quloch chamasi, uzun qora ilon osilib turardi.

Atrofdagilar (Oqmoroldan boshqa hamma) turli tomonga tirqirab ketgani bois, yolg'iz qolgan Oqmorol hech narsadan cho'chimay, turgan joyida Choqon tentakning harakatlarini kuzata boshladi.

Choqon tentak farang tutqunning naq iyagi tagiga kelib, xoda otining jilovini tortdi. U begona kishining yuziga avval diqqat bilan qaradi, keyin og'zi qulog'iga yetib iljaydi. Biroq bu iljayish tutqun ko'nglini xotirjam qilmadi. Blokvil o'zini tutishga qancha harakat qilmasin, u hozir o'takasi yorilib ketayozdi.

Ilonning yaltirab turgan dum tomoni tentakning to'shida o'ralib turar, bosh tomoni esa hujum qilish uchun payt poylayotganday ikki tomonga borib-kelardi. Ilon ko'zlagan qulay nuqta farang asirning o'zi ekanligi aniq. Mana, Choqon tentak ham shuni bilganday asta-sekin Blokvilga yaqinlashmoqda. Endi orqaga qochsa, bu tentak battar o'zining orqasidan qolmasligini o'ylagan farang yigit unga sir bildirgisi kelmay, asta-sekin orqaga tisarila boshladi. Shunday bo'lsa-da, tutqun bilan ilon ko'tarib olgan tentakning oralari borgan sari qisqarmoqda edi.

Blokvil Oqmorol tarafga mo'ltirab qaradi. Ojiza tutqunning nazarida takabburlik alomatlarini emas, ko'mak so'rovchi iltijoni his qildi. Oqmorol shu paytda Choqon tentakka bir narsalarni ayta

boshladi, aftidan, u Choqon tentakni bo'lmag'ur xatti-harakatlardan qaytarmoqda edi. Choqon tentak uning so'zlarini eshitdi-yu, turgan joyida qotib qoldi. Oqmorol yana bir necha og'iz gaplarni aytib, unga muloyim jilmaydi. Suluv ojizaning chiroyli tabassumi, hatto, tentakka ham olovday ta'sir qildi. Jodu ko'zlardagi nur yoqimli, jozibali edi. Choqon tentak qizning tabassumiga chiday olmay, u ham o'ziga xos iljayish bilan javob qaytardi. Oqmorol oppoq qo'llarini ko'tarib, qora o'tovning orqasidan o'tgan yo'l tomon ishora qildi. Tentak boshini tasdiq ohangida qimirlatdi. Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar, yomon so'z bilan musulmon dinidan chiqar deganlariday, muloyim so'z tentakni to'g'ri yo'lga soldi. Choqon tentak qora ilonni bo'ynida osiltirganicha ojiza ko'rsatgan tomonga — yo'lga qarab ketdi.

Tentak ketgach, Blokvil boshini quyi egib kulumsiragan holda Oqmorolga minnatdorchilik bildirgan bo'ldi.

37

Asir tushgan navkarlar soni ko'p bo'lgach, har bir takaning uyida tutqun bor edi. O'sib ketgani-yu soch-soqollari, yuvilmagan kiyimlarini hisobga olmaganda, ularni mahalliy aholidan farq qilish ham qiyin. Shu sababli odamlar og'ilxona, somonxonalarga qamab qo'yilgan yoki tashqarida qo'llari bog'liq yoki qo'llari bo'sh qullarga endilikda hayron qolmaydilar. Qaytanga bola-chaqa, yosh-yalanglar muloyim, yoqimtoy asirlar bilan chala-chulpa forscha-turkmancha aralashtirib so'zlashishga harakat qilishardi.

Blokvilning ishi esa butunlay aksincha bo'ldi. Fransiya deb atalgan joydan kelib asir tushgan g'alati tutqunni ko'rish istagidagi o'g'il-u qiz, bola-chaqaning son-sanog'i yo'q edi. Bundan tashqari, yoshi ulug'lar ham biror narsani bahona qilib Egamurod uyiga kelishardi-da, tutqun yotgan chaylaga diqqat bilan qarashadi. Chayla bilan uyning o'rtasi o'n-o'n besh qadamcha. Faranglik tutqun saqlanayotgan chaylaning eshigi ham yo'q. Eshik o'rniga siyrak yulg'un daraxti shoxlari panjara shaklida bir-biriga qattiq bog'langan edi.

Bu yulg‘un panjara ham fransuzga shahar qamoqxonasining temir panjarasini eslatadi. Farang yigit haqiqatan ham qamoqqa olingan tutqunlarga o‘xshaydi, qo‘llari orqasiga bog‘langan, o‘tirgan joyi eski chayla, xoli joyga boradigan bo‘lsa ham nazardan qocholmaydi. Orqasiga qaytib kelguncha hamma unga qarab turadi. Yozilib kelgan zahoti yana qo‘lini orqaga bog‘lashib, kulbaga kiritishadi va eshikni zanjirlashadi. Uning o‘zi ham hech qanday ish bilan mashg‘ul emas. Farangning Qo‘ng‘ir qishlog‘iga kelib yashagan besh kuni ana shunday aftoda bir zaylda o‘tdi.

Kunduz kunlari iliq bo‘lsa-da, fransuz kechalari azoblanib chiqadi. Kuz faslining ayozi tongotar paytda nihoyatda kuchayib, yigit bechora qattiq sovqotadi. Tagiga to‘shash uchun eski qop, ustiga yopinishga titilib ketgan ko‘rpa berishgandi, ammo u, baribir, sovqotib chiqadi. U kechaning ko‘p vaqtini uxlolmasdan o‘tkazadi. Kechqurun mahkam bog‘lab qo‘yishgani kamday, xo‘jayini Egamurod ulkan og‘ir to‘nkani yulg‘un eshikka tirab qo‘yadi.

Kecha kechqurun ahli qishloq uyquga yotgach, yangi chiqqan oy uzoq vaqt Blokvilning yulg‘un panjarali eshigidan ketolmay turdi. Bu ham uning uzoq vaqt uxlay olmasligiga sabab bo‘ldi. Kulba ham, uning o‘ziga xos eshigi ham, tevarak-atrof ham tutqunga notanish bo‘lsa-da, mana shu to‘lin oy unga tanish. Oy xuddi Parij osmonini tark qilib, go‘yo bugun bu yoqqa kelganday. Oy ichidagi dog‘lar ham — oldindan tanish nishonlar. Oy chiqqan paytlarda Parijning go‘zal nozaninlari bilan Sena daryosi bo‘yiga ishq sayliga chiqqan Jorj o‘shanda havo salqin bo‘lsa-da, sovqotmasdi, aksincha, tovoni tagidan olov chiqqanday bo‘lardi, sohibjamol sanamlarning nozli qarashlari uning badanini qizdirardi.

Bu yerda esa hamma narsa aksincha. Oyda ham, havoda ham, tevarak-atrofda ham maza-matra, joziba yo‘q edi, jahonning rahm-shafqati ko‘rinmaydi-bilinmaydi. Lekin shunga qaramay, fransuz oyni o‘tirib kuzatib charchamasdi. Go‘yo oydan bo‘lak uning tanishi ham yo‘q, sevgilisi ham.

Bir vaqtlar oy shu’lasi ostida ishq-muhabbat bo‘salariga to‘yib, charchab uyiga qaytgan bu yigitga pokiza yorug‘ xona, top-toza ko‘rpa-to‘shak, yegisi kelsa shirin-shakar turli xil taomlar mun-

tazir edi. Hozir esa, mana, Fransiyaning dvoryan qatlamiga mansub muhitda erkin yashagan, qiyinchilik, muhtojlik ko'rmay o'sgan yigit, Yevropaga notanish, madaniyati haminqadar o'lkaning qaysidir bir tashlandiq kulbasida yolg'iz o'zi so'ppayib o'tiribdi.

Qismat deb atalmish taqdir ko'rsatgan hazilga bir nazar soling — Parijdagi boy-badavlat uyning to'rida yashagan asilzoda yigit bugun bir turkmanning g'arib uyida o'ziga o'rin topa olmay, ichi eski ashqol-dashqolga to'la somonxonada yotishga majbur! Xotirjam yotish mumkin bo'lsa ham mayli ekan, yo'q, uyquga ketgan vaqting salgina qimirlasang, oyog'ingdagi kundaning ozori seni qaytib uxlolmaydigan holatga soladi...

Asirlikning oltinchi kuni Blokvil uchun mutlaqo kutilmagan voqea yuz berdi. Peshin vaqti Egamurodnikiga bir otliq keldi. U kelgan zahotiyoq uy egasi kulbaning yulg'un panjarali eshigini ochdi-da, fransuzga tashqariga chiq degan ma'noda imo qildi. Blokvil tashqariga chiqqach, Egamurod uning qo'lini bo'shatdi.

Kelgan odam fransuzga sinchiklab, qayta-qayta tikildi. Blokvil uni tanimadi. Mehmonning oti-egari yonboshiga osig'liq kichkina qopcha bor. U odam qopchani ochdi-da, ichidagilarni yerga silkidi. Qopchadan narsalar to'kildi — qog'oz-qalam deysizmi, maxsus chizg'ichlarni, mixga o'xshash silliq temirchalar, xullas, uy egasi oldin hech qachon uchratmagan narsalar. Olib kelingan narsalarga ko'zi tushgan Blokvilning yuragi jig' etib ketdi. Bu — fransuzning Saidnosir bilan Po'pushqul oralig'idagi botqoqlikda asirga tushgan vaqtida yo'qotgan asbob-uskunalarining bir qismi edi.

Keltirilgan narsalar ichida fotoapparat, durbin, xarita chizishda ishlatiladigan eng zarur asboblar yo'q edi, xolos. Bu narsalaridan butunlay umidini uzgan fransuz olib kelingan anjomlarini ko'rib juda sevindi. Biroq botqoqlikda qolgan asbob-uskunalarining o'z egasini topib, shu joygacha kelmog'i uni nihoyatda hayron qoldirdi.

Agarda Egamurod qo'ng'ir bu narsalarni egasiga tuhfa qilsa, qog'oz-qalam va kitobsiz yashay olmaydigan yevropalik uchun bu narsalar katta voqealik bo'ladi!

Kelgan odam birdaniga belbog'iga qistirilgan to'pponchani oldi va uni fransuzga uzatdi. Biroq to'pponcha Blokvilga yetmayoq, Egamurod uni shartta qo'liga oldi.

— To'pponchani bunga berib bo'lmaydi, birodar. Buning ustiga qo'shog'iz ekan. Qog'oz-pog'ozlarini nima qilsa qilsin, biroq unga yaroq berilsa yaxshi bo'lmas-ov...

— O'qi yo'q-ku! — kuldi mehmon. — Bu uniki, shuning uchun, o'z narsasi bo'lgani uchun beryapmiz.

— Miltiq deyilgan asbob o'qsiz bo'lsa-da, yilda bir marta olov chiqaradi, birodar. Qo'y, xullas, yarog'i menda tursin.

Blokvil o'zining to'pponchasini tanidi.

— Tutqunning biznikida ekanligini qanday qilib bildingizlar? — deya Egamurod qo'ng'ir fransuzni ham qiziqtirgan savolni berdi.

— Sen, qo'ng'ir, xazinaning ustida o'tirgan ekansan! — deb kelgan odam Egamurodga ayyorona nazar tashladi. — Buningni butun taka turkman bilar ekan. Asiring aslida Farangiston degan yurtning eng boy odami emish. Narxiga insof bilan aytgan bahoying beriladiganga o'xshadi-yov, o'ziyam. Shunday deyishyapti. Orqasi baquvvat odamning o'g'li emish.

Sochilib yotgan qog'oz-qalamlarga yana bir qur qaragan Egamurod:

— Men ham shunday bo'lsa kerak deb o'ylab yurardim, — dedi. — Aslida, bu boshqa qullarga hech o'xshamaganiga, hayron qolardim!

— Shu sababli ham bunga qattiq yopish! Kam bo'lmaysan, — mehmon fransuzning bog'liq qo'llariga e'tiborini qaratdi. — Buning asbob-uskunalarini oqsoqollar maxsus olib borib ber, degandilar.

Kelgan odam xayrlashdi-da, otiga mindi. U jo'nayotganda Blokvilga ham boshini qimirlatib, xayrlashish ishoratini qildi.

Egamurod qo'ng'ir choparning so'nggi aytgan so'zlari to'g'risida o'ylandi. U nima uchun o'z quliga yengillik berishi kerak ekan? Balki ko'nglini og'ritmay saqlasa, asirning bahosi ko'tarilar? Nima sababdan uning qog'ozlarini maxsus chopar keltirib tashladi ekan-a? Bu shunchaki bir gap bo'lmasa kerak-ov? Qish-

loqlarga taqsimlangan qojorlarning qaysisi qayerda, kimning qo'lida ekanligini bilish qiyin bo'lgan bir paytda, farangning orqasidan maxsus chopar kelib turgani ko'p narsadan darak bermayaptimikan? Ana shularni e'tiborga olib, Egamurod qo'ng'ir shu kundan boshlab asirni ko'zdan yiroqlashtirmaslikka qaror qildi.

Blokvil xo'jayinning yuziga qarab bir nimalar dedi. Fors tilini bilmagan Egamurod oldida turgan asirning ovozini eshitsa-da, aytganiga tushunmadi.

— Ey, men sening forsiy so'zingga koshki tushunsam ekan?! — deb o'zi bilan o'zi gaplashdi-da, keyin uy tomonga o'girilib: — Annabibi! — deb qichqirdi.

Tashqariga chiqqan ayoli erining yuziga tikildi.

— Bu bir narsalar deb yotibdi, tiliga tushunmayapman.

— Siz tushunmagan tilga, men qayerdan tushunay?

— Oqmorolni chaqir unda!

— Shunaqa deng-da!

Oqmorolning o'zlari tomon kelayotganini ko'rgan Blokvil uning chaqirilganligini bilsa-da, nima uchun kelayotganligining ma'nosini anglay olmadi. Biroq Egamurod bilan bir-ikki og'iz so'zlashgan Oqmorol:

— Chero mixohid, beguid?[1] — deb forscha gapirganida Blokvil bu holatdan anqayib qoldi. Necha kunlardan beri o'zi tushunadigan tillarning birida insonlar bilan so'zlashishni orzu qilib yurgan asir xuddi eng yaqin homiysiga duch kelganday hayajonlanib ketdi. U Egamurod so'ramoqchi bo'lgan iltimoslardan oldin:

— Forsi az ko'jo midonid?[2] — dedi. — Forscha bilar ekansiz, nima uchun shu paytgacha jim bo'lib yurdingiz?

U yana nimalarnidir aytmoqchi edi, Oqmorolga qaragan Egamurod uning so'zini bo'ldi.

— Bu nimalar deb vaysayapti?

Oqmorol asirga o'zining xohishini aytishi lozimligini tushuntirdi.

---

[1] Nimani xohlaysiz, gapiring.

[2] Forschani siz qayerdan bilasiz?

— Istagim shundan iborat, — deb Blokvil so‘zida davom etdi. — Men uchun kerakli mablag‘ to‘lanib, ozod bo‘lgunimcha sizning asiringizman. Shu sababli, siz menga boshqacha munosabatda bo‘lishingiz kerak. Men qochmoqchi bo‘lganimda ham, bu sahrodagi yo‘l-so‘qmoqlarni bilmayman. Qochadigan joyimning o‘zi yo‘q. Meni hozirgiday qamab saqlashdan sizga ham, menga ham naf yo‘q. Yaxshisi, mening masalam hal bo‘lguncha, biror ish bilan ovora bo‘lib yuray. Mening og‘abekdan iltimosim shu.

Fransuzning aytganlarini Oqmorol tushuntirgach, Egamurod biroz o‘ylanib turdi. Keyin:

— Qani, hozircha qog‘oz-pog‘ozlarini yig‘ishtirsin-chi! — dedi va asirning qo‘lini bo‘shatdi. So‘ng qora uyga qarab ketdi.

Oqmorol esa qayerga yurishini bilmay, o‘rtada turib qoldi. Zo‘r ishtiyoq bilan qog‘oz-qalamlarini yig‘ishtirayotgan Blokvil:

— Sizning fors tilini bilishingiz meni hayratga soldi! — deb jilmaydi.

Shu vaqt eshikdan bo‘ynini chiqargan Egamurodning qahrli ovozi eshitildi:

— Sen endi uning yonida qaqqayib turma-da, o‘z ishlaring bilan kuyman! Buning tiliga tushundim deb, urf-odatlarimizni yodingdan chiqarma! Shusiz ham oilamiz haqidagi gap-so‘zlar ko‘payib ketgan.

Uning so‘zlarini eshitgan Oqmorol asta-sekin uy tomonga yura boshladi. Egamurod yana qizga dedi:

— Buning Farangistondanligini-ku, bilamiz. Endi nomini ham so‘rab ber!

— Jorj Anri Gulibef de Blokvil, — deb tutqun o‘zining nomini to‘la aytganida, Egamurod qo‘ng‘ir jilmayishini ham, jahllanishini ham bilmay qoldi.

— Bir odamning eshakka yuk bo‘ladigan shuncha nomi bo‘ladimi? Bizning tilimiz ham aylanmaydi, uni aytishga. Ota-bobo, avlod-ajdodlari nomini aytmasdan, faqat o‘zinikini aytsin-da! Uzun nomni kalta aytsa bo‘lmas ekanmi, shuni so‘ra-chi!

Asir o‘ziga Jorj deb aytilsa ham bo‘lishini tushuntirdi.

— E, bor ekansan-ku! — deb Egamurod kulib yubordi. — Jorj deb aytish oson, chaqirish ham qiyin emas.

Ruhida allaqanday yengillik his qilgan Blokvil Oqmorolni xursand bo'lib kuzatib qo'ydi.

Blokvil qaytarilgan barcha qog'oz va asboblarni kulbasiga olib keldi-da, qog'ozlarini, ikkita qalin daftarini tartibga keltirib qo'ydi. Keyin ularga mamnun qarab o'tirdi. So'ng bu yurtda bularga o'xshash narsalar ham yo'q. Qo'limdan tortib olib, yo'qotib tashlamasalar yaxshi edi, — deb xavotirlandi, keyin o'ziga o'zi taskin berdi. — Oladigan bo'lsalar, uni menga berishmasdi-ku...

U daftarlaridan birini shartta oldi-da, muqovasini ochib, yuqoridan katta harflar bilan: TURKMAN ELIDAGI TUTQUNLIK. 1860-YIL deb yozdi. Keyin o'zi og'abek deb murojaat qiladigan xo'jayini Egamurod qo'ng'irning kulbaga kelayotganini ko'rib, daftarini joyiga qo'ydi.

Kulbaning eshigi oldida qo'li o'roqli Egamurod unga: tashqariga chiq, deb imo qildi. O'ziga ish buyurilishini sezgan Blokvil istagining e'tiborga olinganligiga yana bir bor sevindi.

Tutqunni orqasiga ergashtirgan Egamurod jo'xorizor tarafga yurdi.

Vaqti o'tib, yaproqlarigacha qurib qolgan jo'xori poyalari Egamurod bir chekkasidan kirgan zahotiyoq shag'irlab ovoz chiqardi. Bu ovozdan cho'chigan bir to'da chumchuq pir etib osmonga ko'tarildi.

— Chumchuq, musichalarga tekin tomoq bo'ldi-da! — deb Egamurod o'zicha ming'irlab qo'ydi.

Og'abekning yoniga borib to'xtagan fransuz buyruq kuta boshladi. So'ng, o'z-o'zidan boshiga tushgan bu ko'rgiliklarni o'ylab, xo'rligi keldi. Jahonning eng madaniyatli davlatida, oliy maqomli maskanlarda yurib bilim olgan, to'rt-beshta chet tillarini puxta egallagan takabbur yevropalik kelib-kelib, kimlarga boqimanda bo'lib o'tiribdi-ya?! Yana, qanaqa kishilarning buyrug'ini bajarishi kerak! Berilgan buyruqni qarang! Eski o'roq bilan jo'xori boshini poyasidan kesib olishi kerak. Yana, jo'xori ekilgan ekin maydoniga fransuz birinchi bor kirayotgan bo'lsa, o'roq deb atalmish asbobning sopidan mutlaqo tutib ham ko'rmagan bo'lsa...

Tutqunning xo'jayini: qara, o'rgan, degan ma'noda imo qilib, uch-to'rt jo'xori boshini poyasidan kesib ko'rsatdi. Keyin o'roqni

asirning qo‘liga tutqazdi-da, kutib tur, degan imoni qildi. Tez-tez qadam tashlab, uy tomonga ketdi, darrov orqasiga qaytib keldi. Qo‘lidagi taxtadan yasalgan narsani Blokvilning yoniga qo‘ydi.

— Bu narsaga zambil deyishadi, — deb Egamurod olib kelgan asbobini qo‘li bilan ko‘rsatdi. — Zambil. Buning bilan tuproq, go‘ng tashisa ham bo‘ladi. Sen hozir bunga jo‘xorining boshini solasan. Demak, bunga zambil deyiladi, zambil.

— Zambil! — dedi Blokvil ham og‘abekning orqasidan bu so‘zni ma’yus takrorlab.

Tutqunning so‘zga tushunishini o‘z ishining mevasi deb o‘ylagan Egamurod bundan xursand bo‘lib jilmaydi.

— Intilganga tole yor deganlariday, o‘rgatsak, turkmancha ham gapirib ketasan shekilli.

Egamurod oldingi yig‘gan jo‘xori boshlarini zambilga sola boshladi. Yana uch-to‘rt bosh yig‘ib nima qilish lozimligini ko‘rsatdi.

Blokvil zambil olib kelingan zahoti nima ish qilish kerakligini fahmlagandi. U o‘z og‘abegi taxmin qilganday befarosat emasdi.

Tutqun jo‘xori boshlaridagi birorta donni yerga tushirmaslik uchun harakat qilib ish boshlaganini ko‘rgach, Egamurod xotirjam bo‘lib uyiga qaytdi.

Peshin vaqtidagi issiq havoda harakat qilgan asirni dim jo‘xorizor darrov terlata boshladi. Bunga e’tibor bermay, u buyurilgan ishni zo‘r ishtiyoq bilan bajarishga kirishdi. Jun va teri hidlari anqib turgan kulbada oyog‘i kundali yoki qo‘li bog‘liq holda o‘zi bilan o‘zi so‘zlashib o‘tirish— jo‘xori boshlarini yig‘ishdan yuz marotaba og‘ir-da.

Jo‘xori yaproqlarining shag‘ir-shag‘ir to‘kilishi asir dam olishga o‘tirgan paytdagina tindi. Shu payt uning qulog‘iga:

— Ey, Ollohning bandasi! — degan o‘sha sehrli ovoz eshitildi.

Blokvil ovoz kelgan tomonga qaradi. Jo‘xorizorning ichida Oqmorol unga qarab turardi. Farangning taxminicha, sohibjamol qiz bu yerga begona ko‘zlardan yashirinib kelganga o‘xshardi. Chunki u jo‘xorizorning poyalari qalin joyda, ko‘zga zo‘rg‘a ko‘rinadigan joyda turardi.

Blokvil yevropaliklarga xos tavoze ila:

— Sizni ko‘rganimga men yana juda xursandman! — dedi. — Siz fors tilini qanday o‘rgandingiz? O‘zingiz turkman bo‘lsangiz...

Shu yoshgacha bo‘lgan umrida birinchi bor siz degan so‘zni eshitgan Oqmorolning quloqlariga asirning bu so‘zlari moyday yoqdi. Qiz diqqat bilan quloq solar ekan, farang yigit fors tilida so‘zlashganda ayrim so‘zlarni haqiqiy forslar talaffuzidan ham farqli tarzda ishlatishini sezdi. Biroq Oqmorol bandining fors tilida qanday gapirishini aniqlash uchun kelmagandi, uni boshqa bir maqsad bu yerga olib kelgandi.

— Men sizning nomingiz Oqmorol ekanligini ham bilaman.

Fransuzning bolalarcha aytgan shirin xabari Oqmorolning ham kulgisini keltirib, ham yurak-yuragini to‘lqinlantirib yubordi.

— Men ham sizning otingizni to‘la yodlamagan bo‘lsam-da, Jorj ekanligingizni bilaman...

Oqmorolning bu javobi ham farang yigitning so‘ziga o‘xshab shirin chiqdi.

— Jorj desangiz bo‘ldi...

Farang yigit shunday deganicha, qizga tikilib qarar ekan, to‘satdan Oqmorolning oqish yuzidan ko‘z uzolmay qoldi. Keyin qizni hang-u mang qilib:

— Sizning ahvolingiz... yuzingiz nega bunaqa? Biror joyingiz og‘riydimi? — deb so‘radi.

— Siz nima, tabibmisiz?

— Tabib emasman, biroq umrim davomida ko‘p kitoblarni o‘qidim. Shifo to‘g‘risidagi asarlar bilan ham tanishman.

— Tabibga borib ko‘rganim yo‘q, — dedi qiz ma’yuslanib, — ammo jigarim og‘riyotganga o‘xshaydi.

Blokvil qo‘lini qizning o‘ng tarafidagi qovurg‘asining pastiga qo‘ydi.

— Ana shu joyingiz tiqilib, gohida og‘ir tosh osilib turganday bo‘ladimi?

Badanidagi holat to‘g‘ri topib aytilgach, yigitning harakatidan hayratlanib turgan Oqmorol xursand bo‘lib ketdi.

— Vaqti-vaqti bilan shunday ham bo‘ladi. Buni qanday bildingiz?

— Tushunarli. Davosini keyin aytaman! — deb fransuz unga boshini egib ta’zim qildi.

Jo‘xorizor ichida yashirinib, tutqun bilan suhbatlashib turish Oqmorol uchun ham yarashmagan va xavfli bir ish edi. U yengiga yashirib keltirgan bir parcha nonni Blokvilga uzatarkan:

— Men sizga non olib keldim... — dedi.

— Men och emasman. Rahmat sizga!

Ammo Blokvilning nonga ochko‘zlarcha qaraganidan ko‘p narsani anglash mumkin edi.

— Ertalabdan buyon sizga yeyish uchun nimalar berilganidan men xabardorman. Asirlarning hayoti menga juda tanish...

Buni eshitib Blokvilning ko‘zlarida hayrat aks etdi.

— Nima, siz ham asirlikda bo‘lganmisiz? — deb yuborganini bilmay qoldi.

Javob o‘rniga nonni zambil ichidagi jo‘xori boshlarining ustiga qo‘ygan Oqmorol uy tomonga yurmay, boshqa tomonga yo‘naldi. Blokvil qizning o‘zi bilan suhbatlashish istagi borligini sezib, uning bu harakatining ma’nosiga tushundi.

Oqmorol bilan bunday yolg‘iz uchrashuv keyinchalik ham davom etavermasligiga ko‘zi yetgan farang yigit, ushbu fursatdan foydalanib qolmoqchi bo‘ldi.

— Ohmorol, mening bir iltimosimni bajarib bera olasizmi?

Tutqunning Oqmorol o‘rniga Ohmorol deb murojaat qilganini eshitgan sohibjamol kulumsirab to‘xtadi.

Qizning to‘xtaganidan ko‘ngli ko‘tarilgan farang yigit yuragidagilarni to‘kib sola boshladi.

— Marvdan narida, Topazlar degan qishloqda mening bir tanishim bandilikda yurgan bo‘lishi kerak. Uning ismi Yusufxon. O‘shanga xat olib borish kerak... Bu yerda sizdan boshqasi mening tilimga tushunmaydiyam, rahmi ham kelmaydi. Yusufxon. Alashayop bo‘yidagi Topazlar qishlog‘ida.

Oqmorol uning so‘zini eshitib, ha ham, yo‘q ham demay, yo‘liga yurib ketdi.

Blokvil uning orqasidan umid bilan qarab qoldi. Sukut alomati rizo deyishadi. Barcha xalqlar ichida shafqatlilari ham, beshafqatlari ham, yaxshilari ham, yomonlari ham uchrarkan.

Zambilning yonboshiga cho‘kkalagan Blokvil Oqmorol qo‘yib ketgan nonga qo‘l uzatdi. Nonni qo‘liga olgan zahoti yana qaytarib

joyiga qo‘ydi. O‘zining qo‘llariga qaradi. Jo‘xorining chang-to‘zoni singgan yoriq barmoqlariga ko‘zi tushgan farang, o‘z o‘tmishini eslay boshladi...

Har gal ovqatlanishdan oldin iliq suvda xushbo‘y hidli sovun bilan qo‘l yuvardi. Oppoq sochiqlarga qo‘l artardi. Hozir shularni eslab, qorayib ketgan mana shu barmoqlar o‘ziniki ekanligiga ishonmay qoldi...

Qo‘ng‘irga kelganidan buyon mahalliy aholi qiladigan xatti-harakatlarni sinchiklab qarab, kuzatib yurgan tutqun, bu yerda sovunning nima ekanligini bilishmasa kerak, degan xulosaga keldi. Ular ertalab o‘rinlaridan turib qumg‘on deyilgan idishdan qo‘llariga chala-chulpa suv quyishib, yuzini ho‘llaydilar va shu bilan o‘zlarini yuvingan deb hisoblashadi. Kecha og‘abekning ayoli Annabibi kir yuvdi. Blokvil kulbada o‘tirganicha uning ishini diqqat bilan kuzatdi. Katta qozonga tashlangan qizg‘ish o‘simlik uni hayratlantirdi. O‘sha o‘t sovun o‘rniga ishlatilsa kerak. Balki u sovundan ham yaxshi bo‘lishi mumkin. Aslida chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lgan odamlarning bilmagan hunari kam desa bo‘ladi.

Ayniqsa farangni lol qoldirgan narsa — qizg‘ish, yovvoyi holda o‘sgan o‘tning kir kiyimlarni binoyidek tozalagani bo‘ldi.

Qo‘llarini bir-biriga urib, barmoqlari orasini puflab tozalagan Blokvil o‘zicha miyig‘ida kulib qo‘ydi.

— Mana, qo‘lingni ham yaxshilab yuvding, janob kapral! Endi senga asilzoda odamlar uchun maxsus tayyorlangan ovqatlarni berishadi! Marhamat qilsinlar, janob!

U o‘z ustidan kular ekan, birdaniga Oqmorol esiga tushdi. Yana faqat u haqida xayol sura boshladi... U sening och ekanligingdan ham xabardor ekan-a?! Agar imkoniyati topilsa, u senga shirindan shirin ovqatlar keltirishdan ham qaytmasdi. Ammo ularning o‘zlari yeydigan taomlari ham...

Darhaqiqat, oldinlari ham oziq-ovqatlari mo‘l-ko‘l bo‘lmagan turkmanlarning ustiga dushman hujum qilishi bilan ularning ahvollari yanada og‘irlashgan bo‘lishi aniq. Bu yerda yeyilgan-ichilgan narsalarni yevropaliklar tushunchasidagiday oziq-ovqat deb ham bo‘lmasdi. Barcha yeguliklar, hatto, quruq qotgan manavi non ham qahat. Farang yigit bu ahvoldan xabardor. O‘zlari shu

zaylda yashashar ekan, birovga bir parcha non topib berish ham ulkan izzat-hurmat hisoblanadi! Balki Ohmorol bu nonni o'zi yemay, menga olib kelgandir?! Ana shunday xayollar bilan boshqatdan qo'lga olingan non bo'lagi endi tanqis taom bo'lib ko'rina boshladi. Oppoq bug'doydan tandirda pishirilgan nonning xushbo'y hidi og'izning suvini keltirib, ishtahani uyg'otib yuborar ekan. Nonni huzur qilib yegan yigit, yana meni deb Ohmorol och qolgandir, deb xayol qildi. Ham o'sha xayollar sabab bo'lib, ham chang-to'zonli jo'xorizor ichida non yeb o'tirishidan o'zi juda ham uyalib ketdi. U hozir o'zini yetim bolaning rizqini o'g'irlab yeb o'tirgan odamga qiyos qildi.

Faranglik oxirgi bo'lak nonni og'ziga solganida, osmondan tushganday kutilmaganda Egamurod paydo bo'ldi. U garchi o'tcho'plar ustidan yurib kelgan bo'lsa-da, tutqun o'zining ustiga Egamurod oyoq tovushini eshittirmay qanday kelib qolganiga aqli yetmay qoldi. Egamurod bandining yonida ko'p turmay, orqasiga qaytdi. U to uyiga yetguncha oyoq tovushi Blokvilga eshitilib turdi. Kelganida eshitilmagan oyoq tovushi, ketganida nima uchun eshitildi ekan-a?..

Ko'p vaqt o'tmay qora uy tomondan allakimlarning gaplashgani, savol-javob ovozlari eshitila boshladi. Egamurodning ayoli tashqariga chiqdi. Egamurod unga bir nimalar dedi. Jo'xorizorga qarab gapirgan xotini eriga qattiq-qattiq javob berdi. Bir joydan Oqmorol paydo bo'ldi. Egamurod unga ham bir narsalarni aytdi. Oqmorolning ovozi pastroq chiqdi. Egamurod unga barmog'ini o'qtaldi. Keyin jo'xorizor tomonga qo'lini siltadi. So'ngra yana Oqmorolga qaradi.

Blokvil qora uy oldidagi uch odam o'rtasida bo'lib o'tgan bu xil tushunarsiz so'zlashuvdan o'zicha ma'no chiqardi. Tutqunning non yeganini fahmlagan Egamurod uyga borgach: "Sen asirga non olib bordingmi?" — deb so'ragan xotinidan. Annabibi bunday ish qilmaganini aytgan. Unda kim unga non bergan? — degach, savol-javoblarning yo'nalishi Oqmorol tomonga ko'chgan. Bo'lib o'tgan voqeaning shu joyigacha qilgan taxminining haqiqatga mos kelishini farang bandi fahmladi. Lekin Oqmorolning nima deb javob berganini taxmin qilolmadi. Sohibjamol qiz:

"Asirga nonni men eltdim", deb iziga qaytdimi yoki qilgan ishini bo'yniga olmay Egamurod bilan tortishdimikan?

Oqmorol qanday javob qaytargan bo'lmasin, kaftday non tufayli ayollarning ta'na eshitishlariga sababchi bo'lgani uchun Blokvil o'zini gunohkor deb his qildi. U boshini ko'ylagi ichiga yashirmoqchi bo'lib, bukchayib o'tirar ekan, o'zining aybi bular nazarida qanchalik katta ekanligini hisoblab ko'rdi, qilgan ishidan uyaldi. Eh, attang, o'zi sababchi bo'lgan ishning bunchalik keskin tus olishini bilganida, ochdan o'lsa o'lardiki, nonga hech qachon qo'lini uzatmasdi.

Blokvil yana ishga yopishdi. Bir parcha non uchun yoki asirni haqiqiy tutqun hukmida tutish maqsadida yuzaga kelgan voqea to'g'risida o'ylana-o'ylana, bundan buyon qanday harakat qilmog'i kerakligini ham o'ylab chiqdi. Hatto, u salgina bo'lsa-da, o'roq qo'lini kesganini chap qo'li barmoqlari orasiga qon sizib chiqqandan keyingina fahmladi. Qon oqsa-da, og'rig'i sezilmadi. Uyat, o'y-fikr, tashvish tana jarohatidan ustun kelgandi. Uning fikr-u zikri — ish tugagach, kulbasiga borgandan so'ng ro'y beradigan voqealar haqida edi. Blokvil uyga boradi. Qora uydan chiqqan og'abek xotini va Oqmorolni chaqirib, bandi bilan yuzlashtiradi. Erkak tomonidan qiyin-qistovga olingan Oqmorol qilgan xatosini bo'yniga oladi. Egamurod uning ustiga bostirib borib do'q ura boshlaydi. Demak og'abek, hatto, uyat so'kishlarni aytishi ham muqarrar. Oqmorol asirga sirli qaraydi. Blokvil o'zi tufayli gunohkor bo'lgan sohibjamolning shahlo ko'zlaridagi iltijolarni ko'radi. Uyat, pushaymon girdobi tagida qolgan Blokvil shu damda, hatto, o'limga ham rozi...

Ammo shomda asirni eshik oldida kutib olgan Egamurod osoyishta ko'rindi. Uning yuz-ko'zida ham darg'azablik yoki ayblov paydo bo'lmadi. U xotinini ham, sohibjamol qizni ham bandi bilan yuzlashtirishga chaqirmadi. Biroq eski munosabat yana qaytarildi — asir kulbaga kirganda, oyog'iga yana kunda solindi, qamoqxona derazasiga mengzash ko'ndalang yulg'un xoda bog'langan eshik orqasiga og'ir to'nka tirab qo'yildi. Kulbaning bir burchagini to'ldirib turgan oqish-sarg'ish oshqovoqlar yana farang asirning hamxonalariga aylandi.

Blokvil shunga ham shukur qildi. U o'zi tufayli boshqa odamlar, ayniqsa, ayol kishi xafa qilinishini mutlaqo istamasdi...

38

Kulbaning zax hidi kelib turgan dimiq havosidan oylar davomida bir zaylda nafas olib kelgan bandi bechora o'zining sof havoga chiqarilishini bebaho baxt sanaydi, albatta. Bugungi voqea oqibatining janjalsiz xotima topishi ham Blokvilning ko'ngliga tasalli berdi. Xonadagi eski somonning achiqimtir hidi kulbadagi havoga aralashib behuzur qilsa-da, kunda oyog'ini siqib og'riq bersa-da, farang bularning barini esidan chiqarib, tunda miriqib uxladi. Erta yotib qolgan edi, erta uyg'ondi. Qiziq, avvallari uyg'ongan zahoti darrov asirligi esiga tushib o'kinardi. Bu safar nima uchundir bunday bo'lmadi. Qaytanga ko'zini ochganidan o'z yurtini esga solib turadigan ish asboblariga nazari tushdi. Uzoq o'lkalar osha olib kelgan daftarlari, surat-xarita chizadigan asbob-uskunalari uning ko'ziga bugun nihoyatda issiq ko'rindi. Tutqun Parijdagi chiroyli mushugining orqasini mehr bilan silagan kabi, daftar-qog'ozlarini silab qo'ydi.

Hali oftob chiqmasdan turib, Egamurodning xotini quduqdan suv torta boshladi. Blokvil Qo'ng'ir qishlog'iga kirib kelgan zahoti, ilk bor ko'zi ana shu quduqqa tushgan edi. Xuddi kulbasiga yonma-yon qilib qazilgan quduqning bir quloch chamasi balandlikdagi chekkalari yulg'un xodalaridan ustalik bilan bir-biriga tegizib chiroyli tarzda chetanlangan, bu ishni qo'li gul bir usta bajargani shundan ham sezilib turardi.

Blokvil Eronga kelganidan beri Xuroson yo'llari atrofida, turkman tuprog'ida ko'p quduqlarni ko'rgan. Hatto, u bu quduqlarni diqqat bilan ko'zdan kechirgan, bir nechtasining suratini ham chizgandi. Chuqurligi qirq quloch uzunlikdagi sersuv quduqlarni ham tekshirib chiqqan edi.

Blokvil surat chizishni tugatib, qalam-qog'ozini bir yonboshga qo'yganida, qora uydan chiqqan Egamurod qo'ng'ir kulba tomonga kela boshladi. Boshida silkma telpak, yap-yangi to'nining ustidan belbog' bog'lagan og'abek hozir kechagidan ko'ra juda

xushbichim ko'rinardi. U eshikni tirab turgan to'nkani bir chekkaga olib, ichkariladi. Farang asir uni ko'rishi bilan:

— Assalomu alaykum, og'abek! — dedi.

— Vaalaykum assalom! — Egamurod jilmaydi.— Tez orada turkmancha ham gapiradiganga o'xshaysan!

Blokvil uning "Vaalaykum assalom"idan boshqa aytganlariga tushunmadi. Biroq Xono'tgandan kelganlaridan beri xo'jayinining astoydil jilmayganiga mana bugun guvoh bo'ldi.

Egamurod aylanib kulbaning orqa tomoniga o'tdi. Ko'p o'tmay Blokvil uning otga minib qayoqqadir ketayotganiga ko'zi tushdi.

Jorj Blokvil, qismatning peshonaga yozganiga tan berib, qo'l qovushtirib o'tirmaslik kerak deb o'yladi. Agar harakat qilmasa, asirlik davrining muddati Qo'ng'ir qishlog'ida o'ta cho'zilib ketishi mumkin. U hech bo'lmaganda o'zining tutqunlikdaligini va qayerda ekanligi to'g'risidagi xabarni do'st-yorlariga, qarindosh-tug'ganlariga yetkazishning ilojini qilishi kerak! Bo'lmasa, asirlik hadsiz uzayib, shu sahro ichida umrbod qolib ketishi hech gap emas. Qojorlarning ham faqat o'z g'amlarini yeyishdan boshqa tashvishi yo'qligi ayon bo'lib qoldi. Albatta, u Xuroson hokimligi va Nasriddinshoh devonining dabdabali muhri bosilgan va'dali qog'oziga ham ishonardi. Biroq voqealarning olg'a bosmayotganligi uni qiynar, tashvishga solardi. Mabodo o'zining asir tushganligi haqidagi xabar Parijga yetkazilsa, zudlik bilan Napoleonga[1] ma'lum qilinishini ham bilardi.

Har holda, dvoryan oilasiga mansubligi sababli, imperatorning o'zi uni qutqarish borasida harakat qilishiga ishonchi komil edi. Shu fikr quvvat bo'ldi-yu, farang asir yana qog'oz-qalamga yopishdi.

"Muhtaram Yusufxon! Ushbu maktubni o'qib, Siz hayron qolishingiz ham mumkin. Ammo hozirgi holatim meni bu tuproqda o'zimga eng yaqin va umid qilgan, ishongan odamim sifatida Sizga murojaat qilishga majbur etmoqda. Sharoitning qandayligini esa Sizga aytib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak. O'zingiz ham bugungi kunda jannat to'rida yashamayotganingiz ma'lum. Tehronda

[1] Napoleon III, Lui Napoleon Bonapart (1808–1873), 1852–1870-yillarda Fransiya imperatori. Napoleon Bonapartning yaqin qarindoshi *(muallif izohi)*.

tuzilgan shartnomaga muvofiq, men turkmanlar qo'liga asir tushib qolganim taqdirda, Fransiya davlatining fuqarosi bo'lganim uchun Eron hukumati mening ozod qilinishim tashvishini bo'yniga olishi lozim. Ammo bugungi kungacha mening holimdan hech kimsa xabar olmayapti. Agar, Siz muhtaram Yusufxon, o'z yurtingizga sog'-omon qaytib borsangiz (shunday bo'lishini Yaratgandan o'tinib so'rayman), tuzilgan shartnoma haqida, mening Marv viloyati, Qo'ng'ir qishlog'idagi Egamurod og'abek hovlisida asirlikda tutib turilganimni Eron hukumati mas'ullariga xabar berishingizni yoki shu xat mazmuni bilan Fransiyaning Tehrondagi elchisiga shaxsan o'zingiz xabar berishingizni Sizdan o'tinib so'rayman. Ushbu xat sabab bo'lib, mening erkinlikka chiqishim to'g'risidagi xabar tezroq yetib kelsa, kamina Sizdan bir umr minnatdor bo'lardim. Menda ushbu xatdan bo'lak narsaga umid bog'lashga hech qanday asos yo'qligini tushunishingizni so'rayman.

Fransiya armiyasi kaprali Jorj Anri Gulibef de Blokvil. Marv viloyati, Qo'ng'ir qishlog'i. 1860-yil."

Blokvil xatni to'rt buklab, eshik yonida dumalab yotgan qovoqlar orasiga yashirib qo'ydi.

Kulba bilan qora uy orasi o'n besh-yigirma qadamdan uzoq emas. Shu ikki uy oralig'i Blokvil uchun kuzatib vaqt o'tkazadigan maydoncha edi, go'yo. Bolalar bu qora uydan yugurib chiqib boshqasiga kirsalar ham, maydonchada bir-birlarini quvlab o'ynasalar ham farang tutqun maydonchadagi barcha harakatlarni diqqat bilan kuzatib o'tiradi. Boshqa iloj ham yo'q.

Turkman bolalarining o'zaro gap otishlari, o'yinqaroqligi ham fransuz bolalarinikiga mengzar ekan. Birgina tafovut — yosh-yalangning Parijdagi tengdoshlariday ozoda kiyinmaganligida. Ularning o'ynab, ketma-ket sakrashlari, qiy-chuv ko'tarib bahslashishlari ham Blokvilga o'z yurtini eslatdi.

Ana, qo'shni uydan Muhammad polvon tashqariga chiqdi. Uning ko'rinishi, o'zini tutishi oldingiday vazmin. Boshida uni nihoyatda basavlat ko'rsatadigan katta silkma telpak, yelkada to'n. Blokvil devqomat bu kishining qora uydan chiqqan zahoti yo'talib qo'yishining sababini ham fahmlaydi. Oqsoqol yo'talganda, qo'shni uylardagi ayollarning ham o'zaro g'iybatlari nihoya

topganday shartta to‘xtaydi. Biroq farang tutqun bu ayollarning og‘izlarini ro‘mol bilan bekitib yoki ro‘mol uchini tishlab yurishlarining ma’nosiga tushunolmadi. Yana, shu atrofda ko‘ringan yoki quduqqa suv uchun kelgan ayollarning barchasi og‘zi ro‘molli bo‘lsa-da, ammo Oqmorol bundan mustasno edi. U og‘ziga ro‘mol o‘ramasdi. Buning sababi ham farangga noma’lum. Muhammadavaz polvon tashqariga chiqsa, Oqmoroldan o‘zga hamma ayollar darrov ro‘molchaning uchini tishlashar ekan. Oqmorol esa bu oqsoqol bilan ham bemalol turib suhbatlashaveradi. Blokvil bu tartib-qoidalarning sirini bilishni istaydi.

Muhammadavaz polvon Egamurodning eshigi yonida turib yana sun’iy yo‘talib oldi-da, ichkariga qarab allanimalar dedi.

Keyin iziga qaytib, uyiga kirib ketdi.

Uydan Annabibi chiqdi. Uning qo‘lida yog‘och kosa bor edi.

Ayol o‘zi o‘tirgan kulbaga tomon kelayotganini ko‘rgan farang asir oqsoqol yoshullining aytgan gaplari ma’nosini sal fahmlagandday bo‘ldi. Og‘abek tutqunning tomog‘idan yegulik narsa o‘tib turishini esidan chiqargan bo‘lsa-da, bu yoshulli yodidan chiqarmabdi, shunisiga ham shukur.

Egamurodning ayoli keltirgan kosasini kulbaning ichkarisiga, asirga yaqin joyga qo‘ydi. Uning ichida uch-to‘rtta qaynatilgan qovoq bilan bir burda non bor edi. Bu — asirga atalgan nonushta.

Annabibi iziga aylanganida, Blokvil:

— Opa! — dedi ohista. Bu so‘z farangning ayollarga murojaat qilganida ishlatadigan kalimasi edi.

Egamurodning xotini to‘xtadi. Blokvil unga turkmanchalab aytishga so‘z topolmay, qo‘llarini uqaladi, oyog‘iga ishora etdi. U shu bilan: Oyog‘imni bo‘shating! Qo‘limni yuvishga suv bering! — degan ma’noni tushuntirmoqchi bo‘ldi.

Biroq Annabibi uning nima demoqchi ekanini fahmlamadi, qo‘llarini ikki tomonga kerib, tushunmadim degan bo‘ldi-da, uy tomonga yurdi. Ko‘p o‘tmay, Annabibi Oqmorolni ergashtirib keldi.

Blokvil qizga boshini egib salom berdi-da:

— Agar qo‘limni yuvish, og‘zimni chayqashga suv bermasalar, oyog‘imdagi kundani yechmasalar, olib kelgan ovqatini yemayman, — dedi.

Shundan so‘ng yana ta’sirliroq bo‘lsin degan umidda, eshik oldida turgan ikkita turkman zaifasining nozik tuyg‘ularini chertib ko‘rish maqsadida:

— Men taomdan yuz o‘girib, och-nahor o‘tirsam, Yaratgan egamning huzurida sizlar gunohkor bo‘lasiz! — dedi.

Oqmorol asirning aytganlarini Annabibiga tushuntirdi. Annabibi boshini chayqab:

— Egamurod og‘ang uyda yo‘q ekan, men uning oyog‘idagi kundaga yaqinlasha olmayman, singiljon, — dedi xavotirda.

Blokvil esa ikkita zaifa maslahatlashguncha o‘zining norozi ekanligini namoyon qilib, boshini quyi soldi-da, miq etmay o‘tiraverdi. Annabibi Muhammadavaz polvonning uyiga qarab ketdi. U sal uzoqlashgan zahoti qulay fursatdan foydalanmoqchi bo‘lgan Blokvil tez-tez gapira boshladi:

— Mening kechagi iltimosim esingizdami, Ohmorol? Men, mana, o‘sha maktubni yozdim. Qo‘rqmasangiz ham bo‘ladi, xatda hech qanday xavfli xabar yo‘q. Men faqat o‘zimning tutqunlikdan ozod bo‘lishim uchun yordam ko‘rsatilishini so‘radim. Siz ushbu xatning Topazlar qishlog‘idagi Yusufxonga yetkazilishiga yordam bersangiz, Ollohning omadsiz bandasiga katta yordam bergan bo‘lardingiz. Sizni Xudo panohida asrasin, ilohim!

Oqmorol orqasiga o‘girildi. Yangasi Muhammadavaz polvonning o‘toviga yetay deb qolgan edi. Sohibjamol qizning niyatini anglagan Blokvil o‘tirgan joyidan tez ko‘tarildi. Xatni yashirib qo‘ygan joyidan oldi va qizga uzatdi.

Xatni ko‘ylagining uzun yengi ichiga yashirgan Oqmorol:

— Bilib qolishsa, mening boshimga qanaqa balolar yog‘ilishini fahmlayapsizmi? — deb so‘radi.

— Tushunaman, Ohmorol, tushunaman. Biroq shuni bilingki, mening sizdan boshqa suyanchig‘im yo‘q. Tutqunga rahm-shafqat qilsangiz, sizni Yaratgan egam o‘z panohida asraydi...

Kulbaning og‘zida Muhammadavaz polvon paydo bo‘ldi. Annabibi esa uyidan suv to‘la qumg‘on va kundaning kalitini olib keldi.

Qilgan harakatining natija berganiga ishonch hosil qilgan Blokvil yoshulliga salom berdi-da:

— Sizlar yoqimsiz hidga to'la bu kulbada kimni tutib turganlaringizni bilasizlarmi, og'abek? — dedi. — Bunaqa chaylada men o'zimning tozi itimni ham saqlamagan bo'lardim. Bunday joyda insonni tutib turganlaringiz uchun Olloh oldida javob berasiz hali, og'abek! — deb ta'nalarini yog'dirdi.

Asirning so'zlari vahimali jaranglagan bo'lsa-da, Muhammadavaz polvonga bu chivin chaqqanchalik ta'sir etmadi. Bir dona tuki ham qimirlamagan yoshulli Oqmorolga dedi:

— Men buning aytgan so'zlariga chala-chulpa tushundim. Nima demoqchi bo'lganini fahmladim. Biroq sen unga aniq tushunarli qilib ayt. Ko'ngliga olmasin. Nasriddinning to'p sudrab kelgan navkarlaridan qo'rqmagan taka oyog'i kundalangan tutqundan mutlaqo cho'chimaydi, degin. O'z yurtida shahzoda bo'lgan ekan, biz unga ishonamiz. Lekin u hozir bizning yurtimizda tutqun ekanligiga ham ishonsin. Yana bir narsani ayt! Bugungi kunda biz yashayotgan sharoit ham tutqunlarnikidan uncha katta farq qilmaydi.

Muhammadavaz polvonning so'zlari tutqunga tushuntirildi. Aytilgan gaplarning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilgan Blokvil rost deganday jilmayib qo'ydi.

Bu tabassum endi ikkala tomonga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Asirni to Egamurod qaytib kelmaguncha kulbadan chiqmaslikka ko'ndirishdi. Uning uchun keng dunyoni yana tor kulbadan kuzatishdan boshqa yumush qolmagan edi. Kulba eshigidan ko'ringani — uchta qora o'tov, quduq, o'choq va ichiga suzma solingan teri osig'liq daraxt shoxlari, xolos...

Qora uylar orasida ayollar u uydan chiqib bunisiga, bunisidan chiqib boshqasiga kirib ketishar, g'am-tashvishdan begona kichkintoylar u yoqdan-bu yoqqa yog'och ot choptirishib o'ynardilar.

Farang asir kunning ancha qismini nazari tushadigan joylarga qarab o'tkazdi. Peshinga yaqin asirning ko'z o'ngidagi o'zgarmas manzaraga yangilik kirganday bo'ldi. O'ttiz yoshlar chamasi bir ayol besh-olti yoshlardagi o'g'il bolaning, yetti-sakkiz yoshlardagi qizaloqning qo'lidan tutib, Egamurod qo'ng'irning hovlisiga keldi.

Blokvilning diqqatini o'ziga jalb qilgan narsa qizaloqning bezakli do'ppisi ustidagi tovuq yoki qushning patlari bo'ldi. Oppoq qush patlari nozik-nihol qizaloqning bo'yini juda uzun qilib

ko‘rsatmoqda edi. Tutqun patlarni tovuq qanotidan yulib olingan bo‘lsa kerak, deb taxmin qildi. Asir keyin bolachaga e’tibor berdi. O‘g‘ilcha shu atrofdagi bolalarga nisbatan chiroyli, ozoda kiyingandi. Blokvilning qiziqishini uyg‘otgan narsa bolachaning kiygan orqasi bezakli nimchasi bo‘ldi. Uning kiygan bosh kiyimi ham o‘ziga loyiq qilib tikilgan edi.

Annabibi uyidan chiqdi-da, mehmon ayol bilan yelkalariga qo‘l tegizib omonlashdi, bolakayning orqasini siypalab qo‘ydi. Keyin Oqmorol paydo bo‘ldi. U ham Egamurodning ayoli qilgan harakatlarni takrorladi.

Kelgan ayol qo‘lidagi tugunchani Annabibiga tutqazdi. Shundan keyin ayollar uyga kirib ketishdi. Qizaloq bilan bolacha tashqarida qoldi. o‘ynab yurgan bolalar darhol ularning atrofini o‘rab olishdi. Shu tarzda Blokvil kuzatlb o‘tirgan zerikarli olam shovqin-suronga to‘ldi.

Ko‘p vaqt o‘tmay uy bekasi idish-tovoqlarni ko‘tarib, o‘choq boshiga keldi. Tutqun, endi uning mehmon uchun taom tayyorlashi kerakligini tushundi. Mehmon ayol bilan Oqmorol ham, Annabibini yolg‘iz qoldirmaslik maqsadida bo‘lsa kerak, o‘choq boshiga kelishdi. Uch nafar ayol uch tomondan ovqat pishirish uchun kuymalanib, o‘zaro suhbat boshladilar. Ular lablari lablariga tegmay, navbatma-navbat, ba’zan bir-biridan oldinroq so‘zlashga harakat qilib suhbatlashardi. Egamurodning xotini o‘z so‘zlarining zalvorliligini tushuntirish uchunmi, yoqqa pishib, qorayib ketgan yog‘och cho‘michni silkitib-silkitib ham qo‘yardi.

Blokvil ayollarning harakatiga havas bilan tikildi. Kulbaning ichida o‘tirib o‘zlarini diqqat bilan kuzatayotgan begona bir erkak ham bor, degan o‘y-xayolga bormagan ayollarning og‘izlari bir zum tinmasdi. Ular tevarak-atrofga butkul befarq edi. Ularning bu xil xatti-harakatlari tutqunning kulgisini keltirdi. G‘iybatga kirishgan vaqtda barcha millat ayollari bir-birlariga o‘xshar ekanlar-da! — deb boshini chayqab qo‘ydi farang. — Faqat tillari boshqa-boshqa demasang, qilgan harakatlari ham, bir-birlariga navbat bermay tez-tez so‘zlashishlari ham bir xil...

Egamurodning hovlisidagi quduqning yulg‘un daraxtidan yasalgan tepa qismi faqat farang tutquninigina qiziqtirmagan ekan.

Mehmonga kelgan bolakay ham unga e'tibor berdi. U to'rt-besh nafar bo'lib, o'zlaricha o'ynab o'tirgan bolalardan ajralib chiqdi-da, quduqning boshiga keldi. Blokvil bolakayni nima qiziqtirib qo'yganini bildi— bola quduqning ichiga qaramoqchi.

Bolakay nimchasidagi tumor, tumorga mayda zanjirlar bilan bog'langan tangachalar osilib turganligi Blokvilga aniq ko'rindi. Bola har bir qimirlaganida tangachalar jiring-jiring ovoz chiqarardi.

Bolakay avvaliga yulg'un daraxti xodalaridan chiroyli qilib yasalgan quduq boshini qo'li bilan siladi. Atrofini aylandi, keyin bo'ynini cho'zib quduq ichiga qaramoqchi bo'ldi. Bolalarga xos qiziquvchanlik unda quduqning tagigacha qarashga havas uyg'otgan edi. U endi yulg'un asosning ustiga chiqishga harakat qiladi.

Shunda Blokvilni xavotir chulg'ab oldi. Hozir kutilmagan bir voqea yuz beradiganday edi. Bolakayning har bir qilayotgan harakati go'yo ana shu xavf-xatarning yaqinlashayotganligidan darak berardi...

Yulg'un daraxti xodalaridan qilingan quduq boshiga chiqqan bolakay quduqning tubiga qaramoqchi bo'ldi. Ana... Shu payt tutqun xavfsirayotgan hodisa ro'y berdi — bolaning qo'rquv aralash chinqirig'iga o'choq boshidagi ayollarning uvvos solgan qichqiriqlari qo'shilib ketdi...

Ayollar ham, o'ynab yurgan bolalar ham jon holatda quduq boshiga qarab yugurishdi. Biroq quduqqa yiqilib tushgan bolaga yordam berish uchun ularning qo'llaridan hech narsa kelmasdi. Ular faqat shovqin-suron ko'tarishardi, xolos.

Kulbadan otilib chiqqan Blokvil ham bir zumda quduqning boshida paydo bo'ldi. U oldida turganlarni qo'li bilan bir chekkaga surib-itarib, quduqning suv tortadigan ipiga qo'l uzatdi. Atrofdagilarning baqir-chaqiri, shovqin-suroni kuchaygandan kuchaygandi. Yuzi oppoq oqarib ketgan mehmon ayol Oqmorolga suyanib behush yiqilib qolgandi. Muhammadavaz polvon ham uydan otilib chiqdi. Uning odatdagi yo'talini hozir hech kim eshitmadi. Ayollarning shovqin-suroni esa bosilay demasdi. Gap nimadaligini endi fahmlagan qariya ham quduq boshiga qarab yugurdi.

Barcha voqea-hodisa qanday boshlangan bo'lsa, shunday tezlikda tugadi. Keksa bo'lsa ham Muhammadavaz polvonning kuch-

li qo'llari ayollarning yordami bilan quduq ichidan Blokvilni tortib oldi. Blokvil bolani qo'ltig'iga mahkam qisib olgan edi.

Ust-boshi shalabbo bo'lgan tutqun quduqdan chiqqandan keyin ham o'zini yo'qotmadi. U bolaning ikki oyog'idan tepaga ko'tardi. Go'dakning og'zi-burnidan suv sharillab to'kildi.

Bolaning quduqdan omon chiqqanini ko'rgan ayol unga tomon intildi. Biroq Blokvil onani bola yoniga yaqinlashtirmadi. U o'z tilida nimalarnidir aytib ayolga baqirdi. Keyin bolakayni yerga yotqizib, ko'kragini qo'llari bilan bosa boshladi. Atrofdagilar uning nima uchun bunday qilayotganining ma'nosiga tushunib-tushunmay turardilar. Ko'zlarini ilkis ochgan bolakay qo'rqqanidan qattiq yig'lab yubordi. Blokvil shundan keyingina jilmayib o'rnidan turdi.

Mehmon ayol bolasini shartta ko'tarib bag'riga bosdi.

— Xudoyim seni menga yana qaytarib berdi! O'zingga shukur! — deb mehmon ayol xo'rligi kelib rostakamiga hiqillab yig'lay boshladi.

Muhammadavaz polvon esa allaqachon kulbasi tomon yetib borgan tutqunning orqasidan qarab qichqirdi:

— Sen katta ish bajarding, ota o'g'il! Agar sen bo'lmaganingda, boshimizga yomon musibat tushardi...

Yelkasidagi to'ni yo'qligini endi sezgan yoshulli, farang tutqunning jasurligidan mamnun holda qora uyiga kirib ketdi. Yana qaytib chiqdi. U qo'lidagi qimmatbaho zarhal to'nni avaylab ko'targanicha, tutqunning ustiga yopish uchun u kirib ketgan kulba tomon intildi.

39

Asirlar taqsim qilinganida Egamurod qo'ng'irning omadi kelganini butun qishloq ahli gapirgani, u endi farang asirga ega bo'lgani butun qishloqda duv-duv gap bo'ldi. Bu so'z-suhbatlar kattalashib, shishirilib, farang asirning orqasida katta boylik borligi, tutqunning bahosini ko'tarishni eplay olsa, Egamurodning haddan tashqari boyib ketishi mumkinligi to'g'risida komil ishonch bilan gapiradiganlar ham paydo bo'ldi. Blokvilning meh-

monga kelgan bolani ajalning og'zidan olib qolishi esa oldingi shov-shuvli so'zlarga ishonmaganlarni ham inonishga majbur etdi.

Bundan tashqari, Farangistondan Marvga kelgan, Egamurod qo'ng'irning ulushiga aylangan bandini ko'rishga havasi borlar soni ham kundan kunga ko'paymoqda edi. Ahvol shu darajaga yetdiki, narxi qancha baland bo'lmasin, homiylari chiqadimi-chiqmaydimi, endilikda farang asirni Egamuroddan o'g'irlab, boshqalarga sotishni mo'ljallayotgan odamlarning borligi haqida ham mish-mishlar tarqaldi. Bu mish-mishlar Egamurodning ham qulog'iga yetdi. Shu sababli ham Blokvilning oyog'i yana kundalandi. Tarqalayotgan ta'rif va maqtovlar tutqun bechoraning ahvolini battar qiyinlashtirmoqda edi.

Endi kunduz kunlari ham Blokvil yorug' olamni deyarli ko'rmaydigan bo'ldi, hisob. Uning eng uzoq yuradigan yo'li hojatxonagacha qilib belgilangan edi. U vaqtda ham goh Egamurodning o'zi, goh xotini, bola-chaqalaridan bittasi tutqunning kulbasiga qaytib kelguncha sergaklik bilan poyloqchilik qilardi. Keyingi paytlarda tunning bir mahalida Egamurod uyidan chiqib, asir yotgan kulba atrofini ehtiyotlik bilan tekshirib ketishini ham Blokvil payqab qoldi.

Bir kuni peshin mahali Egamurodning o'zi uyda yo'q vaqtida ularnikiga yana mehmon keldi. Otini bog'lab uyga kirgan, qirq yoshlar atrofidagi silkma telpakli bu odamning qo'ltig'ida kattagina tuguncha ham bor edi.

Mehmon ichkarida ko'p bo'lmay, Egamurodning xotini bilan tashqariga chiqdi. Ular to'g'ri kulba tomon kela boshlashdi. Mehmonning belbog'iga to'pponcha osig'liq edi. Urush tamom bo'lganidan ko'p vaqt o'tganiga qaramay, ehtiyotkorlikni esdan chiqarmagan turkmanlarning ko'pchiligi hanuzgacha qurol bilan yurishardi. Blokvil bundan xabardor bo'lsa-da, to'pponchali odamning o'zi tomon kelayotganiga ko'zi tushgach, ko'ngliga biroz sarosima oraladi.

Biroq kelgan turkman kulba eshigiga yetguncha, Blokvil uning yomon niyatli kishi emasligiga ko'zi yetdi.

Kelgan kishi yoqimli jilmayish bilan asirga qaradi-da:

— Assalomu alaykum, ey Tangri bandasi! — dedi.

Tashvish yukidan xalos bo'lgan tutqun ham:

— Vaalaykum assalom, og'abek! — dedi-da, kelgan kishining tabassumiga kulumsirash bilan javob qaytardi.

To'pponchali turkman go'yo uning aytganlariga asir kam-ko'stsiz tushunadi deb o'yladimi, jiddiy ko'rinishga kirib so'zlay boshladi.

— Yaratgan Egam, bandam bandamga sababchi bo'ladi degan ekan, ey Tangri bandasi. Sen qilgan yaxshilikni biz oxiratgacha esimizdan chiqarmaymiz. Agar men elning xoni bo'lganimda edi, seni tutqunlikdan ozod ham qilardim. Agar men qudratli boy bo'lsam edi, sening haqingni to'lab, yurtingga jo'natardim. Ming afsuski, men ham seningday oddiy bir fuqaroman. Sendan ortiqcha joyim — mening tutqun emasligim, xolos. Yaxshiliging uchun sen bizning chin yurakdan atagan sovg'amizni qabul qilgin. Oz bo'lsa ham ko'p o'rnida ko'rgin, ey Tangri bandasi.

Blokvil uning muloyim so'zlariga bosh egib minnatdorchilik bildirdi.

To'pponchali odam gapirib bo'lgach, qo'ltig'idagi tugunni ochdi. Tugunchadan silkma telpak, qo'lda chiroyli qilib tikilgan to'n va bir juft bejirim idish chiqdi. Bu narsalarning barchasi oldiga qo'yilgach, Blokvil ularning sovg'a ekanligiga tushundi. U yana boshini egib, jilmaygancha minnatdorchilik bildirdi-da:

— Tashakkur, og'abek, sog' bo'ling! — dedi.

Javobdan ko'ngli xush bo'lgan u odam:

— Iloyim yomonlik yuzini ko'rmagin! — deb orqasiga qaytdi, quduqning yoniga bordi. Egamurodning xotiniga bir narsalar dedi. Keyin boshini egib, quduqning tubiga qaradi, afsus qilib, boshini chayqadi. So'ngra kulba tomon yana bir bor tabassum bilan qaradi. Bu turkmanning o'ziga nisbatan mehrli nazarini tuygan farang asir uni quduqqa yiqilgan bolaning otasi yoki yaqin qarindoshi bo'lsa kerak, degan xulosaga keldi...

Egamurod qo'ng'ir hovlisidagiday chuchuk suvli quduq qishloqda deyarli yo'q edi. Bu quduqdan ko'p oilalar suv olib ketishardi. Kulbaning ichidan tashqariga qarab o'tirgan Blokvil boshqa tashvishi bo'lmagach, suvga kelganlarning barchasini ko'zdan o'tkazar, ularning har biriga o'zicha baho berardi. Kel-

ganlar ichida turli xil odam: qahrli, sodda, ayyor insonlar ham uchrardi. Ayniqsa, ayollar ichida bo'sh-bayov, indamaslari ko'p. Ularning ayrimlari quduqdan tortgan suvini to'kib-sochib, uzun ko'ylagining etagini shalabbo qilib ketishardi. Ayrim shaddodlari esa pishiq-puxta harakat qilishadi, quduqdan suv olganda ham, suvni o'z idishiga quyganda ham bir tomchisini zoye qilishmaydi. Bunday xotin-qizlarning qadam bosishlari ham chiroyli, e'tiborni o'ziga tortadi. Yoshgina kelinlarning boshidagi lachaklar farang asirni hayron qoldirardi. Taqinchoqlar bilan, turli-tuman rangli ro'mollar bilan o'ralgan uzun lachaklarni ko'tarib yurish oson bo'lmasa kerak, deb fikr qilardi asir. Lachaklarning ichi qanaqa yengil matodan qilingan bo'lmasin, tashqari tomoni taqinchoqlar bilan bezalgan bu bosh kiyimning og'irligi ham o'ziga yarasha bo'lsa kerak, deb o'ylardi u.

Asirni hayron qilgan yana bir narsa bor. Bu yosh ayollar sochlari uchiga taqadigan taqinchoq edi. Mana, hozirgina bir kelin quduqdan suv tortib oldi. U suvni olib ketayotganda Blokvilning og'zi ochilganicha kuzatib qoldi. Soch uchidagi taqinchoq kelinning qadam harakatlariga monand nozik ovoz chiqarar, shu bilan birga, taqinchoqlar zaifa qomatiga go'zallik ham qo'shayotganday edi, go'yo. Farang tutqun har gal turkman milliy taqinchoqlarining ushbu sehrli ovozlarini eshitib hayajonga tushar va qoyil qolib boshini chayqaganini o'zi ham sezmay qolardi.

Kecha quduq boshiga jami o'n ikki nafar odam kelib ketdi. Bugun, mana, peshin bo'lib qolgan bo'lsa-da, odam kelishi siyrak edi. Boyagi taqinchoqli kelin— bandining hisob-kitobiga ko'ra, yettinchi odam edi. Tutqunning diqqat qilishicha, quduqqa faqat kelin-qizlar, goh-goh o'n-o'n ikki yashar bolalar kelishadi. Erkaklar suv olishga kelishmasdi. Albatta, bu turkmanlar uchun odat bo'lsa kerak... deb fikr qildi u.

Biroq taqinchoqli kelindan so'ng quduqqa kelgan odamni ko'rib, Blokvilning fikri o'zgardi. Bu kelgan odam — uzun bo'yli, ko'p vaqtlardan buyon soqoliga ustara tegmagan oriq kishi edi. Blokvil uning turkman emasligini fahmladi. Farangning bilishicha, Marv viloyatida turkmanlardan tashqari, pirsiyonlar ham yashaydi. Bu fikr xato ham emasdi. Chuchuk suvli quduqqa kelganning

turkman emasligini uning harakatlari ham tasdiqlardi. U urushda asir tushgan qojorlardan edi.

Quduqdan suv tortib bo'lgan qojor kimningdir o'ziga fors tilida so'z aytganini eshitib, sergak tortdi. U yonboshga qaraganida, eski kulbaning ichkarisida o'tirgan odamga ko'zi tushdi va unga salom berdi.

— Men sizni taniyman, og'abek! — desa ham, qojor kulba tomon yurishga jazm qilolmadi. Tevarak-atrofga qarab oldi. Uydan chiqqan ayol ikki asirning bir-biriga qarab turishini ko'rgan bo'lsa ham, keyingi eshikka jimgina kirib ketdi. Buni ko'rgan qojor tinchlandi.

— Sizni hamma biladi. Siz bu yoqda yashiringan ekansiz-da, — dedi asir qojor.

— Nima, turkmanlar meni o'zlariga xon qilib saylashmoqchimi? — deb so'zlashishni xohlab turgan Blokvil kulib yubordi. — Men ham hozir seningday asirman. Aslida seningday ham emasman.

— Nega meningday emas ekansiz? Sizni hamma odam biladi. Men yashayotgan uydagi og'abeklarning barchasi har kuni siz haqingizda suhbatlashadi.

— Shunday bo'lsa-da, mening holatim senikidan og'ir, qarindosh. Sen, mana, o'zing qorovulsiz suvga kela olasan. Men esa, hatto, hojatxonaga ham bemalol bora olmayman. Tunda ham oyog'imdan kunda yechilmaydi.

— Kunda yechilmasa, demak, siz obro'li odamsiz. Qochib ketmasin deb shunday qilishadi-da. Mana, men hech kimga kerak emasman! Savodsiz bir xizmatkorman. Ketaver desalar ham, qayoqqa borishimni bilmayman.

— Nima desang-da, erkin tutqun bilan bog'liq bandining o'rtasida farq katta, sarboz! Sheriklaringdan qanday xabarlar bor?

— Nima xabar bo'lsin, og'abek! — deb qojor chuqur xo'rsinib qo'ydi. — Orqasidan to'lov puli kelganlar ozod bo'lib ketishdi. Menga o'xshagan bechorahollar Ollohning yaxshi kuni kelarmikan, deb kutib yuribmiz.

— Sarkardalar qayerda?

— Boshqalar to'g'risida eshitmadim. Bosh sartib bilan Hamza Mirza sog'-salomat Eronga borganini eshitdim...

Qojorning Bosh sartib degani Qora sartib edi.

— Hay, Siz ham o‘z elingizga bir kuni qaytarsiz-da! — deb asir qojor ruhsiz gapirdi. — Sizning tashvishingizni qilayotganlar ko‘p emish. Ish pishgan deyishmoqda...

— Barchamiz ham yurtimizga boramiz! — deb Blokvil ko‘ngli qattiq cho‘kkan qojorning ruhini ko‘tarmoqchi bo‘ldi. — Turkmanlar ham tezroq bizlardan qutulishni istashmoqda.

— Ilohim, aytganingizga farishtalar omin desin!

Blokvil suv olib ketayotgan qojorga rahmi kelib, uning izidan qarab qoldi.

40

Tagimda ot bo‘lsa, takalar hududidan chiqib, Jayhun daryosiga yetib olardim. Omadim kelsa, daryoning chap qirg‘og‘i bo‘ylab, Afg‘onistonga o‘tmoqchi edim.

Jorj Blokvil xotiralaridan

Oradan ancha vaqt o‘tganiga qaramay, Oqmorol bir marotaba ham shunchaki gap tashlashga qulay fursat topmaganligi, har kuni bir necha bor duchlashganlariga qaramay, hech qanaqa imo-ishora qilmayotganligi Blokvilning umidini puchga chiqarmoqda edi. Bu holatni u Egamurodning hushyorligiga yo‘ydi, o‘zicha. Biroq Egamurod o‘z yaqini bo‘lgan Oqmorolga tutqunning yoniga borishni taqiqlagan bo‘lsa-da, asirga yaxshilik qilishini istagan odam bir-ikki og‘iz so‘z aytishga imkon topishi kerak-ku, axir?!

Blokvil besamara o‘tgan har kunining ertasiga katta umid bog‘lasa-da, kunlar hech qanday o‘zgarishsiz o‘tmoqda edi. O‘z ish-tashvishlari bilan kirib-chiqib yurgan Oqmorol esa kulba tomonga ko‘z qirini ham tashlamas, eski xaroba ichidagi tutqunning o‘zidan umidvor bo‘lib kutib o‘tirganini sezmaganga o‘xshardi.

Mana, bugun erta bilan Egamurod qo‘ng‘ir to‘riq otining yo‘rg‘asiga quvonib, kayfiyati chog‘ holda qaygadir ketdi. O‘sha paytda tashqariga chiqib, og‘asi bilan salomlashgan Oqmorol uning ketganini ko‘rsa-da, kulba ichkarisida o‘ziga diqqat-e’ti-

borini qaratib o'tirgan farangga ko'zi tushsa-da, hech qanaqa ishora qilmadi.

Oqmorol quduq boshiga kelganida gaplashish imkoniyati tug'ildi, ammo Blokvil so'z deyishga ham, salom berishga ham tortindi. Tutqun o'z jonidan xavfsiramasdi, salom berganini kimdir-birov eshitishidan, shu zaylda Oqmorolga yana gap tegib qolishidan cho'chirdi.

Oqmorol indamay uyga kirib ketgach, Blokvil Yusufxonga yuborgan xati to'g'risida aniq xulosaga keldi: demak, xat Topaz qishlog'iga yuborilmagan! Buning aksi ham bo'lgan bo'lishi mumkin: ya'ni, xat Topaz qishlog'idagi Yusufxonga emas, balki Egamurodning o'ziga berilgan bo'lsa-chi?! Turkman zaifasi hech qachon o'zining qondosh tug'ishganlariga qarshi bormasligi, umrida birinchi bor ko'rib turgan begona bir shaxsga yordam bermasligi mumkin-ku, axir. Bu birinchidan. Ikkinchidan esa, aytaylik, xat boshqa birovning qo'li bilan Egamurodga borib yetsa, xatning qanday qilib va kimning yordamida paydo bo'lganligining siri ochilsa, Oqmorolning xatti-harakatini sotqinlik hisoblagan qarindosh-urug'lari qizni sog' qo'yisharmikan?! Blokvilning fikr qilishicha, shunday xavf-xatar ham borligini o'ylamaslik — Oqmorolday esi butun qizga to'g'ri kelmaydi. U o'z jonidan qo'rqmasa-da, qarindosh-urug'lari oldida beobro' bo'lishdan qo'rqishi tabiiy. Demak, qiz Yusufxonga yozilgan xatni Egamurodga ko'rsatmagandir-u, ammo baloning oldini olish uchun maktubni o'z qo'li bilan yo'q qilib yuborgani aniq. Shu sababli ham, o'zi bergan va'dasining ustidan chiqolmagan qiz bechora tutqunning ko'ziga ko'rinishga, u bilan so'zlashmoqqa uyalib yurgan bo'lsa kerak-da?!

Blokvil bu taxminlarining qaysi biri to'g'ri chiqishiga aqli yetmasa-da, yozgan xatining Yusufxonga topshirilmaganiga, endi ham hech qachon unga yetib bormasligiga qat'iy ishondi. Shunday bo'lsa, uning tutqunlikdan ozod bo'lishiga umid qiladigan bittagina yo'l qolgan edi. Bu yo'l — qochish. Qochish masalasi esa deyarli amalga oshmaydigan yo'l edi. Birinchidan, uning oyog'i kundalangan. Ikkinchidan, ot topib, unga minib qochishning umuman iloji yo'q. Ot topilishiga odamning ko'zi yetmaydi. Qochish-

ga fursat tug‘ilganda ham, bu ishni faqat tun qorong‘iligidagina amalga oshirish mumkin. Biroq hushyorlikni qo‘ldan bermaydigan Egamurod qo‘ng‘ir oftob botar-botmas otini yerto‘laga qamab, eshigini zanjir bilan uch-to‘rt marta o‘rab, keyin qulflaydi.

Shunday bo‘lsa-da, Blokvil qochish to‘g‘risidagi umididan butunlay voz kechmadi. Xayolida u necha marta Egamurodning olmako‘z bedovining ustiga chiqdi, sharq tomonga ot surib Jayhunga yetdi, daryoning chap qirg‘og‘i bo‘ylab Afg‘onistonga o‘tib oldi... Jayhun va Afg‘onistonning qayerdaligini, u tomonlarga qanday qilib borish mumkinligini Blokvil yaxshi biladi, u umrining ancha-muncha qismini jahon davlatlari xaritalarini o‘rganish bilan o‘tkazgan edi.

Qochish orzusi endi tutqunning butunlay es-hushini egallab oldi, bu maqsadini qancha tezroq amalga oshirsa — shuncha yaxshi bo‘lishini his qilardi. Zero, qochib ketishiga o‘zining ham ishongisi kelardi. Nima qilsin, sohibjamol, yuragi toza Oqmoroldan kutgan umid sarobga aylangach, endi unga ozod bo‘lishning qochishdan boshqa yo‘li ko‘rinmayotgandi.

Ot topilsa bo‘ldi, hatto, oyog‘im kundali bo‘lsa-da, maqsadimni amalga oshiraman, deb o‘ylardi Blokvil. Zindonda o‘z ajalingni kutib, kurashsiz o‘lib ketgandan ko‘ra, vatanga olib boradigan yo‘lning dastlabki qadamlarida o‘lib ketish ham qahramonlikdir degan fikrga keldi u.

Egamurod qo‘ng‘ir shu ketganicha, oftob bota boshlagan paytda qaytib keldi. Ketganida kayfi chog‘ og‘abek, endi ruhsiz kelganligini Blokvil bir qarashda sezdi... Balki charchagan va ruhsiz qaytgan og‘abek otini yerto‘laga kiritganidan so‘ng, eshikni qulflash esidan chiqar? Odam kayfiyati yo‘q paytlarda nimalarni o‘ylamaydi?!

Shunday qilib, Egamurodning kayfiyatsiz kelgani farangda yana umid uchqunlarini uyg‘otdi. U bugun tunda otxona eshigini bir tekshirib ko‘rishga qaror qildi. Uni jannatmakon joydan keltirib, do‘zaxday sahroga tashlagan tole, balki bugun unga baxt eshiklarini ochar?!

Kunduzi Egamurodnikiga kelib-ketganlarni sanab, vaqtni o‘tkazgan Blokvil kechalari vaqt o‘tkazolmay juda qiynalar edi.

Oftob botishi bilan qop-qora libosini kiygan qishloq shunaqangi vahima koniga aylanardiki, bu — hech kim bilan gaplashmay-so'zlashmay, eski kulbaning ichida yolg'iz so'ppayib o'tirgan asirga o'lim bilan teng edi. Eng yomon joyi— kunlari bir-biriga o'xshash damlarning, qorong'i uzun kechalarning yana qancha davom qilishi ham noma'lum edi. Umidlariga bolta urayotgan ana shu noma'lumlik Blokvilni ba'zan tushkunlik chohiga qarab sudrab qolardi. U hozirgi holatini yaxshi yoki yomon tomonga o'zgartirish uchun ham hech narsadan qaytmasdi.

Qorong'i tunlarning uzun daqiqalarini qisqartirishga yordam etgan eski xotiralar ham takrorlanaverib jonga tegdi. Tarixga aylangan o'tmish bugungi haqiqat bilan qiyoslanib, qaytanga asirning hasrat yukini ko'paytirmoqda edi.

Tun yarmidan oshganda Blokvil kunduz kuni tayyorlab qo'ygan eski-tuski lattani qo'liga oldi. Latta kundani o'rash uchun kerak. Kechasi hojatxonaga borish bahonasida tashqariga chiqqan asir qadam tashlaganida kunda shaqillab, qora uyda yotganlarni uyg'otmasligi kerak. Kunda sal ovoz chiqarsa, Egamurod darhol tashqariga yugurib chiqqaniga asir bir necha bor guvoh bo'lgan.

Eski lattani kundaning sirtiga o'rab olgan farang kunduzi berilgan nondan qolgan bir parchani qo'liga oldi. U, bu non parchasi bilan Egamurodning otini o'ziga o'rgatib olishni niyat qildi.

Tun shu darajada tim qorong'i ediki, hatto, chiroqsiz yurgan odamga kulba bilan tashqarining farqi bilinmasdi. Qorong'i keng olamda Blokvildan boshqa tirik jon yo'qday. Negadir bu kecha itlar ham hurmadi, eshaklar ham hangramadi.

Ana shu jimjitlikni o'zi uchun yaxshilikka yo'ygan tutqun asta-sekin oyog'ini sudrab, kulbaning yon tomoniga o'tdi. U o'zini har qancha jur'atli hisoblab, barcha yo'nalishlarni hisob-kitob etganman deb o'ylasa-da, maqsadini amalga oshirish xavf-xatar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, hayajonlana boshladi. Otxonagacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan sayin xavf ham shuncha oshib bordi. Darhaqiqat, otxona eshigi hozir qulflanmay qolgan bo'lsaya... Shunday bo'lsa... ot uni endi qanday qarshilaydi? Turkmanning aqlli oti kelgan odam o'z egasi emasligini sezib, quloqlarini

o‘ynatib, kishnab yuborsa — nima bo‘ladi? Farang egar-jabduqsiz bedov ustiga chiqa olsa-ku, yaxshi, hech kim uni tutolmaydi. Sezib qolishsa ham, qayta qo‘lga tushmasligining chorasini ko‘radi. Egamurodning uchqur oti uni tun qorong‘isi bo‘ylab yiroq-yiroqlarga olib ketadi. Qishloqdagilar oyoqqa turib uni izlay boshlagunicha, Blokvil ancha uzoqlarga borib qoladi. Shunday umidlar bilan otxonagacha to‘rt-besh qadam qolganda, asir har ehtimolga qarshi, orqasiga bir qarab oldi. Orqa tomonda ham old tarafdagi kabi quyuq qorong‘ilikdan boshqa hech narsa ko‘rinmadi. Qorong‘ilikdan salqin shabada ufurib kela boshladi. Blokvilning tashvish va qo‘rquv hislari bilan yo‘g‘rilgan badani salqin shamolni goh sezar, goh esa sezmasdi.

Atrofda hech kimning yo‘qligiga ishonsa-da, otxona eshigiga yaqinlashgan sayin tutqunning yuragi tez-tez ura boshladi. U qulfga tomon uzatgan barmoqlarining qaltirayotganini sezdi. Eshikning qulflog‘liq yoki ochiqligi ayon bo‘lgunicha, goh umid, goh umidsizlik dunyosiga ming bor kirib, ming bor chiqqan asirning peshonasida mayda-mayda terlar paydo bo‘ldi. U eshik ochilganda Egamurodning uchqur bedoviga aytadigan yoqimli so‘zlarigacha o‘ylab qo‘ygan edi. Otning odam singari aqlli hayvon ekanligi to‘g‘risidagi eshitgan rivoyatlarni esga oldi. Agar haqiqiy bedov ot insonday aqlli bo‘lsa, bir zumda ustiga chiqqan begonaning og‘irligini yuk hisoblamay, chopib ketishi kerak. Ot ustiga mingan inson begona bo‘lsa-da, shu payt u ojiz va yaxshilikka o‘ta muhtojdir. Haqiqiy bedov otlar doimo muhtoj inson shoshayotganda yordamga kelishgan. Bunday otlar ko‘p vaqtlar odamni o‘limdan ham qutqargan. Asirning hozirgi tushgan holati ham o‘lim bilan yonma-yon edi. Shu sababli ham uchqur bedov ot hozir unga yordam berishi kerak, yordam berishi kerak...

Blokvilning necha kunlardan buyon qilgan shirin orzulariga, kutgan cheksiz-chegarasiz umidlariga mushtday qora qulf qisqa, aniq va lo‘nda javob berdi. Qizg‘in barmoqlar muzday temirga tekkanida asir badanida paydo bo‘lgan junjikish uning yuragigacha borib yetdi. Ana shu junjikish uning qizg‘in umid-orzularini muzlatib yubordi. Bu muzning endilikda necha kunlarda, necha oy va necha yillar ichida erimog‘i ma’lum emas...

Eshik oldiga begona odamning kelganini sezgan bedov ot pishqirib yubordi. Bu tovush asir qulog'iga: orqangga qaytaver, deganday jirkanch javob bo'lib eshitildi.

Blokvil shundan so'nggina havoning sovug'ini ham, yoqimsiz shamol epkinini ham, oyog'idagi kundaning og'irligini ham, vujudining og'ritayotganini ham birdaniga sezdi. Orqasiga qaytganida esa ehtiyotkorlik bilan qadam tashlashni ham yodidan chiqardi. U yassi marzaning ustidan qiyinchilik bilan qadam tashlab kulbasiga yetay deganida, qora uy eshigi oldida qop-qora bo'lib kimningdir turganini ko'rdi. Bu, albatta, Egamurod qo'ng'ir edi. Og'abek qora uyining eshigini avaylab ochdi-da, ovoz chiqarmay ichkariga kirib ketdi.

41

Urushning og'ir yukini yelkasida ko'tarib, qochqinlikdan o'z uylariga qaytgan takalar qilgan hisob-kitobga ko'ra, bu yilga mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarining cho'g'i juda past edi. Hosilni o'z vaqtida yig'ib olishga ulgurmadilar. Urush zarbalari ostida payhon bo'lib, tuproqqa qorishib ketgan g'allaning o'rnini boshqa bir narsalar bilan bo'lsa-da, to'lg'azish kerak edi. Lekin, nima bilan? To'ldirish uchun hech narsa yo'q edi. Asir tushgan qojorlarning qornini to'yg'izolmayaptilar, faqat o'lib qolmasliklari uchungina biror yegulik berayaptilar. Bu ham bandilarni saqlab turgan xonadonlar uchun og'ir yuk edi. Shu sababli, asirlar tutqunlikdan xalos bo'lishga qanchalik shoshilsa, egalari ham ulardan tezroq qutulishga shunchalik harakat qilardi. Biroq evaziga hech narsa olmasdan, tekin ozodlikka chiqarib yuborishni hech kim xohlamasdi. Hech bo'lmaganda, ular uchun qilingan sarf-xarajatlarni qoplaguday tovon puli talab qilishardi. Tutqunlarning ko'pchiligi xo'jayinlariga biror manfaat keltirish uchun ketmon-u belkurakka yopishdilar. Blokvilga hamon bunday imkoniyat berilmagan edi. U biror-bir ish bilan shug'ullanish baxtidan ham mahrum. Ikki-uch kun jo'xori boshini qayirishda qatnashganligini hisobga olmaganda, u ishsiz-ermaksiz shunchaki qarab o'tirishga mahkum qilingan tutqun edi. Boshqa bandilarga o'xshab unga

qishloq ichida bemalol sayr qilishga ham ruxsat berilmadi. Uning kezadigan keng maydoni — Egamurodning bir tanob yerining bir chekkasi, xolos.

Farang tutqun Oqmoroldan kutgan yordamini ololmagach, endi hech kimga ishonmaydigan bo'ldi. Hatto, u hech kim bilan so'zlashish-gaplashishga mayl ko'rsatmaydigan bo'lib qoldi. Yo'qsa, Oqmorolga so'z aytish uchun ko'pdan ko'p qulay fursatlar ham bo'lib turibdi. Qizning o'zi indamay yurgach, tutqun unga gap otishni o'ziga ravo ko'rmadi.

Bir safar eshikma-eshik kezib yurgan attor-savdogar Egamurodning xonadoniga kirib keldi. Uzun bo'yli, qirtishlangan soqol-mo'ylovli, orqasida qop orqalagan bu savdogar kelgan vaqtda atrofda hech kim yo'q edi. Attor tutqunning qayerda o'tirganini oldindan bilganday kulbaga bir qarab oldi-da:

— Ipak mol bor! Movut mol bor! Xotin-qizlar uchun narsalar bor! — deb qichqirdi.

Attorning e'tiboriga tushganini sezgan Blokvilning kayfiyati yana buzildi. Endi duch kelgan mayda savdogar ham seni tomosha qiladigan bo'ldi. Bundan ko'ra tezroq o'lsam yaxshiroq emasmidi, deya tarkidunyo qilgan asir g'azablanib o'zidan jirkandi. Keyin o'zining ahvoliga qarab fikr qila boshladi.— Albatta, mard bo'lsang o'lish qiyin emas. Mard bo'lsang, yashash qiyin. Jorj, sen yashashing kerak. O'lsang, orzu-umiding ham sen bilan yerga ko'miladi...

Savdogarning ovozini eshitgan Annabibi bilan Oqmorol tashqariga chiqdilar. Qo'shni uylardan ham uch-to'rt nafar xotin-qizlar yetib kelishi bilan attorning atrofida bozor qaynadi. Qopdan chiqargan rang-barang matolari, bezaklar qo'ldan qo'lga o'tib, yana egasiga qaytib keldi. Bunday chiroyli mollarni zo'r qiziqish bilan tomosha qilgan bo'lsalar-da, ayol-qizlarning hech biri xarid qilolmadi. Chunki biror narsa sotib olish uchun xotin-qizlarda pul ham, almashtirish uchun biror durustroq narsa ham yo'q edi. Ular yaxshi matolarni va bezaklarni shunchaki bir ko'rish uchun attorning yoniga kelgan edilar, xolos.

Bu joyda ham savdosi rivoj topmagan attor narsalar solingan qopining og'zini bog'lasa-da, yo'lida davom etmay, yonidagi ayol-

lardan allanimalarni so‘ray boshladi. Uning aytganlarini barcha xotin-qizlar eshitgan bo‘lsalar-da, javobni birgina Oqmorol qaytardi. Oqmorol kulba tomonga qo‘lini cho‘zib, yana bir nimalar dedi.

Qopini ayollarning yoniga qo‘ygan attor kulba tomon kela boshladi.

Blokvil uning kelayotganini ko‘rib, o‘zini majburlab jilmaydi. Ayollar bilan savdosi joyiga tushmagan attor kulbadagi asirga o‘zining mollarini tavsiya qilmoqchi, shekilli!

Savdogar Blokvilga salom berdi-da, ikki qo‘li bilan omonlashib ko‘rishdi. U fors tilida gapira boshladi.

— Men sizning yoningizga og‘abek Yusufxonning iltimosi bilan keldim. Siz yuborgan xat unga borib yetdi!

Bu xabarni eshitgan Blokvil ayollar orasida turgan Oqmorolga yalt etib qaradi. Garchi qiz o‘ziga tomon qaramagan bo‘lsa-da, tutqun uyalib ketdi. Inson doimo biror narsaning oxirigacha chidashga sabri yetmay, shoshib-pishib xulosa qilishga moyil-da!

Savdogar keltirgan xabarga ko‘ra avsharlar sardori Yusufxon Blokvil yozgan xat mazmunini Buxorodan Mashhadga safar qilib ketayotgan tanish tijoratchiga aytibdi hamda farangning istagini kimlarga yetkazish yo‘llarini ham o‘rgatibdi.

Zero, keltirilgan xabar Blokvilning tutqunlik qismatini hal qilmasa-da, ertangi kunga qaysidir bir ma’noda umid bilan qarashga asos paydo qilgan edi. Nihoyat, orzu-umidlari chil-parchin bo‘lgan tutqun uchun bu xabar ulkan mujda bo‘ldi.

Shularni aytib, attor Blokvil bilan xayrlashdi-da, qopi yoniga borib, hanuz uy-uyiga ketmay turgan ayollar yonida dadil-dadil gapira boshladi. O‘zining tijorat ishlari bo‘yicha Buxoro, Xiva, hatto, Mashhad kabi katta shaharlargacha borganini, savdo-sotiq yo‘nalishida tajribali tijoratchi ekanini balandparvoz ohangda maqtanib so‘zlab berdi. Keyin u atrofida turgan ayollarning e’tiborini o‘ziga yanada qaratish uchun Eron sarkardalarining barchasini yaxshi bilgan avsharlik Yusufxon bilan go‘yo hamtovoq ekanligini ham bildirib o‘tdi. Gap orasida Egamurod qo‘ng‘irnikida tutqun bo‘lib turgan asir haqida ham to‘xtaldi. Yusufxonning aytganlariga asoslanib, uning kimligini, tez kunlar ichida aytilgan bahoda sotib olinishi to‘g‘risida ham xabar berdi. O‘zi esa, Qo‘ng‘ir qishlog‘iga

shaxsan Yusufxonning istagi bilan kelganligini gap orasida qistirib o'tdi.

... Yusufxonning bu tanishi kelib ketishi bilan, Blokvilning yashash sharoitida qandaydir o'zgarishlar paydo bo'ldi. Peshindan keyin uyiga qaytib kelgan Egamurod Yusufxon bilan bog'liq xabarni eshitgach, Oqmorolni iziga ergashtirib, asir yashayotgan kulbaga keldi. Uni qiziqtirgan asosiy masala Blokvil uchun to'lanadigan haq edi. U ushbu to'lovning qachon yuborilishini bilishni istadi. Bunday savolga hozir aniq javob bera olmasligini aytgan farang tutqun:

— Siz mening to'lovim uchun qancha tanga olmoqchisiz? — deb so'radi.

Egamurod bandining narx-navosi to'g'risida ancha vaqtlardan beri o'ylanib, bir bahoga kelganligi uchun tez javob berdi.

— Ikki ming tuman pul to'lanishini istayman.

Oqmorol javobni fors tiliga tarjima qilganda, Blokvil o'zini kulgidan zo'rg'a to'xtatdi. Pulni fransuz frankiga aylantirganida — to'qson ming frankka yaqin bo'lishini aniqladi. Tez orada to'lov puli kelib qolishi haqidagi xabar qulog'iga yetgach, sal insof kira boshlagan Egamurodning jahlini chiqarish — o'zi uchun zarar ekanligini anglasa-da, tutqin o'zini gapdan tiya olmadi:

— Bu narx juda baland-ku, og'abek!

— Hecham baland emas, — deb farang hisob-kitobda hech narsani bilmasa kerak, deya o'ylagan Egamurod ishonch bilan dadil gapirdi. — Biz ham qul narxining qancha ekanligini bilganimizdan so'ng shu bahoni aytyapmiz.

— Bunday emas, og'abek. Siz qo'ygan narxga uch nafar qul sotib olsa bo'ladi!

Farang asirning javoblari to'g'ri ekanligini bilsa-da, yon berishni xohlamagan Egamurod ayyorlikka o'tdi:

— Bizning aytgan narx-navomiz to'lanmasa, sening ham yurtingga ketish muddating uzayishi mumkin, mulla farang!

Blokvilning og'abek bilan aytishuvlari shu yerda to'xtadi. Hali kelgan pul yo'q, sarmoya yo'q joyda da'volashmasdan, paydo bo'lgan qulay fursatni o'z foydasiga o'zgartirishni istagan Blokvil gap yo'nalishini boshqa tomonga burdi.

— Oldin pul kelsin, narx to‘g‘risida keyin gaplasharmiz, og‘abek. Lekin mening sizdan iltimosim bor. Gap shuki, hozir meni ozod qilsangiz ham boradigan joyim yo‘q. Qochib ketadi degan fikrni miyangizdan chiqarib tashlang-da, menga biroz erkinlik bering...

— Tutqun odamga qanaqa erkinlik kerak ekan?— deb Egamurod qo‘ng‘ir xohish qilgan qolib, tarjimonlik etib turgan singlisiga o‘qrayib qaradi.

— Hech bo‘lmasa oyog‘imdagi kundani yechib, tevarak-atrofdagilar bilan uchrashish, so‘zlashishga ruxsat bering. Vaqtimni zerikarli o‘tkazmaslik uchun biror ish bering. Siz ham musulmonsiz-ku, axir?! Agar meni shunday holda saqlab tursangiz, o‘z-o‘zimdan kasal topib, o‘lib ketishim ham hech gap emas!

Blokvilning so‘nggi so‘zlari Egamurodga ta’sir qildi. Ta’sir etmasligi ham mumkin emasdi. Farang nohushlanib vafot etsa, ana unda tomoshani ko‘ring — asir egasi umid bilan kutayotgan puldan quruq qolishi tabiiy! O‘lgan odam uchun hech kim haq to‘lamaydi, axir. Aksincha, xonadoniga berilgan asirning vafot etishi uy egasining oqsoqollardan gap eshitishiga sababchi bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, jon uchun qon-xun talab qilinsa, uni qanday to‘lash mumkin? Shu sababli bo‘lsa kerak, Egamurod qo‘ng‘ir asirning istagini qanoatlantirish haqida biroz o‘ylab, axiri o‘zining roziligini bildirdi.

42

Blokvilning aytganiga farishtalar omin deyishgan ekan. Darhaqiqat, u bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasallik bilan o‘limni eslatib, o‘z og‘abegidan biroz ozodlik olgan kundan ko‘p o‘tmay, xastalandi, ikkala ko‘zini qorasuv bosa boshladi. Vaqt o‘tgan sayin uning yorug‘ olami torayib, ko‘z oldidagi qora parda quyuqlasha bordi. U o‘zining hozirgi muhtojona holatini, tutqunlikda o‘tkazgan qora kunlarini esidan chiqarishga majbur bo‘ldi. Kelgusida boshidan o‘tkazadigan qiyinchiliklarni ko‘z oldiga keltirdi. Uning dardi-xayoli, o‘y-fikri — ko‘zi edi. Ko‘rish baxtidan mahrum bo‘lgach, tutqun endi vatanga qaytishni ozodlikka chiq-

dim deb ham hisob etolmasdi. Shuncha azob-uqubatlardan keyin onasining kular yuzini, yor-do'stlarining siymolarini, go'zal Parijni, tanish chehralarni ko'rolmaydigan bo'lsa, sohibjamol qiz-juvonlar ko'rkidan lazzat ololmaydigan bo'lsa, unga bunaqa ozodlikning nima keragi bor?!

Blokvil ozodlik degan so'zning ma'nosini — jahonga erkin qarash, olamning inson uchun yaratgan go'zalliklaridan bahramand bo'lish, deya tushunardi. Endi u nima qila oladi? Uning aniq xulosasiga ko'ra, o'roq va belkurak ishlatish, ot choptirish, tuya va eshakka yuk yuklashdan boshqa narsani bilmaydigan bu chorvadorlar yurtida ko'z singari nozik inson a'zosini davolaydigan do'xtir anqoning urug'iday edi. U o'z boshidan o'tkazayotgan bu xil mashaqqatlardan qutula olmasa-da, ko'z masalasida qo'lidan keladigan ishning barchasiga yopishish lozimligini ma'qul yo'l deb hisobladi.

Blokvil shu paytgacha tashqarida o'ynab yurgan bolalar qo'l harakatini chalaroq ko'rib turgan bo'lsa, endi sharoit yana ham yomonlashdi. Bugun u besh-olti qadam oraliqdagi quduq og'zidagi yulg'un xodalaridan chiroyli qilib yasalgan asosni zo'rg'a ko'rardi. Quduqdan sal naridagi ulkan narsa — Egamurodning katta qora uyi ham uning ko'ziga kichkina o't g'aramiday bo'lib ko'rinardi. Hozir men shunday katta uyni chala-chulpa sezayotgan bo'lsam, ertaga yorug' dunyoni ko'rishdan butunlay mahrum bo'lib qolishim mumkin...

Vujudini vahima bosib olgan Blokvil kulbadan otilib chiqdi. U Egamurodning uyiga qarab yura boshladi.

Kulba bilan qora uy oralig'idagi yigirma odim chamasi yo'lni qanday bosib o'tganini bilmagan farang turkman oqsoqollari qiladigan harakatni esiga oldi. Eshikning oldida turib, bir-ikki marta sun'iy yo'talib qo'ydi. Ichkarida ming'ir-ming'ir ovoz paydo bo'ldi. Ammo hech kim tashqariga chiqmadi. Blokvil Qo'ng'ir qishlog'iga kelgandan beri o'tgan oylar ichida birinchi marta og'abekning qora uyi eshigini ochdi.

— Assalomu alaykum, og'abek!

Kutilmagan holatga hayron qolgan Egamurod sal bo'lmasa qo'lidagi piyolasini tushirib yuboray dedi.

— Vaalaykum assalom, mulla farang! — U tong bilan eshikdan kirib kelgan odamga xalq ichida ishlatiladigan so'zni topdi. — Nima balo, tush ko'rdingmi bizlarni? Payg'ambarlar madadkor bo'lsin! — So'ng u eshikka yaqin o'tirgan xotiniga qaradi. — Yaxshilikka bo'lsa-ku, bu tong bilan ustimizga kelmasdi, Annabibi. Sen Oqmorolni chaqirib kel!

Annabibi Oqmorolni chaqirib kelish uchun ketgach, Egamurod qo'ng'ir Blokvilni ko'rpacha ustiga taklif qildi.

Oyoqlarini o'ta ehtiyotkorlik bilan bosgan asir eshik bilan o'choq orasidagi ikki-uch qadam masofani to'rt-besh odimda o'tdi. Uning cho'kkalab o'tirishi ham g'alatiroq edi. Olovning cho'g'ga aylangan joyidan ko'tarilgan iliq havo tutqunning uzatgan qo'llariga juda xush yoqdi. Farangning oldingi kunlarga nisbatan bechorahol ko'rinishini ko'zdan kechirgan Egamurodning qalbida achinish tuyg'usi uyg'ondi.

— Ma, bir piyola choy ich!

— Yo'q, og'abek, ichish yo'q.

Uning ko'nglini ko'tarishni xohlagan Egamurod:

— Sen endi turkmancha gapirishni ham o'rganyapsan! — deb muloyim jilmaydi. — Choy turkmanning ovqatdan oldin mehmonga ko'rsatadigan hurmat-e'tibori bo'ladi.

— Men bemorman, og'abek.

— Men kasalman deyapsanmi?

Blokvil barmog'i bilan ko'zlariga imo qildi.

— Chashmi man xasta, og'abek! Chashmam bad ast[1].

Shu payt:

— Egamurod og'a, assalom! — deya Oqmorol ichkariga kirdi.

— Assalom, — deya Blokvil uy egasidan oldin alik oldi.

Asirning salomlashganidan maza qilib kulgan Egamurod:

— Sen assalom dema, u assalom deydi, — deya qo'lini silkitib oldin asirga, keyin Oqmorolga imo qildi.

Gapga yaxshi tushuna olmagan Blokvil ham u assalom degan so'zini takrorladi-da, kulgisi kelmasa ham, iljayib tishlarini ko'rsatdi.

---

[1] Mening ko'zim kasal, og'abek. Ko'zlarim yomon ko'rayapti.

— Oqmorol, bu bir tashvish bilan kelganga o‘xshaydi. Ko‘zim og‘riyapti deganga o‘xshash so‘zlarni gapirdi...

Oqmorolning o‘ziga savolomuz qaraganini fahmlagan Blokvil tez-tez gapira boshladi. U so‘zlaganda zo‘r ehtiros va jo‘shqin ohangda gapirdiki, buni eshitgan Egamurodning og‘zi ochilib qoldi.

— Bugun juda boshqacha gapiryapti. Nima deyapti?

— Ko‘zimga qorasuv yig‘ilyapti, dedi, Egamurod og‘a.

Aytilganlarga ishonchsizlik bildirgan Egamurod hayron qolgan holda boshini chayqadi.

— Qorasuv yig‘ilganini qanday bilibdi. Nima, bu tabibmi?.. Qorasuv yig‘ilsa, men nima qilishim kerak?

Blokvil Oqmorolning tarjima qilishini ham kutmay:

— Tabib! Tabib kerak! — dedi.

Egamurod bu so‘zlarga tarjimonsiz ham tushundi.

— Qorasuv yig‘ilgan bo‘lsa, tabibning ham foydasi tegishi noma’lum. Anovi Yaxshimurod burkazning ham ko‘ziga qorasuv yig‘ilgan edi. Bechoraning bormagan eshigi, ko‘rsatmagan tabibi qolmagan. Axiri taqdiriga tan berdi, ko‘zi ojiz bo‘lib qoldi. Qorasuv yig‘ilayotgani rost bo‘lsa, buning ham qismatiga shu yozilgan ekan-da. Endi men nima qilishim kerak?

Oqmorol asirning javobini qarindoshiga tushuntirdi.

— Qon oldirishim kerak, deyapti. Sharq tabiblari qon olishga usta bo‘lishadi, deyapti.

Egamurod yana boshini chayqadi.

— Subhonolloh! O‘zi bir begona millat vakili bo‘lsa-da, bilmagan narsasi yo‘q buning. Qon oldirish kerakligini qayerdan bilgan ekan-a, bu?! Qon oldirgandan keyin... Qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarib qo‘ysak, nima bo‘ladi? Qonini olamiz deb jonini olib qo‘ysak, kim javob beradi? Keyin, buning joni uchun biz bergidor bo‘lib qolmaymizmi? Buning xuni uchun qaytadan to‘p sudrab kelishmaydimi? Bunga kim aybdor hisoblanadi? Albatta, men aybdor bo‘laman. Yoki Muhammadavaz og‘ammi?

Egamurodning so‘zlari tutqunning jahlini chiqargani uning yuzidan bilinib turardi.

— Forslar, echkiga jon qayg‘i, qassobga moy qayg‘i deyishadi...

— Bu naql turkmanlarda ham bor. Shunday bo'lsa ham men nima qilay? — deb Egamurod ham asirning so'zini yoqtirmaganini bildirdi. — Oqmorol, sen unga ayt, faranglik echki emas, Egamurod qo'ng'ir ham qassob emas, degin.

Blokvil Egamurodning aftiga tikilib, o'tirgan holida dadil-dadil bir narsalar dedi.

— Bu nima deb sapchiyapti? — Egamurod shoshib so'radi.

— Agar tabib topib qonimni oldirmasanglar, men o'zimning qon tomirimni kesaman deyapti. Tabibni vaqtida olib kelmasangiz kech bo'ladi. Ko'r bo'lib qolganimdan o'lganim yaxshi deyapti.

— Ana, ko'rdingmi? Men boya nima degandim?— deya Egamurod ancha o'ylanib o'tirdi. — Besh-o'n tanga pul ishlab olaman deb, biz boshimizga baloni sotib olmasak yaxshi edi-ya, Oqmorol!

— Shunga o'xshayapti, — deb asirning yonini olishga tortingan, qarindoshiga ham qarshi gapirishni istamagan Oqmorol ikkilanib qoldi. — Men ham nima qilishimni bilolmayapman, Egamurod og'a. Lekin qon oldirgan bilan odam o'lmaydi-ku. Bo'lmasa, ko'r bo'lib qolganidan keyin bizlarni aybdor hisoblab yurmasligi uchun uning aytganini bajaraylik.

Oqmorolning aytganlari Egamurodni dadillantirdi.

— Qon oldirib, bundan ham yomonroq biror narsaga uchrasa, bizlarni gunohkor hisoblamaydimi? Shuni so'ra undan!

Blokvil qat'iy javob qaytardi.

— Barcha narsaning kafilligini bo'ynimga olaman. Oldindan tilxat ham yozib beraman, kerak bo'lsa.

— Unday bo'lsa, men rozi, — deb Egamurod boshini qimirlatdi. — Qo'juq qishlog'ida Bibijamol tabib bor. Borib shuni olib kelaman. Peshingacha yetib kelsam kerak...

43

Urush allaqachon tamom bo'lgan, qish boshlanishi bilan eski joylariga qaytish tashvishini bahorga qoldirgan qo'ng'irlarning barchasi hali-hanuz orqalariga qaytishmagandi. Odam-u hayvon nafasi tegmagan og'zi qulflog'lik kulba-yu qora uylar, og'ilxona-yu otxonalarning eshiklarini o'rgimchak uyalari bosib ketgan edi.

Egasiz, qarovsiz joylarning qurigan daraxtday jonsiz ko'rinishi oldin ham obod bo'lmagan qishloqni ko'zga yanada xaroba holda ko'rsatardi. Shu sababli ham qishloqqa qop ko'targan tijoratchimi, yoki bo'yniga to'rva osgan gadoy kelishi ham qo'ng'irliklarga, xususan, bola-chaqa uchun katta bir voqeaga, vaqtlarini shodon o'tkazishga sabab bo'lardi. Oyog'i yengil bolakaylar gadoning orqasidan ergashib, o'zlari ham go'yo gado bo'lib, eshikma-eshik yurishdan erinishmaydi. Gado yoki tijoratchi ko'cha boshida ko'rinishi bilan, bundan ko'cha oxiridagi turkman ham darrov xabar topadi.

Bu gal ham shunday bo'ldi. Egamurod qo'ng'ir Qo'juq qishlog'idan qaytib kelmasa-da, farang tutqun uchun tabib olib kelishi haqidagi xabar butun qishloqqa tarqalib ulgurdi. Shu sababli, Egamurod uyining poyloqchilari ko'paydi.

Qish faslining o'rtasi bo'lishiga qaramay, ertalab isiy boshlagan havo peshinga yaqin yanada isib ketdi. Yurt hurmat qilgan tabibni eski kulbada kutib olishni xohlamagan uy egalari tashqariga kigiz, gilam to'shab, ustiga ko'rpachalar to'shashdi. Tabib endi ana shu yerda xastani ko'rishi kerak.

Blokvil shu paytgacha eslab qolgan turkmancha so'zlarning barchasini daftarga bitib, ularning ma'nolarini fors, fransuz, arab tillaridagi so'zlar bilan qiyoslab yozib yurgan edi. U fransuz tili bilan turkman tili o'rtasida ma'nosi va aytilishi mos keladigan o'xshash so'zlarni uchratmadi. Lekin uning kelgan xulosasiga ko'ra, turkman tilida fors, arab tillaridagi so'zlar bilan o'xshash, ma'nosi yaqin so'zlar ko'p. Blokvil daftariga charshak (chorshox), atashgir (otashgir) kabi turkmancha so'zlarining forscha to'rt shox, olov (o't) tutmoq degan ma'nolarni anglatishini belgilab qo'ygan edi. Turkman va fors tillarida ishlatilgan umummushtarak so'zlarning ko'pligi, shuningdek, Blokvil xotirasining kuchliligi, til bilishga moyilligi uning so'zlay bilmasa-da, turkman tilidagi suhbat nima haqida borayotganini darhol fahmlay olishiga katta yordam berardi. Shu sababli, Egamurod hovlisiga kelib to'rt-besh odamning xuddi oldindan maslahatlashib olganday: "Qani, tabib keldimi? Yoki asirni tekshirtirish uchun bugun tabib olib kelasizmi?" degan so'zlarning ma'nosiga tushundi. Tabib hozircha

kelgani yo‘q degan javobni olgan bu xil takalar qanday kelgan bo‘lsalar, o‘shanday tezlik bilan orqalariga qaytishardi.

Biroq ulkan gavdasi va qalin terili yuziga mos tushmagan, dumaloq dog‘day, kichkina oshiqqa monand burunga ega bo‘lgan bir kishi tabibning hali kelmaganini eshitsa-da, tezda orqasiga qaytishga shoshilmadi. U yomon nazar bilan tevarak-atrofni ko‘zdan kechirdi. Uning diqqat-e’tiborini ko‘proq tortgan joy — Blokvil yashagan kulba bo‘ldi.

Blokvil oftobro‘ joyga to‘shalgan kigiz ustiga borib o‘tirgandan keyin, bu sulloh kishi kulbaning ichkarisini alohida tekshirib chiqdi, orqa tomonga cho‘zilib ketgan marzaga e’tibor bilan nazarini qaratdi. Har narsaga qaraganini go‘yo bildirmaslikka harakat qilib, tutqunning bo‘y-bastiga ham ajabtovur ko‘z tashlab oldi...

Qo‘juqning bog‘i deb nom olgan joydan ot minib kelgan tabib ayol keksaygan bo‘lishiga qaramay, istarasi issiq, oyog‘iga mahsi kiyib olgan, qo‘li yengil emchi ekan. Blokvil tabib ayolning sanchgan nashtarining og‘rig‘ini sezmadi ham. Tutqunning: “Chorvador yurt tabibi eski dard ustiga yangisini ham qo‘shishi mumkin”, degan xavotiri noto‘g‘ri bo‘lib chiqdi. Bibijamol tabib xastaning chap qo‘lidagi nashtar sanchadigan joyini qandaydir bir giyohning hidi kelib turgan suyuqlik bilan yaxshilab artdi. Top-toza, oppoq matoga o‘rab kelgan nashtarining uchini ham o‘sha suyuqlik bilan bir necha bor tozaladi. Xullas, u o‘z bilganicha ehtiyotkorlik choralarining barchasini bajardi. Tutqundan qon olinib, nashtar sanchilgan joy yaxshilab o‘raldi.

Qo‘juqlik tabib orqasiga qaytmoqchi bo‘lganida ham xasta va uning xo‘jayinlari kayfiyatini ko‘taradigan biror so‘z aytmadi. Uning fikriga ko‘ra, qon olish tutqunning ko‘zi og‘rig‘iga juda samarali davo bermasligi ham mumkin ekan. Shu sababli, ikki kun o‘tgach, bemorning o‘zini Qo‘juq qishlog‘iga olib borishni, yoki o‘zi Qo‘ng‘ir qishlog‘iga yana kelib ketishi zarurligini bildirdi.

Bibijamol tabib ketish uchun o‘rnidan turganda, Blokvil unga:

— Mening sizga ming bora tashakkur deyishdan boshqa beradigan xizmat pulim yo‘q. Sizni Yaratganning o‘zi panohida saqlasin, opajon! — dedi.

Oqmorol aytilganlarni turkmanchaga tarjima qilar ekan, tabib opajon degan so'zni eshitib jilmaydi.

— Menga ana shu olqishdan ziyod boylik kerak emas, ey Tangri bandasi. Seni ham, bizni ham Olloh o'z panohida asrasin!

... Ertasiga uyqudan turib, ko'zlari ochilgan tutqun ko'zlarining ko'rishi oldingidan tuzukroq ekanini sezdi. U go'yo bandilikdan ozod bo'lganday quvondi. Ammo quvonchi uzoqqa cho'zilmadi. Osmonda oftob charaqlab tursa-da, peshinga yaqin ko'k yuzini bulut qoplaganday, yana yorug' jahon qoraya boshladi. Quyosh porlab turar, osmonda hech qanday bulut ko'rinmas, yorug' jahonni qorong'i qoplamay turgan paytda, bu nima gap? Xullas, tutqunning ko'z ko'rishi yomonlashgani aniq bo'ldi.

Blokvil yana kulbadan chiqishga majbur bo'ldi. Yorug' olam ichiga o'zini qancha urmasin, tevarak-atrof avvalgisidan tiniqroq bo'lmadi. Ko'zlari ko'rishi yomonlashganiga shunda u butunlay ishondi.

Yusufxon nomidan uni qidirib kelgan tijoratchi paydo bo'lgandan buyon Blokvil uy egalarining, xususan, Egamurod qo'ng'irning munosabati o'ziga nisbatan yaxshilanganligini sezdi. Tevarak-atrofdagi ayollar, bola-chaqa unga mehr ko'zi bilan qarashar, imkonlari bo'ldi deguncha, unga muloyim so'z tashlab o'tishardi. Egamurodning doimo qovog'i solingan turq-atvori ham ochilganday edi. Shu sababli, tashqarida nimalar bilandir ovora bo'lib yurgan Annabibini payqagan Blokvil:

— Opa, Ohmorol bormi? — deb so'radi tortinmay.

Asir sog'-salomat yurganida Annabibi har qanday so'roqqa javob berishga eridan tortinardi. Biroq hozir so'roqni eshitgan zahoti Oqmorol turgan uy eshigi oldida hozir bo'ldi.

— Oqmorol, tashqariga chiq! Seni tutingan erkak qarindoshing chaqiryapti.

Oqmorol tashqariga chiqishi bilan, bugun hech qayerga ish bilan ketmagan Egamurod qo'ng'ir ham sirtda paydo bo'ldi.

Blokvil o'z tashvishlari bilan uy egalarini bezovta qilganligi uchun og'abegidan kechirim so'radi. Keyin o'zi yo'liqqan xastalikning ko'z og'rig'idan boshqa kasal bo'lganida ularni mutlaqo

bezovta qilmagan bo'lishini aytib, hozirgi ahvolini Egamurodga bayon qildi.

— Agar og'abek tabibni bu yerga olib keltirishni qiyin ko'rsa, meni u yashayotgan qishloqqa olib borsinlar. Men ot orqasidan piyoda yurib borishga ham roziman. Men o'z ahvolimni bilaman. Ko'zimning ko'rishi yomon, tezroq chorasi ko'rilmasa, keyin kech bo'ladi...

Egamurod bugun ham otga minib Qo'juq bog'iga borishga havasi yo'q edi. Qo'ng'irdan Qo'juqqacha ikki farsax chamasi yo'l yurish, orqaga qaytish, keyin yana tabibni uyiga eltib qo'yish lozim. Biroq Egamurodning odamiylik tuyg'usi, takabburlik tuyg'usidan ustun keldi. U bir og'iz so'z demay, otxona tomonga yurib ketdi.

Blokvil Oqmorolga minnatdorchilik bildirdi.

44

... Turkmanlar menga kishmish, qant, shifobaxsh suv aralashtirilib ishlangan dorini ko'zimga bosishni maslahat berishdi.

Jorj Blokvil xotiralaridan

Egamurod peshin vaqtidan ancha o'tib Qo'juq bog'idan qaytib keldi. U ketganida yolg'iz ot bilan ketgan bo'lsa, orqaga ikki otliq bo'lib qaytdi. Egamurod mingan otning ortida o'n-o'n ikki yashar o'g'il bola ham mingashib olgandi. U tabibning nabirasi edi.

Otdan tushgan tabib vaqt ketkazishni istamay, o'z ishiga kirishdi. U, avvalo, Egamurodning ayoliga o'choqqa o't yoqib, qozon ichini suvga to'ldirib qaynatishni buyurdi. Annabibi darhol o't yoqdi. Oqmorol esa o'z uyidan kichikroq qozon olib keldi. Bibijamol tabib xurjundan turli-tuman matolardan tikilgan va ichiga malhamlar solingan xaltachalarni chiqara boshladi.

Shu payt antiqa tomoshaga shoshilganday, tevarak-atrofda to'rt-beshta ayol paydo bo'ldi. Ularning orqasidan ayollardan ham o'ta qiziquvchan bir guruh bolalar osmondan tushganday chug'ur-chug'urlashib kelishdi.

Kechagi oftobro‘ joyga to‘shalgan kigiz ustida qovushmagan holda chala chordana qurib o‘tirgan Blokvil tekin tomoshabinlarning atrofda uymalashib-o‘ralashib yurganini xohlamayotganday bo‘lsa-da, biroq ularga qarshi biror narsa deya olmadi.

Tutqunning xayolidagini uqqanday, Oqmorol:

— Nima balo, odam ko‘rmaganmisizlar? Boringlar, o‘z uylaringiz oldida o‘ynanglar! — deb bolalarni xasta o‘tirgan joydan uzoqlashtirdi.

Aslida bolalarga aytilgan bu tanbeh, kattalarga ham mo‘ljallangandi. Bola-chaqalar orqaga qaytishsa-da, polizdagi qo‘riqchiday uzun lachakli ayollar ushbu so‘zni eshitmaganday joylaridan qimirlashmadi. Ular xastaning naq yonboshidagi kigizda o‘tirmasalar-da, ikki qadam nariroqqa borib o‘tirishdi.

O‘zining tabiblik ishlari bilan band bo‘lgan kampir ayollarning salomiga alik olsa-da, ularning bemaqsad o‘tirganlarini istamaganday, sog‘liq-omonlik so‘rashmasdan ishga kirishib ketdi.

Tabibning bu safargi qiladigan davosini oldindan bilishni xohlagan tutqunning sabr-toqati tugab borardi. U g‘irt savodsiz tabiblarning qo‘lidan zo‘r ish kelishiga hech vaqt ishonmasdi. Ularning chiqqan joyni o‘z o‘rniga solishi, singan-yanchilgan joylarni ustalik bilan davolaganini farang tutqun eshitgan, biroq ko‘z singari nozik bir a’zoni davolay olishlariga ikkilanib o‘tirardi. Og‘abegi Egamurod aytganday: “Qosh qo‘yamiz deb, ko‘zni ko‘r qilmaylik!” degan narsa yuz bersa-ya?! U vaqtda, atrofni chala-chulpa bo‘lsa-da, ko‘rib turgan ko‘zlaridan ajralishi — o‘lim degani-ku!

O‘choq boshida o‘zlariga topshirilgan ishlarni qoyilmaqom bajargan Annabibi bilan Oqmorol ham yaqin kelib, tabibning navbatdagi ko‘rsatmasini kutib turishdi. Tabib kampir:

— Bu bechoraga kechagi qon olganimizdan keyin novvot suvi berildimikan? — deya Annabibiga qaradi.

— Hozirgi qahatchilikda novvotni qayerdan olamiz, opajon! — Annabibi kinoyaomuz jilmaydi.— Novvot topsak, o‘zimiz ham jon-jon deb yer edik shu pallada.

Javob tabibga ma’qul bo‘lmadi. U Annabibiga xo‘mrayib qiya qaradi.

— Topilsa-ku, o‘zimiz ham yeymiz, biroq xasta bilan sog‘ning tafovuti ko‘p-da, boy kelin! O‘zimiz novvotni qahatchilik o‘tgandan keyin yesak ham bo‘laveradi. Lekin xastaga o‘z vaqtida berish kerak.

— Tabib opa nima qilmoqchi bo‘lyapti? — Blokvil Oqmoroldan yalinchoq ohangda so‘radi. — Agar sir bo‘lmasa, oldindan aytib, meni xotirjam qilsalar yaxshi bo‘lardi.

Bibijamol tabibning chehrasida tabassum zohir bo‘ldi va farang tutqunning oldida turgan ochiq xaltachalarga qo‘lini uzatib dedi:

— Ana, barcha malham tayyorlaydigan dorilarim shu yerda turibdi. Ochiq turgan narsada sir bo‘lmaydi, toychoq! Ollohga shukur, ko‘zlaring hali oq-qorani payqayapti. Inshoolloh, yaxshi ham bo‘lib ketadi!

Keyin yana Blokvilga qaradi-da:

— Bu — kishmish, bular esa — qant bilan tog‘ suvi. Manavi esa ozgina qoradori. Qo‘rqma, Bibijamol tabibda yomon narsa bo‘lmaydi. Manov kishmish iliq suvda yuvilib, toza joyga yoyilgach, ustiga oppoq doka tashlab quritilgan. Uning ustiga pashsha, chivin, ari kabi hasharotlar qo‘ngan emas. Bu kishmish — Qo‘juq otamiz bog‘ining yurtga mashhur uzumining quritilgani. Bunday kishmish hech qayerda yo‘q. Hozir shularning hammasini qaynatamiz. Olov degan narsa barcha zararli kushandalarga qiron keltiradi. Sen, Oqmorol qizim, shunday deb bunga tushuntir, xo‘pmi? Hech bezovta bo‘lmasin. Unga ko‘z kerak bo‘lsa, Bibijamol tabibga obro‘ kerak!.. Mening qo‘llarim emas, Bibi Fotima onamizning qo‘llari, qani, boshladik! Bismillahir rohmanir rohim!..

Keyin tabib xaltalardagi narsalardan keragicha olib-olib, oppoq matoning ustida aralashtirdi. Endi ular quyuq holga kelguncha qaynatilishi lozim edi.

Tabib kutgan quyuq malham tayyor bo‘lguncha ancha vaqt o‘tdi. O‘zaro kelishib olinganday, hech kimdan sado chiqmadi. Bu holat o‘ta qiziquvchan Blokvilni so‘zlashga majbur qildi:

— Sizning ushbu malhamingiz bilan shu paytgacha menga o‘xshash nosog‘ tuzalganmi, opa?

— Olloh shifo beradi, men Yaratgan Egamning karomatini oldindan sezadigan avliyo emasman, xon o‘g‘il! — deb xaltacha-

larni tartibga keltirayotgan tabib tutqunning yuziga qaramay gapirdi. — Biroq ana shu malhamlar Olloh bandalariga foydasi tegmaganida edi, tabiblar bu narsalarni oltin-kumushday avaylab, o'zlari bilan ko'tarib yurmasdilar.

Tabibning javobidan qoniqish hosil qilgan bo'lsa-da, Blokvilning yuragidagi tashvish hovuri pasaymadi. Aksincha, davolash vaqti yaqinlashgan sayin behuzur bo'la boshladi. Hozir u tevaragidagi odamlarni chala-chulpa bo'lsa-da, ko'rib turibdi. Tabib ayolning o'z ishini pishiq-puxta bilishi harakatlaridan bilinib turar hamda uni barcha ko'rib turardi. Atrofda it-mushuklar ham aylanib yuribdi. Yaqin keltirilmay, orqaga qaytarilgan bolalar qo'shni uy yonboshida u yer-bu yerda to'dalanib, tabibga tomon qarab turishibdi. Ana, qishning xabarchisi ola hakka o'tirganlar ustidan uchib o'tdi. U, hatto, tabibning hozir xaltachasidan chiqargan oppoq matosini ham ko'ryapti... Yorug' jahon bilan bunday muloqot eng so'nggi marta ro'y berib turgan bo'lsa-chi? Qoradori, qant, tog'ning shifobaxsh suvi, kishmishdan tayyorlangan quyuq malham ertangi tongda chiqadigan oftob yuzini abadiy to'sib qo'ymaydimi?

Qaynatilgan malhamni tabibning oldiga keltirishdi. Malham biroz sovigach, Bibijamol tabib uni ikki dona dumaloq ko'rinishli shaklga keltirdi. Keyin ayollarning birini yordamga chaqirdi. Ko'makka Oqmorol keldi.

Oqmorolning qo'li yalang'och bo'yniga tekkanda, Blokvil uning barmoqlari qaltirayotganini sezdi. Erkak kishining tanasiga tanasi tekkan yosh sohibjamolning ham badanida titroq paydo bo'ldi. U o'zini yo'qotib qo'ydi. Qo'lini asirning bo'yniga olib borar, yana tezda orqaga olardi.

— Mahkamroq tutsang-chi, ona qizim! — deya tabib kampir Oqmorolning qo'lini o'z qo'li bilan qattiq bosdi. — Nima bo'ldi senga, bo'shashib qolding? Qattiqroq ushla uning boshini!

Yosh zaifaning kaftidagi harorat tutqunga ham ajib ta'sir etdi. Bir zum hushini yo'qotganday ham bo'ldi. Biroq Blokvil hech narsani sezdirmay, darhol o'zini qo'lga oldi. Nozik, muloyim kaftdan o'z tanasiga o'tgan yoqimli haroratni u uzoq vaqtlargacha unutmay esda saqlab qoldi.

Tabib tutqunga ikkala ko‘zini katta ochishni buyurdi. Istagi amalga oshgach, uning tovushi muloyim jarangladi:

— Bismillahir rohmanir rohim! Odam odamning taftini oladi! Inson insonga sabab bo‘ladi! Bu — Bibijamol elti Durdi Xudoynazar kelinining qo‘li emas, ilohi Hazrati Luqmoni hakimning qo‘li! Yo Olloh, o‘zing madadkor bo‘lg‘aysan! Yo Hazrati Luqmon! Bibi Fotima!

Tutqunning katta-katta ochilgan ko‘z gavharlari ustiga malhamlar iliqqina bo‘lib yopishdi. Malham ustidan paxta qo‘yilib, oppoq doka bilan bog‘landi. Dokaning ustidan issiq ro‘mol o‘raldi.

— O‘rniga olib borib yotqizinglar!

Shu damda, chaqiriqni kutib turganday Egamurod paydo bo‘ldi. U asirning qo‘llaridan mahkam ushlab, farangni o‘rnidan turg‘azdi.

Bibijamol elti Durdi Xudoynazar kelini so‘nggi maslahatini berdi.

— Ko‘zlari biroz og‘riydi. Og‘rig‘iga chidasin. Ko‘zlaridan shovullab yosh oqadi. Qancha oqsa-da, bog‘langan ro‘mollarni belgilangan vaqtgacha yechmasin!..

Barcha ko‘rsatmalar tabibning aytganiday bo‘ldi. Kulbasiga yetib borgach, Blokvilning qovoqlari achisha boshladi, birmuncha vaqt o‘tgandan keyin ko‘zidan shovullab yosh kela boshladi. U barcha og‘riqlarga sabr-toqat bilan chidadi.

Blokvil uzun qorong‘i kechani tikka turib o‘tkazdi. U vaqtning kunduzligini ham, qora tunligini ham payqamasdi. Uning uchun vaqtning barcha kunduzlari qorong‘i tunga aylangan edi. U faqatgina taxmin qilardi. Shuning uchun ham kulbaning ichida kimningdir paydo bo‘lganini sezganda, hali ham tong otmagan bo‘lsa kerak deb o‘yladi.

— Jorj, uyg‘ondingizmi? — dedi tanish ovoz.

— Uxlay olmadim.

Kelgan Oqmorol ekan. Uning qo‘lida katta kosa bor edi.

— Men sizga novvot suvi olib keldim, Jorj.

— Menga hech nima kerak emas, Ohmorol, — dedi Blokvil odob bilan. — Men tutqunlikka ham, qiyinchilikka ham chiday-

man. Faqat ko'zim yaxshi bo'lib ketsa bo'lgani. Hamma orzu-umidim shunda.

— Ko'zingiz ochilishi uchun ham novvotli suv ichishingiz kerak. Tabib xola shuni qat'iy tayinlab ketdi, axir.

O'ziga tomon uzatilgan katta kosani paypaslab topganida, farangning barmoqlari Oqmorolning bilagiga tegdi. Bu holat ko'z ochib-yumguncha vaqt ichida ro'y bergan bo'lsa-da, asirning sovqotgan barmoqlari bir zumda isib ketganday bo'ldi.

— Yomon kunlarning ichida ham baxtli fursatlar bo'lar ekan-da!

Tutqun bu so'zlarni novvotli suv haqida aytdimi yoki o'zi haqidami, aniq fahmlay olmagan Oqmorol pichirladi:

— Tezroq iching. Men kosani olib, orqaga tez qaytishim kerak, Jorj!

Katta kosa limmo-lim qilib to'ldirilgan novvotli suv Blokvilning badaniga yoqimli, huzurbaxsh hislarni yoyib yubordi.

45

Qo'juqli tabibning belgilab qo'ygan vaqti kelganda, Blokvilning ko'zidagi ro'mol va dokalarni yechib olishdi. Ular olingan vaqtda asirning ko'rish holati juda ham maqtarli emasdi. Biroq asta-sekinlik bilan yorug' olam ko'zlari oldida ravshanlasha boshladi. Peshinga yaqin tutqunning ko'rishi avvalgiday bo'lmasa-da, ancha yaxshilandi.

Bundan quvongan farang yigit o'zini yangidan tug'ilganday his qila boshladi. U yorug' olamni qayta ko'rayotganiga suyunib, bandiligini ham, o'tib ketgan qora kunlarini ham esidan chiqardi. Albatta, bu holat o'tkinchi lahzalar edi.

Bir haftacha vaqt o'tgach, Blokvil butun umri davomida Qo'juq bog'idan kelgan Bibijamol tabibni eslab yuradigan darajaga yetdi, ko'zi mutlaqo og'riqlardan xoli bo'lib, ko'rishi ham avvalgi holatiga qaytdi. Ko'zi bilan bog'liq xavf orqaga chekingach, eski dardi — ozodlikka chiqish istagi yangidan kuch ola boshladi.

Bir kuni peshinga yaqin Egamurodning hovlisida ikkita ayol paydo bo'ldi. Ularning ikkalasi ham o'rta yoshlar atrofida edi.

Tashqi ko‘rinishidan, bellariga mahkam bog‘langan belbog‘laridan, ularning juda uzoqlardan kelganligi ayon bo‘ldi. Blokvil bu ayollarning o‘zini izlab kelganligini mutlaqo xayoliga keltirmagan edi. Aksincha, u urush tashvishlaridan xalos bo‘lgan xotin-qizlar endilikda qarindosh-tug‘ganlarnikiga mehmondorchilikka bora boshlabdi-da, deb o‘yladi.

Shuningdek, bahor tashvishlari ham oldinda bo‘lgach, hozirgi ish kam vaqtda takalarning qishloqma-qishloq mehmon bo‘lib yurishlariga imkoniyat tug‘ilgan edi.

Annabibi tashqariga chiqib, ular bilan omonlashgach, qo‘shni uydan Oqmorolni ham chaqirdi. Oqmorolni doimo farang bilan gaplashmoqchi bo‘lganda tilmochlikka chaqirar edilar.

Bir payt Oqmorolning orqasidan ergashib ikki ayol ham kulba tomon kela boshlashdi. Ana shundan keyingina Blokvil bu ayollar o‘zi bilan bog‘liq bir tashvish bilan kelganini taxmin qildi. Ammo bu ayollarga o‘zining nima uchun kerak bo‘lib qolganligini tushunolmadi. Ustiga ustak, ayollarning orqasidan qarab qolgan Annabibi nima uchundir ma’nodor kulumsirab turdi. Uning sirli jilmaygani ham tutqun uchun tushunarsiz edi. Kulba eshigiga yaqinlashib kelgan Oqmorol ham jilmayishga moyil ko‘rindi. Xullas, harakatlarning barchasi Blokvil uchun ham kulgili, ham sirli bo‘lib qolaverdi.

Kelgan ayollar asirga salom berishdi-da, kulbaning tashqari tarafida o‘tirishdi.

Oqmorol mehmonlarning nima maqsadda kelganini bayon qildi. Xabarni eshitgan Blokvil Egamurodning ayoli nima uchun jilmayganining ma’nosiga endi tushundi. Gapning tagiga yetgach, tutqunning o‘zi ham xaxolab kulib yuborganini sezmay qoldi.

Ayollar Blokvilni azayimxon, jodu bilan duo qiluvchi mulla deb bilib, undan ko‘mak istab kelishgan ekan.

Tushunmovchiliklar biroz susaygach, Blokvil dedi:

— Mening duo-joduga hech ham bog‘liq emasligim haqida opalarga tushuntiring, Ohmorol. Men bu narsalar bilan hech qachon mashg‘ul bo‘lmaganman va bunga ishonmayman ham.

Oqmorol tutqunning so‘zini tushuntirganida, kelgan ayollarning biri:

— Qo‘li va tilidan keladigan yordamni Tangri bandalariga baxsh etsa, savob bo‘lishini sen ham unga tushuntirgin, asal qiz! — deya xuddi Oqmoroldan gina qilganday bir chetga qarab gapirdi.

Oqmorol hali aytilganlarni tarjima qilib ulgurmasdan, ikkinchi ayol ham:

— Sen, asal qiz, unga ayt. O‘zining azayimxonligini yashirmay qo‘ya qolsin, — dedi. — Biz uning duoxon, jodugo‘y ekanligini aniq bilib keldik. Bu farang mullaning haqiqiy azayimxonligini Xono‘tgan bozorida hozir hamma gapirayotibdi. Odamlar biladi, bo‘lmasa u og‘izga, tilga tushmasdi.

Blokvil yana kulib yubordi.

— Men, hatto, musulmon ham emasman-ku, opalar. Katolikman. Shunga yaxshi tushuninglar, axir!

Ayollarning ikkalasi ham norozi ohangda boshlarini chayqashdi. Hatto, ularning biri o‘zining juda bilag‘onligini ham yashirmay, yana gapira boshladi:

— Azayimxon faqat bizlarda emas, shialarda ham uchraydi, asal qiz. Biz buni ham bilamiz.

— Shialar ham sizga o‘xshab musulmon, opa! — Blokvil tushuntirmoqchi bo‘ldi. — Shialar ham sizlarday. Lekin shialar Hazrati Alining yo‘lini ma’qullashadi. Turkmanlar esa sunniy Muhammadni o‘zlarining payg‘ambari bilib, uni ulug‘laydilar.

— Ana, ko‘rdingmi?! — deb ikkinchi ayol farang mullaning nafasi kuchli ekanligiga go‘yo tushunib yetganday sherigiga qaradi. — Aytdim-ku, men, bu hamma narsani biladigan azayimxon deb.

Ikkinchi ayol ham o‘z fikrini ma’qullashga kirishdi.

— Bizlar buning musulmon emasligini o‘zi aytmasa ham bilamiz. Bu azayimxon bizlarning juda uzoq joydan yayov kelganimizni bilsin-da, asal qiz. Shuni ayt.

To‘satdan bu ayolning diydasi to‘lib, yig‘lamsirab so‘zida davom etdi:

— Annamurodjonim necha oylardan beri tiniqib uxlay olmayapti! Uyqusi qush uyqusiday. Ozgina uxlaydi-da, uyg‘onaveradi. Uyg‘onadi, ozgina uxlaydi. Bormagan tabibimiz, ta’zim qilmagan mullamiz qolmadi, asal qizim. Shu sababli, farang

azayimxonning bizga rahmi kelsin! Shuni sen unga yaxshilab tushuntirgin, qizim, xo'pmi.

Oxirgi gaplar tushuntirilganda farang azayimxon iborasi qulog'iga chalingan Blokvil yana kulib yuboray dedi-yu, lekin oldida boshidagi ro'moli bilan ko'z yoshini artayotgan ayolning ko'rinishidan uning yordamga, daldaga muhtojligini anglab, o'zini kulgidan tiydi.

Yig'lab biroz o'zini tutib olgan ayol yana Oqmorolga qarab dedi:

— Jon singiljon, sen unga ayt, axir. Bizning zorimiz bor, zo'rimiz yo'q. Bizlar hamma voqeadan xabardormiz. Yashirishga harakat qilmanglar. Bir bola daryoga g'arq bo'lgach, uni yarim kundan so'ng suvdan topishibdi. Deyarli o'lgan bolani mana shu farang azayimxon o'ziga keltiribdi. Shuni ham eshitdik yo'lda. Bo'lganmi shunday voqea, bo'lgan ekan, ana... Kelayotganimizda farang mulla haqida so'rasak, u o'zining so'qir bo'layozgan ko'zlarini duolab, fol ochib tuzatdi, deb aytganlar ham bo'ldi. Har bir narsaning bo'lishi, avvalo, Ollohdan. Biroq farangning ham bizga rahmi kelsin! Shuni yaxshilab tushuntir, jon singiljon! Ilohim seni yomon ko'zlardan saqlasin, hech qachon dard ko'rmagin! Bizning baxtimizga buning tilini tushunadigan sen bor ekansan. Birorta so'zimizni qoldirmasdan unga ayt, qizim...

Oqmorol ularning istaklarini bajardi, birorta so'zni o'zgartirmasdan tutqunga yetkazgach, hamma farangning javobini kuta boshladi.

— Men endi nima qilishim kerak? — deya, o'z navbatida, Blokvil tilmochlik qilib turgan qizga savol berdi.

Oqmorol jim turdi. Bu jimlikdan o'zicha ma'no chiqargan ayol shoshildi.

— Nima deyapti, qizim?

Ayollarning umidini puchga chiqarishni xohlamagan Oqmorol yolg'on so'z ishlatdi.

— O'ylab ko'rishim kerak, deyapti.

Haligina yig'lab turgan ayolning yuzi yorishib ketdi.

— Ana, ko'rdingmi? O'ylansin, asal qizim, yaxshilab o'ylansin. Ertagacha o'ylansa ham biz tashqarida uning javobini kutib turishga rozimiz. Annamurodjonim uxlolmayapti, axir!

Blokvil mehmon ayollarning o'zlariga ma'qul javob olishlariga qat'iy bel bog'laganlariga ko'zi yetgach, uzoq vaqt o'yga toldi. U musulmon duoxonlari, mullalarining bemorlarga, o'zlariga ishongan odamlarga qilgan ta'sirlari to'g'risida ko'p kitob o'qigan, ko'p narsalarni eshitgan ham edi. Bundan tashqari, Eron hududiga kirishi bilanoq o'sha duoxon-azayimxonlarni o'z ko'zi bilan ko'rgandi, nosog'larning ularga ishonishlariga ham shohid bo'lgandi. Qojor qo'shinlarining ichida duo yozib beradigan, kuf-suf qilib dam soladigan savodxon sipohilar ham juda ko'p edi. Ular bir necha bor naq Blokvilning ko'z o'ngida tuz, suv, yeydigan-ichadigan narsalarga, nonga dam solishardi. Ular tomonidan dam solingan narsalardan ko'pchilik sarbozlar naf ko'rishardi. O'sha paytda Blokvil bu xil kuf-suflarga ishonchsizlik bilan qaragandi. Biroq u ro'y bergan bir necha voqeaga guvoh bo'lgach, ishonch va ixlos ko'rsatgan natijani ko'rib yanada hayron qolgandi.

Bir gal fransuz kaprali surnaychilar guruhining diniy maslahatchisi bilan gaplashib turganida, o'rta yashar sarboz uning yoniga kelib dardini ayta boshladi. Sarboz deyarli har soatda hojatxonaga borishga majbur bo'layotganini, natijada uyqudan qolganligi uchun mazasi qochib borayotganini aytib, undan yordam berishni iltimos qildi. Azayimxon-duoxon eng oldin sarbozning ikki ko'zi o'rtasiga ko'rsatkich barmog'ini bosdi. So'ngra uning ko'z qorachig'iga o'zining o'tkir nazarini qaratib, sarboz uchun tushunarsiz bo'lgan arab tilida bir narsalar deb duo o'qidi. Jodugo'y azayimxonning ayrimlari to'g'ri, ba'zilari noto'g'ri aytgan so'zlari arabcha edi. Blokvil arab tilini yaxshi bilardi. Azayimxon oldida turgan sarbozga faqat yaxshi tilaklar aytardi. So'ngra duoxon arab tilidan forschaga o'tdi-da: "Shu bugundan boshlab har kuni bir marta, tong otayotganda hojatga boradigan bo'lasan", — dedi. Unga minnatdorchilik bildirgan sarboz o'z ishi bilan ketdi. O'shanda uning orqasidan qarab qolgan Blokvil ichida: "Seni mazax qilishdi-yov!" — deb pichirlab qo'ygandi. So'ngra: "Sizning kuf-sufingizdan bunga biror naf tegarmikan?" — deb so'ragandi. Azayimxon qat'iy ishonch bilan: "Ertaga borib, o'zidan so'rab ko'r. Naq mening aytganimday bo'ladi," — dedi. Blokvil o'shanda o'zicha duoxonning ustidan ham kulgandi.

Mazkur voqea sal bo‘lmasa Blokvilning yodidan chiqay degan ekan, hozirgi holat o‘sha voqeani yana yodiga soldi... O‘shanda, oradan uch-to‘rt kun o‘tgach, Blokvil yana tasodifan duch kelib qolgan o‘sha azayimxon bilan dunyo tashvishlari haqida so‘zlashib turganida, ichi buzilib, hojatga tez-tez borgan sarbozning o‘zlariga qarab kelayotganini ko‘rdi-da:

— Janob, sizning bemoringiz yana kelayotganga o‘xshaydi, deyman... — deya mazaxomuz jilmaydi. — Ichi to‘xtamagan bo‘lsa kerak!

Azayimxon suhbatdoshining mazax ohangidagi so‘zi va kulishini go‘yo tushunmaganday:

— U hozir boshqa tashvishlar bilan kelyapti, — dedi.

— Erta tongdan qorong‘i kechagacha ichquridan qo‘lini olmagan sarbozning hojatxonaga borishdan boshqa qanaqa tashvishi bo‘lsin, janob?

— Uni hozir o‘zing eshitasan!

Yetib kelgan sarboz azayimxonning oldida ta’zim qilib salom berdi.

— Iltimosim bor edi...

— Aytaver! — degan duoxon sarbozdan oldin o‘zi savol berdi. — Iching to‘xtadimi?

— Ichim yaxshi bo‘ldi, ammo...

Blokvil azayimxonning yuziga qoyil qolib qaradi. Ishidan mamnun azayimxon mag‘rur ko‘rinishda fransuzga qaramagan holda gerdayib qo‘ydi. Sarboz o‘z ahvolini ayta boshladi.

— Ichim ketishi darhol to‘xtadi, lekin yana yordamingiz kerak bo‘lib qoldi...

— Senga endi nima kerak bo‘lib qoldi?

— Siz menga tong otayotgan paytda hojatxonaga boradigan bo‘lasan degandingiz. Biroz qiyinroq bo‘lyapti menga, uyquning shirin vaqti uyg‘onish og‘ir bo‘lyapti...

Azayimxon iltimosning ma’nosini darhol tushundi.

— Oftob chiqqan vaqtni belgilasam bo‘ladimi?

— Juda yaxshi bo‘lardi.

Azayimxon-duoxon bundan uch-to‘rt kun oldin qilgan harakatlarini, arabcha so‘zlarni takrorladi-da, sarbozga fotiha berdi.

Hojati joyiga tushgan sarboz xush kayfiyatda orqasiga qaytib ketdi.

O‘sha fursatda o‘z taxminining noto‘g‘ri bo‘lib chiqqanini tan olgan Blokvil: “Qadimgi Xitoy tabiblari bemorni shirin so‘z, to‘g‘ri maslahat, ruhiy qo‘llab-quvvatlash bilan davolaganlarining asosi bor ekan-da”, degan xulosaga kelgandi.

... Mana, qarshisida o‘tirgan ikki nafar ayolning yordamga muhtoj nazar-u qarashlarini ko‘rib turgan fransuz o‘sha sarboz voqeasini yana esiga oldi. Shu asnoda u azayimxon, kuf-sufchi duoxonlar qilgan xatti-harakatlarning boradigan boshqa joylari bo‘lmagan oddiy xalq vakillariga kerak ekanligini, hatto, zarurligini ham fahmladi.

Blokvil Oqmorol orqali xastaning necha yasharligini, nima ish bilan shug‘ullanishini, oriq-semizligini so‘rab-surishtirdi.

Uxlay olmaydigan bemor — o‘n olti yashar o‘smir, o‘z tengto‘shlariga qaraganda nihoyatda semiz, og‘ir gavdali, yeb-ichishdan boshqani bilmaydigan, yarim uyquli, yarim uyg‘oq yotishni juda yoqtiradigan yigitcha bo‘lib chiqdi.

Blokvilning o‘ziga diqqat bilan qaraganini sezgan ayol, u biz olib kelgan sovg‘aga qarayapti deb o‘ylab, qo‘lida ushlab turgan tugunchani uzatdi.

— Bo‘sh qo‘l bilan bormaylik deb shuni olib kelgandik. Farang mullaning zora nafi tegsa deb...

Blokvil tugunchani ochdi. Uning ichidan har bir donasi xuddi tovuq tuxumiday keladigan quritilgan payvandi o‘rik chiqdi. U o‘rikdan ikki hovuchini to‘ldirib oldi-da, hidlab ko‘rdi. So‘ngra ularni bir bo‘lak oq qog‘oz ustiga qo‘yib, tikilib qaray boshladi.

Farang mullaning har bir harakatini e’tibor bilan kuzatib o‘tirgan ikki ayol — to‘rt umidvor ko‘zga aylandi.

— Sizlar qaysi qishloqdan bo‘lasizlar?

— Sultoniz qishlog‘idan, mulla og‘a.

Ko‘zlarini yumib go‘yo o‘yga tolgan Blokvil Marvga bostirib kirgach, chizgan xaritasini esladi. Sultoniz qishlog‘i Marvning janubi-sharqiy tomoniga joylashgan ulkan o‘ba[1] edi. Sultonizdan

[1] **O‘ba** — qishloq, ovul.

Samandiqqacha ikki farsax yo'l bor edi. Orqaga qaytsang ham shu masofa.

Yo'llarni fikran hisoblab-o'lchab olgan Blokvil mehmonlarga topshiriq bera boshladi.

— Ertalabki namoz vaqtidan so'ng bir otliqning iziga tushgan bemoringiz Samandiqning orqa tomonidagi tepalikning atrofini uch marta piyoda aylansin. Biroz dam olgach, yana piyodalab orqasiga qaytsin. Charchasa ham otga minmasin. Qorni ochiqsa non yesin, chanqasa suv ichsin. Choy ichmasin. Uyqusi kelsa, uxlamasin.

Har ikkala ayolning ko'zi o'ngida haqiqiy azayimxonga aylangan farang, olgan ikki hovuch o'rikni ularning o'zlariga qaytardi.

— Kech oqshom ko'rpaga kirishdan oldin ana shu o'rikdan bir donasini yesin. Yegan paytida o'sha o'rikning o'zini uxlata olishiga ishonsin. Bu o'rik uni aniq uxlatadi. Boshini yostiqqa qo'yganda uxlamasa, azayimxon mulla haqida o'ylasin. Men shu yerdan turib uni uxlashga majbur qilaman.

Ayollarning biri:

— Shularni bajarsa, uxlaydimi? — deb shosha-pisha so'radi.

— Azayimxon aytgandan keyin, albatta, uxlaydi! — deb ikkinchi ayol uning tirsagiga turtdi. — Sen hozir kimning oldida o'tirganingni esingdan chiqardingmi?

Allaqachon ko'ngli joyiga tushgan ayol o'riklarni ikkala kaftida ushlab turganicha:

— Bir duo ham yozib bersin, asal qiz! — deya Oqmorolning yuziga muloyim chehra bilan qaradi. — Sen, qizim, ishingni yaxshi bajarding. Agar sen bo'lmasang, farang mulla bizning holimizdan xabar ham olmas edi.

Blokvil boshlab qo'ygan mullalik kasbini oxirigacha qoyilmaqom qilib bajardi. U bir parcha oq qog'oz oldi-da, ruchkasini o'ynatib uzoq o'ylab o'tirgach, fransuz tilida "Sua kop akkompli tut le intenslon de bon jan!"[1] degan so'zlarni yozdi.

— Buni nima qilish kerak?

— Uni kech oqshomda xastaning yostig'i tagiga qo'ying!

---

[1] "Yaxshi insonlarning orzu-umidlari ro'yobga chiqsin!"

Blokvil ushbu harakatlarining barchasini oddiy, sodda odamlarning ko'nglini qoldirmaslik uchun o'rinli bajardi. U dam solgan o'rigidan, bergan duosidan foyda chiqmasligini sezardi. Biroq Sultonizdan Samandiqqacha piyoda kelib qattiq charchagan har qanday odamning kechasi, hatto, tush ko'rmay uxlashiga ham ishonchi komil edi.

Ayollar farang mullaga, Oqmorol va Annabibiga tashakkur bildira-bildira, orqalariga qaytib ketishdi.

Xotin-qizlar tiliga tushgan Blokvilning bundan buyon farang azayimxon mulla sifatida obro'-e'tibori butun turkman diyoriga tarqalishi endilikda shak-shubhasiz.

Blokvil shu damda gebang deb atalgan hind palmasining o'z umri davomida bir marta, unda ham umri tugaydigan yilida, qurib qolishidan sal oldinroq gullashini eslab qoldi. Uning o'zi ham bu yil mullalik, duoxon-azayimxonlik qilib, umrining eng so'nggi kunlarini o'tkazmayotganmikan?

Blokvil yodiga tushgan bu xil qiyosdan beixtiyor jilmayganini bilmay qoldi.

Ayollar jo'nab ketishgach, ko'p vaqt o'tmay, quduqdan suv olishga keladigan asir qojor ko'rindi. Suvga kelgan odamning qo'lida ko'za yoki suvqovoq bo'lardi. Asir qojor esa uzun qo'llarini silkitgancha, idishsiz kelgandi.

Qojor kulbaning eshigi oldiga kelib to'xtadi-da, salom-alikni ham esidan chiqarib, Blokvilga:

— Og'abek! — dedi hovliqib. — Men o'z qulog'im bilan eshitgan bir xabarimni senga aytish uchun keldim. Shu kecha seni o'g'irlashmoqchi, eshitdingmi? Ehtiyot bo'l, og'abek!

Bu xabar noxush bo'lsa-da, uning mohiyati miyasiga yaxshi yetmagani uchun Blokvilga chivin chaqqanchalik ham ta'sir etmadi.

— O'g'irlashmoqchi dedingmi?! O'g'irlab, nima, men katta bir oltin yombisimidim?

—Ha, o'g'irlashmoqchi. Menga buni Ko'kcha qishlog'idan bizning xo'jayin uyidan somon olib ketishga kelgan hamshaharim aytdi.

— Men ham sening kabi oddiy tutqunman. Biz kimga ham kerak ekanmiz? Agar bizni o'g'irlashsa, ozod qilish uchun o'g'ir-

lashmaydi, albatta. Tutqunlikdan tutqunlikka o'tgandan keyin ham ahvoling o'zgarmay qolaveradi.

— Unga baho berish mening ishim emas, og'abek. Mening burchim shu xabarni senga aytish edi. Biror foydasi bo'lmasa, tutqunni o'g'irlab, uni bekorga olib qochishmasa kerak? Seni sotib olish uchun Eron podshosi va'da berganini barcha bandilar biladi. Uni turkmanlar ham bilishadi. Mening vazifam shuni aytish edi!

Ana shu xabarlarni ayta-sola, eroniy asir xayrlashmasdan orqasiga qaytdi. U Oqmorol yashayotgan uyning orqasidan o'tib ko'zdan g'oyib bo'lgach, Blokvil sal o'ziga keldi. Tutqun olib kelgan xabar, ayniqsa, shoh Nasriddin bergan va'da haqidagi so'zlar uning umidini yangidan junbishga keltirdi.

Blokvil hayajonlana boshladi, o'zi to'g'risida el-yurt orasida tarqalgan asossiz gap-so'zlar haqida o'ylandi. Egamurod uch-to'rt kun oldin o'z tutquni uchun oldin belgilagan baho ustiga yana bir necha ming tuman pul qo'shadigan bo'libdi, degan xabarning mohiyati ham hozirgina uning ongiga borib yetdi. Bir tutqunning qo'l-oyog'ini bog'lab, boshqa qishloqqa olib qochib, to'rt ming tuman baho qo'yadigan turkmanda qanday insof bo'lsin?!

Blokvilning boshida yana qulfurushlar yashaydigan Buxoro, Xiva degan shaharlarning ham nomi aylana boshladi. Katta pul ishlash maqsadlari amalga oshmasa, o'g'rilar oyoq izlarini yo'qotish uchun tutqunni baland yantoq g'arami ustiga tashlab, tagidan o't yoqib ketishdan ham qaytmaydi.

Ana shunday xavflar haqida o'ylangan Blokvil sapchib o'rnidan turdi-da, to'g'ri Oqmorolning qora uyiga qarab yurdi. U qanchalik tez yurgan bo'lmasin, uy ostonasiga yetganda sekinlashib to'xtadi va Muhammadavaz polvonga ovoz berdi. Yo'tal ovozi eshitiladigan uydan javob bo'lmadi. So'ngra farang Oqmorolning nomini aytib chaqira boshladi:

— Ohmorol! Man Jorj hastam. Xohesh miko'nam, az xona birun biyoyid, baroye sho'mo xabari doram[1]!

[1] Oqmorol, men Jorjman. Iltimos, tashqariga chiqing. Sizga aytadigan xabarim bor! *(Forscha).*

Eshik orqasidan sovuq o'tmaslik uchun osib qo'yilgan gilamchaning surilgan ovozi eshitildi. So'ngra eshik ochilib, qizning oppoq yuzi ko'rindi.

— Che xabar? Gush miko'nam. Beguyid[1]!

Blokvil eshitganlarini aytganida hang-mang bo'lgan Oqmorol, go'yo aytilgan xavf xuddi hozirning o'zida ro'y beradiganday yoqasini tutdi.

— Buni sizga kim aytdi?

— Tanish qojor maxsus kelib aytib ketdi.

— Buni darhol Egamurod og'amga aytishimiz kerak!

— Siz bo'lmasangiz men yaxshi tushuntira olmayman deb, bu yoqqa bostirib kelaverdim. Kechiring meni!

Singlisining asirni orqasiga ergashtirib, uy oldida paydo bo'lishi og'aning jahlini chiqardi. Ikkalasining birga yurishini yoqtirmadi. Egamurodning ovozi boshqacharoq chiqdi.

— Bu qanaqa yurish?! Bir-biringizning izingizga tirkashib kelishingizni qanday tushunish mumkin?

— Bugun tunda Jorjni o'g'irlashar emish, Egamurod og'a!

Xabar hayratlanarli bo'lsa-da, Egamurod o'zini yo'qotmadi.

— Uni senga kim aytdi?

Oqmorol javob berish o'rniga tutqunga qaradi.

Agar to'g'risini aytsa, xabar keltirgan asirning kaltaklanishi mumkinligini taxmin qilgan Blokvil haqiqatni aytishni istamadi.

— Kimdan eshitganim muhim emas, xabar muhim, og'abek!

— Bu gaping ham to'g'ri, farang mulla! Ha-a, shu gap oldin ham mening qulog'imga chalingandi, demak, bu chinga aylanibdi-da! — deya Egamurod bo'ynining orqasini qashidi. — Shunchaki, gap-so'z deb o'ylagandim...

Egamurod uyiga kirib ketdi. Ko'p vaqt o'tmay qo'lida to'ponchа bilan qaytib chiqdi.

Qo'shog'iz farangi to'ponchaning o'ziniki ekanligini bilgan Blokvilning ko'zlari chaqnab ketdi.

Egamurod yarog'ni asirga uzatdi.

— Bu senda tursin!

---

[1] Qanaqa xabar? Gapiring, qulog'im sizda! *(Forscha)*.

O‘zining to‘pponchasini zo‘r qiziqish bilan sinchiklab tekshirib chiqqan asir uning og‘ziga, dastasiga qaradi. Tepkisini orqasiga qaytarib ko‘rdi. Keyin:

— O‘qsiz to‘pponchadan yaxshi kaltak foydali, og‘abek! — dedi.

— Shunaqa deb o‘ylaysanmi? — Egamurod iljaydi. — O‘g‘ri xalqining qo‘rqadigan narsasi yarog‘ bilan ko‘zdir. O‘zing bilasan, ko‘zning ham o‘qi yo‘q. Tayoqdan hayvon qo‘rqadi. Endilikda, Xudoga shukur, ikkala ko‘zing ham sog‘.

Og‘abekning ko‘zni tilga olishi bilan qilgan yaxshiligini eslatyapti shekilli, deb o‘ylagan tutqun:

— Ko‘zim uchun men sizdan ko‘p minnatdorman, og‘abek! — dedi. — Agar sizning yordamingiz bo‘lmasa, bu vaqtgacha men, balki, ko‘r bo‘lib qolardim.

Minnatdorchilikni eshitib xursand bo‘lgan Egamurod Oqmorolga topshiriq berdi.

— Sen unga ayt, to‘pponcha o‘qsiz bo‘lsa-da, yonida tursin. Turkmanlarda: “O‘g‘rining toshi bo‘sh”, degan gap bor. Odam botir bo‘lsa-da, u o‘g‘irlikka chiqsa, qo‘rqoqroq bo‘ladi, degin. Qo‘rqoqqa hamma narsa qo‘sha ko‘rinadi, deb tushuntir.

— O‘g‘rilar kelsa, men ularga nima deyishim kerak? O‘qsiz to‘pponcha bilan nima deb o‘zimni himoya qilaman?

— To‘pponchani o‘g‘riga to‘g‘rilaysan-da, hozir otaman, deb qichqiraverasan. O‘g‘rining yana qo‘rqadigan narsasi — shovqin-surondir.

Blokvil kulbasiga yetguncha, hozir otaman, degan so‘zni takrorlab bordi. Keyin uni daftariga yozib, fransuzcha tarjimasini yoniga qo‘shib qo‘ydi...

Quduqqa tushib ketgan bolakayning otasidan sovg‘a sifatida olgan silkma telpakni boshiga kiyib, eski ko‘rpaga o‘ranib olgan tutqun miyasidagi alg‘ov-dalg‘ov fikrlar junbishidan sira uxlay olmadi. Bu sharoitda u ertalabgacha ham uxlay olmasligi tayin.

Tashqari jimjit edi.

Kechalari non-choydan so‘ng turkmanlar odatga ko‘ra bir-birlarining uyiga yig‘ilsalar, uylariga borish uchun o‘rinlaridan turganda, uyquga yotish payti bo‘ldi, deyishadi. Farangning taxmini-

cha, o‘g‘ri-po‘g‘rilar, niyati yomon odamlar faqat ana shu vaqtdan keyingina maqsadlarini amalga oshirishga kirishadilar. Ana shu fursat yaqinlashgani sayin Blokvilning ham tashvishi orta boshladi.

Blokvil o‘z xo‘jayini Egamurod qo‘ng‘irning asirini qo‘lidan chiqarmaslik uchun harakat qilishini tushunadi. Biroq boshqa bir narsani fikriga sig‘dira olmasdi. Agar Egamurod tutqunini o‘g‘irlatibdi, degan yomon nomga qolmaslikni istamasa, yoki u farang asirni sotib, mo‘ljalidagi mablag‘dan ajralishni xohlamasa, u paytda nima uchun Blokvilni og‘zi ochiq kulbada yolg‘iz qoldiryapti? Nega u yomon niyatli odamlarning maqsadlarini bilsa-da, asirini o‘zi yotgan qora uyiga olib o‘tmayapti? Agar u shunday qilsa, o‘z bola-chaqasining joni xavf ostida qoladi deb o‘ylayaptimikan? Yoki u asir o‘g‘irlansa o‘g‘irlansin, o‘z boshim omon qolsa bo‘ldi, deb fikr yurityaptimikan?

To‘satdan kulba tomon kelayotgan qora ko‘lanka ko‘rindi. Bu qoraning nimaligi aniq bo‘lmagach, qorong‘i tunning ichida ko‘lanka nihoyatda xavfli tuyula boshladi. Kelayotgan qora ko‘lankani sezgan asir xavfni munosib kutishga hozirlik ko‘ra boshladi. Biroq:

— Sen hali ham uxlamadingmi, farang mulla?— degan tanish ovoz uning ko‘ngliga biroz taskin berdi.

Egamurodning ulkan qora ko‘lankaday bo‘lib kelishining sababi bor ekan. Uning yelkasida kigizga o‘ralgan ko‘rpa-to‘shak bor edi.

Ichi ko‘rpa-to‘shakli kigiz yonboshiga gupillab tushgach, Egamurodning maqsadiga tushungan Blokvil:

— Siz keldi, og‘abek? — dedi.

— Ha, biz keldi! — deb asirning chala so‘zlashiga mos ohangda Egamurod kulbaning bir chekkasiga kigizni yoyib, uning ustiga to‘shagini, keyin yostiq-ko‘rpasini tashladi.

Egamurod qo‘ng‘irning bu harakatini o‘ziga ko‘rsatilgan hurmat deb qabul qilgan farang unga yoqadigan bir gap aytgisi keldi. Biroq so‘z boyligi g‘arib bo‘lgach, istagini qisqacha ko‘rinishda ifodalab qo‘ya qoldi:

— Yaxshi, og‘abek, yaxshi!

— Albatta, yaxshi. Xudoga shukur, yaxshi! — qorong‘ida yuzko‘zi ko‘rinmagan Egamurodning yo‘g‘on ovozi tun zulmatini yorib yuborganday bo‘ldi.— Birdan ikki yaxshi bo‘ladi. Yolg‘izlik Xudoga yarashadi, deb yoshullilar behudaga aytishmagan.

Javob eshitilmagach, yana Egamurodning o‘zi gapira boshladi.

— Sen ham bizni deb tashvishga qolding, farang mulla. Biz ham seni deb ko‘p ozor tortdik. Shuncha tortgan tashvishlarimiz harna o‘z munosib rag‘batini olsa ekan.

Tiliga yaxshi tushunmasa-da, yonida homiyning paydo bo‘lishi asirning ruhini ko‘tardi. Bundan tashqari, ham uy egasi, ham qul xo‘jayinining o‘g‘rilarga qarshi turish maqsadida issiq o‘rnidan turib, sovuq tunni qorong‘i kulbada kechirishga bel bog‘laganligi Blokvilning unga nisbatan mehrini oshirdi. Zero, tiliga tushunmasa-da, kamgap bo‘lsa-da, endi Blokvil kulbada yolg‘iz emasdi. Agar Egamurod uxlab qolsa, zaruriyat tug‘ilganda uni uyg‘otmoq uchun tutqun qorong‘i kechani tippa-tik o‘tkazishga ham rozi edi.

To‘satdan:

— Ahvollar qanday, farang mulla? — degan ovoz sukunatni buzdi.

Egamurodning hali ham uxlamaganini bilgan tutqun darhol:

— Ahvol nag‘z! — dedi.

Birov bilan emas, qorong‘i kulba bilan so‘zlashganida ham farang juda xursand bo‘lardi.

— Sen uylanganmisan, farang mulla?

Blokvil gap boshidagi va oxiridagi ikki so‘zning ma’nosini bilsa-da, o‘rtadagi asosiy so‘zning ma’nosiga tushunmadi. Egamurod yana takrorladi:

— Uylanganmisan deyapman men senga?

— Og‘abek, men tushunmadi.

— Nima desam ekan-a, senga? Kayvonang bormi, kayvonang?

Blokvil fors tilidagi kadbonu degan so‘zga yaqin aytilgan gapning ma’nosini fahmladi.

— Kadbonu nest. Kayvona yo‘q.

— Onang bormi?

— Onang vor.

— Otang bormi?

Blokvil bu so‘zga tushunmagani uchun javob bermadi.

— Padar bormi? — deya Egamurod unga yordamlashdi.

— Padar nest.

— Nesting nimani bildiradi?

— Yo‘q, yo‘q, — deb Blokvil so‘zini to‘g‘riladi.

— Shunday desang-chi! Nest deding, past deding, topding men tushunmagan so‘zlarni. Sen vor dema, bor degin. Bo-or! Tushundingmi?

— Bo-or.

Muallimchiligi samara berayotganiga suyungan Egamurod shogirdini qorong‘ida ko‘rmagan bo‘lsa-da, jilmaydi.

— O‘zi, sen bo‘ladigan yigitsan. Jorj, sening dining qanday? Sen musulmon emassan-ku, a?

— Meniki din musulmon emas.

— Musulmon emasligingni aytmasang ham bilaman.

— Men katolikman.

— Bu gapingga tushunmadim. E, bo‘ldi, tushundim deb hisoblayver.

— Man az Parij, og‘abek.

— Man deganing men. Keyingi so‘zlaring turkmancha emas. Sen musulmon bo‘lishni istamaysanmi, mulla farang?

— Yo‘q.

— Yo‘q dema. Biz seni sunnat qilamiz. Ozgina og‘riydi, biroq musulmon bo‘lasan. Biz ham savob ish qilgan bo‘lamiz. Bir kofirni musulmon qilish hajga borib kelish bilan teng bo‘lar emish. Biz seni musulmon qilaylik.

— Yo‘q, og‘abek. Men musulmon yo‘q, — deb Blokvil barcha aytilganlarga tushunmasa-da, ma’nosini fahmlagach qarshilik ko‘rsatdi. — Men musulmon emasman.

— Uni allaqachon aytding... E, og‘ayni, ikkalamizning so‘zlashishimiz go‘yo qorong‘i uy tomon qo‘l silkitganga o‘xshaydi. Kel, yaxshisi uxlaylik.

Shu bilan ikki tomonni ham qiynab qo‘ygan savol-javob tamom bo‘ldi. Biroq tunning hali tamom bo‘lishiga ancha vaqt bor edi. Shu sababli bo‘lsa kerak, kutilmaganda qorong‘i kulbada xirgoyi eshitila boshladi:

Marvi shohi jahon asli makonim-ey,
Jon olib, jon berdim-ov sening ustingda.
Xono'tganda bordir-ey, bozor-do'konim-ey,
Xo'b savdo ko'rgandim sening ustingda...

Egamurodning yoqimli xirgoyisi farang tutqunga ma'qul bo'ldi. U og'abekdan mamnun holda dedi:

— Marvi shohi jahon, bravo!

— Bu zang'arga bir narsaning sal uchini ko'rsatsang darhol davomini fahmlaydi-ya?! — deya Egamurod o'z-o'zi bilan gaplashdi. — Marvi shohi jahon deyishini ko'r bu kofirning.

O'rtaga yana jimjitlik cho'kdi. Blokvil o'z fikrini turkman tilida yaxshi tushuntira olmagani uchun jim bo'lib o'tirishga majbur edi.

Suhbatni davom ettirishni Egamurod o'z ixtiyoriga oldi.

— Jorj, sen necha yoshdasan? — Blokvil jim bo'lgach, o'zi bilan o'zi savol-javob boshladi. — Mana, men qirq yoshman, qirq. Sen nechaga kirding?

Farang tutqun bu gapga tushundi. Tushunsa-da, o'zining yigirma sakkiz yoshda ekanligini turkmancha ayta olmadi.

— Men o'n, o'n sakkiz...

— O'n sakkiz deyapsanmi? — qorong'ilikni kulgi ovozi buzdi. — Qo'ysang-chi, sening yoshing anchaga borib qolgan bo'lishi kerak, birodar...

* * *

Olam yorug'langach, uyqudan uyg'ongan Egamurod o'rnidan turdi-da:

—Bay-bay, Xudo buyurgach uxlabmiz-da, maza qilib,— dedi. — Sen ham yoningda hamrohing bo'lgandan keyin rohat qilib yotdingmi, mulla farang?

— Rohat! Rohat! — deb Blokvil uning ustidan mazax qilganday kuldi. — Ertangiz xayrli bo'lsin, og'abek!

— Xayrli bo'lsin! — deb Egamurod ko'rpa-yostig'ini kigizga o'ray boshladi. — Endi hech kim kelmaydi!

Blokvil hozir uning ko'rpa-to'shaklarini olib, kulbadan tezroq ketishini juda-juda xohlardi. Chunki u endi — Egamurod xurrak

otmayotgan bir paytda salgina mizg'ib olmoqchi edi. E, bu turkman og'abek xurrak tortaverib, tuni bilan uyqu bermadi. Endi o'g'ri keladimi, qaroqchi keladimi — kim kelsa kelsin. Ungacha Blokvil ozgina mizg'ib olmasa, uyqusizlikdan o'lib bo'ldi...

46

Bugun juma kuni edi. Ko'chaning kunbotar tomonidagi bir xonadonda dunyodan o'tganlarni xotirlab xudoyi o'tkazilayotgandi.

Peshinga yaqin uyg'ongan Blokvil hojatxona tomonga borib kelganida tevarak-atrofda hech kimni ko'rmadi. Katta-kichikning barchasi xudoyi o'tkazilayotgan joyga ketishgan. Bunday jimjitlik qochishni o'ylab yurgan asir uchun juda qulay fursat. Ammo o'tgan kundagi voqeadan keyin boshqa odamlar tomonidan o'g'irlab ketish xavfi tug'ilgach, Blokvil qochish haqida o'ylamay qo'ydi.

Farang o'zining kulbasiga kirgan zahoti Oqmorol yashaydigan uyning yonboshida ikki nafar otliq paydo bo'ldi. Ulardan biri tabib kelgan kuni tutqun yashaydigan kulbani sinchiklab ko'zdan kechirgan ulkan gavdali, puchuq burunli odam edi. Uni ko'rgan Blokvilning ko'ngli alag'da bo'ldi.

Otliqlar yomon niyat bilan kelgan odamga emas, balki taklif bilan kelgan obro'-e'tiborli mehmonga o'xshardi. Egar ustida o'tirishlari bemalol. Ular xotirjam otdan tushdilar. Ulardan birining qo'lidagi arqonga ko'zi tushgandan so'nggina Blokvilning yuragida xavotir paydo bo'ldi.

Ikki nafar piyoda odamning kulba tomon yura boshlagani farangni yana sergaklantirdi. U endi nima bilandir atrofdagilarni bu xavfli xatti-harakatlaridan ogohlantirish lozimligini sezdi, zero ular kulbaga kirib, qo'l-oyog'ini bog'laganlaridan keyin kech bo'ladi, unda asirning qo'lidan hech narsa kelmasligi aniq edi. Qo'lingdan nima keladigan bo'lsa, oyoq-qo'ling bog'lanmasdan oldin bajar!

Yaqinlashib kelganlardan biri sherigiga:

— Kulbadan chiqmasidan oldin bog'laylik! — dedi.

Blokvil ichki bir tuyg‘u bilan bu so‘zlarning ma’nosini ilkis anglab qoldi, bu so‘zlar farangni darhol kulbadan tashqariga chiqishga undadi. Kulbadan chiqqach, u jim turmadi.

— Yordam! Yordam! — deb kuchining boricha qichqirdi.

Kelganlar asirning yordam so‘rab baqirishlaridan tortinib turmadilar, qadam bosishlarini ham sekinlatishmadi. Ammo farangning so‘nggi harakati ularni to‘xtashga majbur qildi: tutqun ularga qo‘shog‘iz to‘pponcha o‘qtalib turardi. Shunda qaroqchilarning oyoqlariga titroq kirdi.

— Iya, bu qanaqasi bo‘ldi?! — dedi ulardan biri zo‘rg‘a gapirib.

— Me-men ham hayronman, — dedi puchuq burunli baquvvat odam soqovlanib. — Uning qo‘lida to‘pponcha bor-ku!

— Otaman! Hozir otaman! — degan xavfli tovush kelganlarni yanada dovdiratdi.

Ular asir tomonga kelolmas, orqaga qochishning ham ilojini qilolmasdilar. Qocholmasdilar hamki, ularga qaratilgan to‘pponcha bechora bosqinchilarni nihoyatda qo‘rqitib yuborgan edi.

— Hozir otaman!

Shu payt o‘rtadagi uy eshigiga osilib turgan gilamchaning bir cheti ko‘tarilib, uy oldida Muhammadavaz polvon paydo bo‘ldi.

— To‘xta, farang mulla! Otma! — deb hayqirdi u.

“Otma!” degan so‘zni eshitgan qaroqchilardan biri o‘limdan qutulganiga ishonib, otiga qarab yugurdi.

Blokvil uning shamolday yugurib borishi bilan yengil qush singari egar ustiga osongina uchib minganini ko‘rib hayron qoldi.

Farang tutqunning to‘pponchasidan ko‘zini ololmay qolgan puchuq burunning qochishga ham kuchi yetmadi.

Uning yo‘lida ko‘ndalang turgan Muhammadavaz polvon qo‘lidagi qo‘shotar miltiqning qo‘ndog‘ini yerga qo‘ydi.

— Xo‘sh, bahodir, bu qanaqa qiliq bo‘ldi?

Puchuq burunning ovozi qaltirab chiqdi.

— Assalomu alaykum, og‘am!

— Tangri salomini olmasam, Yaratgan Egamga noshukurlik qilgan bo‘laman. Vaalaykum assalom. Lekin men sen singarilarga og‘a emasman...

To‘pponchaning og‘zi pastga tushganini, qo‘shotar miltiq qo‘ndog‘ining yerga tiralganini ko‘rib qaroqchi biroz o‘ziga keldi.

— Og‘am, bema’ni buzoqning go‘shtini bir yebmiz, kechiring...

— Shu bo‘yingga, gavdangga uyalmay-netmay bunday qabohat ishga bosh qo‘shib, yana menga og‘a deysanmi? Sen singarilarning menga og‘a deb aytishga haqi yo‘q, bildingmi, ey!..

Badniyatli odam bahaybat gavdasiga yarashmagan harakat qilib, yelkalarini qisganicha yerga qaradi.

— Gunohimni o‘ting, yoshulli! Qaytib men sizning ko‘-changizga kelsam, otamning bolasi bo‘lmay!

— Yomon niyat bilan kelib ham ko‘r-chi!

— Hay, bir o‘yin qilibmiz, yoshulli, kechiring endi,— degan puchuq burunning so‘zi kulgili chiqdi.

— Qari yo‘lbars o‘qqa o‘zini tutmaydi! Sening bu gaping ham aybingni bekitolmaydi. O‘yin qilgan bo‘lsang, sen ham endi mening o‘yinimni tomosha qil!

Oqsoqol bir narsani izlaganday tevarak-atrofiga qaray boshladi. Nihoyat, uning ko‘zi o‘choq yonboshida uyulib turgan kul ustidagi to‘ntarilib yotgan siniq chinni choynakka tushdi. Choynakning jo‘mragi sinib, yaroqsiz holga kelgani uchun tashqariga chiqarib tashlangandi.

Muhammadavaz polvon puchuqqa buyruq berdi:

— Anovi kulda yotgan choynakni bu yoqqa olib kel!

Yomon ish ustida qo‘lga tushgan bahaybat odam kul ustida yotgan siniq choynakni olib kelishni o‘zi uchun ayb ish deb hisoblamadi.

Oqsoqol o‘g‘rini kulbaning yonboshida to‘xtatdi-da, siniq choynakni telpagining ustiga qo‘yishni buyurdi. Endi nima bo‘lishini bilishga qiziqqan o‘g‘ri aytilgan gapni bajardi. Telpakning ustida to‘ntarib qo‘yilgan qopqoqsiz choynak uning boshiga yaxshi o‘rnashdi.

— Sen menga qarab turma, qo‘rqasan. Yaxshisi, orqangga aylana qolgin! — dedi polvon.

Puchuq burun kishi bu aytilganni ham bajardi.

Miltig‘ini qo‘liga olgan oqsoqol, oraliq masofani o‘lchash uchun qadamini katta-katta tashlab, puchuq burundan o‘n qadam-

cha uzoqlashdi. So‘ng orqasiga aylandi-da, miltiqning qo‘ndog‘ini yelkasiga tiradi.

— Fo pa tire[1]! — deb Blokvil shoshganidan fransuz tilida baqirib yubordi. — Otish yo‘q, og‘abek!

— Otaman, chirog‘im! — deya yoshulli miltig‘ini nishonga qaratganicha gapirdi. — Kimning ostonasiga qadam bosganini bilib qo‘ysin. Bundan keyin bu xil yomon ishlarga aralashmasligi uchun saboq bo‘ladi...

Boshida choynak to‘ntarilgan odam iziga aylanmoqchi bo‘lgan edi. “Qimirlama!” degan haybatli ovoz yangradi.

Miltiq gumburlab otildi. Telpak tepasida turgan siniq choynak parcha-parcha bo‘lib, sochilib ketdi. Uning mayda-mayda bo‘laklari puchuq burunning telpagi ustidan yerga to‘kildi. O‘q ovozidan paydo bo‘lgan kuchli shovqindan boshlar og‘ridi. Shu bilan yoshullining o‘yini ham tugadi.

Bu o‘yin nima bilan tugashini bilmay ko‘zlarini ochib-yumib turgan Blokvil:

— Og‘abek, ajoyib! — deya qichqirganini bilmay qoldi.

Miltiqning qo‘ndog‘ini yerga tiragan yoshulli puchuq burunga dedi:

— Xo‘sh, sen endi mening savollarimga javob ber-chi!

— Me-e... ho-hozir... — deb o‘g‘ri soqovlandi. — Nima so‘rasangiz, men ta-tayyor, yosh-yoshulli!

— Sening isming nima?

— Rahimquli, yoshulli.

— Ismingni unutmabsan, yomon emas! — deb oqsoqol jilmaydi. — Kimlardan bo‘lasan?

— Xolsaxat qassoblardan.

— Bundan chiqdi, sen nasl-nasabli odamlarga tegishli ekansanda! — deb Muhammadavaz polvon afsuslanib boshini chayqadi.

— Siz Xolsaxat qassobni taniysizmi, yoshulli?— qo‘rquvdan titrab turgan o‘g‘ri shoshib so‘radi.

— Shanbaning bozorida begona odam yo‘q! Xolsaxat qassobni men juda yaxshi taniyman. Agar sen rostdan ham o‘shalardan

---

[1] **Fo pa tire!** — Otma! *(fransuzcha).*

bo‘lsang, bu yerdan sog‘-omon ketgin-da, qilgan qilmishingni unga aytib ber: Muhammadavaz polvon meni siz tufayli sog‘-salomat qo‘yib yubordi, degin. Yo‘ling bexatar bo‘lsin! O‘zing ham ishtoning ho‘llanmay turib, bu turmushda mashaqqatsiz hech narsaga erishish mumkin emasligini fahmlab etgin!

Bu savol-javobdan so‘ng o‘zini o‘lim changalidan qaytgan hisoblagan puchuq qora uyning chekkasida egasini kutib turgan oti tarafga qarab yura boshladi. U ust-boshidagi singan choynak qoldiqlarini qoqayotganida, yoshulli uni yo‘ldan to‘xtatdi.

— Sen, xon o‘g‘il, otning yoniga borma! Uni biz o‘z otxonamizga bog‘laymiz. Ozorga qolib yurma endi!

— Ot menga kerak-ku, yoshulli! — deb Rahimquli yolvorgan ohangda so‘radi.

— Ot kerak bo‘lsa, uni Xolsaxat qassobning o‘zi kelib olib ketsin. Qassobga Qo‘ng‘irlik Muhammadavaz polvon duoyi salom aytib yubordi, degin.

Puchuq burun odam yoshullining istagiga qarshi borolmay, piyodalab yo‘lga tushdi.

47

Eron hukumati men uchun yuqori to‘lov puli bergandan ko‘ra ahd-u paymondan voz kechishni ma’qul ko‘rdi.

Jorj Blokvil xotiralaridan

Qanchalik qiyin bo‘lmasin, kun o‘tib turar, mashaqqatli bo‘lsada, oy aylanib turardi. Blokvilning fikricha, o‘tgan kunlarning, aylangan oylarning ko‘tarib turgan yuki yo‘q. Balki barcha g‘am-tashvish tutqunning o‘z yelkasiga tushib, ezib yotibdi. Bir tomoni asirlik, bir tomoni yetar-yetmaslik, ochlik-qahatchilik qurshab olgan farangning avvalgi gavdasidan hozir yarmi ham qolmagan. Uni tirik tutib turgan, qaro qismatiga shu’la tashlab yoritib turgan narsa — ertangi kunga bo‘lgan umidi. Kelajak kunlardan birida uning qismati yaraqlab ochilib ketadiganday edi, uning nazarida... Shu tarzda kunlar, oylarning olib kelishi kutilayotgan

baxtdan benasib qolayotgan kapral endilikda fasllarga umid ko'zi bilan qaray boshladi. Biroq bahor faslining dastlabki kunlari unga xushxabar o'rniga shum xabar olib keldi.

O'zini avsharlik Yusufxonning vakili Abdalbek deb tanishtirgan, Mashhaddan Marvga xabar yuborgan odamning aytishiga ko'ra, Eron hukumati fransuz qo'shinining kaprali Jorj Anri Gulibef de Blokvil bilan shartnoma tuzgan bo'lsa-da, ikki ming tuman to'lov puli berib uni asirlikdan ozod qilishni istamasligini bildiribdi. Bu sovuq xabar farangning yorug' olamini toraytirib yubordi! Blokvilning jahli chiqdi: "Ikki ming tuman pulga kuchi yetmagan shoh qanaqa hukmdor bo'ldi? Agar uning o'rnida bo'lsam, podsholikni tashlab gadolik qilgan bo'lardim!"

Bu so'zlar Tehrondan minglab masofa uzoqlikda changib yotgan Qo'ng'ir qishlog'ida aytilmoqda edi. Bu so'zlar aytilsa-aytilmasa, shoh, baribir, shohligini tashlamaydi. Ikki ming tuman pulga kuchi yetmagan shoh esa allaqachondan beri sariq va oq qog'ozlar ustida muk tushib imzo chekishda davom etar, mamlakatini chapdastlik ila boshqarar edi-yu, ammo hashamatli ko'shk ichida, mo'l-ko'lchilikda yashayotgan shoh Nasriddin Qo'ng'ir qishlog'ida yarim och-yarim yalang'och yurgan kapralni hech esiga olay demasdi. Tashvishini qilay desa, uning o'z yurtida ham Blokvilga o'xshagan muhtojlar oz emasdi.

Katta davlatning katta tashvishlari orasida o'zining tashvishi quduqqa qichqirganday beiz ketishini yaxshi tushunib yetgan bechora kapral tutqunlikdan qutqarishi mumkin bo'lgan yana ikki yo'lni topib, shulardan umid qila boshladi. Birinchisi — o'zining ahvoli to'g'risida Parijga— Fransiyaning hukumat darajasidagi rasmiy shaxslariga xabar yetkazish, ikkinchisi — turkman sardori Qo'vshutxon bilan yuzma-yuz uchrashish yo'li edi. Shu ikki yo'lni bir-biri bilan birlashtira olsa yanada yaxshi. Parijga xabar yetkazish tashvishini qilganidan ko'ra, buni Qo'vshutxon nomi bilan amalga oshirsa, tez va muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin, deb o'ylardi kapral.

Abdalbekdan shum xabar kelgan kundan buyon o'tgan bir hafta davomida Blokvil Egamurod og'abekning qulog'iga o'z fikrini qayta-qayta uqtirdi. Nihoyat, Muhammadavaz polvonning hahalab

bergan yordami bilan Qo'vshutxonning huzuriga borishga Egamurodni ko'ndirdilar. Bularga qo'shilib Muhammadavaz polvonning o'zi ham xon qabulxonasiga boradigan bo'ldi.

Shunday qilib, kunlarning birida Muhammadavaz polvon ertalabki namozini o'qigandan keyin — uchovlon nonushtani puxtalagach, Qo'ng'irdan chiqqan uch otliq Xono'tgan tomonga qarab yo'lga tushdi. Qartaya boshlagan og'asini yolg'iz yuborishga ko'zi qiymagan Egamurod ular bilan birga yo'lga chiqqaniga keyinchalik o'zi ham quvondi.

Yo'lovchilar otga mingunlarigacha shunday bir voqea yuz berdi. Muhammadavaz polvon haliyam uydan chiqib ulgurmagandi. Egamurod esa otxona tomonda edi. Kiyinib tashqariga chiqqan Blokvil xo'jayinlarining topshirig'iga qarab, kulbasining yonida tevarak-atrofni kuzatib turgandi. Shu payt suv olish bahonasida quduqqa borayotgan Oqmorol faqat tutqunga eshitiladigan past ovozda shipshidi:

— Jorj, bugun men ham tog'amlarning mollarini sog'ishmoq uchun yaylovga ketyapman. Uch-to'rt hafta vaqt o'sha joyda qolaman. Agar ko'risholmasak, o'z yurtingizga omon-eson borish nasib etsin. Ko'nglingizni og'ritgan bo'lsak, bizdan rozi bo'ling. Olloh sizning yo'lingizni bexatar qilsin!

Blokvil vaqt ziqligidan zo'rg'a:

— Men tirik ekanman, sizni esimdan chiqarmayman. Yaratgan Egam sizning ham baxtingizni butun qilsin. Siz menga tug'ishgan singlimdan afzalroq yaxshilik qildingiz! — deyishga ulgurdi.

Muhammadavaz polvon yo'talib tashqariga chiqdi. Otxona tomondan otlarni olib kelayotgan Egamurod ham ko'rindi.

Quduqdan suv olayotgan Oqmorol Jorjga oxirgi marta nazar tashladi. Blokvil uning go'zal va chiroyli g'amgin ko'zlari yoshlanganligini payqadi. Yosh qalqigan bu ko'zlar shunda oldingidan ham chiroyli ko'rinib ketdi. Farang tutqun ichdan otilib kelgan hayajonini yutinar ekan: "Bu qora ko'zlarni men hamisha xotiramda saqlayman!.." deb shivirladi.

Qishloqning kunchiqar tomonida, keng maydonning chekkasidagi qamishzor oldida kishilar ariq qazishardi. Yoqilgan

xas-xashakdan ko'tarilgan yengil tutun, yerdan tarqalayotgan nam havo bilan aralashib, burunga bahor nafasini keltirardi.

Fasllar ichida shu fasl Blokvilning eng yaxshi ko'rgani edi. Agar hozir u o'z yurtida bo'lganida, do'st-u yorlari bilan birgalikda ovga chiqqan bo'lardi. Kechqurun ular bilan yangi ov go'shtidan maza qilib yeb o'tirgan bo'lardi.

Mana, uning eng yaxshi ko'rgan fasli. Hozir ham u ot ustida. Hozir ham uning yonida sheriklari bor. Biroq bu gal kapral ovga chiqayotgani yo'q, o'z qismatining tilanchisi bo'lib otga mindi. Uning yonidagilari ham Parijdagi do'st-birodarlari emas...

Kechqurun orqa tomonga qanaqa xabar bilan qaytishlari hali noma'lum. Biroq kechqurun Parijdagiday hashamatli qasr o'rniga — eski kulbaga, ov go'shti o'rniga — omadi kelsa suvga qaynatilgan yormacha, bu ham bo'lmasa, choy bilan quruq nonga yetishishi ma'lum. Shu sababli, ayni paytda uni bahor ham, bahor havosi ham sevintirayotgani yo'q.

Blokvil yarim yildan oshiq muddat davomida turkmanlar orasida yashayotgan bo'lsa-da, hozirgacha ularning orasida ezma-sergap odamga duch kelmadi. Tutqun bu holatni o'ziga xos ayyorlik deb tushuntirishni-da, yoki esa kun o'tkazish, oila boqishning qiyinligi bilan bog'lashni-da bilolmadi. Nihoyat, u bunday kamgaplikni davr qo'ygan tamg'a degan xulosaga keldi. Chunki qojorlar bilan bo'lgan oxirgi urushda ham juda ko'p turkmanlar halok bo'lgandi.

Bu xonadondan odam halok bo'lmagan bo'lsa, yonidagi qo'shnisinikida vafot etganlar bor. Bundan tashqari, kam sonli turkmanlar bir-birlari bilan yoki qarindosh, yoki urug'dosh bo'lib chiqardi. Turkmanlarda urushda halok bo'lganlarning xotirasi nihoyatda hurmat qilinardi. Balki, ular kurash maydonida vafot etganlarning ruhlarini qadrlab kam gapirishsa kerak. Balki, doimo ular haqida o'ylanib, ichida marhumlar bilan so'zlashib yurishar.

Kunning ko'p vaqtini eski kulbasida o'tkazib, odamlar bilan siyrak muloqotda bo'lganligi sababli Blokvil ham uncha sergap emasdi. Undan tashqari, tutqunning o'zi ham sergaplikka xushi yo'qligi tufayli turkmanlar qo'liga asir tushgach, doimo jim yurishning ham yaxshi xususiyat ekanligiga ko'zi yetdi.

Bu gal ham to Marv qal'asining devorlari ko'ringuncha yo'l yurilsa-da, uch otliqning o'rtasida hech qanday so'z-suhbat bo'lmadi, hisob. Faqat Marv tomondan ot-eshakli, orqasi yukli yo'lovchi kelayotgan bo'lsa, ular Muhammadavaz polvonga salom berib o'tishadi. Yoshulli ularning salomiga alik olib, yana jim bo'ladi. Ya'ni, salomdan boshlangan muloqot alik bilan tugaydi, xolos.

Blokvilga bu el-yurt odamlarining tanish-notanish insonlar bilan o'zaro salomlashish odati ma'qul tushdi. Mana, qarang, oqsoqol bo'lganligi sababli hamma tanish-notanish unga salom beryapti. To'g'ri, yoshulli bo'lganligi uchun ham ko'pchilik balki uni tanir. Biroq yoshullining o'zi ularning hammasini taniydimi — bunisi noma'lum. Kamgaplik yaxshi odat-u, ammo og'ziga tolqon solganday jim ketishni Blokvil xohlamaydi. Jim yurishdan ko'ra Egamurodning xirgoyisiga o'xshatib ashula aytishsa ham yaxshi edi. Ha, istasang-istamasang bir yurtdan boshqa bir elga, buning ustiga, asir bo'lib kelganingdan keyin shu yurtning odatlariga rioya qilib yashaysan-da! Qo'lingdan boshqa nima ham kelardi?

Marvning chekkasidagi sho'r bosgan keng maydonda juda ko'p odamlarning bir joyga yig'ilishib turganini ko'rishdi. Otliqlar ularga yaqinlashganlarida itlarning vovullashi, akillashi eshitila boshladi. Ko'p itlarning baravar vovullashi odamlarning shovqinini bossa, birdaniga odamlarning his-hayajon aralash baqirishlari itlar ovozini bosib ketardi.

Bu joyda nima bo'layotganini Blokvil yonidagilardan so'ramasdanoq fahmladi. Odamlar it urishtirib, itlar jangini tomosha qilishayotgandi. Sharq xalqlarining urf-odatlariga farang ba'zan qoyil qolsa, ba'zilarini yoqtirmasdi. Ayniqsa, unga ma'qul bo'lmaganlari orasida eng jirkanchlisi— odamlarning it urishtirishi. U bunday voqealarni Tehron markazida, Mashhad chekkasida, Xurosonning keng maydonlarida ham ko'rgan. Tutqun it urishtirib odamlarning lazzat ola bilishlarini hech fahmiga sig'dira olmasdi. Ikkita it urishdi nima-yu, mana shu odamlarning o'z bolalari urishdi nima — baribir emasmi?

Hayot qiziq, ko'p holatlarda bir narsani ko'rishni xohlamasang, shu narsa qayta-qayta senga duch kelaveradi. Blokvil ham o'zi

istamagan holda ko‘p jirkanch voqea-hodisalarning majburiy tomoshabini bo‘lib qoldi. Mana, uning xo‘jayinlari ham otlarini it urishtirilayotgan maydonga burishdi.

Qo‘ng‘irliklar ot ustida o‘tirganlari sabab, o‘rtada sodir bo‘layotgan voqeani odamlar ustidan ham bemalol ko‘rishardi. Ana ikkita bir-biriga o‘xshash, kallalari kichkina qozonday, oyoqlari yo‘g‘on-yo‘g‘on bahaybat itni oldinga yetaklab, o‘rtaga chiqarishdi. Keyin ularni bir-birlariga olqishlab iplarini yechib yuborishdi. Ikki oyoqli egasining ko‘nglini ovlashni istagan to‘rt oyoqli jonivorlar bir-biriga tashlandi. Suyak kemirib egovlangan o‘tkir tishlar bir-birlarining tanasini tishlab uza boshladi. Ikkita itning ham iyagidan qirmizi qonlar yerga tomchilay boshladi. Itlarning birisi bosib, birisi turib, uzoq vaqt bir-birlarini tishlashdi. Axiri, itlarning biri yengilganini tan oldi. Biroq unisi tishlashni to‘xtatmay hamon mag‘lubni ezib tilkalamoqda.

Hayvonlar urishidan e’tiborini odamlarga qaratgan Blokvil endi yig‘ilganlarni ko‘zdan kechira boshladi. Katta-kichik barcha odamlar ikkita to‘rt oyoqli hayvonning bir-birini vahshiylarcha tishlashidan, azob berishidan lazzatlanishardi.

Yengilganini sezdirgan itning egasi endi mukofot ololmasligini bilib, o‘z itining ham yanchilib, tilkalanib yotishini istamay, mag‘lubiyatini tan olib, itlarni ajratishni so‘radi.

It urishiga hakamlik qilayotgan odam ikki qo‘lini yuqoriga ko‘tarib, bor ovozi bilan baqirdi:

— Odamlar! Avazkeldi bukrining[1] iti g‘olib bo‘ldi, hoy, eshitdilaringmi?

Hakam uchun Avazkeldiningmi yoki yana bir boshqasiningmi iti g‘olib chiqqanligining sira farqi yo‘q edi. Unga ikki hayvon urishib, bir-birini g‘ajisa, titkilab tashlasa, qon to‘ksa — bo‘lgani.

Avazkeldi bukri deb nom olgan kishiga bir kiyimlik mato mukofot sifatida berildi. Shundan keyin Muhammadavaz polvon otining jilovini silkdi. It urishi tomoshabinlari orqada qoldi. Biroq ular bilan yo‘lovchilar orasi qancha uzoqlashsa-da, odamlarning shovqini, baqir-chaqir itlarning ovozi uzoq vaqtlargacha quloqqa chalinib turdi.

---

[1] **Bukri** — bu yerda urug‘ nomi.

Jimgina kelayotgan Muhammadavaz polvonning so‘z boshlashiga it urishi sabab bo‘ldi.

— Ko‘rdingmi, farang mulla? Inson ikkita itni urishtirdi. U jonivorlarning biri qon to‘ksa-da, mukofot ololmadi. Boshqasiga mukofot berildi. Shu it jonivorga o‘sha matodan biror narsa tikiladi deb o‘ylaysanmi?

Polvon og‘a o‘z savoliga o‘zi javob qaytardi.

— Aslo, tikilmaydi! U matoni itni urishga yetaklab, uning qoni to‘kilishiga sababchi bo‘lgan odamning xotini kiyim qilib kiyadi. Ana senga bu hayotning telba-teskariligi. Bular-ku, it ekan. Turmushda-chi, odamlarni urushga undagan, yo‘naltirgan odamlar ham ko‘ylak kiyishadi, mukofotlar olishadi! Halok bo‘lgan odamlarning terisi uning uchun matoga aylanadi. Ana senga, bu dunyoning bevafoligi!

Oqsoqolning aytganlari haq. Biroq bu so‘zlarning o‘ziga qanday daxldorligini Blokvil tushunolmay turdi. Yoki yoshulli ham meni mana shunday to‘yona kiyganlardan biri deb hisoblayotganmikan? Balki shundaydir. Eh, oqsoqol, oqsoqol! Ana shu urush tufayli mening kiygan to‘yona kiyimlarim vujudimga o‘t bilan olov bo‘lib tegayotganini, siz bilishingiz lozim-ku, axir?! Siz aqlli va hushyorsiz-ku!

Blokvilning taxminiga ko‘ra, Muhammadavaz polvon xon huzuriga boradigan yo‘lni juda yaxshi biladi. Chunki u hech kimdan borishlari kerak bo‘lgan manzilni so‘ramay, to‘g‘ri qal’aning kun botar tomoni oxiriga borgach, o‘ng tomonga qayrildi. Har joy-har joyda o‘tkir quyosh nuri ostida rangi so‘lgan qo‘ziqorinday ko‘rinib turgan qora uylar yonidan yurib, Murg‘ob daryosi qirg‘og‘iga chiqishdi.

Daryoga yetishgach, Hamza Mirzaning topshirig‘iga ko‘ra chizgan xaritalarini ko‘z oldiga keltirgan kapral hozir qayerda turganliklarini darhol aniqladi.

Daryoning chap qirg‘og‘ida Burkaz qishlog‘i, o‘ng qirg‘oqda esa Ko‘kcha qishlog‘i joylashgan edi. Eron qo‘shinlari daryoning chap qirg‘og‘ini yoqalab, shu yerdan Qorayop tomonga o‘tgani ham esida. Muhammadavaz polvon esa o‘ng qirg‘oq yoqalab, kunbotar tomonga yurdi. Biroq u Blokvil taxmin qilgan qishloqqa

yetmay, daryodan uncha uzoq bo'lmagan joyda kichkina qishloq ichiga qarab otini niqtadi.

Mana shu qishloq Qo'vshutxon va uning qorindosh-tug'ishganlari yashaydigan maskan edi.

Qatorlashib turgan uylar chekkasidan yurib qishloqqa kirishgach, Blokvil ulug' xon uyining qaysi ekanligini taxmin qila boshladi. O'rtaroqda, boshqa uylardan o'zining dabdabasi bilan ajralib turgan oq uy oldida boshqa xonadonlardan tafovut qiladigan g'ishtlik ayvon bor edi. Farang o'sha uyni xonning uyi deb taxmin qildi. Darhaqiqat, u adashmagandi.

Ayvonli joydan o'ttiz-qirq qadam uzoqlikda otlar, eshak va xachirlar bog'lanadigan maxsus qurilmada besh-olti ot bog'liq turardi. Bular ham o'sha uyning xon xonadoni ekanligidan guvohlik berardi. Otlarning barchasi egarlangan holda. Ushbu holat — ulug' xon yoniga ish-tashvish bilan kelgan odamlarning bu yerga uzoq o'tirish uchun kelmaganligidan dalolat berardi. Farangning bu taxmini ham rost chiqdi. Shu damda ulug' xon uzoq qishloqlardan kelgan yoshullilar bilan suhbatlashib o'tirgandi.

Qo'ng'irdan kelgan odamlarning oldidan chiqqan yosh yigit ular bilan salomlashdi-da, otlarni qayerga bog'lash mumkin bo'lgan joyni ko'rsatdi. Keyin u mehmonlarni oq uyga taklif qildi.

— Hozir ulug' xon og'amiz band. Men unga kimlarning kelganini aytayin? — dedi yosh yigit kelganlarning savollariga javob berarkan.

— Sen inim, xonga Qo'ng'irdan Muhammadavaz polvon keldi degin. Yonida ikki nafar hamrohi ham bor deb ayt.

Yosh yigit chiqib ketgach, Blokvil silkma telpagi ostidan uy ichini ko'zdan kechirdi. Ichkarida odamni hayratga soladigan o'ziga xos hech narsa yo'q. Uning ilk nazari ustunda osig'liq turgan egri qilichga tushdi. Qilich qini o'ymakor bezaklar bilan bezalgandi. Qo'vshutxon ana shu qilich bilan otga minarmikan-a? — degan fikr tutqunning xayolidan o'tdi.

Yosh yigit qaytib kelganida, uning qo'lida chinni katta choynak bor edi. U choynakni saksovul o'ti lovullab yonib turgan o'choqning chekkasiga qo'ydi-da, yonboshda turgan tuya junidan to'qilgan dasturxonni o'rtaga yoydi.

— Og'alar, qo'llaringizni yuvasizlarmi?

— Albatta yuvamiz, — deb Muhammadavaz polvon uch odam o'rniga yolg'iz o'zi javob qaytardi.

Yosh yigit o'choq boshida turgan chovgumni oldi va eshikka yaqin turgan mis idishni ko'tarib, mehmonlarning qo'llariga birma-bir suv quyib chiqdi...

Uch odam dasturxon atrofida o'tirdi. Blokvil tuya junidan to'qilgan dasturxonni Egamurodning uyiga kirgan paytida ko'rgan edi. Biroq naqshlar bilan to'qilgan bunaqa chiroyli dasturxonni u birinchi bor ko'rib turishi. Shu sababli o'z xatti-harakatini turkmanlar qanday qabul qilishlari haqida o'ylab ham o'tirmay, dasturxonni ehtiyotkorlik bilan silab ko'rdi.

Uning harakatlariga ko'z tashlab o'tirgan yoshulli:

— Buning otini dasturxon deyishadi, mulla farang, — dedi. — Ba'zan sochoq ham deb atashadi. Yaxshi o'rab qo'yilsa, uning ichiga chumoliga o'xshash hasharotlar kirolmaydi. O'zi ham tuya junidan to'qiladi.

— Nima uchun faqat tuya junidan? Boshqa hayvonlarning junidan to'qilsa bo'lmaydimi?

Yoshulli jilmaydi.

— To'qisa bo'laveradi. Biroq tuyaga Xizr nazari tushgan mol deyishadi. Muhammad payg'ambarimiz ham uni juda ma'qul ko'rganlar. Keyin uning o'zi ham eng halol mol sanaladi.

Javobdan ko'ngli to'lgan Blokvil boshini qimirlatib qo'ydi.

Tuya junidan qilingan sochoq ochilgan zahoti issiq nonning yoqimli hidi burniga urilgan farangning ishtahasi yurishib, og'zida beixtiyor so'lak paydo bo'ldi.

— Bismillahir rohmanir rohim! — deb dumaloq nondan ikki to'g'ram sindirib olgan yoshulli Blokvilga ham uzatdi. Faranglik shu joyda yoshullining harakatini takrorlashi, nondan ikki to'g'ram sindirib, uni Egamurodga o'tkazish kerakligini bilardi. Biroq hozir u odatni tushunmagan kishi bo'lib, nondan katta bo'lakni sindirib oldi. Egamurod og'asining yuziga qaradi.

Blokvil hozir kimdir o'ziga biror tanbeh so'z aytsa kerak deb o'ylagan edi. Lekin hech kim indamadi. Yoshulli ham hech narsani ko'rmaganday jim o'tiraverdi.

Oq bug'doydan mazali qilib yopilgan non tutqunning og'ziga juda yoqib ketdi.

— Mulla farang, choydan ham ichib o'tir.

Blokvil oqsoqolning ko'ngli uchun piyolaga qo'lini uzatdi. Bo'lmasa bu vaqtda uning ishtahasi choyni emas, oq nondan yana bir katta bo'lakni xohlayotgandi.

Biroq u o'zining oldingi harakatini takrorlamaslik uchun vujudida kuch topa oldi.

Chiroyli naqshlar bilan to'qilgan dasturxon mazali oq nonni o'z qanotlari ostiga bekitdi.

— Qani, mulla farang, o'tganlarning xotirasini eslab, Qur'on tilovat qilaylik endi!

... O'choq boshida cho'kka tushib, kelganlaridan buyon farangga ko'z qiri bilan nazar solib o'tirgan yosh yigit tilovat o'qib bo'lingach, dilidagini tiliga chiqardi.

— Mulla farang deganingiz, og'am, qojorlar bilan kelgan azayimxon emasmi, o'zi?

— Azayimxonmi, azayimxon emasmi, unisini bilmadim. Biroq uning o'zi o'sha qojorlar bilan kelgan farang ekanligi aniq.

— Unday bo'lsa, bu farang xuddi o'sha azayimxonning o'zi! — deb yosh yigit asirning egalaridan ham ko'p narsani biladiganday ishonch bilan gapirdi.

— Azayimxon bo'lmasa, uch oylab uxlay olmagan xastani uxlata olmas edi, axir! Sultonizdan bir yigit ana shu azayimxonning duosidan sog'aydi. Hozir u xotirjam uxlayapti. O'zi u yigit bizlarning uzoqroq jiyanimiz edi. Shu sababli men uni yaxshi bilaman. Bo'lmasa, rahmatli usta Bozirgan ham o'zi bilgan kuchli tabibga uni olib borgan ekan. Biroq nafi tegmagan. Farang azayimxonning duosi uning dardiga shifo bo'ldi.

— Usta Bozirgan vafot etdilarmi? — deb so'radi yoshulli.

— Ha, — deb yosh yigit yerga qaradi. — U faqir Qorayop kurashida dunyodan o'tdi.

Muhammadavaz polvon bir nima demoqchi bo'ldi. Biroq eshikdan kelgan xabarchi salom bergach:

— Ulug' xon sizlarni kutyapti! — dedi.

Qo'ng'irliklar oldi ayvonli uyga o'tishdi.

Qo‘vshutxon mehmonlar bilan omonlashgach, Muhammadavaz polvonga qaradi.

— Polvon og‘a, sizni ham ko‘rish nasibamizda bor ekan! So‘-rang!

— Navbat xondandir!

— Xon bo‘lsak ham, navbat sizdan bo‘ladi, polvon og‘a!

Blokvil turkmanlarning bir-birlari bilan uchrashganlarida sog‘-lik-omonlik so‘rashib takror ishlatiladigan an’anaviy gap-so‘z-lariga yana bir bor shohid bo‘ldi.

Muhammadavaz polvon nima maqsad bilan kelishganini xonga atroflicha bayon qilib berdi.

Ularni diqqat bilan eshitgan Qo‘vshutxon, Sen nima dey-san? — degan ma’noda Blokvilning yuziga savol nazari bilan qa-radi.

Xon nazarining ma’nosiga tushungan Blokvil dedi:

— Muhtaram Qo‘vshutxon janoblari! Boshingizda el-yurt tashvishi, sizga qarashli joylarda minglarcha tutqun borligiga qa-ramay, meni huzuringizda qabul qilganligingiz uchun sizga o‘zim-ning minnatdorchiligimni bildirishga ijozat bergaysiz. Men buni o‘zimning sizga qarshi bo‘lmagan davlat fuqarosi bo‘lganim bilan izohlayman. Mening buyuk davlatimga e’tibor berib, arz-holimni eshitayotganingiz uchun sizga salomatlik tilayman...

Farang o‘zining umr bayonini uzundan uzoq so‘zlar bilan ba-yon etmoqchi deb taxmin qilgan Qo‘vshutxon, uning o‘z so‘zida biroz tin olganligidan foydalanib:

— Men sizning to‘g‘ringizda eshitdim, — dedi.— Abdalbek degan kishining Mashhaddan olib kelgan javobidan ham xabar-dorman. Albatta, bunday ikkiyuzlamachilik shoh Nasriddinning dastlabki beburdligi bo‘lsa edi, biz undan hayron qolardik. Shoh Nasriddinning mo‘tabar hisoblangan muhri ham xuddi o‘z qalbi singari va’dasiga vafosizdir. Biz uning shunday ekanligini oldin ham bilardik. Ayniqsa, Eronga taklif qilingan sakson nafar turk-man oqsoqollarining soqollari oq ekanligiga ham e’tibor qilmay, vijdonsizlarcha ish qilganidan buyon esa...

Ulug‘ xonning Abdalbekkacha barcha narsalardan voqifligiga ko‘zi yetgan Blokvil endi o‘zining kimligini bayon etishning hoja-

ti ham yo‘qligiga amin bo‘ldi. U so‘zni qisqa qilib, o‘zining oxirgi maqsadini bayon etishi lozim edi.

— Muhtaram Qo‘vshutxon! — deb u juda dadil gapirdi. — Shoh muhrining ikkiyuzlamaligini bilgan xon shoh bo‘lmagan odamning so‘ziga ishona oladimi?

— Bizning uncha katta bo‘lmagan elimiz belining kuch-qudrati — shohdan farq qilgan sodda, vatanparvar fuqarolarimizning ahdida qat’iyligi va bizning ham unga ishonmog‘imizdadir.

— Unda marhamatli xon, ana shunday shohdan tafovutlanganlardan biri bo‘lgan menga, ya’ni Fransiya davlatining vakiliga sizning yordam berishingizni so‘rayman.

Qo‘vshutxonning savolomuz nazari Blokvildan izoh talab qildi.

— Siz mening quruq so‘zimga, albatta, ishonmaysiz. Ammo sizning ishonishingizga umid qilaman, men turkman xalqiga yoki turkman xoniga xiyonat qiladigan odam emasman. Bu yurt tuprog‘iga qadam qo‘yishim mening qismatimda bor ekan. Men Fransiya hukumati nomiga Marv viloyati Ulug‘ xoni nomidan ahvolni to‘la bayon qilib noma yozilishini ma’qul bilardim. O‘sha noma mening siz bosh bo‘lgan yurtdagi asirlik muhlatimni qisqartirar va to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘ning kelish vaqtini tezlatardi.

Qo‘vshutxon jimgina o‘ylanib o‘tirdi. Bu sukunatning har soniyasi Blokvilda asirlikdagi o‘tgan har bir kuniga barobar keladigan tuyg‘u uyg‘otdi. Nihoyat, taka turkmanlar xoni farang asirning ruhini cho‘ktirmaydigan so‘zlar bilan gapira boshladi.

— Avvalo, ikkiyuzlamachilik qilinmay yoki so‘rab olinmagan fuqaro uchun ulug‘ davlatga bizning xat yozishimiz asossizroq bo‘lishi mumkin. Undan tashqari, ulug‘ davlatning fuqarosi Marv xoni bilan emas, Eron shohi bilan kafolatnoma tuzgan. Shunga asoslanadigan bo‘lsak, ulug‘ davlatga xatni biz emas, balki kafolatnoma bergan shoh yozsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Oxirgi so‘zim — biz seni o‘z diyorimizga mehmondorchilikka taklif qilmaganmiz. Biz sening uyingga yotgan ustiga turgan kelmasin qilib bostirib, qo‘lingni bog‘lab bu yerga olib kelgan emasmiz...

Qo‘vshutxon shundan boshqa gap aytsa yoki aytmasa ham xulosasining eng so‘nggi nuqtasini qo‘ygani barchaga tushunarli bo‘ldi. Ana shu nuqta ham Blokvilning oylar davomida kutib kelgan tanho orzusining ustiga o‘zining qora qanotini yopdi. Bu qanotni shu tevarak-atrofda olib biladigan yakka odam — Qo‘vshutxon bor edi. Uning yuziga ham endi umid bilan qarab bo‘lmasdi. Chunki asir orzusini yo‘q qilgan ham uning o‘zi.

Ajabo, kutilmagan javobni olgan Blokvil faqat shuning uchun kelganmidi? U o‘zining orqasida Eron, Afg‘oniston kabi davlat emas, balki ulardan juda baland hamda qudratli bo‘lgan ulkan imperiya turganligini ta’kidlab, turkman xonining o‘ziga nisbatan munosabatini o‘zgartirmoqchi bo‘ldi.

— Marhamatli xon, siz Fransiyaning qanday davlat ekanligini eshitgandirsiz. Mening o‘zim ham, turkmancha aytsam, shoh ko‘shkiga taalluqli xonadon farzandiman.

Blokvilning qurmoqchi bo‘lgan siyosatiga allaqachon tushunib yetgan Qo‘vshutxon gapga yarasha javob aytishni ma’qul topdi.

— Biz odamlarga ko‘shkka yaqin-uzoqligiga qarab narx qo‘ymaymiz. Biz qo‘limizga tushgan dushmanning barchasiga asir deb qaraymiz.

Blokvil ulug‘ xondan bunday qat’iy javob olishini kutmagandi.

— Shunday bo‘lsa-da, o‘zingizga dushman bo‘lmagan davlat fuqarosidan dushman yasash kerak emas, marhamatli xon!

— Biz yo‘q joydan o‘zimiz uchun dushman yasash niyatida emasmiz. Turkman uchun ming do‘st oz, bir yog‘iy ko‘pdir.

Blokvil bu xon bilan dahanaki kurashda teng bo‘lolmasligiga ko‘zi yetdi. Ammo berilgan javobni olib ketavergani bilan sharoitining yaxshi bo‘lmasligini ham u bilardi. Shu sababli nima qilib bo‘lsa-da, xonga o‘z ta’sirini o‘tkazishi kerak edi. Uning ta’sir deb tutingani ham o‘z davlatining buyukligi edi. Asir bilan xon o‘rtasidagi tushunmovchilik ham har ikkalasining o‘sha bir narsaga o‘zlaricha turli baho berishlaridan iborat edi. Blokvil Eron davlatining fuqarosi emasligi sababli o‘zini turkmanlarga dushman hisoblamasdi. Turkmanlar esa uni boshqa davlatning fuqarosi ekanligiga qaramay, o‘z dushmanlari orasida ularga yordamchi

bo‘lib kelganligi sababli dushman sanashmoqda. Mana shu nozik, ammo o‘ta ahamiyatli farqni fransuz kaprali turkman xoniga tushuntirolmay halak.

Eshikda paydo bo‘lgan yosh yigit:

— Xon og‘a, Axaldan mehmonlar kelishdi! — deya turgan joyidan xabar aytdi.

Ulug‘ xon yigitning so‘ziga qaramay:

— Qarindoshlarning otini bog‘lang-da, non-choyiga xizmatda bo‘ling! — dedi. Yosh yigit chiqib ketgach, u yana Blokvilga qaradi. — Biz seni o‘zimiz uchun dushman hisoblamaymiz. Turkmanlarga qarshi qilich yalang‘ochlamaganingga ham ishonamiz. Ammo dushmanimizga do‘st bo‘lib, ustimizga kelgan odamni o‘zimizga do‘st deb bilsak, biz qanaqa odam bo‘lamiz? O‘zing o‘ylab ko‘r. Bundan tashqari, men xon bo‘lsam-da, eshigimda asir saqlamayman. Men xon hisoblansam-da, uyida tutqun saqlagan odamlarga ularni ozod qiling deb ham ayta olmayman. Dushman asirga aylangani bilan, u do‘st bo‘lib qolmaydi. Dushmanni yenging deb el-yurtga yolvorgan xon, qon to‘kib g‘alaba qozongan yurtdoshlariga dushmaningizni bo‘shating deb ayta olmaydi. Bu endi el-yurtning o‘z ishidir.

Qo‘vshutxon so‘nggi so‘zim shu, deganday gapini tugatdi. Bunga tushungan faranglik asir yana eski haybatli ohangiga qaytdi.

— Men sizning atrofingizga siyosat to‘rini yoymoqchi emasman, marhamatli xon. Lekin siz mening buyuk Fransiya davlatining farzandi ekanligimni aslo esdan chiqarmang.

Blokvilning dag‘dag‘ali ohangi Qo‘vshutxonning yuragini tirnadi. Shunday bo‘lsa-da, ulug‘ xon Blokvilga qarab:

— Shu so‘zingni men uchinchi marta eshityapman,— dedi. — Bilaman, sen o‘z buyuk davlating farzandisan. Unga ham men ishonaman. Ammo sen ham bizning kichkina yurtimizning tog‘ ekanligiga ishon. Qancha kuchli bo‘lmagin, tog‘ni shox bilan suzib ag‘darib bo‘lmaydi demoqchiman senga...

O‘z siyosiy hujumining ham hech qanday natija bermaganiga har tomonlama ko‘zi yetgan Blokvil Qo‘vshutxonning so‘nggi so‘zlari qarshisida yana noiloj qoldi.

48

Shariat qonunlarini so'zsiz bajarganliklariga qaramay, men bo'lgan va ko'rgan boshqa Sharq xalqlari bilan taqqoslaganda turkmanlarda diniy fanatizm bilan maqtanish mavjud...

Jorj Blokvil xotiralaridan

Bahor kirishi bilan kechalar qisqarib, kunduz kunlari uzaygan bo'lsa, Blokvil uchun aksincha bo'ldi. Oftob botishi bilan izi ko'rinmagan uzun kechalarni o'tkazish unga nihoyatda qiyin edi. Kunduz kunlari nima bo'lsa-da, harna biror yumush topiladi. Farangning iltimosi bilan Egamurod qo'ng'ir uning qo'liga belkurak topib berdi.

Bahor havosida orqa yelkalarini terlatib ishlagan tutqunning harakatlari ancha yengillashdi. Oldin dehqonchilik nima ekanligini bilmagan kapral belkurak bilan yer ag'darishni, egat tortishni o'rgandi. U ikki haftaning ichida bir tanob yerni ag'darib chiqdi. Shunday bo'lsa-da, kechqurunlari yana ichki zerikish davom etardi.

Keyingi paytlarda tunlari to'rt-besh soatdan ko'p uxlay olmaydigan Blokvil o'z sog'lig'idan xavotirlana boshladi. Paydo bo'lgan bosh og'rig'i o'z vaqtida ketmaganligi sababli, miyasiga zarar yetdimikan deb qo'rqa boshladi. Tashvish, o'y-xayol, orzu — uyquning ko'p qismini o'z tomoniga ag'darib, o'tkazib olgandi. Orzu-umiddan yaqqol ko'rinib turgan natija chiqmasa-da, farangni omon saqlab turgan narsa — ana shu orzu-umid. Bir qilgan orzusi amalga oshmasa, keyingisiga belini bog'laydi. U o'zi boshlagan ishning nihoyaga yetishini, manaman degan hukmdorlarning ham vafot etishini, bahaybat ko'shk va saroylarning xarobaga aylanib, qum-tuproq tagida qolib ketishini esiga tushiradi. Shu tarzda jabr-jafoli haqiqat bilan shirin-shakar orzular o'rtasidagi Xudo bergan umrini cho'zishga harakat qiladi.

Bugun uni xo'jayinlarining qarindoshlaridan biri iltimos qilib olib ketdi. U Egamurodlarnikidan uch xo'jalik uzoqlikda, kunchiqar tomonda yashaydi. Farang tutqun qoramag'iz kishining

orqasidan ergashib borar ekan, boshidan kechirib turgan voqealar haqida o'ylanib, ma'yus jilmaydi. Qandaydir bir yarim chorvador, yarim dehqon odam fransuz armiyasining kapralini, ulug' davlatning harbiy mutaxassisini iltimos qilib kelgan qarindoshiga yordam berish maqsadida jo'natib yubordi. Yana deng, mehmondorchilikka emas, hayvon qatorida ishlatish uchun yubordi. Undan tashqari, u o'sha ishga ko'nish-ko'nmasligini mag'rur kapraldan aqalli so'rab ham o'tirmadi. Blokvilning endilikda o'z so'zi, o'z fikri bo'lishi ham shart emas, xo'jayinlari nima desa u shuni bajarishi kerak, vassalom. Boshqa yo'l, o'zga najot yo'q. Ana, qismat bilan, yengiltaklik bilan o'ynashsang, shunaqa ahvolga tushasan! Mehribon onangning yolvorishlariga quloq solmasang, ko'z yoshiga rahm qilmasang, yuragidan sizilib chiqqan so'zlarini tinglamasang — toleying shunday bo'ladi! Mana shu joydan o'lmay qutulsang, to so'nggi daminggacha onangni boshingga toj qilib yursang ham ozdir, muhtaram janob Jorj Blokvil!

Egamurodning qarindoshi farangni yerto'la qazdirmoq uchun so'rab keltirgan ekan. U asirning qo'liga belkurak bergandan keyin, xo'jayinlarcha ovozini balandlatib buyruq berdi. Uning ishga kirishganini ko'rgach, o'z uyiga kirib ketdi.

Blokvil uy egasi qaytib kelguncha, unga yangi topshiriq berilgunga qadar ishlab turishi kerak edi. Hayot, turmush deb nom olgan yolg'onchi dunyo inson farzandini hamma narsaga ko'nikishga majbur qilar ekan.

Blokvil, mana molxona yonida, go'ng-tezaklar hidi anqib turgan sassiq havodan nafas olib ishlashga majbur bo'lmoqda. Hozir uning bajarib turgan ishini harbiy hamkasblaridan biri ko'rib qolsa, ko'ziga ishonmagan bo'lardi.

Ko'p o'tmay, tevarak-atrofni yorib chiqqanday yetib kelgan yosh-yalanglar farang tutqunning ishlayotgan joyini qurshab olishdi. Ular yonboshda yotgan uzun yo'g'on terakning ustida tizilib o'tirib, asirga tikilib qaray boshlashdi. Bolalarning deyarli barchasi qoramag'iz, ust-boshi juldur edi. Ularning o'tirishlariga ko'zi tushgan Blokvil beixtiyor jilmaydi. Yo'g'on yog'och ustida o'tirgan bu bolakaylar unga uyasining chekkasida tizilib o'tirgan qaldirg'och bolalarini eslatdi.

Yerto‘lani qazishning yarmiga yetar-yetmas, biroz nafasini rostlab olmoq uchun tutqun chuqurdan chiqdi.

— Seniki isming nima?

— O‘g‘iljahon, — deb o‘rilgan kalta sochlari dikkayib turgan yetti yoshlar atrofidagi qizaloq javob berdi.

— Sen o‘g‘il emas, sen qiz.

— Mening ismim O‘g‘iljahon. O‘zim qizman. Voy, anovi odamni! Ha-ha-ha...

— Voy, unga o‘g‘il bola dedimi-ey?! — deb ko‘zlari chaqnab turgan bolacha shovqin-suron bilan so‘zladi.

— O‘g‘il bola bilan qizni tanimas ekan-da, bu odam.

Blokvil bolalarga diqqat bilan tikildi. Ular bir-birlariga mutlaqo o‘xshamasdi, har biri o‘ziga xos bir olam edi. Yuz ko‘rinishlari ham diqqat bilan qarasang, nihoyatda o‘ziga xos qiyofaga ega. Tutqunda ularning suratini chizish havasi paydo bo‘ldi. U besh-o‘n qadam uzoqlikda turgan tandirga qarab oldi va bitta bolaga buyurdi.

— Bor, ko‘mir olib kel menga!

Farang g‘alati ohang bilan gapirsa-da, bolalar tushunishdi.

— Ko‘mir olib kel deyapti!

— Ko‘mirni nima qiladi bu?

Yumush buyurilgan bola o‘rnidan dik etib sakrab turdi-da, yugurib borib tandirning yonida yotgan yog‘och kosovni olib keldi.

Blokvil belkurakning uch tomoni bilan kosovning bosh tarafini ingichkaladi. Sal o‘tmay po‘stlog‘i maxsus shilib olingan yo‘g‘on terakning yuzida o‘rilgan sochlari uloqchaning shoxiday dikkayib turgan qizaloqning shakli paydo bo‘ldi. Rasm qizchaga juda o‘xshaydi, qizaloq va bolalar unga hayron bo‘lib, juda xursand bo‘lishdi hamda qo‘llarini bir-biriga urib chapak chalib yuborishdi.

Blokvil bolakaylardan bittasining kaftini ochib, kosovning uchi bilan uch-to‘rt marta u yoq-bu yoqqa chizgan edi, birdaniga uning yonboshga qarab turgan surati paydo bo‘ldi. Oldinga chiqib turgan burun, lab, og‘iz, shalpangquloqlar quyib qo‘yganday bolaning o‘ziga o‘xshardi. Bu rasm ham bolalarning shovqin ko‘tarishlariga sabab bo‘ldi.

Yosh-yalangning qiy-chuvini eshitib uy egasi tashqariga chiqdi.

Yo‘g‘on terakka chizilgan shaklni ko‘rib, Egamurodning qarindoshi ham jilmaydi. U oldin suratga, keyin qizaloqqa bir necha bor qaradi. Oxir-oqibat jilmayishni jiddiylikka aylantirib:

— Sen, farang mulla, insonning suratini chizish man qilinganligini bilmasmiding? — dedi. Blokvilning yuziga so‘roq ohangida qarab yana so‘zida davom etdi. — Bu dunyoda odam suratini chizsang, u dunyoda joningdan jon berasan unga. Sen musulmonchilik qonun-qoidalarini bilmas ekansan.

Blokvil musulmon bo‘lmasa ham musulmonchilikning ayrim qonun-qoidalaridan xabardor edi. Bundan tashqari, yangi xo‘jayindan past kelishni istamay:

— Men u dunyoga borganimdan keyin jonimdan jon berishga tayyorman, xo‘jayin! — dedi.

Tutqunning so‘zi Egamurodning qarindoshiga ma’qul bo‘lmadi. Uning jahli chiqdi.

— Joningdan bu qadar bezor bo‘lsang, suratni o‘z yurtingga borganingda chizaver. Bizning elimizda bunday gunoh ish qilma. Sen kabilarning gunohlarini ko‘tarib yurguday o‘zimiz ham oqqush emasmiz.

— Surat chizish gunoh emas, xo‘jayin. Qur’on kitobida ham surat chizish man qilinadi degan yozuv yo‘q...

Oxirgi so‘z turkmanning nihoyatda jahlini chiqardi. U qovog‘ini uyib, bepisand ohangda do‘q aralash gapirdi.

— Sen Qur’oni karimga asoslanib, gunohsizman deb o‘ylama! Sen bu yerga surat chizib, odamlarni kuldirishga kelmagansan. So‘zingni kalta qil-da, belkurakka yopish! Tushundingmi? Bizga aql o‘rgatmoqchi bo‘lganiga qara, bu bachchag‘arning...

O‘zing asir bo‘lgach, aytilganini qilishga majbur ekansan. Javobi qancha ma’noli bo‘lmasin, nafi tegmasligi aniq bo‘lgach, tutqun yana chuqurga tushdi.

Turkmandan qo‘rqqan bolakaylar ham to‘rt tomonga qochib ketishdi...

49

Olib qochishga kelganlarning qo'liga tushmay, bir balodan qutuldim degan Blokvilning boshiga endi boshqa tashvish tushib qoldi. Bu balo — yoningda xurrak tortib yotganlari bilan ham, qo'lingga o'qsiz to'pponcha berganlari bilan ham daf bo'ladigan ofat emasdi.

Oqmorol homilador emish degan yoqimsiz xabar butun qishloqqa yoyilgandi. Bu voqeaning sababchisi deb, hamma farang tutqunni o'ylashardi.

Oqmorollarning hovlisida begona erkak ko'rinmasligini hisobga oladigan bo'lsak, homiladorligining sababi ham darhaqiqat bir nuqtaga borib taqalardi — bu nuqta ham Oqmorol bilan doimo ko'rishib, gaplashib yuradigan Blokvil.

Qo'juqning bog'idan tabib olib kelganlarida bir guruh ayolning ko'zi oldida asirning boshini mehr bilan ushlab turgan ayolning el uxlab, it yotgandan so'ng nimalar bilan mashg'ul bo'lishi Yaratgan Egamning bir o'ziga ayon. Bandasi esa faqat o'z ko'zi bilan ko'rganiga ishonadi. Bandalarning ham ko'rgan-eshitgani Oqmorolning kattalasha boshlagan gavdasi bilan qishloqqa yoyilgan turli mish-mishlar edi.

Quduqdan suv olib ketgan novcha qojor yana Egamurodning hovlisida paydo bo'ldi. Unga ko'zi tushgan Blokvil yangilik eshitish uchun kulbasidan tashqariga chiqdi.

Qishloqning ichida bemalol yurib, kishilar bilan yuzma-yuz so'zlashib yurganidan turkman tilini ham yaxshigina o'rgangan qojor el orasidagi barcha mish-mishlardan xabardor edi. U suv olish uchun kelgan paytida eshitgan xabarlarini, Qo'ng'irdagi bandilarning ahvolini, qachon qanchasining o'z yurtiga ketganigacha Blokvilga aytib berardi.

Bu gal Blokvil qojordan hol-ahvol so'rashga majbur bo'ldi.

— G'ulombek, bugun nega yuzingda xafachilik alomati bor? Yoki xo'jayining bilan munosabating buzildimi?

G'ulomning ovozi tashvishli va qo'rquv aralash edi.

— Yurtimdan uzoqda ekanligimni aytmasam, menda tavshish yo'q, og'abek. Meni xafa qilgan narsa sening tashvishing.

— Ikkalamizning ham dardimiz bir bo‘lsa, nima sababdan mening ahvolim seni ozorga qo‘yayapti?

— Yo‘q, bunday emas, og‘abek. Sening ahvoling og‘irlashmoqda...

G‘ulombek qishloqqa tarqalgan mish-mish haqida aytganida, Blokvilning boshi aylanib ketdi. U beixtiyor Oqmorolning uyi tomon qaradi. Bu mish-mishlar asosida Oqmorol ustidan yog‘iladigan tavqila’natlar haqida o‘yga toldi. Xullas, G‘ulombekning so‘nggi aytgan so‘zlari yaxshilik xabari emas edi.

G‘ulombek gapirishni xohlamayotganday, yana, buning ustiga, odob bilan o‘zini tutgan holda so‘zlay boshladi.

— Men senga o‘z qulog‘im bilan turkmanlardan eshitganlarimni aytyapman, og‘abek. Buning ustiga, biror so‘z ham qo‘shmadim. O‘tgan kecha mening xo‘jayinim o‘z inisi bilan shu haqda so‘zlashdi. Qilingan suhbatning yakuni esa...

Asir qojorning jim bo‘lishi Blokvilni battar xavotirga soldi.

— Nima deyishmoqda? — so‘radi u hovliqib.

— O‘sha ayolni ham, farangni ham bo‘lak-bo‘lak qilib, quturgan itning oldiga tashlashadi endi deyishmoqda. Bu ularning odati emish. Ayol sababli erkakni, erkak sababli ayolni ham o‘ldirishar emish. Men seni qo‘rqitish uchun kelmadim, og‘abek. Seni bu voqealardan xabardor etish uchun keldim. Shariat qonunlari juda qattiqdir, og‘abek. Shularni senga bildirish niyatida keldim. Buning uchun mendan xafa bo‘lma, og‘abek...

Blokvil G‘ulombekning shundan keyingi aytganlarini eshitmadi. U qanday o‘rnidan turganini, oyog‘i bilan qanday qadam tashlaganini sezmay, kulbasiga kirib ketdi. Eski kigizning ustiga o‘tirgandan so‘ng ko‘rgan tushi esiga tushdi. Tehronda ko‘rgan tushi, yarim yildan so‘ng Qo‘ng‘ir qishlog‘ida amalga osharmikan-a? Tushida ko‘rganida Blokvil qop-qora, yalang‘och ayol-ajinalar qo‘lida o‘lgan edi. Endi-chi, chiroyli bir qiz sababli qizning qarindoshlari qo‘lida halok bo‘ladimi-a?

Blokvil bir soat chamasi tashqariga tikilib o‘tirdi. Uyidan chiqsa, Oqmorolni kuzatmoqchi edi. Yonboshdagi uylardan xotin-xalaj, bola-chaqa kirib-chiqib turibdi. Lekin Oqmorol ko‘zga tashlanmadi. Balki u, qishloqqa tarqalgan bu yomon xabardan keyin

tashqariga chiqishga uyalyaptimikan? Musulmon olamida shariat qonun-qoidalariga mahkam rioya qilinsa, unda Oqmorolning boshiga bu xil savdo — sharmandalik qanday qilib tushdi ekan-a? O'limdan qo'rqmaganmikan?

Farang tutqunning barcha taxminlari taxminligicha, barcha savollari esa savolligicha qolmoqda.

Keyingi paytlarda quduqdan suv olishga kelgan qishloq ayollari sonining ko'paygani, hech qachon kelmagan xotinlar ham shu atrofda paydo bo'la boshlaganining sababi ham mana endi Blokvilga tushunarli bo'ldi.

Ana, quduq yonida yana ikki nafar ayol paydo bo'ldi. Qirq yoshlar atrofidagi bu xotinlarni ham Blokvil bugun birinchi marta ko'rib turibdi. Ular quduqqa tomon kelishar ekan, ehtiyotlik bilan Oqmorol turadigan uy tomonga qarab-qarab olishardi. Aslida ularga suv kerak emas. Ayollarga xos qiziquvchanlik ularni bu yerga olib kelgan. Erkaklar ham farishta emas-u, ammo mish-mishlarni, yoqimsiz xabarlarni tarqatishda ayollarning oldiga hech kim tusha olmaydi. Ular barcha yurtlarda bir-birlariga o'xshar ekan. Hatto, Parijdagi oliy tabaqa, asilzodalar davrasidagi ayollar ham atrofdagi xotinlarning aslida kimligini, qayerda qancha o'ynashi borligi-yu, o'sha o'ynashining davlati qanchaligini bilish uchun jonini fido qiladilar. Shularni bilmasalar, aniqlab tagiga yetmasalar, uylarida rohatlanib dam ololmaydilar. Yeganlari ichga tushmaydi. Bundan tashqari, Parijda ahvol butunlay boshqacha. O'ynashing uchun, nikohsiz bola tug'ganing uchun senga yog'ochdan dor tiklashmaydi, albatta. Ammo xotin-xalajning g'iybatlari-chi! Bundan yomon jazo bo'lmasa kerak. G'iybatdan, mish-mishlardan qo'rqmaysanmi — unda maza qilib yashayver!

Suvga kelgan ikki nafar ayol Blokvilning taxminlarini o'zlarining harakatlari bilan tasdiqlashdi. Ular quduqdan suv olsalar ham, idishlariga quysalar ham hech shoshilmasdi. Ularning ikkala ko'zi Oqmorollar uyi tomonga qadalgan edi. Suv olib bo'ldilar ham, ammo ular o'zaro suhbatlashib, uylarida hech qanday yumushlari yo'qday, ketishga shoshilmasdi. Ikkovlon allanimalar haqida ming'ir-ming'ir gurunglashishdi, kiyim-kechaklarini tuzatishgan bo'lishdi.

Ulardan biri farang tutqun kulbasi tomon nazar tashlagach, yonidagiga imlab, bir narsalar dedi. Asir bu imoning ma'nosiga tushundi. Imo gunohkor ana shu kulbada yashaydi desa, ikkinchi imo albatta, shu yerda. Bu qizning qilib yurgan ishlarini ko'r! Musulmon ayol yetti yot kofirning qo'yniga kiribdi-ya? Sharmanda! — deyayotganday...

Suvga kelgan bu ikki bekorchi ayol g'iybatni har qancha cho'zmasinlar, Oqmorolning eshigi ochilmadi. Biroq bu xil ayollar maqsadlariga yetguncha, biridan so'ng ikkinchisi quduqqa kelaveradi...

Eh-ha, bu ikkala ayol ozgina sabr qilishganida maqsadlariga yetgan bo'lishardi. Ular qora uyning orqasiga o'tgan zahot, eshik ochilib Oqmorol uydan chiqdi.

Butun vujudi bilan ko'rar ko'zga aylangan Blokvil Oqmorolni birinchi qadam tashlashidan kuzata boshladi. Uning yurishi, qarashida bezovtalik yo'qday. Biroq u qo'lidagi eski lattani o'choqning boshiga tashlash uchun yaqinroq kelganida, aytilgan g'iybat gaplar... rost bo'lsa kerak, deb o'yladi tutqun. Havo iliq bo'lsa-da, Oqmorol ustiga issiq to'n kiyib olgan, to'n ichidagi gavdasi ancha to'lishib ko'rinardi. Havo iliqligida nima uchun u to'n kiyib chiqdi? Egamurodning xotini tashqari-ichkari kirib-chiqib turganida to'n kiymaydi-ku. Balki Oqmorol o'zining hozirgi holatini yashirish uchun to'nga o'ralmaganmikan? Hozir-ku, mayli, to'n bilan yopasan, yana ikki-uch oydan so'ng nima qilasan, sho'rlikkina? Farang tutqun Oqmorolni shu kungacha ko'p marotaba ko'rgan bo'lsa ham, nima uchun unga diqqat bilan qaramagan ekan-a?!

Oqmorol orqasiga aylanganda tutqun eshitganlarining bari haqiqatga yaqin kelishini aniq sezdi — Oqmorol avvalgiday yengil qadam tashlamas, oyoq olishi og'irlashgan edi.

Nima uchun Oqmorol kulbaga boqmay, orqasiga aylandi? Balki u ham qishloqda tarqalgan xabarlarni eshitgandir? Xabardor bo'lsa, hech bo'lmaganda, gunohkor deb gumon qilinayotgan odam bilan ahvolni maslahatlashib olishi kerak edi-ku, axir?! Gaplashmoqqa unda imkoniyat bor. U bundan uch kun oldin atrof-

da hech kim yo‘qligidan foydalanib, farangga pishirgan unoshisidan bir shokosada ovqat keltirib bergandi. Oqmorolning unga rahmi kelsa kerak, axir?

Savollar Blokvilni jinni qilay dedi. Bordi-keldilar to‘xtab, odamlar uxlashga yotgunicha javobsiz savollar soni ortib boraverdi. Nihoyat, javob topadigan fursat ham keldi. Blokvil bunday qulay fursatning kelishini kutmagandi, bunga ishonchi ham yo‘q edi.

Oy botib, tun allamahal bo‘lsa-da, uxlay olmay o‘tirgan Blokvil uydan chiqib, to‘satdan uy oldida turgan Oqmorolni ko‘rib qoldi. U tashqarida o‘zidan boshqa hech kimning yo‘qligiga amin bo‘lgach, kulba tomonga kela boshladi. Bunday bo‘lishi mumkin emas. O‘tib borayotgan bo‘lsa kerak. Endi u kulbaning eshigidan qarashga ham qo‘rqadi.

Asir adashgandi. Oqmorol o‘tib ketmadi, kulbaning eshigidan qarashga ham qo‘rqmadi. Qaytanga u qadamini to‘xtatmay, kulbaning to‘rida paydo bo‘ldi. Ikki inson qorong‘ilik ichida pichirlab gaplasha boshladilar.

— Siz mening yonimga kelishdan qo‘rqmadingizmi, Ohmorol?

— Men endi hech narsadan qo‘rqmayman, Jorj.

— Bunga sabab nima?

— Eng qiyin narsani o‘lim deyishadi. O‘limdan hamma narsasi bor odamlargina qo‘rqadi.

Blokvil Oqmorolning nima uchun bunday deganini uning hozirgi ahvoli bilan bog‘ladi.

— Bu gapingiz to‘g‘ri. Og‘ir kundan o‘lim ham yengil. Biroq siz hali juda yoshsiz. Umrni o‘tkazish, hayotdan lazzat olishingiz kerak. Erkin odam turmushdan lazzat ola bilmasa — uning o‘zi gunohkor.

Farangning naq qarshisida, somonning ustida o‘tirgan Oqmorolning chuqur xo‘rsinib nafas olgani eshitildi.

Ojizaning bu harakati Blokvilning aytgan so‘nggi so‘zlariga bildirgan javobi edi.

— Turmushda lazzat yo‘q, azob-uqubat bor.

O‘rtaga yana jimlik cho‘kdi. Oqmorolning hozirgi holati, og‘zidan chiqqan hasratli so‘zlar tushunarli bo‘lgani uchun ham

tutqun sukutga cho‘kdi. Shu sababli, sharoit bilan bog‘liq bo‘lmagan:

— Ohmorol, siz necha yoshdasiz? — degan savoli o‘rinsizday bo‘ldi. — Bizning elda ayollarning yoshini so‘rashmaydi. Biroq hozir...

— Har elning o‘ziga xos urf-odati bo‘ladi. Bo‘lmasa, yoshni so‘rash ayb emas-ku? Men yigirma to‘qqiz yoshdaman. Siz necha yoshdasiz?

— Men ming sakkiz yuz o‘ttiz uchinchi yilda Normandiyada tug‘ilganman.

— Demak, siz mendan to‘rt yosh katta ekansiz-da? — degan savol Oqmorolning javobni to‘g‘ri tushunmaganini bildirdi.

Blokvil kuldi.

— Men o‘ttiz uch yoshda emasman, Ohmorol. Men o‘ttiz uchinchi yilda tug‘ildim. Hozir bir ming sakkiz yuz oltmish birinchi yil. Men yigirma sakkiz yoshga kirganman.

— Iye, sen mendan kichik ekansan-da! So‘zingga oldin tushunmabman.

Shu payt Oqmorolning chehrasida qanday o‘zgarishning paydo bo‘lgani ko‘rinmasa-da, tutqun uni kulumsiradi, deb o‘yladi.

Yoshlarini bilib olishgach, ular o‘rtasidagi gap-so‘z ham to‘xtadi. Baribir, uxlay olmasligiga ko‘zi yetgach, Blokvil qizni bezovta qilmadi, uning o‘z yonidan ketishini ham istamadi. Qaytanga, u kulba eshigidan osmonda nur sochib turgan yulduzlarga qaradi-da, so‘zlash uchun bahona topganiga xursand bo‘ldi.

— Yulduzlarni ko‘ryapsizmi, Ohmorol? Osmonda har kimning o‘z yulduzi bo‘lar emish, shuni bilasizmi? — dedi.

Blokvilning ko‘ngil ko‘tarish uchun topgan bu iborasi suhbatga qo‘r bo‘lolmadi.

— Mening yulduzim yo‘q! — degan keskin gap suhbatga suv quyganday bo‘ldi.

— Albatta bor, Ohmorol. Sizniki bo‘lmasligi mumkin emas.

— Meniki yo‘q. Yerda baxtsiz bo‘lgan odamning, osmonda yulduzi bo‘ladimi?

Bu nima uchun asosiy gapga o‘tmayapti? Yoki G‘ulombek keltirgan xabar g‘iybatdan lazzat oladigan ayollar tomonidan o‘ylab

topilgan cho'pchakmikan? Shunday bo'lganda ham Ohmorol hozir mening yonimga huda-behudaga kelgan bo'lmasa kerak?

Nima bo'lsa-da, Blokvil yoqimsiz so'zni boshlashdan o'zini tiydi. U qorong'ida jim o'tirmaslik uchun so'zlashishga bahona izlardi. Gaplashishga bahona ham zarur paytda topilmas ekan. Shu sababli farangning:

— Ohmorol, siz erga tegdingizmi? — degan savoli birmuncha g'alatiroq eshitildi.

— Sen mening haqimda bilging kelyaptimi? — deganda Oqmorol go'yo jilmayganday bo'ldi.

— Inson o'zi hurmat qilgan eng aziz kishisining kimligini bilgisi keladi-da.

Oqmoroldan ancha paytgacha sado chiqmadi. Tutqun ham o'zining kimligini bildirishni xohlamagan ayolni qistamadi. U yana qanaqa savol topsam bo'lar ekan deb o'ylayotganda, Oqmorol so'zlay boshladi.

— Men o'n ikki yashar vaqtimda eroniylar bosqini bo'ldi va men qojorlar qo'liga asirlikka tushdim. O'n ikki yoshimda qiz bola holimda meni olib ketishdi, o'n besh yoshga yetganimda Erondan qiz holimda orqaga qaytish nasib etdi menga, Jorj...

Ana shu fursatlarda Hamza Mirza boshchiligida sarbozlarning Saraxs yaylovida turkman kelini bilan o'tkazgan Bekzodalar tomoshasi farang tutqunning esiga tushdi:

— Ular sizga qo'l tegizmay, orqangizga qaytardilarmi? — deganini o'zi ham bilmay qoldi.

— Buning shunday bo'lganligi bir Xudoga va bir mening o'zimga ayon. Bunga boshqa hech kim ishonmaydi. Shu sababli men baxtsiz bo'lib qoldim... Bir gal ular meni bittasi bilan nikohlamoqchi bo'lishdi. Rozi bo'lmadim. Ilk bor men rozi bo'lmaganim uchun shariat qonunini buzishmadi. Mardlik qilishdi. Keyin Abbosali sababli mening ko'nglimga qaraydigan bo'lishdi.

— Abbosali degani kim?

— Abbosali Xurosonda men bandilikda bo'lgan joyning katxudosi ekan. Uni turkmanlarning burkaz urug'i odamlari asir qilishgan ekan. Meni o'sha Abbosali bilan almashlashni ko'zlashgan ekan. Keyin almashlashdi.

— Keyin-chi?

— Men sening kutib turgan narsangni bilyapman, Jorj. Uni ham aytaman. Uch yil cho'rilikda, begona yurtda asirlikda bo'lib kelgan zaifa kimga kerak? Turkmanlar nomi qora bo'lgan zaifaga uylanmaydilar.

— Eronliklar mardlik qilishdi, dedingizmi?

— Ha, shunday bo'lgan. O'zing yomon bo'lgandan ko'ra, noming yomon bo'lgani chatoq. Ota-onam yo'q. O'zing bilgan tug'ishgan og'alarim bor. Yana eng yaqin qarindoshim bor. U meni yaylovga olib borgan tog'am bo'ladi. Ana shu qarindoshlarim himoyasida yuribman.

Oqmorol so'zini tugatgach, Blokvil:

— Bizning yurtimizda sizga o'xshagan zaifalarni... qari qiz deyishadi, — dedi.

— Bu so'z turkmanlarda ham bor. Peshonangga nima yozilsa, o'shani ko'rish buyurilar ekan.

— Peshona, peshona deb, siz endi qari qiz bo'lib yashayvermoqchimisiz?

Oqmorol yana chuqur xo'rsindi.

— Mening yashash-yashamasligim ma'lum emas. Biroq besh oy bo'ldi, endi men qari qiz emasman.

— Unda kimsiz?

— Hech kim.

— Buni qanday tushunish mumkin?

— Omadsiz bir zaifaman. — Birdaniga Oqmorol o'zining chegaradan chiqayotganini sezib qoldi va darhol sergaklandi. — Men nimalar deb vaysayapman-a?! Ha, men ham insonman. Kimgadir yuragimni ochishim kerak, axir. Bo'lmasa yuragim yoriladiganga o'xshaydi. Berahm yaqindan rahmli yot yaxshi...

Oqmorolning so'nggi so'zlari Blokvilning erkini qo'lidan oldi. U o'zining qayerdaligini esidan chiqarib, biroz oldinga surildi. Oqmorolning qo'llaridan ushladi. Qiz qo'llarini darhol tortib oldi.

— Rahmli yot berahm yaqinga aylanmoqchi bo'lyaptimi?

Qizning bu so'zlari farangni xijolatga qo'ydi. Blokvil o'zining qizarib ketgan yuzini qorong'ilikda Oqmorolning sezmaganiga quvondi.

— Meni kechiring, Ohmorol! Kechirasizmi?

— O'zim yorug' jahon bilan xayrlashmasam, qarindoshlarim... Uxlay olmagach, dardlarimni bir to'kay deb kelgandim yoningga.

— Men hech narsaga tushuna olmayapman, Ohmorol.

— Tushunmaganing ham yaxshi. Qo'li bilan qilgan, yelkasi bilan tortar ekan. Bularning bari qismatimda bor ekan. Men qismatga ishonaman, Jorj.

Egamurodning eshigi taraqlab ochildi.

Oqmorol turgan joyida qotib qoldi.

— Yangam tashqariga chiqdi, — dedi u.

Ko'p vaqt o'tmay, Egamurodning eshigi yana ovoz berdi.

Oqmorol o'ziga keldi.

— Yangam ichkariga qaytib kirdi.

Ana shu xabar Blokvilning Oqmorol og'zidan eshitgan eng oxirgi so'zi bo'ldi. Asirning kulbasi yana bo'm-bo'sh bo'lib qoldi.

50

Muhammadavaz polvonning ertalabki namoz vaqtida aytadigan Ollohu akbaridan so'ng atrofdagi uylarning bola-chaqasidan boshqa barcha odam o'rnidan turardi. Namoz o'qisin-o'qimasin yoshi katta turkman bu damda o'rnida yotsa — borib turgan odobsizlik sanalardi. Blokvil ham keyingi paytlarda ana shu qoidaga amal qiladigan bo'lib qoldi. U ham doimo azon tovushidan uyg'onadi...

Bugun ham shunday bo'ldi. Namoz tugagach, tutqun tashqarini aylanib keldi. Shu vaqt Muhammadavaz polvon kulba tomonga kela boshladi. U Blokvilning yoniga kamdan kam kelardi. Shu sababdan ham hozir farang yigit xayoliga kelgan yomon fikrdan qo'rqib ketdi. Sen bizni el-yurtga sharmanda qilding! — desa, unga nima deb javob beradi? Men begunohman deganiga bular, baribir, ishonmaydi. Kecha tunda... Ohmorol nima sababdan boshiga kelishi mumkin bo'lgan xavf haqida indamadi ekan? Yoki bular allaqachon aniq bir qarorga kelishganmikan?

Muhammadavaz polvonning kulba tomon kelayotgan yo'li qisqargan sayin, farang tutqunning qo'rquvi shuncha orta bosh-

ladi. U o'zini har qancha qo'lga olishga harakat qilmasin, o'zini shu lahzalarda har qancha xotirjamday tutmasin, hozir qaltiray boshladi.

— Assalomu alaykum, og'abek! Ertangiz xayrli bo'lsin!

— Vaalaykum assalom, farang mulla. Omon-eson turdingmi?

Oqsoqolning yuziga ko'zi bilan, ovoziga qulog'i bilan baho bergan Blokvilning ko'ngli joyiga tushganday bo'ldi. Chunki yoshullining yuzida qahr, ovozida g'azab ohangi yo'q edi. Aksincha, polvon oldingilardan ham muloyim salomlashdi. Blokvil bunga hayratlandi.

Uch-to'rt oy bundan oldin ekinzorda ishlab yurganida, uning ishini kuzatgan yoshulli gap-so'z orasida: "Farang mulla, biz seni uylantirsak nima deysan?" — degandi. — Agar sen o'z diningdan chiqib, musulmon dinini qabul qilsang, biz seni uylantira olamiz. O'shanda Blokvil: "Agar sizga o'z diningizdan qaytib katolik diniga kiring desam, uni qanday qabul qilardingiz?" — deyishi bilan yoshulli mot bo'lgandi. Vaholanki, Muhammadavaz polvon hazil qilmagan, astoydil, chin yurakdan gapirgandi. Umuman, o'shanda farang yigit yoshullining hazillashmaganini, yuragida yo'q narsani tilga hech qachon olmasligini tushungandi... Ammo hozir Muhammadavaz polvon: "Mulla farang, gunoh ish qildingmi, endi mardona bo'l. Sen Oqmorolga uylanishga majbursan!" — desa, unga qanday javob berish kerak? Agar u Oqmorolga uylanishga rozi bo'lsa, o'z dinidan ham chiqishi shart-ku. Musulmon diniga kirmasa, uni Oqmorol bilan nikohdan o'tkazishmaydi. Nikohlashmasa, Oqmorolni o'ldirishadi. Bular pulni olgunlaricha meni o'ldirmasliklari mumkin. Biroq Oqmorolni o'ldirishlari aniq. Meni esa... Jorj Blokvilni esa izidan pul kelib, tovon puli olingach ham o'ldiraveradilar. Baribir, bular jonga jon olmasdan qo'yishmaydi. Ozodlikka chiqib, o'z yurtiga xotirjam ketayotgan kapralning orqasidan ikki nafar otliqni jo'natish qiyin emas-ku...

Blokvilning ichini tatalab, miyasini yeb yotgan bu xavfli taxminlar bu safar ham xato bo'lib chiqdi. Muhammadavaz polvon o'z uyi tomon qo'lini silkib:

— Mulla farang, ish-pishing bo'lmasa, ana u kigizning ustida bitta ot no'xtasi turibdi. Uning so'kilgan joylarini yaxshilab tikib

ber! O'zimning qo'limdan ham tikish keladi-yu, biroq hayf, ko'z endi yaxshi ko'rmay qolyapti! — dedi.

Buni eshitib ko'rsatilgan tomonga qushday uchib borib kelgan farang yoshullini quchoqlab olay dedi.

— Og'abek, siz meni aldayotganga o'xshaysiz! Telpakning bir dona junini qimirlatmay, uning ustidagi choynakni nishonga olgan ko'zingiz, no'xtani tikish lozim bo'lganda ko'rmay qoldimi?

Maqtovni eshitgan yoshulli erib ketay dedi, chin dildan xaxolab kuldi.

— Shoshib qolganda karning qulog'i ochiladi, ko'rning ko'zi... Kigizning ustida ip, bigiz, mum bor...

Asosiy tashvishni orqaga tashladim deb o'ylagan farang tutqun, uyning soya tomonidagi kigiz tarafga yengil qadam tashlab ketdi.

Blokvilning surat, xarita chizib o'rgangan qo'llari, barmoqlari igna-juvoldiz ushlashga ham usta edi. Bundan bir hafta oldin faranglik Egamurod kun bo'yi urinib, eplay olmagan egarni ozgina vaqtning ichida gulday qilib qo'ldan chiqargandi. U anchadan buyon qo'ni-qo'shnilarning teshilgan qumg'oni-yu choynaklarining jo'mragini chegalashmi-yamashmi, nima olib kelishsa, shuni tuzatib o'rganib qolgan, bunday ishlarni u havas bilan, qoyilmaqom o'rinlatardi. Chunki unga vaqtni o'tkazish uchun bunaqa ishlar havoday zarur edi.

Blokvil mumlangan ipni juvoldiz teshigidan o'tkazib ishni boshlayman deb turganida, kunchiqar tarafdan kelayotgan to'riq otliqqa ko'zi tushdi. Bu yoshulli uy ichidagilar ham eshitsin dedimi, qora uyning soyasida no'xta tikib o'tirganning salomiga hayqirib alik oldi.

Mehmonning yuzi qahr-g'azabdan bo'zarib ketgan edi. Uning juda hurmatli odam ekanligini uydan chiqqan Egamurodning qo'l qovushtirib salom berishidan bilsa bo'lardi.

Blokvil otdan tushgan odam o'zi bilan ham qo'l olishib ko'rishsa kerak deb o'ylab, qo'lidagi abzallarni kigiz ustiga qo'ydida, qo'l uzatishga tayyorlandi. Ammo bu badjahl odam Egamurodning: "Yoshulli bu uyda", degan xabaridan so'ng soyada turganga e'tibor ham bermay, Muhammadavaz polvonning uyiga burildi.

O‘rtadagi eshik ustiga kigizsimon yopinchiq tashlangan bo‘lsada, uy ichidagi suhbat tashqariga bemalol eshitilib turardi. Ichkaridagilar odatdagiday salom-alik qilishgach, uzoq vaqt jim qolishdi.

— Urushning kengashi bo‘lmaydi, polvon og‘a! — so‘z boshladi so‘ng mehmon. — Bu yerda tushunarsiz hech narsa yo‘q. Sir deb saqlamoqchi bo‘lganimiz ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgach, sirligini yo‘qotadi. Bu xabar biz tomonlarga ham yetib bordi.

— Ha, shunday. El-yurtga sharmanda bo‘ldik, Yaylimxon! — deb Muhammadavaz polvon bo‘g‘iq ovozda gapirdi.

Mehmonning nomi Yaylimxon ekan, — deb Blokvil ichida pichirladi. — Nomining keyiniga xon qo‘shilgan ekan, u hech bo‘lmaganda o‘z urug‘ining katxudosi bo‘lsa kerak.

— Gunohkorni topish lozim! — Bu Egamurodning ovozi edi.

— U gunohkor kim ekan? — mehmonning so‘zi keskin chiqdi. — Qarindosh men uchun ham, siz uchun ham teppa-teng qarindosh. U mening jiyanim bo‘lsa, sizlarning singlingiz! Shu sababli ochiq gaplashaylik. Qanjiq dumini o‘ynatmasa, it uning iziga ergashmaydi...

Qanjiq deyilgani tushunarli, demak gap Oqmorol to‘g‘risida ketayapti. Mehmon — qizning tog‘asi ekan-da. Blokvilning ko‘zi bigiz bilan juvoldizning uchida bo‘lsa ham, qulog‘i uy ichiga qaratilgan edi. U ichkarida boshlanayotgan bo‘ronning shamoligacha qo‘ldan chiqarmay, barchasini bilgisi-eshitgisi kelardi. Albatta, yuz bergan voqea juda ko‘ngilsiz edi. Ammo yevropalik kapralning voqeaga baho berishiga ko‘ra, odam bunchalik o‘zini o‘tgacho‘qqa uraverishga hech qanday asos yo‘q. Inson faqat o‘z yuragi buyurganini qilishi kerak.

Bular el-yurt ko‘zidan uyalar emishlar! El-yurtga nima, gap-so‘z yo‘q joydan gap-so‘z topadi. Umuman, farangga qolsa, el-yurt deyilgan to‘daga mutlaqo quloq solmaslik lozim. El-yurt deb atalgan to‘da uch bo‘lakdan iborat bo‘ladi. Uning asosi — qo‘lidan, tilidan hech nima kelmaydigan ko‘pchilik. Ikkinchi bo‘lak — ishi ko‘pligidan hech nimaga e’tibor bermaydigan ozchilik. Uchinchi bo‘lak — o‘sha ikki bo‘lak nomidan gapirib, bundan unga, undan bunga gap tashib, o‘z manfaati yo‘lida foyda ko‘zlay-

digan muttahamlar. Shuning uchun ham inson faqat o'z qalbiga quloq solishi shart... Ammo nachora, faranglik tutqun nimalar haqida xayol surmasin, nimalarni o'ylamasin, har bir elning o'z qonun-qoidasi, o'z urf-odati bor ekan...

Egamurod uydagi erkaklarning ichida yoshi eng kichigi bo'lsada, o'z aytganini o'tkazishga harakat qilardi. U mehmon bilan bahsga kirishganida ham ovozi juda dag'al chiqdi.

— Quyruq ko'rganda quyruq egalarini hurmat qilmagan itning boshini eng oldin kesishimiz shart!

— Kim ekan, u ko'ppak?

Muhammadavaz polvon shunday savol bergan ekanmi, demak, G'ulombekning farangga olib kelgan xabari noto'g'ri bo'lsa kerak-ov...

— O'zidan so'rab ko'rmadingizmi?

— So'ramoqchi emasmiz, — deb Egamurod Yaylimxonga javob berdi. — Boshimizgacha sharmandalik loyiga botganimizdan so'ng, so'roq-tekshiruv qilishdan foyda yo'q. Siz ham kelgan ekansiz, Yaylim og'a, ishni uzoqqa cho'zib yurishning keragi yo'q. Agar sizda rahm-shafqatlilik ustun bo'lsa, bu ishni amalga oshirishni menga buyuringlar!

— Bu voqea aniq bo'lguncha, Qo'ng'irdan boshqa joyga jo'natib yuborsak qanday bo'ladi? — Muhammadavaz polvon endi yumshoq ohangda gapira boshladi.

Qiziqqon Egamurod Yaylimxondan ham oldin qichqirdi:

— Nima deyapsiz, og'a?! O'zini Qo'ng'irdan chiqarib yuborganimiz bilan, sharmandaligimizni nima qilamiz?!

— To'g'ri aytyapsan! Sharmanda bo'lganimizni qopga tiqib olib ketib bo'lmaydi, polvon og'a...

Mehmon ham Egamurodni qo'llab-quvvatlayapti. Yoshullining holiga hech kim e'tibor bermayapti...

— Men boshqa bir narsani taxmin qilyapman. — Gapirayotgan Egamurod edi. — Agar tuhmat qilayotgan bo'lsam, gunohimni Xudo kechirsin... O'tgan haftada farang havo olish uchun kulbasidan tashqariga chiqib ketganida, uning yotadigan joyiga kirdim. Somonning orasidan ichida ovqat yuqi bor bir idish chiqdi.

Idishni u yerga kim olib borgan? Uning kunduz kunlari kulbaga mutlaqo e'tibor bermasligini bilamiz. Demak, tunda yashirinib borgan... Fe'li to'g'ri bo'lsa, idishni nima uchun bekityapti? Gunohkor, menimcha, o'sha tutqunning o'zi bo'lishi kerak...

Blokvilning qo'lidagi bigiz no'xtaga emas, faranglikning chap qo'lidagi o'rta barmoqqa sanchildi. U birdaniga og'riqni sezmadi. Bigizni orqaga tortib olganidan so'ng bigiz orqasidan toshib chiqqan qip-qizil qon tutqunning kaftiga oqib tusha boshladi.

— Suv ko'rmay, ishtonimizni yechsak, u oldingi sharmandaligimizning ustiga qo'shilgan chipqon bo'lishi mumkin! Menga bir hafta, yarim hafta vaqt bering. Men o'zim u bilan bir og'a sifatida so'zlashib ko'ray. Ayb qilgan bo'lsa, aybiga yarasha jazosini olar. Bo'lmasa, nohaq to'kilgan qonning gunohiga botib qolamiz. Bunday qonning gunohi azim bo'ladi.

Xuddi shu bugun nihoyasiga yetadigan umri yana bir haftaga uzayganini anglagan Blokvil, Muhammadavaz polvonning so'zlaridan so'ng barmog'idagi og'riqni seza boshladi. U qonli barmog'ini og'ziga soldi.

— Gapni cho'zmaylik, polvon og'a! Haftalab, oylab vaqtni uzaytirsak, o'zingiz kindik ona bo'lib qolmang tag'in. Keyin, odamlar orasida qanday yurasiz, axir? Shu sababli sizga bir hafta emas, bir kun fursat beraylik. Men ertaga kech oqshom yetib kelaman. O'shangacha masalani yechmasangiz, uni tun qorong'iligida saronjomlab qo'ya qolamiz. Obro'yingizni o'ylaylik, polvon og'a. Yaylimxon ham qolgan umrini or-nomus tagida o'tkazishni istamaydi. Imonsiz men bo'lib qolay. Or-nomusim kuygandan ko'ra, imonim kuysin...

Agar eshigingizda saqlab yurgan qulingiz qizning nomusiga tekkan bo'lsa, sizning gunohingizni ham men bo'ynimga olaman. Sizga yana bir kun fursat unda...

Yashaydigan umrining bir kuni qolgan Blokvilni ichkaridagilarning boshqa gap-so'zlari endi qiziqtirmay qo'ydi. U nima qilishini bilolmay, tikayotgan no'xtani bo'yniga osdi-da, kulbasi tomon jildi. Yurib borar ekan, bo'ynidan osilgan no'xta bo'g'zidan bo'g'ib, nafas oldirmayotganday tuyula boshladi...

51

Kayfi oshib qolganday chayqalayotgan Blokvilning nimadir qilishgayam aqli yetmay qoldi. Uning boshi guvillab, quloqlariga bir narsa tiqilganday edi. Anchadan beri davom etib kelayotgan bosh og'rig'idan so'ng sochlarining tagi sovqotganday bo'ldi. U issiq kulbada boshining sovqotganini yomon xosiyat deb hisobladi, qon bosimim o'zgargan bo'lsa kerak, deb sochini kafti bilan taradi. Sochlarining ham yarmi oqarib ketgandir?

Uning kechadan beri tortgan azoblarini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi...

Farang tutqun shu holatida ham tashqaridan ko'zini uzmasdi. U Muhammadavaz polvonning kulbaga kelishini yoki o'zining chaqirilishini kutib o'tirardi. Biroq yoshulli peshingacha bir necha bor tashqarida ko'ringan bo'lsa-da, tutqun tomonga e'tibor qilmadi. Yoshulli nima sababdan suhbatni boshlamay, orqaga tashlamoqda? Bu bilan qayerda nimani yutmoqchi? Yoki o'zim uning yoniga borsammikan? Yo'g'-e, bu fikring noto'g'ri, Jorj!..

Blokvil shundan so'ng turkmanlar o'zlari so'z ochmagunlaricha, hech narsani bilmaganday yuraverishga ahd qildi.

Farang tutqun shu lahzalarda atrofida Muhammadavaz polvon singari turmushning kutilmagan o'yinlarini pisand qilmay, bariga sovuqqonlik bilan, xotirjam nazar tashlaydigan oqsoqolning borligiga ming bor shukur qildi. Ana shu ham Xudoning menga rahmi kelgani bo'lsa kerak! Bo'lmasa qiziqqon turkmanlar, allaqachonoq yo'lbarsning oyoq sanashiga o'xshagan o'yin qilishlari mumkin!

U Parijdagi bir hazilkash do'stining davralarda ko'p takrorlaydigan latifasini hozir, shu damda yana esga oldi. Latifada aytiladiki, bir quyon o'rmonzorda qochib borayotgan ekan, oldidan ikkinchi bir quyon chiqib, qochishining sababini so'rabdi. Orqamdan yo'lbars quvlab kelyapti! U kimning oyog'i beshta bo'lsa, o'shaning boshini yemoqchi! — deb javob beribdi qochib borayotgan quyon. — Unday bo'lsa, sen nimaga qochasan? Sening

oyog‘ing beshta emas-ku, axir?! — deb ikkinchi quyon hayron qolibdi. Shunda qochib ketayotgan quyon: ey qarindosh, yo‘lbars oldin oyoqlaringni gavdangdan ajratib olib, undan keyin sanay boshlaydi-da, deb yana qochishda davom etgan ekan...

Blokvil ham qiziqqon turkmanlarni o‘sha oyoq sanaydigan yo‘lbars bilan qiyosladi. Ular ham, avvalo, boshingni kesib, undan keyin gunohkor yoki gunohkor emasligingni tekshirsalar kerak...

Yoz faslining oftobi tikka kelib kuydira boshladi. Yoz chillasi kirgan payt. Shunday issiqdan so‘nggina farangning bosh og‘rig‘i kamayib, qon tomirlarining zarbi sal mo‘tadillashdi. U yana qog‘oz-qalamlarini qo‘liga oldi. Katta daftarini ochgan edi, Oqmorolning jilmayib turgan surati chiqdi. Tutqun bir paytlar irim qilib, uning kulib turgan suratini chizgan edi. Durmarvaridday bo‘lib qatorlashib turgan oppoq tishlar Oqmorolning go‘zal chehrasiga yanada ko‘rk qo‘shib yuborgan. Blokvil suratga qarab turganicha: “Men hech narsaga tushunmayapman, Ohmorol!” — dedi ingrab. — Siz nima uchun o‘zingizni o‘zingiz qiynayapsiz? Siz nima uchun meni ham qiynayapsiz? Siz nima uchun bu ishda men bilan birgalashib chora izlamayapsiz? Surat, albatta, jim edi. U jim turgan holida ham go‘zal. Nafis qilib chizilgan rasm gunohkor bo‘lmasa-da, farang yigit rasmni mayda-mayda qilib yirtib tashladi. Kulbadan Oqmorol olib kelgan idishni qidirib topgan Egamurod, daftardagi sohibjamol qiz suratini ham topib olishi so‘zsiz...

Chanqatadigan ovqat yemagan bo‘lsa-da, farang tutqin hozir negadir suv ichgisi keldi. U kulbadan uyalib-qo‘rqib chiqdi-da, quduqqa tomon yurdi. Xuddi gaplashilganday, shu payt Muhammadavaz polvon ham uyidan tashqariga chiqdi. U go‘yo tutqun bilan so‘zlashib olmoqchiday edi. Biroq quduqqa tomon ikki-uch qadam tashlagan qariya birdan to‘xtadi.

Ko‘cha yo‘li tomonidan siyrak soqolli, sariqdan kelgan yoshulli odam, qirq yoshlar atrofidagi uzun bo‘yli, ot yuzli bir kishi paydo bo‘ldi. Ular to‘g‘ri yurib Muhammadavaz polvonning yoniga kelishdi. Ikkala oqsoqol omonlashib, soqollarini siypalashdi, sog‘lik-omonlik so‘rashishdi.

Ular bir-birlarini tanimay turganliklari aniq edi. Shunga qaramay, uy ichidagilar, mol-hol, qo'ni-qo'shnilarning salomatligi so'ralishini quduq boshida turgan Blokvil bilardi.

Turkmanlarning urf-odatiga ko'ra, kelgan odamlar notanish bo'lsa-da, Muhammadavaz polvon ularni uyga taklif qildi. Biroq siyrak soqolli oqsoqol taklifni qabul qilish o'rniga:

— Sizning davlatli o'chog'ingiz ostonasidan hatlamoqqa bizning ham haqimiz yo'q, polvon, — deb kutilmagan javobni qaytardi.

— Bu nima deganingiz, birodar? — Muhammadavaz polvon hayron qolib, yana maqol ishlatdi. — Uyga kirgan jayronning ikki shoxidan boshqa gunohi bo'lmaydi, soqoldosh!

— Bizlarning begunoh jayronligimiz hozircha aniq emas. To'g'risini aytsam, bizlar boshidan tovonigacha gunohga botgan odamlarmiz. Shu sababli, tashqarida turib suhbatlashaveraylik...

— G'aroyib mehmon ekansiz-da, o'zingiz?! — polvon og'a jilmayishga urindi. — Gunohi bor kishilar, aybdor odamlar bugungiday jazirama issiqda mehmondorchilikka keladimi?

Kelgan yoshulli aytmoqchi bo'lgan gaplarini oldindan tasdiqlaganday, boshini qimirlatdi:

— Biz gunohimiz bo'lgani uchun keldik, soqoldosh!

G'alati mehmonlarning gunohkorona xabarini eshitishga chog'langan polvon endi sergaklanib:

— Unday bo'lsa, shu yerda aytaveringlar! — dedi.— Sizlarga ruxsat!

Shu payt otxona tomondan kelgan Egamurod mehmonlar bilan ko'rishib, sog'lik-omonlik so'rashdi.

— Bu mening ukam bo'ladi! — deya yoshulli Egamurodga tomon imo qildi, — ismi Egamurod.

— Bizlar kimning Egamurodligini, kimning Muhammadavaz polvon ekanligini allaqachon surishtirganmiz! — deya kelgan yoshulli barcha narsadan xabardorligini oldindan bildirdi.

Mehmonlar nigohlari o'ziga tomon tushganini sezgan Blokvil yana boshini egib ular bilan salomlashdi, biroq ularning yoniga borib qo'l olishmadi. Ish bilan band odamday, quduqning boshidan ketmay turaverdi.

— Xabaringizni aytavering, mehmon. Mening ukamdan yashirin gapim yo'q.

— Bizlarning aytmoqchi bo'lganimiz iningizga ham taalluqli bo'lgani uchun qaytanga buning ham kelgani yaxshi bo'ldi... Bu ham mening ukam! — Yoshulli mehmon kelganidan buyon ovozini chiqarmay, yuzini yerga qaratib turgan sherigiga nazarini burdi. — Ismi Jo'raquli. Ana og'alar, inilar, bahor paytida Jo'raquli bizning yuzimizni yerga qaratdi. Undan ham yomoni — sizlarni or-nomus tagida qoldirdi. Endi, bo'lar ish bo'lib o'tdi. Bizlar boshimizni etagimizga solib keldik. Mening bundan boshqa aytishga-so'zlashga tilim bormayapti. Ahvol sizlarga ham, bizlarga ham ma'lum.

— Bundan kelib chiqdiki, —. deb soqolini siqimlagan Muhammadavaz polvon Egamurodga qaradi. — Xizr deganimiz xirs (ayiq) chiqibdi-da!

Egamurod ovozini chiqarmay o'z uyiga kirib ketdi.

— Ahvol mana shunaqa, soqoldosh, — deya mehmon polvonga qaradi. — Endi bizlar sizlarning javobingizni kutamiz.

Muhammadavaz polvon bir nima demoqchi bo'lgan vaqtda, Egamurod uyidan chiqdi. Uning uyga nima uchun kirib chiqqaniga og'asi e'tibor bermagan bo'lsa-da, yoshulli mehmon diqqat qilgan ekan! U Egamurodning belidagi to'pponchaga qaradi-da:

— Sen, inim, to'pponcha olib kelding, shekilli,— dedi. — Turkmanda: "Qari ho'kiz qassobdan qo'rqmaydi", degan naql bor. Agar bizlar to'pponchadan, pichoqdan qo'rqadigan bo'lsak, ajalning ustiga o'z oyog'imiz bilan yurib kelmasdik. Bizlarni bu xonadonga qilmishimiz olib keldi. Qochib ham yurishimiz mumkin edi, yashirinib ham. Ammo bir nomardlik ustiga yana boshqa bir nomardlikni qo'shmaylik, deb keldik. Qolaversa, ikki tomon ham turkman bo'lgach...

Egamurod aniq javobni olgan bo'lsa-da, jim tura olmadi.

— Muddaoni ayting, bo'ladigan gapni, oqsoqol!

— Darhaqiqat, ko'p gapdan aniq gap yaxshi. Kechirib bilsangizlar, kechirim so'rab keldik. Qabul qilmaymiz desangizlar, mana, gunohkorning o'zini olib keldik. Qaysinisini qabul qilsan-

gizlar, ixtiyor sizlarda. Nimani ravo ko'rsangizlar, bizlar rozi. Qo'li bilan qilgan, yelkasi bilan tortar, degan naql bor.

Bir qo'lini beliga tirab turgan Egamurod kinoyali luqma tashladi.

— Siz, og'am, g'am o'g'riman, ham g'olibman degan naqlga rioya qilishni endi bu yerda esingizdan chiqaring! Siz ham bizning nomusimizni poymol qildingiz, ham ustimizga kelib o'z shartingizni qo'ymoqchi bo'lyapsiz. Bizga endi obro' kerak emas. Or-nomus kerak. Obro' to'kilib bo'ldi. Da'vogaring qo'ng'ir bo'lmasin, degan gapni eshitmaganmisiz?

Egamurodning dag'dag'ali so'zlariga yoshulli parvo qilmadi.

— Eng oldin shuni bilib ol, inim, bu ish da'vo-janjaldan kattaroq ish...

— Uni biz sizdan yaxshi tushunib turibmiz.

— Egamurod, jim bo'l! — deb polvon og'a qahr-g'azab bilan kesib gapirdi. — Obro'ning bari to'kilgandan yarmi to'kilgani yaxshi!

Kelgan yoshulli ham ko'pni ko'rgan oqsoqol ekan. U har bir eshitgan so'zini aql tarozusiga qo'yib, hammaning ko'nglini topib so'zlashga harakat qilardi:

— Qalbi qahr-g'azabga to'lgan kishining holatini biz ham tushunamiz...

— Biroq soqoldosh yaxshi gap aytdi:

— Zararning yarmidan qaytmoq ham foyda. Kechirimimizni qabul qilsangizlar, qizingizga egalik qilib, bizlar ham yomon gap-so'zlardan qutulardik. Undan tashqari, bu qismatdir, og'alar, inilar. Taqdirdan qochib qutulib bo'lmaydi. Shunday ishlar bo'ladi, deb biz yotsak-tursak ham miyamizga kelgan emas. Taqdir bo'lmasa, Yaratgan Egam uchrashtirmasa, bu ham, u ham bir paytda bir joyga yaylovga chiqarmidilar? Kelinglar, Xudoning xohishi bilan rozi bo'laylik!..

"Kelgan yoshullining bu ham degani — o'z inisi, u ham degani — Oqmorol bo'lsa kerak", deb o'yladi Blokvil. Bu gapdan xulosa chiqariladigan bo'lsa, Oqmorol bilan Jo'raquli bir-birlari bilan sahroda yaylovga borganda uchrashgan, bo'ladigan narsa o'sha yerda yuz bergan...

— Sizlarning ahvollaringiz qanday? — deb Muhammadavaz polvon shu gap bilan kechirganini bildirmoqni ma'qul topdi.

— Bizni, soqoldosh, ko'rib turibsiz. Jo'raquli uch muchalni to'ldirdi. Kelinimiz faqirning umri qisqa ekan, besh yashar qizini bizlarga qoldirib, boqiy dunyoga ko'chdi. O'zimiz chorvadormiz. Tirikchiligimiz mol-holning orqasidan o'tib turadi. Juda boy ham emasmiz, o'taketgan kambag'al ham emasmiz, Xudoga shukur. Qozonimiz har kuni qaynaydi. Biz ham sizlar singari odamlar bilan qarindosh bo'lsak, Yaratgan Egamdan minnatdor bo'lardik. Qon hidi kelib turgan ish xayrli tamom bo'lsa — to'y qilib bermoqchiman. Sizlar ham...

Mehmonning tugatmagan gapidan: siz ham bizni qo'llab-quvvatlang, degan ma'noni uqish mumkin edi. Kelgan yoshullining har bir yaxshi so'zi, o'zini tutishi Muhammadavaz polvonning keksa qalbidagi g'azab istehkomini yiqitdi.

— O'zingiz qaysi urug'dan bo'lasiz? — deganida, Muhammadavaz polvonning ovozi nihoyatda muloyimlashdi.

— Bizlar, soqoldosh, arsarining ulutepa urug'idanmiz. Bo'layotgan joyimiz Qo'juqning bog'ida. Takalarning vakil qabilasining yusuf urug'i bilan qarindoshmiz. Qiz olib, qiz berishyapmiz.

Muhammadavaz polvon o'z uyini ko'rsatib:

— Qani, soqoldosh, uyga kiraylik endi! — dedi.

Yoshulli mehmon yengil qadam tashlab, polvon og'a taklif qilgan uyga tomon yurdi. Biroq Jo'raquli yoshullilarning orqasidan uyga kirmay, qora uyning soya tomoniga o'tib turdi...

Shu kuni oftob botayotgan mahali siyrak soqolli oqsoqol orqasiga ikki nafar ayolni ergashtirib, yana Muhammadavaz polvonning xonadonida paydo bo'ldi. Ko'p vaqt o'tmay uch nafar bo'lib kelgan mehmon yoshulli to'rt nafar bo'lib qorong'ilik ichida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Jorj Blokvil ana shundan keyin qaytib Oqmorolga duch kelmadi. U butun Qo'ng'ir qishlog'ida yakka-yolg'iz bo'lib qoldi.

52

Murg'ob daryosining chap qirg'og'idagi topazlar urug'igacha o'zimni jo'natadigan Abdal sardorning otliqlari bilan yo'lga tushdim.

Tevarak-atrofdagi uylardan yig'ilgan ko'plab kishilar meni ancha yo'lgacha kuzatib borishdi...

Jorj Blokvil xotiralaridan

1861-yil noyabr oyining so'nggi kunlaridan biri. Qovog'i qop-qorayib, hurpayib turgan qora bulut osmon bilan yerni birlashtirmoqchi bo'lganday zaminga engashdi. Tepadan xuddi ulkan qozon to'ntarib qo'yilganday edi. Dunyo nihoyatda zerikarli ko'rinadi. Ammo o'sha zerikarli, kishida g'amgin kayfiyat uyg'otadigan bo'g'iq kun Blokvilning asirlikda o'tkazgan o'n to'rt oyi davomidagi har kun, har soat, har soniya kutgan xushxabarni olib keldi...

Oqmorolning anchadan buyon eshigi ochilmagan qora uyining kunchiqar tarafida paydo bo'lgan Abdal sardor kulba og'zida turgan Blokvilga nazari tushib jilmaydi.

— Janob, men sizga xushxabar keltirdim!

Xushxabarning ma'nosi tushunarli edi. Chunki Blokvil necha vaqtlardan beri o'sha xushxabarni kutmoqda! Shu sababli ham Abdal sardor hozir unga qop-qora bulutni yorib chiqqan oftobga o'xshab ko'rindi. O'sha oftobdan ajralib chiqib, qalbiga o'rnashgan porloq muloyim shu'la farangning necha oylardan buyon muz singari junjiktirib turgan ichki dunyosiga harorat bag'ishladi. Osmondagi quyuq qora bulut surilib, olam charaqlab ketganday bo'ldi. U otdan tushib, o'ziga tomon kelayotgan Abdal sardorni quchoqlashga tayyorlana boshladi.

Abdal sardor otining jilovini sherigining qo'liga berdi-da, uydan chiqqan Egamurod bilan salomlashib, unga bir nimalar dedi. Keyin ikkalasi Muhammadavaz polvonning uyiga kirib ketishdi.

Blokvil o'zining Mashhadda yashayotgan yevropalik do'st-birodarlari yuborgan to'lov puli kelguncha Yusufxonning akasi, Abdal sardorning inisi va yana bir odamning Saraxsga keltirilib, garovga qo'yilganligidan hali bexabar edi. Abdal sardorning

manov oti, o'zini vataniga olib ketadigan jonivor ekanini qalban sezib turardi. Shu sababli oyoqlari kaltadan kelgan, ola-chipor, kulrang yolli ot uning ko'zlariga hozir dunyodagi eng ajoyib bedov bo'lib ko'rindi.

Abdal sardor olib kelgan xatini, xushxabarini Muhammadavaz polvonga topshirishga ulgurdimi-yo'qmi, voqealardan allaqachon xabar topgan tevarak-atrofdagi yosh-qari, erkak-ayol — barcha odamlar shu joyga yig'ila boshladi. Ular ichida hassa tutgan keksalar ham, bolalarini quchoqlagan, og'izlari yashmoqli ayollar ham, duch kelgan narsani oyoq kiyimi o'rnida kiyib olgan yarimyalang'och bolalar ham bor. Farang tutqun yerto'la qaziganda atrofida yig'ilgan bolalarning barchasi ham shu yerda. Blokvil ularning hammasini ko'zidan, yuzidan tanirdi, qadrdonlashib ketgan edi.

Yig'ilganlar orasida Qo'ng'irga birinchi kelgan kuniyoq bo'yniga ilon osib olib qattiq cho'chitgan Chaqon tentak ham bor. Bugungi voqeadan u ham xabardor bo'lsa, demak, endi butun Marv meni bilgan bo'lsa kerak!

Anovi qizcha — ulkan oq terak ustiga ko'mir bilan surati chizilgan O'g'iljahon nomli qizaloq. Uning boshidagi qizil ro'moli ostidan ko'rinib turgan sochlari hozir ham dikkayib turibdi. Ko'zlaridan yoshlari to'kilay-to'kilay deydi. Nahotki, bu bolalar menga shunchalik o'rganib qolishgan bo'lsa?!

Blokvil ko'zlari to'rt bo'lib eshik ochilishini kutardi, nihoyat, eshik ochildi. U yerdan Abdal sardor bilan Egamurod chiqishdi. Egamurod o'z uyiga kirib ketdi. Abdal sardor esa kulba yoniga keldi.

Ikki nafar erkak kishining quchoqlashishlariga, bir-birlarining yuz-u yonoqlaridan bir necha bor o'pich olishlariga qo'ng'irliklar hayron bo'lib qarashdi.

Atrofdagilarga tushunarsiz tilda Abdal sardor bilan qilingan qisqa gap-so'zdan so'ng kulbasiga kirib ketgan Blokvil u yerda uzoq turmay darhol tashqariga chiqdi. Uning uchun zindonga aylangan kulbadagi mayda-chuyda narsalar ichidan qo'liga olib chiqqani — muqovasiga Turkman diyoridagi o'n to'rt oylik asirlik deb yozilgan qalin daftar edi.

Kayfiyati chog‘ Egamurod uyidan chiqdi-da, yengil qadam tashlab og‘asining uyiga o‘tdi. Astarsiz chakmonini har doimgidek yelkasiga tashlab olgan Muhammadavaz polvon ukasi bilan birgalashib farangning yoniga keldi.

Egamurod qo‘ng‘ir qo‘lidagi qo‘shog‘iz to‘pponchani unga uzatdi.

— Yarog‘ingni olib ket, mulla farang. Bu seniki edi...

To‘pponchani qo‘liga olib, biroz o‘ylanib turgan Blokvil uni Muhammadavaz polvonga uzatdi.

— Bu yarog‘ mendan sizga esdalik bo‘lsin, og‘abek! Sizga hamisha hurmatim baland, og‘abek...

Farangdan qo‘shog‘iz to‘pponchani[1] qabul qilib olgan Muhammadavaz polvon o‘ng‘aysiz holga tushib jilmaydi. U yarog‘ni qo‘liga olar ekan, yarim turkmancha, yarim forscha gapira boshladi.

— Sen bu yerda azob chekkaning ayni haqiqat, mulla farang! Asirni tutib turish uchun maxsus buyruq olganimiz haqida o‘zing ham bilarding. Ahvolimiz, kun-kechirishimiz hamin qadar bo‘lgach, sen ham biz bilan baravar yashab, jafo tortding, mehmon... Endi bularning barchasini esingdan chiqargin-da, o‘z yurtingga omon-eson borib yet! Ollohu akbar!

Keksa polvon shunday deb ikki kafti bilan yuzini siladi.

— Yo‘ling bexatar bo‘lsin! Yaratgan Egam seni panohida asrasin...

Blokvilning boshidan kechirgan kunlari hech qachon esidan chiqmaydigan voqea bo‘lsa-da, Muhammadavaz polvonning chin ko‘ngildan aytgan so‘zlari hozir uni titratib yubordi, keksa polvonning hali ham baquvvat qo‘llarini qo‘shkafti bilan mahkam qisdi-da, atrofdagilarga qaradi. O‘ziga tikilib turgan yuzlarcha ko‘zlar ichida u shu mahalda o‘zi uchun nihoyatda aziz bo‘lib qolgan o‘sha sohibjamol qizni — Oqmorolni, uning qora ko‘zlarini izladi. Ming afsuski, u shunday sohibjamol, ko‘ngli go‘daknikiday

---

[1] Jorj Anri Gulibef de Blokvilning qo‘shog‘izli to‘pponchasi Muhammadavaz polvonning hozir Mari tumani “Haqiqat” jamoa xo‘jaligida yashayotgan nabiralaridan biri — Qaqageldi Jummiyevning xonadonida oilaviy mulk, esdalik sifatida saqlanmoqda *(muallif izohi)*.

musaffo, pokiza turkman go'zali bilan insonlarga xos vidolasha olmadi. Bunga Oqmorol ham, Blokvil ham aybdor emasdi. Kapral buni tushundi. Qayerda bo'lmasin, bundan buyon oq yuzli Oqmorolning chehrasini mutlaqo ko'ra olmasligini his qilgan kapral armon bilan chuqur xo'rsindi... Baxtli bo'lsin, ishqilib, Ohmorol!

Taqdiriga qonli sayohat yozilib, vahshiydan vahshiy, jirkanchdan jirkanch fojialarni boshidan kechirgan, ilk bor turkman tuprog'ida fransuz tovonining izini qoldirgan Jorj Blokvil yana Ardarbant sahrosiga bir nazar tashlagisi kelib qoldi. U inson nazari yetmaydigan masofada yastanib yotgan Xuroson pasttekisliklari uzra kunbotar (g'arb)ga tomon ot yugurtirishga shaylana boshladi. Chunki u tomonlarda rahm-shafqatsiz turmush mashaqqatlaridan xo'p ta'zirini yegan kapralni ikki yildan buyon go'zal Parij shahri kutib turardi...

Mari — Moskva — Parij — Ashxobod.
1993–1995-yillar

MUNDARIJA

Qismat shamoli. *(Muzaffar Ahmad)* 3

Otajon Tog'on

Begona. *Roman.*
Masharip Safarov va Muzaffar Ahmad tarjimasi 6

O-86 Otajon Tog‘on [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Muhiddin Rahim. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 368 b.
ISBN 978-9943-8721-4-1

UO‘K 821.512.164-3
KBK 84(5Tur)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

OTAJON TOG‘ON

97-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Odil Ikromov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 23,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 21,78.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 163-1/22. Buyurtma raqami № 22-380

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

OTAJON
TOG‘ON